



B. MIRKOMILOV, F. AQCHAYEV, O. MAMIROV

# O'RTA ASRLAR TARIXI

*O'quv qo'llanma*

TOSHKENT  
«MASHHUR-PRESS»

2016

Handwritten: *Koncept Amblek*

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5Y)7

T 91

**O'rta asrlar tarixi [Math]: O'quv qo'llanma / -Toshkent:**  
**«MASHHUR PRESS», 2016. –360 b.**

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:

*B. M. Mirkomilov, F. Sh. Aqchayev, O. B. Mamirov*

Mas'ul muharrir:

*Tarix fanlari doktori, professor F. A. Axmedshina*

Taqrizchilar:

P. Berdibekov – Jizzax viloyat pedagogik xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti.

R. R. Nurqulova – JDPI, tarix fanlari nomzodi, dotsent,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tariximizni qayta yozish, haqqoniy tariximizni keng jamoatchilik, o'quvchi va talabalarga yetkazish uchun salmoqli ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu yillar davomida «O'rta asrlar tarixi» bo'yicha haliga qadar tarix fakultetlari talabalariga darslik yaratilgani yo'q. Ushbu o'quv qo'llanma tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u talabalarga O'rta asrlar tarixidan qisman bo'lsa-da ma'lumot berishiga ishonamiz.

*O'quv qo'llanma Institut Ilmiy kengashining 2016-yil yanvar oyidagi №5 yig'ilishida muhokama qilinib tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.*

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5Y)7

ISBN: 978-9943-4687-1-9

TOSHKENT  
«MASHHUR-PRESS»  
© «MASHHUR-PRESS», 2016

## KIRISH

Tarix – bu xalq xotirasidir. Xotirasiz kishi barkamol bo'lmagani-dek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo'lmaydi. O'tmishni bugun yaratib bo'lmaydi, o'tmish bugunni yaratadi. Tarixdagi har bir ijtimoiy yuksalish, avvalo, jamiyatning o'z merosiga, o'z o'tmishiga bo'lgan munosabatini isloh qilishdan boshlangan. O'tmishga murojaat qilishdan avval unga bo'lgan munosabatni to'g'ri va haqqoniy belgilab olish kerak. Busiz tarixni xolisona yaratish ham, o'rganish ham mumkin emas.

Shu boisdan ham bugungi kunda jahon tarixiga bo'lgan qiziqish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma mavzularga ajratilgan holda berilgan bo'lib, keltirilgan ma'lumotlarning o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida har bir mavzu so'ngida nazorat savollari va topshiriqlar berilgan. Ularning aksariyati o'quvchining mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Shuningdek, topshiriqlar o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy malakalarini oshirib borishga yo'naltirilgan. Bular orasida soddalari bilan birgalikda, o'quvchilarning diqqati, fikr-mulohazasini talab qiladigan nisbatan murakkab tuzilgan savol va topshiriqlar ham mavjud. Topshiriqlarni qo'llanmaning turli qismlarida: yangi matireallarni tushuntirish, o'quvchilarning o'tgan darsni qanday o'zlashtirganini aniqlash yoki uy vazifasi sifatida bajarish mumkin. Bunga har bir o'quvchi o'zining shaxsiy tajribasi, bilimi va mahorati bilan yondashadi. O'quv qo'llanmada keltirilgan tushunchalar, sanalar bilan bir qatorda zarur paytlarda lug'atlar, xronologik jadvallar, xaritalar va boshqa yordamchi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur o'quv qo'llanmani yaratishda so'nggi yillarda nashr qilingan adabiyotlardan foydalanildi. O'quv qo'llanmada atamalar izohlari, xronologik jadval keltirilgan bo'lib, ular shu davr tarixini o'rganishda talabalarga yordam beradi deb o'ylaymiz.

## 1-MAVZU: O'RTA ASRLAR TARIXI KURSINING PREDMETI, MANBALARI VA UNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

### REJA:

1. O'rta asrlar tarixi kursining predmeti, maqsadi va vazifasi.
2. O'rta asrlar tarixini davrlashtirish muammollari.
3. O'rta asrlar kursining manbalari.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** O'rta asrlar tarixi, tarixshunoslik, quldorlik, feodalizm, davrlashtirish, ashyoviy manbalar, yozma manbalar, O'rta asrlar tarixini o'rganishning ahamiyati.

### 1. O'rta asrlar tarixi kursining predmeti, maqsadi va vazifasi.

Tarix fani bugungi kunda har qachongidan ham e'tiborga molikdir. Mamlakatimiz taqdirida nihoyatda muhim bo'lgan ushbu davrda har bir sof vijdonli, vatanparvar shaxs unda faol ishtirok etishi, mavjud muammolarning kalitini, yechimini axtarishi lozim. Bu kalit – jahon xalqlarining ko'p asrlik tarixidir. Tarix sahnasida inson o'zining fazilatlarini va nuqsonlarini bilan hamisha asosiy omil bo'lib kelgan. Shu sababdan o'tmishni jonli, doimiy rivojlanishda bo'lgan mujassam birlik, ya'ni insoniyat tarixini bilmay turib, biz bugungi kunni tushunishimiz, bo'layotgan jarayonlarni anglab yetishimiz qiyin bo'ladi.

Jahon xalqlarining o'tmish tarixini o'rganganimizda, bizga uzoq vaqt singdirib kelingan g'oya – tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan baholash yoki noo'rin bo'rttirib ko'rsatishlardan saqlanmog'imiz zarur. Sababi, qadimgi dunyo va o'rta asrlar davrida siyosiy vaziyat, mafkura doirasi o'zgacha bo'lganligi hammamizga ma'lum. Qolaversa, davr mahsuli: tarixiy shaxslar, oddiy fuqarolardan tortib qirollargacha – hamma-hammalarining o'z g'oyalari, tushunchalari, maqsad va intilishlari bo'lganligi tabiiy. O'tmishdagi har bir jamiyat o'zidan avvalgisiga nisbatan ilgariroq bo'lib, unda yashagan barcha insonlar hamisha yaxshilikka, ezgu niyatlar sari intilganlar. Tarixiy taraqqiyot insoniyatning asrlar osha to'plagan bilimlari, ongi, maqsadlari, talablari ko'payib borishi bilan uzviy bog'liqdir. Biz o'rta asrlar tarixini chuqur o'rganish borasida o'zimiz uchun ushbu qonuniyatlarni yana bir

bor kashf etamiz. «O'rta asrlar» degan termin deyarli yangi termidir. Bu termini XVI–XVII asrlarda o'tgan gumanist-tarixchilar kiritgan bo'lib, ular ham buni o'z navbatida gumanist-filologlardan olganlar. Gumanist-filologlar lotin tilini qadimgi, o'rta va yangi (Renessans yoki Uyg'onish davri – yangi davr deb atalgan) til deb, uchga bo'lganlar. Bu terminologiya XVIII asrda uzil-kesil qaror topdi.

Tarixshunoslik ilmida o'rta asrlar tarixi uzoq davrni, milodning V–XVII asrlarini o'z ichiga olib, uni dunyo xalqlarining deyarli hammasi o'z boshidan kechirgan. Ma'lumki, qadimgi dunyo quldorlik jamiyati Sharq dunyosida vujudga kelib, Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy mamlakatlarida o'zining yuksak taraqqiyotiga erishgan. Uning so'nggi davrida yuksak rivojlanish markazi asta-sekin G'arb dunyosiga ko'chdi. Feodalizm jamiyati esa xuddi shu insoniyat tarixida muhim o'ringa tutgan Yevropa mamlakatlarida ayniqsa tez rivojlanib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Quldorlik jamiyati g'oyalarining yuksalishini, unda paydo bo'lgan qarama-qarshiliklarni, uning tanazzulini milodning V asridan boshlab biz asosan Rim quldorlik imperiyasi misolida o'rganishimiz mumkin. O'rta asrlar tarixidagi eng muhim voqealar qatorida xristian va islom dinlarining paydo bo'lishi va keng tarqalishini alohida ta'kidlash lozim. G'arb mamlakatlari feodal jamiyati, davlatchiligi hamda madaniyatida xristian dinining hukmron dinga aylanishi qanchalik ahamiyat kasb etsa, islom dinining qaror topishi va tarqalishi ham Sharq dunyosidagi yuksak madaniyatning vujudga kelishida shunchalik hissa qo'shdi. O'rta asrlar renessansi, uyg'onish davrining jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissasi benihoya kattadir. Sharq va G'arb dunyosining buyuk allomalari madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdilar.

Tabiiy, feodalizm taraqqiyoti davri faqat ijobiy voqealardan tashkil topmagan. Insoniyat tarixidagi hech qanday jamiyatda hukmron sinf vakillarining shaxsiy erkinliklari va huquqlari feodal jamiyatidagi kabi cheksiz xudbinlik darajasiga ko'tarilmagan. O'z navbatida, oddiy fuqarolarning ahvoli esa feodalizmdagi kabi og'ir va tahqirli bo'lgan emas. O'rta asrlarda jahon xalqlari o'z boshlaridan ko'plab kulfatlarni: ocharchiliklar, o'latlar, urushlar va talonchiliklarni kechirganlar. Ular o'zlarining tahqirli, og'ir hayotlarini o'zgartirish uchun qo'zg'olonlar qilganlar.

Shunday qilib, o'rta asrlar tarixining predmeti jahon xalqlari tarixidagi quldorlik tuzumini hamda feodalizm davrini o'rganishdir. O'rta asr Yevropasi tarixi Rim quldorlik imperiyasining qulashidan boshla-

nadi. Bu imperiya ichki qarama-qarshiliklar natijasida, ya'ni quldorlik xo'jaligining inqirozi, sinfiy kurashning g'oyat keskinlashib ketganligi, Italiyaning zaiflashib ketganligi hamda iqtisodiy va siyosiy aloqalarning uzilib ketganligi natijasida, shuningdek, tashqi sharoitlar natijasida – varvarlarning ommaviy hujum qilishi natijasida quladi. Varvarlar imperiyani bosib olib, uning hududida bir necha qirolliklar tuzadi. Bu qirolliklar Yevropada keyinchalik vujudga kelgan milliy davlatlarning ko'prigi bo'ladi.

O'rta asrlar tarixini o'rganishdan maqsad shuki, o'rta asrlar tarixi quldorlik tuzumining yemirilish sabablari va feodal ishlab chiqarish usuli hukmron bo'lgan davr ekanligini ko'rsatishdir. Bu maqsadga erishmoq uchun quyidagi vazifani hal etmoq lozim. O'rta asrlar tarixi ming yildan ortiqroq davr tarixi ekanligini anglamoq, bu davrda G'arbiy va Sharqiy Yevropa hamda Osiyo va Shimoliy Afrika xalqlari ham ularning ijtimoiy taraqqiyotlarida alohida bir bosqichni – feodalizmni boshlaridan kechirganliklarini ko'rsatmoq lozim. Feodalizm tuzumining qaror topishi, uning gullab-yashnashi va nihoyat chirib, tushkunlikka yuz tutishi o'rta asrlar tarixining ijtimoiy-siyosiy mazmunini tashkil etganligini, o'rta asrlardagi jamiyatning butun hayoti feodal ishlab chiqarish usuliga asoslanganligini ko'rsatmoqdir.

**2. O'rta asrlar tarixini davrlashtirish muammolari.** O'rta asrlar tarixi odatda uchta katta bo'limga bo'linadi:

1) Ilk o'rta asrlar – V asrdan boshlab taxminan XI asr oxirlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr feodal tuzumining tashkil topishi, feodal jamiyatining asosiy iqtisodiy hujayrasi bo'lgan feodal pomestyesining vujudga kelishi, feodallar tabaqalarining va feodal iyerarxiyasi deb atalgan iyerarxiyaning tashkil topishi, o'rta asr feodal Yevropasida asosiy mafkuraviy kuch bo'lgan katolik cherkovi ta'sirining butun G'arbiy Yevropaga yoyilishi davridir.

2) O'rta asrlarning ravnaqi – XI–XV asr o'rtalarini o'z ichiga oladi. Bu davrda feodal ishlab chiqarish usuli qishloqda to'la rivojlanibgina qolmay, balki sex hunarmandchiligiga va o'ziga xos shahar ijtimoiy tuzumiga ega bo'lgan o'rta asr shaharlari ham rivojlanib, muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu tuzumning xususiyati shaharlarning feodallar hukmronligidan ilk xalos bo'lishi, erkin shahar deb atalgan shaharlarning yoki respublika-shaharlarning vujudga kelishi bilan belgilanadi. O'rta asrlarning birinchi davridagi siyosiy tarqoqlikka qarama-qarshi o'laroq, ikkinchi davrda markazlashgan yirik davlatlar tashkil topdi, shu bilan birga qirol hokimiyatining obro'-e'tibori oshdi, tabaqalar va-

killigi muassasalari vujudga keldi, tabaqali monarxiya deb atalgan monarxiyalar tashkil topdi. Dehqonlarning feodalizm chiriq boshlaganligi oqibatida ko'tarilayotgan kuchli qo'zg'olonlari XIV va XV asrlardagi G'arbiy Yevropa jamiyatini larzaga keltirdi, bu qo'zg'olonlar ko'pincha shaharlardagi pastki tabaqa elementlar – plebeylar harakati bilan qo'shib ketgan edi.

3) Keyingi o'rta asrlar – XVI asrni va XVII asr birinchi yarmini o'z ichiga olib, bu davr feodalizmning chirishi va feodalizm ichida kapitalizm elementlarining yetilishi davridir. Asosan mustaqil ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilishdan, ya'ni mehnatkashlarning ishlab chiqarish vositalarini ekspropriatsiya qilishdan iborat bo'lgan dastlabki jamg'arish davri, Yevropa reformatsiyasi deb atalgan davrdir, dehqonlarning XIV va XV asrlardagiga qaraganda yanada kuchliroq qo'zg'olonlari (dehqon urushlari) va ilk burjua inqiloblari davridir. Bu davrda Yevropada davlatning asosiy siyosiy formasi absolutizm bo'lib, bu absolutizm xalq ommasining kurashini bostirish uchun markazlashgan hokimiyatning kuchayishidan manfaatdor bo'lgan dvoryanlarga tayanar hamda hokimiyatni to'g'ridan to'g'ri o'z qo'liga olish uchun xalq yetarli darajada kuchli bo'lmagan burjuaziya bilan ham ittifoqda edi.

**3. O'rta asrlar kursining manbalari.** Tarixiy manbalar deganda biz inson faoliyati yoki uning ta'siri natijasida yaratilgan barcha ashyolarni tushunamiz. Jahondagi ko'pgina tarix muzeylarida o'rta asrlar davriga oid yodgorliklar, mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, tanga-chaqalar, kiyim-kechaklar, uy jihozlari va idishlar saqlanmoqda. Hozirgi kunga qadar Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikaning ko'hna shaharlarida feodalizm davriga oid ko'plab uy-joylarni, butun-butun mahallalarni, qal'a devorlari va minoralarni, ajoyib ibodatxonalarni, me'morchilik san'atining boshqa durdonalarini ko'rishimiz mumkin.

Ashyoviy manbalarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini, albatta, inkor etib bo'lmaydi. Lekin shu bilan birgalikda biz feodal jamiyat tarixini, madaniyatini, xalqning ahvoli va turmushini o'rganishni yozma tarixiy manbalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Bu xildagi manbalar dunyodagi barcha mamlakatlar hujjatxonalarida – arxivlarda saqlanmoqda.

O'rta asrlar tarixiga oid yozma manbalarni uch turga bo'lishimiz mumkin:

1. Tarixiy yilnoma va qissalar. Ularda ko'pincha siyosiy voqealar o'z aksini topgan bo'lib, xalqning kundalik hayoti nisbatan kam tasvirlangan.



2. Hujjatlar ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy hayotni yurituvchi hujjatlar, shuningdek, jarimalar, soliqlar, boshqaruv va sud faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan yozma manbalardan tashkil topgan.

3. Qonunchilik bilan bog'liq manbalar. Ular tuzilishi jihatidan huquqshunoslikka oiddir. Feodalizm davridagi mavjud qonunlarga imperator, podsho yoki qirollar tomonidan ko'plab o'zgartirishlar kiritilgan, ularning hukmronlik faoliyatiga oid yozma manbalar ham shular jumlasiga kiradi.

Rivojlangan feodal jamiyati davrida (XIII–XV asrlar) yozma manbalarning yangi turi – badiiy adabiyot shakllandi. O'rta asrlarda Gutenberg tomonidan kitob bosish kashf etilgunga qadar (1445-y.) yozilgan hamma hujjat va kitoblar qo'lyozma sifatida, hattotlar tomonidan yaratilgan va nihoyat, san'at asarlari manbalarining o'ziga xos turi bo'lib, ular ustida alohida to'xtalib o'tish lozim. Badiiy san'at asarlari, me'morchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik va amaliy san'at sohalaridagi ashyoviy manbalar ilohiy va oddiy insonlarning jonli siymolarini ko'z oldimizda gavalantiradi. Bizga davr ruhini, g'am-tashvishlari-yu quvonchlarini yetkazib beradi.

Tarixchi olimlar yuqorida ko'rsatilgan xilma-xil manbalardan foydalanib, ularni qiyoslab, o'sha zamon kishilarining hayotini, qiziqarli voqealar va butun bir tarixiy davrlarni izohlab beradilar.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. «O'rta asrlar» atamasi tushunchasini ochib bering.
2. O'rta asrlar tarixi qaysi asrlar tarixini o'rganadi?
3. O'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimini ko'rsating.
4. O'rta asrlar G'arb va Sharq feodalizmini qiyoslang.
5. O'rta asrlar tarixi nechta bo'linga bo'linishini toping.
6. O'rta asrlar ravnaqi qaysi asrlarga to'g'ri kelishini ko'rsating.
7. O'rta asrlar bosqichlarini tavsiflang.
8. O'rta asrlarda kuchli qo'zg'olonlar sababini ayting.
9. O'rta asrlar tarixi qanday manbalarga asoslanib o'rganilishini ko'rsating.

Yozma manbalar \_\_\_\_\_ turga bo'linadi, bular \_\_\_\_\_ dir.

10. San'at asarlarini manba sifatida ta'riflang.

## 2-MAVZU: O'RTA ASRLAR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

### REJA:

1. IV-VII asrlarda Vizantiya tarixshunosligi.
2. Salib yurishlari tarixining tarixshunosligi.
3. Usmoniylar imperiyasining Bolqon yarim orolidagi hukmronligi masalasining tarixshunoslikda o'rganilishi.
4. Bobur va boburiylarning Hindistondagi hukmronligi masalasining tarixshunoslikda o'rganilishi.
5. Xristian dini, cherkovi va Rim papalari tarixining tarixshunoslikda o'rganilishi.
6. Sharq mamalakatlarining tarixchilar tomonidan o'rganilishi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarixshunosligi.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** istoriografiya, medievistika, xronistlar, «Roman va german nazariyalari», «Marka» nazariyasi, tarix fanida g'oyaviy kurash, tarixchilar xalqaro kongressi, Ma'rifatparvarlik davri tarixchilari, rus tarixshunosligi, tarixshunoslik maktabi.

**I. V–VII asrlar Vizantiya tarixshunosligi.** Siyosiy qarashlaridagi, savodxonliklaridagi, diniy e'tiqodlardagi, bo'lib o'tgan voqealardan xabardorlik darajasidagi va nihoyat, voqealarni bayon qilishdagi barcha farqlariga qaramasdan, ilk davr Vizantiya tarixchilarini qator umumiy xususiyatlar birlashtirib turar edi.

Birinchi navbatda, ularning barchasi bevosita antik tarixshunoslikning o'rnak olsa arziydigan an'analari bilan tarbiyalangan edilar. Vizantiyalik tarixchilar Gerodot, Fukidid va Polibiy asarlarini yaxshi o'rganibgina qolmasdan, balki ularga taqlid ham qilar edilar. Ammo bu ularning asarlaridan to'g'ridan to'g'ri nusxa olish bo'lmasdan, balki antik tarixshunoslik maktabi bilan Vizantiya tarixshunoslik maktabi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni bildiradigan ko'rinishda edi.

Antik ruhda tarbiyalangan ko'pgina vizantiyalik tarixchilar grek-rim tarixshunosligida ijodiy fikrlashning eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilganliklarini namoyon qildilar. Ular o'tmishning shuhratli tar-

ixchilari oldida bosh egish bilan chegaralanib qolmasdan, ayni vaqtda tarixiy voqealarni yoritishga ham juda katta hissa qo'shdilar.

Ular tomonidan to'plangan qimmatli ma'lumotlar va tarixiy voqealarning juda katta talant va so'z boyligi bilan bayon qilinishi, vizantiyalik tarixchilarni ham (ayniqsa, Ammian Marsellin, Prokoiy Agafiy, Fiofilakt Simokattalarni) antik mualliflar darajasiga ko'tardi. IV asr va VII asrning birinchi yarmidagi vizantiyalik tarixchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu – ularning o'z zamonasiga intilishi edi. Ularning barchasi o'z asarlarida voqealarni bayon qilishni dunyoning yaratilishidan boshlaydigan antik davr xronikachilaridan farq qilib, tarixning o'zlari guvohi bo'lgan qisqa bir davrini yoritadilar. Bu ularning eng katta yutug'i bo'lib, ularning asarlarini xronistlar asoslariga nisbatan ko'chirmakashlikdan ancha xoli bo'lishiga olib keladi. Bu asarlar, odatda, hujjatlarga zamondoshlarning, guvohlarning hikoyalari va shaxsiy tajribalariga asoslanib yozilardi. Shunday qilib, xronikachilar asarlaridan farqli ravishda vizantiyalik tarixchilar asarlarida o'z davri aksi namoyon bo'lib turdi, bu esa ularning tarixiy manba sifatidagi qiymatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga zamonga yaqinlik tarixchilar asarlarining bir yoqlamaligiga olib keladi. Ayniqsa, bu ijtimoiy-siyosiy kurashlar ta'sirida va voqelikni subyektiv qabul qilishda namoyon bo'ladi. IV-VII asr birinchi yarmi tarixchilari aksariyat hukmron tabaqalar siyosiy voqeyalar qaynab turgan joyda bo'lgan davlat amaldorlari, diplomat, saroy xizmatchilari va ziyoliylardan, advokat, notiq vakillaridan iborat edilar. Ular turli darajada davlat ishlaridan xabardor kishilar edi.

Shuning uchun ularning asarlarida Vizantiyaning tashqi siyosatiga, diplomatiyaning murakkab o'yinlariga, boshqa xalqlar bilan urushlarga, saroy fitnachilariga va siyosiy guruhlar kurashiga ko'proq ahamiyat berilardi. Ularni mamlakatning ichki hayoti kam qiziqitirdi, xalq ommasining hokimiyatdan chetdagi qismining hayoti esa, ayrim xalqlarni hisobga olmaganda, deyarli e'tibordan chetda qoladi.

Vizantiya imperiyasi ilk davrda yashagan tarixchilar asarlariga xos bo'lgan yana bir xususiyat bu – ularning barchasida o'z davrining eng dolzarb muammosi bo'lgan Rim-vizantililarning varvarlar dunyosi bilan kurash masalasi edi. Tarixchilarning ko'pchiligi bu kurashning Vizantiya davlati uchun hayot-mamot kurashi ekanligini tushunar edilar, ayrimlari esa rimliklarga xos bo'lgan kibor va dimog'dorlik bilan o'zlarini va kitobxonlarni varvarlar hayotining jiddiy emasligi va bu bir necha asrdan beri davom etib kelayotgan kurashning albatta rimliklar

g'alabasi bilan tugallanishiga ishontirishga urinar edilar. Bir qism tarixchilar yovvoyi va johil varvarlarga jirqanib, nafratlanib, bepisandlik bilan qarasarlar, ikkinchi qismi esa nafaqat ularning kuch-qudratini tan olib qolmasdan, varvarlardagi ustunlikning yahshiy tomonlarini ham his qila boshladidar: ayrimlar hatto varvarlarning ijtimoiy tuzumini ideallashtirib ko'rsatishga urinishar edilar.

Vizantiya uchun dolzarb muammo hisoblangan uning varvarlar bilan bo'lgan munosabatlarini o'rganish tarixiga bag'ishlangan IV-VII asr birinchi yarmi vizantiyalik tarixchilarning asarlari aksariyat hollarda imperiya bilan bir necha asr davomida to'qnashib kelgan ko'pchilik varvar xalqlari tarixini o'rganishda yagona manba bo'lib shisoblandi. Ayniqsa, ularning asarlarini xunlar, gotlar, franklar, langobardlar, slavyanlar, antlar, avarlar, turklar tarixini o'rganishdagi ahamiyati bebahodir. To'g'ri, barcha vizantiyalik tarixchilar asarlarida ularning hayoti to'g'ri, holisona yoritilgan deb bo'lmaydi. Ayrimlar keraakli ma'lumotlar yetishmaganligi, ayrimlar esa bor haqiqatni buzib, bir tarafлама bayon qilganligi sababli yuqoridagi xalqlar to'g'risida bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar o'rtasida hozirgacha noto'g'ri, noilmiy tushunchalar mavjud. Ammo, ikkinchi tomondan, agar varvar qabilalarining o'zlarining tarixchilari bo'lmaganligi (gotlardan tashqari) va ular to'g'risidagi yozma manbalarning juda sanoqli bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, vizantiyalik tarixchilarning bu sohada yaratgan asarlarining qiymati yanada ko'tariladi.

Vizantiyalik tarixchilar asarlarining eng qimmatli tomonlaridan biri — ularda imperiya hududi va unga qo'shni mamlakatlar xalqlari tarixiga, jug'rofiyasiga, toponomikasiga, etnografiyasiga doir ma'lumotlarning ko'pligidir. Bu ma'lumotlar o'zining aniqligi, ishonarliligi va keyinchalik arxeologik kashfiyotlar davrida tasdiqlanganligi bilan ajralib turadi.

Xullas, IV–VII asrlar Vizantiya tarixchilarining asarlariga tayanmasdan turib imperiyaning ilk davri tarixini yetarli darajada o'rganib bo'lmaydi.

IV asrning eng ko'zga ko'ringan tarixchisi antioxiyalik grek **Ammian Marsellin** (330 yil atrofida — 400 yil) edi. U Yulian Mo'rtad ixlosmandi bo'lib, u bilan eroniylarga qarshi yurishda qatnashgan va majusiylik dinini tiklash tarafdori edi. Keksayib qolgan vaqtida Ammian Marsellin lotin tilida «Tarix» («Deyaniya») nomli asarini yozdi. Bu asar muallif tomonidan Tasit asarining davomi sifatida amalga oshirilib, unda imperator Narva davridan to IV asr oxiriga qadar bo'lgan tarixiy voqealar bayon qilinadi. Uning bu davrga bag'ishlangan ko'p

sonli asarlaridan faqatgina 353-378-yillar voqealarini o'z ichiga olgan 18 kitobi (14-31- kitoblar) saqlanib qolgan.

Bu kitoblarda bayon etayotgan voqealarga zamondosh bo'lgan muallif o'sha davrdagi juda ko'p tarixchilar singari kompilator (qurama) sifatida emas, balki Rim davlati taqdiridan xavotirdagi o'z davri- ning voqealarini xolisona, sidqidildan yoritib berishga intilgan fikrlov- chi tarixchi sifatida namoyon bo'ldi. Uning asarlarining eng qimmatli tomoni – keltirilgan dalillarning ishonchga sazovorligidir. Bu, albatta, muallif bayon qilayotgan tarixiy voqealarning asosini uning shaxsan hayotiy kuzatshlar natijalari va o'sha voqealar ishtirokchilari bergan ma'lumotlar tashkil qilganligidir.

Ammian Marsellinni ko'pincha oxirgi buyuk Rim tarixchisi ham deb ataydilar. U o'z dunyoqarashi bilan antik davr madaniyati, diniy e'tiqodi va falsafasi tarafdori edi. Bu uning o'z davrida antik fanning inqirozi to'g'risida alam va o'kinch bilan yozganligida ham ko'rina- di. Aslzoda kishilar «fandan xuddi zahardan qo'rqqandek qo'rqadilar» deb yozgan edi u. Uning yozishicha, oqsuyak kishilar va xalq fanni o'rganish bilan shug'ullanish o'rniga otlar poygasini tomosha qilish bilan band: ular o'rtasida turli xil masxarabozlar, yengiltabiat raqqosal- ar katta shuhratga egalar. Kutubxonalar esa xuddi maqbaralar singari mangu yoniqdir.

Ammian Marsellin majusiylik fani va falsafasini quvg'in qilishni qoralaydi, u hukumatning majusiy faylasuflarini jodugarlikda ayblash uchun maxsus marosimlar, jarayonlar tayyorlashda ayblaydi. Tarix- chi beshafqat hukmdorlar irodasi bilan halok bo'lgan majusiy olimlar uchun ko'zyosh to'kadi. Imperator Valent buyrug'iga ko'ra, jazoga hukm qilingan majusiylar uylaridan tortib olingan antik mualliflar ki- toblarini yoqib yuborgan jallodlar vandalizmining vahshiyiligini qora- laydi.

Ammian Marsellining etnik dunyoqarashi antik filosofiyaning bev- osita ta'siri ostida shakllangan. U insonning ma'naviy sifatini ham- madan yuqoriga qo'ydi. «Faylasuflarning aniqlashicha, deb yozadi u, eng yaxshi to'rtta fazilat bor: mo'tadillik (chegaradan chiqib ketmaslik ma'nosida), mulohazalik (aqllilik), haqiqatgo'ylik va botirlik».

Ammian asarlarida biz o'sha davr siyosiy arboblardan Yulian Mo'rtad, Valent, Valentian I va boshqalarning siyosiy portretlarini uchratamiz. Ularga berilgan tavsiflar o'zining chuqur psixologik tahlili va hayotiy haqiqatlilik bilan ajralib turadi.

Ammianning siyosiy maqsad va so'zi ham bir tomondan o'sha

davrdagi ijtimoiy-siyosiy kurash ta'sirida, ikkinchi tomondan antik faylasuflar ta'limoti ta'sirida shakllandi. U kuchli va adolatli, donishmand yordamchilarga tayanadigan, shaxsiy zo'ravonlikdan yiroq bo'lgan monarxiya hokimiyati tarafdori. Hokimiyat, uning fikricha, bu birinchi navbatda o'zlarining turmush farovonligi to'g'risida g'amxo'rlikdir. Yaxshi hukmdor o'z mulkini chegaralashi, o'zidagi ehtiros va jahlg qarshi kurashishi va hamisha o'zining o'tmishdagi berahmliligini eslash qarilik yillari uchun yomon tayanch bo'lishini esdan chiqarmasligi kerak.

Ammian Marsellin imperatorlardan Valentin va Valentian I lar to'g'risida juda katta nafrat bilan yozadi. Albatta, uning juda hayajonliligi va fosh qiluvchi so'zlari tarixchining hayotiga bevosita xavf tug'dirmaydigan vaqtda, ya'ni Fedosiy I davrida, ya'ni yuqoridagilarni tanqid qilish rag'batlantirayotgan davrda yozilgan edi. Shu bois u Fedosiy I ni ko'klarga ko'tarib maqtaydi.

Ammian asarlarida IV asrda Sharqiy va G'arbiy imperiyadagi keskin ijtimoiy kurash manzarasi juda katta taassurot qoldiradigan darajada qayta jonlantiriladi. Ammo bu yerda «qora xalq»ning tutgan o'rniga deyarli ahamiyat berilmaydi, ular to'g'risida so'z ketganda Ammian Marsellin mensimaslik va bepisandlik bilan xuddi biror-bir buyum to'g'risida gap ketgandek fikrlaydi.

Ammian Marsellin o'z asarlarida Sharqiy Rim imperiyasini halokat yoqasiga olib kelgan IV asrning 70-yillarida Dunay bo'yidagi vestgotlar qo'zg'oloni to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu yerda muallif tomonidan vestgotlar qo'zg'olonini kolonlar, qullar, Frakiya va Makedoniya konchilari tomonidan quvvatlagani to'g'risidagi xabar alohida ahamiyatga egadir.

Bu yirik tarixchi o'sha vaqtda imperiya uchun varvarlar xavfining qudrati katta halokat keltirishi mumkin ekanligini yaxshi tushungan edi. Vizantiyaning ilk davrida hech bir tarixchi Ammian singari Rim va varvarlar o'rtasidagi juda katta ko'lamdagi kurashning haqiqiy mohiyatini ko'rsata olgan emas. Varvarlar hujumi bu tarixchi tomonidan halokatga olib keluvchi to'fon sifatida tasvirlangan, varvarlarga qarshi kurash har bir rimlikning vatanparvarlik burchi ekanligi ta'kidlangan. U, ayniqsa, yovvoyi ko'chmanchi qabilalar – xunlar va alanlarga alohida kalondimog'lik, mensimaslik bilan qaragan.

Umuman Ammian Marsellin asarlarida rimliklardan boshqa barcha xalqlarga nisbatan past nazar bilan qarash alomatini ko'rish mumkin.

Xristian imperatorlariga nisbatan muxolifat kayfiyatlar vizantiyalik

tarixchilardan Yevnapiy, Olimpiodor va ayniqsa, Zosim asarlarida o'z aksini topadi.

Yevnapiy (345–420) Lidiyaning Sard shahridan. Tarixchi va notiq. U o'z umrini tugatayotgan majusiylikning tarafdori va himoyachisi edi. Uning 70-yildan 414-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan tarixiy asari bizga mashhur kitob to'plovchi patriarx Fotiyning Yevnapiy kitobidan konspekti sifatida yetib kelgan. Yevnapiy kitobidagi xristian cherkovi sha'niga aytilgan nojo'ya va juda qaltis so'zlar Fotiy tomonidan olib tashlanganligi sababli, bu asar bizga katta darajada qayta ishlangan shaklda yetib kelgan. Yevnapiyning asosiy g'oyasi majusiylikni qayta tiklash va xristianlikning tarqalishiga qarshi turish zarurligini isbotlash va uni amalga oshirish edi.

Yevnapiyning siyosiy qarashlari qanday bo'lganligini uning imperatorlar hokimiyatiga munosabatidan aniqlasa bo'ladi. U bu hokimiyat shu vaqtda jamiyat uchun zarurki, qachonki u ishiga arziydigan kishi qo'lida bo'lsa, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Yulian Mo'rtad xuddi shunday lavozimga arziydigan ideal hukmdordir. Nopok qo'lida imperatorlik hokimiyati davlat uchun juda katta kulfat keltiradi. Taxtda o'tirgan faylasuf Yulianning antipadi (teskarisi) sifatida Yevnapiy xristian dinidagi imperator Fedosiy I ni ko'rsatadi, Yevnapiy fikricha, Fedosiy I o'z faoliyati bilan qadimgilarning hokimiyat (buyuk musibatdir) yovuzlikdir degan fikrining to'g'riligini isbotlagan.

Yevnapiyning kichik zamondoshi va ishining davomchisi Misrning Fiva hududidan bo'lgan grek Olimpiodor (V asr) edi. U butun umrini adabiyot bilan shug'ullanishga sarfladi. Olimpiodor yozuvchi va tarixchi sifatida o'z vatanida katta shuhrat qozongan. Hayotining bir qismini G'arbiy Rim imperiyasida o'tkazgan. Olimpiodor ko'p sayohat qilgan, juda ko'p varvar xalqlarining, shu jumladan xunlar va vestgotlarning ham, turmush tarzini 412-yilda vizantiyalik elchilar tarkibida kuza-tishga muvaffaq bo'lgan. Uning elchilik to'g'risidagi hikoyalari Yevropadagi xun qabilalari to'g'risidagi eng birinchi tilga olingan ma'lumotlardan biridir.

Olimpiodorning «Tarix» asari (muallif uni imperator Fedosiy II ga bag'ishlagan) 22 kitobdan iborat bo'lib, u Rim imperiyasining 18 yillik tarixini – 407-yildan to 425-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladni.

Afsuski, bu asar ham bizgacha asl nusxada emas, balki yuqoridagi patriarx Fotiy konspekti sifatida yetib kelgan. Garchi Fotiy Olimpiodor asarlarini ko'p qisqartirgan bo'lsa-da, ayni vaqtda undangi faqat muhim tarixiy voqealarni berib qolmasdan, balki muallifning fikrini ham saqlab qola olgan.(1)

Fotiy tomonidan Olimpiodor asari ancha tanqidiy baholangan. Ayniqsa, asarning oddiy xalq tilida yozilishi Fotiyning g'ashini keltiradi, shuning uchun u asarning tili to'g'risida, «tushunarli, ammo ifodasiz va jonsiz (kuchsiz)» deb baho bergandi.

Haqiqatan ham, Olimpiodor vizantiyalik tarixchilar orasida birinchi bo'lib oldingi davr tarixchilariga xos bo'lgan sun'iy va taqlidchilik uslubidan chekinadi va bayon qilishning yangi uslubini qo'llaydi. Xuddi shu «xalqchilik» uslubi uning asarlarining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Olimpiodor asosan G'arbiy Rim imperiyasi taqdirini yoritib, uning kitobida Rim davlatining Sharqiy qismiga kam e'tibor beriladi. «Tarix» asarining muallifi Rim imperiyasi saqlanib kelinishining asosiy shartlaridan biri bu – varvar xalqlarining kuchli yo'l boshchilari bilan ittifoq tuzib, ularning o'zini bir-biriga qarama-qarsh qo'yish deb hisoblaydi. U vizantiyalik tarixchilar ichida birinchi bo'lib varvarlarning o'zining yordamisiz imperiya varvarlar ustidan g'alabaga erisha olmaydi, degan fikrni aytgandi. Olimpiodorning eng katta xizmatlaridan biri, boshqa vizantiyalik tarixchilarga nisbatan, ikki dunyo – grek-rim va varvarlar dunyosi o'rtasidagi to'qnashuvni ancha xolisonalik bilan ko'rsatib berilganligidir.

U asrdagi majusiy muxolifatning siyosiy kayfiyati vizantiyalik tarixchi Zosimning «yangi tarix» asarida o'zining ifodasini topgan. Mavjud tuzumning nuqsonlarini oshkora namoyish etish bu asarida muallifning xristianlikka qarshi nafratli hujumi bilan qorishib ketadi.

Zosimning imperator Anastasiya (491–518) davrida, aniqrog'i, 498-yilda yaratilgan «Yangi tarix» asari muallif vafotidan so'ng chop etilgan. Juda aniq va tushunarli tilda yozilgan bu asarda Rim davlatining tarixi Avgust hukmronligi davridan to 410-yilgacha yoritilgan.

Asardagi to 270-yilgacha bo'lgan voqealarning berilishi umumlashtirilgan kompulativ xususiyatga ega. 270–410-yillar davri esa yetarli darajada atroflicha yoritilgan.

O'tmishdoshlari singari Zosim asarining ham asosiy sujeti rimliklar va varvarlar o'rtasidagi kurash bo'ldi. U juda katta alam bilan Rimning oldingi salobati yo'qqa chiqqanligini tan oladi va uning sabablarini ko'rsatishga harakat qiladi.

Diniy e'tiqodi bo'yicha majusiy, siyosiy qarashlari jiqatidan konservator bo'lgan Zosimning fikricha, imperiyaning IV–V asr boshlarida boshiga tushgan «barcha falokatlar» varvarlar hujumi, qaram xalqlar qo'zg'olonlari, qullar isyoni, davlatning ichki inqirozga yuz tutishi, qa-



dimgi majusiylik diniy e'tiqodiga xoinlik qilib, xristianlikning qabul qilinganligi uchun xudolar tomonidan rimliklarning jazolanishidir.

Zosim asarining eng qimmatli tomonlaridan biri uning varvar qabilalari, ayniqsa, gotlar va xunlar haqidagi ma'lumotlaridir. Tarixchining imperiya hududiga bostirib kirgan varvarlarning xalq tomonidan quvvatlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlari uning o'tmishdoshlari bergan xabarlar bilan mos keladi.

**Prisk Poniyskiy.** U asrning birinchi choragida Frakiyaning Naniy shahrida tug'ilgan. Juda katta ko'lamdagi bilimga ega bu yunon olimi diplomat va sayohatchi bo'lib, uning asarlarida xalqlarning buyuk ko'chishi davridagi varvarlar va Rim dunyosi o'rtasidagi to'qnashuv o'zining hayotiy va haqiqiy manzarasini topadi.

Keng ko'lamdagi bilimga ega bo'lgan Prisk davlat xizmatiga ishga kiradi. Imperator Fedosiy II davrida yuqori davlat lavozimida bo'lgan yirik mansabdor Maksiman mulozimi sifatida vizantiyaliklarning xunlarning Atilla hukumatiga yuborilgan elchilari tarkibida ishtirok etadi. Bu elchilar guruhning Atilla huzuriga borishi va muzokaralarning o'tkazilishi to'g'risidagi uning kundalik daftaridagi yozuvlar keyinchalik bu to'g'rida maxsus kitobning yaratilishiga asos bo'ldi.

Afsuski, Prisk asari ham bizgacha to'liq yetib kelmagan.

Priskni keyingi birorta diplomatik safari (Rimga, Damashqqa, Aleksandriyaga) o'zining ahamiyati jihatidan uning Atilla qarorgohiga safari bilan tenglasha olmaydi. Aynan dahshatli xunlar qabilasining tavsifi Priskning tarixiy asariga juda katta qiziqish tug'diradi.

Prisk asarining xronologik chegarasi 411-yildan 472-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olganligini nazarga olib, uni 472-yilda vafot etgan deb taxmin qilish mumkin.

Prisk Poniyskiy asarining eng qimmatli tomoni uning voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va uning ishtirokchilaridan biri tomonidan yozilganligidadir. Uning asarlaridagi voqealarning juda katta aniqlik bilan bayon qilinishi o'quvchini, ehtimol, Prisk vizantiyalik elchilar xabarlaridan, diplomatik yozishmalardan va o'zi foydalanish imkoiyatiga ega bo'lgan imperator kutubxonasidagi hujjatlardan ham foydalangan bo'lishi mumkin degan xulosaga olib keladi.

Prisk asarining eng muhim tomoni shundaki, uning muallifi boshqa vizantiyalik tarixchilar singari, varvarlarga nisbatan kalondimog'lik bilan, yuqoridan turib, kamsitib qaramaydi. Boshqacha aytganda, uning ko'zini soxta «rim varvarlari» pardasi qoplagan emas. Atilla va boshqa varvar yo'l boshchilarida ham o'zining yutuq va kamchilikka ega

bo'lgan tirik insonni ko'ra oladi.

Prisk tomonidan berilgan xunlar davlati, ularning yashash tarzi, an'analari, tili, boshqa bo'ysundirilgan qabilalarga nisbatan munosabati va ularning Sharq va G'arbdagi turli xalqlar bilan munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlari o'zining to'laligi va yangiligi bilan ham juda noyob hisoblanadi. Hech bir tarixchi Prisk singari Atilla to'g'risida o'ziga qarab ko'chirilgan, oydin va haqqoniy, hayotiy portretni bera olgan emas.

**2. Salib yurishlari tarixshunosligi.** Bu mavzu o'rta asrlar tarixining eng muammoli mavzularidan bo'lib, u ko'p asrlardan beri tarixchilarning e'tiborini jalb etib kelmoqda. Salib yurishlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni biz arab, vizantiyalik va fransuz yilnomachilari qoldirgan ma'lumotlardan va shu davrda yashagan, sodir bo'lgan voqealarning guvohi bo'lgan tarixchilarning asarlaridan olamiz.

Bundan tashqari, bu mavzuga doir eng ko'p axborotlar Rim papaligi qo'l ostidagi cherkovlarda, ayniqsa, ko'p uchraydi. Xristian cherkovlari xizmatchilari salib yurishlarini dunyoviy ishlarga ilohiy kuchlarning bevosita aralashuvi natijasi deb tushuntiradilar. Ular «yaramas turk qabilalari» xudoning o'g'li tug'ilgan va o'lgan joyni bosib olganlari uchun «dinsizlarni» jazolash maqsadida, qudratli xudo g'arbiy yevropaliklarni xristian dinining ziyoratgohini toptagan dinsizlarga qarshi muqaddas urushga ko'tardi. Yevropalik xristianlarga xudoning hokim va irodasini uning yerdagi noibi bo'lgan Rim papasi yetkazdi va barcha katoliklarni «xudoning qabrini» turklar qo'lidan ozod qilishga chaqirdi.

Cherkov yilnomachilarining ma'lumotlarida salib yurishlari boshlanishining sababi shu tariqa sof diniy sabablarga bog'liq ekanligi ko'rsatiladi va salibchilar bosqinchilar emas, balki xudoning xohishini ijro etuvchilardir, deb tushuntiradilar; masalan, Birinchi salib yurishi haqidagi ilk asarlardan bo'lgan fransuz yilnomachisi abbat Gvibert Njanskiyning yilnomasidagi bir bob to'g'ridan to'g'ri «Franklar orqali xudoning harakati» deb nomlangan.

Uyg'onish davri Yevropa yozuvchilari, tarixchilari asarlarida salib yurushlarining sabablariga qarash ancha o'zgardi. Garchi ular bu yurishlarni «xristianlarning Isos Xristos qabri uchun varvarlarga qarshi kurashi» deb hisoblasalar-da, ammo uni «xudoning harakati (ishi)» deb yoqlamaydilar. Gumanistlar (XV asr) salib yurishlarida diniy g'oyalalar bilan ilhomlangan «hayratlanishga arziydigan» qo'rqmas va jasur kishilarning shavkatli qahramonliklarini ko'rdilar. Ular salib yurishlarining sof diniy tomonlariga kam e'tibor berdilar. Ularni bu vaqtlard-

agi salibchilarning qahramonliklari (jasorati) va «vatanparvarliklari» ko'proq qiziqtirdi. (Masalan, italiyalik tarixchi Benedikt Akkelt va nemis tarixchisi Yakob Vimpfeling; ikkalasi ham XV asrda yashagan).

Reformatsiya davri tarixchilari (XVII asr) salib yurishlari boshlanishi sabablarini tushuntirishning yangi qirralariga e'tibor qaratishdi. Ular salib yurishlari bu – Rim papaligining g'arazli maqsaddagi siyosatining natijasidir, papalar bu urushlarni mutlaqo o'z hokimiyatlarini kuchaytirish uchun boshlaganlar, shuning uchun ham ular muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi, deb yozadilar. (Masalan, ingliz ruhoniysi Tomas Fuller va nemis tarixchisi Gotfrid Arnold; ikkalasi ham XVII asrda yashagan).

Protestant oqimidagi tarixchilarning qarashlari ham katolik tarixchilar va yozuvchilarning salib yurishlari to'g'risidagi qarashlaridan uncha farq qilmaydi, ya'ni ular ham bu yurishlarning boshlanishini diniy sabablarga olib borib taqaydilar. Ammo ularning oxirgi xulosasi shu bo'ldiki, salib yurishlari bu xudoning ishi bo'lmasdan, shaytonning ishidir.

G'arb tarixchilarining ko'pchiligi salib yurishlarini bosqinchilik yurishi deb emas, balki bir din bilan boshqa din o'rtasidagi hukmronlikka erishish uchun kurash deb tushuntiradilar. Ular, salib yurishlarining tarixi but (xoch) bilan yarim oy o'rtasidagi kurash tarixidan iborat bo'lib, G'arbiy Yevropaning ichki taraqqiyoyti bilan mutlaqo bog'liq emas, deydilar.

Xuddi shunday fikr XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiyada yuzaga kelgan tarixiy asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, 1901-yilda nashr etilgan F.I. Usyenskiyning «Salib yurishlari tarixi» va ikkinchi rus tarixchisi D. N. Yegorovning xuddi shu nomli (Krestovoye poxodi, t. 1-2, M., 1914–1915) asarlarida salib yurishlari haqida ko'p faktik (daliliy) ma'lumotlar to'plagan bo'lsalar-da, ammo bu yurishlarning haqiqiy bosqinchilik yurishi ekanligiga ko'p to'xtalib o'tilmaydi.

Hozir ham shu mavzuda paydo bo'layotgan asarlarning ko'pchiligida salib yurishlarining asosiy xususiyati musulmon va xristian dini o'rtasidagi kurash bilan belgilanishini uchratish mumkin.

Salib yurishlari tarixini o'rganishga rus tarixchilaridan Mixail Abramovich Zaborov katta hissa qo'shgan. U o'zining 50 yildan ko'proq ilmiy hayotini shu masalani o'rganishga bag'ishladi. Uning qalamiga mansub bo'lgan «Salib yurishlari» (1), «Papalik va salib yurishlari» (2), «Salibchilar va ularning XI–XIII asrlarda Sharqqa yurishlari» (3), «Salib yurishlari tarixshunosligi» (4), «Salib yurishlari tarixshunosligiga kirish» (5), «Xoch va qilich bilan» (6) asarlarida 1096-yildan 1270-yilgacha bo'lib o'tgan G'arbiy yevropaliklarning Sharqqa tomon

uyurishtirilgan bosqinchilik yurishlari bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar atroflicha chuqur ilmiy asosda o'rganiladi.

M.A. Zaborov tadqiqotining eng qimmatli tomoni shundaki, u salib yurushlarining sababi faqatgina Rim papasining xohishi bilan amalga oshirilgan yurish bo'lmasdan, balki Yevropaning XI asrdagi iqtisodiy taraqqiyotining ta'siri bilan ham bog'liq, deb hisoblaydi.

M.A. Zaborovning shu mavzuga bag'ishlangan barcha asarlarida salib yurushlarining XI asrdagi Yevropada yuz bergan iqtisodiy tanglikning natijasi ekanligi aniq misollar bilan ko'rsatilgan.

1. Zaborov M.A. Krestoviye poxodi. M., 1956 g.
2. Zaborov M.A. Papstvo i krestoviye poxodi. M., 1960 g.
3. Zaborov M.A. Krestonossi i ix poxodi na Vostok v XI–XIII vekax. M., 1962 g.

**Arablar tarixini o'rganish.** Arablar tarixini o'rganish, ayniqsa, uning o'rta asrlar davriga tegishli qismi bilan bog'liq bo'lgan masalalar, so'zsiz, birinchi navbatda tarixchi E.A. Belyayev nomi bilan bog'liqdir. Bu o'rinda uning 1965-yilda nashr etilgan «Arablar, islom va arab xalifaligi ilk o'rta asrlarda» (Belyayev E.A. «Arabi, islom i Arabskiy xalifat v ranniy srednevekovye. M., 1965 g.) kitobi alohida o'rin tutadi.

E.A. Belyayev ushbu asarida islom dini paydo bo'lgunga qadar bo'lgan arablardagi ijtimoiy tuzum, islom dinining paydo bo'lishi, islom ta'limoti, Muhammad payg'ambarning hayot yo'li va faoliyati, xalifalikning paydo bo'lishi masalalarini ilmiy va har taraflama yoritadi. Kitobda ummaviylar va Bog'dod xalifaliklari davriga ham alohida ahamiyat beriladi.

Bu yirik tarixchining ilmiy salohiyatini tan olgan holda, o'rta asrlar Arabiston tarixini o'rganishning tarixshunoslikda yoritilishini E.A. Belyayev asarlari asosida berish o'rinlidir. Unga ko'ra rus tilida mavjud bo'lgan adabiyotlardan birinchi navbatda nemis tarixchisi A. Myullerning «Islom tarixi» (A. Myuller. Istoriya islama. SPTb. 1895-g.) tilga olish zarurdir. Ammo bu asarda mutlaqo sotsiologik izlanish yo'q va shuning uchun unga tayanib arablar tarixini o'rganib bo'lmaydi. Xuddi shunday fikrni A.E. Qrimskiyning «Arablar tarixi va arab adabiyoti» (A.E. Qrimskiy. «Istoriya arabov i arabskaya literatura». M., 1991-g.) kitobi to'g'risida ham aytish mumkin.

**3. Usmoniylar imperiyasining Bolqon yarim orolidagi hukmronligi masalasining tarixshunoslikda o'rganilishi.** Usmoniylar im-

periyasining Bolqon davlatlari ustidan g'alabasini ta'minlagan asosiy omillar rus tarixchilari fikricha quyidagichadir:

- 1) Turklarning kuchli, jangovar qobiliyati yuqori, qattiq intizomli armiyaga, ayniqsa, o'tliq armiyaga ega bo'lishi;
- 2) Yanicharlarning tashkil etilishi;
- 3) Ularning harbiy jihatdan slavyanlardan ustunligi;
- 4) Turk sultonlarining shaxsiy sifatleri. Boyazid II dan tashqari barcha turk sultonlari o'zlarining yuksak iste'dodlari, g'ururi va harakatchanliklari bilan ajralib turar edilar. 1481-yildagi Muhammad II ning o'limi Yevropa uchun baxt hisoblanadi.

Ammo ikkinchi guruh tarixchilar turklar armiyasining jangovar qobiliyatining yuksakligi to'g'risida hech narsa demasdan, «o'zaro kurash va har bir Bolqon davlatidagi hukmron feodal sinflarning qarama-qarshiliklari natijasida kelib chiqqan Bolqon davlatlarining kuchsizligi turk bosqinchilari muvaffaqiyatini asosiy sababi bo'ldi» deb hisoblaydilar.

XIX asr va XX asr boshlaridagi rus tarixshunosligida Bolqon yarim orolida, ayniqsa, Bolgariyada turklar hukmronligining dastlabki davrida dehqonlarni ekspluatatsiya qilish kuchsizlandi, tashqi xavf tugadi, mustahkam hukumat o'rnatildi, o'zaro feodal to'qnashuvlarga barham berildi, degan fikrlar olg'a surilgan edi.

Keyinchalik sovet davrida bu fikrlar «Usmoniylar imperiyasi davridagi Bolqon xalqlari ahvolini yorituvchi zararli, xavfli, antiilmiy konsepsiya» deb e'lon qilindi va qator adabiyotlarda turklar hukmronligi davrida dehqonlar ahvoli yomon bo'layotganligini «isbotlovchi» dalillar keltirila boshlandi.

Keyingi davr rus adabiyotlarida, usmoniylar Bolqon yarim orolida gi yaratuvchilik ishlari, masalan, quduqlar qazish, karvonsaroylar qurish, yo'llarni tuzatish va shu kabi ishlarning ahamiyati yerga urilib, bu ishlar faqatgina harbiy strategik maqsadlarni ko'zlab qilingan edi, deb ko'rsatdilar.

XX asr boshidagi rus tarixiy adabiyotlarida Usmoniylarning uzoq vaqtlar Bolqon yarim orolida o'z hukmronliklarini saqlab kelishlarining asosiy sabablaridan biri – ular tomonidan xristian diniga nisbatan hurmat va unga yo'l qo'yib berish edi deb ko'rsatilgan (ayniqsa, hukmronlikning birinchi davrida).

Sovet davridagi adabiyotlarda rus tarixchilari bir ovozdan diniy zulm o'tkazilganligini, zo'rlik yo'li bilan islomlashtirish siyosati qo'llanilganligini, ayniqsa, bu XV–XVI asrlarda Rodop viloyatini juda ko'p qishloqlari misolida yaqqol ko'rinishini ta'kidlaydilar.

Ammo bu yerda bogomillarning ko'pchiligining ixtiyoriy ravishda islom dinini qabul qilganligi, juda ko'p slavyanlarning iqtisodiy-siyosiy maqsadda islomni ixtiyoriy qabul qilganligi, turklar va slavyanlar o'rtasidagi nikoh natijasida paydo bo'lgan bolalar hisobiga mahalliy aholi orasida musulmonlarning ko'payganligi faktorlari hisobga olinmaydi.

Rus tarixchilari asarlarida xayduklar harakatini Bolqon xalqlarining milliy-ozodlik kurashi sifatida ideallashtirishga urinish kuchli. Ayrim adabiyotlarda xayduklar tomonidan tinch aholini talash va zo'rlik ishlatish ularning og'ir yashash sharoiti majbur etgan obyektiv faktlar sifatida baholanadi. Ularni faqat amaldorlar feodallardan qochib o'rmonlarga yashiringan dehqonlardan iborat edi deb ko'rsatuvchi noto'g'ri ma'lumotlar ham bor.

Ayrim adabiyotlarda Rossiyaning Turkiyaga qarshi Pyotr I davridan boshlab olib borgan qator urushlari, birinchi navbatda, Bolqon yarim oroli va Kichik Osiyodan pravoslav xalqlarning turmushini yaxshilash ularni musulmonlar zulmidan ozod etish maqsadida olib borilgan edi deb, Rossiyaning bosqinchilik yurishlarini oqlashga urinish va uning mohiyatini buzib ko'rsatish hollari mavjud.

1. Granovskiy T.N. Leksii po istorii srednix vekov, 1947.

2. Novichov A.D. Istoriya Tursii T-1, M.1963.

3. Makushev V. Bolgariya pod turetskim vladichestvom premushestvo v XV-XVI v.v. JMNP, 1872, №10, s.289; Pogodin A.L. Bolgari. SPb.

4. Vsemirnaya istoriya. T-IV .M., 1958. s. 412. Osmanskaya imperiya sistema gosudarstvennogo upravlenie, sotsialnie i etnoreligiozniye problemi. M., 1986.

5. Istoriya Bolgarii. T-1. M., 1954.

**4. Bobur va boburyilar davrining Yevropa tarixshunosligida o'rganilish tarixi.** Bobur va boburiylar davri tarixi qariyb 500 yildan beri deyarli butun jahonda tarixchilar ilmiy-tadqiqot isharoning bosh mavzularidan biri bo'lib kelmoqda.

Afsuski, mustabid tuzum davrida turli sabablarga ko'ra o'zbek tarixshunosligida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlarining jahon tarixidagi o'rni yetarli darajada o'rganilmay kelindi. Chop etilgan adabiyotlarda tarixchilar bu mavzuni o'sha davr talabiga mos ravishda talqin etdilar.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning umr yo'li tarixiy vo-

qalar bilan juda boy va o'sha davrdagi barcha murakkabliklarni o'zida aks ettirgan hayotdir. Baxtning aylanib turadigan g'ildiragi bir necha bor hukmronlikning eng yuqori cho'qqisida bo'lgan Boburni ayovsiz pastga uloqtiradi, o'n millionlab aholisi bo'lgan podsholik taxtidan kichik bir viloyat hukmdori darajasiga tushib qoladi, dunyodagi eng go'zal joylardan birida tug'ilgan shoh o'z vatanini ixtiyorsiz tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Yuqorida aytganimizdek, Bobur va boburiylar davrini o'rganishga bag'ishlangan tarixiy asarlar son-sanoqsizdir. Bugungi muloqotimizda biz sizlarni Yevropa tarixchilaridan ayrimlarining qalamiga mansub bo'lgan asarlarida yuqoridagi mavzuning qanday yoritilganligi bilan tanishtirishni lozim topdik.

Yevropa tarixchilarining deyarli barchasi Zahiriddin Muhammad Boburning temuriylar xonadoniga mansub ekanligini tan olishadi, ammo ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan xato shundan iboratki, xuddi Amir Temur shaxsiga qo'llanilgan kabi Boburga ham «U mo'g'ullar avlodidan edi va Mo'g'uliston hududidan kelib chiqqan» kabi noto'g'ri tushunchaning ishlatilishidir.

Bu faqatgina o'tgan XIX asrdagi tarixchilar qarashlariga mansub bo'lmasdan, balki hozirgacha ham davom etib kelayapti. 1970-yilda Moskvada nashr etilgan «Xorijiy Osiyo mamlakatlarini o'rta asrlar tarixi» va 1998-yilda nashr etilgan L.S. Vasilyevning «Sharq tarixi» kitoblarining maxsus bo'limlarida «Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi» to'g'risida gap boradi.

Bundan tashqari shu mavzuga doir yoki qisman tegishli bo'lgan barcha yevropalik tarixchilar asarlarida Boburning turkiylarga mansub ekanligi alohida qayd etilsa-da, ammo u asos solgan imperiya «Mo'g'ullar imperiyasi» nomi bilan ishlatilindi.

Hozirga qadar g'arb tarixchilarini hayratga solgan narsa shulkim, Bobur boshiga tushgan qiyinchiliklarning barchasini o'ziga sodiq kishilarni tanlay olish donishmandligi, juda katta g'ayrati, chidamliligi va tirishqoqligi bilan bartaraf eta oldi. U o'zi uchun eng og'ir bo'lgan alamli kunlar va harbiy mag'lubiyatlardan keyin ham juda katta shijoat va g'ayrat bilan nihoyatda ulkan rejalar tuzishdan to'xtamagan.

A. Myuller Boburga bergan tavsifni davom ettirib, «Unga (Boburga - P.S.H.) o'zining qudratli bobokalonidan juda kam uchraydigan bog'lanish: botirlik va ehtiyotkorlik ham meros bo'lib o'tgan»ligini alohida qayd etadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonga yurish sanasi g'arb tarixchilarining asarlarida turlicha ko'rsatiladi. A. Myuller va K.A.

Antonovlar bu harakat 1525-yil oxiridan boshlangan edi, deb ko'rsatgan bo'lsa, tarixchilardan L.S. Vasilyev «Bobur Hindistonga 1526-yil bostirib kirdi», deb hisoblaydi.

G'arb tarixchilari Boburning Hindistonni bosib olish jarayonida o'zining juda katta siyosatchilik qobiliyatini va diplomatik san'atini namoish qilganligini ko'rsatib o'tadilar.

Boburning Hindistonni zabt etishida yevropalik tarixchilarni hayratga solgan narsa bu -- atigi 20000 kishilik armiya bilan aholisi qariyb 20 million bo'lgan mamlakat ichiga yurish qilishidir. Tarixchi A. Myuller buni «milsiz jasurlik» deb baholaydi. G'arb tarixchilari fikriga ko'ra, Hindistonga yurish davrida Bobur g'alabasini ta'minlagan va uning sarkardalik iste'dodini namoyon qilgan omillar asosan quyidagilardir:

1. Bobur armiyasining qudrati uning kuchli artelleriyaga ega bo'lganligi va eng muhimi, bu armiyani boshqarishdagi harbiy iste'dod;

2. Boburning diplomatik san'ati va siyosiy jihatdan esankirab qolmasligi. Uning bu sohadagi faoliyati juda ko'p afg'on boshliqlarining Bobur tomoniga og'ishiga olib keldi, undagi mag'lub bo'lgan dushmanlarga shafqatlilik esa ularda Boburga bo'lgan ishonchni mustahkamladi.

Bobur qo'shinlarining hujumidagi qat'iylik va harakatidagi mardonavorlik barcha joylarda uning nomiga bo'lgan hurmat va ehtiromni kuchaytirdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va harbiy tajribaliligi natijasida 1525-yil oxirida Hindistonni zabt etish uchun boshlangan harakat 1526-yil 21-aprel kuni uning 100 ming kishilik qo'shinga ega bo'lgan Hindistonning afg'onistonlik hukmdori Ibrohimxon ustidan g'alabasini ta'minladi. Yevropalik tarixchilarning sinc-hkovlik bilan o'rgangan sohalaridan biri bu Boburning davlatni boshqarish mahoratidir. Nemis tarixchisi A. Myullerning yozishicha, Bobur mamlakatni nihoyatda katta san'at bilan boshqargan, «u davlatni boshqarishda shunday mukammal tizim tashkil etganki, bu tizim keyinchalik uning o'zini har bir masalaga, har qadamda shaxsan aralashishdan xalos qilgan».

Podshoh Akbarning (1556-1605) hukmronlik yillari «Buyuk Mo'g'ullar imneriya»sining oltin asri bo'ldi. Uning davrida imperiya tarkibiga rajputlar yerlari, Gandvane, Gujorat, Bengaliya, Kashmir, Orisso ham qo'shib olindi. Butun Shimoliy Hindiston o'zining mohir hukmdor ekanligini ko'rsatgan Akbar qo'li ostiga o'tdi.



qealar bilan juda boy va o'sha davrdagi barcha murakkabliklarni o'zida aks ettirgan hayotdir. Baxtning aylanib turadigan g'ildiragi bir necha bor hukmronlikning eng yuqori cho'qqisida bo'lgan Boburni ayovsiz pastga uloqtiradi, o'n millionlab aholisi bo'lgan podsholik taxtidan kichik bir viloyat hukmdori darajasiga tushib qoladi, dunyodagi eng go'zal joylardan birida tug'ilgan shoh o'z vatanini ixtiyorsiz tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Yuqorida aytganimizdek, Bobur va boburiylar davrini o'rganishga bag'ishlangan tarixiy asarlar son-sanoqsizdir. Bugungi muloqotimizda biz sizlarni Yevropa tarixchilaridan ayrimlarining qalamiga mansub bo'lgan asarlarida yuqoridagi mavzuning qanday yoritilganligi bilan tanishtirishni lozim topdik.

Yevropa tarixchilarining deyarli barchasi Zahiriddin Muhammad Boburning temuriylar xonadoniga mansub ekanligini tan olishadi, ammo ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan xato shundan iboratki, xuddi Amir Temur shaxsiga qo'llanilgan kabi Boburga ham «U mo'g'ullar avlodidan edi va Mo'g'uliston hududidan kelib chiqqan» kabi noto'g'ri tushunchaning ishlatilishidir.

Bu faqatgina o'tgan XIX asrdagi tarixchilar qarashlariga mansub bo'lmasdan, balki hozirgacha ham davom etib kelayapti. 1970-yilda Moskvada nashr etilgan «Xorijiy Osiyo mamlakatlarini o'rta asrlar tarixi» va 1998-yilda nashr etilgan L.S. Vasilyevning «Sharq tarixi» kitoblarining maxsus bo'limlarida «Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi» to'g'risida gap boradi.

Bundan tashqari shu mavzuga doir yoki qisman tegishli bo'lgan barcha yevropalik tarixchilar asarlarida Boburning turkiylarga mansub ekanligi alohida qayd etilsa-da, ammo u asos solgan imperiya «Mo'g'ullar imperiyasi» nomi bilan ishlatilinadi.

Hozirga qadar g'arb tarixchilarini hayratga solgan narsa shulkim, Bobur boshiga tushgan qiyinchiliklarning barchasini o'ziga sodiq kishilarni tanlay olish donishmandligi, juda katta g'ayrati, chidamliligi va tirishqoqligi bilan bartaraf eta oldi. U o'zi uchun eng og'ir bo'lgan amaliy kunlar va harbiy mag'lubiyatlardan keyin ham juda katta shijoat va g'ayrat bilan nihoyatda ulkan rejalar tuzishdan to'xtamagan.

A. Myuller Boburga bergan tavsifni davom ettirib, «Unga (Boburga – P.SH.) o'zining qudratli bobokalonidan juda kam uchraydigan bog'lanish: botirlik va ehtiyotkorlik ham meros bo'lib o'tgan»ligini alohida qayd etadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonga yurish sanasi g'arb tarixchilarining asarlarida turlicha ko'rsatiladi. A. Myuller va K.A.

Antonovlar bu harakat 1525-yil oxiridan boshlangan edi, deb ko'rsatgan bo'lsa, tarixchilardan L.S. Vasilyev «Bobur Hindistonga 1526-yil bostirib kirdi», deb hisoblaydi.

G'arb tarixchilari Boburning Hindistonni bosib olish jarayonida o'zining juda katta siyosatchilik qobiliyatini va diplomatik san'atini namoish qilganligini ko'rsatib o'tadilar.

Boburning Hindistonni zabt etishida yevropalik tarixchilarni hayratga solgan narsa bu – atigi 20000 kishilik armiya bilan aholisi qariyb 20 million bo'lgan mamlakat ichiga yurish qilishidir. Tarixchi A. Myuller buni «mislisiz jasurlik» deb baholaydi. G'arb tarixchilari fikriga ko'ra, Hindistonga yurish davrida Bobur g'alabasini ta'minlagan va uning sarkardalik iste'dodini namoyon qilgan omillar asosan quyidagilardir:

1. Bobur armiyasining qudrati uning kuchli artelleriyaga ega bo'lganligi va eng muhimi, bu armiyani boshqarishdagi harbiy iste'dod;

2. Boburning diplomatik san'ati va siyosiy jihatdan esankirab qolmasligi. Uning bu sohadagi faoliyati juda ko'p afg'on boshliqlarining Bobur tomoniga og'ishiga olib keldi, undagi mag'lub bo'lgan dushmanlarga shafqatlilik esa ularda Boburga bo'lgan ishonchni mustahkamladi.

Bobur qo'shinlarining hujumidagi qat'iylik va harakatidagi mardonavorlik barcha joylarda uning nomiga bo'lgan hurmat va ehtiromni kuchaytirdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va harbiy tajribaliligi natijasida 1525-yil oxirida Hindistonni zabt etish uchun boshlangan harakat 1526-yil 21-aprel kuni uning 100 ming kishilik qo'shinga ega bo'lgan Hindistonning afg'onistonlik hukmdori Ibrohimxon ustidan g'alabasini ta'minladi. Yevropalik tarixchilarning sinc-hkovlik bilan o'rgangan sohalaridan biri bu Boburning davlatni boshqarish mahoratidir. Nemis tarixchisi A. Myullerning yozishicha, Bobur mamlakatni nihoyatda katta san'at bilan boshqargan, «u davlatni boshqarishda shunday mukammal tizim tashkil etganki, bu tizim keyinchalik uning o'zini har bir masalaga, har qadamda shaxsan aralashishdan xalos qilgan».

Podshoh Akbarning (1556-1605) hukmronlik yillari «Buyuk Mo'g'ullar imneriya»sining oltin asri bo'ldi. Uning davrida imperiya tarkibiga rajputlar yerlari, Gandvane, Gujorat, Bengaliya, Kashmir Orisso ham qo'shib olindi. Butun Shimoliy Hindiston o'zining mohi hukmdor ekanligini ko'rsatgan Akbar qo'li ostiga o'tdi.

Akbarning ichki siyosatidagi quyidagi tomonlar g'arb tarixchilari tomonidan o'z davri uchun juda progressiv bo'lganligi ko'rsatiladi:

1. Mahalliy hind, ya'ni rajputlar boshliqlaridan birining qiziga uylanish bilan u musulmonlar va hindlar o'rtasidagi qarindoshlik va yaqinlikka asos soldi;

2. Davlatni boshqarishning mustahkam asosini qurdi;

3. Barcha yerlar davlatniki deb e'lon qilindi. Yerning bosh kadastri (yer haqida to'liq ma'lumotlar to'plami)ni tuzdirdi va har bir hududdan olinadigan soliqning umumiy va aniq summasi belgilandi. Yerning ko'p qismi harbiy boshliqlar – jagirdorlarga xizmat evaziga meros bo'lmaydigan shartlar asosida egalik qilib foydalanishga berildi;

4. Bir qism yerlar musulmon ruhoniylariga va hind ibodatxonalariga ajratildi, shuningdek, u nomusulmonlardan undiriladigan jiz'yani bekor qildi. Bu islohotlar Akbarshohning hindlarning diniy e'tiqodiga ham keng o'rin berganligini va uni hurmat qilganligini ko'rsatadi. Umuman, Akbarshoh o'z fuqarolarining diniy ixtiloflarini bartaraf qilishga katta kuch sarflagan.

Shuningdek, g'arb tarixchilari boburiylardan bo'lgan Akbarshohning o'g'li Jahongir (1605-1627) va nevarasi Shoh Jahon (1627-1658) davrida olib borilgan faol tashqi siyosatiga ham to'xtalib, bu davrda olib borilgan Dekan viloyati uchun jangga, Panjobda sinkxlarga qarshi olib borilgan yurishga, Ahmadnagar hududining qo'shib olinishi masalalariga alohida e'tibor beradilar va deyarli butun Hindistonning boburiylar imperiyasi tarkibiga kirganligini qandaydir bir ichki hasad bilan qayd etishib, «ammo uning yashash kuni hisobli qolgan edi», deb, sodir bo'lajak o'zgarishni oldindan xayrixohlik bilan qarshi olishga tayyorlanadilar.

Yevropa tarixchilarining deyarli barchasi Shoh Jahonning o'g'li Avrangzebni (1658-1707) qonxo'r va zolim hukmdor deb ko'rsatadilar va uning o'zi to'g'risida tarixda yomon nom qoldirganligiga alohida urg'u beradilar. Ular tomonidan Avrangzebga boburiylar imperiyasining parchalanishiga shaxsan sababchi hukmdor sifatida ayb qo'yiladi. Uning xatolari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: hind va hatto musulmonlarning shiya mazhabida bo'lganlarning diniy jihatdan ta'qib qilinishi, ularning ibodatxonalarining buzib tashlanishi, Akbarshoh davrida bekor qilingan juz'yaning qaytadan joriy etilishi, xazinani boyitish maqsadida soliqlarning ko'paytirilishi, mamlakat chegara hududlarida separatizm harakatlariga yo'l qo'yilishini va hokazo. Bularning orasida, ayniqsa, aholini diniy e'tiqodiga qarab ta'qib etilishi juda katta norozilik keltirib chiqardi. Natijada Avrangzeb vafotidan so'ng Boburi-

ylar imperiyasining parchalanish jarayoni juda tezlashdi va bu inqiloblar qatorida ingliz kolonizatorlari foydalandilar.

**5. Xristian dini. Xristian cherkovi va Rim papaligi tarixi. tarixshunoslikda o'rganilishi.** Tarixshunoslikda Rim katolik cherkovi, g'arbiy Yevropada xristian dini va cherkovi, inkvizitsiya sudi bilan bog'liq masalalarga juda ko'p tarixchilar murojaat qilganlar. Bu sohaga bag'ishlangan adabiyotlarning eng muhimlaridan biri N.K. Amosovning «Xristianlik, uning kelib chiqishi va siyosiy roli» (Amosov N.K. «Xristianstvo, ego proisxojdeniya i politicheskaya rol», M., 1955) kitobidir. N.K. Amosovning bu asarida xristian dinining paydo bo'lishi va uning O'rta asrlar davridagi faoliyatiga doir boy axborotlar beriladi.

Yirik dinshunos M.M. Sheynman qalamiga mansub «Papalik tarixining qisqacha ocherklari» (Sheynman M.M. «Kratkie ocherki istorii papstva» M., 1952) kitobi o'z ichiga milodning III asrlaridan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni oladi va unda xristian dini va katolik cherkoviga doir quyidagi masalalar to'g'risida so'z yuritiladi:

- 1) Xristian dini, xristian cherkovlari, papalik va papalik davrining paydo bo'lishi;
- 2) Papalikning feodal munosabatlarda tutgan o'rni;
- 3) Inkvizitsiya, katolik cherkovi va papalikka qarshi harakatlar;
- 4) Diniy ritsarlik ordenlari va iyezuitlar ordeni;
- 5) Vatikanning tashqi siyosati.

Yuqoridagi barcha masalalarni M.M. Sheynman o'ziga xos kuchli tahlil qilish qobiliyati bilan yoritib beradi. Olimning bu sohadagi tadqiqotchilik qobiliyati uning yana bir kitobi «Rim papalari kimlar o'zi» (Sheynman M.M. Kto takie papi Rimskiye. M., 1941)da yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

M.M. Sheynmanning «Papalik» (Sheynman M.M. Papstvo. M., 1961) kitobi bu mavzuga bag'ishlangan eng yirik asarlardan biridir. Kitobda milodning I asridan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan papalik tarixi yoritiladi. Unda, ayniqsa, papalikning paydo bo'lishi, rim katolik cherkovining Yevropa ijtimoiy va siyosiy hayotidagi o'rni va o'sha davr siyosatiga ta'siri, reformatsiya va unga nisbatan papalikning munosabati, iyezuitlar ordeni faoliyati, papalikning Rossiya bilan munosabatlari kabi masalalar yoritilgan.

Papalik tarixini o'rganishdagi muhim adabiyotlardan biri bu amerikalik tarixchi N. Tolbergning «Xristian cherkovi tarixi» (Tolberg N. Istoriya xristianskoy cherkovi. Perv. s angliyskogo. M., 1991) asaridir. Bu kitob ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida I asrdan to XIII

Akbarning ichki siyosatidagi quyidagi tomonlar g'arb tarixchilari tomonidan o'z davri uchun juda progressiv bo'lganligi ko'rsatiladi:

1. Mahalliy hind, ya'ni rajputlar boshliqlaridan birining qiziga uylanish bilan u musulmonlar va hindlar o'rtasidagi qarindoshlik va yaqinlikka asos soldi;

2. Davlatni boshqarishning mustahkam asosini qurdi;

3. Barcha yerlar davlatniki deb e'lon qilindi. Yerning bosh kadastri (yer haqida to'liq ma'lumotlar to'plami)ni tuzdirdi va har bir hududdan olinadigan soliqning umumiy va aniq summasi belgilandi. Yerning ko'p qismi harbiy boshliqlar – jagirdorlarga xizmat evaziga meros bo'lmaydigan shartlar asosida egalik qilib foydalanishga berildi;

4. Bir qism yerlar musulmon ruhoniylariga va hind ibodatxonalariga ajratildi, shuningdek, u nomusulmonlardan undiriladigan jiz'yani bekor qildi. Bu islohotlar Akbarshohning hindlarning diniy e'tiqodiga ham keng o'rin berganligini va uni hurmat qilganligini ko'rsatadi. Umuman, Akbarshoh o'z fuqarolarining diniy ixtiloflarini bartaraf qilishga katta kuch sarflagan.

Shuningdek, g'arb tarixchilari boburiylardan bo'lgan Akbarshohning o'g'li Jahongir (1605-1627) va nevarasi Shoh Jahon (1627-1658) davrida olib borilgan faol tashqi siyosatiga ham to'xtalib, bu davrda olib borilgan Dekan viloyati uchun jangga, Panjobda sinkxlarga qarshi olib borilgan yurishga, Ahmadnagar hududining qo'shib olinishi masalalariga alohida e'tibor beradilar va deyarli butun Hindistonning boburiylar imperiyasi tarkibiga kirganligini qandaydir bir ichki hasad bilan qayd etishib, «ammo uning yashash kuni hisobli qolgan edi», deb, sodir bo'lajak o'zgarishni oldindan xayrixohlik bilan qarshi olishga tayyorlanadilar.

Yevropa tarixchilarining deyarli barchasi Shoh Jahonning o'g'li Avrangzebni (1658-1707) qonxo'r va zolim hukmdor deb ko'rsatadilar va uning o'zi to'g'risida tarixda yomon nom qoldirganligiga alohida urg'u beradilar. Ular tomonidan Avrangzebga boburiylar imperiyasining parchalanishiga shaxsan sababchi hukmdor sifatida ayb qo'yiladi. Uning xatolari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: hind va hatto musulmonlarning shiya mazhabida bo'lganlarning diniy jihatdan ta'qib qilinishi, ularning ibodatxonalarining buzib tashlanishi, Akbarshoh davrida bekor qilingan juz'yaning qaytadan joriy etilishi, xazinani boyitish maqsadida soliqlarning ko'paytirilishi, mamlakat chegara hududlarida separatizm harakatlariga yo'l qo'yilishini va hokazo. Bularning orasida, ayniqsa, aholini diniy e'tiqodiga qarab ta'qib etilishi juda katta norozilik keltirib chiqardi. Natijada Avrangzeb vafotidan so'ng Boburi-

ylar imperiyasining parchalanish jarayoni juda tezlashdi va bundan birinchi qatorida ingliz kolonizatorlari foydalandilar.

**5. Xristian dini. Xristian cherkovi va Rim papaligi tarixining tarixshunoslikda o'rganilishi.** Tarixshunoslikda Rim katolik cherkovi, g'arbiy Yevropada xristian dini va cherkovi, inkvizitsiya sudi bilan bog'liq masalalarga juda ko'p tarixchilar murojaat qilganlar. Bu sohaga bag'ishlangan adabiyotlarning eng muhimlaridan biri N.K. Amosovning «Xristianlik, uning kelib chiqishi va siyosiy roli» (Amosov N.K. «Xristianstvo, ego proisxojdeniya i politicheskaya rol», M., 1955) kitobidir. N.K. Amosovning bu asarida xristian dinining paydo bo'lishi va uning O'rta asrlar davridagi faoliyatiga doir boy axborotlar beriladi.

Yirik dinshunos M.M. Sheynman qalamiga mansub «Papalik tarixining qisqacha ocherklari» (Sheynman M.M. «Kratkie ocherki istorii papstva» M., 1952) kitobi o'z ichiga milodning III asrlaridan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni oladi va unda xristian dini va katolik cherkoviga doir quyidagi masalalar to'g'risida so'z yuritiladi:

- 1) Xristian dini, xristian cherkovlari, papalik va papalik davrining paydo bo'lishi;
- 2) Papalikning feodal munosabatlarda tutgan o'rni;
- 3) Inkvizitsiya, katolik cherkovi va papalikka qarshi harakatlar;
- 4) Diniy ritsarlik ordenlari va iyezuitlar ordeni;
- 5) Vatikanning tashqi siyosati.

Yuqoridagi barcha masalalarni M.M. Sheynman o'ziga xos kuchli tahlil qilish qobiliyati bilan yoritib beradi. Olimning bu sohadagi tadqiqotchilik qobiliyati uning yana bir kitobi «Rim papalari kimlar o'zi» (Sheynman M.M. Kto takie papi Rimskiye. M., 1941)da yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

M.M. Sheynmanning «Papalik» (Sheynman M.M. Papstvo. M., 1961) kitobi bu mavzuga bag'ishlangan eng yirik asarlardan biridir. Kitobda milodning I asridan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan papalik tarixi yoritiladi. Unda, ayniqsa, papalikning paydo bo'lishi, rim katolik cherkovining Yevropa ijtimoiy va siyosiy hayotidagi o'rni va o'sha davr siyosatiga ta'siri, reformatsiya va unga nisbatan papalikning munosabati, iyezuitlar ordeni faoliyati, papalikning Rossiya bilan munosabatlari kabi masalalar yoritilgan.

Papalik tarixini o'rganishdagi muhim adabiyotlardan biri bu amerikalik tarixchi N. Tolbergning «Xristian cherkovi tarixi» (Tolberg N. Istoriya xristianskoy cherkovi. Perv. s angliyskogo. M., 1991) asaridir. Bu kitob ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida I asrdan to XIII

asr oxirigacha bo'lgan papalik tarixi yoritiladi. Asarning ikkinchi qismida esa XIV asrdan to XIX asrgacha bo'lgan papalik tarixi yoritiladi. N. Tolberg asarining qimmatli tomoni shundaki, unda o'rganilayotgan davrda yashab o'tgan papalar, yirik diniy arboblari, cherkov xodimlari va reformatorlar to'g'risida boy materiallar berilgan va ularning faoliyatlari tarixiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilingan. Talantli tarixchilardan L.P. Karsavishning «O'rta asrlarda monaxlik» (Monashestvo v serednie veka. Petrograd. 1912), A.A. Yastrebiskayaning «G'arbiy Yevropa XI-XIII asrlarda» (Zapadnaya Yevropa v XI-XIII vekov. M., 1978), M.A. Gukovskiyning «Italiya tarixi ocherklari» (Ocherki istorii Italii. M., 1959) asarlarida papa hokimiyati va xristian cherkovining faoliyatlari o'rganiladi.

Yirik tarixchi I.R. Grichulevichning «Salib va qilich» (I.R. Grichulevich. Krest i mech. M., 1977) nomli asarida tadqiqot markazi qilib XVI asrdan XVIII asrgacha bo'lgan papalik tarixi olinadi. Asarda papalikning cherkov siyosati, cherkovning mavqeyi, iyeuzitlar ordenining taraqqiyoti va inqirozi haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

So'zsiz, papalik tarixini o'rganishga bag'ishlangan asarlar orasida S.G. Lozinskiyning «Papalik tarixi» (Lozinskiy S.G. Istoriya papstvo. M., 1986) asari alohida ajralib turadi. Kitobda quyidagi masalalar mu-kammal o'rganilgan:

- 1) Papalikning paydo bo'lish yo'li;
- 2) O'rta asrlardagi papa davlatining faoliyati, uning kuchayishi va zaiflashuvining sabablari;
- 3) Papa davlatining ichki va tashqi siyosati;
- 4) Reformatsiya jarayoni va unga qarshi papalikning kurash usullari;
- 5) Papalikning Fransiya respublikasiga munosabati.

Shuningdek, bu asarda xristianlikning tarqalishiga doir (milodning I asri. -P.S.H.) ham juda qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Bu sohani chuqur o'rganmoqchi bo'lganlarga biz M.M. Smirinning «Tomas Myunserning xalq reformatsiyasi va Buyuk dehqonlar urushi» (Smirin M.M. Narodnaya reformatsiya Tomasa Myunsera i Velikaya krestyanskaya voyna, M., 1955) monografiyasini tavsiya etamiz. Kitobda 1524-yildagi Germaniyadagi dehqonlar urushiga doir boy ma'lumotlar qatorida o'sha davrdagi reformatsiya harakati va bu jarayonda Martin Lyuter va Tomas Myunserlar o'rni to'g'risida gapiriladi.

**Yevropada feodal shaharlarning vujudga kelishi masalasining g'arb tarixshunosligida yoritilishi.** O'rta asr shaharlarining vujudga

kelishi to'g'risidagi savolga ko'pgina Yevropa olimlari XIX–XX asrlarda bir qancha g'oyalarni o'rtaga tashlab javob bermoqchi bo'ldilar. Ularda bu g'oyalarning asosiy qismiga, muammoga huquqiy yondoshish xosdir.

XVIII asrning oxiri – XIX asr boshlarida Yevropa tarixshunosligida shaharlar paydo bo'lishining «roman nazariyasi» keng yoyildi. Bu nazariyaning asosiy mohiyati – shahar rivojlanishining Rim davridan yangi davrgacha uzluksiz davom etishi, shaharning bevosita Rim imperiyasi shaharidan o'rta asr shahariga o'sib o'tishi g'oyasidir.

Bu g'oyaing dastlabki tarafdorlari fransuz tarixchilari Dyubo va Renuarlardir. Ikkala muallif ham o'z diqqat-e'tiborini shahar muassasalari, shaharlarning tizimiga qaratib, uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini e'tiborga olmaganlar.

Ogusten Terrida esa shaharlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi «roman nazariyasi» boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Uning diqqat markazida shahar aholisi turadi.

Roman nazariyasi vakillaridan yana biri bu nemis tarixchisi, yurist Savinidir. Hozirgi vaqtda shaharlarning vujudga kelishi to'g'risidagi roman nazariyasi italyan istoriografiyasida katta o'rin tutadi. Italiyada bu g'oya tarafdorlaridan biri tarixchi Villari hisoblanadi.

Shaharlarning vujudga kelishi muammosining asosiy oqimlaridan biri Germaniyada tan olingan «votchina» nazariyasidir. «Votchina» nazariyasining asosiy namoyandasi bu nemis tarixchisi K. Nichdir.

Keyingi davr tarixshunosligining to'g'ri baho berishicha, Nich butun Korolinglar davlatini bir butun votchina ko'rinishida tasavvur qildi. Uning fikricha, butun shahar aholisining qatlamlari votchina aholisi va votchina muassasalaridan kelib chiqqan. Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy o'rin tutgan yagona element bu bozor ayirboshlashidir, deydi Nich.

Votchina nazariyasi elementlarini biz nemis tarixchisi Eyxgornda ham ko'ramiz. Shu bilan birga, Eyxgornda biz romantik nazariyaning ham elementlarini uchratamiz. «Germaniyadagi ba'zi shaharlar, deydi u, – Rim shaharlaridan kelib chiqqan».

Votchina nazariyasining klassik tayanchi ma'lum. Bu feodal tizim tabaqalarni ko'klarga ko'tarishdir. Nemis tarixshunosligida ancha tarqalgan va Germaniyada V. Valdo tomonidan ilgari surilgan bu «Gildiya nazariyasi»dir. Uning mohiyati shundaki, shahar kommunasining asosini o'z a'zolari manfaatlarini burg devorlari, qal'a ichida himoya qiluvchi Germaniyaning ozod ittifoqi tashkil etadi.



«Marka nazariyasi» (Maurer, Belov) shahar muassasalarini qishloq jamoa-markasidan keltirib chiqarishga uringan. «Burg nazariyasi» namoyandalari (Keytgen, Metlend) fikricha, burg (qal'a) shaharning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

«Bozor nazariyasi» namoyandalari ham Yevropa tarixshunosligida asosiy oqim, yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu savdoning ahamiyatini yuqoriga ko'tarishdan kelib chiqqan. Bu oqimda ikki yo'nalish mavjud. «Shaharning bozordan kelib chiqishi» nazariyasi va «uning savdo ahli-dan kelib chiqishi nazariyasi». O'rta asr shaharlari paydo bo'lishi bozor nazariyasining klassik namoyandasi nemis tarixchisi Zomdir.

Zomning fikrlari shaharlarning paydo bo'lishidagi savdo ahli nazariyasida o'z aksini topdi.

Keyingi nazariyaning namoyandasi bu belgiyalik yirik tarixchi Anri Pirendir. Pirenning fikrlarida o'rta asrlarda savdoning ahamiyati asosiy o'rin tutadi. Piren bozor nazariyasini rad etadi. «Bozor, – deydi u, – savdogarlarning uchrashadigan joyi, xolos».

Piren nazariyasi bo'yicha «o'rta asr shaharlarining vujudga kelishi va keyingi iqtisodiy rivojlanishining asosi bu – savdo, shaharni yaratuvchi bu – savdo ahli».

Anri Piren o'z konsepsiyasini Flandriya materiallari asosida quradi. Flandriya savdo-sotiq borasida butun Yevropa mamlakatlari bilan bog'langan edi. Flandriyaning savdo kemalari va karvonlari to'xtagan joylarida savdo markazlari va mahsulotlar uchun omborlar vujudga keldi. Bulardan esa Bryugge, Gent kabi shaharlar kelib chiqdi. Bular to'liq holda savdo ahli-dan iborat edi.

Piren g'oyasi hozirgi Yevropa tarixshunosligida ham ancha keng tarqalgan. Yuqoridagi tarixchilar tomonidan shaharlarning tarixi bo'yicha ko'plab material to'plangan bo'lsa-da, ularning asarlaridan shaharlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi natijasida hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi – mehnat taqsimotining yangi pog'onasi orqali tushuntirish masalalariga kam e'tibor berilgan.

Keyingi davrlarda yaratilgan o'rta asr shaharlari tarixini o'rganishga bag'ishlangan asarlar ichida V. V. Stokliskaya Tereshkovichning qalamiga mansub monografiya diqqatga sazovordir. 1960-yilda e'lon qilingan «X–XV asrlardagi o'rta asr shaharlari tarixining asosiy masalalari» (Stokliskaya Tereshkovich V. V. Osnovniye problemi istorii sred-novekovyego goroda X–XV. vekov. M., 1969) asarida O'rta asr nemis shaharlarining misolida shaharlarning paydo bo'lishida ikkinchi yirik

mehnat taqsimotining roli, hunarmandchilikning shahar taraqqiyotiga ta'siri, savdo rivojlanishining asosiy omillari, o'rta asr shaharlaridagi sexchilik, sexchilik uyushmalari va ularning vazifalari to'g'risida tadqiqot olib boriladi. Bu izlanishni tarixchi V. V. Stokliskaya Tereshkovichning 1945-yilda «Voprosi istorii» jurnalining 2-sonida e'lon qilingan «O'rta asr shahri» (Srednevekovoy gorod) maqolasining davomi deyish mumkin.

**Angliya. O'rta asrlar tarixini o'rganish.** O'rta asrlar Angliya tarixini o'rganishda akademik D.M. Petrushevskiyning «Uot Tayler qo'zg'oloni» (Petrushevskiy D. M. Vosstaniye Uota Taylera. M., 1927) kitobining ahamiyati juda salmoqlidir.

Bu asarda akademik Petrushevskiy tomonidan quyidagi masalalar tadqiqot yo'nalishlari qilib olingan va o'z yechimini topgan:

1) XIV asr ikkinchi yarmida Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli;

2) Yuz yillik urushning ingliz dehqonlari hayotiga iqtisodiy jihatdan ta'siri, soliqlar turining orta borishi;

3) 1381-yildagi dehqonlar qo'zg'olonining boshlanish sabablari, uning dasturi va yengilish sabablari.

Ilmiy tadqiqot uchun juda katta faktik materiallarni to'plagan D. M. Petrushevskiy haqli ravishda 1381-yildagi Uot Tayler qo'zg'oloni boshlanishining asosiy sabablari sifatida yuz yillik urushning ta'siri, 1349-yildagi «Ishchi qonunlari to'g'risidagi ordonans» va qo'zg'olon arafasidagi «jon solig'i»ni undirish to'g'risidagi qaror deb ko'rsatadi.

Angliya o'rta asrlar tarixini o'rganishda akademik D.M. Petrushevskiyning «o'rta asrlardagi Angliya davlati va jamiyati tarixidan ocherklar» (D.M. Petrushevskiy. Ocherki iz istorii Angliyskogo gosudarstva i obshestvo v sredniye veka. M., 1936) monografiyasi alohida o'rin tutadi. Unda Angliyaning tarixi V asrdan to XIII asr oxirigacha chuqur o'rganilgan. Bu asarda boshqa misollar bilan bir qatorda «Buyuk erkinliklar xartiyasi»sining yuzaga kelish tarixi ham tahlil qilinadi. Muallif turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi nizolarning sabablarini oydinlashtirgan.

D.M. Petrushevskiy tahriri ostida nashr etilgan «X–XIII asrlardagi Angliya tarixi yodgorliklari»da (Pamyatniki istorii Anglii XI–XIII vekax. Pod red. D.M. Petrushevskogo. M., 1936) esa «Buyuk erkinliklar xartiyasi»ning 63 moddasi rus va lotin tilida beriladi. Shuningdek, bu kitobda baronlar qo'zg'oloniga oid materiallar ham qiziqarlidir.

O'rta asrlar Angliya tarixini o'rganishda ingliz tarixchisi A.L. Mor-

tonning «Angliya tarixi» (A.L. Morton. Istoriya Anglii. Perevod s angliyskogo N. Chernyayevskoy. M., 1950) asari ham qimmatli qoʻllanma hisoblanadi. Bu asarning eng muhim va ahamiyatli tomoni shundaki, u ingliz tarixchisi tomonidan yozilgan va tarixiy voqealar ingliz tarixchilari nuqtayi nazaridan bayon qilinadi. Ayrim masalalarga nisbatan A.L. Morton qarashlari bilan rus tarixchilari qarashlari oʻrtasida farq mavjud. (Masalan, Angliyada feodal munosabatlar rivojlanishi, parlamentning paydo boʻlishi, yuz yillik urushning boshlanish sabablari va h.k. - P. SH.)

V.V. Shokmarning «Angliyaning oʻrta asrlardagi tarixi» (V.V. Shtokmar. Istoriya Anglii v sredniye veka. L., 1973) kitobida Angliyaning qadimgi davrdan to XVII asriga qadar boʻlgan tarixi yoritiladi. Kitob faqatgina Angliyaning siyosiy tarixi emas, balki uning madaniyati tarixini oʻrganuvchilar uchun ham muhim qoʻllanma boʻlib xizmat qilishi mumkin.

**Fransiya tarixi tarixshunosligi.** Fransiyaning oʻrta asrlar davri ni oʻrganishda 1972-yilda A. Manfred tahriri ostida nashr qilingan «Fransiya tarixi» (Istoriya Fransii. v -tomax M., 1972) kitobi alohida oʻrin tutadi. Bundan tashqari, yirik fransuzshunos olim A.D. Lyublinskayaning «XVI–XVII asrlarda fransuz dehqonlari» (Lyublinskaya A.D. Fransuzskiye krestyane v XVI–XVII v. L., 1978), O.V. Trofimovaning «XVI asr Fransiyasidagi gugenotlar harakatida shaharlar» (Trofimova O. V. Goroda v gugenotskom dvijenii vo Fransii XVI veka. Yaroslavl, 1983) asarlarida XVI asrda Fransiya dehqonlarining ogʻir ahvoli, ijtimoiy tabaqalar oʻrtasidagi ziddiyatlarning kuchayish sabablari va «gugenotlar urushi» deb atalgan fuqarolar urushining boshlanish sabablari va borishi chuqur tahlil qilingan.

**Kalvinizm.** Oʻrta asrlar tarixida kalvinizm gʻoyalarining tarqalishi va uning gʻarbiy Yevropa mamlakatlariga yoyilishi masalasi tarixchi R. Y. Vipper tomonidan XIX asrning oxiridayoq chuqur tahlil qilingan edi. U oʻzining «Kalvin va kalvinizmning XVI asrdagi siyosiy taʼlimot va harakatlarga taʼsiri» (Vipper R. Y. Vliyaniye Kalvina i kalvinizma na politicheskiye ucheniya i dvijeniya XVI veke. M., 1894) asarida Kalvin va kalvinizm toʻgrisida maksimum maʼlumot berish bilan chegaralanib qolmasdan, XVI asrda qator Yevropa davlatlaridagi yuqoridagi gʻoya bilan bogʻliq sodir boʻlgan jarayonlarga ham toʻxtalib oʻtadi.

**Yan Gus faoliyati va guschilar harakatining tarixshunoslikda oʻrganilishi.**

Chexiya tarixidagi guschilar harakati tarixi XIX asr rus tarixshunosligida katta siyosiy va ilmiy qiziqish bilan o'rganildi. Bunga sabab o'sha davrda slavyan xalqlari birodarligini kuchaytirish, ularning yagona davlatini tashkil etish (Rossiya boshchiligida - P. SH.) harakatining jonlanishi bo'ldi.

Bu mavzuga dastlabki qo'l urganlardan biri A.S. Klevanovdir. U o'zining «Chexiyadagi diniy harakat tarixi» (Klevanov A.S. «Istoriya religioznogo dvijeniya v Chexii. M., 1870) asarida Chexiyadagi guschilar harakati va urushining faqatgina diniy harakat bo'lmasdan, ayni vaqtda milliy ozodlik harakati ham edi, deb baholaydi. Uning fikricha, guschilar harakati katolik cherkoviga ham qarshi qaratilgan bo'lib, u barcha Yevropa mamlakatlaridagi reformatsiya harakatiga yo'l ochib bergan.

Ikkinchi bir rus tarixchisi I.S. Palmov esa o'zining shu mavzuga bag'ishlangan asarida (Palmov I.S. K voprosu o chashe v gusitskom dvijeni. SP. 1881) guschilar harakati milliy ozodlik harakati bo'lib, u «lotin – german dunyosiga» qarshi qaratilgan edi, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, I. S. Palmov Chexiyadagi harakat g'arbiy Yevropadagi reformatsiya harakatlariga qarama-qarshi xususiyatga ega, deb ko'rsatadi.

Afsuski, I.S. Palmovning kitobida guschilar harakatining asosiy maqsadi nima ekanligi masalasiga to'xtalinmaydi. (Qaralsin: Palmov I.S. K voprosu o chashe v gusitskom dvijeniye. S. 142).

Adabiyotchi va tarixchi S.Vengsrov esa «Taboriti i ix obshkiye politicheskiye ideali» (Vestnik Evropi. 1882, №8) maqolasida yuqoridagi tarixchilardan farqli ravishda, guschilar harakatining iqtisodiy sabablariga to'xtaladi va qo'zg'olon ko'targan chex xalqining talablariga to'xtalib, ularga baho beradi. Shu bilan birga S. Vengerov rus tarixshunosligida taboritlar chiqishlarining eng muhim bir tomonini ko'rsatib o'tadi.

Uning fikricha, «Butun taboritlar boshida talantli chex ziyolilari turgan». (Vestnik Yevropi. 1882, №8 s. 581).

Guschilar harakati va uning Polshaga ta'siri masalasiga doir I. Pervelf qalamiga mansub (Slavyane, ix vzaimniye otnosheniya i svyazi. T. 1-3, Varshava, 1886–1890) izlanishlar juda katta ilmiy va siyosiy ahamiyatga egadir. Bu asarning 3-tomida ko'rsatilishicha, guschilar harakati ta'sirida Sileziya polyaklarining Polshaga qo'shilish uchun milliy ozodlik harakatlari kuchaygan. Uning guschilar harakatiga bergan bahosi quyidagichadir: «Guschilar urushlari chexlarning nemis dunyosiga qarshi kurashi bo'lib, bu milliy-ozodlik harakati hisoblanadi».

**Varvar qirolliklari tarixining tarixshunoslikda o'rganilishi.** Varvar qabilalari to'g'risida tarixchi N.P. Grasianskiyning 1939-yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat «O'rta asrlar» (N.P. Grasianskiy. Sredniye veka. Chast 1. M., 1939) kitobining birinchi qismida juda boy materiallar berilgan. Kitobda german qabilalarining joylashish geografiyasi, ularning xo'jalik hayoti, ijtimoiy turmushi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar umumlashtiriladi. Shuningdek, bu asarda german qabilalarining Rim imperiyasi hududiga yurishlarining sabablari ko'rsatiladi.

Franklar to'g'risidagi ma'lumotlarni A. Manfred tahriri ostida 1972-yilda nashr qilingan «Fransiya tarixi» (Istoriya Fransii. 1. M., 1972) kitobidan ham olish mumkin. Kitobda franklar qirolligining tashkil topishi va ularning birinchi qiroli Lyudovik haqida keng ma'lumotlar berilgan. Shunday ma'lumotlarni umumlashtirilgan tarzda 1957-yil nashr etilgan «Jahon tarixi»ning 3-tomidan ham olishingiz mumkin. O'z davrining juda mukammal asari bo'lgan bu kitobda (Vsemirnaya istoriya. T. Z. M., 1957) «Xalqlarning buyuk ko'chishi»ning asosiy sababi german qabilalariga qarshi turkiy xun qabilalarining yurishi ekanligi ko'rsatiladi.

Bir qancha tarixiy adabiyotlarda vestgotlar to'g'risida kengaytirilgan ma'lumotlar beriladi. Bularning orasida tarixchi A.R. Korsunskiyning «Gotlar Ispaniyasi» (Korsunskiy A.R. Gotskaya Ispaniya. M., 1969) asari alohida e'tiborga molikdir.

A.R. Korsunskiy kitobida got qabilalarining Ispaniyaga kelib joylashishi, ulardagi urf-odatlar va ularning ijtimoiy munosabatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Xuddi shunday ma'lumotlarni biz ispan tarixchisi Rafael Altamira de Krevaning 1951-yilda Moskvada nashr etilgan «Ispaniya tarixi» (R. Altomira de Krea. Istoriya Ispanii. Per. s. Ispanskogo, T. 1. M., 1951) olishimiz ham mumkin. Bu asarda vestgotlarning Ispaniya hududiga bostirib kirishi ispan tarixchisi tomonidan baholanganligi ahamiyatlidir.

## **6. Sharq mamalakatlarining tarixchilar tomonidan o'rganilishi. G'arbiy Yeropa mamlakatlarining tarixshunosligi.**

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. IV–VII asr Vizantiya tarixshunosligi maktabi vakillaridan kimlarni bilasiz?
2. Salib yurishlari tarixiga doir qaysi nomdagi asarlarni bilasiz va ularning mualliflari kimlar?
3. Rus tarixshunosligida turklarning Bolqon yarim orolidagi hukmronlik davriga qanday baho berilgan?

4. «Marka» nazariyasining asoschisi kim?
5. «Mediyevistika» atamasi qachon paydo bo'lgan va u nimani anglatadi?
6. O'rta asr shaharlarining paydo bo'lish masalasi qaysi tarixchilar tomonidan o'rganilgan?
7. G'arbiy Yevropadagi umumtabaqaviy kengashlar (parlament, general shtatlar, korteslar, seym) to'g'risida asarlar yozgan tarixchilardan kimlarni bilasiz?
8. O'rta asrlar tarixi bilan shug'ullangan rus tarixchilaridan «akademik» unvonini kimlar olgan?
9. O'zbekistonda o'rta asrlar tarixini o'rganishning qaysi mavzusiga bag'ashlangan xalqaro ilmiy anjumanlar bo'lib o'tdi?
10. O'zbekistonda shu bugungi kunda qaysi tarixchilar xorijiy mamlakatlarning o'rta asrlar davrini o'rganish bilan shug'ullanayapti?

### 3-MAVZU: IV–V ASRLARDA RIM IMPERIYASI. QULDORLIK TUZUMINING INQIROZI

#### REJA:

1. Rim imperiyasida kolonlik.
2. Shaharlarning tushkunlikka uchrashi va yer egalari hokimiyatining kuchayishi.
3. Rim imperiyasida xristian cherkovi va uning roli.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** quldorlik, kolonlik, kuriallar, kollegiatlar, kastellumlar, magnat, prinsipat, dominat, konsistoriya, tetrarxiya, xristian cherkovi, cherkov qullari, papalik, rim-katolik cherkovi.

**Rim imperiyasida kolonlik.** Rim imperiyasidagi quldorlik tuzumi III asrdayoq tamomila tushkunlikka uchragan edi. Qoʻl mehnati unumdorligining pastligi, qoʻl kuchining oʻrnini toʻldirib turishning tobora qiyinlashib borishi (Rim olib borgan gʻolibona urushlarning tamom boʻlganligi tufayli), Rimga qarshi toʻxtovsiz hujumlar boʻlib turishi, fitnalar va qullarning qoʻzgʻolonlari – bularning hammasi quldorlik xoʻjaligini norentabel qilib qoʻymoqda, ishlab chiqaruvchi kuchlarning turgʻunlikka va qullarning oʻzlarini xonavayron boʻlishga olib kelmoqda edi. Rim quldorlari qulchilikni bir qadar yumshatish yoki qullarni ekspluatatsiya qilib turib, ekspluatatsiya qilishning boshqa formalarini joriy qilish yoʻli bilan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozdan qutulishga urindilar. Bu urinishlar orasida asosiy oʻrinlardan birini **kolonlik** oladi.

Dastlab kolonlar deb Rim Respublikasidagi quldorlarning latifundiyalaridan (yirik pomestyelaridan) yer uchastkalarini ijraga olib ishlovchi ijarachi erkin mayda dehqonlarga aytilgan.

Davlatning bir qadar qoʻllab-quvvatlashiga qaramasdan, rimlik mustaqil dehqonlar quldorlik tuzumi hukmronlik qilgan sharoitlarda doimiy ravishda xonavayron va halok boʻla bordi. Dehqonlarning yerlari asta-sekin quldorlar qoʻliga oʻta bordi. Lekin quldorlik ishlab chiqarish usulining oʻzi inqirozga uchraganligi sababli latifundiyalar egalari faqat qullarni ekspluatatsiya qilish yoʻli bilangina oʻz yerlaridan foydalanishlari amri mahol boʻlib qoldi. Yerlarni maydalab ijraga be-

rish (ijaraga oluvchilar esa yerdan mahrum etilgan dehqonlarning o'zi edi) bu yerlardan foydalanish uchun eng qulay usul bo'lib qoldi.

Shunday qilib, quldorlik sistemasi bilan bir qatorda ma'lum darajada kelgusi feodal tuzumdan darak beradigan yangi munosabatlar (katta yer egaligining yerlardan maydalab foydalanish usuli bilan birga qo'shilishi, mayda mustaqil, lekin shaxsan qaram bo'lgan ishlab chiqaruvchi dehqonning ekspluatatsiya qilinishi) ham rivojlana bordi. Kolonlik rivojlanib, krepostnoylikka tobora yaqinlashib bordi. Quldorning ijirachisi bo'lgan, qullar orasida yashagan, kerakli asbob, urug'lik, turar joy va hokazolarni ham ko'pincha quldordan oladigan kolonlar tobora quldorga qaram bo'lib qolib, pomestye-villani tashlab, boshqa joyga ketib qutulish imkoniyatidan butunlay mahrum bo'ldi.

332-yilda imperator Konstantin buyuk katta yer egalarining manfaatlarini ko'zda tutib, kolonlarning ishlab turgan pomestyesini tashlab ketishini taqiqlaydigan va ko'chib ketgan kolonlarning majburiy yo'l bilan qaytarib olib kelinishini talab qiladigan farmon chiqardi. Imperator va senatorlarga qarashli pomestyelarda (bu pomestyelar saltuslar deb atala boshladi) kolonlar qudratli imperator ma'muriyati yoki hukmi zo'r senatorlar tomonidan ancha ilgariyoq tutqunlikka solingan edi. Shunday qilib, kolon yuridik jihatdan qul deb hisoblanmas edi (qulga nisbatan «erkin kishi» deb hisoblanar, davlat undan fuqarolik soliqlari olar edi), lekin haqiqatda esa u erkin ham emas edi, chunki pomestye hududidan chiqib ketolmas va yer egasiga doimiy suratda obrok to'lab turishga yoki uning uchun biron shaklda qullik majburiyati – barshchina o'tashga majbur edi. Shu bilan bir vaqtda quldorlar o'z qullarining bir qismini kazarma holatidan yakka xo'jalik («kulbali qullar» – o'z xo'jayinlariga obrok to'lashga majbur) holatiga ko'chirdilar. Kolonlar hali krepostnoy emas edi, lekin Engels iborasi bilan aytganda, ular «O'rta asrlardagi krepostnoylarning o'tmishdoshlari» edi. IV va V asrlarda kolonlarning soni qisman yersiz dehqonlar hisobiga ko'paya bordi.

Nihoyat, tashqaridan kelib o'rtnashib, Rim yer egalaridan biror-bir shartlar bilan muayyan yer uchastkalari olgan kelgindi varvarlar ham kolonlarga o'xshash ahvolda edi.

**Shaharlarning tushkunlikka uchrashi va yer egalari hokimiyatining kuchayishi.** Kolonlarning rivojlanishi Rim jamiyatining feodallasuv formalaridan biri edi. Lekin bu feodallasuvning yana boshqa alomatlari ham bor edi. G'arbiy Rimning Italiya, Galiya, Ispaniyadagi shaharlari imperiyaning keyingi davrida qattiq inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilikning



unumdorligi past edi. Erkin hunarmandlar o'zlari ishlab chiqargan buyumlarni yetarli darajada sotolmas, chunki quldorlarning pomestyelari tobora biqirlashib borayotgan natural xo'jalik tusiga kirmoqda edi. Ham mahalliy yer egasi, ham quldorlik davlati tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilingan kolonning xarid quvvati yo'q darajada edi. O'rta dengizdagi savdo balansi imperiyaning sharqiy qismiga qaraganda ancha qoloq g'arbiy qismi uchun mutlaqo noqulay bo'lsa, imperiyaning sharqiy qismi iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan va qulay sharoitda edi.

Rim imperiyasida qaramlikning yana yangi formalari vujudga keldi, bu formalar ham ba'zi jihatdan bo'lg'usi feodal tartiblarga o'xshab ketar edi. Chunonchi, shaharlarda yashovchi o'rtahol yer egalari, shahar kuriyalarining a'zolari (kuriallar), ya'ni aholining soliqlarini to'lashi va hokazolar uchun javobgarlik yuklatilgan, o'z vazifasidan endi mashaqqat chekayotgan kuriallar majburiy suratda kuriyalarga biriktirib qo'yila boshladi. Hukumat kuriallik unvonini nasldan-naslga meros bo'lib o'tadigan qilib qo'ydi.

Shu bilan bir vaqtda, shahar hunarmandlari qo'lga tushirilsa, ularning badaniga temir qizdirib bosilar edi. Hukumat hujjatlarida kollegiyalarga biriktirilgan hunarmandlar ochiqdan ochiq «davlat qullari» deb atalgan. Shaharlar tushkunlikka uchrab, xo'jalik qaytadan natural xo'jalikka aylanib borgan sari qishloq pomestyesi – villa xo'jalik va ijtimoiy hayotning asosiy yacheykasiga aylana bordi. Qudratli senatorlarning ko'pi hatto Rimda yashamas ham edi, ular o'z pomestyelarida yashar edilar. Yer egasi – magnatning odatda o'z qasrida turmasi (karser) va o'z qo'shini bo'lar edi. Uning yeridagi mayda pomestyeli yer egalari (possessores) hamda xususiy mulkka ega bo'lgan erkin dehqonlarning (rustisi) omon qolganlari bu kuchli qo'shinlardan homiylik so'rar edilar. Davlat esa bu katta yer egalari villa-dagi aholi ustidan politsiya nazorati olib borishni topshirar, soliqlarni yig'ish huquqini berar, maydaroq ishlar yuzasidan sud qilishga ruxsat berar edi. Shunday qilib, katta yer egalari xususiy hokimiyati davlat hokimiyati tusiga, ya'ni xalq ustidan yurgiziladigan hokimiyat tusiga kira boshladi. Imperiyaning oxirgi davrida Rimda quldor-yer egasi ma'lum darajada hukmdor o'z pomestyenesining va o'z atrofidagi butun okrugning hokimi, egasi edi.

IV asrda Rim hukumati o'zining III asrdagi og'ir inqirozi holatidan birmuncha qutuldi. Imperatorlardan Diokletian (284-305) va Konstantin (306-337) imperiyaning ma'muriy-moliyaviy apparatini mustahka-

mlashga qaratilgan bir qancha islohotlar o'tkazdi. Soliqlarning natu-  
ra shaklida olinishi, soliq solishni tartibga solish maqsadida goh-goh  
yerlarning va aholining hisobga olib turilishi (Konstantin davrida) dehqonlar-kolonlarning, hunarmand-kollegiantlarning amalda tutqunlikka solinishinig yuridik yo'l bilan rasmiylashtirilishi quldorlik sinfining tushkunlikka yuz tutgan davlat tizimini va ijtimoiy tuzumni mustahkamlashga zo'r berib uringanini ko'rsatadi.

Shu narsa xarakterliki, imperiyani markazlashtirish sari bunday intilish bilan bir qatorda, Rimning keyingi asrlaridan imperator hokimiyati o'z oqibati jihatidan markazlashtirishga butunlay zid bo'lgan tadbirlarni amalga oshirdi. Diakletian imperiyasini to'rt qismga (ikki Avgust bilan ikki Sezar o'rtasida) taqsim qilib, tetrarxiya deb atalgan narsani joriy qildi, har bir hokimga muayyan viloyatlar va maxsus poyaxt ajratib berdi. Konstantin yana ikki hokimlikni tikladi. U o'lgandan keyin imperiya yana ikki yoki uch qismga bo'linib ketdi. 395-yilda imperator Feodosiy I imperiyasi butunlay mustaqil, bir-biriga dushman bo'lgan ikki qismga – G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketdi. III asr oxiri – IV asr boshlarida imperiyaning siyosiy markazi Sharqqa ko'chdi. Yangi Rim Konstantinol imperiyasining siyosiy markazi bo'lib qoldi.

**Rim imperiyasida xristian cherkovi va uning roli.** Konstantinning quldorlik tuzumini mustahkamlashga qaratilgan reformalaridan biri xristian cherkovining davlat dini deb tanilishi bo'ldi. Bu voqea so'nggi Rim imperiyasi tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, shuningdek, kelgusidagi o'rta asrlar tarixi uchun ham tayyorgarlik daqiqalaridan biri sifatida juda katta rol o'ynadi. Dastavval imperiya tarkibida maxsus iyerarxiyaga («ma'murlar darajasiga»), katta yer egalariga, kishilar qaramligining yangi formalariga – cherkov qorovullari deb atalgan qullarga (servi yecclesiatici) – bularning ahvoli kolonlarning ahvolidan o'zga emas edi – molik bo'lgan kuchli yangi bir ijtimoiy tashkilot vujudga keldi. Bu vaqtda (IV asr boshlarida) xristian cherkovi o'zining sotsial tarkibini juda ham o'zgartirib yubordi. Ilgari, I-II asrlarda, xristian cherkovi muxlislarining asosiy ommasini qullardan, shaharlardagi proletarlashgan elementlardan, qisqasi, sotsial jihatdan ezilgan va haq-huquqdan mahrum qilingan kishilardan iborat bo'lgan bo'lsa, endi xristianlikka o'rta sinf va hatto aristokratiya vakillari ham o'tdilar. Cherkov endi mavjud quldorlik tuzumiga qarshi chiqmay qo'ydi, balki o'z tashkilotini bu tuzum sharoitlariga moslashtirishga intilib, o'zi katta yer egasiga aylana bordi. Xristianlik davlat diniga aylantirilgandan keyin haqiqatda mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilishga fatvo berdi.

Cherkovda e'tiborli yepiskoplar vujudga kelib, bular tez vaqt ichida boyib ketdi va joylarda siyosiy ta'sir orttirdi. Chunonchi, shaharlarning yepiskoplari go'yo himoyachilar (defensorlar) bo'lib, shaharlarning himoyachi-homiylari va shaharlar bilan imperator ma'muriyati o'rtasida vositachidek edi. Cherkov imperiya viloyatlaridagi «varvarlar» o'rtasida «missionerlik» faoliyatini keng suratda qizitib yubordi. Eng muhim shaharlar – Rim, Aleksandriya, Konstantinopol, Antioxiya, Quddus V asrda uzil-kesil patriarx unvonini oldilar (Rim va Aleksandriya patriarxlari papa deb atalar edi). Patriarxlarga mitropolitlar va arxiyepiskoplar bo'ysunar edi. Butun imperiya hududidagi davlat diniy tashkiloti ustida turgan cherkov endi o'zini katolik yoki butun jahon cherkovi deb hisobladi. Unga itoat qilmagan oqimlar yoki guruhlar (sektalar) yeretik deb, ularning ta'limoti yeres deb e'lon qilinadi. Hukmron cherkov manfaatlarini himoya qilib turgan davlat IV–V asrlardayoq yeretiklarni sistematik ravishda ta'qib qilib, ularga nisbatan qattiq jazo choralari ishga soldi. Xristian cherkovining rivojlanishi va rasmiylashuvi, unga qarashli yerlarning ko'payib borishi, qullikning cherkov pomestyelaridagi birmuncha yumshatilgan yangi formasi, cherkovning varvarlar olami bilan aloqa qilishi va ularning asta-sekin xristianlashtirilishi – bularning hammasi ham o'rta asrlardagi yangi tuzumning ma'lum darajada tayyorlanishi edi.

Imperiyaning inqirozi IV asr oxiri – V asr boshlarida yumshash u yoqda tursin, yana battarroq keskinlashdi, ko'pgina sotsial-siyosiy islohotlar o'tkazilishiga, dinning o'zgarishiga, qullarni ekspluatatsiya qilish formasini (plantatorlarning kazarma sharoitidagi qullarini obrok to'laydigan qullarga va kolonlarga aylantirish yo'li bilan) yumshatishga harakat qilinishiga qaramay, Rim jamiyati quldorlikka asoslangan jamiyat holicha qolganda, tiklanolmas edi. Bu juda katta sotsial o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchlari Rim jamiyatining o'zidagi ezilgan sinflar hamda varvarlar bo'ldi. Qullar, kolonlar, shahar hunarmandlari III–V asrlar davomida o'z zolimlariga, ayrim quldorlarga va Rim quldorlik imperiyasining o'ziga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Galiya va Ispaniyada bagaudlarning III–V asrdagi qo'zg'oloni, Shimoliy Afrika sirqumsellionlar yoki agonistiklarning IV asr va V asrning boshlaridagi harakati, Resiya, Pannomiya va Norikada sumkamarlarining V asr o'rtalaridagi g'alayonlari bunga yaqqol dalildir. Lekin Rimdagi ezilgan ommaning sotsial kuchlari tarqoq, sochilgan, mutlaqo uyushmagan bo'lib, ularning chiqishlari, odatda, mag'lubiyat bilan tugar edi. Biroq quldorlik Rimiga qarshi imperiya aholisining pastki tabaqalari-

dan tashqari yana bir qo'shni varvarlar ham bosh ko'tardilar. Rim imperiyasining qiyin ahvolga tushib qolganligidan foydalanib, bo'sh yer va boshqa xil o'lkalar payida bo'lgan varvarlar (IV–V asrlarda bular asosan turli german qabilalari edi), keyinchalik slavyanlar va shuningdek, boshqa xalqlar viloyat ketidan viloyatni qo'lga ola boshladilarki, nihoyat, 476-yilda g'arbiy Rim imperatorlari hokimiyatini butunlay yo'q qildilar, bu vaqtda g'arbiy Rim imperiyasi territoriyasida mayda va ancha yirik varvar qirolliklari vujudga keldi, bu qirolliklarda yangi ijtimoiy tuzumning yaratilishi uchun (Rimdagiga qaraganda) qulayroq sharoitlar tug'ildi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Xristian cherkovi muxlislari kimlardan iborat bo'lganligini ko'rsating.
2. Rim imperiyasidagi muhim patriarx unvonini olgan shaharlar qatorini toping.
3. Kim kimga bo'ysungaligini ko'rsating.

#### 4- MAVZU: RIM IMPERIYASI HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN VARVAR QIROLLIKLARI. RIM IMPERIYASINING VARVARLAR TOMONIDAN ISTILO QILINISHI

##### REJA:

1. IV asr oxiri – V asr boshlarida varvarlarning imperiyaga bo‘lgan munosabatlari va Vestgotlar imperiyasi.
2. Rim imperiyasidagi Tuluza, vandallar va Burgundiya qirolliklarining tutgan roli.
3. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi va Gotlar urushi.
4. Shimoliy Italiyaning langobardlar tomonidan istilo qilinishi va varvarlar istilolarining natijalari.

**Tayanch so‘zlar, iboralar va tushunchalar:** vestgot, varvar, kvadlar, markomanlar, svevlar, langobard, got, vandallar, burgund, ostgot, zodagon, yer qahatchiligi, Kaspiy darvozasi, gunn, federat, Gvadiana, vandalizm, Vorms, Sharqiy Rim, xalqlar jangi, fara, urug‘, aristokrat, plantator, kazarma, obrok, latifundiya, papa, yepiskop, Buyuk ko‘chish.

IV asr oxiri – V asr boshlarida varvarlarning imperiyaga bo‘lgan munosabatlari va Vestgotlar imperiyasi. Varvarlarning Rim imperiyasiga bo‘lgan munosabati IV asr oxirlariga kelib juda ham keskinlashib ketdi. Imperiyaning zaiflashuvi varvar qabilalariga imperiya chegarasidan deyarli bemaolol o‘tib, uning territoriyasini egallab olish uchun imkon berdi. Imperiya varvarlarning siquvini yana biroz vaqt to‘xtatib tura olar, lekin u imperiyaga federat – ittifoqchilar tarzida xizmat qilayotgan varvarlarning o‘zining yordamiga tayangan chog‘dagi na shunday qila olar edi. Ammo federatlarning dushmanga aylanishi oson edi; buning oldini olish uchun imperiya ularga tobora ko‘proq yon berishga majbur bo‘lmoqda edi. German qabilalari II–IV asr o‘rtalarida o‘zlarining ishlab chiqarish kuchlarini anchagina rivojlantirdilar. Ular Sezar va Tasit zamonidagiga qaraganda yaxshiroq ishlay boshladilar. Ularda hayvonlarning nasli (jumladan, otlarning nasli) yaxshilandi. Hunarmandchilikni rivojlantirishda ancha olg‘a ketildi. Germaniyaning ko‘p joylarida yer ustidagi yoki uncha katta bo‘lmagan chuqurlikdagi

rudalar ishlana boshlandi. Chegara viloyatlarda yashovchi germanlar rimlik savdogarlar bilan oldi-sotdi qila boshladilar. Varvarlarning aholisi tobora ko'payib borganligi uchun yer masalasi juda keskin bo'lib qoldi. Varvarlar aholisining oshib-toshib ketayotganligini sezmoqda edilar. Ular imperiyaning serhosil va qisman butunlay ishlov berilmagan yerlarini ishg'ol qilishga intildilar. Butun bir varvar qabilalarini rim imperiyasiga qarshi keskin kurash olib borishga olib kelgan eng muhim va asosiy sabab yer tanqisligi edi. Bu vaqtga kelib german qabilalarining ichida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. German jamiyatining tobora ko'proq tabaqalanib borishi – zodagonlarning ajralib chiqishi, ularga qaram bo'lgan kishilar sonining ko'payishi va hokazolar bilan bir qatorda, qabilalarning katta-katta ittifoqlarga birlashuv jarayoni ham yuz bermoqda edi. Quyi Reynda hamda Yutlandiya yarim orolida anglo-saks qabilalari birlashmasi; Yuqori Reynda allemanlar ittifoqi (bunga kvadlar, markomanlar, qisman svevlar kirardi); Elbada va Elbaning narigi tomonida langobardlar, vandallar, burgundlarning ittifoqlari tashkil topdi. Bundan oldingi bobda gotlarning ikkita ittifoqi – vestgotlar ittifoqi va ostgotlar ittifoqi vujudga kelib, bularning har biri Dunay va Qora dengiz bo'yi rayonida ko'p qabilali davlat tashkil qilinganligi gapirib o'tilgan edi. IV asrning oxirlaridan boshlab va ayniqsa, V asrda varvarlar yoppasiga imperiya territoriyasiga qarab yo'l olib, uni asta-sekin istilo qila boshladilar. To'g'ri, bu istilo qilish qariyb butun bir asrga cho'zildi. Ancha vaqtgacha bu istilochilar rasman imperiyaning «ittifoqchilari» deb qaraldi. Biroq zamondoshlar bu nomga aldanmadi. G'arbiy Rim imperiyasining tobora qulab borayotganligi shubhasiz haqiqat edi. Chunki varvarlar imperiyani istilo etish bilan bir vaqtda imperiya territoriyasiga o'zlarining butun oilalari, uy anjomlari, sigir-buzoqlari va hokazolari bilan ko'chib kelib o'rnamshayotgan edilar. Shuning uchun IV asrning oxiri va V asrning hammasini o'z ichiga olgan bu davrni tarixchilar odatda Xalqlarning buyuk ko'chish davri deb ataydilar.

Bu ko'chish imperiya territoriyasiga gotlarning bostirib kirishidan boshlandi, deb hisoblanadi. Ostgotlar va vestgotlarning imperiya bilan totuv yashashlari mumkindek tuyular edi. O'sha vaqtda Yevropaning janubi-sharqida bu varvarlarning juda keng yer maydonlari bor edi. Vestgotlarda ham, ostgotlarda ham hech qanday «yer qahatchiligi» yo'q edi. To'g'ri, ostgot zodagonlari goh-goh Bolqon yarim oroliga hujum qilib turar edilar. Lekin, ikkinchi tomondan, gotlar Sharqiy Rim imperiyasi bilan tinch savdo aloqalari olib borar edilar. Gotlar xristianlikni Sharqiy rimliklardan qabul qilgan edilar. Gotlar o'rtasida xristianlikni

targ'ib qilgan kishi yepiskop Ulfila bo'ldi, u Injilni va boshqa diniy kitoblarni got tiliga tarjima qildi.

Ikki davlatning eng kuchli – Ostgotlar davlati bo'lib, u ko'p qabilali ittifoq edi, bu ittifoq o'zining ostgot qabilasidan tashqari, slavyan va sharqiy sarmat qabilalaridan bir qanchasini o'z ichiga oldi va bu davlatga qirol Germanarix 50 yil boshchilik qildi (u 375-yilda vafot etdi) Ostgotlarning o'zlari mahalliy madaniyat ta'siriga anchagina berilib, mahalliy aholi bilan qisman aralashib keta boshlagan edi.

Vestgotlarning Dunaydan o'tishi yuzaki qaraganda aytarli bir narsa emasdek ham bo'lgan edi. Haqiqatda esa vestgotlarning Bolqon yarim orolida paydo bo'lishi katta oqibatlariga olib kelgan edi. Gonoriyning lashkarboshisi Stilixon (aslida varvar edi) dastlabki vaqtda vestgotlarning Italiyaga qilgan hujumini to'xtatib turdi. U hatto Britaniyadagi rim legionlarini (407-yilda) chaqirib keltirdi, legionlarning bu vaqtda Italiyaning o'zida bo'lishi nihoyat darajada zarur edi. Biroq saroy ahli o'rtasida fitna natijasida Stilixon tez orada vazifasidan tushirildi va o'ldirildi. Vestgotlar qiroli Alarix endi qattiq qarshilikka uchramay, 409-yilda Italiya territoriyasiga kirib bordi. Keyingi yilda Alarix Rimni juda katta talonga soldi. Shu narsa xarakterliki, Alerix Rimni qullar yordami bilan oldi. Rimda va uning atrofida yashagan 40 mingga yaqin qul Alarix tomoniga o'tdi.

**Rim imperiyasidagi Tuluza, vandallar va Burgundiya qirolliklarining tutgan roli.** Italiyada biroz vaqt turgandan keyin vestgotlar Gonoriy hukumati bilan kelishib, Janubiy Galiyaga o'tdilar va u yerda 419-yili Rim imperiyasi territoriyasida dastlabki varvarlar qirolligini tuzdilar, uning poytaxti Tuluza shahri bo'ldi. Tuluza qirolligi Rim imperatoriga nomigagina qaram hisoblanar, aslida u butunlay mustaqil edi. Galiyaga ko'chib kelganlaridan so'ng vestgotlar juda ko'p yerlarni boshqatdan taqsimladilar. Ular mahalliy galliyalik-rimlik quldorlar ixtiyorida yerlarning uchdan ikki qismini undagi qullar, binolar, qishloq xo'jalik asbob-uskunalari va boshqa narsalari bilan birgalikda musodara qilib, o'zaro bo'lishib oldilar, katta-katta latifundiyalardagi eng yaxshi yerlarni, qullarni va asbob-uskunalarni qirol bilan zodagonlar oldi. Oddiy vestgot jangchi dehqonlar o'zlarining oilaviy chek yerlarini – sortes, ya'ni aynan olganda qur'aga (chekiga) chiqqan yerlarni oldilar, bular: haydaladigan yerlardan, jamoaga qarashli yer-mulklar – o'rmonlar, yaylovlar va boshqalardan iborat edi. Keyinchalik, V asrning oxiri – VI asrning boshlaridan boshlab vestgotlar qirolligi Piriney tog'larining narigi tomoniga – Ispaniyaga ham yoyildi. Uning poytaxti

Toledo shahriga ko'chirildi. Taxminan Galliyada vestgotlar o'z davlatini vujudga keltirgan vaqtda boshqa bir guruh varvar qabilalari Pireney yarim oroliga bostirib kirdi. Bular svevlar bilan vandallar edi. Svevlar yarim orolning shimoli-g'arbiy qismini bosib oldilar, vandallar janubga kirib borib, birmuncha vaqtgacha Gvadiana daryosi janubidagi terri-toriyada yashadilar. Hozirgi vaqtda ham shu viloyat Andaluziya deb ataladi (dastlabki vaqtlarda Vandalusiya deb atalar edi). Vandallar bu yerdan qirol Geyzerix boshchiligida Shimoliy Afrikaga hujum qildilar. Vandallar Shimoliy Afrika aholisining quyi tabaqalari orasida Rim hukumatining va katta quldorlarning e'tibori yo'qligidan foydalanib, bu keng terri-toriyani bosib oldilar va 439-yilda Rim imperiyasi terri-toriyasida ikkinchi varvar qirolligini vujudga keltirdilar, bu davlatning poytaxti qadimgi Korfagen bo'ldi.

Vandallar Rim zodagonlarining juda ko'p yerlarini ham musodara qildilar. Lekin ularning o'zlarida ham zodagonlar tezlik bilan tarkib topmoqda edi, bu zodagonlar bosib olingan yerlar, olingan qullar va boshqa xil o'ljalari hisobiga boyib ketdi, vandal zodagonlari Italiyaga qilingan bosqinchilik hujumlari natijasida, ayniqsa, boyigan edi. 455-yilda vandallar Rimni bosib olib, vestgotlarning 410-yildagi talon-torojidan battarroq, misli ko'rilmagan darajada taladilar va vayron qildilar. Vandallar Rimning eng nodir qadimgi yodgorliklarini ayovsiz buzib tashladilar. Shu sababli «vandalizm» degan so'z madaniyat yodgorliklarini vahshiyona vayron qilish timsoli bo'lib qoldi. V asr o'rtalarida, 443-yil bilan 457-yil oralig'ida Rona daryosi havzasida yana bir varvar qirolligi vujudga keldi, bu qirollikning poytaxti Lion shahri bo'ldi. Bu Burgundiya qirolligi bo'lib, hajmi jihatidan birmuncha kichikroq bo'lsa-da, hozirda Fransiyaning janubi-sharqini, geografik va strategik jihatdan juda muhim va serhosil joyini ish-g'ol qildi. Bu qirollik vujudga kelishi natijasida imperiyaning Shimoliy Galliya bilan aloqasi uzilib qoldi. Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi o'sha vaqtdan boshlab, haqiqatda, birgina Italiyaning o'z doirasi bilan cheklanib qoldi. Burgundlar ham mahalliy galliyalik-rimlik zodagonlarning yerlarini tortib oldilar, lekin bu tortib olish vestgotlar o'tkazgan musodaraga qaraganda birmuncha kichikroq hajmda bo'ldi.

Burgundlar son jihatidan xiyla oz bo'lib, IV asrda uzoq vaqtgacha yuqori Reynda rimliklar bilan yonma-yon yashadilar (ularning o'sha vaqtdagi poytaxti Vorms shahri edi), ular tez vaqt ichida romanlashib, V asrdayoq lotin tilini, rimliklarning urf-odatlarini va ularning mulkiy munosabatlarini o'zlashtirib oldilar. Biroq, shunga qaramay, Burgun-



diyaning asosiy aholisini bu yerda o'zlariga chek yerlar olgan varvar dehqonlar tashkil etar edi.

**G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va Gotlar urushi.** Atilla o'lgandan keyin imperator saroyidagi (saroy Ravennada edi) fitnalar avj olib ketdi, natijada Ayesiyning o'zi halok bo'ldi. Ayesiy Rimning so'nggi davrdagi davlat arboblari ichida eng ko'zga ko'ringan kishi edi. Imperatorning buyrug'i bilan o'ldirilgan Ayesiydan keyin Valentinian III ning o'zi ham o'ldirildi. Shundan keyin vandallar (455-y.) hujum qilib, Rimni o'n to'rt kun taladilar. Bu hujum imperiyani uzil-kesil halok qildi. Italiyani nomigagina taxtga o'tirgan imperatorlar nomidan yollanma varvar drujinalarining boshliqlari idora qildi. Shu drujina boshliqlaridan biri Odoakr (kichkinagina bir german qabilasining – skerlarning boshlig'i) 476-yilda Rimning oxirgi imperatori go'dak Romul Avgustulni taxtdan tushirib, imperatorlik nishonlarini Konstantinopolda, Sharqiy imperatorga yubordi.

Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi rasmiy jihatdan ham tamom bo'ldi. Uning markazi Parij bo'lgan Shimoliy Galliyadagi qolgan-qutgan territoriyasini 10 yildan keyin (486-yilda) frank qiroli Xlodvig bosib oldi. Odoakr davlati etnik tarkibi jihatidan qurama bir davlat edi. Uning qo'l ostida skerlar, gerullar, gotlarning bir qismi, alanlar (Shimoliy Kavkaz qabilasi) va boshqalar bor edi. U Italiya zodagonlari qo'lidagi yerlarning uchdan bir qismini musodara qilib, o'z tarafdorlariga bo'lib berdi. Lekin italiyalik-rimlik aholining ichki ishlariga aralashmadi. Odoakrning mavqeyi umuman mustahkam emas edi. U birorta yirik varvar qabilasidan yordam olaman deb umid qila olmas edi. Odoakr rimlik quldor zodagonlarning yerlarini musodara qilib olganlari uchun ular bilan Odoakr o'rtasidagi munosabat buzuvchi edi. Shu bilan birga Konstantinopoldagilar ham unga ishonmas va uning o'rniga o'z nomzodini – ostgotlar qiroli Teodorixni tayyorlamoqda edilar.

Vestgot, Vandal va Burgundiya qirolliklarining vujudga kelishi bilan g'arbiy rim imperiyasining ahvoli nihoyat darajada mushuklashib qoldi. Bu vaqtda imperiyani idora qilib turgan imperator Valentinian III (425-455) sonda bor, salmoqda yo'q bir odam edi. Lekin uning ministri (uni tarixchilar ba'zan «so'ngi buyuk rimlik» deb atar edilar) Ayesiy xiyla romanlashgan varvarlarning birini ikkinchisiga qarshi ishga solib, imperiyani saqlab qolishga zo'r berib harakat qildi. V asr o'rtalarida imperiya uchun eng xavfli dushman yuqorida aytib o'tganimiz gunnlar bo'ldi. V asrning dastlabki uchdan bir qismi ichida gunn qabilalari g'ayratli va shijoatli qiroli Atilla (435-453) qo'l ostida birlashdi. Atilla-

ning poytaxti – Tissa qirg' o' gi hozirgi Vengriya territoriyasida edi. Shu joydan Atilla uzoq-uzoq joylarga – Bolqon yarim oroliga, Kichik Osiyoga, Armeniyaga va hatto Mesopatamiyaga yurishlar qildi. Atilla olib borgan urushlar ochiqdan ochiq bosqinchilik, talonchilik urushlari edi. Unga Vizantiya (Sharqiy Rim) imperatori katta xiroj to'lar edi. Dunay yonida yashovchi ko'pgina slavyan qabilalari gunnlarga qaram edilar. 50-yillarning boshida Atilla g'arbg'a yurish qildi va 451-yili Galliyaga bostirib kirib, bu yerda ko'p shaharlarni bosib oldi hamda Galliyaning eng muhim strategik punkti bo'lgan Orlean gunnlar tomonidan olindi, lekin Ayesiy Atillaga qarshi varvarlar federatsiyasini tuzishga muvaffaq bo'ldi va Aatillani Orleandan chiqib ketishga majbur qildi. Atilla ko'p sonli lashkarlari bilan birgalikda yanada Sharqqa – orqaga burilib (Sans shahri orqali) Trua shahri tomonga qarab yo'l oldi.

Vizantiyaning yordami bilan Teodorix 493-yilda Italiyani bosib oldi va shundan keyin 30 yildan ortiqroq (493-526) – «gotlar va italiyaliklar qiroli» bo'lib hukmronlik qildi. Uning poytaxti Ravenna shahri edi (ilgari Gonoriydan boshlab Rimning so'nggi imperatorlari shu shaharda yashagan edilar).

Teodorix murakkab ichki va tashqi siyosat yurgazdi. U o'zini varvar qirolliklarining «kattasi» deb hisoblab, varvar qirolliklari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga harakat qildi. Teodorix Vizantiyaga nisbatan ham mustaqil pozitsiya tutdi. Sharqiy rim imperatorlari uning «ko'namakligidan» norozi bo'lib, Italiyada imperator hokimiyatini tiklashning yangi rejalarini tuzmoqda edi. Ichki siyosatda Teodorix aholining ikkala etnik guruhini – rimliklar bilan varvarlarni murosaga keltirishga harakat qildi. U o'z saroyiga Rim olimlari va yozuvchilarni tortdi, ko'p eski Rim yodgorliklarini tikladi, atrofiga rimliklardan maslahatchilar to'pladi. Teodorix davlatining siyosiy tuzumi uning hukmronligining oxiriga qadar ikki yoqlama bo'ldi. Gotlar rimliklarga qo'shilmay, alohida vaziyatda yashadilar. Ular o'zlarining german sudi qoidalariga muvofiq sud qilinar edi.

Teodorix vafotidan keyin Ravenna saroyida ikkita guruh bir-biri bilan qattiq kurash olib bordi: bulardan biri – Konstantinopol bilan ittifoq tuzish tarafdori («Rim guruhi»), ikkinchisi – mustaqil siyosat yurgizish va rimlik quldorlarni yanada cheklash tarafdori edi. Imperator Yustinian I zamonida vizantiyaliklar ostgotlar Italiyasini istilo etdilar va butun Apenin yarim orolini Vizantiyaga qo'shib oldilar. Lekin Italiyani Vizantiya osonlik bilan bosib ololgan yo'q. Gotlar urushi 20 yildan ortiq davom. Ostgotlar o'zlarini juda qattiq himoya qildilar. Yangi saylangan ostgot qi-

roli Totilla (541-552) Vizantiyaga qarshi kurashga, ostgotlardan tashqari, ezilgan italiyaliklarning bir qismini ham tortdi. Imperator Yustinian farmonlar chiqarib, Italiyada ilgorigi quldorlik tuzumini tikladi. Totillaning qullar va kolonlar to'g'risidagi farmon va hukmlari bekor qilindi.

**Shimoliy Italiyaning langobardlar tomonidan istilo qilinishi va varvarlar istilolarining natijalari.** Vizantiyaning Italiyada hukmronlik qilishi uzoqqa bormadi. 568-yilda Shimoliy Italiyaga yangi varvarlar – langobardlar bostirib kirdilar. Langobardlar oldin Elbaning chap qirg'og'ida yashagan bo'lib, svev qabilalariga qarindosh edi. Langobardlarning boshlig'i qirol Alboin edi. Yangi davlatning poytaxti Paviya shahri bo'ldi. Italiyada langobardlarning nomi shu mahalgacha ham saqlanib qolgan – hozirgi shimoliy Italiya Lombardiya deb ataladi.

Langobardlar istilosining o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bor edi. Birinchidan, langobardlar shimoliy va qisman o'rta Italiyani batamom ishg'ol qildilar, mahalliy quldor zodagonlar bilan hech qanday bitimga kelmadilar. Ular Appenin yarim oroliga rimliklarning federatlari sifatida emas, balki ularni istilo qiluvchilar sifatida keldilar. Ikkinchidan, langobardlar Rim quldorlarining juda ko'p mol-mulkini musodara qildilar. Masalan, biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, vestgotlar, ostgotlar ular mol-mulkinging uchdan ikki qismini musodara qilgan bo'lsalar, langobardlar esa bunga qanoat qilmay, badavlat rimliklarning pomestyelarini butunlay tortib oldilar. Ko'pdan ko'p rimlik quldorlar qulga aylantirildi, bir qismi oila a'zolari bilan boshqa mamlakatlarga sotib yuborildi. Langobardlar istilosining uchinchi xususiyati ulardagi ijtimoiy tuzumning o'ziga xos xislatidan kelib chiqdi. Langobardlar Italiyaga kelgan vaqtlarida ularda urug'chilik aloqalari birmuncha mustahkam edi. Ular Italiyada joylashuvining o'zi ham hali xiyla darajada urug'chilik tusida edi.

Langobard qirolligi bilan bir vaqtda Italiyada VI–VII asrlarda yana bir siyosiy tashkilot – papalik vujudga keldi. Italiyaga langobardlar kelgandan keyin ham rimlik yepiskoplar – papalar – rasman o'zlarini Sharqiy Rim imperatorlarining oliy hokimiyati qo'l ostida deb hisoblab keldilar. Haqiqatda esa Konstantinopolga bo'lgan bu qaramlik kundan kun yo'qola bordi. Papalar asta-sekin o'rta Italiyaning mustaqil hukmdorlariga aylana boshladilar. Rimning va Rim viloyatining ham diniy, ham dunyoviy hokimi bo'lgan birinchi papa Grigoriy I (590-604) bo'ldi. Langobard qirollari keyincha papa viloyatini o'z hokimiyatlariga bo'ysundirishga harakat qildilar, lekin bu harakat natija bermadi. Papalar frank qirollaridan iborat ittifoqchilarga ega edilar. VIII asrning yarmida ular shu frank qirollarining yordami bilan o'zlarining papa

cherkovi davlatini uzil-kesil tashkil etdilar, bu davlat ham ilgari Rim imperiyasining o'ziga xos bir qoldig'i edi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropa xaritasi milodning V va VI asrlari ichida butunlay o'zgarib ketdi. G'oyat katta G'arbiy Rim imperiyasi esa Vizantiya degan nom bilan yashab keldi, biroq uning sharoitlari va aloqalari boshqacha edi. (U asosan slavyanlar va Sharqiy Osiyo bilan aloqa qildi). Yevropada davlat tuzumi ibtidoiy bo'lgan o'nlab mayda-mayda varvar qirolliklari vujudga keldi. Lekin bu o'zgarish faqat siyosiy o'zgarishlaridagina iborat emas edi. Xalqlarning Buyuk ko'chishi deb atalgan ko'chishning tarixiy ahamiyati uning ijtimoiy natijalari-dir. Bu ko'chish antik quldorlik tuzumining halok bo'lishi edi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, varvarlar imperiyani istilo qilish jarayonida Rim jamiyatidagi ezilgan sinflar – qullar va kolonlar bilan birgalashib ish ko'rdilar. Shunday qilib, qullar bilan kolonlar quldorlik tuzumini yiqitishda bevosita, faol ishtrok etdilar. Ularning ko'pi varvarlar qo'shini safiga kirdi. Qolganlari esa xo'jayinlarining qo'lidan ko'plab qochib ketdi, bu vaqtda xo'jayinlar qochoqlarni qaytarib olib kelishdan o'jiz edilar. Oqibat natijada Rim qullari va kolonlari dehqonlar ommasiga aylandilar, kelgindi varvar-dehqonlarning bu dehqonlardan farqi shu ediki, kelgindilar bularga qaraganda erkinroq va mustaqilroq edilar. Darhaqiqat, varvar zodagonlari orasidan chiqqan yangi yer egalari yer olish bilan birga bir necha qul ham olar edi, chunki o'sha vaqtda quldorlik latifundiyalarida qullarning soni umuman juda kamayib ketgan edi; ikkinchidan, eski xo'jayinlarning, ya'ni Rim quldorlarining o'rnini olgan yangi xo'jayinlar qullarni odatda darhol obrok to'laydigan dehqonlarga aylantirar edilar. Qullikning plantatorlar tomonidan qo'llanilgan formasini (yoki kazarma formasini) german zodagonlari ilgari ham haddan tashqari murakkab va beso'naqay forma deb hisoblar edilar. Plantatorlardagi qullik yangi sharoitga (ko'p qullar yaqinda ozod bo'lib ketgan, markazlashgan politsiya apparati yo'q, varvar qirolliklarining davlat hokimiyati kuchsiz edi), ayniqsa, to'g'ri kelmas edi. Quldorlik hukmronligini yo'q qilib tashlagan buyuk o'zgarish natijasida eskicha, rimcha qullik ma'nosidagi qulchilik uzil-kesil barham topdi. Eski quldor zodagonlarning yer-mulklari juda ko'p yangi yer egalri o'rtasida bo'linib ketdi. Bu yangi yer egalari bir qismi yangi, varvar aristokratlar bo'lib, bular keyingi o'rta asr feodallarining eng yaqin o'tmishdoshlari edilar. Yerlarning bir qismi esa varvar dehqonlar qo'lga o'tdi, bu dehqonlar shaxsiy erkinliklarini hali saqlab qolgan va o'zlarining jamoa tartiblarini yangi joyga ko'chirib olib kelgan edilar, bu jamoa

tartiblari sinflar paydo bo'lmasdan ilgari urug'chilik tuzumi bilan bog'langan edi.

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Langobardlar qaysi qabilaga qarindosh bo'lgan?
2. Langobardlar yangi poytaxtining nomini ko'rsating?
3. Rim viloyatining ham diniy, ham dunyoviy hokimi bo'lgan birinchi papa kim?
4. Varvarlar istilolari natijasida qaysi imperiya batamom tugallandi?

## 5-MAVZU: FRANK DAVLATIDA FEODAL MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI. FRANK QIROLLIGINING TASHKIL TOPISHI

### REJA:

1. Franklarning ilk tarixi, Merovinglarning boshqaruvi.
2. VIII–IX asrlarda Frank davlati. Karolinglar dinastiyasining idora qila boshlashi.
3. Karl Buyuk imperiyasi.
4. Karl Buyuk imperiyasining parchalanishi.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** langobard, frank, german, merovinglar, magnat, vestgot, xristian, arianlik, katolik, mazhab, ripuar, «Sali haqiqati», marka, vergeld, xuni, lit, benifisiy, votchina, cherkov, kommandatsiya, presariy krepostnoy, «Yalqov qirollar», okrug, Merovey, mayordom, gertsog, dinastiya, allemanlar, friz, saks, bavarlar, ritsarlar, seqoʻlyarizatsiya, vestorallar, xronist, monastir, yekzarxati, graf, vezer, xiroj, titul, «bazilevsa», avarlar, palasiy, kameroriy, konnetabl, miroxur, sotnya, raxinburglar, yepiskop, kapitulyariya, komit, notariy, provansal, «nufuzli odamlar», immunitetlar, pomestye, domen, mansar, kalon, barshchina, obrok, «Strasburg qasami», vikantlik, markiz, yaryalar, dinastiya, graf, majusiy, ratsionalistik, palata, arxkansler, Puate, patronat.

**Franklarning ilk tarixi, Merovinglarning boshqaruvi.** Rim imperiyasi territoriyasida tuzilgan varvar qirolliklari ichida eng kattasi va kuchlisi franklar qirolligi edi. Franklar bora-bora burgundlarni boʻysundirdilar va Galliyadan vestgotlarni surib chiqardilar. Italiya langobardlarni zabt yetdilar va Reynning narigi tomonida qolgan german qabilalarining hammasini deyarli oʻzlariga itoat ettirdilar. Franklarning oʻzlari ham dastlab Reynning narigi tomonida yashar edilar. Ularning ota-bobolari Tasitning asarida har xil nomlar bilan, chunonchi, hamavlar, sukamlar, batavlar va boshqa nomlar bilan atalgan. «Frank» degan nom (bu soʻzni «jasur», «erkin» deb tarjima qilishadi) III asrning oʻrtalaridagina paydo boʻlib, qandaydir bitta qabilaga emas, balki Reynning oʻrta va quyi oqimlarida yashagan butun bir guruh — german qabilala-

riga taalluqli umumiy nom edi. Bu qabilalar dastlab Reyn daryosining o'ng qirg'og'ida yashar edilar. Dastlab ular rimliklarga nisbatan dushmanlik munosabatida bo'ldilar, keyin bu munosabat ancha do'stona munosabatga aylandi.

451-yildagi Katalaun jangida, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, franklar, federetlar sifatida, rimliklar tarafida turib, gunnlarga qarshi urushdilar. O'sha vaqtdayoq ular katta-katta ikki guruhga bo'lingan bo'lib, bir guruhi (ular Reynning quyi oqimida yashar edilar) dengiz bo'yi franklari yoki Sali franklari deb, ikkinchi guruhi Reynning o'rta oqimida (har ikki qirg'oqda) yashagan franklar – qirg'oq franklari yoki ripuar franklari deb atalar edi. Ulardan kuchlisi Sali franklari bo'lib, ular Galliyaning G'arbiga qarab bordilar.

Xlodvigning podsholik tarixi (481–511) yepiskop Grigoriy Turskiyning «Franklar tarixi» degan kitobida mufassal bayon qilingan bo'lib, Turskiy bu kitobni ancha keyinroq, VI asrning ikkinchi yarmida yozgan. Franklar hayotida ro'y bergan katta-katta voqealar Xlodvig nomi bilan bog'langandir. Xlodvig 486-yilda butun Shimoliy Galliyani istilo qildi. Rim qo'shini franklar tomonidan tor-mor etildi. Siagriy vestgotlar qiroli huzuriga ko'chdi. Lekin vestgotlar qiroli uni Xlodvigga tutib berdi. Xlodvig asirni o'ldirishga buyruq berdi.

Xlodvig o'z podsholigining oxirgi davrida Luaraning janubiga ancha jilib borib, Garona daryosigacha yetdi. Vestgotlar Galliyaning janubidagi yerlardan bir oz qisminigina saqlab qoldi, xolos. 90-yillar o'rtasida Xlodvig xristianlikni qabul qildi. Dastlab xristianlikni Xlodvigning o'zi va drujinasi qabul qildi, keyin oddiy franklar va ularning oila a'zolari qabul qildilar. Lekin franklarning xristianlashuvi ikkinchi bir, yanada muhimroq ahamiyatga ega edi. Galliya va Rimdagi e'tiborli mahalliy ruhoniylar Xlodvigni va boshqa frank qirollarini zo'r berib qo'llab-quvvatladilar. Xlodvigning o'gil va nevaralari qirollikni tez-tez bo'lib va qayta bo'lib turishlariga, o'zaro urushlar olib borib turishlariga qaramay, qirollikning chegaralarini kengaytirishni davom ettirdilar. 534-yilda ular Burgundiyanı zabt etdilar, 542-yilda vestgotlarning Galliyadagi oxirgi yerlari ham bosib olindi.

Ilgari Teodorix davrida ostgotlar qo'lida bo'lgan gegemonlik endi franklar qo'lga o'tdi. Franklarning V asr oxiri – VI asr boshlaridagi ijtimoiy tuzumi «Sali haqiqati» franklarning sud sohasidagi rasm-qoidalarining to'plami bo'lib, Xlodvig zamonida, uning podsholigining oxirlarida (500-yilga yaqin) yozilgan bo'lsa kerak. Ularning xo'jaligida chorvachilik (ayniqsa cho'chqa boqish) ham katta rol o'ynagan.) «Sali

haqiqati»da yana baliqchilik, asalarichilik, bog'dorchilik va dehqonchilikka oid asosiy hunarlar to'g'risida ham gapiriladi. VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab franklar jamiyatida keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Dunyoviy zodagonlar ham, cherkov zodagonlari ham o'z yerlarini, qirolidan tashqari, birinchi navbatda dehqonlar hisobiga kengaytirdilar. Erkin va mustaqil dehqonlarning asta-sekin yo'qolib, krepostnoy kishilar sinfiga aylanishida ifodalangan feodallashuv jarayoni sobiq Rim imperiyasiga kelib joylashgan varvarlarning hammasida ham bo'ldi. Katta yer egaligining o'sishi va shu bilan birga qirol yerlarining kamayib borishi hamda ilgari faqat qirolning o'zigagina tobe bo'lib, unga asosiy-harbiy resurslar berib kelgan erkin dehqonlar xiyla qismining yo'q bo'lishi natijasida qirol hokimiyati tushkunlikka uchradi.

Dastlab uch mayordomdan eng kuchlisi Neystriya mayordomi edi. U Burgundiya mayordomini ham o'ziga bo'ysundirdi. Lekin Neystriya mayordomi tez vaqt ichida kuchliroq bo'lgan boshqa bir mayordomning – Avstraziya mayordomining qarshiligiga uchradi. Shu bilan birga Avstriyada zodagonlar birmuncha kuchsiz bo'lib, ular o'z gertsogining, mayordomining boshchiligiga bo'ysunishga majbur edilar.

**VIII–IX asrlarda Frank davlati. Karolinglar dinastiyasining idora qila boshlashi.** VII asrning oxiri – VIII asrning boshlarida Frank davlati butunlay parchalanib ketdi. Pipin Geristalskiyning g'alaba qozongan bo'lishiga qaramay, Neystriya va Burgundiya magnatlari hali ham o'zlarining markaziy hokimiyatga u qadar qaram emas deb his qilar edilar. Akvitaniya qirollikdan tamoman ajralib chiqdi va Avstraziya gersogi Akvitaniyaning hokimiyatini tan olmadi. Reynning narigi tomonidagi qabilalar – allemanlar, frizlar, sakslar va bavarlar ham ajralib chiqdi. Janubi-g'arbda arablar xavf tug'dira boshladilar, hatto VIII asrning 20-30- yillarida butun Frank davlati arablar tomonidan to'g'ridan to'g'ri bosib olinish xavfi ostida qoldi. Lekin yangi dinastiya ana shunday og'ir bir sharoitda qirollikning harbiy kuchlarini qaytadan tashkil etib, tashqi dushmanga zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Bu dinastiya yanada feodallashgan zodagonlarning ta'sirini cheklash hamda o'rta va mayda harbiy xizmatchilarga suyanib turib, qirollikni bir qadar markazlashtirishga harakat qildi.

Pipin Geristalskiyning o'gli Karl Martell («To'qmoq») mayordom-gersog sifatida 715-yildan idora qildi. U g'ayratli va iste'dodli lashkarboshi edi. Avstraziyaning o'rta va mayda yer egalardan iborat bo'lgan o'z drujinachilariga suyanib turib, u Neystriya aristokratiyasining oppozitsiyasini uzil-kesil tor-mor qildi, so'ngra frizlar, sakslar,



allemanlar va bavarlarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar qilib, Reynning narigi tomonida frank davlatini tikladi. Bu qabilalarining hammasi franklarda yana xiroj to'laydigan bo'ldi.

Harbiy ishning reforma qilinishi munosabati bilan Karl Martell yer sohasida alohida siyosat yurgizdi. Yaxshi qurollangan va moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan otliq askarlar zarur bo'lganligi sababli, Karl Martell davlat fondiga qarashli yerlardan (bu fond yangi istilolar va isyon ko'targan zodagonlarning yerlarini musodara qilish natijasida kengayib ketgan edi) harbiy benefisilar deb atalgan yer uchastkalari berishni keng suratda qo'lladi. Bu benefisiylar harbiy xizmatni o'tash sharti bilan umrbod foydalanish uchun beriladigan o'rtacha va mayda pomestyelar edi. Shu bilan keyinroq borib paydo bo'lgan mayda pomestyeli ritsarlarning vujudga kelishi uchun asos solindi. Harbiy xizmat utavlariga davlat fondiga qarashli yerlardan uchastkalar berish bilangina cheklanmasdan, Karl Martell shu maqsad uchun cherkov yerlaridan ham qisman foydalandi. U o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarda dunyoviy zodagonlar bilan birlikda qatnashgan yepiskop va abbatlarning pomestyelarini musodara qildi. Neystriyada va Akvitaniyada bunday ruhoniylar ham egalari ko'p edi. Ruhoniylardan musodara qilib olingan yerlar ham benefisiylarga aylantirildi. G'arbiy Yevropa tarixida bu narsa birinchi marta o'tkazilgan katta seko'lyarizatsiya, ya'ni cherkov mulkini tortib olib, dunyoviy kishilar qo'lga topshirish edi.

Karl Matellning taxt vorisi Pipin III Pakana ham (741–768) avval faqat mayordom unvoni bilan yurdi. Meroving qirollari odatdagi tartib bilan biri o'rniga ikkinchisi kelib turdi, lekin davlatni idora qilib turishda ularning hech biri qatnashmas edi. Pipin hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq papalar bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qildi. Xuddi shuning uchun u cherkov yerlarini seko'lyarizatsiya qilishdan bosh tortdi. Yana shu maqsadda Pipin Reynning narigi tomonidagi papa missionerlariga turli yo'llar bilan yordam berdi. Allemanlar, frizlar va sakslar o'rtasida xristianlikning targ'ib qilinishi butun G'arbiy Yevropani o'z hokimiyatiga bo'ysundirish payida bo'lgan papalarga ham, Reynning narigi tomonidagi territorialarda mustahkam o'rnashib olishga harakat qilgan frank hukmdorlariga ham foydali edi.

751-yilda Suasson shahrida frank zodagonlari yig'ilishida Pipin frank qiroli deb e'lon qilindi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, G'arbiy Germaniyadagi frank missionerlarining ishiga boshchilik qilib turgan Mayns arxiyepiskopi Bonifasiy papaning buyrug'iga muvofiq Pipinni qiroli deb tanish marosimini o'tkazdi. Shunday qilib, yangi dinastiya cherkovi-

dan o'ziga kerakli sanksiya olishga moyassar bo'ldi. Langobardlarni tor-mor qilib, Pipin papa Stefan II ga (752–757) Ravenna ekzarxatini va Rim viloyatini «hadya» qildi, ya'ni papaning o'rta Italiyadagi yerlarini ham o'z ichiga olgan juda katta bir territoriyaga uzil-kesil mustaqil dunyoviy hukmdor bo'lib olishga yordam berdi. Shu tariqa, VIII asrning o'rtalarida Yevropada cherkov papa davlati vujudga keldi, davlat butun o'rta asrlar tarixi davomida katta rol o'ynadi va hatto yangi (1870-yilgacha) va Eng yangi zamonda ham saqlanib qoldi (Rim shahrining bir qismini egallagan hozirgi papa davlati – Vatikandir, u 1922-yildan beri yashab kelmoqda).

Shu narsa xarakterliki, frank qirolligi bilan bo'lgan muzokaralarda papalar, odatda, Rim viloyatini Rim yepiskoplariga IV asrda Konstantin Buyuk hadya qilgan, binobarin, frank qiroli ilgaridan «qonuniy suratda» papaga qarashli bo'lgan narsani uning o'ziga «qaytarib beryapti», xolos, der edilar. Papalar bilan yangi frank dinastiyasi o'rtasida mustahkam ittifoq vujudga keldi, bu ittifoq har ikki tomonning bir-biridan chinakam manfaatdorligiga asoslangan edi. Otasiga o'xshab Pipin ham Reynning narigi tomonida va Akvitaniyada urushlarni davom ettirdi. Uning zamonida arablar janubiy Galliyadan butunlay siqib chiqarildi. Pipin o'z siyosati bilan frank qirolligining ravnaq topishi uchun zamin tayyorladi. Uning o'g'li Karl Buyuk davrida Frank davlati imperiyaga aylandi.

**Karl Buyuk imperiyasi.** Karl Buyuk Karolinglar dinastiyasining eng atoqli nomoyandasi edi (dinastiya ham uning nomi bilan atalgan). U 46 yil hukmronlik qildi (768–814). Karl katta sarkarda va istilochi edi. Tarkib topayotgan frank feodal davlati Karl davrida juda katta progressiv siyosat yurgizdi. Juda ko'p joylarni istilo qilib, juda katta bir davlatga boshchilik bo'ldi. Rim imperiyasi qulagandan keyin G'arbiy Yevropada Karl Buyuk davlatidek katta davlat dunyoga kelmagan edi. Karl Buyukning shaxsan o'zi 50 dan ortiq yurishda qatnashdi. U Yevropaning turli joylarida urushlar qildi. U avvalo langobardlar masalasiga juda katta e'tibor berdi. Langobardlar Pipin tomonidan tor-mor qilingan bo'lishiga qaramay, langobardlar saroyida franklar bilan ittifoqda bo'lishga qarshi yana urush ochdi. U langobardlar poytaxti Paviyani bosib oldi va langobardlar qiroli Dezideriyni taxtdan tushirdi. Langobardiya shundan keyin o'z mustaqilligini yo'qotdi. Lekin Karl Buyuk urushlaridan ko'pini Sharqda – Markaziy Yevropada olib bordi. U sakalar bilan bo'lgan urushlarga, ayniqsa, ko'p kuch sarf qildi. Bu urush qattiq bo'lib, 30 yildan ortiq (722-yildan 804-yilgacha) davom etdi.

Franklarni hisobga olmaganda, sakslar G'arbiy Germaniyada yashagan qabilalar ichida eng katta qabila edi. Ular Reyndan Elbagacha cho'zilgan juda katta territoriyada o'rinishgan edi. Sakslarning Karl zamonidagi ijtimoiy tuzumida urug'chilik tuzumi alomatlari, uning barcha yaxshi va yomon tomonlari hali anchagina saqlanib qolgan edi.

Frank qirol qo'l ostidagi yerlarning juda kengayib ketishi, tabiiyki, Karl Buyukni va uning maslahatchilarini unvonini (titulni) o'zgartirish to'g'risida o'ylashga majbur qildi. 800-yilda Karl Rimda bo'lgan vaqtida papa unga «Rimliklar imperatori» tojini kiydirdi. Bir oz vaqtdan keyin u Sharqiy Rim Vizantiya imperatori deb emas, balki rimliklar imperatori deb e'lon qilindi. Juda katta bir davlatni idora qilish ishi Karldan ma'muriy apparatni qayta tuzishni talab qildi. U amaldorlar orqali, imperatorning maxsus farmonlarini chiqarish, mahalliy hokimiyatni bir qadar sistematik nazorat qilib turish yo'li bilan idora etuvchi markazlashgan davlat tuzishga harakat qildi. Karl Buyukning idora qilish markazi qirol saroyi – palasiy edi. Yuqori mansabdagi amaldorlarning butun ishi shu palasiyda markazlashtirilgan bo'lib, bular: palata grafi (u oddiy sudya bo'lib, imperator yo'qligida uning o'rinbosari ham edi), arxikansler, kamerariy, konnetabl va boshqalaridan iborat edi. Mahallalarda eng katta amaldorlar graflar – lotinchasiga komites, ya'ni ma'muriy okruglarning boshliqlari va ularning vikariylari yoki vitse-graflar va boshqalarning boshliqlari bo'ysunardi. Imperatorning farmonlari yozma ravishda tuzilib, kapitulyariya deb atalar edi (kapitulyariya lotincha kaput degan so'zdan olingan bo'lib, bob demakdir, farmon alohida paragraflarga bo'linganligi uchun shunday deb atalardi). Karl Buyukning 250 ga yaqin farmoni bizgacha yetib kelgan.

Bu faktlarning hammasi Karl Buyuk zamonida idora qilish apparatining anchagina byurokratlashganini ko'rsatadi. Merovinglar va dastlabki Korolinglardagi ana shu ibtidoiy idora apparatiga aksincha o'laroq, Karl imperiyasida amaldorlarning doimiy chinovniklik apparati tarkib topdi. Karl Buyuk byurokratiyasining tashkil topishiga Rim traditsiyasi, shubhasiz, ta'sir qildi. Qirollik – imperatorlik kanselyariyalaridagi davlat tili – lotin tili, ya'ni rimliklar tili edi. Karl Buyuk va uning vorislari zamonida feodallashuv jarayonining juda tezlashib ketayotganligi imperiyaning parchalanib ketishida juda katta ahamiyatga ega. Biroq Karl Buyuk imperiyasi «qabila va xalqlarning ko'rsatmasidan iborat» bo'lishi bilan bir vaqtda, feodallashayotgan jamiyat ham edi. Karl magnatlar va boshqa «nufuzli odamlar» tomonidan dehqon yerlarining tortib olinishini cheklashga ancha urindi, biroq yerdor zodagonlar uning

farmoyishlariga qarshilik ko'rsatganlari uchun bu farmoyishlar amalda bajarilmay qolaverdi. Feodallashuv imperiyani siyosiy tarqoqlikka va provardida siyosiy jihatdan mayda qismlarga bo'linib ketishiga olib keldi. Bu narsa hammadan burun magnatlar syezdlari ahamiyatining ortishida ko'rinadi.

Karolinglar pomestyesini o'rganish uchun asosiy manba Karl Buyukning «Pomestyelar to'g'risidagi kapitulyariy»si va «Abbat irminon poliptigi» deb atalgan hujjatdir. Franklarning qishloq xo'jaligi VIII – IX asrlarda ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Karolinglardan qolgan manbalarga qaraganda dehqonchilikning asosiy sistemasi bo'lgan. Karolinglar pomestyesi aniq natural xo'jalik xususiyatlariga ega edi. Bu haqda «Pomestyelar to'g'risidagi kapitulyariy»da juda ochiq dalillar keltirilgan, bu «Kapitulyariy»da pomestyelarda yetishtirilgan mahsulotlarning qirol oilasi va qirol saroy ahllari ehtiyojlarini qoplashga sarflanganligi bir necha marta ta'kidlab o'tiladi. Karl Buyuk o'z zamonasining ancha ma'rifatli kishisi edi. U garchi yoshi ancha ulg'aygan vaqtida o'qish-yozishni o'rgangan bo'lsa-da, grek va lotin tillarini bilardi. Bu olimlar ichida York yepiskoplik maktabi (Angliyaning shimolida) o'qigan Alkuin nomli angl-saks, ayniqsa, mashhur edi. So'ngra Karlning saroyda o'sha vaqtning ko'zga ko'ringan boshqa yozuvchilari – lango-burdiyalik Pavel Dyakon, ispaniyalik vestgot Teodulf va boshqalar ham yashar edi. Karl saroyida o'ziga xos bir olimlar jamiyati vujudga keldi, bu jamiyat antik dunyodan ibrat olib, «Akademiya» deb ataldi. Bu jamiyatning ishlarida Karlning o'zi ham qatnashdi. Akademiya qatnashchilari lotin avtorlarining, yozuvchi va shoirlarning asarlarini o'qidilar, bu zida esa antik avtorlarga taqlid qilib o'zlari ham asarlar yozdilar. Shu narsani unutmaslik kerakki, Karolinglar ma'rifatidan juda kam kishi bahramand bo'ldi. Hatto Karl Buyuk saroyidagi mansabdorlarning ham juda ko'pchiligi o'qish-yozishni bilmasdan o'tib ketdi. Amalda Karl Buyukning «ma'rifatparvarlik» tadbirlari ko'pdan ko'p cherkov yepiskoplik maktablarining rivojlanishigagina olib keldi, keyinchalik bu maktablar zaminida o'rta asr universitetlari vujudga keldi.

**Karl Buyuk imperiyasining parchalanishi.** Karl Buyuk 814-yilda 72 yoshida vafot etdi va Axenga dafn etildi, u umrining so'nggi yillarini shu Axen atrofida o'tkazgan edi. Karl Buyuk vafot qilgandan keyin imperatorlik unvoni uning katta o'gli Ludovikka o'tdi, Ludovik ilgari otasining hayotlik chog'ida uzoq vaqt Akvitaniya qiroli bo'lib kelgan edi. Karl Buyuk o'lgandan keyin uning imperiyasi uzoq umr ko'rmasdi. Bu ilk o'rta asr harbiy-feodal monarxiyasi bo'lib, unda chinakam

markazlashuv uchun yetarli darajada iqtisodiy baza yo'q edi. Natural xo'jalik hukmronligi, ayrim viloyat va rayonlarning va hatto ayrim pomestiyelarning ham biqiqligi, shaharlar va savdoning kam rivojlanganligi – mana shularning hammasi imperiyaning muqarrar ravishda parchalanib ketishiga sabab bo'ldi. Karl Buyuk zamonida krepostnoy pomestiyelar egasi bo'lib uzil-kesil qaror topgan va Karl Buyuk olib borgan urushlar natijasida juda ko'p yangi yerlarga ega bo'lgan feodallarning o'zi mustahkam markazlashgan hokimiyatdan bezor edi. Buning natijasida qirol eng muhim sotsial kuchning yordamidan mahrum bo'ldi, holbuki, Avstraziya gertsog-mayordomlari aslida shu kuchning yordami soyasida yuzaga chiqqan edi. Karl Buyukning o'gli imperator Ludovik xudojo'y zamonida (814–840) bo'linib ketish yo'lidagi intilishlar yaqqol narnoyon bo'ldi. U lapashang bir qirol bo'lib, ruhoniylarga (uning xudojo'y degan laqabi ham shuni ko'rsatadi) va dunyoviy zodagonlarga butunlay qaram edi. Bu hol Karolinglar zamonida xalqlarning tashkil topish jarayoni yuz berganini ochiq ko'rsatadi.

843-yilda Verdenda Karl Buyukning uch nevarasi yig'ilishida imperiya uch qismga bo'lindi. Verden ahdiga muvofiq akasi Lotar imperatorlik unvonini saqlab qoldi, lekin ukalari nisbatan hech qanday maxsus huquqqa ega ernas edi, ukalarining har qaysisi o'z holicha batamom mustaqil qirol bo'lib qoldi. Lotarga Italiya, Sharqda Reyn bilan g'arbda Mass, Shelda, Sena va Rona daryolari atrofidagi yerlar (bunga Burgundiya ham kiradi) tegdi, Reynning sharqidagi yerlar Ludovik nemisga o'tdi. Lotarga qarashli yerlarning g'arbidagi yerlar Karl Yaltiroqboshga tegdi. Keyinroq borib, Lotar o'lgandan so'ng yerlar qaytadan bo'lindi. Lotarning avlodlari Italiyadagi yerlarnigina o'z q'olida saqlab qoldi, Reyn bo'yidagi yerlarning hammasini esa Ludovik bilan Karl o'zaro bo'lishib oldi. Burgundiya mustaqil qirollik bo'lib ajralib chiqdi. Imperatorlik unvoni keyinroq borib Karolinglar xonadonining boshqa avlodlari vakillariga o'tdi. Verdenda bo'lgan taqsimot Yevropada keyinchalik vujudga kelgan uchta katta davlatning – Fransiya, Germaniya va Italiyaning tashkil topishini umumiy bir tarzda belgilab berdi. IX asrning yarmida bu davlatlar ichida eng yaxliti «g'arbiy franklar» davlati edi, u keyincha vujudga kelgan Fransiyaning kurtagi bo'ldi. Bu yerdagi aholining asosiy ommasi endi tashkil topib kelayotgan fransuz xalqidan iborat bo'lib, bu xalq alohida bir shimoliy roman tilida, ya'ni ilk fransuz tilida gapirishar edi. Bu davlatning poytaxti Parij bo'lib, u Luara daryosi yaqinidagi Sena daryosi qirg'og'ida joylashgan. «G'arbiy franklar qirolligida» yoki oddiy qilib aytganda, Fransiyada (uni

X–XI asrlarda Fransiya deb atay boshladilar) Karl II Yaltiroqbosh zamanidayoq Fransiya qirolligiga normalar qattiq hujum qila boshlagan edi. Karl II Yaltiroqbosh o'lgandan keyin esa (877) bu hujumlar juda avj olib ketdi. Hujum qilganlar qisman norvejlar, qisman shvedlardan iborat bo'lgan skandinavlar edi; skandinavlar o'sha vaqtda urug'chilik tuzumining tushkunlikka uchrash va feodalizmga o'tish jarayonini bosibidan kechirayotgan bo'lib, ular orasida ko'pdan ko'p bosqinchi drujinalar vujudga kelmoqda edi, bu drujinalarga feodallashayotgan harbiy boshliqlar – yarllar va qirollar rahbarlik qilar edi. Oxir-oqibatda, Karolinglar ham Merovinglarning kuniga tushdi. So'nggi Karolinglar ham butunlay nochor holga tushib qoldi. X asrning oxirida ularning yerlari Fransiyaning shimolidagi Lan shahrining o'zi bilangina cheklanib qoldi, desak bo'ladi, so'nggi Karoling Ludovik V Yalqov o'lgandan keyin graf Robert Zo'ning nasllaridan biri bo'lgan Gugo Kapet nomli kishi 987-yilda zodagonlar va ruhoniylar yigilishi tomonidan Fransiya qiroli qilib saylandi, shunday qilib, Fransiyaning yangi dinastiyasi – Kapetninglar hokimiyati juda kuchsizlanib qoldi. Ancha keyinroq borib, XII va XIII asrlardagina bu dinastiya qaddini rostlab olgan shaharlarga suyanib turib, Fransiyaning birlashtirishga va markazlashgan davlatga asos solishga muvaffaq bo'ldi.

### Nazorat topshiriqlari:

1. Karl Buyukning vafot qilgan yili?
2. Karl Buyuk imperiyasi nima sababdan uzoq yashamadi?
3. Verden taqsimoti natijasida Yevropada qaysi uchta katta davlat tashkil topdi?
4. O'rta asrlar tarixida mashhur bo'lgan shaxs graf Roland kim edi?
5. Xlodvig hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
6. Xlodvig xristianlikni qachon qabul qildi?
7. «Sali haqiqati» qanday to'plam?
8. Frank davlatining parchalanishi nechanchi asrlarga to'g'ri keladi?
9. «Ritsar» so'zining ma'nosi nima?
10. Pipin Pakana qachon va qaysi shaharda Frank qiroli deb e'lon qilindi?
11. Rim davlatining bir qismini egallagan hozirgi papa davlatini ayting.

## 6-MAVZU: SHARQIY RIM – VIZANTIYA IMPERIYASI

### REJA:

1. Sharqiy Rim imperiyasiga asos solinishi. Rim imperiyasining iqtisodiy va siyosiy markazining sharqqa tomon siljish sabablari.
2. Sharqiy Rim imperiyasining ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, xalq ommasining ahvoli.
3. Vizantiya Yustinian II davrida.
4. Vizantiya imperiyasining xalqaro ahvoli. Imperiyaning zaiflashuvi sabablari (VI asr oxirlari va VII asr boshlarida).
5. Vizantiya imperiyasida shaharlar taraqqiyoti.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** Sharqiy Rim imperiyasi, Xrisagir, Yustinian kodeksi, skomarlar harakati, monofizitlik va nestrianlik, Nika qoʻzgʻoloni, «shaharlar vatani», polislar, ippodrom, emporiyalar.

**Sharqiy Rim imperiyasiga asos solinishi. Rim imperiyasining iqtisodiy va siyosiy markazining Sharqqa tomon siljish sabablari.** III asr oxirlariga kelib quldorlikning inqirozi natijasida Rim imperiyasining sharqiy qismi uning gʻarbiy qismidan iqtisodiy va siyosiy jihatdan tobora koʻproq ajraldi. Koʻp asrlik tarixiy taraqqiyoti jihatidan imperiyaning sharqiy hududi iqtisodiy taraqqiyotda ancha yuqori rivojlanishga ega edi. Shuning uchun imperiyaning iqtisodiy va siyosiy markazi sharqqa tomon siljiy boshladi.

330-yilda, imperator Konstantin I davrida imperiya poytaxti Vizantiya shahriga koʻchirildi va u Konstantinopol degan nom oldi. Bu shaharning poytaxt sifatida tanlanishiga sabab uning harbiy-strategik jihatdan qulay boʻlganligi va dunyoning muhim savdo yoʻlida joylashganligidir.

3. Konstantinopol imperiyaning yirik savdo va hunarmandchilik markazi boʻlib, bu shaharga dunyoning turli burchaklaridan savdogarlar kelardi. Imperator Konstantin oʻlishidan oldin vasiyat qilib, oʻgʻli Gonariyga imperiyaning gʻarbiy qismini, ikkinchi oʻgʻli Arkadiyga esa Sharqiy qismini qoldiradi.

395-yilda Gʻarbiy Rim imperiyasidan uzil-kesil ajragan sharqiy Rim imperiyasi hududiga quyidagi yerlar kirar edi:

- |                          |  |
|--------------------------|--|
| 1. Bolqon yarim oroli    | 5. Falastin  |
| 2. Kichik Osiyo          | 6. Misr  |
| 3. Egey dengizi orollari | 7. Kireniaka   |
| 4. Suriya                | 8. Shimoliy Qora dengiz atroflaridagi tayanch istehkomlar. |

Sharqiy Rim imperiyasi etnik tarkibi jihatidan turli xil xalqlar va qabilalarni birlashtirgan edi. Uning hududida: 1) greklar, 2) frakiyaliklar, 3) illiriylar, 4) suriyaliklar, 5) armanlar, 6) kontlar va boshqalar yashar edilar.

IV–VI asrlarda Vizantiya imperiyasi o'sha davrdagi xalqaro aloqalarda muhim o'ringa ega bo'lgan eng yirik davlat edi. U 1) Eron, 2) Qora dengiz va 3) Kavkazorti mamlakatlari, 4) Arabiston va 5) Habashiston kabi davlatlar bilan faol diplomatik va savdo munosabatlarini olib borar edi. Vizantiya diplomatlari va savdogarlari hatto Hindiston va Xitoy kabi uzoq yurtlarga ham kirib borgan edilar.

Bu davrda Vizantiyaning g'arbning 1) Italiya, 2) Ispaniya, 3) Galliya kabi mamlakatlar bilan ham savdo munosabatlari to'xtagan emas. Vizantiya poytaxti Konstantinopol to'g'risida: «U Sharq va G'arbni bog'lab turuvchi oltin ko'prikdir» degan gap bejiz aytilmagan.

**Ijtimoiy va iqtisodiy hayot.** IV–VI asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan Sharqiy Rim imperiyasi quldorlik tuzumining parchalanayotgan va uning bag'rida feodal tuzum elementlari paydo bo'layotgan davrni boshdan kechirayotgan edi.

a) Yirik dunyoviy va cherkov yer egaligi o'sdi va mustahkamlandi, eng muhimi, unda xo'jalik yuritishning yangi usullari qo'llandi. Oldin ham g'arbga nisbatan qo'l mehnati kamroq foydalanilgan bu yerda endi qulga xo'jalik yuritish mustaqilligi va chek yer berilib, qul feodal yerida kolonlarday ishlay boshladi. Qulning ahvoli oldingidan huquqiy jihatdan ancha yaxshilanib, endi u oila qurish imkoniga ega bo'ldi. Uni yerdan ajratib sotish mumkin emas edi va hokazo.

b) Bu yerda qullarni ozodlikka qo'yib yuborish keng tus oldi. Ayni vaqtda erkinlikka chiqqanlar ozodlikka ega bo'lganlaridan so'ng o'zlarining oldingi egalari qo'lida shaxsiy qaramlikda qola boshladilar.

Sharqiy Rim imperiyasining G'arbiy Rim imperiyasiga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri undagi tovar ishlab chiqarishning ancha ko'p rivojlanganidir. Bu yerda gazlamalarning qalin turi – jun va shoyi gazlamalar tayyorlash keng tus olgan edi:

1. Gazlama hunarmandchiligi – a) Kichiq Osiyo b) Suriya s) Falastin va d) Misrda ancha keng rivojlandi;



2. Shuningdek, bu hududda metalni qayta ishlash metall buyumlar tayyorlash, zargarlik ishlari, bezak buyumlari, shisha va qog'ozdan tayyorlangan buyumlar ishlab chiqarish keng tus oldi.

Sharqiy Rim imperiyasida G'arbga nisbatan yirik shaharlar ko'p edi. Konstantinopoldan tashqari bu yerda:

1) Antioxiya, 2) Aleksandriya, 3) Efes, 4) Simirna, 5) Neqiya, 6) Nikomediya, 7) Patriy, 8) Fiva, 9) Korinf va Fessalonika shaharlari mavjud edi.

Xalq ommasining ahvoli og'ir edi. Bu IV–VI asrlarda kolonlarning o'z xo'jayinlari qo'llarida ommaviy ravishda qochib ketishida ko'rinadi.

Haddan ziyod jabr-zulm norozilik harakatlari va qo'zg'olonlarning ommaviy tus olishiga olib keldi. Eng yirik qo'zg'olon Dunay oldi hududida yashagan vestgot qabilalari tomonidan u goh kuchayib, goh pasayib to V asr boshlariga qadar davom etdi. Xuddi shu vaqtda butun Rim amaldorlari va quldorlarni qo'rquvga solgan Isavr qabilasining qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

Kichik Osiyoda esa qullar, kolonlar yollanma soldatlar qo'zg'oloni avj oldi. Bu qo'zg'olonlarning barchasini bostirish uchun juda katta armiya tashlandi.

Dehqonlar uchun eng og'ir majburiyat bu – davlatga natural soliqni yetkazib berish edi.

VII asrda yashab ijod qilgan Ioann Lid yozishicha, imperiya portlariga chekka viloyatlardan g'alla tashib kelinayotgan yo'llar bu majburiyatni bajarish davrida ochlikdan o'lgan bolalar va xotinlarning jasadi bilan to'lib yotardi.

Shahar aholisi alohida pul solig'i – xirisagir to'lar edikim, uning asosiy og'irligi kambag'allar va hunarmandlar yelkasiga tushdi. Amaldorlar tomonidan bu soliq xalq ommasini shunchalik surbetlarcha talash yo'li bilan undirildiki, VI asrda tarixchi Prononiy Kesariskiy guvohligicha, aholi uchun xazina agentlarining kelishiga nisbatan dushmanlarning bostirib kirishi kamroq qo'rqinchli edi.

**Vizantiya Yustinian I davrida.** Yirik davlat arbobi, aqlli siyosatchi, g'ayratli va shijoatli, o'zidagi savodlilik va keng dunyoqarashni yovuzlik va nihoyatda zolimlik bilan chambarchas bog'lagan Vizantiya imperatori Yustinian I qulchilik munosabatlari tizimini saqlab qolishga harakat qildi.

Yustinian hukumatning imperiyani mustahkamlashga qaratilgan eng muhim tadbirlaridan biri Grajdanlar qonunlar to'plami bolib, u to'rt qismdan iborat edi. 1) Huquqning ayrim muhim masalalari bo'yicha Rim huquqshunoslarining fikr to'plami; 2) Rim iperatorining oldin nashr etgan

qonunlar to'plami; 3) Rim huquqi bo'yicha qisqacha ko'rsatma; 4) Yustinian tomonidan 564-yildan 565-yilgacha e'lon qilingan qonunlar to'plami orqali: a) Imperator hokimiyatining chegaralanmaganini e'lon qildi; b) hukmron cherkovning imtiyozlarini himoya qildi; c) xususiy mulkni himoyaladi; d) qullar va enopograflarni huquqsiz holatini mustahkamladi.

Yustinian hukumati qonunni qo'llash yo'li bilan feodallashayotgan hokimiyat kuchayishining oldini olmoqchi bo'ldi: unga ko'ra harbiy drujinalarga ega bo'lish, o'z yerlarida shaxsiy turmaxonalar qurish man etildi.

Ayni vaqtda Yustinian bu aslzodalarga qisman imtiyoz ham berdi. Iqtisodiy jihatdan qullik manfaatsiz bo'lib qolganligi tufayli, hukumat yirik yer egalariga ayrim vaqtlarda qullarni kolonlik holatiga o'tkazishga ruxsat berdi.

Xalq ommasiga nisbatan hukumat o'zining qonunlarida rahmsizlikni himoya qildi. Yustinian kodekslarida kolonlarni yerga biriktirib qo'yish to'g'risida juda qattiq ko'rsatmalar bor. Qochoq kolonlar va qullar uchun beshafqat jazolar belgilangan.

Hokimiyatga nisbatan har qanday bo'ysunmaslik, har qanday erkin fikrlilik, shu jumladan, din sohasida ham qattiq jazolangan.

Yustinianning siyosati imperiyaning turli burchaklarida ko'tarilgan ko'p sonli dehqon qo'zg'olonlariga olib keldi. Imperiyaning Yevropa qismida skamarlar harakati deb atalgan harakat boshlandi.

Shuningdek, imperiyaning sharqiy viloyatlarida yeretik harakatlardan: monofizitlik va nestorianlikni rahmsizlarcha ta'qib etish juda katta norozilikka sabab bo'ldi.

**Xalq qo'zg'olonlari.** Yustinian davridagi shahar aholisining eng dahshatli qo'zg'olonlaridan biri 532-yilda Konstantinopolda bo'lib o'tdi, u tarixda «Nika» nomi bilan mashhur. Bu qo'zg'olon kambag'alarning hukumat amaldorlarining ta'magarchiligiga qarshi stixiyali tarzda boshlanib ketdi. Keyinchalik ularga shaharning quyi va o'rta tabaqalarining vakillari ham qo'shildilar. Senat aristokratlaridan bir qismining qo'zg'olonchilar safiga kirib kelishidan maqsadi – ular qo'zg'olondan foydalanib hukmron sulolani o'zgartirmoqchi edilar.

«Nika» qo'zg'olonini Yustinian juda qiyinchilik bilan qo'mondonlar Velizariy va Mundaning yollanma qo'shinlari yordamidagina bostirishga muvaffaq bo'ldi.

Hukumat qo'shinlari sirqni o'rab olishib, keyinchalik u yerda qirg'in o'tkazdi, bu qirg'inda 35 mingga yaqin odamning kallasi olindi.

«Nika» qo'zg'oloni bostirilgach, vaqtinchalik Yustinianning mavqeyi tiklandi va u bu yutuqdan G'rbiy Rim imperiyasini tiklashda

foydalanishga kirishdi. Velizariy qo'mondonligidagi vizantiyaliklar armiyasi 534-yilda Shimoliy Afrikadagi vandallar qirolligini bosib oldi. Ammo Vizantiya hukumatining reaksiyon siyosati: 1) yerni Rim quldorlarining avlodlariga qaytarib berish; 2) ozodlikka erishgan qul va kolonlarning o'zlarining oldingi egalariga qaytarilishi; 3) hukmron cherkovni himoya qilish; 4) yeretik harakatni ta'qib etish butun Shimoliy Afrikani o'rab olgan xalq qo'zg'oloniga olib keldi; Stotza nomli askar boshchilik qilgan bu qo'zg'olon o'n yil davom etdi. Natijada u 548-yilda butun Shimoliy Afrikaning Vizantiya tarkibiga qo'shib olinishi bilan tugadi va uning hukmronligi ostida to 698-yilgacha, ya'ni bu yerni arablar bosib olgunga qadar davom etdi.

Imperiyaning Italiyadagi ostgotlarga qarshi olib borgan yurishi yanada uzoqroq davom etdi. 535-yildan to 555-yilga qadar davom etgan bu yurish dastlab imperiya armiyasining qo'mondoni Velizariy uchun muvaffaqiyatli boshlandi. U 536-yilda Rimni bosib oldi. Ammo bu yerda ham quldorlik tuzumini saqlashga qaratilgan siyosat qattiq qarshilikka duch keldi. Ostgot qabilasining yo'l boshchisi Totida o'n yildan ortiq vizantiyaliklarga qarshi ancha muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Totida jang maydonida halok bo'lganidan so'ng 555-yilga kelib Italiya vaqtincha Vizantiyaga qoshib olinadi.

Vestgotlar qirolligiga qarshi kurashda ham vizantiyaliklar ancha muvaffaqiyatga erishdi. Bu yerdagi janjallardan foydalangan Yustinian darrov armiyasini jo'natdi va Pireney yarim orolining janubi-sharqiy qismidagi ko'pgina tayanch punktlarni qo'lga kiritdi, ammo bu yutuqlarning ko'pchiligi mustahkam emasligi tezda bilindi.

Yustinian davrida imperiyani kuchsizlantirgan tashqi faktorlar quyidagilar edi:

- 1) Shimoliy slavyanlar bilan to'xtovsiz qonli urushlarning olib borilishi;
- 2) Osiyo hudididan kelgan xunlar bilan urushish; 3) Varvarlar bilan to'qnashish; 4) Eron bilan olib borilgan janglar.

Yustinianning vorislari Yustinian II, Tiberiy, Mavriqiy davridagi to'xtovsiz va ayovsiz janglar imperiyani holdan toydirdi va uning zaiflashuviga olib keldi.

VI asr oxiri va VII asr boshlarida Vizantiya imperiyasida qulchilik ishlab chiqarish usuli inqirozi kuchaydi. Imperiya Sharq va G'arbda qo'shib olingan yerlardan mahrum bo'la boshladi. Misr, Suriya va Falastinda qullar, kolonlar va xonavayron bo'lgan dehqonlarning ommaviy harakatlari boshlandi.

Xalq harakati, ayniqsa, imperator Mavrikiya boshqargan yillarda

kuchaydi. Konstantinopolda shahar kambag'allari va Vizantiya armiyasining qo'zg'oloni to'xtovsiz davom etish tusini oldi. Ayniqsa, 602-yilda Dunayda turgan armiya tomonidan ko'tarilgan qo'zg'olon juda katta o'zgarishga olib keldi. Senturion Foka boshchiligida ko'tarilgan harbiylar qo'zg'oloni shahar aholisining quvvatlashi natijasida Mavrikiyning taxtdan tushirilishi va qatl qilinishi bilan, Fokaning esa imperator deb taxtga o'tirishi bilan tugadi.

Ammo yirik quldor va senat Fokaga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Natijada butun imperiya hududida ochiqdan ochiq fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Voqealar rivojlanishi 610-yilda Fokaning taxtdan ag'darilishi va feodallashayotgan chekka viloyatlar amaldorlaridan bo'lgan Irakliyning imperator deb e'lon qilinishiga olib keldi.

Vizantiya imperiyasi tarixida slavyanlar ham katta o'rin egalladilar. Ularning imperiya hududiga ommaviy yurishlari VI asrning boshiga tegishlidir. Ammo ular VI asrning oxiriga kelib, Vizantiya imperiyasi zaiflashib qolgandan keyingina uning hududida muqim joylashib olishga muvaffaq bo'ldilar. Masalan, 578-yilda 100 mingdan ortiq slavyanlar Dunay daryosidan o'tib, Frakiya va Elladaga o'rnamshdilar. 581-yilga kelib ular Frakiya, Makedoniya va Fessaliyaga ko'chib ko'paydilar.

VII asr o'rtalariga kelganda slavyanlar butun Bolqon yarim oroliga tarqalib, joylashib olgan edilar. Ko'p slavyanlar Kichik Osiyoga ham kelib o'rnamshdilar.

VII asrga kelib Vizantiya imperiyasida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xalq ommasining quldorlik imperiyasiga qarshi kurashidan foydalangan feodallashayotgan yangi mulkdor tabaqa vakillari bu yerdagi hokimiyatni egalladi va davlat o'zining quldorlik xususiyatini yo'qotib, tobora feodal munosabatlar rivojlanayotgan davlat tusini ola bordi.

VII asrga kelib Sharqiy Rim imperiyasi hududi keskin ravishda qisqarib bordi.

1. Dunay daryosidan Egey dengizigacha bo'lgan yerlar slavyanlar tomonidan egallandi va keyinchalik bu hududda ularning 1) Bolgariya, 2) Serbiya, 3) Xorvatiya singari davlatlari paydo bo'ldi.

2. Imperiyaning Sharqiy viloyatlari bo'lgan 1) Suriya, 2) Falastin, 3) Misr, 4) Yuqori Mesopatomiya, 5) Kiliqiya, 6) Shimoliy Afrikadagi yerlari arablar tomonidan bosib olindi.

3. 568-yilda Shimoliy va Markaziy Italiyaning katta qismi german qabilalaridan bo'lgan langobardlar tomonidan bosib olindi. Vizantiya qo'l ostida Italiyaning Ravenna hududi va unga tegishli viloyatlar, janubiy Italiya va Sitsiliya qoldi.

4. Vestgotlar tomonidan Ispaniya Vizantiyadan qayta tortib olindi.
5. VII asr oxiri – VIII asr boshlarida Vizantiyadan Lazika va Armaniston batamom mustaqil bo‘lib chiqdilar.
6. Yuqoridagi o‘zgarishlardan so‘ng Vizantiya tarkibida Kichik Osiyo, Bolqon yarim orolining bir qismi va Italiyadagi yerlar qoldi, xolos.
7. Imperiyaning etnik tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Endi imperiya aholisi tarkibida slavyanlar ko‘zga ko‘rinarli joyni egalladilar.

**Vizantiya imperiyasidagi shaharlar.** IV–V asrlarda Vizantiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri uning iqtisodi, siyosiy va madaniy hayotida shaharlar rolining kattaligi edi. Ayrim tarixchilarning hisoblashicha, IV–VI asrlarda imperiya hududida mingga yaqin shahar bo‘lgan. Shahar jamoalari – polislarning soni bundan ham ko‘p edi. Vizantiya «shahar vatani» degan nom olgan edi. Ya‘ni uning barcha viloyatlarini qalin shaharlar tarmog‘i qoplab olgan edi. Ayrim shaharlar aholisi 100 ming kishigacha bo‘lgan. Ularning ichida eng katta shaharlardan bo‘lgan Konstantinopolda esa IV asrda 100 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, V asrga kelib 150 ming kishi yashar edi. Sharqning ko‘hna shaharlaridan bo‘lgan Antioxiya va Aleksandriyada aholining soni bundan ham ko‘p edi. Masalan, IV–V asrlarda Antioxiyada 250 ming, Aleksandriyada esa 300 ming kishi yashagan. Juda ko‘p shaharlarning, masalan, Fessalonika, Quddus, Edessa, Tir, Bayrut, Flippopol, Damashq, Nikeya, Efis, Nikomediya va boshqalarning har birinig aholisi 10 mingdan to 100 ming kishini tashkil etgan.

**Ilk Vizantiya shaharlari.** IV–V asrlarda shaharlar hunarmandchilik markazlari bo‘lmasdan, antik quldorchilik polislari edi. Ular hunarmandchilik va savdo markazlaridan ko‘ra ko‘proq yerga egalik va dehqonchilikka asoslangan shaharlar edi. Feodal shaharlardan farqli ravishda quldorlik shaharlari bit butun qishloq xo‘jalik okrugini tashkil etib, yerlardan faqat shahar fuqarolari foydalanishga haqli edi.

Ahamiyat jihatidan shaharlar ichida Konstantinopol birinchi o‘rinda bo‘lib, u imperiyaning Bolqon va Kichik Osiyodagi chegara shahri edi. Antioxiya esa o‘zidan Sharq bilan savdo qilish karvoni o‘tadigan shahar sifatida mashhur edi. Aleksandriya hunarmandchilik ishlab chiqarish va dengiz shahri sifatida nom chiqargan edi. Aleksandriyadan deyarli barcha Sharq mamlakatlariga savdogarlar qatnar edi.

Kichik Osiyoning ichki viloyatlari va ichki qismidagi yerlarda hamda Dunay chegarasidagi hududlarda IV–V asrlarda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi davom etdi. Bu yerda maxsus savdo markazlari – em-

poriyalar, bozorlar paydo bo'lsa-da, ammo ularni shaharlar deb bo'lmas edi. Sababi: birinchidan, ular savdo va ayirboshlash markazlari edilar; ikkinchidan, ularning ko'pchiligida aholi juda kam edi va bu yerga odamlar asosan savdo yoki yarmarkalar ishlagan kunlari kelar edilar.

Umuman, Vizantiya imperiyasi tarkibidagi shaharlar V asrdan boshlab polislar shaklida emas, balki savdo, hunarmandchilik va ma'muriy markaz sifatida shakllana boshladi.

Shaharlarning tashqi ko'rinishi V–VI asrlarda ham o'zining antik qiyofasini saqlab qoldi. To'g'ri perpendikulyar kesishadigan ko'chalar, kochalarga yotqizilgan tosh plitalar, yirik maydonlar, qadimiy xudolar va afsonaviy qahramonlar haykallari bilan bezatilgan kochalarning kesishadigan joylari shahar chiroyiga alohida salohiyat, ulug'vorlik baxsh etib turardi. Ko'pincha shaharlarning eng katta ko'chasida shahar boylarining kolonnali peshayvonlari va tagida savdo shaxobchalari bo'lgan 2-3 qavatli arxitektura jihatdan dabdabali qilib qurilgan uylari joylashgan bo'lardi. Shuningdek, bu asosiy ko'chalarda savdo rastalari va ma'muriy binolar ham joylashgan edi.

Vizantiya imperiyasi shaharlarining ko'pchiligidagi asosiy ko'chalar uzun va kengligi bilan alohida ajralib turar edi. Masalan, Antioxiyaning bosh va kolonnalar bilan bezalgan chiroyli ko'chasi 4 km gacha cho'zilgan edi. Apameyadagi asosiy ko'chaning kengligi 23,5 metrni tashkil etib, uzunligi 2,5 kmga cho'zilgan edi. Shaharning markaziy qismida ma'muriy binolar: shahar kengashi binosi, imperator saroyi, munisipial maktablar, har xil xudolarga sig'iniladigan ibodatxona binolari joylashgan edi.

IV asrda xristianlikning g'alaba qilishi natijasida otashparastlik ibodatxonalarining ko'pchiligi buzib tashlandi yoki qaytadan cherkovlar yoxud shahar ma'muriy binolari sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Bu shaharlarning o'ziga xos tomonlaridan yana biri ularning markazdagi toshdan yasalgan savdo do'konlar rastasi edi.

IV–V asrlardagi shahar turmushining ajralmas elementlaridan biri bu teatr bo'lib, u tepalik joyda qurilar va odatda usti ochiq bo'lardi. Bunday tomoshaxonalar bir necha ming kishiga mo'ljallangan bo'lardi. Bu yerdagi tomoshalarni xalq juda katta qiziqish bilan kuzatardi.

IV–V asrlarda sport ham ahamyatga molik tur edi. Sport musoboqalari sirk yoki ippadrom degan maydonlarida o'tkazilardi. Bu maydonlarda yana rasmiy bazm va bayramlar ham o'tkazilardi. Shaharlarda yozgi va qishki ajoyib hammomlar, favvoralar, hovuzlar bo'lgan. Shuningdek, bu shaharlarda aholini suv bilan taminlash, vodoprovod va kanalizatsiya xizmatlari juda ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shahar markazlari o'zgacha chiroyga ega edi. Bu yerda yam-yashil daraxtlar yashnab turar, badavlat feodallar uylari marmardan bezaklar berilgan, chiroyli mozaika qo'llanilgan va haykalchalar bilan bezatilgan bo'lardi.

Shaharning quyi tabaqasi ko'chalarida esa ahvol mutlaqo boshqacha edi. Hunarmandlar ko'pincha o'zlarinig kasblari ko'proq suv oqadigan joylarni taqozo qilganligi sababli ariq va anhorlar yoki suv havzalari yaqiniga ma'lum bir kasb guruhi vakillari sifatida joylashar edilar. Bu kvartallarda hunarmandlar ustaxonalari va mayda savdogarlar do'konlari tig'iz joylashgan bo'lib, turli xil yemakxonalarga ega bu ko'chalarga, asosan, sayoq sozandalar, fokuschilar, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatuvchilar, jazmanlarini axtarishgan fohishalar kirar edilar.

Shaharlar devorlarining tashqarisida munisipial qo'riqchilar tomonidan qo'riqlanadigan shahar atrofi qismida ham muhim inshootlar joylashgan edi. Masalan, shahar darvozalariga yaqin joyda karvonsaroylar qurilgan bo'lib, u yerda xorijdan kelgan savdogarlar turar edilar. Xuddi shu yerlarda shaharliklarning bog' va tomorqalari bo'lib, ular shaharni meva-sabzavot bilan ta'minlab turar edi. Shahar tashqarisida boylarning villalari tashqi ko'rinishlarining bejirimligi bilan xorijdan kelganlarning diqqatini jalb etar edi.

Ko'pincha shahar devorlari yonida harbiy mashqlar o'tkaziladigan va jinoyatchilar qatl qilinadigan maydonlar bo'lardi. Uning yonida shahar chiqindisi tashlanadigan maxsus joy bo'lib, u yerga chiqindilardan tashqari o'lgan mollar va qatl qilingan, ko'milishi mumkin bo'lmagan kishilarning jasadlarini tashlar edilar.

Shahar tozaligiga rioya qilmagan kishilarga o'sha vaqtlarda katta jarimalar solingan. Chet mamlakatlardan savdogarlar ko'p kelib turganliklari sababli, ularda yomon taassurot qoldirmaslik maqsadida shaharning tozaligiga alohida e'tibor berilgan.

**Konstantinopol IV–V asrlarda.** Vizantiya imperyasining eng katta va chiroyli shahri Konstantinopol edi. Konstantin davridayoq Bosfor qirg'og'iga qurilgan bu shaharning atrofi devorlar bilan o'ralgan va shaharning asosiy imoratlaridan bo'lgan Senat binosi, imperator saroyining katta qismi qurilgan, asosiy ko'cha o'tkazilgan. Jamoa yig'ilishlari uchun yangi form, bahaybat ippodrom, pul zarb qilinadigan bino, jamoa hammomlari, favvoralar, suv quvurlari va cherkovlar qurib bitkazilgan. 330-yil 11-mayda yangi poytaxtning ochilish marosimi bo'ldi. Shundan so'ng shahar yanada jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. V asrga kelganda Konstantinopol shahri devorlari tobora ko'payayotgan aholini sig'dira olmay qoldi. Feodosiy II shahar chekkasini kengaytirishga va

yangi mudofaa devorlari qurishga majbur bo'ldi.

Mavzuga doir manbalarga ko'ra, bu vaqtda Konstantinopolda jamoa binolaridan tashqari nufuzli kishilarni 4488 ta toshdan qurilgan uylari bor edi. Bundan tashqari, 8 jamoa va 153 xususiy hammomlar, 20 ta jamoa va 120 ta xususiy novvoyxonalar, 14 ta cherkov va boshqa qurilishlar mavjud edi.

Shaharni boshqarish ishlari Yeparx va uning yordamchisi Nikteparx – «tungi yeparx» qo'lida to'plangan edi. Ularga legionlar va kvartallar kuratorlari, soqchilar va o't o'chiruvchilar bo'ysunar edilar. Yeparx shahardagi xavfsizlik va tartibga, oziq-ovqat bilan ta'minlashga va savdo-hunarmanchilik aholisi faoliyatiga javob berar edi. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishda shahar Konstantin davridan Rim shahriga bo'lgan imtiyozlarni qo'lga kiritgan edi, ya'ni uning aholisining katta qismi saroy ayonlari, amaldorlari, gvardia uy egalari, kambag'allar nonni bepul olardilar. Shaharni g'alla bilan Misr ta'minlar edi. U yerdan har yili 8 million kijdan ortiq g'alla keltirilardi.

V asrdagi Konstantinopol aholisining sonini aniq aytish qiyin. Tadqiqotchilar ularning sonini 100 ming dan 170 mingacha deb ko'rsatadilar. Poytaxt siyosiy hayotining rasmiy markazi markaziy maydon Avgustiani o'rab turuvchi rayon edi. Unga katta imperator saroyi, Senat binosi kirar edi. Ularga yaqin joyda shahar hokimining ma'muriyati va Ippodrom joylashgan edi.

Imperator saroyi bevosita ippodrom bilan bog'liq edi. Ippodromning uzunligi 370 m va eni 10 m bo'lib, arenasining o'zi bo'yiga 170 m, eniga 35-40 m ni tashkil etardi.

Uning bir tomoni imperator saroyiga tutashgan bo'lib, u yerda imperator tribunasi va imperator oliy amaldorlarining lojasi bor edi. Trubina tagida imperator soqchilari uchun maxsus joy ajtarilgan edi. Trubina imperator saroyi bilan yopiq yo'lak bilan birlashgan bo'lib, xavf tug'ilgan vaqtda shu yo'lak orqali qochib qutulish mumkin edi.

Ippodrom bir vaqtning o'zida 40 ming kishini sig'dira olardi. U amalda mamlakat ijtimoiy harakatining markazi edi. Bu yerda davlatning rasmiy bayramlari, tantanalar, tomoshalar yoki g'ildirakli aravalar poygalari, teatr tomoshalari va umuman, keng ommani jalb qiluvchi tadbirlar o'tkazilardi.

VII asrdagi ijtimoiy buzilishlar, arablar va slavyanlar kabi xalqlarning Vizantiya hududiga bostirib kirishi natijasida eski Rim shaharlarining inqirozi boshlandi. Endi imperiya quldorlik poloslariga tayana



olmay qoldi. Buning asosiy sababi geologlarning (qaram qullar) ozod bo'lishi va polislarining zaiflanishi edi.

O'sha davrlardagi shaharlar hayotidagi o'zgarishlar haqida arab yozuvchisi va sayyohlarning asarlarida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan, IX asrda yashagan arab geografi Ibn Xurdobek Vizantiya tarixi va imperiya femailari hayotiga doir har taraflama va chuqur ma'lumotlarga ega bo'lgan. Uning ma'lumotlariga qaraganda, Kichik Osiyoda hammasi bo'lib 5 ta shahar: Efes, Nikeya, Amoriy, Ankira va Samara mavjud bo'lgan. Boshqalari Vizantiyaga tegishli qo'rg'onlar, harbiy istehkomlar yoki qishloqlardan iborat edi.

Ibn Xurdobekdan keyin yashagan Xorun ibn Yahyoning IX–X asr chegaralariga doir ma'lumotlaridan Vizantiya shaharlarining rivojlanishida yangi jarayon boshlanganligini bilish mumkin. Ammo hali ham shaharlar unchalik ko'p emas edi. Xorun ibn Yahyo o'zining Attaliyadan Konstantinopolga borgunicha atigi bitta gavjum va bitta uncha katta bo'lmagan shahardan o'tganligi to'g'risida yozadi.

VII asrning so'nggi o'zgarishlaridan omon qolgan shaharlar ham ancha qisqarib, avvalgi ahamyatini yo'qota boshladi. Masalan, shunday shaharlardan biri Efes shahri edi. Bu shahar to'grisidagi VIII–IX asrlarga oid yodgirliklarga qaraganda shahar Iso payg'ambar tug'ilgan «Muqaddas joy» Quddus bilan qo'shni bo'lgan va Payg'ambar qabrini ziyorat qilishga boruvchilar shu shahardan o'tishgan. Shahar port shahri bo'lganligi uchun uning gavanlarida juda ko'p kemalarni ko'rish mumkin edi. Bu yerda har yili yarmarkalar ishlab turgan, ammo bu yarmarkalardan olinadigan savdo tushumi hisoblab qaralganda ularning juda ham kam ekanligi ma'lum bo'ldiki, bir yilda 100 funt oltin bu o'sha davr uchun ham juda kam edi.

V asrning birinchi yarmida Konstantinopolning devorlari yangilangan vaqtda uning maydoni ancha kengaytirildi. Bu shahar uchburchak shaklidagi yarim orolda joylashgan edi. Uni uch tomondan Marmar dengizi Bosfor va «Oltin shoh» dengizlari o'rab turardi. Shaharda 7 ta do'nglik (tepalik) joylashgan edi. Ikki tepalik o'rtasidan juda vahimali nom bilan Likos (bo'ri) deb ataluvchi kichkina daryocha oqib o'tardi. Uylar balandda joylashganligi uchun tepa va pastliklarga tushib chiqadigan ko'chalar zinapoyalarni eslatardi.

Shahar mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib ularning umumiy uzunligi 25 kmga yetardi. Devorlarning yarmi dengiz qirg'og'i bo'ylab ketgan bo'lsa, yarmi quruqlikdagi hujumdan saqlar edi. Hozirgi kungacha quruqlikdagi mudofaa devorlari to'laligicha saqlanib qolgan. Sha-

harning mudofaa tizimi uch qator devorni tashkil etgan. Eng ichki devorning balandligi 20 metr edi. Devorlarning orqasida xandaqlar bo'lib, ular dengiz yoki yomg'ir suvlari bilan to'ldiriladi edi. Bu mudofaa devorlarida bir-biridan o'zining arxitektura xususiyati bilan ajralib turgan, bir-biriga o'xshamagan 400 ta minora mavjud edi. Shaharning markazi bo'lgan Avgustion maydoniga poytaxtning bosh cherkovi Muqaddas Sofiya ibodatxonasi ko'rk berib turardi. Port ko'chalarining ko'pchiligiga marmar yotqizilgan edi. Ammo Konstantinopolning hamma ko'chalari ham birday chiroyli edi, deyolmaymiz. Ayniqsa, Likos daryosi atrofidagi kambag'allar yashaydigan ko'chalar juda xaroba holida edi.

X asrda Vizantiyaga rus savdogarlari qullarni, teri va mum olib kelardilar. XII asrda Shimoliy Qora dengiz bo'yidan qora ikra va oq mo'yna olib kelish boshlandi.

Ma'lumki, Konstantinopol imperiya markazi edi. Bu yerga markazlashgan rentaning asosiy qismi olib kelinardi. Tushgan yig'imlar, asosan, yuqori zodagonlarga, zargarlik buyumlariga, cherkovlar qurilishiga sarflanar edi. Vizantiyada cherkov katta rol o'ynagan. Cherkov boshida Konstantinopol patriarxi turar edi. Ular imperatordan keyin ikkinchi o'rinda turgan va ruhoniylar tomonidan saylangan. Odatda, bir joyga 3 ta nomzod qo'yganlar.

Qadimgi grek madaniyatlari bilan Vizantiya xristian cherkovining farqi shundaki, Vizantiya cherkovida xudoning haykali bino ichiga qo'yilar, ammo diniy marosimlar bino tashqarisida bajarilar edi. Shu bois tashqi qismining bezagiga e'tibor berardilar. Xristianlar esa ibodat uchun butxonaning ichkarisiga kirar edilar.

Yustinian I davrida Avliyo Sofiya soborining qurilishi dinga e'tibor kuchayganligidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, uni o'n ming kishi besh yil davomida qurgan.

Vizantiyada imperator hokimiyati bilan cherkov mustahkam aloqada bo'lib, ular bir-birlarining faoliyatlarini to'ldirib turgan.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Konstantinopolga qachon asos solindi?
2. Rim imperiyasi qachon ikkiga bo'lindi?
3. Sharqiy Rim imperiyasining etnik tarkibi kimlardan iborat edi?
4. Yustinian I davrida qanday qonunlar to'plami nashr etildi?
5. Skamorlar kimlar edi?
6. Nima uchun Vizantiyani «shaharlar mamlakati» deyдилar?

## 7-MAVZU: VII–XI ASRLARDA SLAVYAN DAVLATLARINING VUJUDGA KELISHI

### REJA:

1. VI–VII asrlarda Knyaz Samo hukmronligi davrida Gʻarbiy slavyanlar va Moraviya davlatining vujudga kelishi.
2. Chexiya va Polsha davlatlarining tashkil topishidagi shart-sharoitlar.
3. Kiyev Rusi feodal davlati.
4. Janubiy slavyanlar: Bolgar, Serb va Xorvat qirolliklari.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** avarlar, obrlar, slavyan, «Samo davlati», serb, knyaz, zlichen, shahar kattalari, obodrit, lyoʻtich, feodal, vechelar, pomor, lujichanlar, silezlar, arxiyepiskop, zodagon, lex, Moraviya, ulugʻ Moraviya.

**VI–VII asrlarda Knyaz Samo hukmronligi davrida Gʻarbiy slavyanlar va Moraviya davlatining vujudga kelishi.** Eng ilk gʻarbiy slavyan davlati Bogemiya qabilalari ittifoqi boʻlib, bu ittifoq VII asrning oʻrtalarida hukm surgan edi. Bu ittifoq slavyanlarning avarlarga qarshi olib borgan kurashi jarayonida vujudga keldi. Avarlar turk irqiga mansub xalq boʻlib, Dunayga VI asrning ikkinchi yarmida keldilar. VI asrning oxiri – VII asrning boshlarida ular bir qancha slavyan qabilalarini oʻzlariga boʻysundirib, bu qabilalarga xiroj soldilar va koʻp kishini qul qilib oldilar. Slavyanlar avarlar hukmronligiga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarib, ulardan ozod boʻldilar va juda katta bir harbiy-qabilaviy ittifoq tuzdilar. Bu siyosiy ittifoqqa Samo degan bir knyaz bosh boʻldi. Samo frank savdogari boʻlib, slavyanlar bilan savdo qilgan va ularning harbiy boshligʻi boʻlib qolgan. Slavyanlar VI–VII asrlardagi «koʻchish»dan keyin Gʻarbiy Yevropada juda katta territoriyani ishgʻol qildilar. Gʻarbda – Elba boʻylab ketgan chegaradan sharqda Visla havzasigacha, shimolda Boltiq dengizi qirgoqlaridan janubda Dunaygacha boʻlgan hududda slavyanlarning gʻarbiy tarmogʻi deb atalgan koʻp sonli slavyan qabilalari yashar edi. Gʻarbiy slavyanlar urugʻchilik tuzumining tushkunlik bosqichini boshidan kechirayotgan boʻlib, VII–IX asrlar ichida oʻzlarining qabilaviy ittifoqlarini tuzdilar. Gʻarbiy slavyan davlatlarining vujudga kelishida ichki shart-sharoitlardan, yaʼni hukmron feodal yer egalari sinfining va shaxsan qaram boʻlgan dehqonlar sinfining tashkil topishidan tashqari, slavyan qabilalarining qoʻshni xalqlar-

ga qarshi olib borgan qattiq kurashi ham ahamiyatga ega bo'lib, g'arbiy slavyan davlatlarining vujudga kelishini tezlashtirdi. Samo degan nomning o'zagi slavyan bo'lganligining o'zi (Samoslav) Samoning mo'jizaviy, ya'ni xristianlikdan oldingi tarzdagi turmush-maishatni ifodalaydi. Samoning avarlargagina emas, balki franklarga ham qarshi urush olib borgani uning slavyan bo'lganligidan yana bir dalolatdir. Samo 35 yil hukmronlik qildi. U o'lgandan keyin qabilalar ittifoqi tarqalib ketdi. G'arbiy slavyanlarning ittifoqlari ichida mustahkamrog'i Ulug Moraviya ittifoqi edi. U ham bo'lajak chexiya territoriyasida vujudga kelib, butun bir asr hukm surdi. Bu ittifoqqa Moymir ismli bir knyaz (818–846) asos solgan bo'lib, undan keyin Rostislav (846–870) va Svyatopolk (870–894) degan knyazlar idora qildi. Bu knyazlarning hammasi ham nemis feodallariga qarshi qattiq kurash olib bordi.

Kirill va Mefodiy Solun shahridan chiqqan greklar bo'lib, slavyan tilini yaxshi bilar edilar. Kirill va Mefodiy Moraviyaga 863-yilda kelib, muvaffaqiyat qozondilar. Katolik nemis ruhoniylari ularning ishiga har qanday yo'llar bilan to'sqinlik qilishga urindi, buning uchun papaga ular ustidan shikoyat qildilar. 870-yilda Rostislavni o'z jiyani Svyatopolk nemislarning yordami bilan taxtdan tushirdi. Biroq oradan ko'p vaqt utmay, nemislar Svyatopolkdan ham qutulishga qaror qildilar. Oxir-oqibatda, Germaniya qiroli (Ludovik Nemis) yon berdi va 874-yilda Svyatopolk bilan bitim tuzib, uni Moraviya knyazi deb e'tirof etdi. Keyinchalik Svyatopolk Moraviya davlatining chegaralarini ancha kengaytirishga, Laba, Oder bo'ylarida, Karpat etaklarida yashovchi slavyanlarni bo'sundirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, har holda, u nemis feodallariga birmuncha yon berishga majbur bo'ldi. Bu yon berishdan biri shuki, Mefodiyning faoliyatiga zarar yetkazilib, katolik Cherkovining faoliyatiga erkinlik berildi. Mefodiy o'lgandan keyin (885 y.) uning shog'irdlari Moraviyadan butunlay haydab chiqarildi. Lekin Ulug' Moraviya davlatining halok bo'lishiga, asosan, IX asrning oxirida o'rta Dunayda vengerlarning paydo bo'lishi sabab bo'ldi, ular 906-yilda Moraviya davlatini g'oyat darajada xarob qildilar. Moraviyaning vengerlar tomonidan vayron va xarob qilinishi Moraviya ittifoqining parchalanib ketishiga sabab bo'ldi.

**Chexiya va Polsha davlatlarining tashkil topishidagi shart-sharoitlar.**

X asrning boshlarida Ulug' Moraviya davlatining bir qismidan Chexiya knyazligi vujudga keldi. Chex knyazlari IX asrda ham bor edi, u vaqtda ular hali Moraviya knyazlariga qaram edilar. Chunonchi,

knyaz Borivoy (874–879), uning xotini Knyagina Ludmila yepiskop Mefodiydan xristianlikni qabul qilganlar orasida tilga olinadi. IX asrning oxirlarida Chexiyada bir qancha vaqtgacha ikkita qabilaviy ittifoq: shimoli-gʻarbda markazi Praga shahri boʻlgan asl chexlar ittifoqi va janubi-sharqda markazi Libisa shahri boʻlgan zlichenlar ittifoqi hukm surib keldi. Chexiyaning shimoli-gʻarbiy qabilalar ittifoqi yengib chiqdi. Pshemisl xonadoniga mansub boʻlgan knyazlar X–XI asrlar davomida urugʻ zodagonlariga, yaʼni lexlarga qarshi qattiq kurash olib borishga majbur boʻldilar. Lexlarga qarshi olib borilgan bu kurash knyazlar – Boleslav I Dahshatli (936–937) va Boleslav II (967–999) zamonida, ayniqsa, keskin tus oldi. Bu kurash natijasida zlichen qabilalari ittifoqiga boshchilik qilgan Slavnikovichlarning butun bir avlodi – lexlar qirib tashlandi. Chexiya qirollikka aylansa-da, biroq imperiya sistemasida qolaverdi. Bu vaqtda eski lex zodagonlarning kuchi butunlay sindirilgan edi. Ularning oʻrnini xizmat ahli boʻlgan yerdor yangi zodagonlar oldi. Bular qirol hokimiyati bilan mustahkam aloqada boʻlib, bu vaqtda anchagina feodallashib qolgan edilar. Gʻarbiy Yevropaning markazida joylashgan oʻrta asr chexiya davlati soʻnggi yuz yilliklarda juda tez rivojlandi. Biroq chex xalqi oʻsib-ulgʻaygan sari uning germanlar taʼsiri bilan kelisha olmasligi muqarrar ravishda namoyon boʻlgan edi. Bu ziddiyat negizida Chexiyaning Germaniyada siyosiy qaramligi yotar edi.

Chexiya davlati bilan bir vaqtda yana bitta gʻarbiy slavyan davlati – Polsha tashkil topdi. Bu davlat dastlab Visla daryosi havzasida yashovchi bir nechta qabilaning, yaʼni polyaklar (yangi davlat shularning nomi bilan ataldi), slezanlar (yoki silezlar), qoʻyavlar, mazurlar (yoki mozovshanlar) va boshqalarning ittifoqidan iborat boʻldi. Polshaning birinchi knyazi Pyastlar xonadoniga mansub boʻlgan Meshko (Mechislav) boʻldi.

966-yilda Meshko oʻz drujinasi bilan birgalikda xristianlikni qabul qildi. Polsha, shunday qilib, katoliklar mamlakati boʻlib qoldi. Meshkoning oʻgʻli va vorisi Boleslav I Botir (992–1025) juda kuchli knyaz boʻlib, uning juda koʻp (20 ming kishiga yaqin) drujinasi bor edi. Boleslav davrida Krakov shahri bilan birga Malaya Polsha, shuningdek, butun Sileziya Polsha davlati tarkibiga kirdi. Boleslav slavyanlarni – pomorlarni (Boltiq dengizi qirgʻoqlarida yashagan slavyanlarni), polab slavyanlarining (lujichanlarning) bir qismini boʻysundirdi va Cherven shaharlarini (hozirgi Gʻarbiy Ukrainada) bosib oldi. Shunday boʻlishiga qaramay, Polsha davlati kattagina territoriyani oʻz ichiga olar edi. Dastlabki Polsha ittifoqiga kirgan koʻpdan koʻp qabilalar bora-bora

qo'shilib, yagona polyak xalqiga aylandi. Polsha davlati butun o'rta asr davomida Germaniya imperiyasi bilan hech qanday vassallik munosabatida bo'lmay, mustaqil davlat bo'lib yashab keldi.

**Kiyev Rusi feodal davlati.** X–XI asrlar davomida g'arbiy slavyanlar – polab slavyanlari va Boltiqbo'yi slavyanlari ham davlat tuzish yo'lida harakat qildilar. Lekin bu harakatlar hech qanday mustahkam davlat birlashmalarini vujudga keltira olmadi. Bunga nemislar agressiyasi xalal berdi, bu qabilalar eng oddiy harbiy-qabilaviy ittifoqlar bosqichida turgan vaqtda nemislar agressiyasiga duchor bo'ldilar. Davlat tuzish yo'lidagi harakatlardan pomor slavyanlarining siyosiy ittifoqini ko'rsatib o'tish kerak. Pomor slavyanlari nemislarga, daniyaliklarga, skandinavialiklarga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Mana shu asosda X asrda sharqiy pomerlarda mustahkam knyaz hokimiyati, ayniqsa, rivoj topdi. Bir nemis xronikasida aytilishcha, sharqiy pomerolarning bosh knyazida 40 ming kishidan iborat qo'shin bo'lgan.

Sharqiy Pomeroda Kolobreg, Belgrad, Gdansk degan kattagina savdo shaharlari bo'lib, bu shaharlar qal'a ham edi. XI asrda sharqiy pomorlar Polshaga bo'ysunib, XIII asrning o'rtalarigacha Polshaning qo'l ostida bo'ldilar. G'arbiy pomorlar X–XI asrlarda shahar federatsiyasi tipida ittifoq tuzdilar. Bu ittifoqqa Volin, Shchesin, Kamen va boshqa shaharlar kirdi. Bu shaharlarda hokimiyat shahar aristokratiyasi qo'lida – mahalliy savdogarlarga, yer egalari va qisman quldorlardan iborat bo'lgan «shahar kattlari» qo'lida bo'lib, bular mahalliy knyazlarni ham nazorat qilib turar, bu knyazliklar faqat harbiy rol o'ynar edilar. G'arbiy Pomore shaharlarining siyosiy tuzumi ba'zi jihatdan shimoliy rus shaharlarining – Novgorod va Pskovning tuzumiga o'xshar edi. Polab slavyanlaridagi qirolliklar ichida eng kuchlisi Vend qirolligi edi. Bu qirolliklarning asosini Elba quyi oqimining o'ng qirg'og'ida yashovchi obodridlar ittifoqi tashkil etar edi. X asrdayoq kuchli obodrid knyazlari Mstivoy, Mstislav va boshqalar dong chiqargan bo'lib, bu knyazlar nemis xronikalarida slavyan qirollari (reges slavorum) deb ataladi. XI asrda obodrid knyazlarining Goshalk (1030–1066), Krutoy (1066–1093) va Goshalkning o'gli qirol Genrixdan (1093–1125) iborat butun bir dinastiyasi vujudga keldi. Genrix Goshalkovich rasmiy suratda vendlar (ya'ni vened slavyanlari) qirol deb yuritilar edi. Unga obodridlardan tashqari, utichlarning ham xiyla qismi bo'ysunar edi.

Obodrid knyazlari vityazlardan tuzilgan o'z drujinalariga suyanib turib, urug' zodagonlariga qarshi kurash olib bordi. O'z hokimiyatini kuchaytirish uchun ular nemis feodallari bilan ittifoq tuzdilar. Goshalk

xuddi shu maqsadni koʻzlab qirolliklar marosimi asosida xristianlikni qabul qildi. Biroq xristianlik mamlakatda jiddiy qarshilikka uchradi. Knyaz Krutoy eski «majusiylar guruhi»ga suyanib turib, Goshalkni agʻdardi. Goshalkning oʻgʻli Genrix ham Krutoyning oʻmini egallab, otasining Germaniya bilan yaqinlashuviga va xristianlashuviga qaratilgan siyosatini davom ettirdi. Biroq nemislar bilan, jumladan, nemislarning katolik cherkovi bilan yaqinlashuv vend qirolliklariga oʻz mustaqilliklarini saqlab qolishda yordam bermadi. XII asrda, nemislarining «Sharqqa tazyiqi» yana boshlanishi bilan obodridlarning yerlari birinchi navbatda istilo qilinib, nemis feodallari asorati ostiga tushib qoldi. Quyida, Vizantiya tarixi haqida gap ketganda, janubiy slavyan mamlakatlari tarixi bilan, xususan, Bolgariya tarixi bilan tanishamiz, Bolgariya Yevropadagi eng qadimgi slavyan davlatlaridan biri boʻlib, u VII asrning ikkinchi yarmidayoq tashkil topgan edi. Shu narsani unutmasligimiz kerakki, VII–IX asrlarda Sharqiy Yevropada ham slavyan davlatlari tashkil topdi, bu davlatlar keyingi vaqtda vujudga kelgan qadimgi ulugʻ Kiyev rus davlatining bevosita oʻtmishdoshi edi.

**Kiyev Rusi.** IX asrning oʻrtalarida vujudga kelgan qadimgi Rus davlatining poytaxti Kiyev shahri boʻlgan. Slavyan qabilalari feodal jamiyatiga urugʻchilik jamoasining yemirilishi natijasida oʻtdilar. Kiyev Rusining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Vizantiyaning roli nihoyatda katta boʻlgan.

Rus yerlarida XI asr oxiri – XII asr boshlarida feodalizm uzil-kesil oʻrnatildi. Mamlakatda rivojlangan iqtisodiy taraqqiyot uning turli qismlarida yirik yer egalari, knyaz va boyarlarning kuchayishiga olib keldi. Kiyevdan uzoqdagi va endilikda yetarlicha rivojlangan Novgorod, Polosk, Smolensk, Rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaharlar oʻz viloyatlarining mustaqil markazlari boʻlishga intilishar edi.

Vladimir Monomax va uning oʻgli Mstislavning qipchoqlarga qarshi harbiy yurishlari ularning xavfini vaqtinchalik boʻlsa-da bartaraf etdi va markaziy harbiy birlikka birmuncha zaruriyat boʻlmay qoldi. Yirik shaharlarning boyarlari bundan foydalanib, Kiyevga qaram boʻlmagan mustaqil knyazliklar barpo qilishga koʻmaklashib, ayrim knyazlarni oʻzlariga hukmdorlikka taklif qila boshladilar. Knyazlarning 1097-yili Lyubechda boʻlgan syezdi: «har kim oʻz yurtiga ega boʻlsin» deb qaror chiqardi. Bu esa feodal tarqoqlik boshlanishini tantanali ravishda eʼlon qilinishi edi. Solnomachi 1132-yili «butun Rus yeri boʻlinib ketdi» deb yozgan edi. Rusda feodal tarqoqlik davri boshlandi.

Kiyev Rusi buyuk knyazlari hokimiyatining zaiflashuviga janubiy

viloyatlardagi tushkunlik ham sabab bo'ldi. Kiyev va uning atrofidagi yerlarga turli knyazliklarning tahdidi, shuningdek, ko'chmanchi polovlar hujumlari to'xtovsiz davom etardi. Natijada, X asrdan boshlab ko'plab dehqonlar va shahar aholisi tinchroq joylarni axtarib, janub-g'arbiy va ayniqsa, shimoli-sharqiy, Volga-Oka daryolari havzasiga ko'cha boshladi. Yangi yerlarda tez orada shahar va qishloqlar barpo etilib, ulardagi aholi soni ko'payib bordi.

Kiyev Rusidan mustaqil knyazliklar: Chernigov, Polosk, Pereyaslav, Galinsk, Volinsk, Smolensk, Ryazan, Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, Kiyev knyazligi va bir qator mayda knyazliklar tashkil topdi. Har bir knyazlik butunlay mustaqil bo'lib, o'zining ichki tartiblarinigina emas, balki tashqi siyosat olib borishi, urush va tinchlik muammolarini hal etish huquqlariga ham ega edi.

**Janubiy slavyanlar: Bolgar, Serb va Xorvat qirolliklari. Bolgariya davlatining vujudga kelishi.** VII asrda Bolqon yarim orolining shimoli-sharqida Bolgariya davlati tashkil topdi. U o'z taqqiyoti davomida ikki bosqichni bosib o'tdi.

1. VII asrning I yarmida Dunayning janubida yashovchi dunaybo'yi slavyanlari, ya'ni yettita slavyan qabilasining katta ittifoqi vujudga keldi. Bu qabilalar Shimolda avarlarga va Janubda Vizantiyaga qarshi qattiq urush olib bordi.

2. VII asrning I yarmida Dunayga Azov bo'yidan yangi qabila – bolgarlar keldi; bular slavyanlar bo'lmay, tiliga qaraganda turk qabilalariga mansubdir. Bolgarlarning Dunay bo'yiga kelishi Dunaybo'yi slavyanlari ittifoqining taraqqiyotida katta rol o'ynadi.

Bolgar xoni Asparux Dunay ittifoqining knyazlari bilan shartnomalar tuzib, o'z drujinasi bilan 679-yida yoki 681-yilda Bolqon yarim orolining Dunaydan janubdagi territoriyasiga ko'chib kelib joylashdilar, o'sha vaqtda yuz bergan vaziyatga qaraganda, bolgarlar bu yerga istilochi sifatida emas, balki umumiy dushman – avarlar va vizantiyaliklarga qarshi kurashda Dunay slavyanlariga ittifoqchi bo'lib keldilar. Ammo bu ittifoqda kelgindi bolgar qabilalari slavyanlardan ustun bo'lib olganligi uchun mamlakat ham bolgarlar nomi bilan ataladigan bo'ldi.

Asparux Vizantiya imperatori Konstantin IV bilan shartnoma tuzgan holda, Vizantiya imperiyasi birlashgan Varvarlarga Bolqon yarim orolining katta qismini berishga rozilik bildirdi.

Natijada Asparux bolgar-slavyan davlatining bosh knyazi bo'ldi va barcha slavyan qabilalari Asparuxga bo'ysundi. Yangi davlatning poytaxti avvaliga Pmeska shahri, keyinchalik Preslava shahri bo'ldi.



VIII–IX asrlarda bolgarlar bilan slavyanlar oʻrtasidagi yaqinlashish jarayoni tezlashdi. Bolgarlar slavyanlardan dehqonchilikni, hunarmandchilikni, slavyan dini va urf-odatlarini, tilini ham oʻzlashtirib oldilar. Feodal munosabatlar tarkib topa borgan sari yerli slavyan va kelgindi bolgar zodagonlari bitta hukmron sinf boʻlib qoʻshilib ketdi.

**IX asrda Bolgarlarning yuksalishi.** XI asr boshlariga kelib Bolgariya juda katta bir davlatga aylandi. Qudratli xon Krum hukmronlik qilgan vaqtda (802–815) Bolgariya podsholigi tarkibiga hozirgi Bolgariyadan tashqari hozirgi Ruminya hamda Vengriyaning katta bir qismi (Tisa daryosining janubidagi qismi) kirgan edi. Gʻarbiy chegaralari Karl Buyuk imperiyasi chegaralariga borib yetar edi. Bolgariya IX asrning II yarmida knyaz Boris (852–888) zamonida ham ancha kengaydi va mustahkamlandi. Bolgarlar va Sharqdan kelgan hamda mahalliy slavyanlar ham xristianlikni Vizantiyadan qabul qildilar.

**Podsho Simyon zamonida Bolgariya.** Bolgariya davlati, ayniqsa, podsho Simyon Buyuk (893–927) davrida ancha qudratli davlatga aylandi.

Vizantiyaning qoʻlida yarim orolning Janubiy qismlari, Egey dengizi qirgʻoqlari, Makedoniyaning bir qismi (Solun shahri bilan) va Fransiyaning bir qismigina qoldi, xolos. Ammo Simyon bu viloyatlarga ham tahdid solib, Bolqon yarim orolining hammasini, shu jumladan, Vizantiya poytaxti Konstantinopolning oʻzini ham bosib olmoqchi boʻldi. Garchand Simyon oʻzining bu maqsadiga erisha olmagan boʻlsa-da, ammo oʻzini 919-yilda bolgarlar va greklarning mustabid hokimi deb eʼlon qildi. Uning Oʻrta Yer dengizi davlatlari orasida taʼsiri kuchli edi.

Simyonning oʻgʻli – boʻlgʻusi podsho Petr Vizantiya malikasiga, Vizantiya imperatorining nevarasiga uylandi. Preslaviyaga grek malikasi bilan birga koʻp greklar ham koʻchib keldilar. Preslaviya bu davrda gullab-yashnadi. Vizantiyalik va bolgariyalik ustalar yordamida saroylar, ibodatxonalar, gʻishtin shahar devorlari qurila boshlandi. Simyon Vizantiya saroyida yaxshi tarbiya olganligi sababli Prislaviyadagi saroyida slavyan adabiy markazini tashkil etdi.

Uning buyrugʻi bilan Vizantiyada chiqqan diniy-falsafiy va adabiy-tarixiy mavzulardagi har turli toʻplamlardan juda koʻpi (Izmarabd), «Zlatostruy» va boshqalar slavyan tiliga tarjima qilindi. X asrda ilk bolgar yozuvchilari asarlar yaratdilar. Ioan Ekzarx «Shestodnef» degan kitobini chop etdi. Monax Xrabriyning «Slavyan tili toʻgʻrisidagi mulohazalar» («Rossujdeniy o slovyanskom yazike») degan kitoblari paydo boʻldi. Xrabriy slavyan tilining yer yuzida keng tarqalganligi va bu til orqali grek

va lotin tilidagi singari hamma narsani ifoda etish mumkinligini isbotlaydi. Kitobxonlik Bolgariyada aholining asosiy mashg'ulotiga aylandi.

**Podshoh Simyondan keyingi Bolgariya.** Simyon vafotidan keyin Bolgariya ham tushkunlikka yuz tuta boshladi. Mamlakatning katta qismi qo'shni davlatlarga o'tib ketdi. Bolgariya hisobiga, ayniqsa, Vizantiya kuchaydi, Bolgariyada podsho hokimiyati zaiflashib, u feodal tarqoq mamlakatga aylandi. Dehqonlar ornmasining ahvoli og'irlashib, soliqlar Simyon zamonidayoq xalq ommasining tinka-madorini quritgan edi. Dehqonlarning krepostnoylashishi ancha tezlashdi. Vizantiyadagi krepostnoy dehqonlar singari Bolgariyada ham ularni pariklar deb atashardi.

Bogomillik boy-feodallar ekspluatatsiyasidan ezilgan dehqonlar ommasining noroziligi keng suratda avj olgan yeritiklar harakatida – bogomiyalikda o'zining yorqin ifodasini topdi. Bogomiyalik dastlab podsho Simyon zamonidayoq paydo bo'lgan edi. Bogomiyalik X asr o'rtalarida, ayniqsa, keng tarqaldi. Taxmin qilishlaricha bogomiyalik degan nom bogominlarning dastlabki jamoa rahbari Bogomiya yoki Bogumiya degan podshohning nomidan kelib chiqqan. Bir talqinga ko'ra, bu so'z xudoga xush keladigan («ugomiye bogu») degan ma'nomi anglatadi, bu ham mazhab tomonidan qabul qilingan bo'lib, bular g'uruh ishlarga xizmat qiladigan pravoslav cherkovi tarafdorlariga qarshi o'laroq, o'zlarini odil kurashuvchilar deb hisoblaydilar. Bogomillar davlat pravoslav cherkovini inkor etdilar va cherkov yer egaligiga qarshi chiqdilar.

– Ular krepostnoylik huquqi muqaddas kitobga ham to'g'ri kelmaydi, deb targ'ib qiladilar.

– Ular o'zini idora qiladigan patriarxal xo'jalikni feodal davlatga qarshi qo'yadilar.

– Ularning o'zlarining maxsus demokratik cherkov tashkiloti bo'lib, ularga saylab qo'yiladigan xalq oqsoqollari boshchilik qiladi.

– Ularning adabiyotlari, taqiqlangan kitoblari ham bo'lib, bu kitoblarda pravoslav Cherkovini qattiq qoralab tanqid qililar edilar.

Hukumat tominidan ta'qib qilingan bogomillar Bolqon yarim orolining boshqa shaharlariga ko'chirib yuborilar edi.

Keyinchalik bogomiyalik G'arbiy Yevropadagina emas, balki Sharqiy Yevropadagi har xil yeretik harakatlarning (G'arbda katarlar va alivigoylar, Pakov va Novgorodda – strigolniklar va h.k.) avj olishga ta'sir ko'rsatdi.

Birinchi Bolgariya podshohligining tugashi X asrlarga kelib Bolgariyada iktiki sotsial ziddiyatlar nihoyat darajada keskinlashdi. Bundan foydalangan Vizantiya imperatori Kiyev kinyazi Svyatoslavni yordam-

ga chaqirib, Bolgariyaga hujum uyushtirdi. Svyatoslav Bolgariyaga ikki marta (968–969 va 969–971 y.) yurush qildi. Bu yurishlar natijasida Dunayda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Svyatoslav Filippopal (Plovdiv) shahriga hujum qilib, Vizantiyaga qarshi yurishga tayyorgarlik ko‘rdi, ammo Ioann Simisxiy katta qo‘shin bilan unga qarshi chiqib, rus va bolgarlarni Bolgariyadan ham siqib chiqarib, Bolgariyaning katta qismini Vizantiyaga qo‘shib oldi.

Istilo qilinmay qolgan G‘arbiy Bolgariyaning markazi Oxrida shahri bilan Vasiliy II Bolgaroboysa (Bolgarkesar) o‘ziga bo‘ysundirdi (Bolgaro-boysa – bolgarcha «bolgarlar qotili» ma’nosida). U 1014-yilda o‘zi uchun muvaffaqiyatli tugagan jangdan keyin asir olingan 15 ming bolgarning ko‘zini o‘yishga buyruq berdi. Bolgar podsholigi 1018-yilda batamom tugadi. Shu vaqtdan boshlab – XII asrda bolgarlar Vizantiya asoratiga tishib qoldilar.

**Bolqon yarim orolidagi serb qabilalari.** VI–XI asrlarda Bolqon yarim orolining shimoli-g‘arbiy qismida turli serb qabilalari o‘rnashgan bo‘lib, bular serblarga, xorvatlarga va slavyanlarga bo‘linar edi.

Serb qabilalarining azaldan yashab kelgan yerlari Adriatika dengizi, Istriya, daryolardan: Drava, Dunay va Marova hamda Planina tog‘ massivi o‘rtasidagi keng territoriyadan iborat edi. Ular uzoq vaqt kichik-kichik birlashmalar shaklida yashab keldilar. Bu birlashmalar qarindoshlikka asoslangan holda tarkib topgan edi. Bular esa, o‘z navbatida, patriarxal oilalariga bo‘linar edi. Sharqiy Serblarda bu holat boshqacharoq bo‘lib, xonadon jamoasi bo‘linmasdan, umumiy bir xo‘jalik olib boruvchi katta oila keng tarqalgan edi. Bu xonadon qabilasi «to‘da», «buyuk to‘da» (yoki zadruba) deb atalar edi.

Manbalarda VIII–X asrlardayoq serblardan qullar bo‘lganligi tilga olinadi. Xalq majlislariga («sborlari» yoki «soborlari»ga) to‘planib, eng muhim masalalar hal qilinardi. Erkin jamoalar tepasida julanlar, julan boshliqlari turardi.

Serblarga qo‘shni bo‘lgan Vizantiya, Vengriya, Bolgariya davlatlarining ularga hujum qilib turishi serblarda davlat tuzilishini ancha tezlashtirdi.

**Serbiya va Xorvatiya davlatlarining tashkil topishi.** Serblarda davlatni ilk marta sharqiy serblar knyazi Vladimir (835–843) tuzdi. Vladimir qo‘l ostidagi yerlar tarkibiga sharqiy serblarning asosiy territoriyasi bo‘lgan Rashka daryosi g‘arbidagi katta bir qismi ham kirdi. Vladimir avlodlaridan biri Cheslav Klonimirovich (932–960) dastlab Bolgariya podshosi Simyon odami sifatida uning vafotidan keyin mustaqil knyaz sifatida mamlakat territoriyasini to Dunaygacha kengaytirdi va mustahkamladi.

Vladimr bilan bir vaqtda Bela degan knyaz ham g'arbiy serblarni birlashtirishga harakat qildi: u keyinchalik Vladimr bilan siyosiy ittifoq tuzdi. IX asrning o'rtalarida xorvatlar franklardan qutulib, ular ham mustaqil davlat tuzdilar. Bu davlatni ularning o'z julanlari boshqardi. Bu julanlardan eng mashhuri Tupimir bo'lib, u davlatni 839–864 yillarda idora qilgan. X asrning boshlaridan taxminan (925-yilda) buyuk julan Tomislav (910–930) zamonida Xorvatiya knyazligi qirollikka aylandi. Bu qirollik tarkibiga Xorvatiyaning o'z yerlari Dalmasiya kirdi.

Biroq dengiz bo'yidagi Dalmasiya shaharlarini XI asrning II yarmida Venetsiya bosib oldi. XII asrning boshlarida (1102-yildan boshlab) Xorvatiya Vengriyaga qo'shib olindi va u bir necha yuz yilgacha (XV asrgacha) Vengriya davlati tarkibida qoldi.

Serbiya davlatida IX asrda gegemonlik ancha vaqtgacha G'arbiy Serb (diokleya) knyazlari qo'lga o'tdi. Bular orasidan eng kuchli va katta knyazlar Mixail (1051–1081) va Bodin (1081–1101) edi. Bodin qo'l ostidagi yerlar tarkibiga Zeta (hozirgi Chernogoriya), Bosniya, Chernogovina hamda Sharqiy Serbiyaning bir qismi kirar edi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Knyaz Samo davrida slavyanlarning ijtimoiy hayotini ochib bering.
2. Ulug' Moraviya ittifoqining tashkil topishi.
3. Slavyan davlatlari qaysi asrlarda vujudga keldi?
4. Chexiya va Polsha davlatlarining tashkil topish shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
5. Chexiya va Polsha davlatlarining ijtimoiy hayotiga baho bering.
6. Chexiya davlati bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirib bering.
7. Polab va Boltiqbo'yi slavyanlarining davlat tuzish yo'lidagi urinishlariga baho bering.
8. Pomorlarda knyaz hokimiyati qachon vujudga keldi?
9. Yevropada Bolgariya davlati qachon tuzildi?

## 8-MAVZU: O'RTA ASRLARDA HINDISTON

### REJA:

1. Gupta davlati
2. Dehli sultonligi
3. Mahmud G'aznaviy
4. Ibrohim Lo'diy
5. Boburiylar davlati

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** Gupta davlati, Dehli sultonligi, XVI–XVII asrlarda Hindiston, madaniyat.

**Gupta davlati.** IV asrning boshlarida Hindiston bir necha o'nlab mayda va yirikroq davlatlardan iborat bo'lib, bu davlatlar tepasida kichik-kichik podsholar – rojalar turar edi, ular hukmron tabaqalarga – braxmanlar tabaqasiga (kohinlarga) va kshatriylar tabaqasiga (harbiy zodagonlarga) suyanar edilar. 320-yilda Shimoliy Hindistonning shunday rojalaridan biri Chandragupta I (320–340) tevarak-atrofidagi podsholarni o'ziga bo'ysundirib, Gang daryosi havzasida xiyla katta bir davlat tuzdi, bu dalat Gupta davlati deb atalib, VI asrning boshlarida yashadi. Chandragupta I ning vorislari zamonida ulardan, ayniqsa, Samudragupta (340–380) va Chandragupta II (380–414) o'zlarining istilolari bilan mashhur edilar. Gupta davlati Gang daryosining quyi oqimini ham, to uning dengiziga quyiladigan joyigacha, shuningdek, Dekan yassi tog'larining bir qismida to Narbat daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi. Gupta davlatining poytaxti Pataliputra shahri edi.

Gupta podsholari Sosoniylar Eroni bilan qizg'in savdo-sotiq olib bordi va madaniy aloqa qildi. Ular Hindistonning shimoliy chegaralarini O'rta osiyolik qabilalarning hujum xavfidan uzoq vaqtgacha saqladi. Gupta davrida Hindiston iqtisodiy va madaniy jihatdan juda yuksaldi. Hozirgi Hindistonda eng keng tarqalgan hinduizm dinining vujudga kelishi ham o'sha davr bilan bog'langandi.

Gupta davrida Hindistonning ijtimoiy tuzumi, asosan, hali quldorlik xarakterini saqlab qolgan edi. Qullar turli irrigatsiya va qurilish ishlarida, qishloq xo'jaligida hamda ko'pdan ko'p xizmatkor va malay sifatida uy-ro'zg'or ishlarida keng foydalanilar edi. Qullar Osiyodangina emas, hattoki Afrikadan ham keltirilar edi. Hind jamiyatida quldorlikka

soa alomatlarining mavjudligi aholining kastalarga (tabaqalarga) qarab bo'linishida ham namoyon bo'lgan edi. Bu bo'linish Gupta davrida ham saqlanib, yanada rivojlanmoqda edi. Qadimiy kastalarning to'rtta asosiy turi – braxmanlar (kohinlar), kshatriylar (jangchilar), vayshiyalar (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar) va shudralar (sobiq qullarning va har toifadagi qaram kishilarning eng past tabaqasi bo'lib, bular kishi hazar qiladigan ishlarni bajaruvchi kishilar edi) juda qadim zamonlarda tarkib topgan Hind jamiyati sotsial strukturasiining turli bosqichlarni ifoda etardi. O'rta asrning boshlarida hind kastalari ancha evolutsionlashdi. Braxmanlar va kshatriylar kohin va harbiy tabaqalarga aylanib ketdilar, davlat hokimiyati ularning qo'lida bo'lib, ular juda ko'p qullari bo'lgan eng yirik yer egalari edilar. Ikkinchi bir o'rtacha va past darajadagi kastalar vaqt o'tishi bilan maydalashib bordilar. Gupta davrida kastalarning miqdori bir necha o'n turdan oshdi. Jamiyatning shudraga oid eng tuban kastasi «hazarli kishilar» deb atalar edi, chunki ular oliy kasta vakillariga yaqinlashsa, bu oliy zotlarni go'yo harom qiladi deb hisoblanar edi.

Eng past kastalarning haq-huquqsizligi, xo'rlanishi, quldorlik tuzumi ideologiyasiining eng yorqin ifodasi edi, quldorlik tuzumi davrida kishilar, bir tomondan, to'la huquqli, erkin quldor hukmronlarga, ikkinchi tomondan, butunlay haq-huquqsiz, xo'rlangan, zadalangan qullarga yoki shularga o'xshab ketadigan kishilarga bo'linar edi.

Ammo Hindistondagi quldorlik tuzumining yana bir xarakterli xususiyati shu ediki, rivojlangan quldorchilik va ekspluatatsiyaning quldorlik sistemasi bilan bir qatorda g'oyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa dehqonchiligi ham doim mavjud bo'lib, yashab kelmoqda edi. Qishloq jamoasi quldorlik tuzumi davrida ham, keyinchalik feodalizm davrida ham hind jamiyatining quyi sotsial-iqtisodiy yacheykasi bo'lib xizmat qildi, bu jamiyat shu yacheyka ustiga qurilgan edi. Hindistonning ijtimoiy hayotida qishloq jamoasining asosini kichkina-kichkina markazlari tashkil qilib, shu markazlar sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi xonaki aloqa asosida yashaydi. Har bir qishloqning ma'lum miqdorda ekinzor yeri va yaylovi bo'lib, bu qishloq tepasida oqsoqol va yana bir necha mansabdor kishilar turar edi. Qishloq jamoasi bir necha yoki bir necha yuz oiladan iborat bo'lib, hunarmandlikning qishloq xo'jaligi bilan qo'shilishiga asoslangan boshlang'ich ishlab chiqarish yacheykasini tashkil etar edi. Bu oilada jamoalar xonaki sanoatga asoslangan bo'lib, unda qo'lda to'qish, qo'lda yigirish, qo'l kuchi bilan yer ishlash usuliga alohida bir tarzda bir-biriga

qo'shilib ketgan edi. Bunday qo'shilish bu jamoalarni o'ziga mustaqil tusga kiritib qo'ygan edi. Gupta podsholarning iqtisodiy qudrati birinchi navbatda xuddi ana shu behisob dehqon jamoalarini ekspluatatsiya qilishga asoslangan edi.

Biroq Gupta davri quldorlik sistemasining tushkunlikka yuz tuta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. Quldorlik tuzumi elementlari tashkil topayotgan edi. G'arbiy Yevropa va Arab xalifaligi mamlakatlarida ko'rganimizdek, feodal jamiyatning negizi bo'lgan juda ko'p sonli jamoa dehqonchiligining mavjudligi hind jamiyatining quldorlik tuzumidan feodal tuzumiga o'tishini yengillashtirdi. Gupta davrida qulchilik tugatilib, feodalizm tug'ila boshlaganligini bir qancha faktlarda ko'rish mumkin. Qullar tez-tez erkin qo'yib yuboriladigan va muayyan xizmatlarni o'tash sharti bilan ularga uncha katta bo'lmagan yer uchastkalari ajratib beriladigan bo'ldi. Podsho xo'jaligidagi yerlarning hammasida ham qullar ishlamas edi, bu yerlarning talay qismi hosilning bir qismini podsho xo'jaligiga topshirish sharti bilan ijaraga berilar edi. Mayda ijarachilikka o'tilishiga sabab, manbalarning ko'rsatishicha, qullarning yetishmasligi edi. Shu bilan bir vaqtda qishloq jamoasining o'z ichida muhim jarayonlar yuz bermoqda edi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ishlab chiqarish qurollarining takomillashishi natijasida kichikroq oilaning kuchi bilan ham xo'jalik yuritish mumkin bo'lib qoldi. Katta oilalar mayda-mayda oilalarga bo'linib, katta oilaga qarashli chek yerlar ham parchalanib ketdi, bunda to'ng'ich o'g'ilga ukalariga qaraganda ko'proq yer ajratib berilar edi. Oddiy jamoachilarning bir qismi xonavayron bo'lib, jamoaning ancha boyroq a'zolariga qaram holiga tushib qolar edi, bularning juda ko'p mol-hayvonlari va mehnat qurollari bo'lib, ular xonavayron bo'lgan jamoachilarni ekspluatatsiya qilar edi. Bularning hammasi oqibat natijada feodal qaramlik munosabatlarining o'rnatilishiga olib kelar edi.

Gupta davlati davrida madaniyat, avvalo, mumtoz monumental arxitekturaning rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu davrda juda ko'p ibodatxona va saroylar qurilgan edi. Gupta davrida qurilgan binolarning ko'pi keyinchalik xorijiy istilochilarning Hindistonga qilgan hujumlari natijasida vayron qilib tashlangan edi. Lekin, har holda, o'sha davrdan saqlanib qolgan ba'zi bir binolarga qarab, ularni juda mohirlik bilan qurilganligi to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, bahaybat yaxlit toshlarning ichini g'or qilib o'yib ishlangan Ellara va Ajanta ibodatxonalar ichida qadimiy hind va budda afsonalaridan olib ishlangan haykallar benihoya ko'p bo'lib, bularda kishilarning figuralari ifo-

da etilgan. Bu figuralar o'zining go'zalligi va ulug'vorligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibodatxona devorlari xilma-xil suratlar bilan bezatilgan. Gupta davridagi rassomlar va ustalar, metallga pardo berishda yuksak san'at cho'qqilarini egalladilar. Miloddan avvalgi IV asrning oxiri va V asrning boshlarida quyma temirdan ishlangan ustun hozirga qadar Dehlida saqlanib kelmoqda, u qariyb bir yarim ming yil davomida ochiqlikda, jazirama quyosh va yomg'irlar ostida qolib ketganligiga qaramay, uni hatto zang ham bosmagan.

Gupta davrida hind fani katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bir qancha hind munajjim (astronom)ining nomi Hindistondagina emas, uning ta'liqarisida ham mashhur edi. Bular orasida V–VI asrlarda yashagan, grek fani va astronomiyasi bilan tanish bo'lgan Aryabxata, Varahamixira va Braxmagupta, ayniqsa, ajralib turadi. Hindistonda bu davrda tibbiyot, ayniqsa, o't-giyohlar bilan davolash juda rivoj topgan edi.

Adabiyot, poeziya va drama sohasida Gupta davri o'zidan keyingi ko'pgina avlodlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladigan juda yuksak namunalarini qoldirdi. IV asr oxiri va V asrning birinchi yarmida o'tgan g'oyat hind shoiri Kalidasaning asarlari, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kalidasa qahramonlik mavzularida bir nechta doston hamda mitologik va tarixiy mavzularda ko'p dramalar yozdi. «Olqishlangan Shakuntala» dramasi, ayniqsa, katta shuhrat qozondi, bu asarda nihoyatda nazokatli va shu bilan bir vaqtda o'z yo'lidagi juda og'ir, mashaqqatli to'siqlarni yenga olgan jo'shqin, jasoratli oddiy hind ayolining ajoyib obrazi berilgan. Bu asar G'arbiy Yevropaga 1789-yilda ma'lum bo'lishi bilanoq qadimiy hind adabiyotiga juda katta qiziqish uyg'otdi. Kalidasa o'z qahramonlarini qisman klassik kitob tilida – sanskritda, qisman turli mahalliy lahjalarda gapirtiradi, bu esa o'sha davrdagi Hindiston aholisining etnik jihatidan xilma-xil bo'lganini ko'rsatadi. Kalidasaning asarlari hozirgi vaqtda dunyodagi asosiy tillarning hammasiga tarjima qilingan.

Gupta zamonida hindlarning hukmron dini braxmanizm bo'lib, bu din uchta asosiy xudo – Braxma, Vishnu va Shiva bor deb ta'lim berish bilan birga juda ko'p boshqa xudolar ham bor edi; bu xudolar tabiat kuchlarining barcha turli-tuman shakl va ko'rinishlarining ifodasi edi, odamlar, hayvonlar, o'simliklar, har xil jonsiz narsalar-sanamlar va hokuzolar ilohiylashtirilgan edi. Braxmanizmning dabdabali marosimlari va kuchli kohinlari bo'lib, bu kohinlar nasldan naslga o'tadigan alohida bir tabaqa edi. Biroq braxmanizm bilan bir qatorda uning o'z ichida boshqa bir din – buddizm ham paydo bo'lib, u ko'plab tarafdor orttirdi (bu din



miloddan oldingi V asrdayoq paydo bo'lgan edi). Bir vaqtlar buddizm eng qadimgi din bo'lmish braxmanlar dinini hatto yengayotgandek ham bo'lib ko'rinar edi. Gupta podsholarining ko'pi buddizmga homiylik qildi. Biroq, pirovardida, braxmanizm yengib chiqdi, lekin shu bilan birga u yangi tus – hinduizm tusini oldi. VI va VII asrlarda uzil-kesil tashkil topgan hinduizm o'zining ko'pdan ko'p eski majusiy xudolarini batamom saqlab qoldi. Lekin shu bilan birga u buddizmdagi diniy falsafaning ba'zi elementlarini, uning yomonlikka qarshilik qilmaslik, tarki dunyo qilish, kishi o'lgandan keyin jonning boshqa narsaga o'tishiga ishonish va hokazolar to'g'risidagi ta'limotini ham o'ziga singdirib oldi. Buddizm dini Hindiston tashqarisida – Xitoy, Hindi-Xitoy, Indoneziya, Mo'g'iliston, Tibetda va qisman O'rta Osiyoda (Turkistonda) keng tarqaldi. Hindistonning o'zida buddaviylar xiyla oz qoldi.

Gupta davlati VI asrning boshlariga kelib tugadi. U V asrdayoq tushkunlikka uchray boshlagan bo'lib, buning asosiy sababi mehnatkash omma ahvolidning og'irligi edi. Hukmron siflar haddan tashqari zeb-ziynat ichida yashadi; dehqonlarga og'ir soliqlar solindi, ular o'zlarini yetishtirgan hosilning ko'p qismini soliqqa to'lashga majbur edi; aholi davlat foydasiga uzluksiz ravishda turli xil ishlarni bajarishga majbur qilindi. Mana shularning hammasi hind dehqonlarini holdan toydirdi va qishloq jamoalari iqtisodiyotini vayron qildi. Mehnatkashlar o'rtasidagi norozilik alomatlari Gupta zamonidan qolgan adabiy yodgorliklarda ko'p uchraydi. Gupta podsholigiga uzil-kesil zarba bergan narsa ko'chmanchi eftalitlar, ya'ni oq gunnlarning bostirib kirishi bo'ldi, ular V asrning oxiri VI asrning boshlarida shimoliy chegarani yorib o'tib, Shimoliy Hindistonning ko'piga shahar va qishloqlarning nihoyatda vayron va xarob qilib tashlashdi. 530-yilda oq gunnlar podsho Gupta ning vassali roja Yasodharma tomonidan tor-mor qilindi.

Gunnlarni mag'lub etgandan so'ng Yasodharma Gupta dinastiyasiga itoat qilishdan bosh tortib, o'zi maharoja unvonini oldi. Lekin unga Gupta davlati territoriyasining faqat bir qismigina bo'ysundi.

VII asrning boshlarida Harsha (606–647) davlati birmuncha vaqtgacha yuksalib bordi. Harsha Kanauja knyazligining rojasi edi, so'ngin u butun Shimoliy Hindistonni o'ziga bo'ysundirdi. Harsha davlati Gang daryosi vodiysi bo'ylab sharqiy Panjobdan to Bengaliya qo'ltig'igacha bo'lgan territoriyani o'z ichiga oldi. Markaziy Hindistonning knyazlari ham Harshaga vassal – qaramlikda edi. Hammasi bo'lib qirqtacha knyaz unga qaram edi. Harsha imperiyasi uzoq umr ko'rmadi. Uning hokimiyati feodallashuv jarayonining kuchayishi, o'z vassallari – roja-

bu qudratining tobora kuchayib borishi natijasida zaiflashdi. Bu rojalar pirovardida butunlay mustaqil bo'lib, markazga itoat qilmay qo'ydilar. Harsha vafotidan keyin uning davlati parchalanib ketdi, uzoq vaqtgacha Hindiston chet el bosqinchilariga qarshilik ko'rsatolmaydigan tarqoq bir mamlakat bo'lib keldi. Kanauj shahri hali VIII–X asrlarda ham Shimoliy Hindistonning poytaxtligi ahamiyatini saqlab qolgan edi, ammo uning maharajlari mana shu yuz yilliklar davomida Hindistonga doimiy ravishda hujum qilib kelayotgan tashqi dushmanlarning shimolda yas-hovchi turli xildagi qabilalarning bosqinini qaytarish o'rniga, ko'proq Hindistonning ichidagi o'z raqobatchilariga qarshi kurash olib borish bilan ovora bo'ldilar.

VI–VII asrlarda Hindistonda feodal munosabatlar yanada rivojlandi. Feodallasuv jarayonining tezlashuvida Shimoliy Hindistonning (Gupta podsholari davlati qulagach, ikkinchi marta Harsha davlati tugaganidan keyin) siyosiy jihatdan parchalanib ketishi katta rol o'ynadi, o'nlab mayda knyazliklar vujudga keldi, bu knyazliklarning knyazlari yirik yer egalari edi. Ular qishloq jamoalarini o'zlariga bo'ysundirib olib, qattiq ekspluatatsiya qildilar. Buyuk knyazlar – maharajlar va vas-sal knyazlar, ularga qaram knyazlar – rojalar bo'lar edi. Unisida ham, bunisida ham ularga qaram professional jangchilar bo'lib, ularga har-biy xizmat o'taganliklari uchun yer uchastkalari in'om qilinardi. Jam-na bilan G'ang daryolari o'rtasida bu xildagi hind ritsarlari, ayniqsa, ko'p edi, shimoldan hujum qilib, bostirib kirish xavfi bu yerda ancha kuchli edi. Bu yerlarda vujudga kelgan juda ko'p sonli ritsarlilar taba-qaqi rajputlar (aynan tarjimasida «shoh farzandlari») degan nom oldilar. Borib-borib rajputlar qadimiy harbiy tabaqa bo'lgan kshatriylar bilan aralashib ketdi.

Feodal yer egaligining rivojlanishida hind ibodatxonalari ancha katta rol o'ynadi. Hind kohinlari juda katta yerlarga ega edilar, ular-ning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lgan knyazlar juda ko'plab yer ulashib berganligi uchun bu yerlar keyingi yuz yilliklarda yanada ko'payib bordi. Ba'zi ibodatxonalarining 1000, hatto 1500 qishlog'i bo'lar edi. Jamoachi dehqonlar hosilning katta qismini ibodatxonalariga to'lar, ibodatxona ularni sud qilish huquqiga ega edi.

**Dehli sultonligi.** Musulmonlar hujumi faqat XI asrning ikkinchi yarmidagina qaytadan boshlandi, bu safargi hujum ilgari hujumdan qattiq bo'ldi. Bu hujum uchun eng asosiy zamin tug'dirib bergan narsa shu bo'ldiki, kuchli va urushqoq turk-eron davlati – G'aznaviylar dav-lati vujudga kelgan edi (bu davlatning nomi poytaxt bo'lmish G'azna

shahrining nomidan olingan edi). Sulton Muhammad Gʻaznaviy (998–1030) Sharqiy Eron va Afgʻoniston yerlarini, 1001-yiladan eʼtiboran esa Amudaryoning berigi tomonidagi yerlarni, yaʼni Buxoroni ham oʻz qoʻl ostiga kiritib oldi.

Podsholik davri mobaynida u Shimoliy Hindistonga oʻn yetti marta yurish qildi. Hindiston shaharlari musulmonlar tomonidan nihoyat darajada qattiq talandi. Muhammad Gʻaznaviy bu yurishlardan shimolga oʻn minglab erkak va ayollarni asir qilib haydab ketdi, mamlakatni, ayniqsa, hind ibodatxonalarini talab, karvon-karvon oltin, kumush, qimmatbaho toshlar olib ketdi. Gʻazna shahri muhtasham binolar bilan bezaldi, bu binolarning koʻpini Hindiston ustalari solgan edi. 1030-yilda Mahmud Gʻaznaviy oʻlgan vaqtda uning imperiyasi Amudaryo qirgʻoqlaridan tortib to Gang daryosigacha borgan, butun Hind daryosi havzasini ham oʻz ichiga olgan edi. Lekin uning poytaxti Hindistondan tashqarida edi. Hindiston Mahmud Gʻaznaviy uchun boʻysundirilgan bir viloyatgina edi. Shunday boʻlsa-da, Hindistonning shimoliga juda koʻp musulmonlar – xurosonliklar, turk va afgʻonlar borib oʻrnashdi. Shimoli-sharqiy Hindiston (hozirgi Pokiston) aholisining bir qismi islom dinini qabul qilib, bora-bora istilochilar bilan aralashib ketdi.

XII asr oxirlarida Hindistonga Gʻazna istilochilari ikkinchi marta hujum qildi. 1175-yilga Gʻazna hokimi Muhammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharqqa qarab siljishni davom ettirdi. 90-yillarda u Jamna bilan Gang daryolari oʻrtasidagi butun yerlarni, soʻngra esa Bengaliyani bosib oldi. Guriy vafotidan (1206) keyin uning noibi Qutbiddin Oybek Gʻaznadan ajralib chiqib, Hindistonning shimolida (hozirgi Hindiston Respublikasining poytaxti Dehlini markaz qilib) mustaqil davlat tuzdi. Yangi davlat poytaxt shaharning nomi bilan Dehli sultonligi deb yuritiladigan boʻldi.

**XVI–XVII asrlarda Hindiston.** 1526-yilda tashkil topgan Boburiylar (Hindiston) imperiyasi XVI–XVII asrlarda juda katta davlatga aylandi. U janubiy Hindiston davlatlari – Bidar, Golkundu va Bijalirga bir qadar taʼsir oʻtqazib turardi.

Agrar munosabatlar Boburiylar vaqtida ham Dehli Sultonligi davridagi yoʻnalishda rivojlanaverdi. Lekin yerga davlatning feodal usulida egalik qilishi yanada kuchaydi (Oʻrta Osiyodagi kabi !)

Ekin ekiladigan yerlarning taxminan 1/8 qismi shohga tegishli edi. Qolgan yerlar harbiy xizmat oʻtalayotgan muddatga beriladigan va meros yerlar edi.

Jagirdor rasman oʻziga qarashli yerlarda yashovchi aholidan feodal

rentasi yig'ish huquqinigina olar, amalda esa cheksiz hokimiyatga ega bo'lardi. Jagirlar hajmi har xil bo'lib, ba'zilarida 10 minglargacha dehqonlar yashar edi.

Hind feodallari turkiylarga bo'ysinish va ularga muntazam boj to'lash sharti bilan yerga egalik qilishni saqlab qolgan edilar. Mahalliy beklar boburiylar uchun aholidan soliq to'plash huquqini olgan edilar. Mahalliy bek zamindorlar vazifasi meros bo'lib o'tadigan deb e'lon qilinganligi sababli, zamindorlar vaqt o'tishi bilan soliq yig'iladigan ana shu yerlarni ham o'z mulklarining bir turi deb hisoblay boshladilar.

Yer mulki, asosan, musulmonlar qo'liga o'tgan bo'lsa ham, savdo, mudxo'rlik operatsiyalari, hunarmandchilik mahalliy hind aholisi qo'liga qoldi.

Lekin O'rta osiyoliklar, tajribalari borligi sababli, quruqlikda va qimmat dengiz orqali tashqi savdodagina hindlardan ustun turardilar.

Hindistonda eski jamoa sistemasi buzila boshladi. Bunga asosiy sabab pul-mahsulot munosabatlari bo'ldi. Hindistonda shaharlar rivojlandi, san'at o'sdi, xomashyoga bo'lgan talab mayda qishloqlar biqirligini yo'qotdi. Jamoalardagi dehqonlar orasida tengsizlik kuchaydi. Kambag'allarning katta qismi «Moxov kastalari» deb ataladigan past tabaqa vakillari edi.

Davlat Boburning nevarasi Akbar hukmronligi davrida (1556–1605) juda ravnaq topgan edi. Bengaliya, Orissa, Gujorat va Kashmir viloyatlari hamda Xandeshi va Ahmadnagar sultonliklari qo'shib olinadi. Akbar hind savdogarlariga homiylik qilib keldi, uning davrida hinduizm tarafdorlarini diniy ta'qib etish to'xtatildi. 1593-yili diniy erkinlik to'g'risidagi farmonga binoan majburiy islomga kiritilgan hindlarga ilgari dinlariga qaytishga ruxsat berildi. Hind aholisi jiz'ya solig'idan ozod etildi.

Yer masalasidagi janjallardan qutulish uchun Akbarning buyrug'i bilan butun Hindiston uchun yagona yer o'lchovi joriy qilinib, so'ngra hamma yerlarga tanob tortib chiqilgan edi. Soliq solinganda yerlarning sifati va tuproqning unumdorligi e'tiborga olinardi. Davlat solig'i aholining 1/3 qismi miqdorida belgilangan bo'lib, keyingi 20 yil mobaynida o'rtacha narx hisobida pulga aylantirib olinardi. Soliq to'plashda ijorachilik sistemasi bekor qilinib, soliqni maxsus moliya amaldorlari to'playdigan bo'ldi.

Akbar davrida imperiya 15 viloyatga bo'linib, ularning har biriga alohida alohida gubernator hokim qilib qo'yilgan edi. Hindiston irrigatsiya sistemasi ancha kengaytirildi. Dehli «O'sha davrda jahondagi barcha

shaharlarning eng kattasi va gullab-yashnayotgan shahar»ga aylangan. Agra davlatning ikkinchi poytaxti edi.

Akbar hukmronligi davrida musulmon va hind feodallari muayyan darajada jipslashgan vaqt bo'ldi.

Akbar yo'lini o'g'li Jahongir (1605–27) va nabirasi shoh Jahon (1627–58) davom ettirishga harakat qilishdi.

Shoh Jahon 1632-yili Ahmadnagarni egalladi. 1636-yili Golkanda va Bijapur o'z qaramliklarini tan oldilar. Tashqaridan qaraganda shoh Jahon davri Boburiylar imperiyasi eng gullab-yashnagan davrga yetgandek tuyulardi. Ammo imperiyaning ichki zaifligi sezila boshladi. Feodallar g'alayonlari davlat markazlashuviga putur yetkaza boshladi.

Akbar vorislari pulga tobora ko'proq muhtojlik sezib, soliq to'plashning sotish sistemasiga qaytishga majbur bo'ldilar (uning bema'niligini bilib turib). Oqibatda, jagirdorlarning mahalliy aholi ustidan hukmronligi to'laroq va nazoratsiz bo'lib qoldi.

Birmuncha uddaburonlik bilan hukmronlik qilgan shohlarning so'nggisi Avranzeb (1658–1707) edi. U Bajapur va Golkandani uzil-kesil egalladi. U inglizlarning Ost-Indiya kompaniyasining 1688–89 yillardagi hujumiga qarshi zarba bera oldi. Kompaniya unga juda katta tovon to'lashga majbur bo'lgan edi. Ammo Avrangzeb siyosati tor-kastachilikka asoslangan bo'lib, Akbarnikidan butunlay boshqacha edi.

Yevropa mustamlakachilari tahdid solib turgan paytda u Hindiston milliy kuchlarini birlashtirish o'rniga aksincha qildi. Hindlarni yana diniy ta'qib ostiga olib, jiz'yani qayta tikladi. Musulmon feodallarning hindlardan olgan qarzini to'lamaqlikka yo'l qo'ydi. Urush xarajatlari ko'payib, irrigatsiya sarflari kamaytirildi.

Viloyatlardagi noiblar va istilo etilgan viloyatlar maharajalari mustaqillikka intila boshladilar. Avrangzeb davrida g'arbiy Dexan tog'larida yashovchi maratx qabilasi dehqonlari harakati boshlandi. Ularning urushi boburiyga nisbatan g'azovot tusini olgan edi. Unga jasur yo'l boshchi Shivaji (1627–1680) 20 yil davomida rahbarlik qildi. Shivaji vaqtida maratxlar mamlakatida Maharashtra mustaqil davlatga aylandi.

Panjobda, Hindistonning shimoli-g'arbida XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII boshlarida singxlar diniy mazhabi bilan bog'liq keng dehqonlar harakati bo'lib o'tdi.

Hinduizmning radikal sektantchilik ta'limotlaridan biri sifatida singxchilik XVI asr boshlarida vujudga keldi.

Sektaning asoschisi va uning dastlabki ustози (guru) savdogar

Nanuk (1538-yil vafot etgan) edi. Avvaliga sekta feodallar zo'rvonligidan norozi bo'lgan shahar doiralarning manfaatlarini aks ettirdi. Sekta xudo oldida barcha kishilarning tengligini e'lon qilib, tabaqa, mazhab imtiyozlarini rad etdi. Ikki tomondan sekta zulmiga qarshilik ko'rsatmaslik haqidagi ta'limotga amal qilib hukumatga itoat qilardi. Boburiylar ularga yaxshi munosabatda bo'ldilar. Ularning tashkiloti Laxorda va Panjobning boshqa shaharlarida mustahkamlandi. Ammo XVII asrning o'rtalarida sekta safiga minglarcha xonavayron bo'lgan hunarmandlar va dehqonlar qo'shilishi natijasida u radikallashdi. Hatto singxlarda ham rahbarlik rolini o'ynab kelgan savdo sudxo'rlik elementlari orqaga surilaverdi va qisman sektadan chiqib ketishdi.

Yangi singxchilik musulmon va hind feodallariga qarshi qurolli kurash dasturini ilgari surdi. Ular ideal, «chinakam podsholik» o'rnatishni istardilar.

1669, 1671-72, 1686, 1705-yillarda Agra, Dehli rayonlarida jat-singxlarning eng qudratli harakatlari ro'y berdi.

Avrangzeb o'limidan so'ng boburiylar imperiyasi ayrim parchalarga bo'linib ketdi (imperiya velikix Mogolov). Ularning hokimiyati faqat Dehlidagina saqlanib qolgan edi. Hindistonda yana feodal tarqoqlik vujudga keldi. Yevropaliklar rojalarning o'zaro urushlariga aralashib, o'zlarining Hindistondagi mustamlaka yerlarini kengaytira boshladilar.

XV–XVI asrlarda asosiy yevropalik mustamlakachilar janubi-g'arbiy sohilga joylashgan portugallar edi. Malabar sohillaridagi Diu, Duman, Goa, Kachin va Yek portlari ularga tegishli edi.

XVII asr boshlarida Hindistonga gollandlar kelib, Koramondel sohilida, Bengaliya va Bikarda Seylon orolida mustahkamlanib oldilar.

XVII–XVIII asrlarda ingliz va fransuzlar Hindistonni egallash uchun bir-birlariga qarshi shiddatli kurash olib bordilar. 1639-yili inglizlar o'zlariga tayanch punkti qilib Madras shahrini qo'lga oldilar. 1668-yili Bombay inglizlarning Ost-Indiya kompaniyasi qo'lga o'tdi. 1690-yil inglizlar Kalkutta shahriga asos soldilar.

Shu vaqtlarda, 1674-yili fransuzlar Pondisheri shahrini bosib oldilar. Inglizlar va fransuzlar o'rtasidagi kurash o'nlar yilga cho'zilib ketdi. Inglizlar oqibat natijada 100 yildan keyin, 7 yillik yevropa urushi (1756-63) vaqtida fransuzlarni Hindistondan quvib chiqarilishga erishdilar.

Shu tarzda juda katta va ko'p millionli Hindiston feodal tarqoqlik, jiddiy milliy, diniy va kasta tafovutlari tufayli o'z mustaqqiligini yo'qotdi.

**Madaniyat.** G'oyat rivojlangan adabiyot va me'morchilikning ravnag topishi XVI–XVII asrlar Hindiston madaniyati uchun, ayniqsa, xarakterlidir. Shoh Akbar va Shoh Jahon yozuvchilar va san'at ahliga homiylik siyosatini olib bordilar. Atoqli adib Abulfazl Allomiy fors tilida yozsa-da, Akbar saroyidagi tarixnavis edi. Buyuk hind shoiri Tulsi Das (1532–1623) «Ramachariatamanasa» degan umumiy sarlavha ostida o'ndan ortiq kitob yozdi. Eski xalq qahramonlik va mifologik ertaklarini erkin tarzda qayta bayon qildi. Das asarlari yuqori va o'rta sinflar orasidagina emas, xalq (quyi omma) orasida ham mashhur bo'lgan. Ko'plab saroylar, qal'alar, bog' va xiyobonlar, masjidlar qurildi. Shoh Jahon qurdirgan Tojmahal maqbarasi dunyoga mashhurdir. O'sha paytda qurilgan juda ko'p binolar hozirga qadar saqlanib qolgan.

### Nazorat topshiriqlari:

1. Gupta davlatining parchalanish sabablari?
2. Mahmud Gaznaviy istilosining oqibatlari.
3. Nima uchun Boburiylar davlati uzoq yashadi?

## 9-MAVZU: O'RTA ASRLARDA XITOIY

### REJA:

1. III asrda Xitoy jamiyati. Ko'chmanchilar hujumi. Janubiy va Shimoliy davlatlar.
2. Suy va Tan ilk feodal imperiyalarining tashkil topishi. VI–VII asrlarda agrar munosabatlar.
3. Shaharlar, hunarmandchilik, savdo. Ijtimoiy va davlat tuzumi.
4. XIII–XVI asrlarda Xitoy. Tashqi siyosat va munosabatlar.
5. Din va mafkura. Madaniyat.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** Suy sulolasi, Tan sulolasi, Sun sulolasi, O'rta asrlarda Xitoy madaniyati, qo'zg'olonlar, Min sulolasi.

**III asrda Xitoy jamiyati.** Xitoyda feodal munosabatlar Xan quldorlik imperiyasi va shimoldagi qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumi zaiflashuvi asosida tarkib topa boshladi. (Xitoy tarixchilari, miloddan avval XI asrgacha davrdan).

Xan davlati buyuk Xitoy devoridan Janubiy Xitoy dengizigacha bo'lgan territoriyada joylashgan edi. 50 milliondan ortiq aholisi bo'lgan. Qadimiy poytaxtlari – Chan'an (hozirgi nomi Sian). Xanlarda ipakchilik, sopol buyumlar yasash, qurol yasash, qog'oz ishlab chiqarish rivojlangan.

184-yilgi «Sariq peshonabog'lilar» qo'zg'oloni mamlakatni xarob qilgan, zayiflashuv boshlangan. O'zaro urushlar ham davlatni kemirgan. 189-yili poytaxt Loyan qo'ldan ketgan. Ichki urushlar sobiq imperiyani 3 lashkarboshi tomonidan bo'lib olinishini bilan yakunlangan. Uch podsholik davri boshlangan.

Mamlakat Shimoli va poytaxt rayonlarida qo'zg'olon rahbarlaridan biri Sao Sao hukmronlik qila boshladi. Janubi-sharqda, hozirgi Nankin myonida poytaxti bo'lgan. Bu yerda U davlati, g'arbda esa Shu davlati paydo bo'ldi. 265-yili Vey lashkarboshisi Sima Yan Sao Sao avlodini tugatib, Szin sulolasiga asos soldi. Shimolliklar dastlab Shu, 280-yili U davlatini egalladilar. Imperator Sima Yan hukmronligi o'rnatildi.

100 yil mobaynida soliq to'lovchilar soni 56 milliondan 17 millionga tushib qoldi. Irrigatsiya sistemasi buzildi.



280-yil Sima Yan agrar sistema to'g'risida farmon chiqardi. Bunga binoan, xazina foydasiga ma'lum shartlarni bajargan mehnatga layoqatli har bir kishi yer olishga huquqli edi. 16-60 yoshli erkak va ayol unga to'la huquqli bo'lgan. 13-15 va 61-65 yoshlilar belgilangan yerlarning yarmini olishga haqli bo'lgan. Bolalar va qariyalar yer ololmas va soliq to'lmas edilar. Yer olganlar hosilning  $\frac{2}{5}$  qismi miqdorida soliq to'lardilar. Har bir hovlidan, agar boshliq erkak bo'lsa, uch dona shoyi material va 3 o'lchov birligida ipak olinardi. Agar oila boshlig'i ayol, o'smir yoki qariya bo'lsa, uning yarmi to'lanardi. Davlat ishlarida yiliga 30 kun ishlab berilgan. Uzoq va chegara rayonlarida u kamaytirilgan. Bu sistema keyingi asrlardagi agrar tadbirlarning ham asosi bo'lib xizmat qilgan. Davlat xizmatidagi boyroq odamlarni jalb qilish maqsadida egallagan lavozimi va darajasiga qarab yer berilgan (pomeshchik). Oliy darajadagi chinovnik mulkidagi davlat solig'idan ozod bo'lganlar soni 50 hovlidan oshmasligi shart edi. Reforma yuqori tabaqa manfaatlariga zarar keltirmagan.

Yerga davlat va xususiy egalik birlashib ketgan, shu sababli o'zaro raqobat zaif bo'lgan. 289-yil Sima Yan o'limidan so'ng taxt uchun kurash boshlandi. Unga ko'chmanchi Syanbi, uxuan va xunlar aralashgan.

**Ko'chmanchilar hujumi.** III–IV asrlarda Xitoy shimolidan Rimga qadar bo'lgan territoriyada xalqlarning buyuk ko'chish jarayoni davom etgan. Janubiy Xunlar (nan syunni), syanbilar, di, syan, sze va boshqa qabilalar shimoldan O'rta Xitoy tekisligiga ko'chgan. Qadimiy xanlar etnik beshigi, shimoldagi xunlar ittifoqi yemirilgach, janubiy guruh Shimoliy Shansi va ichki Mongoliya rayonlarida yashab qolgan. Asosiy mashg'ulot chorvachilik bo'lgan. 5 Xunn qabilasi vakillari boshliq shanyuy (tangri quli) saylanganlar, u sekin merosga aylangan.

Shanyuylar qadimdan imperator oilasidan qiz-kelin olib kelganlar, ularning katta o'g'illari Xan saroyida faxriy garovda va 5 aymoq boshlig'i saroylarida yashab faoliyat ko'rsatganlar. Xunlar otryadlari ba'zan imperatorga yordam berganlar. Keyinroq xunlar imperiyasi zaiflashuvi oqibatida shanyuylar Xitoy taxtiga da'vogarlik qila boshladilar. Szin imperiyasi armiyasiga markaziy rayonlarda joylashgan xunlar yetarli darajada qarshilik ko'rsata olmasdi. 311-yili Loyan, 316-yili Chan'an quladi. Xunlar orqasidan imperiyaning quruqlik chegaralaridagi ko'p qabilalar harakatga keldi. Ularning ba'zilarida urug' tuzumi hukmron, boshliqlar saylanar, ayollar katta huquqlarga ega edilar. Ba'zilarida aristokratiya ajralib chiqa boshladi.

Shimoliy Sharqda eng kuchlisi Syanbi qabila ittifoqi edi. Xitoy elchilari ulardan xunlarga qarshi foydalanishga uringanlar. III asrda Sy-

ambinlar bir necha ittifoqqa boʻlindi. Muyunlar janubiy Manjuriyada, toʻbalar ichki Moʻgʻulistonda hukmron edilar. Muyunlar xitoyliklar koʻmagida hukmron Yan podshohligining oʻrnatdilar. Oʻrta podshohlik yerlariga gʻarbdan Tibet guruhi qabilalari kelib Gansu, Shensi, Ninsya yerlarini egallab, Sin davlatini barpo etganlar. Ular dastlab Muyunlar, soʻngra xanlar bilan toʻqnashganlar. Lekin koʻchmanchilar podshohligi parchalab tashlangan. Shimoliy Xitoyda tashkil etilgan podshohliklar mustahkam boʻlmay, odatda tez parchalanib ketardi. Qadimgi Xitoyning madaniyat oʻchogʻi boʻlgan Shimol 100 yillar mobaynida jang maydoniga aylandi.

IV asr oxirida gʻarbiy syabinlarning toba qabilasi oʻzaro janglarga chek qoʻydi. Shimoliy Xitoy egallandi, ular dohiysi Toba Guy imperator deb eʼlon qilindi. Davlat tuzumida xitoy tajribasidan foydalanildi. 367-yili ular Xitoyning oʻziga bostirib kirdilar. Toba Guyning nevarasi Shimoliy Xitoyda shimoliy veylar sulolasi hukmronligini oʻrnatdi.

**Janubiy va Shimoliy davlatlar.** Shimoliy Xitoyga koʻchmanchilarning bostirib kirishi anʼanaviy tarixshunoslikda Janubiy va Shimoliy sulolalar davri deb nomlangan bosqichni boshlab berdi. Qadimgi Xitoyda III–VI asrlardagi kabi Shimol va Janub oʻrtasidagi qarama-qarshilik boʻlmagan edi. Shimoldan millionlab aholi Janubga qochgan. 317-yili Szyanda (Nankin rayoni) toʻplangan saroy ahli asima xonadoni vakillaridan birini imperator deb eʼlon qildi. Rasmiy yilnomachilar 317–419-yillarni Sharqiy Szin sulolasi hukmronligi deb hisoblaydilar. Imperator hokimiyati zaif, yirik siyosiy mansablar Shimoliy aristokratiya qoʻlida edi.

IV asr oxiri – V asr boshlarida «50 dou gruch» sektasi boshchiligidagi dehqonlar qoʻzgʻoloni, hukmron sinf oʻrtasidagi ziddiyat Sharqiy Szin hokimiyatining qulashiga olib keldi. Shundan soʻng 4 sulola almashdi. Imperator hokimiyati poytaxt rayoni tashqarisida tan olinmasdi. Alohida lashkarboshi tomonidan Shimolga qilingan yurishlar muvaffaqiyatsiz tugagan. IV asrdan janubda «varvar»lar hukmronlik qilib, xanlar ularga tobe boʻlganlar. Tobi hukmronligi davrida Shimoliy Vey davlatida ham inqiroz boshlangan. Yer «kuchli xonadonlar» qoʻliga oʻta boshlagan. Hunarmandchilik deyarli oʻlgan. 485-yili yirik yer egaligini cheklashga qaratilgan imperator farmoni eʼlon qilingan. Tarixshunoslikda u chek yer sistemasi deb nom olgan. U III asrdagi Szin davlati oʻtkazgan agrar islohotlarning davomi edi.

VI asrning ikkinchi yarmida Shimol va Janub munosabatlari yumshadi. Koʻchmanchilar xanlar orasiga singib ketdi. Jangovar

tobi vujudga kelgan kuchini yo'qotdi. Uning ustiga Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ko'chmanchilarning Turk Xoqonligi tomonidan hujum xavfi paydo bo'ldi. Bunday sharoitda Shimol butun mamlakatni birlashtirish tarafdori edi.

Shimoldagi davlatlardan biri Chjou konsolidatsiya (birlashuv) markaziga aylandi.

581-yili Shimol lashkarboshisi Yan Szyan Suy sulolasining imperatori deb e'lon qilindi (581–618). Siyosiy va iqtisodiy vaziyat ulkan mamlakatni harbiy yo'l bilan birlashtirishni taqozo etardi.

Yangi sulolaning tashkil topishi Xitoy tarixi oqimini keskin burib yubordi. 4 asrlik qarama-qarshilik tugadi. Birlilik va markazlashuv davri, iqtisodiy va madaniy rivojlanish boshlandi.

Yangi hokimiyat soliqlarni ozaytirib, tartibga soldi, tuz va vino monopoliyasini bekor qildi, yangi tanga zarb etdi, o'lchov va standartni bir shaklga soldi.

Konfutsiylik ta'limoti tarafidan imperator olimlarni davlat xizmatiga taklif etdi, chinovniklar imtihon topshiradigan bo'ldi. Suy saroyi Xan byurokratik sistemasini o'zlashtirdi. Madaniyatda Shimol va Janub sintezi ro'y berdi.

Yan Szyan 604-yili o'z o'g'li Yan Guan tomonidan o'ldirildi. Yan Guan iqtisodiy va siyosiy markazlashuv sistemasini davom ettirdi, poytaxtni va 10 ming boy oilani Loyanga ko'chirdi.

Aloqani kuchaytirish maqsadida Xuanxe, Yanszi dengiz suv yo'li vujudga keltirildi. Buyuk kanal Shimol va Janub iqtisodini bog'ladi.

Buyuk Xitoy devori mustahkamlandi, qo'shimcha qurildi. Aholi ro'yxatga olindi. Soliq ko'paytirildi, barshchina muddati uzaytirildi, oqibatda, 610-xalq qo'zg'oloni ko'tarildi.

Qo'zg'olonchilar Dou Szyaneni (starosta, voyn) hukmdor deb e'lon qildilar. Bundan norozi bo'lgan yirik feodallar isyon ko'tarishdi. Bu vaqtda Koreyaga qilingan yurish ham muvaffaqiyatsiz chiqqan edi. Janubga qochgan Yan Guan o'ldirildi. Mamlakatda tartibsizlik boshlandi. Shansi hukmdori Li Yuan Chan'anni egallab, imperatorga aylandi va yangi Tan sulolasiga asos soldi (618–907).

Eski qarzlari bekor qilindi, davlat barshchinasi muddati qisqartirildi, qullikka sotilgan dehqonlar ozod etildi, feodallarning dehqonlarni o'ldirishi taqiqlandi. Ochlarga yordam berildi, suv bosishga qarshi kurashildi. Savdogarlarga homiylik qilindi. Qo'zg'olonchilar afv etildi, lekin qo'zg'olon markazlari yo'qotildi, Dou Szyandeni qatl etildi.

Li Yunning o'g'li Li Shimin (627–649) davrida Tan imperiyasi mustahkamlandi, territoriyasi kengaydi.

**VI–VII asrlarda agrar munosabatlar.** Yan Szyan urushlari davrida feodal va chinovniklar (birlashtrish dushmanlari) yerlari davlatniki bo'lib qoldi. Chek yer sistemasi butun mamlakatda tarqaldi. Mamlakatda yagona hokimiyatning o'rnatilishi yana qishloq tashkilotlarining tuzilishi va dehqonlarni jilovlash imkoniyatini yaratdi. Yan Szyan davrida avval hisobga kirmay qolgan 1,5 million dehqon aniqlandi. Rasmiy jihatdan chek yer qisqartirildi, don solig'i oshdi, barshchina 10 kunga yetkazildi. Mehnat majburiyatlari oshdi. Yan Guan davrida davlat barshchinasi cheklanmagan edi. Loyan Shahri qurilishiga 2 mln Buyuk kanal va Buyuk devor uchun 1 mln, Koreyaga yurishga 1 mln kishi jalb etilgan.

Imperator oila vakillari, van (knyaz) lavozimlaridagilar 10 ming mu (1/16 ga) gacha yerga egalik qila olardi. Yan Guan zodagonlariga darajasini 9 dan 3 ga qisqartirdi, feodallarni cheklash xizmati uchun berilgan yerlar darajaga qarab 100 dan 500 mugacha bo'lardi.

Tan imperatorlari chek yer sistemasi orqali qudratli feodallarni ancha jilovlab oldilar.

624-yilgi ediktga binoan, mehnatga layoqatli erkak oilaniki bo'lgan bog'-rog'li yer hamda 80 mu haydalanadigan yerga egalik huquqiga ega bo'ldi. Chek yer tuproq holati va rayonlarga qarab o'zgarardi. Bog' yeriga mevali va tut daraxti ekish majburiy, uni sotish mumkin edi. Ayrim hokimlardan tashqari, haydaladigan yerni sotishga ruxsat berilmagan.

Ayollar, bevalardan tashqari, chek yerdan mahrum etilgan. Qul uchun yerni olish mumkin bo'lgan davlat qullarining yer olishi amalda ularni dehqonlarga aylantirgan. Xususiy qullar yer olib, dehqonga aylana olmagan.

Tan hukmdorlari fuqarolarning detallashtirgan hisobini olganlar, ularning birortasi ham soliقدan qochib qutula olmasdi.

Aholi 5 daraja bo'yicha hisobga olingan:

1. Tug'ilgandan - 4 yoshgacha

2. 4-16 yoshgacha

3. 16-21 oshgacha

4. 21-60 oshgacha

5. 60 yoshdan yuqori

Shu bilan birga xazina ba'zi bir imtiyozlarni berishga majbur bo'lgan, agar xo'jalikda 4 mehnatga yaroqli kishi bo'lsa, ularning 2 tasi majburiyatlardan xalos etilgan, agar 3 kishi bo'lsa, 1 tasi mehnat majburiyatlarini ado etgan. Ozod etilgan qul chek yerga da'vogarlik qila olmasdi.

Soliq shakllari: obrok barshchina, pul rentasi. Soliqlar Suy sulolasi davridagiga nisbatan ozroq bo'lgan.

Barshchina – 20 kun. Obrok – don, ipak va pilla, chorvadorlar – qo'y. Barshchina ko'proq o'tlasa obrok qismi ozaytirilgan. Gazlanu to'qilmaydigan joylarda kumush to'langan. Qo'riq ochganlar va aholi kam joylarga ko'chganlar vaqtincha soliqlardan ozod etilganlar.

Tan sulolasi davrida feodallashuv jarayoni tugagan. Barcha ishlab chiqaruvchilar davlat va feodallar qo'lida bo'lgan. Jamoa yerga bo'lgan va o'z tarkibidagi xo'jaliklarga nisbatan avvalgi huquqini yo'qotgan. Jamoa fuqarolar yig'ini davlat apparati qo'shimchasiga aylantirilgan. U ma'lum joylarda saqlanib, asosan, davlat topshiriqlarini bajargan.

Xitoyda ushbu davrda yana bir sulola mavjud bo'lib, bu sulola Xitoyda Yuan deb atalgan. Mo'g'ullargacha bo'lgan Xitoyda XI asrda 2000 ta shahar mavjud bo'lib, IX–X asrlarda kompas, porox kashf etildi. VIII asrdan hukumat gazetasi tashkil etildi.). VIII asrda fanlar akademiyasi tashkil etildi. Adabiyot, san'at, arxitektura rivojlandi.

**Xitoyning mo'g'ullar sulolasi ostidagi hukmronligi.** Dastlab Xubilay zamonida (1259–1294) Xitoyning shimolida tashkil topgan mo'g'ullar monarxiyasi asta-sekin Janubiy Xitoyga ham yoyildi. 1278-yilgi Sun sulolasining poytaxti Xanchjaou shahri olindi. 1279-yili Janubiy Xitoy tamomila istilo etildi. Yangi sulola Yuan deb nom olgan edi. Mo'g'ullar istilosi Osiyo va Yevropa kabi Xitoy uchun ham dahshatli bo'ldi. Chingizxondan boshlangan yurishlar davomida Xitoy behisob qurbonlar berdi. Xitoyliklar ekin yerlarining bir qismini yaylovlarga aylantirildi. Yangi soliqlar paydo bo'ldi. Mo'g'ullar olib boriladigan urushlar munosabati bilan ularning talabiga muvofiq har xil yuklarni tashib berish tarzidagi yillik soliq Xitoy dehqonlari zimmasiga tushgan og'ir yuklardan biri edi. Uning oqibatida qishloq xo'jaligiga zarar yetkazardi. Yuan sulolasi davrida asosiy kuch mo'g'ullarning o'zidan iborat bo'lsa, armiyaga Xitoy aholisi keng ko'lamda jalb qilindi (yuk tashish, yer qazish, kanal ishchilari...) qonun bo'yicha bunday ishlarga 10 kishidan birini olish kerak edi (mardikor). Xitoy shahar aholisi ham og'ir ahvolga solindi.

Katta devorlarni teshuvchi tosh otuvchi qurollar ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy hunarmandlari janglarga olib ketilgan. Sun sulolasi davrida yerga xusisiy mulkchilik, dehqonlarni qaram etish kuchaygan edi. Mo'g'ullar davrida ham bu jarayon davom etdi. Dehqonlar sotiladigan va sotib olinadigan tovarga aylandi. Soliqlar va boshqa to'lovlar endi tamomila feodallarga bog'liq bo'ldi. Shahar sexlari mo'g'ullar xazina-

ajga katta pul to'lardilar. Hunarmadchilik mahsulotlarining katta qismi mo'g'ul davlatiga bepul o'ziga xos rekvizitsiya tariqasida topshirilardi.

Marko Polo: Yuan sulolasi dastlabki paytlarda Xitoy Sharq kurashini tomosha qilib, ulardan nega Mo'g'ullarga qarshi kurashmaysizlar, sizlar ulardan kuchlisiz-ku deganda, ulardan biri, mo'g'ullarni biz o'zimizga singdirib boramiz, degan edi... XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridayoq mo'g'ullar xitoyliklarning kuchli ta'siri ostiga tushib qoldilar. Ular Xitoy tilida gapiradigan bo'ldilar, Xitoy yozuvini o'zlashtirdilar va xitoyliklarning ilgarigi idora usulini qabul qildilar.

Ikkinchi tomondan, Xitoyning mo'g'ul davlatlari sistemasiga kirilishi tufayli endilikda Xitoy ilgarigi Tan va Sun «milliy» sulolalari zamonidagidan ham ko'proq darajada savdo-sotiq ishlarida ishtirok etadigan bo'la oldi. Xitoyda Eron, Arab, O'rta Osiyo va Hind savdogarlarining savdo rastalari paydo bo'ldi. Xitoyda XIII asrda bambukdan yasalgan trubkaga o'xshash multiqlar, XIV asrda esa tosh va temir o'q solib otiladigan metall zambaraklar ixtiro qilindi.

Xubilay zamonida Xitoyga borgan venetsiyalik sayyoh Marko Polo «Xitoy ipagi, chinnisi, temiri, misi dunyoning hamma burchagiga chiqariladi», deb yozgan. Savdoning asosiy samarasini mo'g'ullar, turk va foni savdogarlari ko'rardi. XIV asrda mo'g'ul imperatoriga qarshi bir necha bor saroyda fitna uyushtirildi. Aholining kengroq doiralari o'rtasida o'z oldiga mamlakatni ozod qilishni maqsad qilib qo'ygan milliy tashkilotlar tuzildi. 1351-yili Xenan va Shandun viloyatlari «Oq ulufara» nomli ittifoq tomonidan tayorlangan «Qizil peshonabog'lilar» qo'zg'oloni bo'ldi. Dehqonlarga shaharliklar qo'shildi. Bu qo'zg'olon ozodlik urushiga aylanib ketdi va u qariyb 20 yil davom etdi. 1356-yili «qizil peshonabog'lilar» ulug' xon poytaxti Yansizin (Pekin) Shahrini savf ostida qoldirdilar. XIV asrning 60-yillarida Xitoy viloyatlarining ko'pchiligida mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonlar bo'ldi. Qo'zg'olonchi dehqon armiyasining rahbarlaridan Chju-Yuan-Chjan 1369-yili imperator deb e'lon qilindi. U ta'sis etgan sulola Min deb ataladigan bo'ldi.

**Min sulohasining idora qilishi.** Bu sulola Xitoyni 1368-yildan to 1644-yilga qadar idora qildi. Uning poytaxti dastlab Nankin shahri edi. Lekin ko'p o'tmay poytaxt yana Yanszin shahriga ko'chirildi. U endi Pekin degan yangi rasmiy nom oldi. Xalq orasida chiqqan yangi sulola dastlab mehnatkashlar manfaatini birinchi o'ringa qo'ygan holda siyosat yuritdi. Masalan, soliqlarni tengroq taqsim qilish maqsadida soliq to'yxatlari qaytadan ko'rib chiqildi. Mo'g'ul zodagonlarining yerlari xiyala ko'paydi. Boqimandalarning solig'idan kechish to'g'risida

Chjou Yuan Chjan bir necha marta farmon chiqardi. XIV asr oxirlari – XV asrning birinchi yarmida irrigatsiya sohasida katta ishlar qilindi. Shaharlardagi hunarmandlar to'laydigan soliqlar ham dastlabki paytlarda bir qadar kamaytirildi. Lekin shu bilan birga «dehqonlar imperatori» biror-bir ijtimoiy inqilob qilishni o'ylamasdi.

Katta yer egalari dastlab sal cheklab qo'yilgan bo'lsa-da, umuman saqlanib qoldi. Bu holat o'sishda va mustahkamlanishda davom etdi. Chjou Yuan Chjangga hokimiyatni qo'lga olishga yordamlashgan lashkarboshilar va yangi sulolaning faol tarafdorlari ko'pgina yer mulklari oldilar. Sulola udeal yerlar sifatida ekinzorlar va yaylov yerlarning juda katta qismini o'z qo'lga kiritdi. Bu yerlardan olingan daromad imperator saroyi va shahzodalarning xarajatini qoplardi. Chjou Yuan Chjanning 20 dan ortiq o'g'li bo'lib, ularning hammasi yuqori ma'muriy lavozimni egallar va ayni vaqtda yirik yer egalari edi. Ammo imperator xonadoniga taalluqli bo'lmagan oliy ma'muriy shaxslar ham katta yer-mulklar egasiga aylangan.

**Shaharlarning rivojlanishi, ilk shahar kurtaklari.** XIV–XVI asrlarda Xitoyda sanoat ancha tez sur'atlar bilan rivojlandi. Sholi va ipak tayyorlash, gazlamalarga pardoz berish, qog'oz, shisha, chinni tayyorlash, turli xildagi kon sanoati os'di. Pekin, Nankin va boshqa shaharlarda saroylar, ibodatxonalar, bezakli minoralar, ko'priklar, arklar, turli qal'a inshootlari qurildi. Minlar davrida ham sanoat asosan hunarmandchilikdan iborat bo'lib qoldi. Biroq sanoatning ayrim tarmoqlari, asosan, qayta ishlash sanoatida manufaktura tipdagi yirik ustaxonalar bor edi. Qullar va krepostnoylar mehnatidan foydalanadigan ko'pgina davlat manufakturalari (chinni ishlab chiqarish) mavjud edi. Kon-ruda qazib chiqarish sanoatida majburiy mehnat tamomila hukmron edi. O'z ichki ahvolini mustahkamlab olgan sulola yangi yerlarni bosib olish hamda Xitoyning tashqi bozorlarini kengshaytirish maqsadida keng istilochilik yurishi uyushtirdi. Chjou Yuan Chjan zamonidayoq Koreya bilan Tibet xitoy imperatori hukmronligi ostida edi. Uning vorislari Indoneziya, Hindi-Xitoy mamlakatlari harbiy ekspeditsiyalar yubordilar. Bu mamlakatlardagi kichikroq hokimlarning bir qismi Xitoy imperatorining oliy hokimiyatini tan oldi. Xitoyliklar Indoneziya bilan Hindi-Xitoyga ko'plab ko'chib bora boshladilar. Min hukumati Hindi-Xitoy, Indoneziya, Hindiston va hatto Sharqiy Afrika qirg'oqlariga sistematik tarzda harbiy-dengiz ekspeditsiyalarini yuborib turdi. Admiral Chjen Xe boshchiligida 1403–1433-yillar mobaynida turli mamlakatlarga 7 marta dengiz yurishlari uyushtirildi. XVI asrda Min imperiyasiga birovlariga hujum qilish emas, balki bundan keyin o'z

manbkatini chegaralarini mudofaa qilishga to'g'ri keldi. G'arb tomondan unga mo'g'ullar xavf solib turardi. 1550-yili mo'g'ullar qo'shini Pekinga bostirib kirib, uning chegaralariga o't qo'yib ketdi.

**Xitoyda yevropaliklarning paydo bo'lishi.** XVI asrning ikkinchi yarmida Xitoy yaponlar agressiyasiga qarshi og'ir kurash olib borishga majbur bo'ldi. Shunday kurashlar oqibatida Min sulolasi samuraylar hujumlarini qaytarib, shu asrning oxirida ularni qit'adan haydab chiqardi. XVI asr boshlarida Xitoyga yevropaliklar kirib kela boshlashdi. 1516-yili Kanron portiga birinchi bo'lib portugal kemalari keldi. XVI asrning 40-yillarida portugallar Xitoy qirg'oqlarida bir necha kolonna barpo qildilar. Lekin portugallarning ta'magirliklaridan, o'zboshimchilikidan bezor bo'lgan xitoylar 50-yillarning boshida ularning hammasini yakson qildi. 1557-yilda bosib olingan Makkooda (kanton) janubida portugallar konsensiyasini olib, ancha mustahkamlanib olishga muvaffaq bo'ldilar. XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asrning boshlarida Xitoyda ispanlar, gollandlar, ingilizlar va fransuzlar paydo bo'ldi. Ammo Min hukumati chet elliklarni bir oz bo'lsa ham Xitoyning ichkarisiga suqilib kirishiga yo'l qo'ymadi. XVI asr yevropa savdogarlarining Hindiston va Indoneziya bilan savdolariga nisbatan Xitoy bilan bo'lgan savdo oborotlari juda oz edi. Xitoy ruslar bilan birinchi marta XVI asrning birinchi yarmida aloqa qila boshladi.

**XV–XVI asrlarda Xitoyda ziddiyatlarning keskinlashuvi.** XV–XVI asrlarda Xitoyda sinfiy ziddiyatlar keskinlashdi. Sudxo'rlikning yoyilishi, soliqlarning oshib borishi xalqning noroziligini keltirib chiqardi. 1448-1449-yillarda Fuszyan viloyatida Den Maosi boshchiligida dehqonlar qo'zg'oloni bo'ldi. Uning atrofiga o'zi singari o'n minglab mayda ijarachi dehqonlar to'plandi. Bu ijarachilar aslida qaram holatiga tushgan edilar. Qo'zg'olonchilar eski odatdagi rentani talab qilib, bahirdigan ijara haqqini to'lashdan bosh tortadilar.

XVI asrning boshlarida bunday qo'zg'olonlar deyarli barcha viloyatlarda bo'lib o'tdi. Ayni vaqtda XV–XVI asrlarda Xitoyda hukmron sinfning o'z ichida turli guruhlar kurashi davom etayotgan edi. Min imperatorlariga yaqin bo'lgan Chinovniklar yuqori va daromadli lavozimlarni egallagan edilar. Ularga feodallarning kengroq doirasi, xususan, shaxsiy deb nomlangan olimlar tabaqasi qarshi chiqdi.

1506-yili chinovniklar (mahramlar) markaziy boshqaruvni butunlay qo'lga olib, uni 1521-yilgacha saqladilar, keyin 2-guruh g'olib keldi. Chinovniklar mollari talandi, o'zlari o'ldirildi. Lekin XVI asrdan so'ng, XVII asrning 20-yillarida yana chinovniklar g'olib chiqdilar.



**Min sulolasining zaiflashuvi.** XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Min sulolasi to'la tushkunlikka yuz tutgan edi. Bu «dehqonlar» sulolasining dastlabki davrlarida sal-pal mavjud bo'lgan ba'zi demokratik tendensiyalar endi allaqachonlar tugab ketgan edi. Min monarxiyasi aynib, o'zidan oldingi sulolalar singari oddiy byurokratik despotiyaga aylangan edi. XVI asr boshlaridan e'tiboran davl vatni idora qilish ishlari tepasida davlat xazinasini uyalmay-netmay talagan va shu tariqa juda katta boylik orttirgan imperator haramining xodimlari bo'lgan mahramlar turar edi. Haddan tashqari o'sib ketgan byurokratik davlat apparati, dabdabali imperator saroyining nihoyatda katta chiqimlari va Yaponiya bilan bo'layotgan urush yangidan yangi soliq daromadlarini talab qilardi. Birgina XVII asrning ikkinchi o'n yilligida barcha davlat soliqlarining hajmi shundan oldingi o'n yillardagiga nisbatan 50% ko'paydi. Davlat soliqlari va buning ustiga mahalliy feodallar, sudxo'rlar va amaldorlar foydasiga olinadigan har xil og'ir to'lovlar tufayli dehqonlar va shahar hunarmandlarining tinkasi qurigan edi.

Xalq ommasi tabiiy ofatdan: suv toshqinidan, takrorlanib turadigan qahatchilikdan, ocharchilikdan, epidemiyadan azob chekar edi. XVII asrning birinchi yarmida Xitoy xalq ommasining hayoti doimo to'yib ovqat yemaslik, odamxo'rlikkacha borib yetgan ochlik, aholi o'limining avj olishi bilan xarakterlanar edi. Shu bilan birga XVII asr boshlarida Xitoyning xalqaro ahvoli juda yomonlashdi. Shimolda, So'ngari daryosi havzasida yashovchi manchjur qabilalari taxminan 1606-yilda birlashdi. 1625-yilda manchjurlar Munkdenni va deyarli butun Lyaodun yarim orolini bosib oldilar. 30-yillarda Koreya manchjurlarga vassal, qaram bo'lib qoldi. Manchjurlarning Xitoydagi shimoliy viloyatlarga hujum qilishlari odat bo'lib qoldi. Min hukumati varvarlarga zarba berishga qodir emasligini ko'rsatdi. Bu esa xalq ommasining boshiga yangi qo'lfatlar keltirar va ular hayotini chidab bo'lmaydigan darajada juda tang qilib qo'ygan edi. Ommaning mavjud rejimdan noroziligi kuchaya borib, oqibat natijada dehqonlarning juda katta urushiga aylandi va bu urush Min sulolasini halokatga olib keldi.

**XVII asrning 30-40-yillarida Xitoydagi dehqonlar urushi.** Dehqonlar harakatining boshlanishiga 1628-yildagi ochlik turtki bo'ldi. Shansi bilan Shansi viloyatlarida bu ochlik ayniqsa kuchli bo'ldi. Bu viloyatlarda boshlangan harakat 1632-yilda markaziy Xitoyning boshqa viloyatlariga tarqaldi. Qo'zg'olon Xuanxe bilan Yanszi daryolari oralig'idagi hamma yerlarga yoyilgan edi. Xenan, Xubey, Anxoy, Shandun, Seguan viloyatlarida bu qo'zg'olon ayniqsa kuchli bo'ldi. Dehqonlarning qurolli otryadlarida bir necha o'n minglab qo'zg'olonchi bor edi.

Leकिन qo'zg'olon tarqoq bo'lganligidan hech qanday natija bermadi. 30 yillarning ikkinchi yarmida qo'zg'olon bir qadar pasayib ham keldi. Qo'zg'olonchi otryadlardan bir qismini hukumat qo'shinlari tortma keltirdi.

Hukumat qo'shinlari Manchjuriyaning shimolidagi urushda bandlik ekanida dehqonlar qo'zg'olonining yangi to'liqini 1641-yilda yana tashlab ketdi. Sobiq oddiy qishloq temirchisi Li Szi Chen dehqonlarning yo'l boshchisi edi. 1639- yildayoq Li Szi Chen qo'zg'olonchilarning katta qo'shinini tashkil qila boshladi, 1640-1643-yillarda u bir qancha yirik shaharlarni bosib oldi hamda Mongoliyadan Primoryegacha, Xuanxe daryosi vodiysidan Yanszi daryosi vodiysigacha bo'lgan juda katta territoriyani nazorat qilib turdi, qo'zg'olonchilarning poytaxti Shan (sobiq Chan-An) shahri bo'ldi. Li Szi Chen o'zini imperator deb e'lon qildi. 1644-yilda Li Szi Chen shimolga yurish tashkil qilib, Pekinni oldi. Min dinastiyasining oxirgi imperatori o'zini-o'zi o'ldirdi. Buyuk Shimoliy poytaxtni egallagan Li Szi Chen Min zodagonlari va yuqori byurokrtiyasining vakillaridan qattiq o'ch oldi. Ko'pgina feodallar, shu jumladan, imperator xonadonining bosh mahramlari qatl etildi, ularning mol-mulklari esa musodara qilindi.

Yangi hukumat dehqonlardan soliq olmadi, armiyani va davlat boshqaruvi apparatini saqlash uchun zarur mablag'lar, asosan, feodal yer egalari hamda eng badavlat shaharliklar – savdogarlar va mulkso'rlarga ko'plab soliq solish orqali undirib olindi. Biroq Li Szi Chen Pekinda faqat 42 kun turdi. Shundan keyin u poytaxtni tark etishga majbur bo'ldi. Xitoy feodallar, Min dinastiyasining ochiqdan ochiq tarafdorlari, qisman esa Min dinastiyasiga oppozitsiyada bo'lgan feodallar dehqonlar harakatining avj olishidan hamda revolyutsion hukumat tadbirlaridan qo'rqib ketib, tashqi dushmanlar – Manchjurlar bilan ittifoq birlashtirdilar va ulardan qo'zg'olon ko'targan xalqqa qarshi yordam ko'radilar. Manchjurlar bilan muzokaralarda xoin Min generallaridan biri U Sang-Guy faol rol o'ynadi. Shahzoda Durgan (Manchjuriyaning yangi yetmagan imperator huzurida shahzodalik vazifasini bajarib turgan) boshchiligidagi Manchjurlarning juda katta armiyasi Xitoy yerlariga bostirib kirdi. Li Szi Chen ham ikki yuz mingga yaqin kishidan iborat katta armiyasi bilan Manchjurlarning hamda ularga qo'shilgan U Sang-Guyning qo'shinlariga qarshi otlandi.

Huroq Li Szi Chen qo'shinlari Pekin yaqinida mag'lubiyatga uchradi. Li Szi Chen janubga qochishga majbur bo'ldi. Bu yerda u Shensi viloyatida biroz vaqt kurashni davom ettirdi. Ammo u 1645-yilda ma-

halliy feodallar tomonidan dehqonlar harakatini bostirish uchun tuzilgan otryadlarning biri tomonidan o'ldirildi.

1644-yil 6-iyunda Manchjur qo'shinlari U San-Guy qo'shinlari bilan birgalikda Pekingga kirib bordi. Shu tarzda Xitoyda yangi ajnabiy dinastiya hukmronlik qila boshladi. Sin deb atalgan bu dinastiya Xitoyda 1911-yilgacha hukmronlik qildi.

**Manchjuriya dinastiyasining hokimiyat tepasiga kelishi. Xitoy xalqining manchjur bosqinchilariga qarshi kurashi.** Manchjuriya dinastiyasi Xitoyda darhol mustahkamlana olmadi. 1645-yilda manchjurlar shiddatli jangdan keyin Yantjou va Nankinni olib, janubiy viloyatlarga qarab yo'lga chiqishganida ularning front orqasida manchjurlarga qarshi qo'zg'oloni yangi kuch bilan ko'tarildi. Xun an, Sichuan, Guansi, Chjeszyan, Funzyan, Shenyesmi va Gansu viloyatlarida manchjurlarga qarshi harakat avj olib, bu harakat XVIII asr 40-yillarining oxirigacha davom etdi. Manchjurlar shu paytga kelibgina qo'zg'olonni bostira oldilar. Sharqiy viloyatlarda keng ko'lamdagi harakatlar bo'lib o'tdi, bu yerda manchjurlarga qarshi kurashda dengiz sohilidagi ana shu viloyatlarning savdo floti katta rol o'ynadi. Dengiz sohilida joylashgan sharqiy viloyatlardagi manchjurlarga qarshi harakat 1662-yildagina uzil-kesil bostirildi.

Janubiy viloyatlarda manchjurlarga qarshi harakat yanada uzoq davom etdi. Tayvan orolida va janubi-sharqiy Xitoyning dengiz sohilidagi viloyatlarida manchjurlardan mustaqil bo'lgan Chjen-Chen Gun va uning o'g'li Chjen-Sen boshchiligida mustaqil davlat tashkil topdi. Janubiy Xitoy flortlaridagi savdogarlar orasida sotsial-tayanch topgan bu janubiy davlat 30 yildan ko'proq (1650-1683) yashadi. Chjen Chen-Gun floti 50-yillarda Nankin shahrini ikki marta qamal qildi. Oqibat natijada manchjurlar Chjen Sen-Gun vorislarini Gollandiya floti yordamida tor-mor keltirishga muvaffaq bo'ldilar. Ana shu davlat mustaqilligi tugatilgandan keyingina Sin davlati o'zini butun Xitoyning xo'jayini deb hisoblay oldi. Ana shunday benihoya og'ir sharoitlarda, feodallar o'z vatanlariga xiyanat qilgan vaziyatda Xitoy xalqi bir necha o'n yilliklar mobaynida Manchjuriya bosqinchilariga qarshi qahramonona kurash olib bordi.

**Xitoyga Yevropa mustamlakachilarining kirib kelishi va Sin dinastiyasining ularga qarshi kurashi.** XVII asrda yevropalik savdogarlar va missionerlar Xitoy ichkarisiga kirishga harkat qildilar. Katolik (asosan, portugalya va qisman Fransiya) missionerlari bir vaqtlari manchjurlar ishonchini qozonib, ularga, jumladan, to'pchi instruktorlar va qurol-yarog' ishining ustalari sifatida xizmat ko'rsatdilar.

Ayni vaqtda XVII asrning ikkinchi yarmida Xitoyga ingliz, golland va fransuz Ost-Indiya kompaniyalarining vakillari kirib kelishga asstoyid harakat qilib, Xitoy hukumatidan turli yengilliklar va imtiyozlar olishga muvaffaq bo'ldilar. Biroq Yevropa mustamlakachilarining bu siyosati muvaffaqiyatli chiqmadi.

Yangi Sin dinastiyasi mustahkamlanib olgach, Yevropa missionerlarining xizmatiga muhtoj bo'lmay qoldi va ular XVII asrning 60-yillarida mamlakatdan quvib chiqarildi. XVII asrning oxirlarida ular Xitoyda o'z faoliyatlari uchun yana imkoniyat oldilar. Biroq XVIII asrning boshlarida ular yana bir marta haydab chiqarildi va bu gal quvib chiqarish uzil-kesil bo'ldi. Ular Janubiy Xitoy sohilida joylashgan Makkao orolidagi Portugaliya mustamlakasidagina yashay olardilar. XVIII asrda, 1757-yilda Xitoy hukumati birgina Kanton portidan tashqari o'zining portlarini barcha ajnabiy savdogarlar uchun tamomila yopib qo'ydi.

Xitoyning ajnabiylar uchun mashhur «yopib qo'yilishi» shu tarzda ro'y berdi. Bu hol XIX asrning o'rtalarigacha davom etdi. Sin dinastiyasining Xitoyga chet el kapitalining suqilib kirishiga qarshi ana shunday kurashi natijasida Xitoy chet el kapitalistik ekspluatatsiyasidan biroz vaqt xoli bo'lib turdi. Ammo bu siyosatning ikkinchi salbiy tomoni ham bor edi. Xitoy ana shu siyosat natijasida tashqi dunyodan tamomila ajralib qoldi. Tashqi iqtisodiy aloqalar shu yo'l bilan qo'pol va an'anaviy tarzda to'xtatildi va cheklandi. Bu esa Xitoy hunarmandchiligi va Xitoy manufakturasining, Xitoy shahri va Xitoy ichki savdosining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, bu tadbirlarning hammasi Xitoyning orqada qolishiga hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi rivojlanmay qolishiga olib keldi, oqibat natijada xalq ummasining ahvoli yomonlashib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti to'xtatib qo'yildi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Tan sulolasining tashqi siyosati qanday edi?
2. Min sulolasiga qarshi qanday qo'zg'olonlar ko'tarilgan?
3. Xitoy nima uchun mo'gullarga oson taslim bo'ldi?

## 10-MAVZU: YEVROPADA FEODAL MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTI

### REJA:

1. Sosoniylar hukmdorligi va uning ijtimoiy tarkibi.
2. Zardushtiylik davlat dini. Moniylik va uning ijtimoiy mohiyati.
3. III–IV asrlarda Sosoniylar tashqi siyosati. V asr oxirida siyosiy vaziyat. Mazdakiylar harakati.
4. Xusrav I islohotlari. Xusrav I ning tashqi siyosati.
5. VI asr oxiri – VII asr boshlarida Sosoniylar davlatining tushkunlikka yuz tutishi. Eronning arablar tomonidan istilo etilishi.
6. XVI–XVII asrlarda Eron.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** Sosoniylar, Isfaxon qoʻzgʻoloni, Ismoil, Eron madaniyati.

**Sosoniylar hukmdorligi va uning ijtimoiy tarkibi.** III asrda (226-yili) parchalangan Parfiya imperiyasi oʻrnini Sosoniylar davlati egaladi. Uning tarkibiga Eronning bepoyon hududlari, Mesopotamiya, Hindiston, Sharqiy Yassi togʻ rayonlari kirardi. Garbiy hududlar ancha yuqoriroq madaniy darajaga erishdi. Aholi tarkibi ham ancha quroq edi. Avvalgi jamoa bu paytda alohida mulk boʻlgan hududlar soni 240 ta edi. Faqat forsdan qarindosh qabilalar bir elat boʻlib birlashgan edi.

Sosoniylar imperiyasining asosiy aholisi sunʼiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik bilan mashgʻul edi. Togʻli rayonlarda koʻchmanchi chorvadorlar yashardi. Shaharlarning asosiy qismi mamlakatning gʻarbiy qismida joylashgan edi. Ularning eng kattasi poytaxt Ktesifon edi. Sosoniy shaharlari oʻz hunarmandchilik mahsulotlari bilan dunyoga nom taratganlar (ajoyib gazlama, qurollar). Erondan buyuk ipak yoʻli oʻtgan edi.

Qullar garovga berilgan yoki sotilgan, uning oʻrtacha narxi 500 dirham boʻlgan. Jinoiy ishlar uchun ozod kishi qullikka berilgan. Erkinlikka chiqarishning murakkab usullari mavjud edi. Qullar maʼlum shartlar asosida mulkka ega boʻlishlari, shartnomalar tuzishlari mumkin edi. «Qisman ozodlikka chiqish» sistemasini mavjud bulib, unga asosan, qul oʻzi ishlab chiqargan mahsulotning maʼlum qismini olgan. Qullarning

bu qismi jamoaga tegishli edi.

Qo'l mehnatidan, asosan, irrigatsiya va ziroat ishlarida foydalanilgan. Qishloq xo'jaligida ulardan foydalanish asta-sekin kamayib borgan (zirotda intensiv usullardan foydalanish kerak edi). Yuqori tabaqa feodalizatsiyaning yangi shakllarini qidira boshlagan.

Manbalarda mulkning dastkard degan shakli ko'p tilga olingan. Unda qul yerga biriktirilgan, qul yersiz sotilmasdi.

Dastkardlar yirik, o'rtacha mulkdorlar va jamoalarga tegishli bo'lgan. Eng yirik yer egalari – shahanshoh, aristokratiya, ruhoniylar bo'lgan. Yuqori tabaqa «qisman ozodlikka chiqarish» sistemasini qo'llay boshlagan. Ishlab chiqaruvchilar uchun eng o'gir, azob-uqubatli ozodlik shartlari majud edi. Jamoalarda kartina yengilroq bo'lib, erkin jamoa a'zosi intensiv yo'lga tezroq o'ta boshlagan.

Mehnat unumdorligi oshuvi bilan davlat apparatiga suyangan yuqori hukmron tabaqa dehqonlar soliqlari va majburiyatlarini oshira boshlagan. Erkin jamoa a'zolari ham asta-sekin majburiyat o'tovchi tabaqaga aylantirilgan.

III–V asrda Eron aristokratiyasi asta-sekin o'z jamoalari bilan aloqalarini uza boshlagan. Bu vazifani amalga oshirish ancha mushkul edi. Dunya qadar uzoq vaqt mobaynida jamoa a'zolari an'anaviy patriarxal majburiyatlarini o'taganlar (harbiy jamoa manfaatlarini uchun ishlash).

V asrning 2-yarmiga kelibgina yuqori tabaqa har tomonlama soliqlar sistemasini ishga soldi: harag (eron dehqonlari yetishiriladigan mahsulotdan solig) va gezit (jon boshiga solinadigan soliq, o'lpon) shular jumlasidandir. Shu bilan bir vaqtda eski soliqlar va majburiyatlar saqlanib qolavergan, soliqlar, asosan, natura holatida olingan.

Jamoani ezish kuchaya borganiga qaramay, Eron dehqoni shaxsan ozod deb hisoblanavergan. Qishloqda ko'p oilada urug'chilik hali muhim ro'l o'ynardi. Lekin qishloqning eng xarakterli belgisi endi qo'ldagi jamoa bo'lib, ko'p oilaviy jamoa parchalanuvi davom etavergan, shu jarayon bilan bog'liq ravishda katxudo atamasining mazmuni o'zgargan. U dastlab ko'p oila jamoa boshlig'ini, keyinroq oqsoqolni (starosta) anglatgan, oqsoqol ma'muriy va moliyaviy vazifalarni bajarib, sun'iy sug'orish sistemasi, ya'ni yerlar ochishga javobgar edi. Oqsoqol asta-sekin jamoa qullariga egalik huquqini ham qo'lga olgan. Eronning ba'zi qoloqroq rayonlarida katta amaliy jamoa VII asrdan keyin ham yashayvergan.

IV–V asrlarda jamoa a'zolari orasida mulkiy tabaqalanish jarayoni ancha chuqurlashgan, lekin u tugamagan va huquqiy jihatdan rasmiy-

lashtirilmagan. Ozod soʻzi jamoaning erkin aʼzosiga nisbatan qoʻllangan. Bu soʻz endi koʻproq oʻziga toʻq, mustaqil urushga ot minib kira oladigan kishini anglata boshlagan. V asrga kelib bu atama katxudo va dehqonga nisbagan ham qoʻllangan. Dehqon toʻla huquqli yer egasi, ozod, erkin jangchi boʻlgan. Dehqonlar yerda oila aʼzolari va qullar bilan ishlaganlar. Eron jamoachilariga nisbatan eronlik boʻlmaganlar ogirroq holatda yashaganlar, ayovsiz ekspluatatsiyaga duchor boʻlganlar.

Aholining uncha koʻp boʻlmagan qismini hunarmandlar tashkil etgan. Ularda mehnat taqsimoti ancha takomillashgan. Manbalarda hunarmandlar tashkiloti haqida koʻplab maʼlumotlar mavjud.

Shuni qayd etish lozimki, sosoniylar davlatida hunarmandlar hazar qilinadigan darajada turganlar, Bu soha jamiyatning erkin aʼzosi uchun nomunosib hisoblangan. Hunarmandchilikning barcha mahsuloti davlat ixtiyoriga oʻtardi. Sosoniylar davlati shaharlardagi barcha hunarmandlar va savdogarlarning asosiy qismi eronlik boʻlganlar edi, IV–V asrlarda jamoaning xonavayron boʻlishi oqibatida ular tarkibida eronliklar koʻpaygan.

Podshohlikning barcha erkin aholisi dastlab 3, keyinroq 4 tabaqaga boʻlingan. Dastlabki 3 tabaqaga hukmron sinf: jangchilar, ruhoniylar, kotiblar (chinovniklar), toʻrtinchi majburiyat oʻtovchi tabaqaga dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar kirgan. Quyi tabaqadan yuqorisiga oʻtish amalda mumkin emas edi.

III–V asrlarda mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy hukmronlik eski aristokratiya – aʼyonlar qoʻlida edi. Mamlakat iqtisodiyoti asosini yirik yer egaligi va bosib olingan yerlarni talash tashkil etardi.

**Davlat tashkiloti.** III asr boshlarida mashhur Sosoniylar urugʻi vakili Ardasher butun fors, markaziy Eron, fors gʻarbidagi Xuzistonni oʻz hukmronligi ostiga oldi. 226-yili u davlat boshligʻi deb eʼlon qilindi. Sosoniylar sulolasiga asos solgan Ardasher 241-yilga qadar hukmronlik qilgan. Dastlabki sosoniylar eski Parfiya zodagonlari bilan uzoq kurash olib borganlar. Ardasherlar yangi maʼmuriy boʻlinishga asos solgan, oqibatda, urugʻ va jamoalar tarkibi buzilib ketgan. Zodagonlarning oʻz jamoalari bilan aloqalari uzib tashlangan. Oʻz jamoasi bilan aloqasi zaifroq boʻlgan aristokratiya Ardasherni qoʻllab, Sosoniylar gʻalabasi-ga koʻmaklashgan.

Davlat boshligʻi shahanshoh boʻlgan. Merosiylikning qatʼiy tartibi boʻlmagan, lekin hukmdor, albatta, Sosoniylar urugʻidan boʻlishi shart edi. U hayot chogʻidayoq oʻziga maʼqul shahzodani tayinlashga harakat qilardi. Koʻpincha saylov turli guruhlar oʻrtasida nizo tugʻdirardi.

Ma'muriy apparat boshlig'i vazir (buyuk boshqruvchilar) bo'lgan. Uning majburiyatlar doirasi hali aniq belgilanmagan edi, chunki keng turmoqli boshqaruv tizimi vujudga kelmagan edi.

Markaziy hukumatning ko'proq diqqat-e'tibori moliya, armiya va irrigatsiyaga qaratilgan. Moliya boshqarmasi soliq yigish va jamoalar bilan mashg'ul bo'lgan.

Viloyatlarni boshqaruv Sosoniylardan uysingan mahalliy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular ma'lum darajadagi mustaqillikni saqlab qolgan edilar. Davlatning asosiy hududi bo'lsa shahansho tomonidan belgilangan, vakillar tomonidan tasarruf etilgan. O'ta muhim, ayniqsa, Markaziy Osiyo bilan chegeradosh viloyatlarda gubernator shahanshoh urug'idan bo'lardi.

IV asrga qadar Sosoniylar armiyasi faqat xalq lashkarlari va ittifoqdosh qabilalar yordamchi otryadlaridan iborat edi, ularning asosiy qismi otliq chavandozlar edi. Piyodalardan qo'shimcha qism sifatida foydalanilgan, harbiy aristokratiya vakillari qo'shimcha boshchilik qilganlar va alohida o'ta muhim ritsarlar otryadlarini tashkil etganlar (ritsarlar ularning o'zi).

**Zardushtiylik davlat dini.** Sosoniylar imperiyasini mustahkamlashda davlat dini – zardushtiylik o'ziga xos o'rin tutgan. Faqat sosoniylar davriga kelibgina zardushtiylik din sifatida to'la shakllanib bo'ldi. Sosoniylar davri zardushtiyliги asosida dualistik g'oya – zulmat va yurug'lik kuchlari o'rtasidaga kurash masalasi yotadi. (PS: bu davrda afsonaviy payg'ambar Zaratushtraning «Avesto»da yozilgan fikrlari doirasidan ancha chetga chiqib ketgan edi). Murakkab va detallashgan ravishda ishlab chiqqan hududlar (Axuramazda, Axriman Anaxez, Zrvana) va tabiat kuchlariga (quyosh, olov, yulduzlar) sig'inish juda ko'psonli ruhoniylar – harbod va mobadlar tomonidan amalga oshirilgan.

O'chmas olov yoqib qo'yilgan yuzlab ibodatxonalarda ibodat qilganlar, qo'shiq aytilgan, muqaddas yozuvlardagi matnlar o'qilgan.

Zardushtiylik ibodatxonalari, harbod va mobadlar, asosan, qullar tomonidan ishlanadigan katta yer mulklarga ega edilar. Ularga katta in'omlar kelgan, bundan tashqari, aholidan bajarilgan marosim uchun haq olingan. Din qoidalarini bajarmaslik ko'pdan ko'p jarimaga sabab bo'lardi.

Zardushtiy ruhoniylarning yuqori qatlami siyosiy hayotda muhim rol o'ynagan. Ular qo'lida ta'lim sistemasi va sud bo'lib, xalqning butun hayoti qat'iy nazorat ostida edi. Shu sababli ham o'sha davrdagi ijtimoiy norozilik dahriylik libosi ostida bo'lardi. Ular orasida eng muhimlari – moniylik va mazdaxizm edi.



**Moniylik va uning ijtimoiy mohiyati.** Bu ta'limot asoschisi Moniy 215-yili Bobilda tug'ilgan va o'z targ'ibotini 242-yili Ktesifonda boshlagan. Moniylikning asosiy g'oyasi zardushtiylikdagi kabi dualistik g'oya bo'lib, ikki ibtido – yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik mavjudligini tan olardi. Zardushtiy ruhoniylari sosoniylar imperiyasidagi tartib-qoidalarini yorug'lik tashkil etish timsoli sifatida targ'ib qilardilar. Moniy ta'limoti bo'yicha, dunyoviy hayot va unda yashovchi kishilar yovuzlik timsolidir, yovuzlikdan xalos bo'lishning asosiy yo'li inson ruhining barcha moddiy, dunyoviylikdan ozod qilishidir. Yorug'likni ozod etish, zulmatni bartaraf etishning yagona yo'li bu dunyo halokatidir. Inson o'z hayoti, yurish-turishi bilan atrof olamdagi mavjud yorug'lik zarrachalarini ozod qilmog'i lozim. Shunday hayot bilan u yorug'likka qarshi kurashadi. Shu sababli inson go'sht yemasligi, axloqan pok hayot kechirishi lozim, «tanlanganlar bo'lsa nikohga kirmasligi», go'sht yemasligi, o'simliklarni uzmasligi darkor. Moniy fikri bo'yicha, yangi ta'limot universal din bo'lishi kerak edi, shu sababli u o'ziga ma'lum dinlardagi urf-odatlarinig tashqi shakllarini o'zlashtirib olavergan.

Moniychilar asketizmni boylik, aysh-ishratga, zulmga qarshi qo'yganlar. Mavjud dunyoga bo'lgan salbiy munosabat jamiyatni o'zgartirishi uchun biror-bir talab bilan chiqish imkonini bermagan. Erkin kishilarning xo'rlanishi, quldorlik tizimi qoldiqlari, barcha ijtimoiy tafovutlarning keskinlashuvi bu ta'limotga umidsizlik, chorasiz, pessimizm ruhini singdirgan edi. Xalq ommasining keng tabaqalari yuqori sinfga bo'lgan nafrati tufayli moniychilarga va ularning g'oyalariga hamdard edilar.

Dastlab, Sosoniylar moniylik tarqaluviga uncha e'tibor bermaganlar. Ular ta'limotining davlatga, dinga qarshi ruhi sezilgachgina unga qarshi qattiq targ'ib boshlangan. Moniy zindonga solingan, 276-yili qatl etilgan. O'z tarfdorlari yashirinishga majbur bo'lib, ko'proq Vizantiyaga ketganlar, u yerda ham moniylik tarqalgan, boshqa shakllarga kirib xristianlikka ta'sir o'tkazgan.

Moniylik ta'siri o'rta asrda juda kuchli bo'lgan, u ko'p sekta va yeraslarga singib ketgan.

(Armanistonda – tondrakitlar, butun Yevropada – albigoylar, Bolgariyada – bogomillar va h.k.)

So'g'd shaharlarida keng tarqalgan moniylik Sharqiy Turkiston va Xitoyga ham kirib borgan.

Eronda moniylik yashirin tarzda yashab, hayotning barcha jabha-

lariga ta'sir o'tkazgan. Shunga qaramay, u ezilganlarning kurash bayrog'iga aylana olmadi. Chunki u yangi qullar (quldorlik o'rniga kelgan) talabiga javob berolmasdi (pessimizm tufayli).

III–IV asrlarda Eron hukmdorlari Rim orqasida ittifoqchilarga ega bo'lish maqsadida xristianlarga boshpana beraverardilar. Xristianlik dushman Rimning davlat diniga aylangach (imperator Konstantin davrida) ular Eronda ta'qib etila boshlagan, Rimga oppozitsiyada bo'lgan oqimlar qo'llangan.

**III–IV asrlarda Sosoniylar tashqi siyosati.** Dastlabki asrlarda davlat tashqi siyosati ko'proq quldor zodagonlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlari bilan bog'liq edi. Quldorlikka asoslangan xo'jaliklarni ushlab turishining asosiy sharti urush va ko'proq qulga ega bo'lish edi.

Ardasherlar avval partiya qo'lida bo'lgan barcha viloyatlarni qo'lga kiritdi, qo'shinlar Rim Mesopotamiyasi, Suriya va Kichik Osiyoga kirib borganlar. Qudratli Kushon imperiyasi zaiflashib borayotgan sharqda sosoniylar Xuroson va Marv vohasida mustahkamlanib oldilar. Forslar Mesopotamiya va Armaniston uchun Rim bilan shiddatli kurashda yaqqol uslubga ega edilar.

Shopur I (242–272) davrida bu kurash 260-yili rimliklarning majalimuvvi bilan yakunlandi. Imperator Valerian bilan birgalikda asirga olingan Rim zodagonlari qullikka solingan (Edessa yaqinida. Ular ko'chi bilan Qorun daryosida Eronda Bandi Kaysar (Sezar dambasi) nomi bilan mashhur ulkan plotina va irrigatsiya inshootlari qurishgan.

Bundan tashqari, Shopur I Kavkazortida ham o'z pozitsiyalarini ancha mustahkamlagan. 30-yillarda topilgan yozuvlarda ko'rsatilishicha, O'rta Osiyoda yurgan Shopur I Chochga qadar yetib borgan. III va keyinroq, V asrda sosoniylarning sharqdagi sarhadlari Marv vohasi, Hirot va Sakiston sharqidagi tog'li rayonlargacha bo'lgan.

283-yili Mesopotamiyaga yurish forslar uchun foydali bo'lmagan shartnoma bilan yakunlandi, oqibatda, Eron Armaniston ustidan nazoratni yo'qotdi (hozirgi Armaniston emas, balki Turkiya sharqiy Suriya va Iroq shimolida joylashgan Armaniston).

Bu muvaffaqiyatsizlik sharqda O'rta Osiyo kabilalar ko'targan qo'zg'olon tufayli yanada murakkablashgan.

Rim bilan Armaniston uchun nizo 359-yili urush harakatlariga aylandi. Urush, asosan, Shimoliy Mesopotamiya va Kichik Osiyo sharqida bo'lgan. Shopur II (310–379) rimliklarning mudofaasi asosi bo'lgan qator qal'alarni egallab olgan. 363-yili Rim legionerlari imperator Yulian boshchiligida Eron hududiga kirib kelib, dastlab kichik-kichik yutu-

qlarga erishdi, lekin umuman olganda, mag'lubiyatga uchradi. 371-yili yana Rim bilan 5 yil davom etgan urush boshlandi. IV asr oxirida ikkala imperiya Armanistonni bo'lib olishdi, uning taxminan 4/5 qismi Sosoniylarga, qolgan qismi Sharqiy Rim imperiyasiga, Vizantiyaga o'tdi.

Ikki imperiya o'rtasidagi urushning to'xtashi ularda ichki siyosatdagi qiyinchiliklar, ularga varvarlar hujumi, qo'zg'olonlar bilan bog'liq edi. IV asrda Eron jamiyatida yuz bergan ijtimoiy kurash Sosoniylar tashqi siyosatida ham aks etgan.

**V asr oxirida siyosiy vaziyat.** Xalq ommasini haddan tashqari ezish jamoachilar xo'jaligida og'ir iz qoldirdi. Bahrom 5 Gur (421–439) davrida Eronda juda ko'p dehqonlarning ish hayvonlari, qurollari, urug'lari yo'q edi. Xonavayron bo'lgan jamoa a'zolari yerlarni tashlab ketib, hazar qilinadigan hunarmandchilik va boshqa kasblar bilan mashg'ul bo'lganlar, ko'pincha daydilarga aylanganlar. Viloyatlar hukmdorlari Bahrom 5 ga juda ko'p arznomalar yozganlar. Qishloqlar huvillab qolgan, hayvonlar egasiz sang'ib yurgan, dalalarni o't-o'lanlar bosib ketgan. Dehqon xo'jaligining bir qismi xonavayron bo'lishi oqibatida mamlakat iqtisodiyoti zaiflashdi, irrigatsiya sistemasi ancha buzildi, tez-tez ochlik yuz berib turdi.

Feruz (459–484) shohlighi davrida «7 yil hosil yaxshi bo'lmadi, daryolar quridi, hayvonlar oriqladi, mamlakat aholisi turli g'am-tashvishlarga botdi...» Ziroatda ishlab chiqarish kuchlari rivoji zaiflashdi. Oqibatda, IV asr oxiri – V asrda keng xalq harakatlari yuz berdi, ular orasida mazdakiylar harakati ijobiy xususiyatga ega edi.

Dehqonlarga emas, bu holatdan ozodlar ham norozi bo'lib, ular yuqori fuqaroviy va harbiy mansabga erisha olmasdilar.

Shu sababli V asrda ozodlar dehqonlar bilan birga bosh ko'tara boshlaganlar. Aynan ozodlar quldorlarga qarshi siyosiy hukmronlik uchun kurash boshladilar. Shahansohlar ko'proq ozodlar va dehqonlarga tayana boshlaganlar, ular feodalizm vakillari edilar.

Ardasher II (379–383) Eron dehqonlarini (mehnatkash) 10 yilga soliqlardan ozod qilish to'grisida farmon chiqarganda zodagonlar uni taxtdan ag'darib tashlaganlar.

Yazdigard 1 (399–420) ma'lum darajada a'yonlar va ruhoniylar siyosiy ta'sirini cheklashga erishib, repressiyalar orqali ular kuchini ancha sindirgan. Forsdagi ular kurashini shafqatsizlik bilan bostirgan. Lekin u ham o'zi olib borgan siyosat qurboni bo'lgan. Uning o'gli Bahrom V taxtga o'tirish marosimida otasi siyosatini ta'qib qilgan, u butunlay mashhur zodagonlar ta'sirida bo'lgan.

Sosoniylar imperiyasi zaiflashgan sari uning hududiga Kavkazorti va Markaziy Osiyodan hujumlar kuchaygan. Vaqti-vaqti bilan sosoniylar bu hujumlarni qaytarib, hatto qarshi hujumga o'tib turganlar, lekin V asrning ikkinchi yarmida vaziyat keskin o'zgargan. Ichki vaziyat va turli hujumlar mamlakatni qaqshatgan. Shahansoh Feruz mag'lubiyatga uchragan. Birinchi martasida u Eftalitlarga katta kontributsiya to'lashga, to'lov tugaguncha ular qo'lida o'g'li Qubotni garov tariqasida qoldirishga majbur bo'lgan. Ikkinchi martasida lashkarlari to'la mag'lub bo'lgan, Feruzning o'zi o'ldirilgan. Eftalitlar «oq xunlar» turmush tartibida harbiy qabilachilik demokratiyasi an'analari kuchli edi. Eftalitlarning boshliqlari o'zlarini «birgalikda o'ladiganlar» deb atalgan kishilar bilan kurshab o'lardilar, bu kishilar ularning taomi, turmishi va jangdagi sherik o'rtoqlari bo'lib, boshliqlari o'lganda ular bilan birga narigi dunyoga ketardilar. Eftalitlar 427-yildan 487-yilgacha O'rta Osiyo davlatlarini qulatganlar. Vaxshunvor boshchiligida 457-yili Badaxshon va Balxni egallaganlar. Eronga birinchi zarba 479-yili berilgan, 484-yilgi jangda Feruz o'ldirilgan, shu davrdan etiboran Eron eftalitlarga o'lpon to'lashga majbur etilgan.

Harbiy jihatdan mag'lub etilgan, aholisi och, mamlakatda xalq qo'zg'olonlari boshlangan. Mamlakat shimoli-garbida ko'tarilgan 483-484-yillardagi qo'zg'olon zo'rga bostirilgan. Hukmron sinf uchun eng xavfli o'sha davr G'arbiy Osiyo tarixida muhim iz qoldirgan mazdakchilar harakati edi.

**Mazdakiylar harakati.** Mazdakiylikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xonavayron bo'lgan jamoatchi dehqonlar hamda eroniy hunarmandlar edi. Harakatga unga vaqtincha qo'shilgan ozodlar va dehqonlar ham katta yordam berganlar. O'tkir ijtimoiy kurash Eron tarkibiga kiritilgan xalq va qabilalarni ham harakatga keltirgan, lekin mazdakiylik, asosan, Eron aholisi harakati edi.

488-yili Mazdak tomonidan ilgari surilgan diniy-falsafiy ta'limot moniylik va zardushtiylik bilan mustahkam aloqada edi. Mazdakiylikning moniylikdan prinsipial farqi yorug'likning zulmat, yaxshilikning yomonlik ustidan g'olib chiqishiga bo'lgan qat'iy ishonch edi. Bu g'alaba narigi dunyoda emas, bu dunyoda sodir bo'ladi. Yorug'lik kuchlari ongli ravishda, yomonlik kuchlari ongsiz, stixiyali ravishda g'alabaga ko'maklashuvi kerak. Yerda yomonlik ildizini quritish mumkin, yaxshilik va yomonlik timsoli mulkiy tengsizlikda yaqqol ko'rinib turibdi. Aynan u birinchi navbatda yo'q qilinmog'i darkor.

Mazdakiylik passiv ta'limot emas, u sinfiy zulmga qarshi qaratilgan.

Mazdakiylik talabi: mulkni qayta taqsimlash, bu sohada tenglik o'rnatish, huquqiy tenglik. 4 «Z» – zamin, zar, zo'r, zan hammaga teng bo'lishi kerak.

Programmadan: «Agar kimdandir ortiqcha mulk, xotin, qul bo'lsa, biz uni tortib olib, hammaga teng taqsimlaymiz, hech kimning boshqalardan ortiq mulkga da'vogarlik qilishga haqi yo'q». Mazdakiylar programmani oshira borib, zodagonlar yer mulklarini tortib olganlar va uni o'zaro bo'lishganlar. Tortib olingan yer jamoa mulkiga qo'shib olingan. Qullar, inventar, ish hayvonlari, don zaxiralari jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlangan.

Bu harakatdan yuqori tabaqa vakillari, hatto shahansoh Qubod I foydalanib qolishga harakat qilishgan. Qubod shu yo'l bilan zodagonlar qudratini sindirishga uringan edi. U armiyaning asosini tashkil etgan ozodlar va dehqonlar kayfiyati bilan ham hisoblashishga majbur edi.

496-yili zodagonlar Qubodni qo'lga olib, zindonga solganlar, 3 yildan so'nggina u eftalitlar yordamida ozodlikga chiqib, Taxtga o'tirgan.

Shundan so'ng, mazdakiylar shoh yordamida orzularini amalga oshirib bo'lganlar. Harakat rahbarlaridan anchasi muhim davlat mansablarini egallaganlar. Mazdak davlatdagi eng muhim shaxslardan biriga aylandi. Aynan shu davrda Eron Vizantiyaga qarshi muvaffaqiyatli urishdi (502–506), ko'chmanchilar hujumini qaytardi, Qator yangi shaharlarga asos solindi, kanallar qazildi.

Mazdakiylar eski davlat ijtimoiy asoslariga – quldorlar, zodagonlarga qarshi kurashdilar. Ular kasta va tabaqalar tugatiladi deb e'lon qildilar.

Eroniyalar «haqiqiy e'tiqod qiluvchilar» (mazdakiylar) va uning dushmanlari tabaqalariga bo'lindi. Ular ta'limoti bo'yicha qon to'kish mutlaqo mumkin emasdi. Shunga qaramay, mazdak harakatining raqiblari qarshilik ko'rsatgudek bo'lsalar, ularni o'ldirishga ruxsat berilgan. Quldor zodagonlarning katta qismi qirib tashlandi. Ularning iqtisodiy qudratiga zarba berildi, kastaviy-tabaqaviy imtiyozlari bekor qilindi.

Mazdakiylar harakati birinchi navbatda yirik zodagonlarga qarshi qaratilgan edi. Harakatdan keladigan asosiy foyda ozodlar va dehqonlar hissasiga to'g'ri keldi.

Biroq harakat davomida ijtimoiy kurash jamoa ichida ham rivojlanib ketdi. Barcha jamoa a'zolarining teng huquqligi ozodlar g'azabini qozg'adi. Shu sababli ham, ulardan iborat armiya harakat dushanlari lageriga o'ta boshladi. Shu bilan birga, Qubotning ham pozitsiyasi

oʻzgarib, u ruhoniylar va zodagonlar bilan kelishuv yoʻliga oʻtdi, chunki ular endi shahansoh uchun xavfli boʻlmay qolgan edilar.

Harakatdan ozodlar va dehqonlarning chiqib ketishi uni ancha zaiflashtirib qoʻydi. Dehqonlar otryadlari biroz gʻalabadan keyinroq uy-uyulariga tarqalib ketardilar. Harakat muvaffaqiyatsizlikka uchray boshladi.

Qubod vaziyatdan foydalanib mazdakiylar bilan bogʻliq amaldor va maslahatchilarni lavozimlaridan chetlatgan, keyinroq ular quvgʻin ostiga olingan. Bu ishga zardushtiylar va mazdakiylar boshligʻi oʻrtasidagi bahs, disput signal boʻlib xizmat qilgan. (Uni ataylab shahansohning oʻzi uyushtirgan edi).

529-yili harakat magʻlub etildi. Lekin mazdakiylar shiorlari xalq orasida uzoq vaqtgacha yashab qolaverdi.

VIII asr boshlarida Xorazmdagi Xurzod harakati VIII asr oxirida Oʻrta Osiyodagi Muqanna harakati, IX asrda Ozarbijon va Erondagi Bobak harakatlarida mazdakiylik gʻoyalari yaqqol koʻrinib turardi.

**Xusrav I islohotlari.** Xalq harakati hukmron sinfga eski boshqaruv usulini saqlab qolish mumkin emasligini koʻrsatdi. Shu sababli ham, «Oʻlmas» nomini olgan yangi sasoniy shahansohi Xusrav I Anushirvon (531–579) feodalizm rivoji va mustahkamlanishiga turtki bergan islohotlarni oʻtkazishga majbur etildi.

Xalq harakati paytida bosib olingan yerlarning katta qismi konfisksiya qilinib, davlat yer fondiga kiritildi. «Hukmronlik aniq koʻrinib turibdi, mulk manbasi esa shubhali» – Sasoniylar qonunnomasi moddalaridan biri.

Mazdakiylarning tor-mor keltirgani uchun hukmron tabaqalar unga «Oʻlmas» laqabini berdilar. Xusravning oʻzi ham mazdakiylar harakatidan birmuncha saboq oldi. Soliq sistemasidagi oʻtaketgan adolatsizlikni yoʻqotish maqsadida uni qayta koʻrib chiqish zarurligini tushundi.

Uning buyrugʻi bilan hamma yerlar yangitdan roʻyxatga olindi, kadastrlar tuzildi. Bunda tuproqning sifati, sugʻorish, qanday ekinlar ekilishi, daraxtlar va ish kuchining miqdori aniq hisobga olindi. Moliya amaldorlari, mirzalar yerlardan olinadigan hosilni tubdan tekshirib chiqib, har yili hosilga qarab soliq miqdorini belgilaydigan boʻldilar. Jon soligʻi ham yiliga bir marta, muayyan miqdorda olinadigan boʻldi. Ruhoniylar, amaldorlar va askarlar jon soligʻidan butunlay ozod qilindi, lekin ular maʼlum miqdorda yer soligʻi toʻlab turadigan boʻlishdi.

Xusrav I savdogar va sudxoʻrlarni davlat moliya boʻlimiga bajonudil xizmatga olib, ularning pul muomalasi sohasidagi amaliy tajribasi-

dan foydalandi. Xusrav I zamonasida kanal, damba, to'g'onlar va boshqa xil inshootlar qurilishi avj oldi. Ktesifonda u muhtasham bir saroy qurdirdi. U turli olimlarga, hatto Yustinian tomonidan Vizantiyadan haydalgan neoplatonchi filosoflarga ham homiylik qildi.

Uning buyrug'i bilan eng rasmiy voqealar saroyda rasmiy suratda yilma-yil yozib borildi. Grek, Suriya va Hind tilidagi adabiy asarlar tarjima qilindi. «Ming ertak» nomli asar ham Xusrav zamonida paydo bo'lgan deb faraz qilinadi; bu to'plam keyincha Arabcha «Ming bir kecha»ga asos bo'ldi.

**Xusrav I ning tashqi siyosati.** Xusrav I podsohlik qilgan butun davr qo'shni xalqlarga qarshi urush olib borish bilan o'tdi. U o'z podsohligining dastlabki davrida Yustinian I bilan «abadiy tinchlik» to'grisida ahdnoma tuzgan edi (532). Lekin vaziyatning keskinlashib ketishidan qo'rqib, 540-yilda ahdnomani buzdi va Suriya, Antioxiyani bosib olib, talovga soldi. Antioxiya aholisini asir olib ketib, Ktesifon («Xisrav Antioxiyasi») atrofiga joylashtirdi. So'ngra urush Mesopotamiya va Kavkazortida davom etdi. U to'xtab-to'xtab 562-yilgacha cho'zildi, nihoyat holdan toygan ikkala taraf 50 yillik sulh tuzdi, ikkala taraf o'z chegeralarini saqlab qoldi. Biroq 570-yilda Xisrav Yamanni bosib oldi. Bu narsa Eron va Vizantiya o'rtasida yana urush chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urush 20 yil davom etib, Xusrav o'lgandan keyin uning o'gli zamonida tugadi.

Sharqda Xusrav I O'rta Osiyo territoriyasida – Amudayo va Sirdaryo o'rtasida yashovchi turk qabilalari bilan urush olib bordi.

**VI asr oxiri – VII asr boshlarida Sosoniylar davlatining tushkunlikka yuz tutishi.** Xusrav o'lgandan so'ng hokimiyat tushkunlikka yuz tuta boshladi. Feodallashayotgan zodagonlar markazga yaxshi itoat etmadi. Viloyatlarning katta hokimlari Sosoniylarga qarshi uzluksiz qo'zg'olon ko'tarib turdi. 590-yilda Bahrom Cho'bin feodallar qo'zg'oloni uning eng kattasi bo'ldi. Qo'zg'olon Sosoniylarni ag'darishiga sal qoldi.

Shoh Xusrav II (610–628) Vizantiya imperatoridan yordam so'rab, ular qo'shini yordamida taxtni tiklab oldi. 591-yilgi Eron va Vizantiya sulhiga binoan Kavkazortidagi chegara polosasi Vizantiyaga o'tdi.

Bu davrda xonavayron bo'lgan dehqonlar harbiy xizmatni ham tuzukroq ado etmaydigan bo'lib qoldi.

Sosoniylar va feodallar ichki ziddiyatlarni tashqi urushlar yo'li bilan hal qilishga urindi. 600-yilda Vizantiya bilan yana urush boshlandi, lekin chekinildi. 613–620-yillarda Xusrav II Suriya, Falastin va

Misrni zabt etdi. Biroq 623-yildan boshlab Vizantiya imperatori Irakiyning o'zi hujumga o'tdi. 628-yilda ular qo'shni Sosoniylar poytaxti Ktesifonni bosib olish xavfini tug'dirdi. Mamlakatda shohdan norozilik kuchaya boshladi. Bundan foydalanib, zodagonlar Xusrav II ga qarshi fitna uyushtirdilar. Ular tomonidan shoh qilib ko'tarilgan Xusrav II ning o'g'li Qubod II otasi bilan urishib, uni asir oldi va qatl etishni buyurdi. Vizantiya bilan sulh tuzildi, unga muvofiq vizantiyaliklar qo'ldan ketgan yerlarini qaytarib oldilar.

**Eronning arablar tomonidan istilo etilishi.** VII asr o'talarida Eron yerlari hali juda ko'p edi (Eron, Armaniston, Mesopotamiya, Amudaryodagi vassal turk qabilalari va h.k.), lekin shunga qaramay u urushlar natijasida holdan toygan, o'z ichida feodal boshboshdoqligini boshdan kechirmoqda edi.

Oxirgi Sosoniy Yozdagir I (632–652) ning mamlakatda hech qanday obro'si yo'q edi. Bir nechta viloyatlar unga nomigagina bo'ysunardi. Bu vaqtda kuchli harbiy davlat bulan birlashib olgan arablar Eronga hujum boshlab, qarshilikka uchramay, tezda g'alaba qozondi. Ular Erondi haqiqatda 642-yildayoq bosib olgan edi. Yozdagir Sharqiy chekka o'lkalarga ko'chib ketdi 652-yilda Marvga yaqin joyda o'zi yordam so'rab borgan turk qabilalari boshlig'i tomonidan o'ldirildi. Eron uzoq vaqtgacha ko'p millatli juda katta Arab davlati tarkibida qoldi.

**XVI-XVII asrlarda Eron.** XVI asr boshlarida Eron bir qancha mustaqil feodal yerlariga bo'linib ketgan edi. Xuroson (poytaxti Hirot) temuriylar hokimiyati ostida edi. Sharqiy qismida bir-birlari bilan dushman turli turkman sulolalari hukmronlik qilardilar. Markaziy g'arbiy va Janubiy Eronning ayrim viloyatlari aslida mustaqil davlatlar edi. Shimoli-g'arbiy Eron va Janubiy Ozarbayjon savdo va sanoat jihatidan eng rivojlangan viloyatlar edi. Shu viloyatlardan Buyuk ipak yo'li o'tardi.

**Safaviylarning yo'qlanishi va safaviy davlatining xarakteri.** Yangi sulola o'z nomini shayx Sayfiddindan oldi (1254–1334), bu shayx XIV asrda Ozarbayjonda «Safaviya» nomli musulmonlar jamoasiga boshchilik qilgan edi. Ular shia mazhabiga mansubdir. XV asrning ikkinchi yarmida ular Ozarbayjonda turkman xonlariga qarshi hokimiyat uchun kurash boshladilar. 1499-yili ularning shayxi Ismoil Safaviy Janubiy Ozarbayjonnig egallab, 1502-yilda Tabrizni ishg'ol qildi va Eron sohiga aylandi. 1502–1524-yillarda Tabriz davlatining poytaxti edi. Armaniston, Kurdiston, Bog'dod va Mesopotamiya egallandi. Ismoil davrida 100 yildan ko'proq davom etgan Eron – Turkiya urishi boshlanib ketdi. Bu urush XVII asr 30-yillarining oxirigacha davom



etdi. Turk sultoni Salim I Kavkazorti, Kurdiston va Mesopotamiyaga da'vogar edi. 1514-yili turklar Tabrizni egalladilar. Lekin oziq-ovqat yetishmovchiligi, yanicharlar orasidagi g'alayon ularni Eron viloyatlarini tashlab chiqishga majbur etdi.

O'z hukmronligining oxirida Ismoil Gruziani, so'ngra butun Shirvon xonligini (shimoliy Ozarbijon) bo'ysundirdi. Markaziy Ozarbijonda fors, ozar, turk, tojik, kurd, arab xalqlaridan iborat katta davlat barpo etildi. Safaviylarning davlati aholisining 1/3 qismi ko'chmanchilar edi. (1510. Shayboniy. Bobur. Xonzoda)

**Abbos I ning urushlari. (1587–1629).** Abbas o'z yukmronligini mustaqil viloyatlarni birlashtirishdan boshladi. Abbas davriga kelib safaviylar eronliklar bilan juda yaqinlashib ketdilar. Poytaxt shimoldan janubga – Tabrizdan Isfaxonga ko'chirildi. Abbas Turkiya bilan urush uchun 24 ming kishilik muntazam armiya tuzdi, ulardan 10 ming kishilik g'ulomlar turk yanicharlariga o'xshardi (yanicharlar piyoda va otliq g'ulomlar edi), chunki ular ham xristian aholidan, asosan, gruzin va armanilardan tortib olingan bolalardan tashkil topgan edi. Ular musulmonlarga aylantirilib, fanatik ruhda tarbiya ko'rgan edilar. Abbas ingliz instruktorlari vositasida armiyasida o'q otuvchi qurol va to'plarni joriy qildi. U feodallar lashkarlaridan ham foydalangan. Umuman, Abbasda 120 ming kishilik armiya bo'lib, u 1602-yili Turk sultoniga qarshi urush boshladi. 1612-yilgi sulhga binoan, Eron XVI asrning 90-yillari boshida Turkiyaga bergan deyarli hamma viloyatlarini qaytarib oldi (Gruziya, Armaniston, Ozarbijon, Kurdiston, Mesopotamiya). Bu urush Eron g'alabasi bilan tugadi. Abbas Xuroson va Afg'onistonning katta qismini o'z yeriga qo'shib oldi. 1622-yili Abbas qo'shinlari fors qo'ltig'idagi Ormus portidan Portugaliyaliklarni haydab chiqardi, bunga yordam bergan inglizlar Ost-Indiya kompaniyasi uchun bojsiz savdo qilish huquqini oldilar. Keyinchalik Eron hukumati Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasiga ham ko'pgina savdo imtiyozlari berdi.

**Eronning iqtisodiy taraqqiyoti va Safaviylar davlatidagi ichki siyosat.** Rim Papasi huzuriga juda ko'p elchilar borib turardi. Isfaxonda Yevropa va Osiyo elchilari qabul qilinardi.

Shoh o'zi tashqi savdoda faol qatnashib, ipak, sovun, gilam, tuz va shu singlarlarni o'z monopliyasi deb e'lon qildi. Ichki savdo ham rivojlandi. Eski karvon yo'llari ta'mirlandi, yangilari ochildi, karvonsaroylar qurildi, yo'llar qo'riqlandi (Isfaxon aholisi 500 ming kishi edi).

Markazlashgan safaviylar davlatining amaldorlari, katta doimiy armiyasi, saroy juda katta xarajatlarini talab qilardi. Shoh xonadoniga

qarashli yerlar tarkibiga kiruvchi chek yerlar yoki chek yeri **tiyo'l** yoki mulk deb ataladi. Yerning bir qismi bo'lishidan yoki dehqon vaqf yerlarining bir uchastkasiga ega bo'lishidan qat'i nazar hosilning deyarli hammasini yer egasiga topshirishi kerak edi. Dehqonda yaxshi hosilning 1/5 yoki 1/4 qismi qolardi, xolos.

Yer, suv, ish hayvoni uchun haq to'lanardi. Yersiz dehqonlar korandalik qilardilar. Eronning o'zida shohga qarshi Gelon, Lixijon, Resht shaharlarida 1829-yili qo'zg'olon ko'tarildi. Bu rayonlar ipakchilik markazlari edi.

Gruziya va Armanistonda ham ozodlik uchun kurash boshlanib ketdi.

Resht shahridan chiqqan qo'zg'olon boshlig'i Odil shoh nomini oldi. Qo'zg'olonchilar ipak zaxiralarini bo'lib oldilar. Lekin mahalliy feodallar qo'zg'olondan bosh tortish yo'liga o'tdilar.

Sabab: Abbasning vorisi yangi shoh Safiy I katta qo'shin bilan qo'zg'olonn bostirdi. Rahbarlar va Odil shoh qatl etildi. Aholiga katta to'lov solindi. Safiy I davrida (1629–1642) Eron o'z yerlarining katta qismidan ajradi. 1639-yili Mesopotamiya Turkiyaga o'tganligi rasmiy tan olindi, g'arbiy Armaniston ham Turkiya tarkibiga kiritildi. Sharqda Eronga qarshi o'zbek xonlari kurash boshladilar. Afgoniston Safaviylardan ozod bo'ldi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Sosoniylar davlatining qulash sabablari?
2. Isfaxon qo'zg'oloni sabablari?
3. Ismoilning qudrati nimada edi?

## 11-MAVZU: VI–XI ASRLARDA ARABLAR

### REJA:

1. Islomning paydo bo'lishidan ilgari arab xalqlari.
2. Islom dinining paydo bo'lishi, mohiyati va xalifalikning dastlabki yillardagi muvaffaqiyatlari.
3. Dastlabki xalifalik davrida arablarning istilolari. Ummaviylar xalifaligi.
4. Abbosiylar davrida xalifalikning iqtisodiy yuksalishi va parchalanib ketishi.
5. Qur'on va uning mazmuni. Arablar madaniyati.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** arab, Damashq, «baxtli Arabiston», Najd, badaviy, zodagon, said, Dajla, Frot, feodal, payg'ambar, zakot, hijrat, harbiy demokratiya, kofir, haraj, jiz'ya, zakot, sunniylar, gubernator, «oltin davr», kadastrlar, satrap, iqto, vaqf, hissa, mazdak, «Sharq papalari», renta, «chodir yopingan odam», shia, xorijiyalar.

**Islomning paydo bo'lishidan ilgari arab xalqlari.** Arablar tarixi, odatda, uch davrga: 1) Makka-Madina davriga – Islom dini paydo bo'lishidan ilgarigi Arabiston va islom dinining paydo bo'lish davriga (VI–VII asrlar); 2) Damashq (Suriya) davriga – Ummaviylar dinastiyasining idora qilish davriga (661–750) va 3) Bog'dod (Eron-Mesopatamiya) davriga – Abbosiylar dinastiyasining idora qilish davriga (750–1055) bo'linadi. Abbosiylar dinastiyasining idora qilish davri xalifaliklarning turklar tomonidan bosib olinishi bilan tugadi. Arab xalifaliklarning turli siyosiy markazlari bilan bog'liq bo'lgan bu uchta xronologik davrga arab feodalizmining rivojlanishi ham, asosan, muvofiq keladi. Birinchi davrda arab jamiyatida feodallasuv jarayoni endi boshlanayotganligi namoyon bo'ladi. Ikkinchi va xususan, uchinchi davrda Yevropa feodalizmining xarakterli xususiyatlari tarkib topdi. Territoriya jihatidan Yevropaning to'rtidan bir qismiga teng keladigan juda katta yarim orol bo'lmish Arabiston yarim orolining ko'p qismi suvsiz cho'l va sahrolardan iborat bo'lib, dehqonchilik qilish mumkin bo'lgan yerlar juda oz edi. Shuning uchun Arabiston aholisining ozchilik qismigina o'troq hayot kechirar va dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Arablarning ko'pchiligi esa ko'chmanchi badaviylardan iborat bo'lib, qo'y, echki

va tuya boqar edi. Arabistonning dehqonchilik uchun eng qulay bo'lgan o'lkasi janubi-g'arbiy viloyat – Yaman yoki «baxtli Arabiston» bo'lib, bu yerda qadim zamonlardayoq muttasil ravishda birining o'rnini ikkinchisi olib kelgan bir necha yirik quldorlik davlati bor edi. Hijozning (yarim orolning Qizil dengiz bo'ylab cho'zilib ketgan kambar qismi) esa faqat ayrim vohalaridagina dehqonchilik qilish mumkin edi. Yarim orolning eng katta qismi Najd sug'oriladigan yerlari juda kam bo'lgan, g'oyat katta yassi tog'likdan iborat bir joy bo'lib, faqat chorvachilik uchungina yarar edi.

VI–VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumida hali urug'chilik belgilari kuchli edi. Arablar – ko'chmanchi (badaviy) arablar ham, o'troq arablar ham – juda ko'p urug' va qabilalargina bo'lingan edi. Xun olish bor edi. Urug'ning boyroq a'zolari qurbsizroq qarindoshlariga iqtisodiy jihatdan yordam berishi lozim edi. Har bir qabilaning o'z diniy marosimi bor edi. Qabila va urug'larning boshida shayx va saidlar turar, hokimiyat faqat shularning qo'lida edi.

Ana shunday sharoitda arablar sinflarning tashkil topish jarayoni tezlashib ketdi. Arab shaharlaridagi aholining quyi tabaqalari o'z ahvolidan norozi edi, ular sudxo'r boylarga nafratlanib qarar edilar, bu norozilik va nafratni dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalardagi va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi qabilalardagi oddiy omma ham quvvatladi, bu qabilalar ham yerga muhtoj va o'z urug'-qabilasidagi feodallashtirish boshlagan zodagonlardan jabr-zulm ko'rmoqda edi. Muhammad payg'ambar (570–632) quraysh qabilasiga mansub bo'lgan va kambag'allashgan xonadondan chiqqan bo'lib, bu qabila Makkada hukmron qabila edi. Muhammad dastlab cho'pon bo'lib, keyin badavlat bir ayolga uylanish orqasida savdo bilan shug'ullangan. Lekin uning sudxo'rlikka ilgaridan yomon ko'z bilan qarab kelishi uning demokratik elementlar bilan yaqinlashuviga sabab bo'ldi. Muhammad payg'ambar sifatida 610-yillarda maydonga chiqdi. Sudxo'rlikni qoralashdan tashqari, u har bir kishidan kambag'allarga yordam berishni, o'z daromadining o'ndan bir qismini kambag'allarni boqish uchun ajratishni talab qildi. Shu bilan birga, urug'lar o'rtasidagi o'zaro urush-janjallarni to'xtatishni ham talab qildi, urug'larning bir-biridan qasos olishga, urug' va qabilalarning tor qon-qardoshlik doirasida biqinib yotishiga qarshi chiqdi. Muhammad nozil bo'lgan yangi dinning beshta asosiy qoidasida, ya'ni: 1) bitta Xudoga – Ollohga ishonish, 2) har kuni, albatta, besh vaqt nomozni kanda qilmaslik, 3) yilda bir marta ramazon oyida ro'za tutish, 4) zakot (kambag'allarga ushur) berish va

5) haj qilishdan iborat besh farzida hech qanday sotsial islohot yo'q edi.

Dastlabki vaqtlarda Makkadagi quraysh aristokratiyasi Muhammadga juda ham dushmanlik ko'zi bilan qaradi. Muhammad Makkaning azaldan beri davom etib kelayotgan urf-odatlarining ildiziga bolta urayotgandek, Ka'baning ahamiyatini gumon ostida qoldirayotgandek tuyiladi. Muhammad vafot etgandan keyin, oradan ko'p o'tmay, islom Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, Vizantiya, Eron yerlarini istilo qila boshladi.

**Islom dinining paydo bo'lishi, mohiyati va xalifalikning dastlabki yillardagi muvaffaqiyatlari.** Muhammadning eng yaqin vorislari – xalifalar – arab harbiy jamoasining saylab qo'yiladigan boshliqlari bo'lib, ular diniy, harbiy va fuqarolik hokimiyatini o'z qo'llariga olgan edilar. Ularning qarorgohi Madina shahri edi. Bu xalifalar chiqib kelishlari jihatidan Muhammadning yo qarindoshlari, yoki yaqin do'stlari edi. 632–661 yillar davrida xalifalikni birin-ketin Abubakr, Umar, Usmon va Ali idora qildi. Bular ichida ikkinchi xalifaning – Umarning (634–644) idora davri juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xuddi shu Umar zamonida arablar Suriyani, Falastinni, Misrni, Eronni bosib oldilar. Arablar bu davrda bir qancha ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritdi. Ular Suriyada (636) Yormiq daryosi bo'yida, Quddus yonida (638) vizantiyaliklarni, Kadisiya (637) va Nexavan (642) shaharlari yonida, qadimiy yekbatanlar yaqinida eronliklarni tor-mor keltirdi. Arablarning Vizantiya va Eron bilan bo'lgan jangida katta muvaffaqiyatlarga erishuvi ularni ruhlantirib, yangi istilolar qilishga undadi. Suriya, Misr va boshqa mamlakatlardagi ezilgan ommaning bir qismi arablarga diniy zulmdan, krepostnoylik jabr-jafosi va moliyaviy zulmidan qutqaruvchilar deb qaradi. Arablar o'z istilolarida, odatda, mahalliy boylarning mol-mulklarini bosib oladi.

Hukmronlikning dastlabki vaqtlarida xalqni soliq bilan uncha qiynamadi. Ular bo'ysundirilgan aholiga diniy erkinlik va bir qadar siyosiy avtonomiya berdi, idora qilish vazifasini ko'pincha mahalliy diniy jamoalar boshliqlariga topshirdi. Shu bilan birga, ular turli yengilliklar berib, aholini musulmonlikni qabul qilishga qiziqtirdilar. Islom dinini qabul qilganlar arablarning o'zi singari barcha soliqlardan ozod qilindi. Arablar istilo qilgan mamlakatlarida mahalliy aholiga aralashmay, alohida harbiy kolloniyalarga bo'linib yashadi. Ularning hayotida harbiy patriarxal soddalik birmuncha vaqtgacha saqlanib qoldi. Mesopatamiyadagi Kufa, Basra va boshqalar, shuningdek, Misrdagi Fustat (keiynchalik Qohira) arablar tomonidan bunyod etilgan harbiy maskanlarning

eng yiriklaridan edi. Biroq arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan eng taraqqiy topgan qismida yashagan arab zodagonlari oradan ko'p vaqt o'tmay mahalliy aristokratiya ta'siriga berilib ketdi. Bu ta'sir savdo yaxshi rivoj topgan boy mamlakat bo'lmish Suriyada, ayniqsa, kuchli bo'ldi. Arablarning harbiy boshliqlari bu yerda yashab turib, Suriyadagi yuqori sinfning zeb-ziynatli hayotini tez o'zlashtirib oldi. Suriyadagi katta yer egalaridan va quldorlardan o'rnak olib, ularning o'zi ham yerlarni batamom xususiy mulk qilib tortib ola boshladi, qullar asray boshladi. Bunday arablar uchun «Madina qurilari»ning oddiy patriarxal hayoti maroqsiz va eskirib qolgandek ko'rinar edi. Suriyadagi arab aristokratiyasiga, ya'ni ota-bobolarining rasmiy-odatlaridan kechib, «kofirlar»ning yangi tartiblarini o'zlashtirib olgan arab aristokratiyasi yomon ko'z bilan qarardi.

Ummaviylar zamonida idora qilish apparati ancha murakkablashdi. Aholidan yer va jon solig'i oladigan juda keng tarmoqli moliya amaldorlari apparati tashkil qilindi. Shu narsa xarakterliki, endi faqat «kofirlar» emas, balki musulmonlar ham soliq to'laydigan bo'ldi. Uch xil soliq asosiy soliq hisoblanar edi. Abbosiylar zamonida arab davlati juda ham taraqqiy topdi. Bog'dod xalifaligi VIII–IX asrlarda, ayniqsa, kuchli edi. Bu vaqtda Bog'dodni barpo etgan Mansur (754–775) Karl Buyukka zamodosh bo'lib, u bilan do'stona diplomatik aloqa qilgan Xorun-al Rashid (786–809), arab ilm-faniga zo'r berib homiylik qilgan Al-Mu'mun (786–809) kabi qudratli xalifalar idora qildi. Eronning feodallashgan zodagonlari xalifalikni idora qilishda faol qatnashdi, bosh vazirlik lavozimiga, odatda, eroniylardan tayinlanar edi va bu lavozim maldan naslga o'tar edi (masalan, mashhur barmoqilar) Xalifaning juda ko'p (160 000 kishiga yaqin) doimiy qo'shini bo'lib, bu qo'shinning ko'pchiligi turli varvarlar otryadlaridan, IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, asosan, turk otryadlaridan iborat edi. Abbosiylarning poytaxti Bog'dod juda katta bir shahar bo'lib, unda xalifaga va uning yaqin odamlariga qarashli juda ko'p saroy va bog'lar bor edi. Shahar doim shaklida bo'lib, uning atrofi ikki qator devor bilan o'ralgan edi. Bu shahar zodagonlar shahri, xalifaning qarorgohi va uning ma'muriy poytaxti bo'lish bilan birga, juda katta hunarmandchilik, ayniqsa, savdo markazi edi. Bog'dod bozorlariga uzoq-uzoq mamlakatlardan savdoparlilar kelar edi. Bu yerda vizantiyaliklar, xitoyliklar, hindlar, malayaliklar, Shimoliy, G'arbiy va hatto Markaziy Afrikada yashovchi kishilarni ham uchratish mumkin edi.

**Xalifalikning iqtisodiy yuksalishi va parchalanishi.** Abbosiylar

davrida Old va O'rta Osiyoning, shuningdek, Shimoliy Afrikaning juda keng territoriyasida ma'lum vaqtgacha tinchlik va xavfsizlik qaror topishi natijasida xalifalik iqtisodiy jihatdan g'oyat taraqqiy topdi. Bu davrda dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Sholi, paxta, shafron keng tarqalgan qishloq xo'jalik ekinlari edi. Juda keng atirgul plantasiyalari, parfumeriya (atir, upa eliklar) uchun maxsus essensiya berar edi. Arablar qimmatbaho nasldor ot va qo'ylar urchitardilar. Bu yerda jun, ipak, yaxshi navli po'lat va qurol (mashhur Damashq po'lati), shisha va oynadan yasalgan buyumlar, zarargarlik va attorlik buyumlari ishlab chiqarilardi. Arab savdogarlari yiroq Shimolgacha, Yuqori Volgagacha va hatto Boltiq dengizi qirg'oqlarigacha savdo qilardilar. Arablar savdosida qul savdosi katta o'rin tutardi. Bu qullar, asosan, osiyolik, yevropaliklardan iborat edi.

Arablar hukmronligining ilk davrida ancha yengil tortgan xalifalik mehnatkash aholisining ahvoli keyinchalik og'irlasha boshladi. Dehqonlar qisman natura shaklida (mahsulot bilan) va qisman pul shaklida katta-katta soliqlar to'lardi. Amaldorlarning o'zboshimchaligi va jabr-zulmi, dehqonlarning huquqsizligi va himoyasizligi ularni haqiqatda yarim qul holiga solib qo'ygan edi. Xalifalikda qullarning ahvoli juda og'ir edi. Ularning manfaatini himoya qiluvchi xalifaga qarshi bir necha marta qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olonlar odatdan tashqari uzoq davom etar va juda ham qattiq bo'lardi. Chunochi, Mansur xalifa o'lgandan keyin oradan ko'p vaqt o'tmay O'rta Osiyoda dehqonlarning katta qo'zg'oloni ko'tarildi. U 776-yilda boshlanib, 783-yilda tamom bo'ldi. Bu qo'zg'olonga Marv shahri atrofida chiqqan Muqanna («Chodir yopingan odam») laqabli Hoshim ibn Hakim degan bir kishi boshchilik qildi. Bu qo'zg'olonlarda mazdakiylar mazhabining ta'siri aks etdi. Mazdakiylar mol-mulkinging o'rtada bo'lishini va hayot noz-ne'matlaridan foydalanishda hamma teng bo'lishini talab qilar edi. IX asrning oxiri – X asrning boshlarida xalifalikning janubida dehqonlar harakati ko'tarildi. Bu harakatga Qarmat degan odam bosh bo'lib, u o'zini «paygambar» deb e'lon qildi. Uning atrofiga juda ko'plab qochoq dehqon va qullar kelib to'plandi. Oxir-natijada qarmatiylar Fors qo'ltigi qirg'oqlarida o'ziga xos bir dehqonlar respublikasini tuzishga muvafaq bo'ldilar. Qarmatiylar harakati bilan bir vaqtda Basra atrofida qul zanjilarning juda katta qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon 14 yil (869–883) davom etdi.

Zanjilarga shia Ali ibn Muhammad bosh bo'lib, u o'zini xalifa deb e'lon qildi. Zanjilar qo'zg'olonini bostirish uchun hukumat ular-

ga qarshi juda katta qo'shin yuborishga majbur bo'ldi. Keng ko'lam olgan xalq harakatlari xalifalikni larzaga keltirib, ko'p vaqtgacha uning birligini buzib qoydi. Xalifalik turli mamlakatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, turli-tuman xalqlarnig konglomeratidan iborat ediki, ulardan ba'zilari o'tmishda o'zining yorqin tarixiga ega edi. Shu bilan birga, xalifalik hokimiyati tobora zaiflashib bormoqda edi. Feodallashuv jarayoni Sharqda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, feodalizm taraqqiyotining ilk davrida G'arbda qanday natijalarga olib kelgan bo'lsa, bu yerda ham xuddi shunday natijalarga olib keldi. Amir-lar, ya'ni viloyat hokimlari mahalliy feodal yer egalari-ga suyanib turib, o'zlarining mahalliy dinastiyalarini vujudga keltira boshladilar. Xalifalik haqiqatda VIII asrda parchalana boshlagan edi.

756-yilda Qurdoba amirligi ajralib chiqqandan keyin (929-yildan boshlab u xalifalikka aylandi), VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Marokash bilan Tunis ajralib chiqdi, IX asrning o'talarida Misr mustaqil bo'lib qoldi. (bu yerda avvalgi tulunlar, keyinchalik X asrda Alining avlodlari – fotimiylar idora qila boshlab, ular 969-yildan e'tiboran Misrni mustaqil Qohira xalifaligiga aylantirdilar. IX va X asrlarda Eron ajralib chiqdi, avval Sharqiy Eron (Xuroson), keyin esa G'arbiy Eron ajralib chiqdi. Movarounnahrda esa Somoniylar davlati tuzildi, uning markazi Buxoro shahri bo'ldi. Bu davlat X asrning boshidan qariyb oxirigacha yashadi. Eron turklaridan iborat kuchli G'aznaviylar davlati vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti G'azna shahri bo'ldi. 945-yili Erondagi shia feodal xonadonlaridan biri bo'lgan Buiylar xonadoni Bog'dodni bosib olib, xalifalikning qolgan yerlarini uzoq vaqtgacha idora qildi.

1055-yilda saljuq turklaridan bo'lgan To'g'rulbek Sulton deb e'lon qilindi. Shundan keyin xalifalar qo'lida faqat diniy hokimiyatgina qoldi. Mana shunday o'ziga xos «Sharq papalari» sifatida xalifalar Bog'dodda uzoq vaqtgacha, mo'g'ullar istilosigacha, ya'ni 1258-yilgacha yashab kelgan.



**Nazorat topshiriqlari:**

1. Xalifalikning iqtisodiy yuksalishidagi asosiy omillarni aytib bering.
2. Xalq qo'zg'olonlarining sabablari?
3. Bu qo'zg'olonlarning mazdakiylar qo'zg'olonidan farqini ayting.
4. Xalifalikning parchalanib ketish sabablari va oqibatlarini ochib bering.
5. Xalifalikning parchalanib ketishida Bog'dodda 1050-yilda qanday voqea sodir bo'ldi?
6. Arablar tarixidagi uch davrni tushuntiring.
7. Islom dini paydo bo'lishidan ilgari Arabistondagi ijtimoiy hayot haqida so'zlab bering.
8. VI–VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumidagi urug'chilik belgilariga baho bering.
9. Arabistonda 610-yilda qanday voqea yuz berdi?
10. Dastlabki xalifalar zamonida arablarning istilolari.
11. Nifoqning kelib chiqish sabablarini aniqlang.
12. Ummaviylar xalifaligining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga baho bering.
13. Abbosiylar xalifaligining tashkil topishidagi shart-sharoitlarni ochib bering.
14. Damashq xalifaligi necha yil hukm surdi?
15. Muhammadlarning vorislaridan uchinchi xalifa kim edi va u nechanchi yillar hukmronlik qildi?

## 12-MAVZU: YAPONIYADA FEODAL MUNOSABATLARNING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI

### REJA:

1. V–VII asrlarda Yaponiya.
2. Agrar munosabatlar. «Tayxoryo» kodeksi.
3. Ijtimoiy va davlat tuzumi. Regentlar va kanslerlar boshqaruvi.
4. Madaniyat.
5. XVI–XVII asrlarda Yaponiya. Tokugavalar rejimi – syogunlikning o'rnatilishi.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** sintoizm, regentlar va kanslerlar, Tayxoryo Fudzivara, mo'g'ullarning Yaponiyaga yurishi, syogunlik, Yaponiya madaniyati.

**V–VII asrlarda Yaponiya.** Yaponiyaning eng qadimiy aholisi hozirgi ayunlarning ajdodi Ebisu hisoblanadi. Milod boshlarida ular Xonayu orolining shimoli-sharqida yashaganlar. Ularning etnik kelib chiqishi uzil-kesil aniqlanmagan, ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ular Malayya, Hindi-Xitoy va Indoneziya bilan bog'liq.

Yapon orollariga bir necha bor koreyslar, xanlar, turli manchur, tungus qabilalari kirib kelib, ebisularni shimolga surib chiqarganlar. Aralashuv jarayoni yuz bergan. Qabilalar ichida eng kuchlisi Yamato III asr oxiri – IV asr o'rtalarida qo'shnilarini bo'ysundirib, Xonsyu oroli markaziy qismida Yamato qabilalar ittifoqini tuzdi (bu so'zdan deatlabki mamlakat nomi kelib chiqqan. Hozirgi «Nixon» (Kunchiqar mamlakat) nomi VII asrda paydo bo'lgan. Yaponiya nomi XIII asrda Xitoyga sayohat qilgan Marko Polo bilan bog'liq.)

Yaponlar ajdodlari dehqonchilik uchun qulay joylarga o'rinishganlar. III–VI asrlarda, asosan, qishloq xo'jalik mahsuloti sholi edi. Sug'orish kanallari qurilgan. Qabila dorxiylari bu ishlarga majburiyat sifatida barchani jalb etganlar. V asrdan pillachilik rivojlana boshlagan, III asrdan ko'chib kela boshlagan xitoyliklar va koreyslar mohir hunarmandlar hisoblangan.

V asrda Xitoyning g'arbiy rayonlari ko'chmanchilar hujumiga duchor bo'lgach, Koreys-Xitoy immigratsiyasi odatiy holga aylangan. Ko'chib kelganlar mahalliy aholining «be» deb atalgan qismi tarkibiga

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Xalifalikning iqtisodiy yuksalishidagi asosiy omillarni aytib bering.
2. Xalq qo'zg'olonlarining sabablari?
3. Bu qo'zg'olonlarning mazdakiylar qo'zg'olonidan farqini ayting.
4. Xalifalikning parchalanib ketish sabablari va oqibatlarini ochib bering.
5. Xalifalikning parchalanib ketishida Bog'dodda 1050-yilda qanday voqea sodir bo'ldi?
6. Arablar tarixidagi uch davmi tushuntiring.
7. Islom dini paydo bo'lishidan ilgari Arabistondagi ijtimoiy hayot haqida so'zlab bering.
8. VI–VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumidagi urug'chilik belgilariga baho bering.
9. Arabistonda 610-yilda qanday voqea yuz berdi?
10. Dastlabki xalifalar zamonida arablarning istilolari.
11. Nifoqning kelib chiqish sabablarini aniqlang.
12. Ummaviylar xalifaligining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga baho bering.
13. Abbosiylar xalifaligining tashkil topishidagi shart-sharoitlarni ochib bering.
14. Damashq xalifaligi necha yil hukm surdi?
15. Muhammadlarning vorislaridan uchinchi xalifa kim edi va u nechanchi yillar hukmronlik qildi?

## 12-MAVZU: YAPONIYADA FEODAL MUNOSABATLARNING PAYDO BO‘LISHI VA TARAQQIYOTI

### REJA:

1. V–VII asrlarda Yaponiya.
2. Agrar munosabatlar. «Tayxoryo» kodeksi.
3. Ijtimoiy va davlat tuzumi. Regentlar va kanslerlar boshqaruvi.
4. Madaniyat.
5. XVI–XVII asrlarda Yaponiya. Tokugavalar rejirni – syogunlikning o‘rnatilishi.

**Tayanch so‘zlar, iboralar va tushunchalar:** sintoizm, regentlar va kanslerlar, Tayxoryo Fudzivara, mo‘g‘ullarning Yaponiyaga yurishi, syogunlik, Yaponiya madaniyati.

**V–VII asrlarda Yaponiya.** Yaponiyaning eng qadimiy aholisi hozirgi aynlarning ajdodi Ebisu hisoblanadi. Milod boshlarida ular Xonsyu orolining shimoli-sharqida yashaganlar. Ularning etnik kelib chiqishi uzil-kesil aniqlanmagan, ba’zi tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ular Malayya, Hindi-Xitoy va Indoneziya bilan bog‘liq.

Yapon orollariga bir necha bor koreyslar, xanlar, turli manchur, tungus qabilalari kirib kelib, ebisularni shimolga surib chiqarganlar. Aralashuv jarayoni yuz bergan. Qabilalar ichida eng kuchlisi Yamato III asr oxiri – IV asr o‘rtalarida qo‘shnilarini bo‘ysundirib, Xonsyu oroli markaziy qismida Yamato qabilalar ittifoqini tuzdi (bu so‘zdan dastlabki mamlakat nomi kelib chiqqan. Hozirgi «Nixon» (Kunchiqar mamlakat) nomi VII asrda paydo bo‘lgan. Yaponiya nomi XIII asrda Xitoyga sayohat qilgan Marko Polo bilan bog‘liq.)

Yaponlar ajdodlari dehqonchilik uchun qulay joylarga o‘rnashganlar. III–VI asrlarda, asosan, qishloq xo‘jalik mahsuloti sholi edi. Sug‘orish kanallari qurilgan. Qabila dorxiylari bu ishlarga majburiyat sifatida barchani jalb etganlar. V asrdan pillachilik rivojlana boshlagan, III asrdan ko‘chib kela boshlagan xitoyliklar va koreyslar mohir hunarmandlar hisoblangan.

V asrda Xitoyning g‘arbiy rayonlari ko‘chmanchilar hujumiga duchor bo‘lgach, Koreys-Xitoy immigratsiyasi odatiy holga aylangan. Ko‘chib kelganlar mahalliy aholining «be» deb atalgan qismi tarkibiga

kirgan. «Be» tarkibiga magʻlub etilgan jamoa boshliqlari avlodi, ruho-niylar, «maʼlumotlilar», qoʻriqchilar ham kiradi (jinoyat uchun qulga aylantirilgan jamoa aʼzolari, xitoycha oʻqish va yozishni biladiganlar, dastlabki chinovniklar ham).

«Be» kategoriyasi keyinroq tabaqalasha boshlagan. Uch asosiy qismi qadimgi Rim kolonlari ahvoliga tushgan. Ular yer va hunarga birlashtirilgan (podsho yoki feodal mulkida), ularni sotib, oʻldirib boʻlmasdi.

Faqat uy xoʻjaligida qul mehnatidan foydalanilgan (qul mehna-ti samarasiz boʻlib, ularning toʻldirishning asosiy vositasi qabilaviy urushlar kamaygan) Tovar xoʻjaligi rivoji oqibatida V asr boshlarida bozorlar paydo boʻlgan. Ularning dastlabkisi «Xitoy bozori» edi (Xon-syu markazida Osaka shahrida). Savdo asosan kuzda, hosil yigilgandan soʻng boʻlardi (yapon qoʻrgonlaridan Xitoy tangalari topilgan).

IV–VI asrlarda qabila ittifoqi boshligʻi amalda podsho vazifasini bajara boshlagan. Zodagonlar davlat va saroy amaldorligi lavozimlarini egallaganlar (diniy va harbiy mansablar). Isrorxiya paydo boʻlgan. 598-yili oʻzaro kurashayotgan aristokratiya guruhlaridan biri Soga boshchiligida podshoh oʻldirilgan. Soga guruhi oʻz taʼsirini koreys va xonlar olib kelgan buddizm orqali mustahkamlagan, shu bilan yaponlarning qadimiy dini Sinto (xudolar yoʻli, tabiiy kuchlarga, ajdodlar ruhiga sigʻinish) zar-ba yegan, buddizm tashkil topayotgan mafkuraviy qurolga aylangan.

Agʻdarilgan podshoh oilasi vakili Siyotoku-Taysi hokimiyat uchun kurashda Xitoy madaniyatini maʼqul koʻradigan saroy ahliga tayangan. Ular yapon tuzimiga Koreya va Xitoy elementlarini kiritish tarafdorla-ri edilar. Siyotoku-Taysi faoliyati 604-yili eʼlon qilingan «17 moddali qonun»da koʻrinadi. Hozir bu qonunlar toʻplami VIII asrda toʻldirilgan deb fikrlar bildiriladi.

Bu qonunda buddizm va konfutsiylik taʼsiri kuchli. Lekin qonun kuchga kirmagan, chunki real hokimiyat Soga guruhi qoʻlida boʻlgan «qonun» podshoh hokimiyati kuchayishi uchun sharoit tayyorlagan.

Siyotoku-Taysi chet eldan siyosiy koʻmak qidirib, 607-yili Xitoyga elchilar joʻnatgan. Uning davrida koʻp zodagonlar bolalarini Xitoyga oʻqishga yuborgan.

Koreya davlatlari bilan munosabatlar oʻzgargan. VI asrga qadar yaponlar oʻzaro urushlarga aralashganlar. Silla kuchayuvi oqibatida aralashuv zaiflashgan. Ikkala taraf elchilari ayirboshlangan. Yaponiyaga Koreys rohiblari, meʼmorlari, haykaltarosh va quruvchilari kelishgan.

Soga rohiblari uyushib, fitna qoʻzgʻaganlar. 645-yili Koreya elchila-rini qabul marosimida Soga vakillari qirib tashlangan, saroy yondirilgan.

Avvalgi podsoh avlodi taxtga chiqqan. Bu davr «Buyuk o'zgarishlar davri» (Tayka) deb nom olgan. 645-yilgi fitna bo'lsa «Tayka to'ntarishi» nomini olgan. Shu vaqtdan Yaponiyada Xitoyga har bir imperator hukmdorligini alohida belgilash sistemasi qabul qilingan. Xitoyga chek yer sistemasi ham kirib kelgan.

**Agrar munosabatlar.** Ilk o'rta asrlarda yer egaligi 2 shaklda rivojlangan:

1) davlat chek yer sistemasi;

2) yirik feodal votchinasi (Syoen).

702-yilgi yapon qonunlari to'plami – «Tayxoryo» kodeksi shundan dalolat beradi. Unga binoan barcha yer davlatniki deb e'lon qilingan. Har bir dehqon xo'jaligi oila soniga qarab (6 yoshdan hisolangan) vaqtincha foydalanish uchun haydaladigan yer olgan. Erkak 2 tan (1 tan – 0,12ga), ayol uning 2/3 qismi miqdorida yer olgan. Har 6 yilda oila a'zolari soni o'zgarishiga qarab yer miqdori ham o'zgartirilgan. Uy qurilgan yer va bog' dehqon mulki hisoblangan.

Davlatga don, hunarmandchilik mahsulotlari, asosan, material bilan soliq to'langan. Barshchina 100 va undan ortiq kun davom etardi. Dehqonning chek yerdan bosh tortishi yo undan ketib qolishi qattiq jazolangan.

«Tayxoryoning» kodeksiga binoan zodagonlar yeri ularning unvoni va mansabiga bog'liq bo'lgan. «Imtiyozli yerlar», «Davlat oldidagi xizmat uchun» chek yer (Tayka to'ntarishidagi ishtiroki uchun) imperator tomonidan sovg'a qilingan yerlar).

In'om qilingan yer umrbodlik bo'lgan. Xizmati uchun yer 1-2-3-avlod davri yoki mangulik bo'lgan (xususiy yerga aylangan). Deyarli barcha yer shakllari formal ravishda qandaydir muddatga berilgan. Lekin aristokratiya doimiy ravishda davlat xizmatida bo'lganligi sababli uni xususiylashtirish qiyin emasdi.

Zodagonlar chek yerlariga dehqon xo'jaliklari biriktirilgan. Rang bo'yicha 100 dan 800 gacha, mansab bo'yicha 300 dan 3000 gacha dehqon xo'jaligi biriktirilgan. Davlat oldidagi xizmat uchun biriktirilgan dehqon xo'jaligi qanchaligi belgilanmagan. Biriktirilgan dehqonlar soliqning yarmini davlatga, yarmini feodalga berganlar.

Avval mansablar merosiy edi. 645-yildan so'ng ular imperator nomidan tayinlanadigan bo'lgan, merosiylik ham ma'lum ma'noda saqlangan.

Feodal votchinasi (syoen) ham chek yer sistemasi bilan bir davrda shakllangan. Dastlabki syoen yangi yer ochish, botqoqliklarni quritish natijasida paydo bo'lgan. 859-yili hujjatlarda birinchi marta «Tato»

atamasi ishlatilgan (yangi yer ochib o'rab olish). Tato hozirgi yozuvda ham shuni isbotlaydi.

Keyingi manbalarda Tato atamasi yerda ishlovchi dehqonni anglata boshlagan.

O'rab olingan yerni ishlashning keng tarqalgan shakli pudrat edi (odatda bir yilga). Tato uni o'z xususiy yeriga aylantirishga urinardi (keyingi yili shartnoma bekor qilinishi mumkin edi). Keyinroq tato xususiy pudratchiga, yer uning shaxsiy yeriga, yer egasi uning shaxsiy xo'jayiniga aylangan. VIII asr mobaynida chek yer tuzulishi zaiflashgan, dehqon tabaqalashgan (quloq, kambagal, o'rtahol).

Ish kuchi va qurolli ko'pgina oilalar boyigan. Kambag'allashgani unikida batraklik qilgan yoki boshqa viloyatga qochib ketgan. Sudxo'rlik keng tarqalgan. Viloyat va uyezd boshqarmalarida don fondlari bo'lgan (davlatga to'langandan keyin qolgani). Davlat fondan dehqonga suda berishga ijozat bergan. 30-50% mahalliy ma'murlar norasmiy ravishda suda berib, foydani o'zlashtira boshlaganlar. Ular kerak-nokerak dehqonlarga ssuda bera boshlaganlar, buning ustiga, rasmiy foizni ham oshirganlar.

Xonavayron bo'lgan dehqonlar yerni tashlab tog' va o'rmonlarga qochib, otryadlar tuzganlar. Yilnomalarda ular «qaroqchilar to'dasi», dengizdagilar «piratlar» sifatida tilga olinadi. IX asrda yirik qo'zg'olonlar ko'tarilgan. IX asr o'rtalarida Kyusu oroli gubernatori o'ldirilgan, hukumat idoralari talangan.

Davlatga qarshi kurashning yangi shakli topilgan. Dehqonlar maxfiy ravishda xususiy votchinalarga qochib o'ta boshlaganlar. Feodal ularni himoya qilgan. Bu narsa dehqonni davlatdan xalos qilib, syuj qiliga topshirgan.

**Ijtimoiy va davlat tuzumi.** Tayka to'ntarishidan so'ng huquqiy jihatdan yangi feodallar hukmronligi o'rnatildi. Ular asosan boy oilalar avlodi edi. Deyarli barcha iqtisodiy va siyosiy imtiyozlar ularga tegishli bo'lgan.

To'ntarish davlat tomonidan dehqonlarni qaram qilish imkonini berdi. Ilgarigi «be» yerga bog'langan dehqonga aylandi. Endi «be» deb saroyda xizmat qiladigan hunarmandlar aytiladigan bo'ldi. «Tayx-oryo»ga binoan chek yer egasi «yaxshi odam», qullar esa «past odam» edi. Qonun qulchilikni tan olgan.

Qulga egalik qilish qo'shimcha yer olish imkonini bergan. Har bir davlat quli uchun erkin odam oladigan yer, shaxsiy qul uchun 1/3 qismiga belgilangan. (Zodagonlar, saroy ahli qullarni ko'paytirishga intilgan. Urush yo'qligi sababli dehqonlarni o'g'irlash, bolalarni, ayniqsa, eng

hohligini sotib olish keng tarqalgan. Jinoyat va qarzni to'lamaganlik uchun ham qulga aylantirilgan. O'z-o'zini qullikka sotish hollari ham bo'lgan. Lekin bunday kishilar cheklangan bo'lib, ommaviy tus olmagan. VII asrda Yaponiya aholisi - 6 mln bolib, uning 10-15 % ni qullar tashkil etgan. Qul mehnatidan ko'proq qurilishda foydalanilgan.

Ular Nara shahrini qurganlar, Buddaning ulkan haykalini quyganlar. IX asr o'rtalarida qul mehnatidan juda kam foydalanilgan, dehqonchilikda esa ularning mehnatidan foydalanish umuman to'xtagan.

Uzoq vaqt mobaynida hukm surgan ma'muriy tartib «Tayxoryo»-da huquqiylashtirilgan Davlat hukmdoriga imperatorga Tenno – osmon o'g'li unvoni berilgan, uning ilohiyligi haqida afsona yaratilgan. Imperator huzurida oliy hukumat organi – davlat kengashi mavjud bo'lgan.

Markaziy hukumat tarkibida 8 ta boshqarma (saroy, qo'lt, ombor va moliya, umumdavlat ishlari, fuqarolik ma'muriyati, marosimlar va matnablar, harbiy, jamoat ishlari) bo'lgan.

**Mamlakat viloyat va uyezdlarga bo'lindi.** Ma'muriy-siyosiy, hunar, savdo va diniy markazlar paydo bo'ldi. 320-yili Koreys-Xitoy immigrantrlari Naniva (hozirgi Osaka) shahriga asos solganlar. 593-yili paydo bo'lgan Asuka shahri Koguryo (Koreys) madaniyati ta'sirida bo'lgan. Keyingi shaharsozlik Xitoy ta'sirida bo'lgan. 710–784-yillarda Nara, 792–1192 yillarda Xeyan poytaxt bo'lgan.

Poytaxtlar planirovkasi Chanan (Sian)niki kabi bo'lgan. Bu shaharlar darvozalari janubga qaragan. Narada markazda Xeyanda, Shimolda ulkan saroy kvartali bo'lgan. Saroy ayvonlari janubga qaragan (buddizm bo'yicha Budda janubda yashaydi, uning nuri keladi). Saroy kvartalining bir necha darvozasi bo'lgan. Eng markazda «Qizil qush darvozasi» (u Xitoy mifologiyasi bo'yicha dunyoning to'rt tomoni xudolaridan biri Jan sozvezdiye nomi) bo'lgan.

Bu darvozadan shahar bo'ylab janubgacha «qizil qush sohko'chasi» o'tgan, uning oxirida shaharga kiriladigan bosh darvoza bo'lgan.

**Regentlar va kanslerlar boshqaruvi.** Ilk feodal Yaponiyasining xarakterli belgilaridan biri ichki siyosiy vaziyatning beqarorligi edi. Yuqori va quyidagilar kurashi bunga sabab bo'lgan.

Hukimron sinf uch guruhda vujudga kelgan:

1. Poytaxt saroy amaldorlari.
2. Provinsial davlat apparati, chinovniklar.
3. Provinsiyadagi quyi zodagonlar (doimiy yashaydiganlar).

Saroy aristokratlari orasida qadimdan sintozim bilan bog'liq katta ta'sirga ega nakatomi guruhi brinchi orinda turgan. Guruh boshlig'i



Kamatari Tayka to'ntarishida ishtirok etgan, mamlakatdagi eng ta'sirli obro'li shaxs bo'lgan. 669-yili unga Fudzivara familiyasi berilgan. Uning avlodlari barcha ta'sirli mansablarni egallaganlar. 729-yiliga kelib fudzivaralar imperatorlarga faqat ular oilasidan uylanish majburiyatini yukladilar. Imperator uyini zaiflashtirish maqsadida ular imperator tanqo'riqchilarini yengib, uni shimoldagi Yamasiro viloyatiga olib ketganlar, 784-yili bu yerda yangi tinchlik va osoyishtalik poytaxti Xeyan qurilishi boshlangan. 58-yili fudzivaralar yosh imperator regenti, 887-yil esa ulg'aygan imperator huzurida kanslerga aylandilar.

Regent-kanslerlar boshqaruvi o'rnatildi (qisqacha SEKKAN). Dastlabki 40 yil imperator nisbatan mustaqil siyosat yuritgan, chunki fudzivaralar mansab orqasidan quvib, masalani iqtisodiy tomoniga uncha e'tibor bermaganlar. Ular ko'proq syoenga emas, chek yer sistemasiga tayangan edilar.

Rejimning siyosiy va iqtisodiy zaifligi munosabati bilan 895-yili Yaponiya Xitoy va Koreya bilan aloqalarni uzdi. Mamlakatga kirish va undan chiqish faqat o'lim bilan jazolanadigan bo'ldi.

**Madaniyat.** «Tayxoryoning» tuzilishi yaponlar ongiga mavjud tuzumning qonuniyligi g'oyasini singdirgan.

Imperator hokimiyati mustahkamlanuviga dastlabki yilnomalar yordam bergan.

«Qadimgi ishlar haqida yozuvlar» – «Kodziki» - 712yili, «Yaponiya amallari» – «Nixongi» – 720-yili (qadimgi miqlar, afsonalar, rivoyatlar, xronologik yozuvlar) yaratilgan. Yilnomalarda imperator qush ma'budasi Amaterasu (sintoizm panteonidagi bosh xudo) avlodi sifatida tasvirlangan. Imperator sulolasi ildizi miloddan avvalgi 660-yilgacha chuqurlashtirilgan. Bunday geneologiya (shajara) uchun yetarli dalil va materiallar bo'lmaganligi sababli, yilnomachilar xitoyliklardan ancha fakt va afsonalarni ko'chirib olganlar. Yilnomalarda V–VII asrlarga doir ishonsa bo'ladigan faktlar mavjud (ko'proq saroy hayoti tasvirlangan).

VIII asr boshida provinsiyalar to'g'risida to'la ma'lumot beradigan «Urf-odat va yerlar to'g'risida nomalar» – «Fudoki» paydo bo'lgan, ma'muriy bo'linish geografik nomlar, iqtisodiy, flora, fauna, mahalliy rivoyat va afsonalar, diqqatga sazovor joylarga alohida etibor berilgan.

VIII asrning ikkinchi yarmida ilk yapon poeziyasi antologiyasi tuzilgan. («Sobraniye miriad listyev» – «Manyusyu» tabiat, inson, ijtimoiy masalalar- Yamonoe Oqura, Satira-Otomo tabito. Rekrut xizmati ogirliklari, oila, nikoh munosabatlari).

Sintoizm va buddizm bayramlarida muqaddas raqslar ijro etilgan.

(muzika-peniye). Sehrgarlik marosimlariga o'xshash bayramda raqqo- sa to'ntarilgan tog'ora ustida bambuk shoxi va nayza ushlagan holda raqsga tushgan. «Imitatsiya mifa Amaterasu» samoviy g'orga kirib ketishi va yana paydo bo'lishi. Saroy tanqorovullari qilich bilan harbiy raqsga tushganlar.

Huddizm kuchaytirilgan 624-yili 46 ibodatxona va 1385 rohib bor edi. Rohiblar eng ma'lumotli tabaqa bo'lib, boshqa mamlakatlarga (Xitoy) borib kelardilar.

Dastlabki shaharlar monastirlar atrofida vujudga kelgan. Nara shahrida 7 ta budda monastiri bor edi. Ularning eng asosiysi 608-yil tashkil etilgan (Yaponiyada birinchi) «qonun g'alabasi ibodatxonasi» – Xoryudzi edi. Monastir yapon milliy san'ati haykaliga aylangan.

«Shaharning ulug' ibodatxonasi» – Todaydzi qurilishi 759-yili tugalangan. Ibodatxona asoschilari uni buddizmning Sharqdagi tayanchiga aylantirmoqchi bo'lganlar. Shu sababli monastirning asosiy ebroni buddizm panteonidagi muhim xudolardan biri Vayrochanga (Dudda – dunyoni nurga to'ldiruvchi) bag'ishlangan bu ibodatxonada hozirgacha bronzadan ishlangan, oltin suvi yuritilgan Vayrochanning o'tirgan holdagi haykali saqlanib qolgan.

Haykal balandligi 16 metr, pyedestal bilan birga 23 metr (bosh balandligi 3,1 metr, kengligi 2,87 metr). O'sha davr haykal quyish texnikasi mo'jizasi muallif Daybasu 2 yil quyilgan.

Ilk yapon buddizmining asosiy prinsipi «davlatga xizmat» bo'lib, uni shartli ravishda «Saroy buddizmi» deb atash mumkin. Saroy siyosiy ta'siriy zaiflashgan sari buddizmning bu tarafi zamon talabiga javob bermay qo'ydi. Islohot zaruriyati tug'ildi. Yangi sektalar paydo bo'ldi. Ularning maqsadi e'tiqodga xizmat qilish bo'lgan.

Bu sektalardan keyinroq vujudga kelayotgan ijtimoiy qarama-qarshiliklar kurashida foydalanilgan.

**XVI–XVII asrlarda Yaponiya.** Xideyosi o'lgandan keyin diktatura 1598-yilda Oda Nabunaganning boshqa bir safdoshi va Xideyosining naqibi bo'lmish Iyeyasu Tokugava qo'lga o'tdi. Tokugava sharqiy (kanton) viloyatlarning tepasida turgan eng yirik feodal knyazlardan bo'lib, juda mustahkamlangan Edo (iyedo) qasri uning rezidensiyasi edi. Iyeyasu biroz vaqtgacha Xideyosi taxt vorisining vasiysi bo'lib turdi. Ammo 1603-yilda yetarli darajada mustahkamlanib olib, o'zini syogun deb e'lon qildi. Uning syogunlar sulolasi 250 yil davomida, yu'ni Mikado hokimiyatini tiklagan 1868-yilgi revolutsiyagacha Yaponiyani idora qilib keldi.

Tokugavalar rejimi bu sulolaning uchinchi syoguni Iyemisu Tokugava davrida (1623–1651) uzil-kesil oʻrnatilgan edi.

Iyemisu 1637-yilda Kyusyu orolidagi Samaberi okrugida dehqonlarning juda katta qoʻzgʻolonini shafqatsiz ravishda bostirdi. Yangi syogun ana shu xalq harakatiga qarshi kurashning bevosita taassuroti ostida 1639-yilda Yaponiya davlati tarkib topgan feodal konstitutsiyasini yuridik jihatdan rasimylashtirib bergan qonunlar toʻplamini nashr qildi. Bu qonunlar toʻplamida mehnatkashlar uchun juda ham ogʻir turmush sharoitlari koʻzda tutilgani holda politsiyachilik-krepostnoylik nihoyatda yaqqol ifodalangan edi. 1639-yilgi kodeksga koʻra sotsial munosabatlar harbiylar, dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlardan iborat toʻrt sosloviye munosabatlari shaklida ifodalangan edi. Shu aholi guruhlarining munosabatlari qattiq tartib va qoidalar bilan belgilangan edi. Oqsuyaklar va samuraylarga mansub turli guruhlarining huquq va imtiyozlari qonunda ikir-chikirlarigacha mufassal koʻrsatib berilgan edi. Davlat sanoat va savdo-sotiq ishlarini oʻchakishib nazorat qilar va unga bachkanalik bilan vasiylik qilar edi. Savdogarlarning gildiyalari va ayniqsa, hunarmandlarning sexlari butunlay hukumatga bogʻliq edi. Hukumat savdo-sotiqdan va sanoatdan katta davlat daromadlari olish uchun ham ulardan keng foydalanar edi. Dehqonlarga nisbatan belgilangan tartib-qoidalar, ayniqsa, qattiq edi. Ularning turmushdagi har bir qadamini hukumat qattiq kuzatib turardi. Dehqonlarga guruch yeyish man etilgan edi. Chunki ular uchun bu «ortiqcha neʼmat» deb qararlar edi. Ularga shoyi va polotno kiyim kiyish ham man qilingan edi. Faqat arzon baholi ip-gazlamadan kiyim kiyish mumkin deb koʻrsatilgan edi. Dehqonlarga hamma narsada «kamtar» boʻlish buyurilgan edi. Hatto toʻy, azalar va hokazolarga sarf boʻladigan xarajatlar ham maʼlum miqdordan oshmasligi shart edi.

Oʻzi va Kiotodagi saroyi uchun aniq tayinlangan maoshga, asosan, yashovchi Mikado nomigagina hokimiyat egasi edi. Qonunlar aslida uni tashqi dunyo bilan aloqa qilish imkoniyatidan tamomila mahrum qilib qoʻygan edi. Syogunlarning poytaxti Edo Shahri boʻlib, u juda tez oʻsib, katta markazga aylanib bordi. Syogunlar bu yerda dabdabali hayot kechirar edilar. Katta feodallar mulkdor knyazlar – daymo va boshqalarning koʻp vaqt poytaxtda yashab, syogunlar saroyiga qatnab turishlari shart edi. Ular oʻz viloyatlariga qaytib ketganlarida xotin va bola-chaqalarini garov qilib Edoda qoldirishlari lozim edi. Tokugavalar oʻrnatgan bu rejim keng tarmoqli politsiya apparatiga asoslangan edi. Hukumat oʻzining oshkora va maxfiy agentlari vositasi bilan dehqonlarni, shahar plebslarini, katta savdogarlarning xonadonlarini, samuray-

larni va feodal knyazlarni kuzatib turardi. Shunday qilib, Yaponiyada feodalizm davridayoq iskovuch politsiyaning mudhish apparati vujudga keltirilgan edi va bu apparat aholining huquqsiz mehnatkashlar ommasi boshiga og'ir kulfatlar solar edi.

**Ajnabiylarga munosabat.** XVI asrda Yaponiya Koreya, Xitoy, Hind-Xitoy, Filippin bilan keng turda savdo munosabatlari o'rnatgan edi. Yevropaliklardan portugallar, ispanlar, keyinchalik esa XVI asrning oxirlaridan boshlab gollandlar Yaponiya bilan savdo qilar edilar. Avvaliga yevropaliklarga Yaponiyada missionerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ancha keng imkoniyat berib qo'yildi. Yevropaliklar Xideyosi armiyasini Yaponiya - Koreya urushi davrida o'q otuvchi qurollar bilan ta'minlab turdilar. Ammo Xideyosining o'ziyoq ispan va portugal missionerlarining faoliyatini cheklay boshladi. Iyeyasu Tokugava davrida ajnabiylarga nisbatan yana bir qancha cheklashlar o'rnatildi. Tokugava ispanlar bilan portugallarning ta'sirini zaiflashtirish maqsadida gollandlarga ko'proq homiylik qila boshladi. Iyemisu Tokugava yevropaliklarni mamlakatga qo'ymaslik maqsadidha qat'iyroq siyosat o'tkazdi. XVII asrning 30-yillarida bir qancha farmoyishlari bilan yaponlarning o'z mamlakatini tark etishini qat'iyon taqiqladi, ispanlar bilan portugallarga esa Yaponiya orolini mutlaqo tashlab chiqib ketishni taklif qildi. Bundan gollandulargina istisno bo'lib, ularga Nagasaki portiga kirish uchun ruxsat etildi. Xitoy savdogarlari ham ana shunday imtiyoz oldilar.

Yaponiya hukumati tomonidan ajnabiylarga bunday munosabatda bo'lishning sabablaridan biri qisrnan pul-iqtisodiy mulohazalar, bu mamlakatdan oltin tashib chiqib ketilishi xavfi, chet ellik savdogarlarning mahalliy savdogarlar bilan raqobati va shu singarilardan iborat edi. Ammo Takugavani ajnabiylardan xalos bo'lishga da'vat etgan hal qiluvchi omil - ichki siyosiy xarakterga ega bo'lgan mulohazalar edi. Hukumat xristian missionerlarining «buzg'unchilik» ta'siridan qo'rqar edi, chunki ayrim rayonlarda yapon dehqonlari va boshqa mehnatkashlar ba'zi xristianlik-tengchilik g'oyalaridan hamda Yaponiyaga yevropaliklar keltirgan o'q otuvchi qurollardan foydalanib, yapon feodallariga qarshi chiqdilar. Yuqorida eslatib o'tilgan 1637-yilda Kyu-Syu orolida bo'lgan va 30 mingga yaqin kishi qatnashgan dehqonlar qo'zg'oloni xuddi ana shunday diniy shiorlar ostida hamda ispanlar bilan portugallarning bevosita madadi bilan ro'y bergan edi. Gollandlar, aksincha, bu davrda Yaponiya hukumatiga yordam berdilar: Gollandiya kemalari qo'zg'olon ko'tarilgan rayonini to'plardan o'qqa tutdi. Hukumat Kyu-Syu orolida qo'zg'oloni bostirib, diniy jihatdan ham aholi ustidan nazoratni kuchay-

tirdi. Budda ruhoniylari budda ibodatxonalariga keluvchilar ustidan nazorat qilish yuzasidan keng ko'lamda politsiyachilarning vakolatlarini oldilar. Har bir kishi mahalliy Budda jamoasiga majburiy taritibda a'zo bo'lishi kerak edi. Boshqa dinga o'tish jinoyat hisoblanib, buning uchun o'lim jazosi berilardi. Yaponiya hukumati «g'arb kishilari» haqida biror gap yozilgan Yevropadan va qisman Xitoydan keltirilgan kitoblarning hammasini qo'ydirib tashlash haqida buyruq chiqardi.

**Yaponiyaning yakkalanib qolishi.** Yaponiyaning tashqi dunyodan ajralib qolishi (hatto Xitoy bilan ham munosabatlar g'oyat cheklangan edi) XIX asrning yarmigacha davom etdi. Tokugava rejimining butun bir sistemasiga kiruvchi bu siyosat, umuman, mamlakat uchun g'oyat og'ir va salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Bu narsa Yaponiyada feodal munosabatlarning eng qoloq formalari saqlanib qolishiga yordam berdi. Yakkalanib qolish sharoitida yapon feodallari va ularning amaldorlari yapon mehnatkashlari ommasi ustidan, ayniqsa, har tomonlama va nazoratsiz hukmronlik qilib, o'z sinfiy diktaturalarini dahshatli formada amalga oshirdilar. Ayni vaqtda Yaponiyaning yakkalanib qolishi uni ochiqdan ochiq qoloqlikka mahkum etdi. Bu esa sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham eski ishlab chiqarish usullarining saqlanib qolishida o'z ifodasini topdi. Bu narsa mamlakat madaniy o'sishining to'xtab qolishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Shunday bo'lsa-da, XVII asrda Yaponiyada sust bo'lsa ham muayyan o'sish ro'y berdi. Mamalkatda tovar-pul munosabatlari rivojlanib, asta-sekin yapon qishloqlariga ham kirib bordi. Shaharlarda savdogarlar kapitali to'plandi. Sanoatning ayrim tarmoqlari – chinni tayyorlash, ip-gazlamaga gul bosish, qog'oz va shu singarilar ishlab chiqarish kengaydi va takomillashdi. Bir qancha shaharlarda XVII asr o'rtalarida manufaktura vujudga keldi. Ammo bu onda-sonda ishlaydigan manufakturalar edi. Feodallar orasida tobora ko'proq tabaqalashuv ro'y berdi. Feodallar-samuraylarning past qatlami xonavayron bo'lib, shahardagi o'rtacha va hatto quyi qatlamlarga tobora yaqinlashib bordi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Syogunlikning tashkil topish sabablari?
2. Yaponiyaning yopilish sabablari?
3. Yaponiyaning istilochilik yurishlari.

### 13-MAVZU: O'RTA ASRLARDA KOREYA

#### REJA:

1. Ilk Koreys davlatlarining vujudga kelishi.
2. Koreys davlatlari o'rtasidagi kurash, ularning Xitoy va Yaponiya bilan munosabatlari.
3. Mamlakatning Sila boshchiligida birlashgandan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
4. Madaniyat.
5. IX–XV asrlarda Koreya davlati. Koreya Choson davlati davrida.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** ilk Koreys davlatlarining vujudga kelishi, koreys davlatlari o'rtasidagi kurash, ularning Xitoy va Yaponiya bilan munosabatlari, mamlakatning Sila boshchiligida birlashgandan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, IX–XV asrlarda Koreya davlati, Koreyaning XI–XII asrlarda ijtimoiy ravnaqi, madaniyat.

**Ilk Koreys davlatlarining vujudga kelishi.** Ilk o'rta asrlarda koreys davlatlarining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati masalasi tarixda hanuzgacha bahsli. Koreyada quldorlik davri bo'lganmi, degan savolga uzil-kesil javob yo'q. Ba'zi koreys tarixchilari ilk feodal davlatlarini quldorlik davlatlari deb hisobladilar.

Manbalarda yarim orolda yashagan turli qabilalar haqida ma'lumotlar mavjud. Shimolda koguryo, yemek, okcho qabilalari, Xangan daryosidan janubroqda xan qabilasi yashagan. U 3 ta sohaga bo'lingan: maxan (xan), chinxan, pyenxan. Aholi chorvachilik, baliqchilik, ovchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Lekin asosiy mashg'ulotlari dehqonchilik bo'lib, asosan «besh-non» deb atalgan ekinlar ekilgan. Kiyim bo'z va ahoyidan bo'lgan. Sinfy munosabatlar shimolda Annokan daryosi havzasida yashovchi kogrio qabilasida avvalroq boshlangan. Dastlab harbiy demokratiya. Okcho va yemek qabilalari Koguryoga bo'ysundirilgan. Don, material, baliq, kanizaklar bilan o'lpon to'langan. Janubda gullar tashkil topish jarayoni kechroq boshlangan bo'lsa kerak. Xan qabilasi 78 urug'ga bo'lingan. U Xitoy manbalarida tilga olingan (lekin urug'lar «davlat» deb nomlangan). Koguryolarda harbiy dohiy Van (qirol) unvonini olgan. Aristokratiya harbiy-chinovniklarga aylangan. Chinovniklar apparati 12 razryadga bo'lingan. Koreya yilnomalarida xususiy mulkni himoya qilish maqsadida qonunlar yaratilganligi haqi-

da yozilgan: O'g'ri o'g'irlangan molni 12 baravari darajasida to'lagan, biror hayvoniga zarar yetkazgan kishi hatto qulga aylantirilgan.

Koguryo davlati qachon paydo bo'lganligi xususida tarixchilarda yagona fikr yo'q, lekin u IV asr oxiri V asr boshlarida yarim orol shimoli hamda qo'shni Lyaodun yarim oroli territoriyasini egallagan kuchli davlat bo'lgan. Yarim orol janubida davlat paydo bo'lish jarayoni pekje, saro, kaya qabilalri tomonidan zaifroq qo'shnlarni bo'ysindirish orqali yuz bergan. Bo'ysundirilgan yerlar aristokratiyasi tabiiy ravishda bosqinchi zodagonlar bilan qo'shib ketgan. Pekche jamoasi III–IV asrlarda qo'shma jamoa va qabilalarni bo'ysundirgan. Koreya janubi-g'arbida, Xangan va Kingan daryolari havzalarida ancha kuchli Pekje davlati paydo bo'lgan. V–VI asrlarda yarim orolning janubi-sharqiy qismida Silla davlati paydo bo'lgan. Uning yadrosini saros (sobol) qabilasi tashkil etgan. Yangi davlatda ma'muriy bo'linishning territorial prinsipiga asoslangan. Turli darajadagi maxsus chinovniklar apparati vujudga kelgan. Silla davlati eng janubidagi Kaya qabilalar ittifoqi va uzoq Usam orolini o'ziga qo'shib olgan. Shunday qilib, VI asrga kelib Koreya yarim oroli hukmronligi uchun o'zaro kurashayotgan Koguryo, Pekje va Silla davlatlari bor edi. Bu davlatlardagi sotsial-iqtisodiy munosabatlar xarakteri masalasi koreys tarixshunosligida uzoq vaqt bahs va munozaralarga sabab bo'lib keldi. Ba'zi tarixchilar bu quldorlik davlatlari edi, deb hisoblasalar-da, ular feodal xarakteriga ega bo'lgan. Dehqon jamoalari davlat fuqarolari sifatida soliq to'lardilar va turli majburiyatlarni o'tardilar (saroy, yo'l, qal'alar qurilishi). Yerning oliy egasi davlat bo'lgan. Feodallar ham davlatdan yer olganlar. Koguryo va Silla davlatlarida ilk feodalizm uchun xarakterli sistema keng tarqalgan. Qullar ishlab chiqarishda katta rol o'ynamagan bo'lsalar kerak. Bu davrda ularning huquqiy ahvoli o'zgargan. Masalan, VI asr boshida Silla davlatida van o'lganda 10 ta qulni o'ldirib ko'mish odati taqiqlangan.

558-yili lashkarboshi sadaham qay qabilasi bo'ysundirilgan keyin mukofotga olgan 200 asirni qul qilmay, erkin dehqonlarga aylantirgan, buni aholi ma'qullagan. Xitoydan davlat boshqaruvi tizimi bilan birga mafkura ham o'zlashtirib olingan. Koreys davlati hukmdorlariga konfutsiylik ko'proq yoqardi. Davlat xizmati uchun chinovniklar maxsus konfutsiylik maktablarida tayyorlangan.

Feodal tuzum shakllanuvda muhim rol uynagan buddizm ham Xitoydan kirib kelgan. Koguryoda dastlabki budda rohiblari 372-yili paydo bo'lganlar. Pxenyan yaqinida 2 ta budda monastiri qurilgan.

384-yili Pekche vanning iltimosiga binoan Janudiy Xitoydan rohiblar kelishgan. Ularga katta yerlar in'om etilgan. Silla davlatiga Koguryodan kirib kelgan buddizm VI asrning 1-yarmida keng tarqaldi. Sillada ham ma'muriy bo'linish Xitoydagi kabi edi. Viloyat, okrug, uyezd boshliqlari poytaxtdan tayinlanardi. Davlat poytaxti Kimson yirik shaharga aylangan. Doimiy pochta xizmati mavjud edi (kata yo'llar va suv orqali).

**Koreys davlatlari o'rtasidagi kurash, ularning Xitoy va Yaponiya bilan munosabatlari.** Koguryo bir necha marta Xitoy hujumiga duchor bo'lgan. 245-yili Xitoyda 3 podsholik davrida Shim, Vey qo'shinlari Koguryo poytaxtini egallaganlar. Hukmdor o'ziga tobe oqcho qabilasi yeriga ko'chib ketgan. Ularning yordamida xonlar mamlakatdan quvilgan. IV asrda Koguryoga Shim Xitoyda Yan davlatini tuzgan sanbilar hujum qilgan. 342-yili poytaxt egallangan, van Kogukvon qochgan. Syanbilar hukmdori Muyun Xvan van oilasini asirga olgan, hatto qarshilikni sindirish maqsadida otasi hokimni ham qabrdan olib ketgan. Muyun Xvan xazinani talagan, poytaxt Xvandoni buzgan, 50 ming asirni olib qaytgan. Shundan so'ng Kochugvon o'zini vassal deb tan olgan. Keyinroq o'zini tiklagan Koguryo syanbiylardan halos bo'lgan. IV asr oxiri – 5chi asr boshlarida Van Kvanchetxo davrida Koguryo territoriyasi kengaygan (Iyaodundan yarim oroldagi xitoy mulklari). Pxenyan poytaxtga aylantirilgan. Pekje davlati territoriyasi hisobiga kengaygan. Koreya davlatlari va Xitoy o'rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar ham rivojlangan. Shimoliy sulolalarga qarshi kurashayotgan koreys davlatlari ko'proq Jan sulolasi bilan aloqa qilganlar. Diniy va siyosiy g'oyalar ham janubdan olingan (buddizm, konfutsiylik, boshqaruv sistemasi) Koreyada Xitoy adabiyoti va yozuvi tarqalgan. Xitoy iyeroglifida koreys tilida yozilgan. Koreys davlatlarining yaponlar bilan munosabatlari turlicha bo'lgan. Dastlab yaponlar bilan Naktonkan daryosi havzasidagi kayask davlatlari (yoki pyun-xan qabilalari) savdo munosabatlarini o'rnatganlar. Ular yaponlarga temir, oltin, kumush, don sotganlar; ularning yerlarida yapon qarorgohlari vujudga kelgan, yaponlar u yerdan turib talonchilik qilganlar. Kayasklar bo'lsa ulardan Silla davlatiga qarshi foydalanmoqchi bo'lganlar. Silla va Koguryo davlatlari yaponlarni quvib chiqarib, kayasilar yerini qo'shib olganlar (VI asrning 2-yarmi). Kurash davomida Silla hukmdorlari yaponlar bilan sulh tuzib, ularga garov tariqasida o'z odamlari va sovg'alar yuborganlar (talonchilikning oldini olish maqsadida). Pekje hukmdorlari qo'shnilariga qarshi kurashda yapon otryadlaridan foydalanганlar. V asrda Koguryo yarim orolining shimoliy qismini egallab,



pekjeni qisa boshlagach, u VI asrdan kuchaygan Silla bilan yaqinlashgan. 551-yili Pekje va Silla Koguryoni Xingan daryosi havzasidan siqib chiqarganlar. Qaytarilgan yerni Pekjedan Silla olib qo'ygan, ittifoq buzilgan. Shundan so'ng Pekje Koguryo va Yaponiya bilan ittifoq tuzgan. Bunga javoban Siasa-Xitoy ittifoqi vujudga kelgan.

VI asr oxirida (598-y.) Suy sulolasi asoschisi Yan Szyan Koguryoga qarshi katta armiya va flot jo'natgan. 612-yili ham Suy imperatori Yan Guan katta armiya jo'natgan. Koguryo lashkarboshisi Ilchi Mundok Xitoy armiyasini majaqlagan. 613 va 614-yillardagi hujumlar ham g'alaba keltirmagan. Shundan so'ng Koguryo Pekje bilan ittifoqda yangi Tan sulolasi ittifoqchisi (Koreya ishlariga aralashayotgan) Sillaga qarshi urush boshlaganlar. 645-yili Tan qo'shinlari Koguryoga kirib kelgan. Lyaodundagi Anshi qal'asi va Pxenyan atrofidagi koreyslar g'olib chiqqan. 660-yil Pekchega Sillaning 50 ming kishilik, tanlarning 130 ming kishilik armiyasi hujum qilgan. Poytaxt Sabi qulagan. Saroy va Van taslim bo'lgan. Pekje territoriyasi Tan viloyatiga aylangan (5 okrugga bo'lingan). 663-yili xitoylarga qarshi qo'zg'olon bostirilgan. Shundan so'ng asosiy zarba Koguryoga berilgan (Tan-Silla). Koguryo og'ir ahvolda edi. Davlatning amaldagi hukmdori Yon Kyusomun o'limidan so'ng feodallarning o'zaro kurashi yanada kuchaygan. 668-yili Koguryo poytaxtini Pxenyan egallagan. Territoriya tanlar qo'liga o'tgan.

**Mamlakatning Silla boshchiligida birlashgandan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.** Chet elliklar hukmronligi tez orada xalq qo'zg'olonlarini keltirib chiqardi. Tanlar Koguryo va Pekjeda mustahkam o'rnatishga olmadi. Bu yerdagi qo'zg'olonlar Silla davlati tomonidan qo'llandi. Bu narsa o'z navbatida Tan – Silla nizosiga olib keldi. 670-676-yillardagi janglardan so'ng Tedangan daryosidan janubdagi Koreya yarim orolining barcha territoriyasi Silla tarkibiga kirdi. Tanlar uni tan olishga majbur bo'lganlar. Silla boshchiligida mamlakatning birlashuvi Koreyada feodal munosabatlar qaror topishida muhim bosqichdir. O'zaro urushlarning to'xtashi, qo'shnilar bilan tinch munosabatlar o'rnatilishi mamlakat ishlab chiqarish kuchlari rivojiga ijobiy ta'sir qildi. 681-yili Silla vani Munmu o'z vasiyatnomasida shunday yozgan: «Oddiy xalqqa tinchlik berdim, soldat nayzalarini dehqonchilik quroliga aylantirdim, soliq va majburiyatlarni qisqartirdim, yengillashtirdim, mamlakatda tartib o'rnatdim, tog' kabi galla zaxiralari yaratdim». Bu yerda o'zini maqtash elementlari bilan birga real faktlar tilga olingan. Davlat tomonidan irrigatsiya tizimi qurilgan. Oqibatda hosildorlik ortgan, xazina boyigan. Feodal munosabatlar rivoji yerga davlat mulkchi-

ligi asosida yuz bergan. Yer fondining asosiy qismi dehqonlar qo'lidagi kichik chek yerlar edi (ba'zan u soldat dalalari deb ataladi).

722-yili rasmiy ravishda barcha yer davlatniki deb e'lon qilindi. Chek yer sistemasi dehqonni yerga bog'lab qo'ydi, u markazlashgan davlat dehqoni edi. Bu sistema mavjud davrda dehqon yerining feodal-lar tomonidan tortib olish imkoniyati yo'qotildi. Feodal chinovniklar yer egaligi kuchaytirildi (boquv okruglari paydo bo'ldi). Asosiy yer Silla zodagonlari va budda ruhoniylari qo'liga o'tdi. Bir necha mar-ta taqiqlanishiga qaramay bu jarayon tezlashib, markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi. Xizmat uchun berilgan yerlar amalda xususiy mulkka ay-lantirildi.

VIII asrda davlat mulkchiligi kuchli edi. Asr o'rtalarida territoriya mu'muriy jihatdan 9 ta viloyatga bo'lingan (3 ta Silla, 3 ta Koguryo, 3 ta Pekje territoriyasi) U o'z navbatida okrug va uyezdlarga bo'lingan. Chinovniklar tayyorlash maqsadida oliy davlat maktabi tashkil etilgan. Davlat imtihonidan o'tgan kishi mansabga o'tirar edi. Davlat poytaxti-da 170 ming hovli mavjud bo'lgan. Boylarning cherepitsali uylarining tomi ham oltin bilan bezatilgan. Hunarmandchilikning davlat shakli kuchaygan. Silla hunarmandlari mahsulotlari eksport qilingan. (Xitoy va Yaponiyaga).

**Madaniyat.** 3 davlat davrida o'rta asr umumkoreys madaniyatiga asos solingan. Bu davr mafkurasida ibtidoiy e'tiqod va tasavvurlar saqlanib qolgan. Konfutsiylik va buddizm kirib kelishi bilan (rasmiy din va mafkura sifatida) madaniyatga Xitoy adabiyoti va yozuvi ta'sir qilgan. Dastlabki tarixiy asarlar Xitoy tilida yozilgan. Shimoliy koreyada (kanso anaka) saqlanib qolgan maqbaralar arxitektura va tasviriy san'at rivojidan dalolat beradi. Tasviriy san'atning freska turi bilan (bo'rtma surat) maqbara devori va shiftlar bezatilgan. Kyondju rayonidagi arx-eologik yodgorliklar Silla davlati hunarmandchiligi yuksak bo'lganligi-dan dalolat beradi. «Oltin toj qo'rg'oni» (V asr) sof oltindan ishlangan.

VII asr o'rtalarida Kyondjuga astronomik rasadxona qurilgan. Umumxalq tili shakllangan VII asr oxirida olim Solchxon Xitoy iy-erogliflari asosida koreys tili fonetikasi va grammatik tuzilishiga mos yozuv sistemasini yaratgan. Konfutsiylik buddizm asosidagi o'rta asr mafkurasi birligi Koreyaning tan sullolasi bilan mustahkam madaniy aloqada bo'lishiga yordam bergan. Ko'pchilik Chananda (Xitoyda) o'qib kelgan. Ular orasida budda rohibi Xe Chxo (VIII asr) ham bor edi. U Xitoydan Hindiston va O'rta Osiyoga sayohat qilgan. («Hindiston podsohliklari haqida hikoyalar» muhim manba sifatida saqlanib qol-

gan. Xitoyda ta'lim olganlardan biri olim va yozuvchi Chaxve Chaxuvan (858–951). Poeziya va hikoyachilik janrlari rivojlangan. Sokkuran sun'iy g'oridagi ajoyib budda haykali. Pulguxs ibodatxonasi. Pandoks ibodatxonasidagi relyef suratli bronza qo'ng'irog'i.

**IX–XV asrlarda Koreya davlati. Koryo davlati.** IX asr oxirida qadimgi Silla davlati federatsiyasi mustaqil feodal udellariga bo'lingan. Davlat yerlarini chinovniklar va ruhoniylarga bo'lib berilishi va mustaqil feodal votchina (chanvon) larning tashkil topishi markaziy hokimiyatni zaiflashtirib yubordi. Katta mulk egalari markaziy hokimiyatdan yanada mustaqil bo'la boshladi. Katta yerlarni egallagan Budda monastirlari ham butkul mustaqillikdan foydalanganlar, yerlik feodallar (yonchju) xristianlar ustidan hukmronlik qilish huquqiga ega edilar. Ularga shaxsiy drujina yana bir-birlarini ustidan kurash olib borish uchun ham kerak edi. Dehqonlarning ahvoli Silla hukmdorlari qo'lida ham, feodallar qo'lida ham yomon edi.

819-yilda dehqonlar harakatlari keskin tus olgan. 896-yili poytaxt Kyonchju devorlari ostida dehqonlar qo'zg'olon boshlaganlar. Harakatchilar aristokrat va chinovniklarni bo'ysundirishdi. Nisbatan yirik feodallar o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar. 900-yili orolning janubi-g'arbiy qismida Xupekje davlati (so'nggi Pekche) tashkil topgan. Koreyaning markaziy qismida (hozirgi chhol'van rayoni) Txebon davlati tashkil topgan. Silla hokimiyati esa bir necha kichik rayonlardagina iborat bo'lib qoldi.

Dehqonlar harakatlari hukmron sinfni qo'rquvga solardi va kuchliroq hukmdor topilib xalqni boshqarishini istar edilar. Navbatdagi janglar natijasida feodal Van Gan keyinchalik davlatni birlashtirdi va davlatning hukmroni bo'ldi. 918-yili bu davlatning nomi Koryoga almashtirildi. Ko'p feodallar Van Ganoga bo'ysunishdi. Chunki u boshqalarga nisbatan kuchliroq edi. Bo'ysunmaganlarni esa u kuch bilan bo'ysundirdi. 936-yilda Van Gon so'nggi Pekjeni bo'ysundirdi va butun Koreyaning hukmdori bo'ldi.

Yakka feodal davlatning vujudga kelishidagi muhim bir sabab tashqi hujumlar edi. 926-yilda Boxay davlatini bosib olgan Kidoni shimoli-sharqiy Xitoy va Koreyaning ashaddiy dushmani bo'lib qoldi. Yangi tashkil topgan Koryo uchun shimoliy chegarani kuchaytirish asosiy masala edi. Butun shimoliy chegarada himoya devori tashkil etildi.

Bu qonunning tashkil topishi bilan sharqiy davlat strukturasi tashkil topdi. Sanjone (982–997) davrida davlat apparati tashkil topdi, asosiy davlat apparati vujudga keldi va 12 viloyat, 10 provinsiya tashkil topdi.

Mamlakat xavfsizligi va davlat ishlari harbiylar qo'lida edi. Harbiylarning asosini esa davlatga bo'ysunuvchi dehqonlar tashkil qildi, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lganlar harbiy xizmat qilishga majbur edilar. Armiyadagi dehqonlarni ularning hamqishloqlari moddiy tomondan qo'llashar edi. Odatda 4-5 xonadondan 1 soldat yuborishar, boshqalar esa uni va uning oilasini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi lozim edi.

Biroq mamlakatning markazlashishi tekis bo'lmagan. Keyinchalik ham katta yer egaligi va buddaviylikka sig'inishgan. Markaziy davlatning tashkil topishi uchun tashqi dushmanlarning kurashi ham to'sqinlik qilar edi. Asosiy xavfli dushmanlar (kidanlar) Lao imperiyasini tuzgan hamda Xitoy va Koreyani bosib olmoqchi bo'lganlar. 993-yilda kidanlarning ko'pchilik armiyasi Amnokandan o'tib, Koryoga bostirib kirishdi. Chxonchxongan daryosi yonida kidanlar qattiq qarshilikka uchrab, ortga qaytishga majbur bo'ldilar. Lekin bu bilan kidanlarning harakati to'xtamadi. Koryoning ichki kurashlaridan foydalanib, kidanlar 1010-yilda yana ko'p sonli askar jo'natdi va Koryoning poytaxti Kegyonni bosib olib, talon-taroj qiladilar. Biroq Shimoldagi Koreys askarlarining harakatlari bosqinchilarni ortga chekinishga majbur qildi. 1018-yil qishida 200 minglik kidan armiyasi chegarani buzib o'tib Yana Koreyaning poytaxtiga bostirib kirishdi. Ular qo'mondon Kan Gam Chxon tomonidan qattiq qarshilikka uchraydilar. Shimoli rayondagi Koryo askarlari 1019-yilda Kidanlarga qattiq zarba beradi. Ular o'rtasida sulh tuzilib, Koryo hukmdori tomonidan Lyao Kidan imperiyasini tan oladi.

**Koryoning XI–XII asrlarda ijtimoiy ravnaqi. Madaniyat.** Mamlakatning birlashishi va kidanlar bilan ittifoq Koreyaning iqtisodini rivojlanishiga, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning gullab-yashnashiga olib keldi. Kidanlar tomonidan buzib tashlangan viloyatlar yana taraqqiy eta boshladi. XII asr boshlarida Xitoy sayyohi Syuy Szing dehqonchilikning Koryo bo'yicha keng tarqalganligidan guvohlik beradi. Uning guvohligicha, hatto tog'li zonalarda ham sholi ekilgan.

Davlatning iqtisodiy asosini dehqonlarning mehnati tashkil etgan. Dehqonlar yuridik holatiga qarab 2 ga bo'lingan. Uning katta qismi Yanin «yaxshi odam»larga qarardi, ular oddiy ozod, davlat yerlarida ishlovchi odamlar edilar. Ikkinchi qismi esa chxonin (yomon yoki yaramas) kishilarga bo'lingan. Ular ozod emas edilar. Ular bo'ysunuvchi dehqonlar hisoblangan.

Dehqonlar renta-solig'ini to'lar, davlat ishlari va harbiy xizmatni o'tar edilar. Yer solig'i 1/10 dan 1/11 gacha hosildan to'lanar, ko'p va-

qtda uning hajmi ko'payar edi. Dehqonlardan yana qo'shimcha soliq-qlar: donni poytaxtga olib borgani uchun soliq, yo'lda himoya qilish uchun soliq, to'y solig'i, podsho oilasidan biror kishi o'lsa, ko'mish uchun soliq, chet el elchilari kelishi uchun soliq undirilgan. Shaxsiy yerlarda renta solig'ining hajmini feodalning o'zi belgilagan.

XI–XII asrlarda shaxsiy yer egaligi o'sa boshladi. Yirik feodallar va Budda monastirlari, podsho saroyi a'zolari, monastir va feodallar davlat yerlarini dehqonlar bilan birga qo'shib ola boshladi. Ba'zida feodal votchinniklar davlat yerlarida ishlovchi dehqonlarni katta va'dalar berib o'zlariga og'dira boshlashdi. Lekin bu va'dalarga ishongan dehqonlar tezda erkin dehqonlardan qaram kreposnoylarga aylanib, qattiq ekspluatatsiya qilingan.

Davlat majburiyatlariga nafaqat dehqon mahsulotlari, balki uyda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, hayvon terilari, baliqlar ham to'langan. Bu barcha narsalar hukmron sinfnig manfaatlarini qondirmas edi. Kerakli qazishmalarni topish, tuz topish, metalni qayta ishlash, qurol, shisha ishlab chiqarish, har xil taqinchoqlar – bularning barini maxsus hunarmandlar ishlab chiqarishgan. Poytaxt va yirik shaharlarda davlat hunarmandchilik ustaxonalari mavjud edi. Ustaxonalarda davatga qarashli krepostnoylar ishlagan. Hunarmandlarning ishi avlodlariga meros bo'lib o'tgan. Ichki savdo ham yaxshi rivojlangan. Poytaxt va yirik provinsiya shaharlarida butun bir savdogar mahallalar bor edi. Ko'p joylarda bozorlar tashkil etilgandi. Bu bozorlarda dehqonchilik mahsulotlari hunarmandlar mahsulotlariga almashtirilgan. Savdo va hunarmandchilik feodal davlatning qattiq ta'qibi ostida bo'lgan.

Tashqi savdo hunarmandlar sinfi uchun yaxshi daromad manbai hisoblangan. Koryo Xitoy chjurchjenlari va Yaponiya bilan ancha kuchli savdo olib borgan. 1024 va 1040-yillarda Koryoga arab savdogarlari kirib kelgan. Ular dorivorlar va boshqa narsalar olib kelishgan hamda ularni oltin, kumush, ipakka almashishgan. Koryo Sunn davlati bilan e'tiborga molik savdo olib borgan. U yerdan turli xil matolar, qimmatbaho ipak va boshqa narsalar olib kelingan. Koreya savdogarlari Xitoydan jenshen va kamyob dorilar, asal va kumush, qog'oz va hozkazolar olib kelishgan. Chjurjenlardan koreyslar teri, ot, yung, o'q va kamonlar olishar edi. Yaponiyadan asal olib kelishib, hunarmandchilik mahsulotlarini ularga sotishar edi.

Ichki va tashqi savdoning qanchalik mujmalligiga qaramay, savdogarlar o'zaro ijtimoiy kuch hisoblanmagan. Ular feodal va Budda cherkovining agenti sifatida mavjud edi va feodallar ularni qattiq nazorat qilgan.

Koreya davlatida, ayniqsa, XI asrning 2-yarmida feodal madaniyat asosiy o'rinni egallagan. 985-yilda chinovnik mansabiga o'tish uchun davlat imtihonining analogik xitoycha usuli ishlab chiqildi. 992-yilda esa hukmron chinovniklar uchun oliy konfutsiylik maktabi ochilgan. XI asrda saroy kutubxonasida juda ko'p xitoy konfutsiylik adabiyoti va bir necha ming xitoy kitoblari mavjud edi. Konfutsiy olimlarining harakati bilan shaxsiy maktablar ochilgan. Ular ichida 1055-yilda tashkil topgan maktab ancha taniqli bo'lgan.

Bu vaqtda buddizm roli ancha yuksak edi. Buddha cherkovi a'zolari davlat ishlariga tez aralashardilar. Podsho Munchjona (1047–1083) davrida 60 yil davom etgan «Techanchyon» budda adabiyoti maqomiga yetkazilgan. 1097-yilda Kegyon atrofida Xinvanga Buddha maqbarasi qurilishi nihoyasiga yetgan. Bu maqbarada 1000 ta monax bo'lgan. Mo'g'ullar tomonidan Xinvanga buzib tashlangan va yoqib yuborilgan.

Budda adabiyotining monumental nashrlari kitob bosishning ravnaqiga turtki berdi. XIII asr yozuvchisi Li Kyu Bo ma'lumot berishicha, «Sanjon yomun» (Qadimgi va hozirgi boshqaruv haqida) kitobi 1234-yilda yozilgan. Bu kitobda Koreya davlati institutlari haqida ma'lumot berilgan.

**XII asrlardagi siyosiy va sinfiy kurash. Dehqonlar harakati.** XII asr boshlaridan Koreya davlatining zaiflashuvi ko'rinib qolgan edi. Buning asosiy sababi feodallar, Buddha monastirlari va yirik chinovniklar tomonidan davlat yerlari tortib olingan edi. Davlat yer fondining qisqarishi bilan XI asrning 2-yarmida davlat turli majburiyatlardan voz kechishga majbur bo'ldi. Lekin shunga qaramay ba'zi bir xizmatlari uchun yer in'om etish to'xtamagan.

Yirik feodal uzellarining boshliqlari o'zlarining shaxsiy qurollangan otryadini tuzdilar. Buddha monastirlari qurollangan monaxlardan otryad uchun ichki kurashi harbiy dvoryanlar va chinovniklar, ruhoniylar o'rtalarida boshlanib ketadi. 1126-yilda harbiy kurash poytaxt Kechen ko'chalariga tarqaldi. Bu kurashga hokimiyatni egallash uchun feodal Li Cha Gyoma boshchilik qiladi. Bu kurash hatto tashqi chjurchjenlarning bosqini tufayli ham to'xtamadi. Chjurchjenlar bilan kurashda mamlakatning shimoli-g'arbiy qismidagi feodallar Monax Myoxonam boshchiligida podsho rezidensiyasini Sogyonga (Pxyenyenga) ko'chirishni talab qiladilar. Poytaxt aristokratiyasining qarshiligiga uchragan feodallar ochiqchasiga shimoli-g'arbiy rayonda alohida davlat «Buyuk mo'jizalar davlati» (Pevichuk) ni tuzishlarini e'lon qiladi. Feodalarning kurashi dehqonlar harakatiga turtki berdi. Feodal Kim Bu Sin

boshchiligida dehqonlar harakati to'xtashi bilan davlat bu barcha harakatlarga ham barham berdi.

1756-yilda Janubiy Koreyada Myonxvakso qishlog'ida davlatga qaram krepostnoylar bosh ko'tarishdi. Man boshchiligidagi bu qo'zg'olonlar Kenchju shahrini egallashdi. Poytaxtdan jo'natilgan 3000 kishilik otryad qattiq zarbaga uchradi. Shuning uchun otryadlar ularga yon bosib, Menxvaksoda yashovchi aholini krepostnoylikdan ozod qildilar. Podsho Man I bilan gaplashguncha hokimiyat qo'zg'olonchilarga qarshi yangi otryad tayyorladi. Bundan xabar topgan Man I hukumat askarlari bilan kurasha boshladi va poytaxtga xavf soldi. Bir vaqtning o'zida mamlakat janubi va shimolida qolgan dehqonlar ham qo'zg'olon ko'tarishdi. 1117-yilda Man I saroyga kelishuvga chaqirtirilib ushlana-di va o'ldiriladi. Shimolda Kim Dana boshchiligidagi kurashlar ham to'xtadi.

1193–1194-yillarda dehqonlar qo'zg'olonlarining yangi to'liqini ko'tarildi (Qo'zg'olon Kim Sa Mi, Xe Sima va boshqalar boshchiligida bo'ldi). Katta dehqonlar qo'zg'olonlari feodal hokimiyatni kuchsizlantirdi.

Feodal harbiylarning biri Chxve Chxun Xan hokimiyatga kelgach, dehqonlarga qarshi kuchli harakat boshladi. XIII asr boshlarida yana dehqonlar qo'zg'olonlari boshlandi.

**Koreya xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi.** Birinchi marta mo'g'ul askarlari 1218-yilda Koreyada paydo bo'lgan. Ular Koreya hukumatidan juda og'ir o'lpon talab qiladilar. 1225-yili Koreyadan qaytayotgan elchining o'ldirilishi mo'g'ul va koreys munosabatlarini yomonlashtirib yubordi. 1231-yili yozida mo'g'ul askarlari Salitoy boshchiligida Koryoga bostirib kirishadi va xalqning qattiq qarshiligiga uchraydi. Kuchju (hozirgi Kuson) himoyachilari 30 kun davomida mo'g'ul armiyasiga qarshilik ko'rsatdilar. Chxunchju shahri himoyachilari mo'g'ul askarlarining mamlakat janubiga yurishlarini to'sib qo'ydilar. Biroq poytaxtga hujum arafasida hukmron feodal sinf Chxve boshchiligida bosqinchilarga yon bosishadi va sulh tuziladi. Ular katta o'lpon, kiyim-kechak, matolar to'plashlari kerak bo'ladi.

1232-yil mo'g'ul askarlarining janubiy qismi katta o'lja (oltin, kumush) olishib Mo'g'ulistonga qaytishadi. Koryoda esa 70 mo'g'ul askarlari qoladi. Mo'g'ullar koryoliklarga yangi poytaxt Kandani qurdiradilar.

Mo'g'ullarning butun og'irligi xalq gardaniga tushar edi. 1232-yili Kchyonda qaram krepostnoylarning va davlatga qarashli dehqonlarning qo'zg'oloni boshlandi. Ular shaharda qolgan aristokratlarni yo'q qilishdi, ularning boyliklarini kambag'allarga bo'lib berishdi va Kandanga

yushiringan feodallarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rishdi. Hukmron sinf bu harakatni to'xtatdi. Bu harakatlar keyingi yil Sochyon, Tongyoda (Kyonchju), Nanchjuda va boshqa joylarda bo'lib o'tdi. Lekin bularning barchasi hukmron sinf tomonidan bostirildi.

Mo'g'ullarning o'ldirilishi va feodallar Kondoga qochishiga javoban 1232-yil oxirida yana Mo'g'uliston askarlari Koryoga yurishga majbur bo'ldi. Keyingi 20 yil davomida yana 5marta bosqinchilik, talon-taroj yurishlari sodir etildi. 1253-yili bir chinovnik podshohga aholining har 10 kishisidan faqat 2 kishigina tirik qolganini aytadi. 1254-yilgi bosqin natijasida 207 ming kishi asirga olingan va olib ketilgan.

Oqibatda hokimiyat Kechyonga qaytib mo'g'ullarni tan olishga majbur bo'ladi. Yana mamlakatda mo'g'ul askarlari to'lib ketdi, janubiy qismida esa mo'g'ullarning harbiy qishloqlari paydo bo'ldi. Feodallar mo'g'ullarning istaklarini so'zsiz bajo keltirardi.

Bunday holat mamlakatni oyoqqa turg'azdi. Shunda davlat dehqonlari va krepostnoylardan tashkil topgan «uch asosiy korpus» qo'zg'olon ko'tardi. Ular mamlakatni Chxve sulolasidan chiqqan podsho boshqarishini talab qilishdi. Qo'zg'olonchilar hukmron sulolaning bir a'zosini podsho etib saylashdi. Mingta mayda kemalarda ular Chindo (keyincha Chechjudo) oroliga suzib keladilar. Qo'zg'olon uch yil davom etadi. Mo'g'ullarning yordami bilan hukumat Chechjudodagi qo'zg'olonn bostirdi. Natijada hokimiyat mo'g'ullar qo'liga o'tdi.

Mo'g'ul imperatori Xubilay Koreyani Yaponiyani bosib olishda tayanch nuqtaga aylantirmoqchi bo'ldi. 1274-yilgi yurishning o'zidayoq 8000 koreys askari va 6700 dengizchi qatnashdi. Ikkinchi yurish paytida (1281) mo'g'ullar 900 ta kerna talab qildi. Koreys xalqini tinch ushlab turish maqsadida mo'g'ullar o'q-yoy ishlab chiqarishni man etishdi. Ular Koryo davlatidan ikki viloyatni: shimoli-g'arbiy (Tonnyobu) va shimoli-sharqiy (Ssanson chxongvanbu) viloyatlarini tortib olishdi. Koreys feodallari keyinchalik mo'g'ul qiziga uylanishadi yoki Yuan imperiyasi poytaxti Pekinda yashay boshlashadi. Shu bilan mo'g'ullar ularni o'z iznlarida saqlab turishdi.

**Li sulolasi paytida markaziy feodal davlatining mustahkamlanishi.** 1392-yili Koryoning oldingi hukmdorlaridan Li Son Ge o'zini podsho deb e'lon qildi. U yangi sulola asoschisi bo'ldi. Uning davrida davlat Choson nomi bilan atala boshladi. Poytaxt esa Seulga ko'chirildi. Bu sulola Koreyada 1910-yilgacha hukmronlik qiladi. Yangi sulola hukmdorlarining siyosati markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan edi. Ular federatsiyani o'z mustaqilligidan olib tashladi. Fa-



qatgina Budda ibodatxonalarigina mustaqil edi. Li hokimiyati bir necha bor (1392, 1402, 1424-yillarda) Budda yerlariga va krepostnoylarga yirik konfiskatsiyalar e'lon qiladi. Ko'p cherkov yerlari davlatga qaytarildi.

Li Son Ge davrida markaziy davlat apparatining strukturasi ishlab chiqiladi va u keyinchalik XV asrning 60-yillarida «Kyongun Pechjon» nomini oldi. Mamlakatni boshqarish ko'p sonli hokimiyat tashkilotlari qo'lida edi. Ulardan asosiylari oliy boshqaruv kengashi va olti bo'limdan iborat edi. Mamlakat sakkiz provinsiyaga (Do) bo'lib boshqarildi. Ularning har biri okrug va uyezdlarga bo'lingan edi. Har bir volost bir nechta qishloqlardan tashkil topgan edi. Harbiy xizmatchilar aholining 16 dan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklaridan iborat edi. Mamlakatning tashqi holati ham yaxshilandi. Min sulolasi bilan shartnoma tuzildi. Shimolda Chjurchjenlar bilan ham yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yildi.

Yaponiya bilan munosabatda Li sulolasi Asinoga sulolasining syogunlari bilan yaxshi aloqa o'rnatildi. XV asrning birinchi yarmida poytaxt va Uch jon provinsiyasida 50 ta harbiy gavan tashkil etildi. Koreyaning harbiy kuchlari mustahkamlangach, yapon qaroqchilarining bosqinlari to'xtadi. Koreya Yaponiya bilan tinch-xotirjam savdo qila boshladi. 1443-yilgi shartnomaga asosan yapon savdogarlari janubiy uchta portga kiritilar edi. Shu jumladan, Pusanga ham. Lekin kema va savdogarlar soni qattiq belgilangan edi.

**XV asrning 1-yarmida iqtisodiy o'sish va madaniyatning rivojlanishi.** Mamlakatning mustahkamlanishi va yangi feodal sistemaning tashkil topishi bilan Koreys madaniyati va ishlab chiqarishi rivojlana boshladi.

1429-yili qishloq xo'jaligini boqarish haqidagi kitob – «Nanse chiqsol» yaratildi. Bu kitob Chan Chxo va boshqalar tomonidan yaratildi. Astronomik qarashlar uchun yangi dojdemer asbobi ishlab chiqildi. Aniq vaqtni o'lchash uchun ham har xil asboblari o'ylab topishdi.

Hunarmandchilik ham rivojlandi. Ustaxonalarda qurollar tayyorlanar edi. Ustaxonalarning soni 6000 ta edi. Poytaxt hunarmandlari ko'p ishlar bilan (temirni qayta ishlashning 130 xili, suyak, teri, daraxt mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan) shug'ullanganlar.

Ishlab chiqarilgan mahsulot bozorga olib chiqilar edi. Biroq ko'p savdogarlar hukmron sinfnings manfaatiga qarar edi. Keyinchalik poytaxt Seulga ko'chishi bilan hokimiyat ko'p ko'chalarni (1399-yilda 800 savdo shoxobchasi) savdo uchun ochib berdi. Ular feodallar manfaatini qondirib, monopol savdo huquqini qo'lga kiritishdi.

Senchjona davrida (1419–1450) Saroy akademiyasi – «Donishmandlar uyi» tashkil etilgan. Bu yerda, asosan, konfutsiylik ta'limot-

lariga asoslangan etika va huquqiy savollar muhokama qilingan. Saroy ziyolilari «Koryo tarixi»ni yaratishdi. Qattiq nazorat ostida juda ko'p bilimlar kengaydi. Olimlar tibbiyot, astronomiya, matematika, qishloq xo'jaligi, geografiya, fizikaning yangi qirralarini ochdilar. Buyuk olimlar keyinchalik hokimiyatda ham yuqori o'rin egallay boshlashdi.

Metall shriftlardan foydalanish kitob bosishdagi va madaniyat tizimidagi yangilik bo'ldi. Bu davrda 28 harfdan iborat alfavit vujudga keladi. 1443-yilda vujudga kelgan bu alfavit saroy ziyolilari tomonidan (Chan In Chji vujudga keldi) «xunmin chonim» (aholini o'rganish uchun haqiqiy ovozlari) deb nomlangan edi. Alfavit yaratilganiga qaramay, muhim hujjatlar va badiiy yozuv qo'lyozmalari koreys yoki iyeroglif yozuvida qolgan edi.

## 14-MAVZU: IX-XI ASR O'RTALARIGACHA ANGLIYA

### REJA:

1. Anglo-saks istilosi va anglo-saks qirolliklari.
2. Daniyaliklarga qarshi olib borilgan kurash va Alfred Buyukning idora qilishi.
3. Kanut Datskiy davlati va anglo-sakslarning ijtimoiy tuzumi natijasida feodallasuv jarayoni.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** anglo-saks, geptarxiya, Uyesseks, Sesseks, Yesseks, Daniyaga qarashli mintaqa, «daniyaliklar puli», «Eduard vasiyati», kyorllardan, gayda, letlar, uillar, vergeldi, kyorllar, graf, erkin kishilar, lordlar, kotterlar, sherif, folklend.

**Anglo-saks istilosi va anglo-saks qirolliklari.** Rim legionlari Britaniyadan V asrning boshlaridayoq chiqib ketgan edi. Biroq mamlakatning bir qancha mayda qirolliklarga bo'linib ketishiga sabab bo'lgan «Britaniya mustaqilligi» uzoqqa bormadi. V asrning o'rtalaridan boshlab (449-yil atrofida), bu orolga turli xil shimoli-g'arbiy german qabilalari – anglar, sakslar, yutlar bostirib kira boshladilar. Orol oz-ozdan istilo qilina borib – bu istilo butun bir asrga – VI asrning ikkinchi yarmigacha cho'zildi. Anglo-sakslar istilosi natijasida ilgari Britaniya territoriyasida o'ndan ortiq mayda varvar-german qirolliklari vujudga keldi; bu varvar qirolliklari eng chekka g'arbdan – Uyels bilan Kornuyeldan va Kelt qirolliklari saqlanib qolgan eng chekka shimoldan – Shotlandiyadan tashqari, orolning butun territoriyasini egalladi. VII asrga kelib anglo-saks qirolliklari bir qadar yiriklashib, yettita (Geptarxiya deb ataladigan) qirollikni tashkil etdi. Janubda sakslarning uchta qirolligi – Uyesseks, Sesseks, Esseks (G'arbi-janubiy va Sharqiy Saks) qirolliklari vujudga keldi. Markazda va shimoli-sharqda, asosan, anglar o'rnashgan bo'lib, bu yerlarda Mersiya, Natumbriya va Sharqiy Angliya qirolliklari tashkil topdi. Yutlar chekka janubi-g'arbda muhim territoriyani, ya'ni Temza daryosi quyiladigan joyini ishg'ol qilgan kichik bir Kent qirolligini tuzdilar. VII asr ichida va VIII asrning birinchi yarmida asosiy rolni Shimoliy qirolliklar – Nortumbriya va Mersiya o'ynadi. VIII asrning o'rtalaridan boshlab gegemonlik janubiy qirolliklardan biriga – Uyesseksga o'tdi (uning poytaxti Vinchester shahri

edi). Uyesseks qirollari dastlab janubni –Sesseks, Yesseks va Kentni o'ziga bo'ysundirdi, so'ngra IV asrning boshlarida esa Mersiya bilan Nortumbriyani bosib oldi. Sharqiy angllar qirolligi o'z mustaqilligini bundan ilgari yo'qotgan bo'lib, avval Nortumbriyaga, keyin esa Mersiyaga bo'ysungan edi. Uyesseks qirolli – butun mamlakatni birlashtirgan ishi – Yekbert (802–839) edi. U mamlakatni birlashtirishni 829-yilda amalga oshirdi. VI asrdan boshlab anglo-sakslar orasiga xristianlik kiritila boshladi. Bir qancha vaqtgacha Angliyada ikkita xristian cherkovi o'zaro kurash olib bordi: biri – V asrda tashkil topgan va sharqdagidek cherkovlari bilan tashkiliy aloqada bo'lgan Irlandiya cherkovi, ikkinchisi – papa tomonidan Rimdan yuborilgan missionerlar tashkil etgan Rim cherkovining ta'siri g'olib chiqdi, buning sababi qisman istilochilar bilan, ya'ni anglo-sakslar bilan orollardagi keltlar o'rtasida bo'lgan antogonizm bo'lsa, asosan, Rim cherkonvining ko'proq markazlashganligi va aristokratlashganligi bo'ldi, anglo-saks qirollari uning yepiskoplaridan e'tiborli siyosiy kuch sifatida foydalanishlari mumkin edi.

**Daniyaliklarga qarshi olib borilgan kurash va Alfred Buyukning idora qilishi.** Birlashgan anglo-saks qirolligining tashkil topishi bilanoq daniyaliklarga qarshi qattiq kurash boshlashga majbur bo'ldi. Daniyaliklar deganda Angliyada faqat Skandinaviyadan Yutlandiya yarim oroliga ko'chib kelib, o'rinishib, bu yerda IX asrda kuchli qirollik tuzgan daniyaliklarning o'zinigina emas, balki yana Skandinav-norvejlar ham nazarda tutilar edi. Skandinavlarning Yevropa qit'asiga – Fransiyaga va janubiy Italiyaga qilgan hujumlari to'g'risida yuqorida gapirilib o'tilgan edi. Skandinavlarning Britaniya orollariga qilgan hujumlari undan ham dahshatliroq bo'ldi. Ular Irlandiyaga, Shotlandiyaga va Angliyaga bir necha asr davomida juda ko'p va dahshatli hujumlar qilib turdilar. Umuman olganda, daniyaliklar – skandinavlarning Angliyaga qilgan hujumlari kamida 300 yil (VIII asrning ikkinchi yarmidan to' XI asr o'rtalarigacha) davom etdi. Juda ko'p skandinavlarning shimoli-sharqiy Angliyaga o'rinishib olib, bu o'lkaning taraqqiyatiga ta'sir etdi. 838-yilda Yekbert daniyaliklarning Angliyaga qilgan hujumlaridan birini qaytara oldi, ammo 842-yilda ular orol ichkarisiga yana bostirib kirib, Londonga o't qo'yidilar, 866-yilda esa shimoli-sharqiy qirg'oqning hammasini bosib oldilar.

Daniyaliklar ancha zich joylashgan bu territoriya butun o'rta asr davomida Daniyaga qarashli mintaqa degan nom bilan yuritilar edi. Qirol Alfred Buyuk qirollik qilgan davr (871–900) anglo-sakslarning daniyaliklarga qarshi eng qattiq kurash olib borgan momentlaridan biri

bo'ldi. Alfred Buyukdan oldingi qirol Yetilred I daniyaliklarga qarshi kurashda halok bo'ldi. Alfred birmuncha vaqtgacha daniyaliklarga qarshi partizan otryadlari, tarqoq otryadlar vositasi bilan kurash olib bordi. Faqat keyinroq borib u muntazam urushga o'tib, daniyaliklarni Temza-ning narigi tomoniga uloqtirib tashlashga muvaffaq bo'ldi. 879-yilda daniyaliklar bilan sulh tuzildi, bu sulhga binoan, mamlakat ikki qismga bo'lindi: Angliyaning janubi-g'arbiy qismi anglo-sakslarga, shimoli-sharqiy qismi daniyaliklarga bo'lib berilgan edi. Daniyaliklarga qarshi kurashda Alfred qisman eski umumiy xalq lashkarlariga tayandi, qisman feodal harbiy tipidagi katta, o'rtacha va mayda yer egalaridan iborat yangi feodal qo'shinining kuchaytirilishini quvvatladi. Angliyada birinchi marta aholidan doimiy soliq olishni joriy qildi. Bu soliq «daniyaliklar puli», ya'ni daniyaliklarga qarshi kurashish uchun yig'iladigan soliq deb ataldi. Alfred zamonida ba'zi lotin avtorlarining asarlari anglo-saks tiliga tarjima qilindi. Qirolning buyrug'iga binoan, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim voqealarning muntazam yilnomasi tuzib borildi. Savodli kliriklar tayyorlash uchun yepiskoplik kafedralari qoshida yangi maktablar tashkil etildi.

Alfred Kent, Uyesseks va Mersiyanning qadimgi qonunlari – haqiqatlarni to'plashni, unga ancha keyin «Alfred haqiqati» nomi ostida chiqarilgan qonunlarni qo'shib bitta to'plam qilib chiqarishni buyurdi.

**Kanut Daskiy davlati va anglo-sakslarning ijtimoiy tuzumi natijasida feodallashuv jarayoni.** Daniyaliklarning siquvi Alfred zamonida va uning vorislari zamonida to'xtatildi. Alfredning vorislari Londonni qaytarib olib, daniyaliklarni shimoli-sharq tomonga, juda uzoqqa surib tashladi. Lekin daniyaliklarning hujumi X asrning oxirida – XI asrning boshlarida yanada zo'r berib takrorlandi. Bu safar hujum Skandinaviyadan (hozirgi Norvegiyadan) boshlanmasdan, balki bevosita Daniyaning o'zidan boshlandi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Angliya o'z mustaqilliklaridan butunlay mahrum bo'ldi. Daniya qirol Kanutga bo'ysundi. Kanut Daskiy (1017-1035) istilo qilingan yerlardan juda katta Shimoliy davlat tuzdi, bu davlatga Daniyaning o'zi, Norvegiya, Shvetsiya, Angliya va Shotlandiya kirdi. Angliya Daniyaga juda katta soliqlar to'lab turishga majbur bo'ldi. Ilgari daniyaliklarga qarshi kurashga sarflanib kelgan «Daniyaliklar puli» ancha ko'paytirilib, Daniya qirolligi xiroj tarzida to'lanadigan bo'ldi. Daniya zodagonlari Angliyaning janubida juda ko'p yangi yerlar oldi. Kanut o'lgandan keyin uning mo'rt, ko'p qabilali davlati tez vaqt ichida parchalanib ketdi. Daniya qirolligining qo'lida yana birgina Daniya qoldi.

Angliyada Eduard Ispovednik (1042–1066) taxtga chiqib, o'zining anglo-saks dinastiyasini tikladi. Lekin Eduardning hokimiyati kuchsiz edi. Anglo-saks zodagonlarining bir qismi daniyaliklarga moyil edi. Eduard boshchiligidagi ikkinchi bir qism zodagonlar fransuz – norman gersogi Vilgelm bilan ittifoq tuzishga harakat qildi. Eduard o'lgandan keyin zodagonlar mahalliy anglo-saks feodali – Uyesseks gersogi Garoldni qirol qilib sayladi. Lekin Vilgelm Noramnskiy «Eduard vasiyatini» pesh qilib, taxtni zo'rlik bilan olishga qaror qildi. Shundan keyin Vilgelm Londonga yo'l oldi va u yerda 1066-yil 25- dekabrda Angliya qirol deb e'lon qilindi. Bu voqea Angliya tarixida anglo-saks davrining nihoyasi deb hisoblanadi. Ilk anglo-saks qirolliklarining ijtimoiy tuzumida uzoq vaqt saqlanib kelgan urug'chilik munosabatlarining yaqqol adomatlari ko'rinib turardi. Juda ko'pdan-ko'p «haqiqat»larga, ya'ni VII–VIII asrlardagi turli anglo-sakslarning ijtimoiy tuzumi ko'p jihatdan franklarning «Sali haqiqati»da tasvirlangan ijtimoiy tuzumiga o'xshar edi. Franklardagi singari, anglo-sakslarda ham aholining asosiy ommasi (anglo-saks «haqiqatlari»da ishlatilgan termin bilan aytganda) erkin kishilardan – kyorllardan iborat edi. Zodagon kishining – yerllarining vergeldi esa dastlab faqat 400 shilling bo'lgan bo'lsa, keyincha 600 shillingga, undan keyin yana oshib, 1200 shillingga yetdi. Bular – o'z ahvoli jihatidan frankliklariga o'xshagan yarim erkin kishilar edi.

Ularning o'z yeri bo'lmay, ma'lum majburiyat evaziga yerllarning yerini ishlab berar edilar. Ularning vergeldi 80 shilling atrofida edi. Letlar Britaniyaning bo'ysundirilgan mahalliy aholisidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Zodagon anglo-sakslarning, yerllarning (va hatto ba'zi bir eng boy kyorllarning) qullari ham bo'lib, bu qullarning bir qismi obrokchi qullar bo'lib, ular dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Anglo-saks jamiyatida jamoa va boshqa mahalliy boshqaruv organlari juda ko'p bo'lib, bularning asosiysi qishloq – tun edi. Bu qishloq – qishloq jamoasidan iborat bo'lib, unda yer-suv bor edi, muntazam suratda qishloq yig'ini – galimot chaqirib turilardi. Saylab qo'yiladigan qishloq oqsoqoli shular edi. Qishloq jamoalarining vakillari oyda bir marta yuzboshilar majlisiga to'planar edi. Yuzboshilar majlislaridan yuqori o'rinda har bir graflikning xalq majlisi bo'lib, bu majlislar tarixiy jihatdan qabilaviy qirolliklar davrida saqlanib qolgan edi. Qirol vakili graflikning rasmiy boshlig'i, sherif o'z faoliyatida graflikning bu kengashi bilan hisoblashib turishi kerak edi. Bu kengashda mahalliy zodagonlar hal qiluvchi ta'sirga ega edi. Vitenagemot qirol hokimiyatini juda ham cheklab qo'ygan edi. U qonunlarni tasdiqlardi va mamlakatning oliy

sud organi edi. Qirollarni saylash va biror gunoh qilib qo'ysa, o'rnidan tushirish ham vitenagemot qo'lida edi, u tasdiqlamasa, qirolning hech qanaqa in'omi amalga oshmas edi.

VII – IX asrlarda, ayniqsa, X asrda anglo-sakslarning patriarxal jamoa tartiblari tobora tushkunlik sari yuz tutdi. Hali kuchli bo'lgan qishloq jamoasi bilan bir qatorda katta aristokratik yer egaligi avj oldi. Qirol maxsus yorliqlar berib, yerni dunyoviy zodagonlarga va cherkovga xususiy mulk qilib bera boshladi. Odatdagi qonun-qoidalarga asoslangan yer mulkiga, ya'ni jamoalarning, dehqonlarning yer-mulkiga (folklendga) qarama-qarshi o'laroq, mamlakatda pomeshchiklar mulki (boklend), yerga qirol yorlig'i asosida egalik qilish tobora kuchayib bordi, qirol yerning feodallarning xususiy mulki bo'lishini tan olish bilan birga, boklend egalariga ko'pincha yana bir qancha imtiyoz va immunitetlar (mahalliy dehqon aholisini sud qilish va ulardan soliq to'plash huquqi) ham berdi. Dehqonlarning chek yeri borgan sari maydalanib bordi. Katta dehqon oilasining ilgarigi o'rtacha chek yeri – gayda o'rniga VII asrlarda hamma joyda dehqonlarning miqdor jihatidan ancha oz bo'lgan yangi chek yeri – virgata uchraydi (virgata – gaydaning to'rtan bir qismi).

Daniyaliklarning hujumlari dehqonlarning ahvoliga juda yomon ta'sir qildi. Daniyaliklar o'z hujumlari vaqtida dehqonlarning xo'jaligini butunlay vayron qilardilar. Dehqonlar burglar, ko'priklar va yo'llar qurish, lashkarlar safida turib qo'riqchilik qilish va harbiy xizmatni o'tash uchun juda ko'p vaqt sarflashga majbur edilar. Tobora ortib borgan «daniyaliklar puli» har bir chek yerga solinardi. Nihoyat, daniyaliklarga qarshi olib borilgan uzluksiz urushlar vaqtida juda ko'p ritsarlar vujudga kelib, ularni ta'minlash ham shu dehqonlar ustiga tushardi. Bu ma'lumotlar VII–VIII asrlarga oid esdaliklarda uchrasada, lekin bu narsa IX – X asrda, ayniqsa, ko'paydi. X asrda qirollardan biri Etelstan (Alfredning nevarasi) bir farmon chiqardi, bu farmon Fransiyadagi Karl II Yaltiroqbosh farmonining aynan o'ziga o'xshardi, desa bo'ladi. Etelstan 930-yilda har bir erkin kishiga o'zi uchun bir xo'jayin (anglo-sakscha «lord», bu termin fransuzcha «senyor» degan terminga to'g'ri keladi) topib olishni buyurdi. Dehqonlarning o'z yonidagi katta yer egasiga bo'lgan qaramligini davlat hokimiyati immunitet tarzida rasmiylashtirdi. Qirol katta yer egalariga o'z atrofidagi aholini sud qilish va undan tegishli sud bojlari olish huquqini berdi. Bunday xususiy sud qilish huquqi soka deb, xususiy sud qilingan dehqonlar esa sokmenlar deb atalardi.

Yerdor lordlar manorlar (bu soʻz ham anglo-sakslar vaqtida paydo boʻldi) deb atalgan oʻz pomestylarida qisman qullar mehnatini ekspluatatsiya qilardilar. 1000-yilga oid bir manbada dehqonlarning turli guruhlari tasvirlanadi, lekin ilgari kyorllar degan nomi oʻrniga endi bu hujjatda genitlar va geburglar degan yangi nomlar ishlatiladi: genitlar xususiy yer egasi boʻlib, qisman qirolga, qisman yonidagi lordlarga soliqlar toʻlab turuvchi erkin dehqonlar edi, geburglarning esa oʻz yeri boʻlmay, pomeshchiklarning yerida dehqonchilik qilib, unga yil boʻyi har haftada uch-toʻrt kun juda ogʻir barshchina oʻtab beruvchi va bundan tashqari, lordga mol, gʻalla, pul shaklida turli xil soliqlar toʻlab turuvchi dehqonlar edi. Kam yerli dehqonlarning yana bir guruhi kassetlar (kotterlar) tilga olinadi, bularning kichik bir parcha yerlari va kulbulari boʻlib, bular evaziga uncha katta boʻlmagan barshchina majburiyatini oʻtar edilar.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Vilgelm Angliya qirolini etib qachon tayinlandi?
2. Kyorllar degan soʻzning maʼnosi?
3. Feodallashuv jarayonining keskinlashish oqibatlari?
4. Vitenagemot soʻzining maʼnosini ayting.
5. Rim legionlari Britaniyadan nechanchi asrlarda chiqib ketdi?
6. Ekbert nechanchi yillar hukmronlik qildi?
7. Angliyada qanday xristian cherkovlari mavjud?
8. Asosan mamlakatni birlashtirish nechanchi asrlarga toʻgʻri keladi?
9. Daniya-skandinaviyaliklarning Angliyaga qilgan hujumlari necha yil davom etdi?
10. Qirol Alfred Buyukning qirollik qilgan davri?
11. Angliyada birinchi marta aholidan olinadigan doimiy soliq turi?
12. Angliyada 879-yilda qanday voqea yuz berdi?



## 15-MAVZU: X–XI ASRLARDA GERMANIYA VA ITALIYA

### REJA:

1. X–XI asrlarda Germaniyada feodal munosabatlarning rivojlanishi.
2. Italiyaga qilingan yurishlar va Germaniya imperiyasining tashkil topishi.
3. Papalar va imperatorlarning investitura uchun kurashi.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** Verden taqsimoti, «Stelling», gufa, kommandatsiya, prekariy, ritsar, fogtlar, immunitet, yepiskop, libel, graf, baronlar, monastir, «Muqaddas Rim imperiyasi», «Abadiy shahar», kardinallar, «Rim cherkovi senati», selibat, investitura, «shvab», Vorm konkordati.

**X–XI asrlarda Germaniyada feodal munosabatlarning rivojlanishi.** 843-yilda Verdenda boʻlgan taqsimotga muvofiq, «Sharqiy Frank yerlari» (boʻlgʻusi Germaniya territoriyasi nazarda tutilgan edi) Lyudovik Nemisga (yoki nemischa Lyudvigga) oʻtdi. Aslida bu yerlar bir necha qabilaviy knyazliklarning – gersogliklarning yerlari edi. Mamlakatning hech qanday milliy birligi toʻgʻrisida u vaqtda soʻz ham boʻlishi mumkin emasdi. Gersogliklar shimoldan janubga qarab quyidagi tartibda joylashgan edi: Saksoniya, Frankoniya, Shvabiya (ilgarigi Allemaniya), Bavariya. Birmuncha keyinroq borib gʻarbda joylashgan beshinchi bir gersoglik – Lotaringiya qoʻshib olindi. Reynning narigi tomonidagi yerlarda feodallashuv jarayoni Fransiyadagiga qaraganda sustroq boʻldi. Hatto X asrning boshlarida ham Germaniya u qadar feodallashmagan edi. Jamoalarga – markalarga uyushgan erkin dehqonlar uzoq vaqtgacha oʻz mustaqilliklarini saqlab keldilar. Krepostnoylashtirish yoʻlidagi urinishlarga qarshi dehqonlarning katta qoʻzgʻolonlaridan biri, masalan, 841–842-yillarda Saksoniyada boʻlib, u «Stelling» degan nom bilan mashhurdir. Bu qoʻzgʻolon dehqon jamoalarning ittifoqi boʻlib, bu ittifoq eski majusiylik bayrogʻi ostida ish koʻrgan edi, bu ittifoq ham kelgindi frank zodagonlariga, ham mahalliy saks zodagonlariga qarshi qaratilgan edi. Rim taʼsirini oʻtkazishning, jumladan, xususiy mulkchilikning va yerga biriktirib qoʻyib shaxsiy qaram qilishning yangi formalarini kiritish Reynning narigi tomonida ancha sekin

amalga oshirilmoqda edi. Biroq X va XI asrlarda ham feodallashuv ancha muvaffaqiyat qozondi. Marka, ya'ni jamoa tushkunlikka yuz tutdi. Katta dunyoviy va cherkov yer egalari tobora ko'p yerni o'z qo'liga olib bordi. Dehqonlarning ilgarigi chek yerlari – gufa maydalanib bordi. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi orqasida yer qo'ldan qo'lga o'ta boshladi. Dehqonlarning bir qismi o'z yeridan ajrab, feodal yer egaligiga qaram bo'lib qoldi. Kommendatsiya, ya'ni o'zini qudratli qo'shinisining, yirik yer egasining homiyligiga topshirishi, immunitet, ya'ni yer egasining davlat funksiyalarini olib borish va birinchi navbatda tevarak-atrofida aholini sud qilish Reyn bo'yidagi cherkov yerlarida (asosan Frankoniyada) juda ham avj olib ketgan perekayitlik munosabatlari X–XI asrlarda Reynning narigi tomonida tobora tez-tez uchraydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning hammasi shuni ko'rsatadiki, yuz-ikki yuz yil ilgari g'arbiy Frank davlatida feodal munosabatlar qanday avj olgan bo'lsa, Germaniyada ham, garchi kechikib bo'lsa-da, shunday avj oldi. Germaniyada katta yer egaligining avj olishida qirol xazinasiga qarashli yerlarning talon-taroj qilinishi katta rol o'ynadi. Karollarning keyingi kuchsiz qirollari bu yerlarni o'z qo'llarida saqlab qololmadi. Shu bilan bir vaqtda, german feodallarining sharqda slyavyanlar va vengerlarga qarshi, janubda Italiyaga qarshi olib borilayotgan urushlari kengaygan sari, Germaniyada ritsarlik ham tobora zo'r berib avj oldi. Germaniyada feodal munosabatlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari sifatida cherkov yerlarida tashkil topgan, fogt deb ataladigan yer egaligining keng tarqalganligini ko'rsatib o'tish kerak. Dastlab fogtlar cherkovda xizmat qilar, u yerda harbiy va sudyalik vazifalarini ado etar va buning evaziga cherkov yerlarining bir qismini foydalanish uchun olar edilar. Keyinchalik bu yerlar nasldan naslga o'tadigan feodal yerlariga aylandi. Fogtlarning o'zlari esa haqiqiy feodal bo'lib qoldilar. Urushlar feodallar kuchini ma'lum darajada birlashtirishni talab qilar, qirol esa feodallar lashkarlarining sarkardasi sifatida zarur edi. Bu narsa ularni qirolga bo'ysunishga majbur qilar edi. Nihoyat, ritsarlarning siyosiy rolini ham etiborga olish kerak. Ritsarlar tobora ko'payib, sosloviy bo'lib borgan sari qirol hokimiyati katta feodallar bilan to'qnashuvda ritsarlarga tayana olardi. Xalq ommasini tushkunlikka solish davom etib borayotgan sharoitda qirol hokimiyati xalq harakatiga, dehqonlar harakatiga qarshi tayanch sifatida feodallarning hammasiga ham zarur edi.

919-yilda feodal zodagonlar Saksoniya gersogi Genrix I Qushbozni qirol qilib sayladilar. Saksoniyalar dinastiyasi mamlakatni 1024-yilgacha boshqardi. Genrix I hukmronligi davrida (919–936-yillar) Sak-

soniya Germaniyani butun ijtimoiy rayonlarini egaladi. Bu yerda erkin dehqonlar (friliglar yoki freymanlar) anchagina saqlanib qolgan bo'lib, bulardan qisman otliq, qisman piyoda harbiy lashkarlar tuzildi. Saksoniya harbiy jihatdan boshqa gersoglarga nisbatan kuchli bo'lganligi sababli u agressiv tashqi siyosat olib bordi. Genrix I zamonida mamlakat territoryasi G'arb va Sharq hisobidan ancha kengaydi va Lotaringiya Germaniya ixtiyoriga o'tdi. Sharqda Ekba daryosi bo'yidagi slavyanlarga qarshi agressiya olib borildi, Lyutichlar territoriyasiga bostirib kirdi. Slavyanlarning Branibor qal'asi bosib olinib, unga Brandenburg deb nom qo'yildi. Genrix I vengerlarga ham qarshi urush olib bordi. 933-yilda u Merzeburgga yangi bir joydan vengerlarga qattiq zarba berdi. Genrix hukmronligi davrida ritsarlar sonini ko'paytirib qal'alar-burglar qurulishiga katta e'tibor berdi. Bu qala'lar keyinchalik savdo-sanoat shaharlariga aylandi.

**Otton I ning idora qilishi.** Genrix I ning o'g'li Otton I (936 – 973) qirol hokimiyatini mustahkamlashni davom ettirdi. U dastavval boshqa gersoglar ustidan nazoratni kuchaytirdi, buning uchun nikoh va boshqa qarindoshlik aloqalaridan foydalandi. Qirol ta'sirini butun mamlakatga yoyishning ikkinchi bir usuli yepiskoplik sistemasi bo'ldi. Otton cherkov bilan do'stona aloqa bog'ladi. U yepiskoplarga keng miqyosda immunitet huquqlar berdi va ularga juda ko'plab yer ulashdi. Shu bilan birga, yepiskoplarni ham uning o'zi tayinlardi. Cherkov yerlaridan keladigan daromadlar qirol xazinasiga ko'pdan ko'p hissa ajratdi. Shunday qilib, Germaniyada cherkov manfaatlari bilan davlat manfaatlari bir-biriga chatishib, Germaniyaning turli viloyatlaridagi yepiskoplar mahalliy knyazlarga – gersoglarga e'tibor bermay, bevosita qirolga bo'ysundilar. Shu bilan bir vaqtda, yepiskoplarning qirolga tobeligi ularning Rim papasiga deyarli bo'ysunmay qo'yishiga olib keldi. Otton I otasining agressiv tashqi siyosatini davom ettirdi. Otton I zamonida Elbaning narigi tomonidagi slavyanlarga qarshi kurash yanada kuchli suratda davom etdi. Elbaning narigi tomoniga nemis kolonistlari ko'chib kelib o'rmasa boshladi. Ularning eng yaxshi yerlarini tortib olib, kolonist-nemislarga berar edilar. Ba'zan esa hatto nemis feodallari bilan tinch munosabat o'rnatishga moyil bo'lgan slavyanlarning 30 ga yaqin knyazini o'z huzuriga «ziyofat»ga chaqirib, shu yerda buyruq berib ularning hammasini o'ldirtirib yubordi. Otton I vengerlarga qarshi kurashni davom ettirdi. U 955-yilda Lexa daryosi bo'yida (Augsburgga yaqin bir joyda) vengerlarga yana zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin vengerlar Germaniya yerlariga hujum qilishni to'xtatdi-

lar. Ular xristianlikni qabul qila va nemislarning ta'siriga o'ta boshladilar. keyinchalik venger feodallari nemislarning slavyanlarga qarshi olib borgan kurashida bir necha marta nemislarga ittifoqchi bo'ldilar. Lekin Otton asosiy e'tiborini sharqqa emas, balki Italiyaning janubiga qaratdi, chunki Italiya german imperatorlarining dunyoga hokim bo'lish rejasi asosiy o'rin tutar edi.

**Italiyaga qilingan yurishlar va Germaniya imperiyasining tas-hkil topishi.** Italiya X asrda ancha feodallashgan edi. Bu yerda feodallashish jarayoni Germaniyadagiga qaraganda ancha ilgarilab ketdi. Italiyada feodal munosabatlar juda boshqacha bir tarzda, o'ziga xos xususiyatlar bilan boshlandi. Langobardlar o'z davrida Italiyadagi quldorlik tuzumini uzil-kesil tugatganligi shimoliy va o'rta Italiya dehqonlarning ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda dehqonlar borib-borib asoratga solingan bo'lsalar-da, har holda, bu yerda krepostnoylik u qadar qattiq bo'lmadi. Jumladan, bu hol shunda o'z ifodasini topgan ediki, dehqonlarning majburiyatlari ilgarigidek o'zboshimchalik bo'lmasdan, balki aniq bir me'yorga solingan edi. Ikkinchi tomondan, Italiyada shaharlar ancha erta rivojlana boshlaganligi sababli krepostnoy dehqonlar shaharlarga ketishi, natural majburiyatlarni pul bilan muddatidan ilgari to'lashi, erkini sotib olishi mumkin edi va hokazolar. Italiyada krepostnoy dehqonlar bilan bir qatorda krepostnoy bo'lmagan, lekin yeridan mahrum qilingan dehqonlar ko'p edi. Bu dehqonlar feodallarning yerlarini ma'lum muddatga yoki egasi bilan maxsus tuzilgan yozma shartnoma – kontrakt (ular liberlar deb ham atalardi)da ko'rsatilgan shartlar bilan ijaraga olar edilar. Italiya X asrda siyosiy jihatdan Yevropada eng tarqoq bir davlat edi. U juda ko'p mustaqil gersoglik, graflik va yepiskoplarga bo'linib ketgan edi. O'rta Italiyadagi papa davlati ham feodallashgan edi. Papalik taxti har turli rimlik aristokratiya xonadonlari o'rtasidagi nayranglar va qonli urushlarga sabab bo'lmoqda edi. Italiya janubiy territoriyasining bir qismi hali Vizantiyaga qarar, bir qismini esa arablar bosib olgan edi. Biroq Italiya siyosiy jihatdan shunday tarqoq bo'lishiga qaramasdan, mamlakatda shahar hayoti jadal taraqqiy etmoqda edi. Italiya shaharlari hali ham O'rta dengizda vizantiyaliklar va arablar bilan savdo qilar edi. Shaharlarda turli xildagi hunarlar rivojlanmoqda edi. X asrda savdo va shaharlarning ahamiyati juda kam bo'lgan Germaniyaga nisbatan Italiya german feodallariga juda katta boyliklarga ega bo'lgan, zeb-ziynatli va farovon mamlakat bo'lib ko'rinar edi. Otton I ning o'g'li bilan nevarasi – Otton II ham, Otton III ham butunlay Italiyadagi siyosat bilan band bo'ldi. Otton II janubni qo'lga

kiritishga harakat qildi. U Neapol bilan Terentini bosib oldi. Lekin pirovard-natijada 983-yilgi arablar bilan bo'lgan dengiz janglaridan birida mag'lubiyatga uchradi, oradan ko'p o'tmay u Ravennada yosh o'lib ketdi. Onasi imperatritsa Feofaniya regent bo'lib idora qila boshladi. Lekin uning obro'si yaxshi emas edi. Imperator qirol hokimiyatining zaiflashganligidan foydalanib, german gersoglari o'z knyazlarini butunlay mustaqil hokimlar sifatida idora qila boshladilar.

Konrad II yana qonun chiqarib, ritsar feodallarini nasldan naslga meros bo'lib o'tadigan qilib qo'ydi. Italiyaning yirik feodallariga qarshi kurashda Italiya ritsarlari – vavassorlarni qirol tomoniga og'dirib olish maqsadida Konrad II bu qonunni dastlab 1037-yilda Italiya uchun chiqargan edi. So'ngra, oradan ko'p vaqt o'tmay, bu yangi qonun Germaniyaga ham tadbiq qilindi. 1034-yilda Konrad janubda Son va Rona daryolari havzasidagi butun boshli Butungriya qirolligini, shuningdek Provansni qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi. Germaniyaning Provansdagi ta'siri Otton I Provans qirolichasi Adelgeydaga uylangan vaqtdan boshlangan edi. Genrix III Chexiya knyazi slavyan Brjetislavni o'ziga vassal tarzida qaram qilib oldi (1041). U Polsha bilan Vengriyaga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Germaniyada Frankoniya yerlaridan tashqari, imperator Bavariya va Shvabiya gertsoglarini hamda janubi-sharqda yangi bir gersoglikni – Karintiyani ham bevosita nazorat qilar edi. Faqat Saksoniya, Lotaringiya va Burgundiyagina ilgarigi avtonomiyalik holatini saqlab qolgan edi. Genrix III ko'payib borayotgan ritsarlarga tayanish bilan birga, o'z ittifoqchisi bo'lgan cherkov xizmatchilaridan foydalanishni ham davom ettirdi.

**Papalar va imperatorlarning investitura uchun kurashi.** XI asrning o'rtalarida katolik cherkovi alohida bir holatda edi. Bir tomondan, bu vaqtda cherkov o'z ta'sirini butun G'arbiy Yevropaga yoygan edi. XI asrda Skandinaviya xalqlari, Vengriya, Polsha xristianlikni uzil-kesil qabul qildi. Cherkov idoralarida bir harakat vujudga kelib, bu harakat yuqorida ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal qilishni, papaning cherkov ustidan bo'lgan hokimiyatini kuchaytirishni va cherkovning o'zining dunyoviy hokimiyatidan mustaqilligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu kayfiyatlarning ifodachisi Klyuniy monaxlari Fransiya, Germaniya va Italiyada o'nlab yangi monastirlar ochib, alohida bir monastirlar federatsiyasini tuzdilar. Bu federatsiya papaning maxsus homiyligi ostida edi. Klyuniychilardan biri, Gildebrand nomli italyan (toskanalik) bir guruh hamfikrlari bilan birgalikda 25 yil davomida papa kuriyasi bir nechta papa davrida rahbarlik mavqeyini

egallab keldi. Pirovardida Gildebrandning o'zi papa bo'lib, Grigoriy VII (1073–1085) degan nom oldi. Grigoriy VII har qanaqa kelishishni yomon ko'radigan, mustahkam irodali, o'jar, fanatik, juda keskin kishi bo'lib, teokratik g'oyalarni o'zlashtirib olgan edi.

Rim cherkovining yuqorida aytib o'tilgan reformalaridan dastlabki ikkitasining amalga oshuvi shu narsaga imkon berdiki, bu vaqtda imperator Genrix IV hali yosh bo'lib, Genrix III o'lgan yili u endi 6 yoshga kirgan edi. Imperatorning yoshligidan imperiyadagi knyazlar foydalanib qolishdi, natijada Germaniyada XI asming 50–60-yillarida siyosiy jihatdan to'la tartibsizlik hukm surdi. Shuning uchun ham papalik uzoq vaqtgacha imperator hokimiyati bilan hisoblashmadi. Biroq Rim kuriyasi investituraga oid uchinchi reformaga o'tgan vaqtda, endi bulog'atga yetgan Genrix IV bunga qattiq norozilik bildirdi. 1076-yilning boshlarida Vormsda bo'lgan cherkov yig'ilishida (bu yig'ilishga german yepiskoplari va zodagonlarning yuqori tabaqalari to'plangan edi) imperatorning talabi bilan Grigoriy VII o'rnidan tushirildi.

Imperator bilan papa o'rtasidagi kurashning keskinlashuv sabablarini tushunish uchun imperatorning 70-yillarda Germaniyada olib borgan siyosatini bilib olish kerak. Genrix IV qattiqqo'l va shuhratparast qirol edi. Otasi Genrix III singari u ham feodal zodagonlarning o'zboshimchaligini jilovlashga harakat qildi. Uning davrida qirollik – imperatorlik hokimiyatining ta'siri Frankoniyadan tashqari, qo'shni Shvabiyada, shuningdek, Saksoniyada ham kuchayib bordi. Genrix IV Saksoniyani bo'ysundirishni o'z oldiga eng birinchi siyosiy vazifa qilib qo'ydi. U G'arbiy Saksoniyada yangidan yangi imperator qasrlari qurishni davom ettirdi, saroyini shu yerga ko'chirib bordi va bosib olingan mamlakatda qanday xo'jayinlik qilsa, bu yerda ham xuddi shunday xo'jayinlik qildi. Saksoniyada imperator pomestyelarining soni borgan sari ortib bordi (XI asrining oxirida imperatorning Frankoniyadagi yerlarida qancha pomestyesi bo'lsa, Saksoniyada ham shuncha pomestyesi bor desa bo'lardi). Imperator Saksoniyaning boy o'rmonlarini tortib olib, o'z mulkiga aylantira boshladi. Ancha qismi hali erkin bo'lgan sakson dehqonlariga juda og'ir imperator solig'i (syensus) solindi. Imperatorga qarashli imeniyelarni boshqaruvchi ministeriallar dehqonlarning jamoa yer-suvlaridan foydalanishni qiyinlashtirib qo'ydi. Biror sabab bilan o'z yeridan ajragan erkin dehqonlarning – freymayenlarning bir qismi qaram kishilarga aylandi yoki hatto franklar va shvablar uchun barshchina majburiyati to'lay boshladi. Dehqonlarning imperatorga va uning umaldorlariga – ministeriallar va fogtlar (yepiskoplar nomidan cherkovga

qarashli yerlarni boshqaruvchilar)ga va shu kabilarga nafrat ko'zi bilan qarashi tabiiy edi. Saksoniyaga suqilib kirib borayotgan frank va shvabiya feodallarini ular dehqon jamoalariga zulm qiluvchi va ularni ezuvchi asosiy zolimlar deb hisoblardilar. To'g'ri, bu vaqtda Saksoniya zodagonlari ham krepostnoy feodallarga aylana boshlagan edi. Lekin imperatorga, yepiskoplarga va monastirlarga qaraganda Saksoniya feodallarining yerlari birmuncha kam edi. Saksoniya feodallari ham imperatorga va uning atrofdagilarga nafrat ko'zi bilan, Saksoniyani ekspluatatsiya qiluvchi ajnabiylar deb qarar edi. Shuning uchun ham Saksoniyada 1073–1075-yillarda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon mahalliy dehqonlar ham, mahalliy feodallar ham qatnashdi. Qo'zg'olon 1073-yilning avgustida ko'tarildi. U shu qadar shiddatli va katta qo'zg'olon bo'ldiki, Genrix IV ning o'zi ham qo'zg'olonchilar qo'liga asir tushishiga sal qoldi. U zo'r qiyinchilik bilan va juda katta xavf-xatar ostida Saksoniyadan qochib jon saqlab qoldi. Dehqonlar imperatorga qarashli ko'pgina pomestyelardagi xo'jalik binolariga o't qo'yidilar, bu vaqtgacha to'lab kelgan to'lov va barshchinalarini to'lamay qo'yidilar.

Biroq dehqonlarning faol harakati saks feodallarini qo'rquvga soldi. Dehqonlarga bildirmasdan turib, feodallar imperator bilan muzokara boshlab, uni o'zlariga ko'proq yon berdirishga harakat qildilar. Saks zodagonlari imperatorga qarshi urush harakatlarini sustlik, bo'shanglik bilan olib bordi. Genrix IV esa bularning hammasidan juda ustalik bilan foydalandi. 1075-yil yozining boshlarida u bir qismi imperatorning frankoniyalik ritsarlardan, bir qismi shvabiya tog'liklaridan iborat bo'lgan katta qo'shin bilan Saksoniyaga bostirib kirdi. 1075-yil 9-iyunda Langenzols degan joy yaqinida qo'zg'olonchilarning asosan dehqonlardan iborat bo'lgan qo'shinlarini tor-mor qildi. Dehqonlarga qo'shilmay, o'zlaricha alohida jang qilgan saks feodallari ham mag'lubiyatga uchradilar. Lekin ular dehqonlarga qaraganda oz talafot ko'rdilar. Qo'zg'olonchi dehqonlar mag'lubiyatga uchrashi natijasida juda katta talafot ko'rdilar, ulardan bir necha ming kishi halok bo'ldi.

1075-yilning ikkinchi yarmida Genrix IV Saksoniyada butunlay xo'jayin bo'lib qoldi. Bu o'lka juda qattiq talandi va vayron qilindi. Saksoniya yaqin orada Frankoniyaga qo'shilib ketadiganday ko'ringan edi. Genrix IV sakslar ustidan g'alaba qozongach, o'zini Grigoriy VII ga nisbatan ham hujum siyosati yuritish uchun yetarli darajada kuchga egaman, deb his qildi.

Investitura uchun kurash XI asrning oxirida va XII asrning boshlarida ham davom etdi. Grigoriy VII ning vorislari Genrix IV ga qarshi un-

ing o'z o'g'lini – Genrix V ni qurollantirdilar. Biroq Genrix V otasining o'rniga o'zi imperator bo'lib olgandan keyin, u ham investituradan voz kechishni istamadi. Genrix V qirollik qilgan davrning oxirgi vaqtlaridagina, 1122-yilda, u bilan Kallist II o'rtasida Vormskonkordati deb nom olgan kelishuv shartnomasi tuzildi. Vormskonkordatida yepiskoplarning ruhoniylar tomonidan saylanishi prinsip qilib belgilandi. Shu bilan birga, Germaniyada saylovlar imperatorning o'zi yoki uning vakillari ishtrokida o'tkaziladigan bo'ldi. Burgundiya bilan Italiyada esa yepiskop saylashga imperatorning qatnashishi ko'zda tutilmadi. So'ngra imperator papa bilan bo'lgan kurash vaqtida undan tortib olingan cherkov mulkini qaytarib berishni va'da qildi. Investituraning o'zi esa konkordatga muvofiq ikki qismga bo'lindi: bir qismi cherkov investiturasini (uzuk va hassadan iborat) bo'lib, buni papa beradigan bo'ldi, ikkinchi qismi dunyoviy investitura (saltanat hassasidan iborat) bo'lib, buni imperator beradigan bo'ldi, imperator shu bilan o'zining yepiskoplar ustidan senyorlik huquqini ta'kidladi.

Umuman olganda, konkordat imperator hokimiyatning yepiskoplarga bo'lgan ta'siri zaiflashdi. Cherkov yerlaridan imperatorga to'lanadigan to'lovlar esa endi kamaytirilib, dunyoviy lenchilarning majburiyatlariga tenglashtirildi. Investitura masalasidagi yon berishdan tashqari, konkordatda, imperatorga noqulay bo'lishiga qaramay, Grigoriy VII amalga oshirgan boshqa islohotlarga ham papaga indamay yon berilgan.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. XI asrning o'rtalarida katolik cherkovi qanday ahvolda edi?
2. Grigoriy VII islohotlarining asl mohiyati haqida gapiring.
3. Vormskonkordatining tashkil topish shart-sharoitlarini ayting.
4. Grigoriy VII qachon vafot etdi?
5. Saksoniyadagi 1073–1075-yillardagi qo'zg'olonning asl mohiyati nimalardan iborat edi?
6. Verden taqsimoti qachon bo'ldi?
7. Stelling qo'zg'olonining ittifoqchilari va maqsadlari.
8. Saksoliyaliklar birinchi bo'lib asos solgan shaxsni aniqlang.
9. Genrix I qaysi yilda Saksoniya gersogi etib tayinlandi?
10. Otton I 95-yilda qaysi shaharga qo'shin tortib bordi?
11. Otton I imperatorlik tojini nima uchun oldi?
12. Otton I ning hukmronligi davrida Italiyaning ijtimoiy hayotini tushuntirib bering.



## **16-MAVZU: O'RTA ASRLARDA ISPANIYA. PIRENEY YARIM OROLINING ARABLAR TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. REKONKISTA HARAKATI**

### **REJA:**

1. Ispaniyada arablar hukmronligi mavzusining tarixshunoslikda yoritilishi.
2. Arablar tomonidan Ispaniya hududining bosib olinishi va arablar hukmronligining o'rnatilishi.
3. Ispaniyada arablarning idora etish tizimi.
4. Ispaniyada arablar hukmronligi davrida iqtisodiy hayot.
5. Ispaniyada arablar madaniyati.
6. Rekonkista harakati va uning natijalari.
7. Aragoniya va Kataloniyada iqtisodiy, siyosiy fikrlar. Karteslar faoliyati.
8. Inkvizitsiya sudining joriy etilishi.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** Vestgotlar davlati, Mosarablar, Ummaviylar xalifaligi, Mavrlar madaniyati, Morisklar, rekonkista, korteslar, Rikos-ombres, infonsones, inkvizitsiya.

**Tarixshunoslik.** Gollandiyalik tarixchi R.Doziy XIX asrda 4 tomlik «Istoriya Musulmani v Ispanii» kitobini yozgan. Kitobning qiymati shundaki, R.Doziy o'sha vaqtda yig'ish imkoniyati bo'lgan barcha manbalarga ega bo'lgan. Kitob muallifining talanti, olimning shubhalar ustidan ustun kelganligi tufayli bu ilmiy asar tarixiy roman darajasidagi qiziqish bilan o'qiladi. Undagi romantizm real voqeelikni qamrab oladi. Bu asarda R.Doziyning iste'dodi shunchalik namoyon bo'lganki, undan keyin qariyb yarim asr hech kim bu mavzuni o'rganishga jur'at eta olmadi. Bir olimning bildirgan fikricha, Doziydan keyin Ispaniyadagi arablar to'grisida yozish «Gomerdan keyin «Iliada»ni yozish» bilan barobar edi.

Bu mavzuni o'rganishga akademik I.Y.Krachkovskiyning Ispaniyada arablar madaniyati asariga ko'proq muroijat etdik. Kitobchanning yaratilishi tarixining o'zi ham bir tarixdir. Ma'lumki, 1936-yilda Ispaniyada fuqarolar urushi boshlangandi. Sobiq Ittifoq hukumati bu urush-

da muxolifat kuchlariga yordam berdi. Bu yordam ham moddiy, ham harbiy va manaviy ko'rinishda edi. Shu sababli o'sha davrda Ittifoqda Ispaniyaning tarixi va madaniyati mavzusiga oid bir qancha ma'ruzalarni uyushtirdi. Shunday ma'ruzalarning biri akademik I.Y.Krachkovskiy tomonidan yuqoridagi nomda o'qildi. Va o'sha davrda rus tilida ispanlar tarixi madaniyatiga doir adabiyotlar kam bo'lganligi sababli, akademik I.Y.Krachkovskiyning ma'ruzasi kitob shaklida 1937-yilda chop etildi.

Shu mavzuga bag'ishlangan I.Y.Krachkovskiyning juda chuqur ilmiy maqolalaridan biri «Ispaniyada arablar poeziyasi» maqolasi 1940-yilda sobiq Ittifoq FA tomonidan nashr etilgan «Ispaniya madaniyati» to'plamiga kiritilgan. Bu maqola arab she'riyatining shakllanishi, rivojlanishi, uning yirik namoyandalari, masalan: Ibn-Abd, Robiya, Ibn Rashid va boshqalarning hayoti chuqur yoritilgan.

Tarixiy adabiyotlarda Pireney yarim orolining eng qadimgi aholisi etnik jihatdan Shimoliy Afrikaga yaqin bo'lgan iberlar deb ko'rsatilgan. Ayni vaqtda, barcha adabiyotlarda hozirgi ispanlardan til jihatdan, semantik jihatdan farq qiladigan basklar ham Ispaniyaning tubjoy aholisi ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, tarixchilar o'rtasida bu hududning eng qadimgi aholisi bir vaqtlar Pireney yarim orolining Shimoliy Ispaniyagacha bo'lgan hududida Ligurlar deb atalgan xalqlar tarkibiga kirgan basklarning o'zlarini bo'lgan bo'lsa ajab emas degan fikr ham mavjud. Bu fikr tarafdorlari basklar keyinchalik iberlarning siquvi ostida Pireneyning tog'li hududlariga chekingan bo'lishlari mumkin degan taxminni aytadilar.

Keyinchalik iberlar ligurlar, keltlar, rimliklar, germanlar, arablar bilan chatishib ketdilar va o'ziga xos bo'lgan alohida ispanlar ko'rinishiga va xususiyatiga, tavsifiga ega bo'ldilar. Basklarda esa hozirga qadar etnik va milliy alohidalik shaqllanib qolgan.

**Arablar tomonidan Pireney yarim orolining bosib olinishi.** Arablar bosib olishi arafasida V asrdan beri vestgotlar (g'arbiy tog'liklar) hukmronlik qilib kelayotgan Ispaniya juda xarob ahvolda edi. Juda katta yer va boylikka ega bo'lgan ruhoniylar faqat bitta ish bilan, ya'ni ayovsiz ravishda mamlakatda e'tiqod (diniy ishonch) o'rnatish bilan band edilar. Diniy ta'qibga birinchi bo'lib ko'p sonli yahudiylar duchor bo'ldilar. Ularning bolalarini zo'rlik yo'li bilan oilalaridan tortib olib, monastirlarga – xristianlar tarbiyasiga berdilar. Yahudiylarning bu zo'ravonlikka nisbatan noroziligidan xavotirga tushgan xristian sobori 694-yilda Toledo shahrida chaqirilgan kengashda butun qirollik hudud-

idagi barcha yahudiylarning mol-mulkini musodara qilish, o'zlarini esa qulga aylantirib, tug'ilgan joylaridan uzoqda bo'lgan xristianlarga taqsimlab berish to'g'risida qaror qabul qildi. Natijada hukmron vestgotlar davlatining ichki siyosatidan norozilik kuchayib bordi.

VIII asrning boshiga kelib poytaxti Damshq bo'lgan Arab xalifaligi ulkan hududga ega bo'ldi. Uning mulklari Hindistondan Atlantika okeanigacha, O'rta Osiyodan Markaziy Afrikagacha cho'zilgan edi. Dengizni arablar yoqtirmas edilar. Lekin bu kamchilik ham tez orada bartaraf etildi va ularning dengiz orqasiga harbiy yurishlar uyushtirishlariga to'siq bo'la olmadi. 710-yilda arablar 5000 kishilik harbiylar ishtirokida birinchi bor yurish qildilar. Oradan bir yil o'tib, ya'ni 711-yilda kichik lashkarboshilaridan biri Tarik 7000 kishilik qo'shini bilan O'rta yer dengizidan o'tdi. Yevropada undan yodgorlik bo'lib Gibraltar bo'g'ozini nomi qoldi (Djabal-al-Tariq ispanchasiga Gibraltar).

Arablar o'rtasida uning jangdan oldin aytgan quyidagi so'zlari mashhurdir: «Ey odamlar, hech qayoqqa qochib bo'lmaydi! Orqangizda dengiz, oldingizda dushman. Sizlardan mardlik va toqatlilikni ko'rsatishdan boshqa hech narsa qolmaydi.»

Vestgotlar qiroli Rodreg birinchi jangdayoq Vadi Bakka sohillaridagi Kadis atrofida mag'lubiyatga uchradi. Tariq qo'shinlarining soni ham ko'paya borib, 12000 kishiga yetdi. Tezda Kordova va Tolido zabt etildi. Arablar harakati tobora shimol tomonga qarab davom etardi. Lekin 732-yilda ularning Yevropaga yanada ichkariroq kirib borishiga franklar qiroli Karl Martell to'siq qo'ydi.

Arablarining Pireney yarim orolidagi 20 yillik yurishlari natijasida shimoldagi Galitsiya va Austriyadan tashqari barcha hududlar ular qo'l ostiga o'tdi. Keyinchalik xuddi shu Galitsiya va Austriyadagi arablarni Ispaniyadan quvib chiqarish harakatini ispancha «rekonkista», «qaytadan bosib olish» boshlandi.

750-yilda Damashqda Ummaviylar dinastiyasi qulaganidan keyin bu avlod vakillari qirg'in qilindilar. Shu avloddan omon qolgan, keyinchalik Shimoliy Afrikada jon saqlab qolgan Abdurahmon I Ispaniya hududidan Kordova mustaqil amriligiga asos soladi. Sharqdagi dushmanlar «qurayshlar burguti» deb nom qo'ygan, Ispaniyada esa «kelgindi» deb nom olgan Abdurahmon faqatgina ayyor va berahm siyosatchi bo'lib qolmasdan, balki ancha iste'dodli shoir ham edi.

Dostonlarda ko'rsatilishicha, u Ispaniyadagi barcha palma daraxtlarini ekkan va daraxt ostida o'z vatanini yod etib, unga bag'ishlab she'rlar yozgan. Abdurahmon I hukmronligi 30 yildan oshiq (755–788-yillar)

davom etdi. U mashhur Qurdoba (Kordova) ummaviylar sulolasiga asos soldi.

Bu sulolaning eng kuchaygan davri Abdurahmon III ning g'olib chiqqan davriga to'g'ri keladi. Abdurahmon 50 yilga yaqin hukmronlik qildi (912–961-yillar). U o'ziga xalifa unvonini olgan edi. Ummaviylar sulolasining Ispaniyadagi davlati endi xalifalik deb atala boshladi (929-yildan Kordova xalifaligi tashkil topdi-P.Sh.).

Kordova ummaviylar sulolasining hukmronligi qariyb III asr davom etdi. Afsuski, uzoq davom etgan fuqarolar urushlari natijasida kuchsizlangan bu xalifalik 1031-yilga kelganda ummaviylar vakillarining hokimiyatdan chetlashtirilishi bilan parchalanib ketdi va Ispaniyada ko'plab mustaqil kinyazliklari paydo bo'ldi. Shunday knazliklarga quyidagi shaharlar ham ega bo'ldilar: Sarogossa, Toledo, Seviliya, Granada, Malaga, Aljieziras, Badaxos, Valensiya va Mursiya.

Xalifalikning ichki tuzumiga kelganda shuni aytish kerakki, bu davrdagi asosiy o'zgarishlar quyidagi yo'nalishlarda borardi.

Tubjoy aholi xalifalikka ma'lum bir soliq to'lash evaziga o'zining shaxsiy ozodligini, diniy e'tiqod erkinligini va o'z mulk erkinligini saqlab qola oldi.

Ma'lum guruh ispanlar arablar xizmatiga o'tib, ularning dinini qabul qilib mosarablarga (arablashganlarga) aylandilar.

Xalifalikda yahudiylar katta rol o'ynay boshladilar. Ular savdogarlar, vrachlar, diplomatlar sifatida xizmat qilardilar. Yahudiylar arablar orasida yashab, ularning tilini puxta o'rganib, arablar kiyimini kiyishib, ular bilan aralashib ketdilar.

XI asrdan boshlab Ispaniyaning ayrim hududlarida musulmon fanatizm kuchayishi ro'y bergandan so'ng mahalliy xristianlarni zo'rlik yo'li bilan musulmon diniga o'tkazish hollari ham uchray boshladi.

**Ispaniyada arablar madaniyati markazlari.** Arab hukmronligining boshidan boshlab arab madaniyati markazlari Ispaniyaning janubida joylashdi. Bunday markazlardan birinchisi va eng yorqini Kordova (Qurdoba)da paydo bo'ldi. Ikkinchisi esa Seviliyada edi. XI asrning oxirida bu yerda amir-shoir Al-Mo'talis (1018–1095-yillar) shaxsi alohida ko'zga tashlanadi. Agar Kordovada fan ravnaq topgan bo'lsa, Seviliyada musiqa va kuy rivojlandi. Hali XXII asrdayoq ikki shaharni yaxshi bilgan mashhur Ibn Rushd (1126–1198-yillar) (Averrois) shunday degan edi: «Agar Seviliyada olim o'lsa, uning kitoblarini Kordovaga sotish uchun olib borishadi. Agar Kornovada musiqachi o'lsa, uning asboblarini sotish uchun Seviliyaga olib kelishadi».

Ammo hayot tinch, osoyishta davom etmadi. XI asrdan boshlab Shimoliy Afrikadan barbar qabilalarining hujumi boshlandi. Ispaniyaga avval almoradlar (1090–1146-yillar), keyinchalik almoxodlar (1149–1264-yillar) sulolasi kirib keladilar, ular bilan birga bu yerga ham har qanday madaniyatni, ozod fikrlashni singdiruvchi musulmon fanatizmi ham kirib keladi.

Almoxodlar davriga kelib xristianlarning ta'siri kuchaydi. 1248-yilda Seviliya xristianlar tomonidan ishg'ol qilindi va asta-sekin Andalusiyada arab madaniyatining kuchi yo'qola bordi. Faqatgina Grenada yana ikki yarim asr davomida Ispaniyada arab madaniyatining yagona o'chog'i bo'lib qoldi. 1492-yilda Ferdinand tomonidan Grenadaning olinishi arablarning Afrika Shimoliga chekinishiga olib keldi. Grenadaning qo'ldan ketishi bilan arab madaniyatining taraqqiyot davri tugadi. Ammo uning ta'siri juda ko'p asrlar davomida faqatgina Ispaniyada emas, balki butun Yevropada mavjud bo'lib turdi.

**Aholi tarkibi. Ularning arab madaniyatini targ'ib etishdagi o'rni.** Arablar Ispaniya tarixini o'rganishda aholining etnik va ijtimoiy jihatidan juda ham aralash bo'lganligini ko'ramiz.

Arablar kelganida Ispaniyada, asosan, vestgotlar va rimliklar yashar edilar. Istilochilarning asosiy qismi barbarlar edilar; antik davrda ularni «mavrlar» deb ataganlar va bu «mavritan madaniyati» va «mavritan san'ati» terminlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Bosib olish paytida arablar barbarlardan son jihatdan kam edilar. Lekin ularning qo'llarida bosh harbiy hokimiyat to'plangan edi. Ular o'zlaruni aristokrat deb hisoblar edilar. Arablar va barbarlar o'rtasida tenglikning bo'lmasligi ular o'rtasida munosabatining keskinlashuviga olib keldi, bu ziddiyat hatto qurolli ko'tarilishga ham borib yetdi. 742-yilda barbarlar ko'targan qo'zg'olonni arablar juda shafqatsizlik bilan bostirdilar. Shundan so'ng arab aholisini ko'paytirish siyosati boshlandi. Afsuski, bu siyosat ham muvaffaqiyat keltirmadi: bir-biriga eski adovati bo'lgan turli qabilalarning qaytarilishi ular o'rtasida o'zaro kurashlarning yanada kuchayib ketishiga olib keldi.

Arablar, asosan, shaharlarda istiqomad qilishardi, barbarlar esa tog'li hududlarda yashardi. Arab aristokratsiyasi vakillari nufuzga ega bo'la bordilar. Bu esa ularning qudrati kuchayishiga, xalifalikning hokimiyatdan mustaqil bo'lishga urunishiga olib keldi. Keyinchalik ular Ummaviylar hokimiyatiga qarshi muxolifat tashkil etdilar. Abdurahmon III davrida bu muxolifat tor-mor qilindi.

Kordova yiqilgandan so'ng aristokratiyaning qiroli pasaydi, uning

o'rniga jonlanayotgan o'rta shahar sinfi va harbiy aristokratiya keldi. Shaharlarda aholining pastki qatlami shaxsiy ozod bo'lsa-da, iqtisodiy jihatdan kuchsiz edi.

Qullarning ahvoli arablar davrida vesgotlarnikiga nisbatan yaxshilandi: ko'pincha ular kichik yer egalariga aylandilar.

Arablar hukmronligining XI asrida nomusulmonlarining roli kuchayib bordi. Ularni manbalarda regent deb ko'rsatadilar, arablar ularni «mouliya» nomi bilan qo'llaydilar. Ko'pincha ular ispan dinini qabul qilgan xristian dini qullari edilar. Ularning ko'pchiligini slavyanlar tashkil etardi. Ularning ta'siri natijasida keyinchalik G'arbiy yevropalik qullarning barchasi Ispaniyada slavyanlar deb atalgan. Abdurahmon III davrida Kordovadan 14 ming slavyan qullikdan ozod qilingan edi.

Ozod etilgan bilan barcha otasi yo'q onasi musumoni bo'lgan «muvvalidlar» (mulatlar) ham neomusulmonlar edi. Avvaliga ularning ahvoli o'gir edi. Lekin Abdurahmon III davriga kelib ular xalifalikdagi asosiy elementlardan biriga aylandilar va asta-sekinlik bilan ularning madaniyatga ta'siri kuchaydi.

Dinga e'tiqodi bo'yicha bosib olingan aholi yahudiylar va xristianlarga bo'lingan: ikkovi ham umummusulmon aqidasi bo'yicha kamgina soliq evaziga shaxsiy va diniy erkinligi saqlaganlar. Yahudiylarning ahvoli arablar davrida vestgotlarga nisbatan ancha yaxshi edi. Ular, asosan, shaharlarda yashaganlar va odatda, shahar aholisining asosiy qismini tashkil etganlar. Ummaviylardan keyin ma'lum bir vaqtda hatto Granadani yahudiylar shahri deb ataganlar. Kordova va Malaga o'rtasidagi kichik Luseni shahrining barcha aholisi yahudiylardan iborat bo'lgan. XII asrda yashagan geograf al-Idrisiy bu shahar to'g'risida quyidagicha yozgan edi: «Bu yerda shaharning qoq markazida yahudiylar yashaydilar va musulmonlarning bu yerga kirib kelishiga yo'l qo'ymadilar». Andalusiyadagi yahudiylar boy yashaganlar.

Arablar hukmronligi davrida yahudiylar yirik davlat ishlarini bajarishga ham jalb qilinganlar. Misol uchun, Xasday ibn Shakrut Abdurahmon III ning bosh vaziri va xazinachisi edi. Kordovada hatto Mesopotamiyadagi maktabni ham orqada qoldirgan yahudiylar maktabi tashkil etilgan. Arab tilini ham mukammal egallagan Xasday ibn Shakrut Dioskoritning botanika kitobini grek tilidan arab tiliga tarjima qilgan edi: xuddi shunday talant egasi bo'lgan yahudiy Samnel ibn Nagrilla (1055-yilda o'lgan, tug'ilgan yili nomalum-P.S.). Granada hukmdori huzurida yuqori lavozimlarni egallagan bo'lib, yirik oilm, yahudiylarning shoiri va yozuvchisi sifatida shuhratga ega edi. Ayni vaqtda u arab

tilida ham chiroyli she'rlar yoza bilgan. Matematika, algebra va mantiq sohasida keng bilimlarga ega bo'lgan. Bu olim yetti tilda erkin gaplasha olgan.

Yahudiylar arablarning kiyinishi, urf-odati va tilini qabul qilishdi, ular diplomatlarning, vrachlarning, olimlarning va savdogarlarning asosiy qismini tashkil etganlar. Sevilyanlar yiqilishi bilan ahvoli ham og'irlasha bordi. Ular Kayilyadan boshpana topdilar. Yahudiylarning soni birgina Toleda shahrida 12 ming kishini tashkil etdi.

Arablar qo'l ostidagi xristianlarning ahvoli ham xristianlarnikidan yomon emasdi.

Ularni ispan manbalarida «mozarabes» (arablashgan) deb nomladilar. Ular o'zlarining boshqarish tizimiga ega edilarki, uning boshida xalifa tomonidan tayinlangan «defonsor» yoki «protektor» turar edi. Ularning hatto cherkovlari ham mavjud edi. Xristianlarda arablashish tez borar edi (yahudiylarga nisbatan-P.S).

Bunga misol sifatida shu dalilni keltirish mumkin: arablar ketgandan so'ng bir asrdan keyin ham ularga xristianlarning diniy kitobi bo'lgan «Yevangeliye»ni arab tiliga tarjima qilishga to'g'ri kelgan. Ular o'z ona tillarini shunchalik darajada unutgan edilarki, hatto Toledo xristian qirollari hukmronligi ostida ulardan so'ng ham, u yerda uzoq yillar hujjatlarni yozishda arab tilidan foydalanishgan. Bunga isbot sifatida hozirga qadar qolgan Toledo mos arablar jamiyati arxivini ko'rsatish mumkin.

Bu hujjatlar orqali biz xristianlarda arablashish jarayoning ko'lami qanday bo'lganligini aniqlaymiz. Ularda ko'proq ruhoniylar arab ismlarini qabul etganlar.

Rekista harakati yangi bir guruh aholining – «mudyoharlar»ning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ular xristian qirollari qaytarib olgan hududlardagi musulmonlar edilar. G'arbiy Yevropada arablar madaniyat ta'sirini o'tkazuvchi asosiy vosita bo'lib qoldilar, ayniqsa, arxitektura va tasviriy san'atda ularning o'rni kuchli edi. XVI asrdan boshlab Pireney yarim orolida arab davlatlari qolmagach, ularni morisaklar deb ataganlar. Avvalda shaxsiy ozod bo'lgan morisaklar, keyinchalik huquqiy jihatdan chegaralanib Arogonoya va Valensiyada krepostnoy dehqonlarga aylanishdi. Morisaklarning keyingi taqdiri juda yaxshi bo'lib yakunlanmadi.

Shunday qilib, biz o'rganayotgan davrda arab hukmronligi ostida Ispaniyadagi aholi turli etnik guruhlardan iborat bo'lib, ularni qisman madaniyatning umumiyliги birlashtirib turgan.

Ayrim adabiyotlarda Ispaniyaga arab madaniyatining kirib kelish jarayonini 750-yil bilan chegaralaydilar. Ularda 750-yilda arablar xalifaligi ummaviylar sulolasining ag'darilishi bilan Sharqiy Ispaniyadagi ummaviylar sulolasi o'rtasida aloqalar tugallandi va shu bilan uning madaniy ta'siri ham to'xtadi deb ko'rsatiladi.

Bu fikrni ispan madaniyatiga suriyalik arablar madaniyati ta'siri borasida qisman to'g'ri deyish mumkin. 750-yildan so'ng abbosiylar quvg'inidan qo'rqib Ispaniyaga qochib kelgan suriyaliklar ko'p edi. Asta-sekinlik bilan suriyaliklarning madaniy ta'siri pasayib bordi, chunki abbosiylarga qarshi qaratilgan siyosat yuritilishiga qaramasdan Ispaniyadagi sulolalar Iroq madaniyatining (abbosiylar Iroqdan chiqqan edilar) Ispaniyaga ta'sir ko'rsatishiga qarshilik qilmadilar. Abdurahmon III hatto davlat qurilishini abbosiylar davlati boshqarish tizimiga monand qilib o'zgartiradi.

Uning hukmronligi davrida bog'dodlik xonanda Ziriyab Ispaniyada o'z faoliyatini boshladi va abbosiylar madaniyatining Ispaniyaga kirib kelishiga yo'l ochdi. IX asr o'rtalariga kelib Kordovada Shimoliy Afrika, Misr, Suriya va Iroqdan ko'chib kelganlarning alohida yashash manzillari mavjud bo'lib, kelgusida ularning ta'siri musulmonlar ispaniyasida sezila boshladi.

Makka va Madinaning ham musulmonlar g'arbiga ta'siri kuchli edi, sababi, har yili ko'plab andalusiyaliklar muqaddas shaharlarga ziyoratga borar edilar.

Abdurahmon III davrida Sharq bilan madaniy aloqalar ancha su-saydi, lekin xalifa Al-Hakim II (962–976-yillar) hukmronligi davrida Sharq madaniyati ta'sirining yangi bosqichlari boshlandi. Bu xalifa Sharqdan Ispaniyaga olimlar, huquqshunoslar va adabiyotshunoslarni taklif etdi. Bu davrda Ispaniyaning obro'si oshdi.

Iroq, Suriya, Misr va boshqa arab mamlakatlariga tashrif buyurgan andalusiyaliklar va Ispaniyaga kelgan Sharq sayohatchilari, olimlar va adabiyotshunoslar o'zlari bilan yirik mualliflarning turli fanlar bo'yicha asarlarini olib kelganlar. Masalan, 941-yilda Ispaniyaga kelgan mashhur filolog Abu Ali al-Koniy o'zi bilan Sharq shoirlarining 40 devon she'rlarini olib kelgan.

Arab an'analari Pireney yarim orolida saqlanib, muhofaza qilinardi. Ma'lumki, Ispaniyada arablar kam sonli edilar. Shuning uchun arablar hukmdorlari assimilatsalashib ketishining xavf ostida Sharq an'analarning tozaliginni saqlashga kuchli e'tibor berdilar. O'rta asr manbalarining ma'lum qilishicha, saroy va davlat ishlarida mansabga



ega bo'ladigan kishi, albatta, arab tilini egallashi va arab musulmon madaniyatini bilishi kerak edi.

XI asrda Kordova xalifaligi bo'linib ketgandan so'ng Sharq bilan Ispaniya o'rtasida aloqalar davom etdi. Ispan musulmon olimlari asarlarida arablar Ispaniyasining musulmonlar dunyosi bilan madaniy aloqalari XIV–XV asrlarda ham davom etganligi haqida ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, dalillar asosida Ispaniya madaniyatiga arab xalifaligi Sharqiy viloyatlarining qo'shgan hissasi ulkan bo'gan deyishimiz mumkin.

**Arablarning Ispaniyadagi iqtisodiy hayoti.** Arablar uchun Ispaniyaning mustahkam poydevori bo'lgan bazasi bu – taraqqiy etgan iqtisodiy hayot edi. Xalifalik davrida Andalusiya (Al-andalus) Yevropadagi eng boy va aholisi ko'p davlatlardan biri edi. Masalan, u yerda 113 ming uy, yarim million aholi va 300 ta hammom bor edi. Seviliyanlar ravnaq topgan davrda 400 minggacha, Granadada 500 minggacha arab bor edi. Abdurahmon III davrida davlatning daromati 6 million 245 ming dinor edi. 951-yilda davlat xazinasida 20 million dinor bo'lgan. Bu raqamni his qilish uchun o'sha vaqtda ham bir dinor 12-20 oltin frank bilan teng ekanligini bilishning o'zi kifoyadir. Arablar davrida ham Ispaniya dehqonchilik va bog'dorchilik mamlakati bo'lib qoldi. Arablar bu sohada ispanlarning tajribasini o'rgandilar va ko'p asrlik Sharq tajribasi bilan uyg'unlashtirdilar. Asta-sekinlik bilan Ispaniyada agronomiyaga doir adabiyotlar paydo bo'la boshladi. Ispaniya arablari davrida o'zini g'alla bilan ta'minlash imkoniyatiga ega edi, ammo eksport uchun g'alla yo'q edi va hosilsizlik yillarida uni Shimoliy Afrikadan olib kelardilar.

Yuqorida aytganimizdek, asosiy mashg'ulot bog'dorchilik va sabzavotchilik bo'lgan. Arablar davridan oldin mavjud bo'lgan ekin turlari o'rganiladi va ularning ekish maydoni kengaytiriladi. Bu borada uzumchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur. Sababi, islom dini alkogolli ichimlik iste'molini ma'qullamasligiga qaramasdan, uzumchilik plantatsiyalarining kengaytirilishiga, vino tayyorlashga, uni boshqa mamlakatlarga yetkazib berish va hatto mamlakat ichkarisida xristianlar tomonidan iste'mol qilinishiga ham monelik qilmadilar.

Muhimi shu bo'ldiki, arablar Ispaniyada yangi madaniy o'simliklarni kopaytirishga ham alohida e'tibor berdilar. Ular hali ispanlarga tanish bo'lmagan shakarqamish va tutni ko'paytirdilar. Bu yangi o'simliklarni rivojlantirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun Xaen viloyatida 3000 dan ortiq qishloqlarning pillachilik bilan shug'ullanganligini eslatib o'tish kifoyadir.

Arablar Ispaniyasida chorvachilik yordamchi xo'jalik edi. Baliqchilikning ham chorvachilik kabi ahamiyati uncha katta bo'lmadi.

Arablar Ispaniyasida iqtisodiy hayotining ikkinchi yo'nalishi bu sanoat edi. Ispaniyada tog' ishlari qadimdan rivojlangan edi: oltin, kumush, temir rudasi, qo'rg'oshin va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olinar edi. Sanoat bilan to'qimachilik raqobat qilardi. Paxta, jun, pilla mahsulotlari juda ko'p miqdorda ishlatilardi. Birgina Kordova shaharining o'zida 13 mingta tikuvchi hunarmandlar bor edi.

Arablar Ispaniyada sanoatning noyob yodgorliklarini qoldirdilar. Sanoat mahsulotlari bilan birgalikda nozik ishlangan billurlar, fil suyagidan yasalgan san'at buyumlari yaratildi. Kordova va boshqa shaharlarda terini qayta ishlaydigan charm-ko'ndachilik fabrikalari ish boshladilar. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, arablar Yevropani qog'oz bilan tanishtirdilar. Yevropadagi bir necha qog'oz fabrikalari arablar tomonidan Shotiv va Tolidoda qurildi hamda bu yerdan keyinchalik butun Yevropaga qog'oz kirib bordi.

Savdo-sotiqda dengiz orqali savdoning ahamiyati katta bo'ldi. Bojxonalardan keladigan daromad ko'paydi. Mollar, asosan, bir tomondan Misrga, ikkinchi tomondan Konstantinopolga borib tushar va u yerdan Rossiya, O'rta Osiyo va Hindistonga jo'natilardi. Ispan arablari Dannahq, Bog'dod, Makka bilan ham uzviy bog'langan edilar. Savdoning asosiy mollari bu slavyan va german davlatlariga keltirilgan qullar edilar. Umuman, qul savdosi o'sha davrda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ichki va tashqi siyosatni davlat nazorat qilib turar, bu ishlar savdo nazoratchilari qilib tayinlangan muhtasillar tomonidan amalga oshirilardi. Savdo, asosan, «aldamasang – sotmaysan» qabilida olib borilardi. Savdo yaxshi aloqa yo'llarini talab qilardi. Shuning uchun ham tajribali arab yo'l boshchilari rimliklar yo'llaridan foydalanganlar.

Savdo markazi Kordova edi va bu shahardan Ispaniyaning turli shaharlariga savdo yo'llari tutashardi. X asrda arab ispaniyasi poytaxti Kordova Yevropani sanoat, savdo va madaniy markazlaridan biriga aylantirdi.

Deyarli 25 yil davomida arablar Ispaniyada o'z pullarini chiqardirdilar. Xalifalikka tangalar Sharqdan olib kelinar edi. Faqat Abdurahim II davrida shu yerda tanga pullar zarb qilina boshladi. Tanga turi Sharqdan olingan bo'lib, uning uch ko'rinishi – oltin, kumush va mis tangalari mavjud edi. X asrda yashagan arab sayohatchisi Ibn Havqal ma'lumotiga ko'ra, Ispaniyada bir yilda 200 ming dinor pul zarb qilingan.

**Ma'muriyat, sud va qo'shin.** Ma'muriyat Ispaniyada arab xali-

faligining bir viloyati edi va Damashq tomonidan tayinlangan noiblar tomonidan boshqarilardi. Lekin 755-yilda Kordova amrligi mustaqil bo'ldi. 929-yilda esa u mustaqil xalifalikka aylandi. Xuddi sharqdagidek oliy hukmdor, ma'muriy sud va hokimyatni birlashtiruvchi xalifa edi. Nazariy jihatdan xalifa saylanishi lozim edi, ammo amalda u merosiy bo'lar yoki kuchlilik huquqi bo'yicha o'tardi.

Davlatni boshqarish tizimida Sharq xalifaligiga nisbatan bir qancha o'zgarishlar vujudga keldi: u yoqda oliy amaldor bosh (buyuk) vazir bo'lsa, bu yerda xojib deb atalar, aslida uning qo'lida real hokimiyat yo'q edi. Vazir yoki xojib hech qanday quvvatga ega bo'lmay, faxriy unvon bo'lib qoldi. Haqiqiy hokimiyat kotiblar qo'lida to'plangan edi. Viloyatlar valiyalar tomonidan boshqarilardi. Chegarani qo'riqlash uchun alohida chegarani qo'riqlash hukmroni paydo bo'ldi. Davlat daromadi, asosan, xirojlar orqali yig'ilar edi. Ma'lumki, xirojlar qishloq xo'jaligi, savdo va sanoat ishlab chiqarish mahsulotlaridan olinardi.

Arablar Ispaniya davlat tizimida «qozi» (ispan tilida «alkada» holida hozirgacha saqlanib qolgan) nomi bilan mashhur sudya katta ro'l o'ynadi. U faqatgina huquqiy vazifalarni bajarish bilan chegaralanib qolmasdi. Davlatdagi bosh sudya Kordova masjididagi bosh sudya edi. Unga hamma viloyat qozilari ham bo'ysunar edi. Bu mansabga faqat xalifa tayinlanishi mumkin edi. Shaxsan xalifaning o'zi qozini halolligi va bilimi bilan mashhur nom qozonganlar orasidan saylardi. Nazorat jihatdan xalifaning o'zi ham qoziga bo'ysunardi. Shunday holatlar bo'lganki, hatto xalifaning ustidan shikoyatlarni qozining o'zi ko'rib chiqar edi. Bu haqida juda ajoyib manba bizgacha yetib keilgan: X asrda al-Xushaniy ismli bir tarixchi «Kordova qozilari tarixi» nomli asarida 40 ta qozining hayot yo'lini yoritgan.

Qozilarning faoliyatlari diniy yo'nalishda edi. Barcha ishlar Qur'on asosida, ya'ni, shariat qonunlariga rioya qilingan holda ko'rib chiqilardi. Hatto xalifa nazariy jihatdan qoziga bo'ysundirilgan edi. Qozi yetim bolalar, kambag'allar va savodsizlarga homiylik qilish, vasiyatnomalarni bajarish, tug'ilishlar, nikohlar va o'limlar ro'yxatini olib borishni nazorat qilishi kerak edi. Sud ishlari masjidda olib borilar, unga erkak va ayollar ham kirishi mumkin edi. Sudda ko'riladigan ishlar turlicha edi. Ak-Andalusida Sharqdagi singari apelatsion sud bor ediki, keyinchalik u ispanlarga «justicia moyar» tarzida o'tdi.

Musulmon dunyosida mavjud bo'lgan to'rtta yuridik e'tiqodlardan faqat maliketlar e'tiqodi Ispaniyada hukmron bo'ldi. Uning asoschisi Malik (795-yilda vafot etgan) bo'ib, u 1700 huquqiy vaziyatlarga izoh bergan.

Arab Ispaniyasida qo'shin faqat tashqi dushman uchun zarur emas edi. Ispanya fotihlarining muntazam qo'shinlari soni 40 mingga yetardi. Urug'chilik, qabilaviylik buzilganiga qadar, qo'shinlarning tuzilishi eski arab qabila udumlari asosida bo'lardi: har bir qabila ma'lum bir qisim askarlarni o'z boshlig'i va bayrog'i bilan safarbar qilishi kerak edi. Har yili bahorda xristian yerlariga yurishlar uyushtirilardi. Qo'shin umumiy qo'mondonlikka bo'ysundirilgan bo'lib, bu qo'mondonni **al-qoid** deb atar edilar. Armiya otlig va piyoda askarlardan iborat bo'lib, otlig askarlar mahalliy sharoitlarni hisobga olib, har bir yurishda ko'pincha xachirlardan foydalanar edilar. Chegara rayonlarida hatto rit-sarlik ordenlari tuzilgan. Ular «ribotlar» deb atalib, xristianlarga qarshi doim jang qilishga shay turgan.

Arablar uchun flot ham, savdo ham harbiy jihatdan katta ahamiyatga ega edi. O'z chegaralari va savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlab turishi zarur edi. Flot ham Abdurahim III davrida ravnaq topgandi. Asosiy port shahri Almeriya edi. Bu flot bilan arablar tez-tez Galitsiya va Austriyaga tahdid solardilar.

Manbalarda ko'rsatilishicha, XII asrdayoq Almeriya portida turli mamlakatlar kemalari turar edi. Shaharda 970 ta qo'noq uylarining (postayanniy dvor) mavjudligi port taraqqiyoti to'g'risida tasavvur beradi. Lekin flot IX–X asrlarda uyushtirilgan skanditsiya vakillari hujumidan Ispaniyani saqlab qololmadi. «Normandlar xavfi» uzoq davom etgan. Keyinchalik vikinglar Sitsiliyaga o'rinishib oldilar.

**Aholining tili, maktablar, kutubxonalar.** Arablar Ispaniyasi aholisiga, ya'ni turli qabilali va turli e'tiqodli qurama xalqqa nazar tashlasak, beixtiyor bir savol tug'iladi: ular qaysi tilda bir-birlari bilan muloqotda bo'lganlar, qaysi til ular uchun umumiy bo'lgan?

Bugungi kunga qadar fanning bergan ma'lumotlariga ko'ra, bu davrda aholi ikki tilli bo'lgan ekan. Albatta, davlat tili va adabiy arab tili bo'lgan, unda har bir shaharlik so'zlashish va yozishni bilgan. Turli kitoblar va adabiyotlar bu sohada katta yutuqlarga erishdilar, ular hech qaysi sohada sharqiy xalifaliklardan orqaga qolmaganlar.

Adabiy til bilan birga, hamma joyda bo'lgani kabi, arab dunyosida kundalik hayotda adabiy tildan kuchli farq qiluvchi so'zlashuv-dialikeni (yani oddiy gapirish tili) mavjud edi. X asr arab geografining (Al-Muqaddasiyning) ma'lumotiga ko'ra, birorta sharq arabi bu tilni alohida kuch sarf qilmay, yaxshi tushuna olmasdi, sababi, arab tili roman elementlari bilan aralashirilgan edi. Bunga isbot bo'lib XII asrda yashagan shoir Ibn Xazmin (Ibn-Kazman)ning she'rlari xizmat qiladi.

U o'z she'rlarini oddiy gapirish tilida yozgan va bu she'rlarni tushunish qiyindir.

Arab tili bilan birga aholi orasida roman dialekti ham tarqalgan edi. Kordova xalifa saroyida ham bu tilda gaplashish mumkin edi, qozilarning esa bu tilni bilishi shart edi.

Arab tili asta-sekinlik bilan hukmron tilga aylana bordi. Uning ispan formasida juda ko'pchilik gaplasha bordi. Lotin tili orqaga chekindi. U faqat ruhoniylar va olimlarning tor doirasidagina ishlatilardi, hatto musulmonlar ham lotin tilidan ko'ra arab tilida muomala qilishini afzal bildilar.

**Maktablar.** Maktablarda, asosan, arab adabiy tilidan foydalanilgan. Davlat maktablari yo'q edi. Shuni ma'lum qilish kerakki, Bog'dodda ham bunaqa maktab (ya'ni davlat maktabi) faqat 1065-yilda vujudga keldi. Ispaniyada XIII asr o'rtalarida olim Alfons Mursiyada musulmonlar, yahudiylar va xristianlar uchun arab maktabiga asos soldi.

Umuman, maktablar ochilishi, asosan, xususiy va jamiyat tashabbusiga bog'liq edi, ba'zan u vaqf yerlari, ya'ni umumfoydali maqsadlar uchun berilgan mulklardan (aksariyat diniy muassasalarga tegishli bo'lgan joylar) foydalanar edi. Maktablar ilmiy xodimlar va o'qituvchilar bilan doim ta'minlanib va to'ldirilib turilardi. Buning esa asosan ikki manbasi mavjud edi:

- a) mahalliy maktablardan chiqqan bilimdonlar hisobidan;
- b) xalifalikning sharqidan kelgan bilimdonlar hisobidan.

Maktablarda ta'lim tizimining ikki pog'onasi mavjud edi.

Yuqori va pastki pog'ona Qur'on, yozuv va grammatikani o'rganar edi. Oliy maktablarda, ya'ni universitetlarda diniy va adabiy fanlardan tashqari meditsina, astronomiya, matematika va falsafa o'rganilar edi. Oliy maktablarning uyg'unlashishi to'g'risida shuni aytish kerakki, xalifa Al-Hokim davrida (976-yil vafot etgan) faqatgina Kordovaning o'zida 27 ta oliy maktab ishlab turardi.

Ispaniyada bilim olish imkoniyati va darajasini o'sha davrdagi boshqa Yevropa mamlakatlari bilan solishtirganda, Yevropa orzu qilsa ham erisholmagan savdoga ega bo'lish Ispaniyada oddiy bir zarurat holiga aylangan edi.

**Kutbxonalar.** X asrda hukmronlik qilgan xalifa Al-Hakimning kutubxonalaridan biri mashhur nom qozondi. Aytish kerakki, kutubxonalarining arab Ispaniyasidagi ahamiyati maktablarnikidan past emasdi.

Kutubxonalarining ko'payishiga bu yerga arablarning olib kelgan qog'oz va keyinchalik uning Ispaniya hududida ishlab chiqarilishi va

shu bilan birga kitobning arzonlashishi sabab bo'ldi. Arablar uchun kitob o'rganish hordiq chiqarishning yagona vositasi edi. U arablar hayotiga rang beruvchi yagona vosita ham edi, chunki ularda na rim teatrlari, na yunon akademiyalari bor edi. Bularning barchasining o'rnini kitob to'ldirar edi.

Abdurahmon III davrida xalifalikning sharqida mualliflar, kitoblar, kitob sotuvchilar ko'plab kela boshladi. Kutubxonalar son va hajm jihatidan ko'payib bordi. Uning o'g'li Al-Hakim uchta saroy kutubxonasini birlashtirib, 400 ming jilddan iborat bo'lgan kutubxona tashkil etdi. Kutubxonani yangi binoga ko'chirish olti oy davom etdi. Bu kutubxonaning mavjud kitoblarini bildiradigan katalogning o'zi 44 jilddan iborat edi. Bu xalifa kutubxonalari o'zining maxsus xizmatchilariga va chet mamlakatlarda ular uchun qiziqarli kitoblar nashr qilinganligi haqida xabar berib turuvchi axborotchilarga ega edi. Tarixiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, uzoq Suriyada yirik adabiyot mutaxassisi Abu al-Faraj al-Isfaxoniy o'zining shoirlar va xonandalar to'g'risida 20 jildlik «Qo'shiqlar kitobi»ni yaratgan. Xalifa uning birinchi nusxasi uchun ming dinor taklif etgan.

Ispan kutubxonalarining shuhrati butun dunyoga tarqalgan edi va unga xorij davlatlaridan ko'plab sovg'a kitoblar beriladigan bo'ldi. Misol uchun, Vizantiya imperatori olim, monax Nikolay orqali Abdurahmon III ga sovg'a sifatida Dioskorid kitobining farmokopiyasini yuboradi. Bu kitob xalifaning buyrug'i bilan yahudiy-ministr Xasuay ibn Shakrud va arab tabibi Ibn Juljut tomonidan arab tiliga tarjima qilinadi.

Afsuski, Al-Hakimning kutubxonasi uzoq yashamadi. XI asrning boshida moliya jihatidan qiynalgan hukumat kitoblarning katta qismini sotib yuborishga majbur bo'ldi.

Arablar hukmronligi davrida kitobga muhabbat xalq o'rtasida ham keng tarqalgan edi. Faqatgina Kordovaning o'zida har yili 16-18 ming kitob ko'chirilar edi. Ibn-Fo'tays degan kishining kutubxonasida 6 ta maxsus kitob ko'chiruvchi xattotlar ishlardilar. Bu kutubxonaning boyligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun keyinchalik uning kim-oshdi savdoda 40 ming dinorga sotilganligini bilish yetarlidir.

Kitoblarni to'plash faqat jamiyatning nufuzli tabaqasiga xos bo'lmasdan, balki oddiy kishilar ham shunday imkoniyatga ega bo'lgan. Masalan, oddiy maktab muallimi Ibn Hazm o'zining saralangan kitoblar kutubxonasiga ega edi. Kitoblarga sevgi ayollarda ham kuchli bo'lgan, masalan, Kordovada Oysha ismli ayolning kutubxonasi ham mashhur bo'lgan.

Kitobga muhabbat faqat Kordovaga xos ko'rinish bo'lmasdan, butun Ispaniyada keng tarqalgan edi, desak xato bo'lmaydi. Seviliya va Granadadagi yirik kutubxonalar fikrimizning isbotidir.

Hatto arablar hukmronligi qulagandan so'ng ham, baxtsiz moriskalar o'z kitoblarini saqlay berganlar. Ular quvg'in qilinishidan oldin o'z kutubxonalarini uy ostidagi xandaqlarga va devorlar ichkarisiga yashirganlar. Keyingi asrlarda shunday kutubxonalardan bir nechtasi topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga egamiz.

Kutubxonalarning faoliyati to'g'risida keltirilgan ma'lumotlarimiz arablar Ispaniyasida ilm-fanning naqadar rivojlanganligidan dalolat beradi.

**Ilm-fan va she'riyatning arablar Ispaniyasidan Yevropaga o'tishi.** Arablar Ispaniyasi Sharq madaniyati ilm-fan, she'riyatining Yevropaga o'tishida bir ko'priki bo'ldi.

Til va madaniyat birligi butun arab mamlakatlaridan Yevropaga juda katta ta'sir ko'rsatdi: na shakl jihatidan, na hajm jihatidan arab Ispaniyasi adabiyoti xalifalikning Sharqda yaratilgan asarlaridan farq qilmadi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ular Yevropa mamlakatlari keng tarqaldi, natijada roman tilli mamlakatlarda oldin ma'lum bo'lmagan she'riyat shakllari paydo bo'ldi. Arab madaniyati va adabiyotining ta'siri ikki yo'l bilan, biri kitob orqali matematika, astronomiya, fizika, ximya, tibbiyot, tabiiy fanlar, falsafa va siyosatga doir grek, arab, qolaversa, butun Sharq ilm-fani bilan tanishdilar.

Birinchi yo'lning markazi Toledo (Alfons IV tomonidan qayta bosib olingan 1085-y. - P.S) shahri edi. Alfons IV Seviliya amirining qiziga uylangan bo'lib, saroyda arablar urf-odatlarini joriy etadi, o'zi arablar kiyimida yuradi, arab tangalarini zarb qildirishni davom ettiradi: hatto mosarab ruhoniylari uning davrida lotin tilini yaxshi bilishmasdi. XII asrda boshqa hududlardan quvg'in qilingan yahudiylarning ko'pchiligi ham Toledodan boshpana topishdi va keyinchalik ularning ziyolilarining katta qismi qadimgi Rim va yunon olimlari, shoirlari va yozuvchilari asarlarini arabchaga, undan keyin lotinchaga, arab tilidan adabiyotlarni to'g'ridan to'g'ri lotin tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanadilar. Qadimgi greklarning barcha mashhur vakillari: Aristotel, Yevklid, Ptolomey, Galen va Gippokratlar Yevropaga to'g'ri Uyg'onish davriga qadar mana shu arablar ko'prigi orqali o'tdi. Tarjima tizimi juda mushkul kechgan. Asarlar oldin arab tili, undan yahudiy va kastiliyaliklar tiliga, undan so'nggina lotin tiliga ag'darilgan.

Madaniy markazning shuhrati ko'tarilishi natijasida Yevropa davlatlari —Fransiya, Italiya, Germaniya va Angliyadan bilimga qiziquv-

chilar Ispaniyaga kela boshladilar. Aytish mumkinki, Toledo ilmiy arabshunoslikning birinchi o'chog'iga aylandi. Uning gullagan davrida ilmga mehr qo'yganligi uchun «olim» laqabini olgan Alfons X (1226–1284-yillar) Toledodan tashqari Seviliyada ham ikkinchi ilmiy markazni tashkil etdi.

Ilmiy asarlar tarjimasiga diniy, adabiy va badiiy kitoblar tarjimasi qo'shildi. Masalan, Qur'oni karim, hindlarning eposi «Kalila va Dimna», Sindbodning ayollar makkorligi to'g'risidagi kitobi shular jumlasidandir.

Alfons X o'zining ham bir necha tarixga doir asarlarida arab hujjatlaridan foydalangan.

Bu davrda yangi poeziya shakli «zadjal», ya'ni xalq shevasidagi she'rlar alohida o'rin tutadi. Bu yangi usul Galitsiyada, Kataloniyada, Provansda, Italiyada keng tarqaldi. Provansal trubadurlarning ijodlari ham arab she'riyatini eslatadi.

Mana shu arab Ispaniyasi orqali Yevropa ilm-fan, adabiyot, arxitektura sohasidagi juda katta yangiliklar bilan tanishdi.

Arablar Ispaniyasida meditsina juda taraqqiy etgan edi. Bu yerda mediklardan, ayniqsa, Abd Zahriy va Abu Mervonlar katta shuhrat qozonganlar. Meditsina taraqqiyoti, o'z navbatida, ximiya va biologiya fanlarining rivojlanishiga turtki berdi. Arablar bu sohada ham katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Malakali botanik Aben Al-Batar «oddiy medikametsetlar to'plami» asarida 200 ga yaqin o'simliklarning yangi xillari haqida ma'lumot beradi.

Matematika sohasida arablar nafaqat nazariy, balki amaliy sohada ham katta yutuqqa erishdi. Arablar astralogiya bilan jiddiy shug'ullandilar, maxsus observatoriyalar qurdilar. Shulardan almoxoz sulolasi xalifasi Yaqub al-Mansur (1196-y.) tomonidan Seviliyada qurilgan observatoriya hozir ham saqlangan.

**Arablar hukmronligi davrida arxitektura.** Arablar hukmronligi davrida Ispaniya hududida arxitektura juda rivojlandi. Albatta, buni sof arab usulidagi arxitektura deb bo'lmaydi. Ular tomonidan boshqa xalqlar qurilish san'ati ham chuqur o'rganilgan, uyg'unlashtirilgan va rivojlantirilgan edi. Arxitekturaning arab usuliga xos tomonlaridan biri bu qurilishlarda tirik jism va narsa tasvirini chizishning taqiqlanishi edi.

Biz Ispaniyadagi arab arxitekturasi to'g'risida to'liqroq tasavvur qoldirish maqsadida Qurdobadagi masjid, Seviliyadagi Alkasar, Granadadagi Algambr ibodatxonalariga XIX asr rus tarixchisi Vinogradov tomonidan berilgan ta'rif bilan kifoyalanamiz.



1. Kordovadagi masjid. Bu masjid arablarning Ispaniyadagi eng qadimgi yodgorliklaridan hisoblanadi. Bu masjid Kordova bosib olingan hamon, ya'ni VII asrning oxirlarida maktab sifatida qurila boshlagan edi.

Boshqa xalqlarga qarama-qarshi o'laroq, o'rta asrlarda arablar o'z me'moriy yodgorliklarida binoning tashqi tomoniga uncha bezak bermasdan, asosan ichki tomonga ko'proq bezak berganlar. «Masjidning tashqi qismi ichkariga qaraganda g'aroyib tasavvur hosil qilmaydi». Kirganda birdan marmar ustunlar o'rmoniga duch kelasan, ko'z son-sanoqsiz ustunlarga tushib qamashadi, kam uchrovchi darcha, oynalardan tushuvchi yorug'likning to'liq yoritishga quvvati yetmaydi. Bu yerda yarim-zulmat hukmronlik qiladi va tasavvurning g'ayri tabiiylikini oshiradi.

Bu bahaybat ibodatxonaning tepa qismi yarim doira, botiq ark, gumbazlardan tashkil topgan. Ular oq, sariq, yashil marmardan qilingan bo'lib, juda chiroyli bezatilgan. Bu gumbazlarda qandaydir kuch yashiringan. Undagi qandaydir o'ynoqilik, jasurlik ko'zga tashlanadi. Masjidda 900 dan ziyod ustun bo'lgan.

2. Seviliyadagi Al-Qasr (XIV). Bu mahalliy arab hukmdorlarining qasridir. «Tashqaridan tor darvozali uzun, baland devor, ichkarida esa g'aroyib, afsonaviy yengil zallar... bezaklar bilan to shu darajada yengil holatga keltirilishini tasavvur qilish mumkin emas». Arablar arxitekturasida toshlarga yo'nilgan mayda bezakardan iborat bo'lgan.

Xonalardan ustunli, galereyali va favvorali ichki hovliga kiriladi. Bino arab naqshlari bilan bezatilgan va oltin suvi yuritilgan, Gumbazlardan qilingan devorlariga oltin suvi berilgan, turli bezaklar ishlangan.

3. Granadadagi Al-Gambar qasri (Alhambra, XIII–XIV asrlar). Ispaniyadagi uchinchi arab usulidagi bu yodgorlik arab arxitekturasining noyob namunasi. «Deraza o'rniga tor tuynukli baland devorlar va ularga tartibsiz qo'shilgan minoralar: bu arab qasri kichkina eshik devorlardan ichkariga boshlaydi, keyin qorong'u yo'lak (koridor) va birdan arab qasrining ichki ochiq hovlisiga kiriladi».

Pol silliq oq marmardan ishlangan, atrof ikki qatorli marmar ustunlar bilan birlashib ketgan yengil arklar galereyasi. Ustunning pastki qismi pastak va tekis, yuqori qismi arabeskalar bilan qoplangan to'rtburchakdir. Galereyaning karnizi bo'ylab arab yozuvlari ketgan. Bu yozuvlarda faqat bir so'z bitilgan: «Xudo yagonadir». Arab yozuvlari shu darajada nozik va chiroyli, ularni naqshlardan farqlash qiyindir. Arablar qurgan yirik inshootlarning aksariyat ko'pchiligida, shu jumladan Al-Gambar qasri hovlisida ham toza suvli hovuz bo'lgan, uning ikki tomonini favvoralar bezab turgan.

Xullas, Ispaniyadagi bu arab me'moriy yodgorliklarida Sharq va G'arb san'ati uyg'unlashgan. Bu yodgorliklar hozirgacha insoniyatni o'zining mukammalligi bilan lol qoldirib kelmoqda.

**Ispaniyada arab madaniyatining taqdiri.** Ispaniyada arab madaniyatining taqdiri juda qayg'uli bo'ldi. Bu madaniyat lotinlashgan mavrlar bilan arablashgan xristianlar o'rtasida madaniy muloqot bo'lganda kuchli edi. Granadaning qulashi bilan ajralish vujudga keldi. Katoliklar reaksiyasi va inkvizitsiya boshlandi. Zo'ravonlik bilan xristianlikni qabul qildirish moriskalarning Fillip II davrida qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelindi. (1568–1580) va bu qo'zg'olon uch yil davom etdi. Qo'zg'olon ko'targan moriskalardan 100 mingdan ortig'i Ispaniyadan quvib chiqarildi. Filipp II davrida, 1609-yilda esa 500 ming arablar (moriskalar) Ispaniyadan haydaldi. Bu arab madaniyatini zaiflashtirib qo'ydi va asta-sekinlik bilan Ispaniyada arab tili va madaniyati yo'qola bordi.

**Rekonkista harakati.** «Rekonkista» degan atama qayta bosib olish degan m'noni anglatadi. Biz yuqorida Pireney yarim oroli hamma qismining arablar tomonidan bosib olinmaganini aytgan edik. Shimolda Asturiya va Galitsiya ispanlar qo'lida qolgan edi, bundan tashqari, ularning qo'lida Pireneyning janubiy yonbag'irlari ham bor edi. Galitsiya, Asturiya, ispan markasi – bular odam yurishi va yashashi qiyin hududlar bo'lib, arablarning bu yerlarni bosib olishga urinishi natijasiz chiqdi. Bu yerlar boshqa hududlardan ko'chib kelgan ispan qochoqlari bilan to'lib ketdi. Keyinchalik xuddi shu yerlardan rekonkista harakati boshlandi.

Rekonkista harakati VII asrdayoq boshlangan edi. Ammo XI asrgacha bu harakat ispan kuchlarining tarqoq bo'lganligi va ularga qarshi jipslashgan qudratli xalifalik kuchlari turganligi sababli biror-bir natijaga erisha olmadi. Arablar sulolasi parchalangandan so'ng, xalifalik 23 ta mustaqil feodal knyazliklarga bo'linib ketgandan keyingina ispanlar muvaffaqiyatga erisha boshladi. Ya'ni 1031-yildan boshlab tarqoq xalifalikning kuchi kamayganligi sababli ispanlar yangi viloyatlarni qo'lga kiritishib, arablarni Ispaniyadan siqib chiqara boshladi. Bu harakatlarning markazlari Toledo, Kastiliya va Leon hududlari edi.

Rekonkista harakatining muvaffaqiyatli borishining asosiy omillari quyidagilardan iborat.

1. Harakatni dehqonlar quvvatladilar, sababi: ularga faqatgina yer berish va'da qilib qolinmasdan, balki shaxsiy ozodlik ham oladigan bo'ldilar;

2. Feodallar va dehqonlar xalq va din birligi asosida birlashdilar;
3. Rekonkistaga faqat ispanlar emas, balki fransuz va italiyan ritsarlari ham qatnashdilar;
4. Rim papasi rekonkista harakatini musulmon diniga qarshi salib yurishi deb e'lon qilindi.

XI asr boshlarida Ispaniyaning anchagina qismi arablardan tortib olingan edi. 1064-yilda qirol Ferdinand I Leon, Kastiliya, Galitsiya va Asturiyani birlashtirishga muvaffaq bo'ldi va hujumni kuchaytirib, Duro daryosidan o'tdi. 1085-yilda Toledo, 1118-yilda Saragossa shaharlari olindi. 1212-yilda Las-Navas de Talos yonida ispanlar va arablar o'rtasida hal qiluvchi to'qnashuv bo'ldi va bu jang ispanlar foydasiga hal bo'ldi. Shundan so'ng arablarni Ispaniya hududidan ommaviy ravishda haydash boshlandi. 1236-yilda Kordova, 1248-yilda esa Sevilia qo'ldan ketdi. XIII asrning ikkinchi yarmidan keyin arablar qo'lida faqatgina Granada qoldi, xolos. Arablar Granadani to 1492-yilgacha o'z qo'llarida saqlab qola oldilar.

Rekonkista harakati natijasida hozirgi Ispaniyada hududi Kastiliya, Aragoniya, Kataloniya va Portugaliya kabi mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bu davlatlarning keyingi rivojlanishi bir-biridan juda farq qilgan holda bordiki, ularni alohida-alohida qarab chiqish maqsadga muvofiq.

**Aragoniya.** Aragoniyada dvoryanlar hukmronlik qilar edilar. Bu yerni ozod qilish dvoryanlar kuchi bilan amalga oshganligi uchun barcha yerlar ular o'rtasida taqsimlangan edi. Yerlarning bir qismi esa dindorlarga (ruhoniylarga) tekkan edi. Aragoniya dvoryanlari bir necha tabaqaga bo'lingan edi. Ularning eng yuqori tabaqasi rekos-ombers deb nomlangan. Bu tabaqa qirol hokimiyati kuchsiz bo'lgan Aragoniyada muhim rol o'ynagan va ularning ta'siri jamiyat hayotida kuchli bo'lgan. Ular Aragoniyaning haqiqiy xo'jayini bo'lib, o'z ichlaridan qirol saylar edilar. Qirol ularga bosib olingan yerlarni taqsimlab berar edi. Bu yerlarni ular alohida vakillari orqali boshqarib, o'zlarining yer boshqaruvchilarini tayinlar edilar. Rekos-ombers o'z hududida grajdan sudi huquqidan foydalanar edi, faqat jinoyat huquqi qirolga tegishli edi.

Rekos-ombers denaturalizatsiya deb nomlangan huquqqa ega ediki, bu agar biror tomoni bilan qirol unga yoqmasa, rekos-ombers boshqa qirolning fuqaroligiga o'tib ketishi mumkin edi. Ular bundan tashqari agarda qirol dvoryanlar erkinliklarini cheklaydigan bo'lsalar, qirolni taxtdan tushirish huquqiga ham ega bo'lganlar.

XIV asrda Aragoniyada «buyuk (oliy) suda» deb atalgan o'ziga xos lavozim paydo bo'lgan edi. Faqat mana shu buyuk sudyagina

Rekos-ombersni yerdan mahrum qilish huquqiga ega edi. Faqat ugina qirol va dvoryanlar oʻrtasidagi nizoni koʻrib chiqardi va uning hukmi qattiq boʻlib, qayta qarab chiqilmas edi.

Dvoryanlar yoki ritsarlarning ikkinchi tabaqasini infonsones tashkil qilar, bu tabaqaga oʻrta dvoryanlar kirar edi. Bular Rekos-ombersga qarindoshchilik iplari bilan bogʻlangan katta magnatlarning kichik aʼzolari edi. Uchinchi tabaqa esa kavaleros yoki edalgo deb atalib, Ispaniyaning kambagʻallashib qolgan butun mayda ritsarlarini tashkil qilar edi.

XIII asrda Aragoniyada umumtabaqaviy kengash – korteslar paydo boʻldilar. Bu yerdagi kortesning oʻziga xos tomoni shunda ediki, u toʻrt tabaqali boʻlib ketdi. Unda Rekos-ombers alohida palatani tashkil qilar edi. Ikkinchi palatani oʻrta va mayda dvoryanlar tashkil qilar edi. Uchinchi palatani ruhoniylar, toʻrtinchi palatani shaharliklar tashkil qilar edi. Aragoniyada shaharlar kam taraqqiy etganligi sababli korteslarda ularning vakillari muhim rol oʻynamas edilar. Dehqonlarning taqdiri esa toʻla dvoryanlar qoʻlida edi. Shu yerda aytish lozimki, rekonkista harakatidan dehqonlarning kutgan umidlari roʻyobga chiqmadi. Ular endi krepostnoy dehqon qanday majburiyatlarni oʻtaydigan boʻlsa, shunday majburiyatlarni oʻtashga mahkum qilindilar. Shuning uchun Aragoniyada tez-tez dehqonlar qoʻzgʻoloni koʻtarilib turdi.

Kataloniya jamiyati Aragon tuzumidan ancha farq qilmasa ham, uning oʻziga yarasha afzalliklari bor edi. Bu yerda dvoryanlar kuchli edi, lekin ayni vaqtda kuchli shaharlar ham bor ediki, bular faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki siyosiy jihatdan ham katta rol oʻynar edilar. Bu yerda shahar va dengiz savdosi rivojlangan edi. Tadbirkor kataloniyalik dengizchilar toʻgʻrisida «ular toshdan non yasaydilar» deyishardi. Sharq bilan kataloniyaliklar ispaniyalik savdogarlar bilan raqobatlasha olardilar. Ularda teri va metall buyumlar, gazmollar, kema buyumlari ishlab chiqaradigan sanoat rivojlangan edi. Bu mahsulotlarga sharq va gʻarb mamlakatlarida talab katta edi. XII asrga kelib kataloniyalik savdogarlar tomonidan ishlab chiqarilgan savdo-sotiq va dengizda suzish qoidalari Oʻrta Yer dengizining barcha portlarida qabul qilindi.

Aragoniya dehqonlarining ahvoriga nisbatan Kataloniya dehqonlarining ahvoli birmuncha yaxshi boʻlsa-da, ammo ularning ahvolini ham «yaxshi deb boʻlmasdi». Koʻpchilik dehqonlarning ahvoli «relinsa» sharoitida edi. Yaʼni ular feodal qoʻlidan oʻz kesim yerlarini (uchastkalarini) tashlab ketmoqchi boʻlsalar, avvalo, oʻzlarinig shaxsiy erkinliklarini sotib olishlari kerak edi. Bu yerda yer egasi dehqonni yer bilan birga hoxlasa almashtirishi, sovgʻa qilishi yoki sotib yuborishi mumkin

edi. Lekin Aragoniyadagi singari o'ldirib yuborishga huquqi yo'q edi. «Relinsa»dagilar «be'mani (yomon) urf-odatlar» deyiladigan bir qator majburiyatlardan azob chekishar va ma'naviy jihatdan haqoratlanar edilar.

«Be'mani odat»larga quyidagilar kirardi:

1. Birinchi kecha huquqlari;
2. Turmush o'rtog'iga xiyonat qilganligi uchun jarima olish huquqi;
3. Feodalning bolasini emizish uchun dehqonlarning baquvvat xot-inlaridan majburiy yo'l bilan boquvchilarni olish;
4. Merosxo'ri bo'lmagan dehqon o'lsa, uning yerini feodal tomonidan meros yeri sifatida olish huquqi;
5. Feodal xo'jaligida yong'in bo'lsa, uni qoplash maqsadida dehqondan soliq olish huquqi va hokazo.

Xuddi Aragoniyadagidek Kataloniyada ham korteslar mavjud edi. Bu yerdagi korteslar uch palatali edi: dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklar korteslarda barcha masalalar ovoz berish yo'li bilan hal qilinar edi. Lekin bu yerda «ovozni sanamaydilar, balki o'ldaydilar» degan qoida mavjud edi. Ya'ni ovoz berganning jamiyatdagi o'rni hisobga olinar edi.

**Kataloniya.** Kastiliya shaharlari dengiz savdosi bilan shug'ullanmasdi va umuman, savdo bo'yicha uncha ahamiyatli emasdi. Bu shaharlar biz o'rganyotgan davrda sanoat markazi sifatida ham katta rol o'ynagan emas. Kastiliya shaharlari harbiy jihatdan ahamiyatli edi. Bu avvalo qal'alar mamlakati degan ma'noni bildirgan. Kataloniyada rekonkesta harakati ishtirokchilari bo'lgan kolonistlarga shaxsiy erkinlik berilgan edi. Ularning bu erkinliklari «fuero» nomli yorliqlarda yozilar edi. Kastiliyada juda ko'p shaharlar va qishloqlar fuero huquqini olgan edilar. Shahar va qishloqlarga hunarmandlar va dehqonlar kelib joylashgan edilar, ammo yana bir guruh kishilar ham bor edilarki, ular hech joyda ishlamasdan, mutlaqo harbiy yurushlarda qatnashish istagida yurar edilar. Shaharlar o'z ozodliklarini saqlab qolish uchun magniotlat va qirol hokimiyati bilan kurash uchun birlasha boshladilar. Bu kurashda XIII asrda germandadalarining o'rni katta bo'ldi.

Germandada bu shahar ittifoqi, shahar jamiyatidir. Germandadalar katta imtiyozlardan foydalanar edilar. «Agar biror germandadaga, birodarlikka (jamoaga) tegishli odamga fueroga qarshi ravishda undan soliq undirish to'g'risida qirol yorlig'ini ko'rsatsa ham, u shu jamoa yoki shu germandada kishilari tomonidan o'ldirilishi kerak», deyiladi shahar fuerolaridan birida.

Qirol hokimiyati Kastiliyada dastlab juda kuchsiz bo'lib, uni korteslar chegaralab tashlagan edi. Kastiliyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, bu yerda gidalgo-dvoryanlarning quyi tabaqasi nihoyatda ko'p edi.

Kastiliya korteslarida uchta tabaqa mavjud edi: dvoryanlar, ruhoiiylar va shaharliklar. Aragoniyadan farqli ravshda bu yerdagi korteslarda asosiy rolni shaharliklar o'ynar edi. Ayrim paytlarda bu yerda shaharliklar bilan birga erkin dehqonlarning vakili bo'lgan begetritlar korteslar majlislarida birga qatnashardilar. Bunday hollar ayniqsa, XIII–XIV asrlarda ko'p bo'lgan.

Boshqa g'arb mamalakatlari tabaqaviy kengashlari singari islom korteslari ham barcha aholining emas, balki faqat dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklarning manfaatlarini himoya qilardi. Yuqorida ko'rganimizdek, faqatgina Kastiliya korteslari bundan mustasno bo'lib, uning yig'ilishlariga ozod dehqonlar ham ishtirok etishgan.

Kastiliya korteslari qirol hokimiyati kuchsiz bo'lgan paytlarda davlat hayotining barcha ishlari ustidan qattiq nazorat o'rnatganlar. Ish shunchalik darajaga borib yetdiki, ayrim hollarda korteslar qirolning uyidagi kundalik turmushiga ham aralashganlar. 1258-yilda Kastiliya kortesi qirol va uning oilasi ko'p ovqat yemasligi, belgilangandan ko'p mehmon chaqirmasligi va ma'lum miqdordagi puldan ortiq xarajat qilmasligi haqida qaror chiqardi.

Kastiliyaning qirolchasi Izabellaning hukmronlik davri (1474–1506) Ispaniyada qirollik hokimyatining kuchaygan va islom apso-lutizmining tashkil topgan davri hisoblanadi. Hali qirolicha bilmay turib, Izabella Aragoniya taxt vorisi Ferdinandga turmushga chiqadi (1474-yil). Qachonki Izabella Kastiliyaning qirolchasi bo'lganda ular bi qirollikni birgalikda boshqardilar. 1474-yilda Ferdinand Aragoniya taxtiga chiqdi. Shunday qilib, 1479-yildan «Katalog qirollar» bo'lgan Ferdinand va Izabellalar ikki qirollik qo'shilishidan tashkil topgan yagona Ispan davlatini boshqara boshladilar.

Rivojlanib kelayotgan tovar-pul munosabatlari sharoitida bu vaqtga kelib dehqonlarning ahvoli yanada og'irlashdi. Dehqonlar bu zulmga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Xususan, kataloniyalik «relenslar» krepostnoy qaramlik va «be'mani odatlar»ni bekor qilishni talab qilib chiqdilar. 1462-yilda boshlangan «remenslar»ning bu qo'zg'oloniga ozod dehqonlar ham kelib qo'shiladi. Ularga harbiy ishni biladigan kam yerli bir dvoryanin bosh bo'ldi. Qo'zg'olon qatnashchilari «Adam vasiyat qoldirmay o'lgan edi. Shuning uchun yerni uning hamma bolasi uchun

teng bo'lish kerak, birov yerga egalik qilib, birov yersiz qolsa bu haqiqatga to'g'ri emas», degan talabni olg'a suradilar. Ammo bu qo'zg'olon bostirildi.

1484-yilda «remens»dagi dehqon Pedro Xuan Sape boshchiligida yana qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon quyidagi natija bilan tugadi: 1486-yilda dehqonlar shaxsiy ozodlikka erishdilar, «be'mani odatlar» tugatildi. XV asrdagi Ispaniyada bo'lgan eng katta voqea bu Granada-ning arablardan batamom tortib olinishi bo'ldi. Granada katta iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lib, Shimoliy Afrika bilan doimiy hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan katta flotga ega edi.

**Inkvizitsiya sudining joriy etilishi.** 1480-yilda Ispanida inkvizitsiya joriy etildi. Bu eng avvalo cho'qintirilgan yahudiy va mavrlarga (arablarga) qarshi qaratilgan edi. Inkvizitorlar cho'qintirilgan yahudiylarni eski urf-odatlariga amal qilayotganlikda fosh qilar edilar. Ular odamlarning ishini sudga tortib, turmalarga solib, gulxanlarda yoqib, mol-mulklarini musodara qilar edilar. Shunday qilib, qirol hokimiyati yahudiylarning boyligini o'z qo'llariga oldilar va keyinchalik shu usullarni mavrlarga nisbatan ham qo'llay boshladilar. Bunga sabab ular xristianlikni qabul qilsalar-da (zo'rlik yo'li bilan qabul qildirilgan), ammo yashirin ravishda eski urf-odatlariga amal qilar edilar. Hukumat bu yeretiklarning ham mol- mulkini musodara qildi.

Inkvizitsiya Rim katolik cherkovi tomonidan tashkil etilsa-da, amalda qirol qo'lida edi. Izabellaning sobiq bosh ruhoniysi oliy inkvizitor Torkvemada qirol hukumatiga bo'ysunar edi. Hukumatga xizmat qiluvchi doimiy amaldorlar singari inkvizitorlarni ham qirol tayinlar edi. Inkvizitsiya tufayli cherkov absolutizm qo'lidagi dahshatli qurolga aylandi. Torkvemada Ispaniyadagi inkvizitsiya sudiga boshchilik qilib turgan yillarda (1481–1490-yillar) 9 mingga yaqin odam o'tda kuydirildi. 90 mingga yaqin odamning mol-mulklari musodara qilinib, o'zlari turli xil jazolar olishdi.

## 17-MAVZU: YEVROPADA XRISTIAN CHERKOVNING QUDRATI, SALIB YURISHLARI

### REJA:

1. O'rta asrlarda Yevropada xristian cherkovining qudrati.
2. XI–XIII asrlarda Yevropa feodallarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va salibchilik harakatining boshlanishi.
3. Yevropa feodallarining va ritsarlarining Sharqqa yurishi. Salib yurishlarining mohiyati, maqsadlari.
4. Vizantiyaning istilo etilishi va salibchilar harakatining yakuni.
5. Diniy ordenlar faoliyati. Salib yurishlarining oqibatlari.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** yarim oy, kofirlar, beklik, xristian, katolik, pravoslav, salibchilar, orden, magistr, ritsarlik, patriarx, renta, «Tevton» ordeni, salib yurishi, «Muqaddas urushlar», papa, sxizmatiklar, «kofir», «Quddus assizlari», pruss, tampliyerlar, gospitalerlar, Krit, «Romeya», ionnitlar, ibodatxona.

**O'rta asrlarda Evropada xristian cherkovining qudrati.** Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha uzoq vaqt davomida yaqin Sharqda – Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borgan harbiy-kolonizatsiya ekspeditsiyalari koʻzda tutiladi. Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni – «butning – yarim oyga qarshi, xristianlikning – islomga qarshi kurashi-dir», deb eʼlon qilgan edi; yurishlardan muddao Falastinni «kofirlar»-dan xalos qilish va xristianlar eʼtiqodicha, Quddusdagi «Iso paygambar qabri»ni xristianlarga qaytarib olib berishdir deb, rasmiy eʼlon etildi. Haqiqatda esa bu bosqinchilik yurishlardan iborat boʻlib, ularda yevropalik baronlar va ritsarlar hech tap tortmay, Sharqning shaharlarini taladilar, butun-butun knyazlik (beklik) va qirolliklarni qoʻlga kiritdilar. Ammo salib yurishlarida, feodallardan tashqari, jamiyatning boshqa sinflari, jumladan, dehqonlar ham qatnashdilar. Bu hol salib yurishlariga endi yalpi, ommaviy tus berdi. Zamondoshlarga butun Yevropa harakatga kelganday, xalqlarning qandaydir yangi buyuk hijrati yuz berganday boʻlib koʻrindi. XI asrda Sharqda Yevropa feodallarining hujum qilishi uchun juda qulay bir vaziyat maydonga kelgan edi. Bir



vaqtlar qudratli deb hisoblangan Bog'dod xalifaligi 1055-yilga kelib batamom tarqadi. Boshqa yirik davlat – komninar zamonidagi Vizantiya ham og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Bolqon yarim oroliga bostirib kirgan pecheneglar Vizantiya imperiyasiga shimol tomondan hujum boshlagan edilar. Sitsiliya normandlari g'arbdan Vizantiyaga xavf solmoqda edilar. Ammo saljuq turklari Vizantiya uchun, ayniqsa, xavfli edilar, ular Kichik Osiyoning katta bir qismini bosib olgan va ayni zamonda Konstantinopolga qo'shni bo'lgan Nika shahrini o'zlariga poytaxt deb e'lon qilib olgan edilar. Salib yurishlarining, jumladan, birinchi salib yurishining asosiy sababi, G'arbiy Yevropaning o'zidagi ijtimoiy ziddiyatlarning o'tkirlashib ketganligi edi. XI asrda mayda ritsarlarning ko'pchiligiga yer yetishmas edi. Savdo-sotiq va shaharlarning rivojlanishi natijasida ehtiyojlarning o'sib borishi munosabati bilan feodallarning mahalliy dehqonlarni ekspluatatsiya qilishdan oladigan daromadlari ular uchun kifoya qilmaydigan bo'lib qoldi. Juda ko'p ritsarlar yerdan mahrum qilingan edilar, chunki feodallarga qarashli yer-mulk va daromadlar (feod) odatda katta og'ilga berilar, kichik aka-ukalar esa otadan qolgan merosdan biror narsa olishga haqlari yo'q edi. XI asr oxri – XII asr boshida salib yurishidagi g'oyat muhim masala – dehqonlar masalasi edi. G'arbiy Yevropaning feodal zulmi natijasida asoratga tushirilgan, ezilgan dehqonlari dastlabki paytlarda sharqqa bajonudil yo'l oldilar. Krepostnoy qaramlikdan xalos bo'lish, qarzlarni tugatish, sharqdan yer olish umidi minglab kishilarni tug'ilib o'sgan shahar va qishloqlarini tashlab, uzoq yurtlarga ketishga majbur etdi. Ularning ko'plari bu joylarda och-yalongoch qolib, xor-zorlikda o'lib ketdi. Dunyoviy va ruhoniylar dehqonlarning sharqqa qiladigan yurishini vujudga kelgan og'ir ahvoldan qutulishning o'ziga xos bir yo'li deb bilardilar. Ko'pdan ko'p monaxlar va boshqa daydi voizxonlar dehqonlar orasida targ'ibot yurgizib, ularni sharqqa yurishdek «ezgu ishda» qatnashishga da'vat etardilar. Biroq dehqonlar masalaning mohiyatiga darhol tushunib yetmagan bo'lsalar-da, lekin oqibat-natijada ular gapning nimada ekanligini ochiq-oydin payqab qoldilar. Sharqqa qilingan dastlabki ikki yurishda dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsalar, uchinchi salib yurishida esa qatnashmay qo'ydilar. Bundan keyingi salib yurishlarining hammasida faqat feodalarning o'zlari qatnashdilar. Yevropa qirollari, eng yirik feodallar (graflar va baronlar), shuningdek, ko'pdan ko'p ritsarlar yaqin Sharqda, faqat Arab Sharqidagina emas, balki Vizantiyada ham yangi feodal davlatlar barpo etish masalasini ochiqdan ochiq ko'zlay boshladilar.

Shunday qilib, Sharqning ikki eng yirik davlati – Arab xalifaligi bilan Vizantiya imperiyasi – salibchilarga biror-bir jiddiy qashilik ko'rsatishdan ojiz edilar. Buning ustiga, ulardan biri – Vizantiya hatto Yevropa feodallarini Sharq mojarolariga aralashishga da'vat ham etdi.

**XI–XIII asrlarda Yevropa feodallarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va salibchilik harakatining boshlanishi.** Salib yurishlarining boshlanishi 1096- yilga to'g'ri keldi. 1096-yilning bahorida Shimoliy va Sharqiy Fransiyaning, qisman G'arbiy Germaniyaning dehqonlar ommasi salib yurishi uchun yo'lga tushdi. Qo'yni puch yongoqqa to'ldirilgan dehqonlarga monax Pyotr Amenskiy (Pyotr Pustinnik) va kichik mulkdor ritsar Valter Golyak boshchilik qilidilar. Dehqonlar olmoni yomon uyushtirilgan, naridan-beri qurollantirilgan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlanib turilmas edi. Bu hol salibchilar «kofirlar» istiqomat qiladigan yerlarga yetib bormasdan oq ma'lum bo'lib qoldi. Jumladan, salibchilar Reyn daryosi bo'yidagi shaharlarga o'tib keta turib, u yerlarda talonlar uyushtirdilar. 1096-yilning kuzida ritsarlar, asosan, fransuz va ital'yan ritsarlar, qisman G'arbiy Germaniya ritsarlari jo'nab ketdilar. Bu yurishga quyi Lotaringiya gersogi Godfrid Bulonskiy boshchilik qilib, o'zi bilan birga sharqqa ikkita ukasi – Bolduin bilan Yevstafiyni olib ketdi. Shimoliy fransuz feodallariga Normandiya grafi Robert hamda Flandriya grafi boshchilik qildilar. Salibchilar bosib olingan territoriyada o'z davlatlarini tuzdilar, bu davlat Quddus qirolligi deb ataldi. Bu davlatga dastlab Gotfrid Bulonskiy qirol qilib saylandi. Ammo Quddus qirolligi Balduinning vorislari zamonida (1100–1118) qat'iy rasmiylashdi. Quddus qirolligi o'ziga xos «namunal» feodal davlat edi. Quddus qirolligidan tashqari, shu qirollikning vassal davlatlari sifatida yana uchta yirik knyazlik: Antioxiya knyazligi, Tripoli va Yedessa grafliklari bor edi. Salibchilar sharqda mudofaani tashkil qilmoq uchun o'ziga xos doimiy qoshin tuzishga majbur bo'ldilar. 1099–1100-yillarda birinchi salib yurishi tamom bo'lgandan keyin ritsarlarning bir qismi Yevropaga qaytib ketdi. Shundan keyin bu ritsarlarga yordam tariqasida diniy – ritsarlik ordenlari barpo etildi. Ordenlar papaga bo'ysunardi. Sharqda uchta orden tashkil etildi. 1119-yilda birinchi bo'lib tampliyerlar yoki ibodatxona ahllari degan italyan ordeni bunyodga keldi. Tez orada shunga o'xshash hospitalerlar yoki ionnitlar degan italyan ordeni joriy etildi. Keyinroq 1190-yilda nemislarning uchinchi bir ordeni ta'sis etilib, u Nemis yoki Tevton ordeni deb ataldi. Tevton ordeni Prussiyani istilo etib va shuning oqibatida «Tevton» ordeni degan nom o'rniga «Pruss» ordeni degan nom oldi.

Biroq Quddus qirolligi diniy-ritsarlik ordenlari tarzidagi qo'shimcha kuchga ega bo'lishiga qaramay, uning ahvoli juda nochor edi. XII asrning 30-40-yillarida Quddus qirolligi eng kuchli qirolikka aylangan edi. Ammo 1144-yilga kelib uning yerlarining anchagina qismini (Kichik Armaniston va Yedessani) turklar bosib oldi. Quddus qirolligi turklarga qarshi Yevropadan yordam berish uchun yangi ritsarlarni chaqirishni so'rab papaga murojaat qildi. Bunga jayoban, 1147–1149-yillarda ikkinchi salib yurishi uyushtirildi. Ikkinchi salib yurishida fransuz qirolli Ludovik VII va german imperatori Konrad III ham qatnashdilar. Lekin yurishga tortilgan harbiy kuchlar ancha ko'p bo'lishiga qaramay, bu yurish butunlay muvaffaqiyasizlik bilan tugadi. Uchinchi salib yurishining eng muhim natijasi, yuqorida eslatib o'tilganidek, Kipr orolining G'arbiy yevropaliklar tomonidan istilo etilishi bo'ldi. Keyinchalik Quddus qirolligi o'z saroy ahllari bilan birga Akradan bu yerga ko'chib keldilar. Salibchilarning barcha yer-mulklari ichida Kipr qirolligi eng mustahkam qirollik bo'lib chiqdi. Bu qirollik XV asrning ikkinchi yarmigacha, ya'ni 250 yil yashadi.

**Yevropa feodallari va ritsarlarining Sharqqa yurishi. Salib yurishlarining mohiyati, maqsadlari.** Hammasi bo'lib sakkiz marta salib yurishlari bo'ldi. Lekin dastlabki to'rtta salib yurishi eng muhimi deb hisoblanadi. Keyingi to'rtta salib yurishida uncha ko'p kishi qatnashmagan. Yettinchi va sakkizinchi salib yurishlari fransuz qirolli Ludovik IX tomonidan uyushtirilib, ular fransuzlarning Shimoliy Afrikadagi ta'sirini mustahkamlamoqchi bo'lgan edilar. Sakkizinchi yurishda (1269–1270) Ludovik Tunis shahrini qamal qilish uchun zo'r berib kuch to'pladi, bundan muddao Afrikada urush harakatlarini yanada davom ettirish uchun tayanch bazasiga ega bo'lish edi. Ammo Tunisni qamal qilish paytida fransuzlar lagerida o'lat kasali boshlanib, ko'plar qatorida qirollarning o'zi ham halok bo'ldi.

Harbiy muvaffaqiyasizliklarga qaramay, har qalay, salib yurishlarining G'arbiy Yevropa taraqqiyoti uchun ahamiyati g'oyat katta bo'ldi. Ikkinchi tomondan, G'arbiy Yevropaning o'zi XI–XIII asrlar davrida o'zining ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi jarayonida yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy formalar yaratdi.

Ammo salib yurishlarining G'arbiy Yevropaga ko'rsatgan ta'siri haqida gapirilar ekan, arablar Sharqining madaniyati salib yurishlaridan tashqari, boshqacha yo'llar bilan, jumladan, Ispaniya arablari yoki mavrlar G'arbiy Yevropani o'tib kirganligini ham unutmaslik kerak. Sharq bilan yaqin aloqa qilish natijasida yevropaliklarning saviyasi se-

zilarli darajda kengaydi. Sharqda madaniy xalqlar bor ekanligini ilgari ular xayollariga ham keltirmagan edilar. Sharq hayoti bilan tanishgan-luridan keyin, boshqa dinlarga ancha-muncha yo'l qo'yadigan bo'ldi-lar. Yevropaliklar xristian dinini musulmon dini bilan taqqoslab ko'rib, xristian dinining o'ziga va xususan salib yurishlari davrida O'rta asr papaligi tomonidan bevosita amalda qo'llanilgan teokratizm ideyasiga nisbatan ba'zi bir tanqidiy andisha va mulohazalarga kela boshladilar. Salib yurishlari keyingi O'rta asr Yevropasi hayotidagi eng muhim ho-disalarning rivojini tezlatdi, xolos.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Vizantiyani qo'lga kiritish sababini aniqlang.
2. Salib yurishlarining mag'lubiyati nimalardan iborat edi.
3. Salibchilar harakati qachon o'z yakuniga yetdi?
4. Salibchilar Vizantiyadan qachon quvib chiqarildi?
5. So'nggi salib yurishidan keyin Vizantiyaning ahvoli?
6. Birinchi salibchilar harakatining aniq sabablari nimalardan iborat?
7. Salibchilarning birlashishida papa siyosati o'rnini aniqlang.
8. Yevropa feodallarining Sharqqa yurish maqsadini asoslaydigan sabab?
9. Salibchilik harakatida asosiy ishtrokchilar?
10. Salib yurishlari qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
11. Birinchi salib yurishida dehqonlarning maqsadi.
12. Uchinchi salib yurishining natijasi nima bilan tugadi?
13. Birinchi salib harakatidagi mag'lubiyat sabablari?
14. Salib yurishlarining boshlanishi qaysi yilga to'g'ri keladi?

## 18-MAVZU: XI–XV ASRLARDA ANGLIYA

### REJA:

1. XI–XIII asrlarda Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi.
2. Angliyada parlamentning vujudga kelishi.
3. Uot Tayler qo‘zg‘oloni.
4. «Qizil» va «oq» gullar urushi.

**Tayanch so‘zlar, iboralar va tushunchalar:** Normandiya gersogi, «kvadrat», «minora», yepsikop, Relif, «Dahshatli sud kitobi», «Daniya puli», bordarilar, kottarilar, frigolderlar, «erkin kishilar», «sotnya», «Anju imperiyasi», villan, abbat, arxiyepiskop, «Tenglar sudi», monastir, «manor odamiga», kotterlar, «Namunali parlament», yeschitor, subsidiya, baron, lordlar palatasi, kommutatsiya, lord, domenan, qora o‘lat, plebey, «Ishchi qonunchiligi», «faqir poplar», lollardlar, tayler, ««Qizil» va «oq» gullar» qo‘zg‘oloni, «Kapital», Yuz yillik urush, regent, «Kenterberi hikoyalari», Ezop.

**XI–XIII asrlarda Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi.** XI asrdagi o‘rta asrlar Angliyasi tarixidagi eng yirik voqea Normandiya gersogi Vilgelm boshliq fransuz-normand feodallari tomonidan Angliyaning istilo qilinishi bo‘ldi. Bu istilo uchun Vilgelm «Istilochi» degan laqab oldi. 1066-yil 14-oktyabr Vilgelm La-Mansh bo‘g‘ozidan suzib o‘tib, qariyb 15 ming kishilik katta ritsarlar qo‘shini bilan Angliya territoriyasiga bostirib kirdi. Vilgelm qo‘shinida faqat normandlargina emas, balki Fransiyaga qarashli boshqa viloyatlarning yer-mulk va krepostnoylar izlovchi ritsarlari ham bor edi. Vilgelmga ro‘baro‘ chiqqan ingliz qiroli Garold normandlarning hujumini to‘xtata olmadi. Bir qismi ritsarlardan, boshqa bir qismi dehqonlarning piyoda lashkarlaridan iborat bo‘lgan ingliz-saks qo‘shinlari Gastings shahri yonidagi jangda batamom mag‘lubiyatga uchradi. Garold o‘ldirildi. Shundan keyin Vilgelm aylanma yo‘l bilan Londonga qarab bordi, so‘ng Duvr, Kenterberi va Sautvork shaharlarini bosib oldi. Uning qo‘shinlari Londondan yuqoriroqda Temza daryosini kechib o‘tdi. London shimoldan kesilib qoldi va u taslim bo‘lishi lozim edi.

Vilgelm Istilochi tomonidan Angliya aholisining ro‘yxatga olinishi (1086) XI asrdagi g‘oyat katta tadbir edi. Angliyada hech qachon ko‘rilmagan bu tadbirga aholi qo‘rquv bilan qaradi. Ro‘yxatga olish

natijasida tuzilgan varaqalar xalq orasida «Dahshatli sud kitobi» deb ataldi. Qirol xazinasi yer egaligining hajmi to'g'risida endi aniq ma'lumotlarga ega ekan, aholi ro'yxati hukumatga «Daniya puli» deb atalgan eski yer solig'ini ko'paytirilgan miqyosda undirish imkonini berdi. Yangi normand-fransuz lordlarining ingliz qishlog'idagi krepostnoy ahvolini rasmiylashtirishga intilishi ana shu ro'yxatda ravshan aks etdi. 1086-yilgi ro'yxatda dehqonlar turli nomlar ostida gavdalandilar: ozod kishilar (kelajakda ular frigolderlar yoki yerni erkin tasarruf qiluvchilar deb ataldilar), sokmenlar, villianlar, bordarilar, kottarilar, shuningdek, ko'pgina miqdorida qullar ham uchraydi. Ammo villanlar ro'yxatda tez-tez uchrayaturadi. XI–XII asrlar sharoitida krepostnoy tabaqa xususiyatlariga ega bo'lgan dehqonlarning bu kategoriyasi (feodal yer-mulki territoriyasida burshchina o'taydigan va shu territoriyaga biriktirib qo'yilgan) ingliz qishlog'ining feodal-krepostnoylik qiyofasini hammadan ko'ra ochiqroq xarakterlab beradi. Ammo Angliyaning shimoli-sharqiy qismida, hatto 1086-yilgi ro'yxatda ham, dehqonlarning salkam yarmi «erkin kishilar», qisman sokmenlar holatida qolaveradi. Genrix II davrida (1154–1189) ingliz qirolligining chegaralari g'oyatda kengaydi. O'zining ko'p sonli mulklaridagi moddiy resurslariga tayanib, shuningdek, feodallar o'rtasida bundan oldin yuz bergan o'zaro urushlaridan aholi ichidagi o'rtasinfning norozi bo'lganligidan foydalanib, Genrix II qirol hokimiyatining obro'-e'tiborini yanada ko'tara oldi. O'z qirolligining boshidanoq u grafliklarga barcha sheriflarini (Angliya grafligida oliy ma'muriy va sud lavozimidagi shaxs) o'zgartirib, ularning o'rniga o'ziga ishonchliroq bo'lgan yangi odamlarni tayin etdi. G'alayonlar mahalida feodallar tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan «qonunsiz» qasrlarning ko'pchiligi yo'q qilib tashlandi. Ayni zamonda mamlakatda qirollik sudining ahamiyati ortdi. Genrix II ning sud sohasidagi asosiy islohoti sud maslahatchilarining o'rnatilishi edi. Qirol har bir ritsarga, har bir shaharlik va erkin dehqonga feodal va baronlarning sudlariga emas, balki qirollik sudiga murojaat etish huquqini berdi. Genrix II doimiy qo'shin tuzmoqchi bo'ldi. Chunki vassallarning ritsarlik xizmati bir yilda ma'lum kunlar bilan cheklangan bo'lar, bu esa quruqlikda uzoq urushlar olib borishda o'ng'aysizlik tug'dirardi. Shu sababli Genrix II ritsarlarning bir qismini harbiy xizmatdan bo'shata boshladi. Bunday ritsarlar shaxsiy xizmat qilish o'rniga harbiy yoki qalqon solig'i to'lashlari, rozi bo'lgan ritsarlarni yoniga yollashi mumkin edi. Qalqon pulining joriy qilinishi muhim ijtimoiy oqibatlarga olib keldi. Bu tadbir tufayli ingliz ritsarlari harbiy-feodal xizmatdan ertaroq ozod bo'lib, tinch qishloq xo'jayinlariga

aylana boshladilar. Kelgusida bu holat quyi ingliz dvoryanlarini shahar burjuaziyasi bilan yaqinlashtirishda katta rol o'ynadi.

Genrix II ning o'gillari Richard I Sheryurak (1189–1199) va Ioann (Jone) Yersiz (1199–1216) davrlarida qirol hokimiyati zaiflashib qoldi. Richard deyarli Angliyada yashamadi ham, chunki hamisha yoki Sharqda salib yurishi bilan, yo Fransiyadagi urushlar bilan band bo'ldi. Ioann Yersiz Filipp II Avgust bilan kurashda doimo muvaffaqiyatsizlikka uchradi va pirovardida Normandiyani, Anjuni va Fransiyadagi boshqa bir qancha mulklarni qo'ldan boy berdi. Bundan tashqari, yangi Keterbedi arxiyepiskopini saylash masalasiga aralashib, u papa Innokentiy III bilan to'qnashib qoldi. Papa uni Ioann cherkovdan quvib, butun Angliyada ibodat qilishni man etdi (1208). Taxtdan ajralish xavfi ostida qolgan va jamiyatning yetarlicha qo'llab-quvvatlashga ko'zi yetmagan qirol taslim bo'lishga majbur bo'ldi. U o'zini papaning vassali deb tan oldi va har yili papaning xazinasiga bir ming funt sterling xiroj to'lash majburiyatini oldi (1213). Papa bilan to'qnashuvdagi muvaffaqiyatsizlik mamlakatda qirolning obro'-e'tiborini juda tushirib yubordi. Ioann va uning amaldorlari qo'llab kelgan har xil ta'magirliklar, nohaq yig'inlar yig'ilishi va zo'rvonliklar qilinishi faqat baronlar va yepiskoplar orasidagina emas, balki ritsarlar va shaharliklar orasida ham qirolga qarshi norozilik tug'diradi. Uning 1215-yilgi Xartiyasi 63 moddadan iborat katta siyosiy hujjat edi. U lotin tilida tuzilgan edi. Xartiya, asosan, feodallar sinfining manfaatlarini ko'zda tutuvchi ko'pdan ko'p yon berishlar va imtiyozlarni o'z ichiga olgan edi. U baronlarga va feodallarga o'z feodallarini meros qilib qoldirishni va «odatga ko'ra» mo'tadil vassallik to'lovlari to'lashni ta'minlar edi. Ular uchun imtiyozli bo'lgan «Tenglar sudi» topshirib qo'yildi. Tenglar sudining qonuniy hukmidan va mamlakat qonunlaridan tashqari, Angliyada birorta erkin kishi qamoqqa olinmaydi, avaxtaga qamalmaydi. Feodallar hujjati bo'lgan va avvalo yirik baronlarning manfaatlarini ta'minlagan Buyuk erkinlik xartiyasi, har holda, progressiv ahamiyatga ega edi. Xartiya baronlar ayrim gruppasining talabi bo'lmasdan, balki siyosiy markazlashish prinsipini endi rad etmagan, bu prinsip bilan hisoblashgan va davlatni idora qilishni ma'lum darajada tartibga solishiga intilgan, umuman, feodal dvoryanlar barcha toifasining ham talabi edi. Buyuk erkinlik xartiyasining shaharliklar talabining hisobga olinishi juda muhim bo'ldi. Angliyadagi uchinchi toifa birinchi marta shu yerda siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdiki, feodallar u bilan hisoblashga majbur bo'ldilar. Buyuk qirollik kengashi yoki xartiyada eslatib

o'tilgan baronlar va ritsarlar parlamenti tez orada (shu XIII asrda) ingliz parlamentiga aylandi. Bu parlamentda fransuzlarning General shtatlaridagiga o'xshash qirollikda uchta toifaning vakillari bor edi.

**Angliyada parlamentning vujudga kelishi.** XIII asr mobaynida Angliyada qishloq xo'jaligi ham, sanoat ham zo'r berib taraqqiy etdi. Yerni ishlash takomillashdi, bu vaqtda agromiyaga doir turli traktat (ilmiy asar)larning bosilib chiqishi shuni ko'rsatadi. Ikki dalali sistema o'z o'rnini ko'proq uch dalali sistemaga bo'shatib beradi. Qoramol ko'proq urchitila boshlashi munosabati bilan dalalarni go'nglash keng qo'llaniladigan bo'ldi. Angliyada qo'ychilik, ayniqsa, ko'p rivojlana bordi. XII asrda Angliyada dehqonchilik sohasida erishilgan yutuqlarni shu fakt ko'rsatib beradiki, bu asrda Angliyadan Yevropa qit'asiga ko'p g'alla olib ketilar edi. Feodallar orasida ko'p sonli ma'muriyatga ega bo'lgan, o'zidan keyin xiyla murakkab manorial buxgalteriyasi qoldirgan monastir va yepiskop manorlari bozor munosabatlariga eng ko'p tortilgan edi. Dunyoviy yirik feodallar-baronlar bozor bilan uncha aloqa qilmas edi. Baronlar krepostnoylari yetishtirgan mahsulotning ko'p qismi feodalning va uning mulozimlarinig ehtiyojlariga sarflanardi. Mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarining umumiy o'sishi va uning iqtisodining mustahkamlanishi sharoitida XIII asrda rivojlanib borayotgan feodal jamiyatning ijtimoiy ziddiyatlari g'oyat keskinlashdi. Ziddiyatlarning bir yo'li feodallar bilan dehqonlar o'rtasida bordi. Ingliz dehqonlari XIII asrdan boshlab og'ir davrni boshidan kechirar edi. XIII asrda ingliz qishlog'ida asosiy siymo hisoblangan villanlar turar joyiga birlashtirilgan bo'lib, haftalik barshchinani o'tashga majbur bo'lgan, Lordga nikoh solig'i va boshqa nohaq soliqlar to'lagan, uning sudiga bo'ysundirilgan tamomila krepostnoy kishi edi. XIII asrdagi ingliz dehqoni aslida villanga emas, balki servga o'xshab ketardi. Ingliz yuristlari «rim huquqi»ni dalil keltirib, villanlar Rim qulining bir turi deb ochiq-oydin fikr bildirgan edilar. XIII asrda turli minoralarda ko'plab tartibsizliklar yuz berdi. Dehqonlarning tez-tez ko'chishlari, butun jamoa dehqonlarining lord uchun majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishlari bejiz emas edi. XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy ziddiyatlarning birinchisi yirik feodallar, ya'ni lordlar, yepiskoplar, yirik monastirlarning abbatlari o'rtasida yuz bergan bo'lsa, ikkinchisi mayda ritsarlar o'rtasida kelib chiqdi. Yuqorida aytib o'tilgan yirik feodallar mamlakatdagi yerlarning ko'pchilik qismini egallab olgan edilar. Ularning har biri necha o'nlab, ba'zan esa yuzlab manorlarning egasi bo'lib, krepostnoy dehqonlar, asosan, shularga qarashli edi.



Bularning hammasi ritsarlar bilan shaharliklarning birgalikda siyosiy chiqishlar qilish uchun sharoit yaratib berdi. XIII asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy voqealar xuddi shuni ko'rsatadi. Ioann Yersiz Buyuk erkinlik xartiyasini imzolar ekan, haqiqatda uni bajarmoqchi emas edi. Ioann Yersizni o'zi ichgan qasamiga rioya qilish majburiyatidan xalos etgan papa Innokentiy III ham qirol tomoniga o'tdi. Ioann baronlar bilan yangi urushga tayyorlana boshladi ham, ammo urush harakatlari ayni qizib turgan paytda qirol qazo qildi. Uning vorisi, kichik yoshli o'g'li Genrix III (1216–1272) baronlar oligarxiyasi qo'lida uzoq vaqtgacha qirol bo'lib qoldi. Fransiyadan Angliyaga kelgan qarindosh-urug'lari va ularning do'stlarini ingliz baronlariga qarshi qilib qo'ymoqchi bo'ldi. Bu esa ingliz baronlari o'rtasida qahr-g'azab uyg'otdi. Dastlabki paytda baronlar ritsarlar bilan kelishib harakat qildilar. Ammo baronlar hokimiyatni faqat o'zlari uchun bosib olishga intilayotganliklarini, ritsarlar masalasida noaniq va'dalar berish bilan cheklanayotganliklarini ritsarlar tezda payqadilar va ular norozilik bildirdilar.

Harakatga keyinchalik shaharliklar va bir qancha joylarda dehqonlar, qisman frigolderlar, qisman villanlar kelib qo'shildilar. Baronlar to'dasi bo'linib ketdi. Demokratik elementlarning faolligidan, xususan, boshlanib ketgan dehqonlar harakatidan qo'rqib ketgan baronlarning ko'pchiligi tezda qirol tomoniga o'tdi. 1264-yil bahorida Simon qirolning tarafdorlari bo'lgan baronlarni yakson qilib, Genrix III ni va uning katta o'g'li shahzoda Eduardni asir qilib oldi. 1265-yilning boshida u keng tarkibda parlament chaqirdi: parlamentga baron va yepiskoplardan tashqari, ritsarlarning va shaharlarning vakillari taklif qilindi. Shunday qilib, fransuz General shtatlariga o'xshash, Angliyada birinchi marta uch toifa vakillaridan iborat parlament chaqirildi.

Eduard I (1272–1307) 50-60-yillardagi «g'alayondan» katta saboq olgan xiyla g'ayratli qirol edi. Ayni zamonda 1258–1265-yillardagi baronlar urushi mahalida o'rta va quyi sinflarning harakatidan qo'rqib qolgan feodallar endi qirollik toj-taxti tevaragida mustahkamroq zichlashdilar. Eduard I o'z mavqeyini yanada kuchaytirish uchun bir qancha istilochilik urushlari qildi. Eduard I Uelsni istilo qildi (1282) va Shotlandiya bilan uzoq urush olib bordi. Shotlandiya bilan olib borilgan urush goh og'ir bo'ldi. Urushni davom qildirish uchun yetarlicha mablag'i bo'lmagan qirol juda mushkul bir ahvolga tushdi. 1295-yili qirolning o'zi umumtoifaviy parlament chaqirdi. Bu parlamentning tarkibi kelajakda ana shunday yig'ilishlar uchun namuna bo'lganligidan, uni keyinchalik «namunali parlament» deb atadilar.

Fransiya bilan boshlanib ketgan Yuz yillik urush hukumatdan katta mablag'lar talab qildi. Pulga muhtoj bo'lgan qirol har safar parlamentga murojaat etib, undan «subsidiya» yoki «ko'mak» so'rashga majbur bo'ldi. XIV asr ingliz parlamentining huquqi ham, asosan, rasmiylashdi. 1343-yildan e'tiboran parlament ikki palataga bo'lindi. Yuqori palata lordlar palatasi deb atalib, u ruhoniy lordlar, arxiyepiskoplar, eng yirik monastirlarning abbatlari va dunyoviy lordlar (baronlar)dan iborat bo'lardi. Umumpalatasi deb atalmish quyi palata grafliklarning vakillari bo'lgan ritsarlar va shaharliklardan iborat bo'lardi.

XIV–XV asrlarda Angliyadagi shahar idorasi tobora ko'proq yopiq sex-oligarxiya xarakteriga ega bo'ldi. XIV asrdan boshlab ritsarlar grafliklardagi hokimiyatni o'z qo'llariga kiritib olib, bu vaqtga kelganda endi bozor, savdo-sotiq bilan, ba'zan esa sanoat bilan ham yaqindan bog'langan qishloq xo'jayinlariga aylangan edilar. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab tuzilgan murosaga keltiruvchi sudyalardan yangi mansab ritsarlarning joylardagi siyosiy hokimiyatining ifodasi edi. Ritsarlar bu mansabni bepul bajarar edi.

**Uot Tayler qo'zg'oloni.** XIII asrning ikkinchi yarmida va xususan XIV asrda Angliya o'z iqtisodida yana ancha katta siljishlarni boshidan kechirdi. Flandriya bilan va quruqlikdagi boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan qizg'in savdo-sotiq munosabatlari ingliz qishlog'ini keng bozor aloqalariga tortdi. Angliya shaharlarning, avvalo Londonning o'zining o'sishi, Fransiya shaharlaridagi singari qishloq xo'jaligining boshqa mahsulotlariga – g'alla, go'sht, sut mahsulotlari, teri va hokazolarga bo'lgan talabni tobora oshirdi. Pul xo'jaligining rivojlanishi Angliyadagi krepostnoy yer-mulkining – manorning yemirilishiga sabab bo'ldi. Lordlar barshchinani pul obrogi bilan ayirboshlashni foydaliroq deb bilardi. Bunday paytda ular o'zlariga qarashli yerlarni (domenlarni) kam yerli dehqonlar orasidan chiqqan yollanma ishchilar mehnati bilan ishlaydigan bo'ldilar. Ba'zi bir lordlar hech qanday xo'jalik yurgizmay, yillik pul rentasi olishni afzal ko'rib, o'z domenlarini ijaraga berardilar. Kommutatsiya XIII asrdayoq katta yutuqlarga erishdi. XIV asrning birinchi yarmida bir qancha tumanlarda kommutatsiya barshchinani batamom siqib chiqardi. Kommutatsiya birinchi galda eng badavlat dehqonlar uchun foydali edi. XIII asr boshida o'rtahol dehqonlar kommutatsiyadan ko'pincha voz kechar edilar. Chunki ularning pul topishlari qiyin edi. Vaqt o'tishi, qishloqda pul miqdori ko'payishi bilan o'rtahol dehqonlar ham kommutatsiya o'z ahvollarini yaxshilanishini bilib, unga boshqacha nazar bilan qaraydigan bo'lishdi. Ammo lord belgi-

langan pul rentasining g'oyat yuqori ekanligidan dehqonlar norozi edilar. Ba'zi bir grafliklarda, chunonchi, Kent grafligida dehqonlar kam yerlikdan qattiq jafoga chekar edilar. Lordlar bekor yotgan yerlarni bosib olib va dehqonlarni foydalanib turgan yaylovlaridan siqib chiqarib, jamoa o'tloqlarini qisqartirmoqda edi. Bularning hammasi dehqonlar orasidagi norozilikning tobora kengroq o'sib borishiga sababchi bo'ldi.

1348-yilda Angliyada dahshatli vabo epidemiyasi (yuqumli kasallik) avj oldi, zamondoshlar uni «qora o'lat» deb atashdi. Shu yuqumli kasallik natijasida mamlakat aholisining qariyb to'rtdan uch qismi halok bo'ldi. Ishchi qullarning kamayishi shaharning ham, qishloqning ham ahvoriga yomon ta'sir ko'rsatdi. Ishchi qullar ancha qimmatlashdi. Yuz yillik urushdagi muvaffaqiyatsizlik munosabati bilan XIV asrning 60–70-yillaridagi Angliyaning ahvoli mushkullashdi. Yomenlarlar yurushlarda qatnashganligi tufayli ingliz feodallari Kresi va Puate yonida erishgan ajoyib g'alabalar tugab, endi ular birin-ketin mag'lubiyatga uchrash boshladilar. Fransiyadan o'ljalar kelishi o'rniga, urush endi yangidan yangi xarajatlarni talab qilardi.

1381-yilgi qo'zg'olon ba'zi bir ideologik tayyorgarlik ham edi. Qo'zg'olonidan avvalgi yillarda ingliz qishlog'ida va'xonlar paydo bo'lib, ular o'zlarini «faqir poplar» deb atardilar. Bular ingliz cherkovining mashhur reformatori Jon Viklefning shogirdlari edilar. Pop va Oksford universitetining professori Jon Viklef (1320–1384) XIV asrning 60–70-yillarida cherkovni reforma qilish kerak, degan talab bilan chiqdi. Cherkov papasiz yashay olmaydi va papa hokimiyati qirollik hokimiyatidan yuqori turishi lozim degan O'rta asr katolisizmi ta'limotini J. Viklef rad qildi. Viklefning chiqishi ideologik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Viklef XVI asrda Yevropada yuz bergan Yevropa reformatsiyasi muxlislaridan biri edi. Yuz yillik urush mahalida Angliya papalikka nisbatan g'oyat dushmanlik munosabatlarida bo'ldi, bu vaqtda fransuz qirollari ta'sirida bo'lgan Avinon papalari Angliyaga qarshi fransuz hukumatiga har qanaqa qilib bo'lsa ham yordam berardilar. Viklef reformasi London shahri aholisi orasida ham zo'r shuhrat qozondi. Cherkov diniy marosimlari soddalashtirilishi va arzonlashtirilishi kerak hamda cherkov biror-bir ajnabiy kuchga qaram bo'lmagan mustahkam milliy tashkilotga aylanishi lozim, degan Viklefning chaqiriqlari Londonda, shuningdek, boshqa joylarda, xususan, Angliyaning eng rivojlangan janubida va janubi-sharqida unda ergashgan bir guruh muxlislarni keltirib chiqardi. Ular Viklefning Angliyadagi muxlislari deb atalardi.

Tarixga Uot Tayler qo'zg'oloni nomi bilan kirgan qo'zg'olon 1381-yil may oyining oxirida janubiy-sharqiy Yesseks grafligida boshlandi. Dehqonlar bu yerda jon solig'i yig'uvchilarni haydab yubordilar va ulardan ba'zilarini o'ldirdilar. Shundan keyin villanlar manor egalariga qarshi ko'tarildilar. Qo'zg'olon Yesseksdan qo'shni grafliklarga – Kent, Sefolk, Norfolk va boshqa grafliklarga ko'chdi. Qisqa bir fursat ichida bu qo'zg'olon Angliya grafliklarining katta bir qismiga yoyildi. Dehqonlar dunyoviy va ruhoniy lordlarga qarashli manorlarni yakson qildilar, ulardagi g'alla, chorva mollari va boshqa mol-mulklarni bosib oldilar, manor arxivlarida saqlangan barshchinaga va obrok majburiyatlariga doir ro'yxatlarni yondirib tashladilar. Uot Tayler g'ayratli rahbar bo'lib chiqdi. U qirol dan dehqonlar talabini qondirishga erishmoq uchun qo'zg'olonchilarni qirollik poytaxti Londonga olib borishga qaror berdi. Londonga borishning o'zini u to'g'ri o'yladi va bu chora tez amalga oshirildi. London shahri na'murlari dehqonlarning London ko'prigidan o'tib, shahar darvozasi orqali Londonga kirishlariga monelik qilmadilar.

Uch kun mobaynida, ya'ni 1381-yilning 13,14 va 15-iyun kunlari qo'zg'olonchi dehqonlar Angliya poytaxtining xo'jayinlari bo'lib qoldilar. Qirollik ministrLARining ba'zilar – qirollik kansleri Simon Sedberi va lord-xazinachi Xeyls qatl qilindilar. Londondagi turmalarning hammasi ag'dar-to'ntar qilindi. Qo'zg'olonchilar London sudining asosiy arxivini bosib olib, uni o'tda yoqib yubordilar. Yirik binolardan qirolning amukisi, Lankasterskiy gersogining saroyi vayron qilib tashlandi.

O'rta asr davridagi barcha dehqonlar harakati singari 1381-yilgi qo'zg'olon ham muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. Bunga sabab, odatdagi uyushqoqsizlik, kuchlarning bo'linib ketganligi, programma-ning yetarli darajada aniq bo'lmaganligi va qo'pol taktik xatolarga yo'l quyilishi bo'ldi. Ingliz dehqonlari qirol bizning tarafamizni oladi, deb soddadillik bilan ishonardilar. Dehqonlar o'zlari eng yomon ko'rgan amaldorlarning adabini berib, hatto o'z hukumatlarini tuzishga intilib ham ko'rmadilar. Shahar plebey elementlarning o'zlari zaif bo'lganliklari tufayli, qo'zg'olonga boshchilik qilib, uni g'alabaga olib bora olmadilar. 1381-yilgi qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lishiga qaramay, u ingliz dehqonining bundan keyingi taqdiriga har holda katta ta'vir ko'rsatdi. Qo'zg'olon ancha katta va qudratli qo'zg'olon bo'ldi, bu qo'zg'olondan keyin esa pomeschiklarga barshchinani jiddiy suratda qaytadan tiklash haqida o'ylashga endi to'g'ri kelmadi. 1382-yilda va undan keyingi yillarda ayrim grafliklardagi dehqonlar feodallarga

qarshi qaytadan qo'zg'olon ko'tarishga urindilar. Lordlar yon berishga majbur bo'ldilar. Shu sababli, 1381-yildan keyin kommutatsiya jarayoni yanada kuchaydi. Qo'ychilik tobora kuchayib, unda barshchina keraksiz bo'lib qoldi. XV asrda qishloq xo'jaligi yanada ko'proq mustaqil xo'jalik yurgizuvchi erkin dehqonlardan iborat edi.

**«Qizil» va «oq» gullar urushi.** XV asr mobaynida Angliyada feodalizmning yemirilishi yanada zo'raydi. Mamlakatning umumiy xo'jaligida sanoatning ahamiyati kuchaydi. Angliyada movut sanoati, ayniqsa, katta yutuqlarga erishdi. Mamlakatda yuqori sifatli movut navi yetishtirilib, uning bir qismi chet ellarga ko'plab chiqariladigan bo'ldi. Jun yigirish va to'qish, shaharlardan tashqari, kustarchilik kasbi formasida qishloqlarga ham keng tarqaldi. XV asrda ingliz savdogarlari turli dengizlarda o'z savdo-sotiq ishlarini keng yoya boshladilar. Shu munosabat bilan ingliz kemasozligi zo'r berib rivojlana bordi. Dengizlarning narigi tomonlariga borib savdo qiluvchi yirik savdogarlarning bir qismi XV asrning 70-yillarida savdogar avanturistlarning birinchi dengiz savdo kompaniyasini tuzdi. Bu savdo kompaniyasi, avvalo, La-Mansh va Shimoliy dengizdagi movut savdosini o'z qo'liga monopoliya qilib oldi.

Eski feodal aristokratiyasi XV asr mobaynida hukmron sinf hisoblanar edi. Uning ko'pincha an'anaviy to'lovlar tarzida yerlardan olingan daromadlari o'smay, balki pulning asta-sekin qadri ketishi bilan ular amalda kamayib borganligidan, aristokratiya davlat mansablarini bosib olish yo'li bilan o'z zararlarining o'rnini qoplashga harakat qildi. Bu aristokratiya Fransiya bilan olib borilgan Yuz yillik urushdan ham katta umidvor edi. Aristokratiya Fransiya'dagi yangi yerlar va har qanaqangi harbiy o'ljalari olishga ishongan edi. 1399-yilda plantagenetlar o'rniga kelgan yangi lankasterlar dinastiyasi aristokratik siyosatning quroliga aylandi.

Lankasterlar siyosatidan, jumladan, soliqlarning o'sib borishidan, ular ma'muriyatining suiiste'mollaridan, Yuz yillik urushdagi muvaffaqiyatsizliklardan va Angliya savdosining izdan chiqishidan bo'lgan norozilik Angliyaning eng taraqqiy etgan dengiz sohili grafliklaridan biri bo'lgan Kent grafligida xalq harakatining ancha avj olishida ifodalanadi. Gersog York vassallaridan biri bo'lgan Jek Ked boshchiligida 1450-yilda Kentda qo'zg'olon bo'ldi. Kentning ko'pgina mayda dehqonlari, shuningdek, shaharliklarning bir qismi qo'zg'olonida ishtirok etdi. Ammo harakatga, asosan, ritsar elementlari rahbarlik qildi. Qo'zg'olonchilar (1550-yil 2-iyun) Londonga kelib, unda hukumat oldiga bir qancha talablar qo'yishdi. Bu talablar, asosan, qirolning talbu

maslahatchilarini tartibga solish, lordlarning joylarda o'zboshimchalik qilishiga, zulm o'tkazishga chek qo'yish talablaridan iborat edi.

Xalq ommasining lankasterlar dinastiyasiga bo'lgan nafratidan foydalangan gersog Yorkskiy tarafdorlari mumkin qadar tezroq hokimiyatni o'z qo'llariga olishga intildilar. Genrix VI betobligi sababli 1455-yilda Richard Yorkskiy qirollik regenti deb e'lon qilindi. Biroq lankasterlarning muxlislari (qoloq g'arb va janubi-g'arb ularning asosiy tayanch joylari edi) tez orada Richard Yorkskiy regentlik vazifasidan olib tashlashdi. Xuddi shu yili lankasterlarning Yorklarga qarshi boshlagan urushida dastlab lankasterlar tarafdorlarining qo'li baland keldi. Boy berilgan janglardan birida, 1460-yilda Richard Yorkskiy o'ldirildi. Ammo o'ldirilgan Richard Yorkskiyning o'g'li Eduard Yorklar to'dasiga boshchilik qildi, u lankasterlarni 1461-yilda ikki marta mag'lubiyatga uchratib, Londonni bosib oldi va o'zini Eduard IV nomi bilan qirol deb e'lon qildi. Genrix VI esa Tauyer zindoniga qamab qo'yildi.

York to'dasi esa hokimiyatni uzoq muddatga o'z qo'lida ushlab turdi. 1470–1471-yillarda lankasterlar o'z tomonlariga o'tgan yirik feodal Uorvik ko'magida hokimiyat tepasiga Genrix VI ni qaytadan tiklamoqchi bo'ldilar. Lekin buning uddasidan chiqqan olmadilar. XV asrning ikkinchi yarmida feodallar to's-to'poloni Angliyaning siyosiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. XIV–XV asrlarda Angliyada ingliz millatining tarkib topa boshlashi uchun shart-sharoit vujudga kelmoqda edi. Territoriyaning va ekonomikaning umumiyligi ana shu vaqtlarda endi yetarli aniq namoyon bo'ldi.

XIV–XV asrlarda Angliyada keng milliy bozor tashkil topib, London mamlakatdagi savdo-sotiq oborotlarining kattagina qismini o'ziga jalb qilgan edi. XIV–XV asrlarda ingliz adabiyoti jahonga nom chiqargan bir qancha ajoyib asarlar berdi. 1066-yilgi normandlar istilosidan boshlab, avvalgi paytda ingliz jamiyatining turli milliy tarkibini aks ettirgan ikki tildan foydalanib kelindi. Qirol saroyi zodagonlarining katta qismi fransuz tilida so'zlashardi. Aholining asosiy ommasi – dehqonlar va shaharliklar, o'rta va mayda feodallar ingliz tilida gaplashardilar. Ingliz tili yana bir qancha shevalarga bo'linib, ular orasida London shevasi yetakchi shevalardan edi. Aholi ko'pchiligining tili bo'lgan ingliz tili fransuz tilini xonadon hayotidan ham, jamiyat hayotidan ham asta-sekin siqib chiqardi. 1258-yildayoq qirol Genrix III Angliya aholisiga ingliz tilida bayonnoma bilan murojaat qilishi lozim bo'ldi. 1362-yilda Eduard III London shahrining petitsiyasiga javoban, «fransuz tili uncha ma'lum bo'lmaganligi» tufayli sudlardagi ishlar ingliz tilida olib bori-

lsin, deb qaror chiqardi. XIV asrning ikkinchi yarmida Angliyada eng yirik asarlar paydo bo'lib, ularda London shevasi asosida rivojlangan ingliz tili o'ziga xos barcha lug'aviy-grammatik xususiyatlari bilan milliy adabiy til sifatida maydonga chiqdi.

XV asrdagi ingliz madaniyatini rivojlantirishda Vilyam Kekston (1422–1491) katta rol o'ynadi. Kekston savdogar, tarjimon, matbaachi va noshir bo'lgan edi. Angliyada kitob chop qilish shu odam nomi bilan bog'langan (1477-yildan). Kekston 100 ta kitob bosib chiqargan, bu kitoblarning ko'pchiligi ingliz tilida edi. Shular orasida Choserning «Kenterberi hikoyalari», lotin klassiklari Sitseron, Ovidiy va Vergiliyning inglizcha tarjimalari, Ezop masallari va boshqalar bor edi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Angliyada feodalizmning yemirilishi nechanchi asrga to'g'ri keladi?
2. Lankasterlar dinastiyaga nechanchi yillar keldi?
3. Kentdagi Jek Ked boshchiligidagi qo'zg'olon qachon bo'ldi?
4. Ingliz millatining shakllanishi nechanchi asrlarga to'g'ri keladi?
5. XIV–XV asrlarda Londonda aholi qanday tillarda so'zlashardi?
6. «Dahshatli sud kitobi» nechanchi yilda yozib tugatildi?
7. 1110–1135-yillarda Vilgelm Istilochining o'rniga kim taxtga o'tirdi?
8. Buyuk erkinlik xartiyasi nechta moddadan iborat edi?
9. Buyuk erkinlik xartiyasiga qachon imzo chekildi?
10. Angliyada shaharlarning rivojlanishi qaysi asrga to'g'ri keladi?
11. «Namunali parlament»da kimlar qatnashardilar?
12. 1343-yilda parlament hayotida qanday voqea yuz berdi?
13. «Yeschitor» ma'nosini ayting.
14. Angliyada krepostnoy yer-mulkning susayishiga nima sabab bo'ldi?
15. 1348-yilda Angliya hayotida nimalar ro'y berdi?
16. Angliyada lollardlar deb kimlarni atashardi?
17. Uot Tayler qo'zg'oloni nechanchi yilda tilga olinib boshladi?
18. Uot Tayler qo'zg'olonining asosiy hududini belgilang.

## 19-MAVZU: XI-XV ASRLARDA FRANSIYA

### REJA:

1. XI–XII asrlarda Fransiyaning o‘ziga xos taraqqiyoti. Janubiy va Shimoliy Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyotida notekisligi.
2. XII–XIII asrlarda Fransiya qirolik hokimiyatining kuchaya borishi.
3. Fransiya Filipp IV davrida. Qirollikning papa hokimiyati bilan kurashi.
4. General shtatlarining chaqirilishi. Fransiya tabaqaviy monarxiyaning boshlanishi.
5. Yuz yillik urush va uning boshlanish sabablari, borishi. Jakeriya qo‘zg‘oloni.
6. Gugenotlar urushi.

**Tayanch so‘zlar, iboralar va tushunchalar:** Kopetinglar dinastiyasi, perlar, serv va villanlar, Ludovik IX ning sud islohotlari, tamprierlar, papalikning Avinon qamali, General shtatlar, Yuz yillik urush, «Buyuk mart ordinasii», Jaklar.

**Fransiya XI – XV asrlarda.** Verden sulhiga ko‘ra 843-yilda Franklar davlati uch qismga bo‘linib ketdi, ya‘ni G‘arbiy Fransiya, O‘rta Fransiya va Sharqiy Fransiya. Keyinchalik ulardan faqatgina g‘arbiy qismi o‘zining eski Fransiya nomini saqlab qoldi. Uning hududi Shelda daryosi sohillaridan to Rona daryosi sohillarigacha bo‘lgan. Bu yerda to 987-yilga qadar Buyuk Karlning avlodlari hukmronlik qildilar, keyinchalik ularning hokimiyati yirik yer egalari tomonidan zaiflashtirib yuborildi. Mana shu yirik yer egalari orasidan yangi fransuz dinastiyasi – Kopetinglar dinastiyasi kelib chiqdi.

Kopetinglar Fransiyaning 987-yildan to 1328-yilga qadar idora etdilar. Yangi sulola hokimiyatga kelgan dastlabki yillarda ancha zaif edi. Chunki Kopetani saylashga rozilik bergan fransuz feodallari o‘zlari uchun turli imtiyozlar talab etdi. Mahalliy feodallarning o‘zboshimchiligidan jabr ko‘rib kelayotgan qirolik domenidan tashqaridagi ruhoniylar ham quvvatladilar.

Ludovik VI ning vorisi Ludvik VII ancha keng siyosat yurgizdi. U ikkinchi salib yurishda ishtirok etdi. Uzoq mamlakatlarga qo‘shin tortib borishga jur‘at etish kopetinglarning kuchayganligidan dalolat berar edi.



Ammo xuddi mana shu joyda Ludvik XIIga Fransiyada qirol hokimiyatini yanada kengaytirishga to'siq bo'ladigan katta kuch paydo bo'ldiki, bu plantagenetlar vakilining Angliya taxtiga o'tirishi edi. Anju grafi bo'lgan Genrix II ning qo'lida Anjudan tashqari Men va Normandiya ham bor edi. Bundan tashqari, Genrix II Ludovik VII ning qo'yib yuborgan xotini Akvitanিয়া merosxo'ri Eleonoraga uylanadi. Shu tariqa Genrix II 1154-yilda Angliya qirol deb e'lon qilingach, Fransiya hududidagi Anju, Men, Normandiya va Akvitaniyalar Angliya qirolligi tarkibiga o'tadi. Genrix II kopetinglarning xavfli raqibiga aylandi.

XII asr ikkinchi yarmidan boshlab kopetinglarning Shimoliy Fransiya hududlari uchun plantagenetlarga qarshi kurashi kuchaydi. Bu kurash, ayniqsa, Fransuz qirol Filipp II Avgust (1180–1223) davrida o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi. Ingliz qirol Ioan Yersiz davrida Angliyada boshlangan qirol hokimiyating Rim papaligi bilan to'qnashishi va papaliklarning Fransiyani quvvatlashidan foydalanib Filipp II Avgust Normandiya, Men, Anju, Turen va Puatuning katta qismini bosib oldi va bu yerlarni fransuzlarning mulki deb e'lon qildi. Natijada Fransiya La-Mansh, va Atlantika okeaniga bemaol chiqadigan bo'ldi.

Filipp II davrida Fransiyada qirol hokimiyatining kuchayganligi karolinglar avlodi uchun taxtning meros tariqasida o'tishining tan olinishida o'z ifodasini topadi.

Filipp II davrida qirol domenida muhim ma'muriy islohot o'tkazildi. Qirollikka qarashli barcha mulklar ma'muriy okruglarga bo'linib, ularga maxsus qirol ko'rsatmasi bilan ish yurituvchi amaldorlar tayinlanadi.

Filipp II nabirasi Ludvik IX (1226–1270-y.) taxtga chiqqanda hali juda yosh edi. Shuning uchun taxtni uning onasi Blanka Kastilskaya (1226–1236-y.) vaqtincha boshqardi. Yangi qo'shib olingan Shimoliy Fransiya hududidagi feodal zodagonlar qirollikni yana parchalab yuborish maqsadida, qirolning yoshligidan foydalanmoqchi bo'ldilar. Ammo ularning bu urinishlari qirolning onasi tomonidan bostirildi.

Balog'at yoshiga yetgach Ludvik IX kopetinglarning qirollik hokimiyatini yanada kuchaytirdi va mustahkamladi.

Ludovik IX ning birinchi qilgan tashqi siyosatidagi ishi bu – Angliya bilan munosabatlarini tartibga solish bo'ldi, sababi, ikki qo'shni mamlakat o'rtasidagi munosabatlar abadiy yomon bo'lib turishi mumkin emasdi. 1259-yilda Fransiya va Angliya o'rtasida Parij tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra Angliya qirol Shimoliy va Shimoli-g'arbiy hududlardan voz kechib, faqatgina Giena (Akvitaniyada) va

Gaskon gersogliklarini o'z qo'lida saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu yerlarda ham oliy hokimiyat fransuz qiroliga tegishli bo'lib, yuqoridagi yerlarni ingliz qirolni vassallik shartlari asosida boshqarar edi.

Janubda esa Ludovik IX Langedok uchun Ispaniya bilan urush olib bordi va muvaffaqiyatli urush olib borib, bu yerga nisbatan Ispaniyaning da'volariga umuman chek qo'ydi.

Ludovik IX Fransiyada qirol hokimiyatini kuchaytirishga qaratilgan bir qancha muhim islohotlar o'tkazdiki, ular kelgusida markaziy hokimiyatning kuchayishida xizmat qildi.

Bu islohotlar ichida Ludovik IXning sud islohoti alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra quyidagi yangi tartiblar joriy etildi:

Feodal sudi hukmi ustidan qirol sudiga (qirollikka) arz qilish mumkin;

Odam o'ldirganlik, talonchilik, birovning mulkiga o't qo'yish, soxta pul ishlab chiqarish bilan bog'liq jinoyiy ishlar faqat qirol sudida ko'rib chiqiladi;

Feodallar o'rtasidagi o'zaro urushlar taqiqlandi. «Qirollikning qirq kuni» deb atalgan tartib joriy etildi. Unga ko'ra bir-biri bilan janjalla-shgan feodallarning zaif tomoni qirq kun ichida qirolga arz bilan borib qaysi sabablarga ko'ra nizo kelib chiqqanligini tushuntirib, nizoni adolatli yo'l bilan bartaraf etish masalasida yordam so'rashi mumkin edi. Bu vaqt ichida kuchli tomon urush ochishga haqli emas edi. Ko'pincha Ludovik IX turli xil nizolarni Venson o'rmonidagi dub daraxti soyasida arz qiluvchi tomonlarni shaxsan o'zi qabul qilib eshitar va bir qarorga kelardi. Qabul qilingan hukm aksariyat hollarda mayda feodallar, ritsarlar foydasiga bo'lardiki, bu bir tomondan yirik feodallarining qudratini sindirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kichik ritsarlar, shaharliklar va ruhoniylar oldida qirolning «adolatligi»ga ishonchni mustahkamlar, ular o'rtasida qirol tarafdorlarini ko'paytirar edi;

Ludovik IX davrida qirollik kengashi oldida sud ishlarini yurgizuvchi maxsus bo'lim (kuriya) tashkil etildiki, u «parlament» degan nom oldi.

Qirol hokimiyatining kuchayishida va mamlakatni markazlashtirishda Ludovik IX tomonidan o'tkazilgan pul reformasi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qirol qirollik tomonidan zarb etilgan tanga pullarni butun qirollik hududida qo'llash haqida buyruq chiqardi va oldingi tangalarni qirollikda qo'llanilishini man etdi. Qirollik puli feodallarning sifatsiz pullarini muomaladan siqib chiqardi. Natijada mamlakatda yagona pul birligi o'rnatildi. Bu, ayniqsa, shaharliklar uchun manfaatli edi.

Ma'muriy sohada Ludovik IXning otasi Filip II Avgustning islohotlarini mustahkamladi. U doimiy ishlaydigan qirollik tekshiruvchilar

vazifasini (amaldorligini) joriy etdi. Bu reviziorlar joylarga borib, qirol amaldorlarining faoliyatini tekshirar va yo'l qo'yilgan barcha kamchiliklar to'g'risida, ya'ni «tartibsizliklar haqida qirolga yoki uning kengashiga axborot» berib turardilar. Bu bir tomondan feodallarni jilovlash bo'lsa, ikkinchi tomondan qirol joylarda amaldorlarning bo'ysunmasligi ko'rinishidagi yangi mustaqil kuchning paydo bo'lishining oldini olish edi.

Ludovik IXning salib yurishlarda qatnashishi masalasiga kelsak, u bu yurishlarga Sharqdagi haqiqiy ahvolni yaxshi tasavvur etmagan holda qatnashdi. Sakkizinchi salib yurishi davrida (1270-y.) u yuqumli kasallikka chalilib o'ldi.

Filipp IV Chiroyli davridagi (1285–1314) Fransiyaning tashqi siyosatidagi eng katta yutug'i shu bo'ldiki, bir qancha yangi hududlar qatorida o'zining yarmarkalari bilan dong chiqargan Shampan grafligi qirollikka qo'shib olindi.

Filipp IVnig Fransiyaning shimolidagi oxirgi mustaqil knyazlik – Flandriyani bosib olishga qilgan harakati ro'yobga chiqmadi.

Ayniqsa, fransuz armiyasiga Kurtre yonida (1302-y.) juda qaqshatqich zarba berildi. Natijada Flandriya fransuzlardan to'liq tozalandi.

Filipp IV olib borgan urushlar, monarxiya davlat apparatining kengayishi juda katta mablag' talab qilardi. Doimiy soliq bo'lmaganligi uchun qirollikning kam daromadi xarajatlarni qoplay olmay qoldi. Mablag'larning shu tariqa yetishmasligi Filipp IV butun siyosatiga moliyaviy (xazinaga oid) tus berdi. Uning siyosati birinchi navbatda aholining turli xil qatlamlari cho'ntagidan har xil yo'llar bilan pulni sug'urib olish edi. Bu esa quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirildi.

Boy shaharliklarni qirol o'ziga qarz berishga majbur qildi va bu qarzlarni qaytarib bermadi;

U butun qirollik hududida urush xarajatlarini qoplashga deb soliq undira boshladi, keyinchalik bu soliqlarni doimiy undiradigan bo'ldi.

Birinchi marotaba Fransiya davlat xarajatlari qirolning Shveysiy mablag'i emas, balki aholining mablag'i hisobiga qoplanish tartibi e'lon qilindi va hayotga tadbiiq etildi. Birinchi marotaba Fransiya tarixida moliya ishlarida alohida mahkama (idora) tashkil qilinib, uning maxsus markaziy organ – hisob-kitob palatasi boshqaradigan bo'ldi. shuningdek, qirollik tomonidan maxsus soliq yig'uvchilar amalda joriy etilib, uning xodimlari turli joylarda soliq yig'ish uchun yuborildilar.

Qirol tanga-pullarni ularning tarkibidagi nodir metallarni kamaytirish yo'li bilan soxtalashtirishga o'tdi.

**Filipp IV cherkov egalariga soliq soldi.** Filipp IVning moliya sohasida olib borgan siyosati uning papa Banifasiy VIII bilan to'qnashuviga olib keldi. Papa qirolga roziliksiz ruhoniylarga soliq solishni man etdi. Filipp IV esa, o'zini qirolligi hududida to'liq qirol deb bilib, papaning Fransiyaning ichki ishlariga aralashishini rad etdi. Janjal papa tomonidan fransuzlar qirolini cherkovdan chetlashtirish to'g'risida qaror chiqarishigacha borib yetdi.

Ammo papalarning qirollarni qo'rqitadigan (qo'rquvda ushlab turadigan) vaqtlari o'tib ketgandi. Papaning Fransiyaga qirolini cherkovdan chetlattirganligi to'g'risidagi yorliqni olib kelgan vakillari qirol buyrug'i bilan qamoqqa tashlandi. Qirollik kengashi papani yyeretiklikda aybladi. Italiyaga papani taxtdan tushirishga erishish vazifasi bilan qirol vakillari yuborildi. Ularga papalikdan norozi bo'lgan italiyalik feodallar ham qo'shildilar. Ular birgalikda papa qarorgohiga kirishib, uni qo'rqitdilar va haqorat qildilar. Keksa, ammo juda mag'rur Banifasiy VIII bu haqoratlarni ko'tara olmay tezda vafot etdi.

Papaning o'limidan keyin Filipp IVning tazyiqi ostida fransuz Klement V papalikka saylandi. U papalik poytaxtini Rimdan Avinon shahriga ko'chirdi.

Avinonda papalar qariyb 70 yil davomida istiqomat (1309–1378) qilishdi. Bu o'rta asrlar tarixida «Rim papalarining Avinon qamali» deb ham yuritildi. Shunday qilib, papalar to'liq qirollik hukmronligi ostiga tushib qolishdi. Shu davrda Filipp IV papalikning yordami bilan tampliyerlar ordeniga qarshi muvaffaqiyatli sud jarayoni boshladi.

Tampliyerlar – diniy ritsarlik ordeni bo'lib, XII asrda Falastinda tashkil topgandi. XIII asr oxirlarida Falastindan quvilgan tampliyerlar butun Yevropaga yoyildi. Bu orden juda boy hisoblanib, butun dunyo bankiga aylangan va katta foizlar (foyda) hisobiga qarz beradigan orden edi. Ayniqsa, ular Fransiyada katta boylikka ega edilar. Filipp IV bu ordendan juda katta qarz olgan. Va pulga doim muhtojlik sezganligi uchun qaytarib bera olmayotgan edi. Qirol bu ordenni talash uchun qulay vaziyat kutib yurgan edi. 1307-yilning kuzida Fransiyada yashayotgan barcha tampliyerlar qamoqqa olindi va ularning mol-mulklari mudodara qilindi. So'ngra qiroling yaqinlari papa roziligi bilan tampliyerlarni jodugarlikda va yeretiklikda aybladilar. Ish juda ko'p ritsarlarning o'rtida yondirilishi va ordenning yo'q qilinishi bilan tugadi.

**General shtatlar.** Fransiyada umumtabaqaviy organ – General shtatlarning paydo bo'lishiga Rim papasi bilan Filipp IV o'rtasidagi nizo sabab bo'ldi.

1302-yilda qirolning papa bilan bo'lgan mojarosida og'ir vaziyat yuzaga keldi. Natijada qirol ruhoniylar, dvoryanlar va shaharning boy vakillarini yig'inga chaqirishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu yig'in «General shtatlar» nomini oldi. Bu fransuz xalqi uch tabaqasining siyosiy majlisi (kengashi) edi.

General shtatlarni umumxalq kengashi deyish juda munozaralidir. Sababi, unda aholining ko'pchiligini tashkil etadigan dehqonlarning vakillari yo'q edi.

Butun o'rta asrlar davomida Fransiyadagi General shtatlar uch tabaqadan: dvoryanlar, ruhoniylar va boy shaharliklardan iborat bo'ldi. General shtatlarda masalani har bir tabaqa alohida-alohida qarab chiqar (muhokama qilar) edi va bir tabaqaning qabul qilgan qarori ikkinchisi uchun majburiy emasdi. Boy shaharliklarning dvoryanlar va ruhoniylar bilan kurashi General shtatlar zaiflashuvining asosiy sababi bo'ldi. General shtatlar, asosan, soliqlar joriy etardi. Sababi, doimiy soliqlar bo'lmaganligi uchun hukumat soliqlar yig'ishga zaruriyat bo'lgan holda tabaqaviy kengashni chaqirib, uning roziligini olardi. Tabaqalar kengashi aksariyat hollarda, soliqlar undirishga rozilik bergan holda buning evaziga hukumatdan ma'muriy, sud va hatto qonunchilik sohaslarida turli xil tadbirlar o'tkazishni talab qilar va shu yo'l bilan davlatni boshqarishning butun yo'nalishiga ta'sir ko'rsatardi.

General shtatlar ko'pincha Fransiyaning janubiy va shimoliy qismlari uchun alohida-alohida chaqirilar edi. (shimol va janub chegarasi sifatida Laura daryosi qabul qilingan edi – P.S.)

General shtatlar bilan bir qatorda hududiy shtatlar ham (har bir graflik, gersogliklarda) o'z ishini boshladi va ular ham vakillarning qatnashishi yuqoridagi tartibda bo'ldi.

Fransiyadagi vakillar tabaqasi kengashi bo'lgan General shtatlarining Angliya parlamentidan farqi shundaki, parlament qirol hokimiyatiga muxolif kuch sifatida paydo bo'lgandi. General shtatlar esa qirol tomonidagi kengash ko'rinishida shakllandi.

Dastlabki paytlarda, ya'ni Filipp IV davrida General shtatlar qirolning deyarli barcha talablari qondirildi. Masalan:

1302-yilda papa bilan mojarolarda General shtatlar qirolni quvvatladilar;

1308-yilda tampliyerlarga munosabat masalasida qirol vakillar kengashidan o'z harakatlarining to'liq quvvalanishiga erishdi;

Umrining oxirida Filipp IV Flandriyaga qarshi urushga moliyaviy yordam talab qildi. General shtatlar quvvatladi va h.k.

Fransiyadagi General shtatlar tarixini o'rganish bu umumtabaqaviy kengashning 1302-yildan keyingi yig'ilishlarida ko'proq soliq va moliya masalalari bilan shug'ullanganliklarini ko'rsatdi. Masalan, 1308, 1311, 1314-yillarda qirol qizi Izabellaning nikoh to'yiga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun ayrim gersoglik va grafliklardan ed deb atalgan soliq yig'ishga ruxsat berish yuzasidan (bu yerda bu soliqlarni Kersi, Sentonj, Normandiya hududlaridan yig'ish ko'zda tutiladi – P.S.) muzokaralar olib boradi.

Yangi soliqlarni tasdiqlash vazifasi XIV asrning birinchi yarmida Filipp IVning vorislari davrida General shtatlarning bundan keyingi faoliyati uchun katta ahamiyatga ega edi.

General shtatlarning paydo bo'lishi bilan Fransiyaning davlat taraqqiyoti ancha olg'a siljidi, chunki qirolni eng nufuzli tabaqalar bilan bog'lovchi yangi muhim organ paydo bo'ldi. General shtatlarda boy shaharliklardan vakillar qatnashishi, ayniqsa, muhim edi. Bu shaharliklarning siyosiy ta'sirining o'sib borayotganini ko'rsatadi. General shtatlar butun mamlakat miqyosida qirol hokimiyatining shaharlar bilan tuzgan ittifoqining yangi ko'rinishi hisoblanardi. Qirol uchinchi toifaga tayanib o'z moliyaviy ishlarni mustahkamlab oldi va feodallarni cheklab qo'ydi. General shtatlar paydol bo'lishi bilan tarqoq feodal monarxiya o'z o'rnini markazlashgan toifaviy monarxiyaga bo'shatib berdi, bu monarxiyani boshqarishda mamlakatdagi uchta rasmiy toifa vakillari ham ishtirok qildilar.

**Yuz yillik urushning boshlanishi.** 1314-yilda Fillip IV Chiroyli o'limidan so'ng, kopetinglar sulolasi inqirozga yuz tutadi. Uning uchta o'g'li bor edi. Ammo 14 yil ichida uning o'g'illari merosxo'r qoldirishmay o'lib ketishdi. 300 yildan ortiqroq hukmronlik qilgan kopetinglar sulolasi 1328-yilga kelib tugadi. Taxtga ikki kishi da'vogar bo'lib chiqdi. Birinchisi Angliya qirolu Eduard III bo'lib, u Filipp IV Chiroylining nabirasi edi. (Onasi Izabella Fransiya malikasi, so'nggi kopetinglarning singlisi edi.) Ikkinchisi Filipp IV Chiroylining jiyani, fransuz grafi Filipp Valua edi, ya'ni Eduard kopetinglarga ona tomonidan, Valua esa ota tomonidan qarindosh edi. Bu kurashda Valua g'olib chiqdi. U 1328-yilda qirol qilib ko'tarildi va Filipp VI e'lon qilindi (sabab, Filipp IV Chiroylining o'g'illaridan biri Filipp V Uzun degan nom olgan edi. –P.S.).

So'zsiz, bu Angliya qirolu Eduardda fransuz qiroliga nisbatan adovat paydo qildi. Keyinchalik bu adovat Angliya va Fransiya o'rtasida urush kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Urushning bosh sababi esa Shimoliy Fransiyadagi boy Flandriya uchun talash edi.

Urush inglizlar tashabbusi bilan boshlandi, 1337- yilda Eduard fransuz qiroliga bo'lgan huquqlarini ko'tarib chiqdi va shu bahonada urush boshlandi. Bu urush juda uzoq va qonli edi. Uning qachon tugashini urushning dastlabki qatnashchilari ham, ularning bolalari ham, va hatto nabiralari ham bilmasdilar. Tarixga bu urush «Yuz yillik urush» nomi bilan kiritilgan. Lekin u aslida tanaffuslar bilan 115 yil davom etgan. Ya'ni 1337-yildan 1453-yilgacha.

Asosan Angliyada xomashyo olib turgan Flandriya shahar sanoatchilari inglizlar tomonini oladi. Flandriya grafi va yirik feodallarning katta qismi fransuz qirolidan madad kutar edilar. Urush harakatlari maydoni Shimoliy Fransiya bo'ldi.

Inglizlar urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan edilar. Ular urushning boshida ketma-ket g'alabalarni qo'lga kiritdilar. Birinchi g'alaba Ekllyuza bo'yida fransuz flotining tor-mor etilishi bo'ldi (1340-yilda). Bu g'alaba inglizlarga La-Manshda hukmronlikni o'rnatish imkonini berdi.

1346-yilda Kresidagi va 1356-yilda Puate yonidagi g'alabadan so'ng inglizlar butun g'arbiy Fransiya hududini egalladilar.

Harbiy harakatlardagi muvaffaqiyatsizliklar dastlabki valualar obro'sini tushurib yubordi, xalqning ularning siyosatidan noroziligi kuchaydi. Qirol siyosatiga qarshi chiqishlar boshlandi. Kresi qo'ldan ketgandan so'ng General shtatlarning 3-tabaqasi bo'lgan shaharliklar Filipp IV ga uning siyosati va maslahatchilaridan norozi ekanliklarini aytdilar. Ular qirol tomonidan «Buyuk Mart Ordonansi»ni (1357-yil) chiqarishga erishdilar. Bu hujjat Angliyadagi «Buyuuk erkinliklar xartiyasi»ga chaqirilgan qarorlardan iborat edi.

Shu bilan birgalikda valualar hokimiyatiga qarshi dvoryanlarning ham o'ziga xos muxolifati vujudga keldi. Ular harbiy va boshqa ehtiyojlari uchun og'ir soliqlardan norozi bo'lib, feodallarning avvalgi erkinliklar va imtiyozlarining tez-tez bo'lishiga qarshi chiqqanlar.

**Jakeriya qo'zg'oloni.** 1358-yil may oyining oxirlarida Fransiyaning Boveze okrugida jakeriya qo'zg'oloni deb nom olgan qo'zg'olon boshlandi. Bu qo'zg'olon ikki hafta davom etdi. Bu harkatning kelib chiqish sabablari va vazifalarini bilish uchun jakeriya qo'zg'olonigachun bo'lgan davridagi dehqonlarning ahvolini bilish kerak. Dehqonlar ahvolidida esa keyingi bir asr mobaynida quyidagi o'zgarishdar yuz bergan edi.

XIII asrda Fransiya qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'payishi bilan parallel ravishda dehqonlarni krepostnoylikdan ozod qilish harakatlari tezlik bilan olib borildi. Ayrim dehqonlar pul berish evaziga o'z-o'zini sotib olib erkinlikka chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bun-

ing natijasida fransuz krepostnoy dehqonlarining (servlarning) ozod villanlarga o'tish jarayoni yuz berdi. Juda ko'p dehqonlar o'z xo'jaliklarini erkin yurita boshladilar. Krepostnoychilik ayrim hududlarda mutlaqo tugatilgan edi.

Yuz yillik urush munosabati bilan fransuz dehqonlarining ahvoli keskin ravishda og'irlashdi. Inglizlar armiyasi Fransiya hududida o'zining uyidagidek harakat qilar edi. Ayniqsa, urush harakatlarining dehqonlar yelkasiga tushishi va armiyaning oziq-ovqatlar bilan asosan ular tomonidan ta'minlanishi dehqonlar ommasining iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashdi.

Ayniqsa, urushlar o'rtasidagi tanaffuslar vaqtida fransuz dehqonlarining ahvoli yanada og'irlashadi. Chunki ham fransuzlarga, ham inglizlar armiyasiga yollangan askarlar tinchlik shartnomasi tuzilgan vaqtda ishsiz qolar va bu davrda ular aholini talash bilan kun kechirar edi.

Dehqonlarning dvoryanlarga nisbatan g'azabi kundan kun kuchayib borar edi.

Xuddi mana shunday sharoitda dehqonlar harakati boshlandi. Qo'zg'olonga harbiy ishlarni biladigan Gilom Kal boshchilik qildi. Qo'zg'olonning «Jakeriya» deb atalishiga sabab, o'sha vaqtda fransuz dehqonlari mazxaraomuz «jak», ya'ni «nodon», «sodda» deb atardilar. Gilom Kal dehqonlarning yaxshi qurollanmaganligini va qirol qo'shinlariga bardosh berolmasliklarni yaxshi anglar edi.

Qo'zg'olonning borishidan qo'rqib qolgan pikard va normand dvoryanlari Karl Navarskiyga quyidagicha murojaat qiladi: «Hukmdor, siz dunyodagi birinchi dvoryansiz va dvoryanlikning tugashiga chiday olmaysiz. Agar o'zlarini jaklar deb atagan bu odamlar yana uzoq kurashsa, muruvvatli shaharliklar esa ularga yordam ko'rsataversa dvoryanlik ular tomonidan batamom yo'q qilinadi». Shundan so'ng Karl dehqonlar qo'zg'olonini bostirishga juda katta kuch tashladi. Melaga degan joy yaqinida dvoryanlar armiyasi jaklarning asosiy kuchini yanchib tashlaydilar. Jakeriya qo'zg'oloni muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi.

**Karl V islohotlari.** Qirol Ioan inglizlar qo'lida asirlikda o'lganidan so'ng uning merosxo'ri Karl 1364–1380-yillarda Karl V nomi bilan taxtga hukmronlik qildi. Uning davrida qirollik hokimiyatini kuchaytirishga qaratilgan bir qancha muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar quyidagi sohalarda bo'ldi:

Soliqlar tartibiga solindi. Sud ishlari tekshirib chiqildi. Muhim harbiy islohotlar o'tkazilib, bunda tartibsiz ritsarlar o'rnini yollanma askarlardan iborat qo'shin egalladi. Harbiy islohotlar tufayli qirol ikki



maqsadga erishdi. Birinchidan, yaxshi tuzilgan va tartibli armiyaga ega bo'ldi. Ikkinchidan, feodallarni harbiy kuchlar va siyosiy ahamiyatlaridan mahrum qildi.

Angliya bilan sulhni Karl V vaqtinchalik bitishuv deb qarar edi, u bundan ichki islohotlar o'tkazish va armiyasini yangidan tashkil qilish uchun foydalandi. Qirol o'zining yangi harbiy to'qnashuvlarda g'olib chiqishiga ishongach, u inglizlarga qarshi shiddatli harakat boshladi va tezda fransuz armiyasi butun janubi-g'arbiy hududlarni egalladi. Karl V qo'shiniga tanli harbiy sarkarda britanlik Dyu Geklen boshchilik qilgan.

**Karl V vafotidan so'ng Fransiyada taxt uchun kurash.** 1380-yilda Karl V o'limidan so'ng Fransiyada yangi ichki g'alayonlar boshlandi. Qirol o'limidan so'ng uning 12 yoshli merosxo'ri Karl VI asosan, o'z manfaatlarini ko'zlab ish tutgan tog'alari ko'rsatmasi bilan ish olib bordi. Yosh qirol balog'atga yetgach, vasiylardan qutilishga va otasining eski maslahatchilariga tayanib ish olib borishga harakat qildi, lekin u juda tezda aqldan ozdi va boshqaruv yana udel knyazlari qo'lga o'tib ketdi. Hokimiyat uchun kurashning yangi davri boshlandi.

Hokimiyat uchun asosiy kurash Burgundiya gersogi (gersog Burgundskiy) va Orleanskiy o'rtasida boradi. Butun Fransiya ritsarlari xalqni bir xilda talovchi va xonavayron qiluvchi ikkita bir-biriga dushman guruhlariga bo'linib ketdi. 1411-yildan boshlab Burgundiya gersogi partiyasi bilan Orlandskiy o'rtasida uning qaynotasi graf Armanyak boshchilida kurash boradi. Shu davrdan boshlab Orlandskiy partiyasi «Armanyaklar to'dasi» nomini oladi.

Bu kurash butun hukumat apparatini izdan chiqardi. Dvoryanlar va amaldorlar faqatgina o'z manfaatlarini ko'zlab tartibsiz ish yuritar edilar.

Shunday sharoitda Parijning keng xalq ommasi o'rtasida g'alayon boshlandi. Qo'zg'olonchilarga qassoblar boshchilik qilardi («Jivodyorlar» – «teri shiluvchilar» qo'zg'oloni). Burgundiya gersogi qassoblar qo'zg'olonidan foydalanib 1411-yili Orlandskiy tarafdorlarini Parijdan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. 1413-yilda boshlangan Kabosh boshchiligidagi qo'zg'olon davrida armanyaklar Parijga qaytib kelishga muvaffaq bo'ldilar va endi gersog Burgundskiy Angliyaga qochishga majbur bo'ldi.

**Fransiya va Angliya o'rtasida urush harakatlarining qaytadan boshlanishi.** Angliya Fransiya qarshi yangidan urush harakatlarini boshlash taraddudida yurardi. Fransiyada boshlangan taxt kurashi va gersog Burgundskiyning inglizlardan madad so'rashi ularga juda qo'l keldi. Ular juda katta kuch bilan Normandiyaga kirib keldilar va Azen-

kur yaqinidagi jangda (1415- y.) armanyaklar armiyasi ustidan g'alaba qozondilar. Keyinchalik ular burgundiyaliklarga tayanib butun Shimoliy Fransiya egalladilar va Tentak Karl VI vafotidan so'ng taxtga Angliya qiroli Genrix VI chiqardilar (1422-y). Genrix IV bu paytda 10 oylik go'dak edi. Armanyakliklarning milliy fransuz guruhi Dofin Karl ni qiroldan deb e'lon qilib, unga Karl VII deb nom berdilar. Karl VIIning poytaxti bir necha yilgacha Laura daryosining narigi tomonidan Burj shahri bo'ldi. Uning dushmanlari Karl VII ni «Burj qiroli» deb masxara qilardilar. 1428-yilda Orlean shahrining ham fransuzlar qo'ldan ketishi xavfi tug'ildi. Fransiyaning taqdiri halokat chegarasiga yaqinlashdi. Orleaning qo'ldan ketishi inglizlarga mamlakatning janubiga tomon erkin siljish imkoniyatini berar edi.

Xuddi mana shunday Fransiya uchun hayot-mamot davrida tarix sahnasiga Janna d'Ark chiqadi.

**Janna d'Arkning hayot yo'li.** Tug'ilgan yili 1410 yoki 1412, chunki undan 1429-yilda yoshini so'raganlarga «17 yoki 19» deb javob bergan. Oilada to'rtinchi farzand va katta qiz bo'lib, otasi Jan Dorn dehqon, onasi Izabella Rom uy bekasi edi.

Jannaning familiyasini har xil yozganlar va o'qiganlar. Masalan: Darn, Tarn, Dar yoki Dey. Uning familiyasi hozirgi ko'rinishini XVI asrning oxirida oladi. Buni bir Orlean shoiri Jannani dvoryanlarga xos familiyaga ega bo'lishi uchun bergan. Janna savodsiz edi. Uning savodxonligi onasidan o'rgangan uchta duo edi, xolos. U bolaligida boshqa qishloq qizlaridan deyarli farq qilmagan. Yozishlaricha, bayram kunlari qishloq bolalari yuz yoshli daraxt tagida yig'ilishar va bu daraxtni ular «Farishtalar daraxti» deb atashar edi. Yerli aholi bu yerda farishtalar o'yini bo'ladi va ruhoniylar muqaddas suv sepgandagina ular yo'qoladilar, der edilar. Bu faktga alohida e'tibor berayotganimizga sabab, yillar o'tib Janna inkvizitsiya sudiga berilganda uni jodugarlikda aybladilar va asosiy dalil qilib «Farishtalar daraxti» ostidagi o'yinlarini oladilar. Jannaning yoshligi urush yillarining dahshati bilan o'tdi. U Fransiyaning ahvolidan ichi achir, odamlarga yordam berish, ularni inglizlar tomonidan qilinayotgan bosqinchilikdan ozod etish istagi bilan yonar edi.

Janna o'zini xudo Fransiya yuborgan haloskordek his qilardi. Janna o'zini Fransiyaning halaskori deb e'lon qilganda dastlab odamlar unga ishonmay, ustidan kulishdi. Hatto otasi ham qizimga biror narsa bo'lgan bo'lsa kerak, deb unga uydan tashqariga chiqishini taqiqdab qo'yadi. 1429-yilning yanvar oyida Janna va amakisi Dyuran Laksar uydan qochib chiqib, inglizlarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rayot-

gan fransuz armiyasiga kelib qo‘shiladilar. Bu yerda Janna uni taxt vorisi Karl huzuriga kuzatib qo‘yishlarini so‘raydi va g‘oyibdan bir ovoz kelib «faqatgina u Fransiyaning ozod qilib, qirolga toj kiydira olishini aytadi». Oldin unga ishonmaydilar va qaytib ketishini maslahat beradilar. Nihoyat, qizning qat‘iyligini ko‘rgan taxt vorisi Karl unga fransuz armiyasining taqdirini topshiradi. Xo‘sh, Janna d’Arkning fransuz xalqi va tarixi oldidagi xizmati nimadan iborat?

Janna d’Ark fransuz xalqiga vatanparvarlik namunasini ko‘rsatadi: xalqning ruhini namoyon etdi.

Janna d’Ark fransuz armiyasini orqasidan ergashib bora oldi. Tabiat uni lashkarboshilik talanti bilan taqdirlaganligini namoyish etdi; u armiyaning tushib ketgan kayfiyatini, ruhiyatini ko‘tardi.

Reyms shahrida qirolga toj kiydirish bilan Karlning fransuz qiroli ekanligini rasmiylashtirdi. Bu xizmati evaziga Karl tomonidan Jannaning oilasi keyinchalik dvoryanlik unvoni bilan taqdirlandi.

1429-yil 29-aprel kuni Orlean shahriga kirib kelish bilan Fransiya hududidan inglizlarni haydab chiqarishni boshlab berdi.

**Angliyaning Fransiya ustidan hukmronlik rejasi amalga oshmay qoldi.** Afsuski, Jannaning kundan kunga oshib borayotgan shuhrati qirol yaqinlariga va harbiy boshliqlarga tinchlik bermay qo‘ydi. Ular bir chora topib undan qutulish yo‘llarini izlaydilar. Hatto qirolning o‘zini ham Jannaning shuhrati o‘ylantirib qo‘ygan edi. Shuning uchun ham Janna d’Ark navbatdagi janglardan birida yaralanib, burgundiyaliklar tomonidan asir olinganda qirol unga yordam berishga shoshilmadi. Burgundiyaliklar Jannani inglizlarga sotib yubordilar, inglizlar esa Jannani – yangi fransuz xalqining qahramonini fransuz yerida, fransuz cherkovida va fransuzlar qo‘li bilan sud qilishni amalga oshiradilar. Uni Bove yepiskopligi hududidagi qamoqxonada saqlaydilar. 1431-yil 30-mayda Jannani jodugarlikda ayblab o‘tda yondiradilar. Aytishlaricha, Jannaning suyaklari olinayotganda uning yuragini ko‘rsihadi. Yurakka olov tegmagan emish. Inglizlar Jannani inkvizitsiya yordamida o‘ldirishdi, lekin ular Jannaning g‘alabalarini, g‘oyasini yo‘q qila olmadilar. Fransiya kurashni davom ettirdi. Inglizlar Fransiyadan mag‘lub bo‘lib chiqib ketdilar. 1453-yil 17-iyulda inglizlarga so‘nggi zarba berildi. Shu yerda bir savol tug‘iladi: nima uchun Janna d’Ark cherkov sudiga berildi? U ingliz qiroli sudi hukmi bilan ham o‘ldirilishi mumkin edi-ku?

Bunday qilinmaganligining sababi, inkvizitsiya sudi orqali qatl qilingan vaqtdagina Janna d’Arkning butun g‘alabalari va Karl VI tomonidan Janna d’Arkning sud jarayonini qayta ko‘rib chiqib, uni oqlash

ishlari boshlab yuborildi. Bu jarayonning Karl IV tomonidan boshlab yuborilganligiga sabab unga «sening toj kiyishing qonunsizdir, sababi sen uni jodugarlarni qo'lidan kiygansan» degan ayblarning qo'yilishi edi. Shunday qilib, Janna d'Ark o'limidan qariyb chorak asr o'tgandan so'ng oqlandi. Uni xalqaro tribunal oqladi. Lekin xalq bu tantanali daqiqalarni 25 yil kutgan emas. Uning uchun Janna hech qachon o'lmaydigan qahramon bo'lib qolgandi. Xalq buyuk ishlar qilgan kishilardan faqat yodda umrbod saqlashga loyiq kishilarnigina esda tutadi. Xuddi shunday insonlardan biri dombrenilik dehqon qizi Janna edi. Hozir Janna d'Arkni yer sharining hamma burchagida bilishadi. Jannani nafaqat fransuz xalqi, balki butun insoniyat sevadi.

**Yuz yillik urushning natijalari.** Yuz yillik urush 1453-yilda Angliya va Fransiya o'rtasida sulh tuzilishi bilan yakunlandi. Inglizlar qo'lida faqat Kale porti qoldi, xolos.

Urushda Fransiya katta talafot ko'rdi: aholining qariyb 1/3 qismi qirilib ketdi, juda ko'p yerlar xarobaga aylandi. Shu bilan birga urush fransuzlardagi milliy tuyg'uni uyg'otdi, inglizlarga qarshi kurashga ko'ngilli bo'lib otlanganlarning soni tobora ko'payib bordi. Mamlakatda vatanparvarlik to'liqini kuchaydi. Gersog Burgundskiy inglizlardan butunlay yuz o'girdi va Fransiya qiroli bilan kelishuv sulhini tuzdi.

Urush davrida urush xarajatlari bilan bog'liq soliqlarning yangi turlari paydo bo'ldi. Bularning ichida Karl VII davrida joriy etilgan talya deb atalgan soliq juda ahamiyatlidir. Sababi, bu soliq keyinchalik fransuz qirolligida, dehqonlar va shaharliklarning daromadlaridan olinadigan doimiy soliqqa va qirollik xazinasini boyitadigan asosiy manbalardan biriga aylandi.

Inglizlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash, mamlakat janubi-g'arbiy qismlarining ozod qilinishi qirollik hokimiyatining obro'sini ko'tardi va uning mustahkamlanishiga yordam berdi. Kuchaygan qirol hokimiyati General shtatlarni chaqirmay, ya'ni u bilan hisoblashmay qo'ydi.

Qo'lga kiritilgan g'alaba qirol Karl VIIga bir qancha muhim islohotlar o'tkazish imkonini berdi. Bu, ayniqsa, moliya va harbiy sohada sezilarli bo'ldi. Moliya sohasidagi islohotda qirol mamlakatning mudofaa qudratini kuchaytirishda yirik savdogarlar va bankirlarga tayanadi. Ularning vakillarini qirol xizmatiga jalb qiladi. Masalan: Angliya bilan urushda unga katta mablag' berib turgan, Sharq bilan savdo qilishda boyib ketgan Fak Kyor qirolning xazina boshlig'i qilib tayinlandi. Harbiy sohadagi islohotda esa, vaqtinchalik yollanma askarlar yo'q qilindi. Doimiy otliq va piyoda qo'shin tuzildi.

Karl VII ning merosxo'ri Ludovik XII davrida (1461–1483) qirollik hokimiyati nihoyatda kuchaydi. Ammo unga nisbatan muxolifat ham kuchli edi. Unga qarshi bo'lgan yirik feodallar va dvoryanlar qirolga qarshi birgalikda uch marta qo'zg'olon ko'tardilar, bu harakatlarga burgundiyalik Karl Jasur boshchilik qildi. Uning niyati Fransiya va Germaniya o'rtasida mustaqil qirollik tuzish edi, bu maqsadga erishish uchun u fransuz qirolini kuchsizlantirish kerak edi.

Ludovik XI Karl Jasurga qarshi barcha imkoniyatlarini (harbiy va diplomatik – P.S.) ishga soldi. Karl Jasur o'ldirildi. O'zining kuchli raqibidan qutulgan Ludovik XI udel knyazlarining mustaqilligiga chek qo'ydi. U qirollik hududiga Men, Anju va Provansning boy savdo port shaharlarini qo'shib oldi. Shundan so'ng Fransiyada faqatgina bitta mustaqil knyazlik qoldi. U Bretan hududi bo'lib, u ham keyinchalik Ludovik XIning o'g'li Karl VIII davrida qo'shib olindi. Umuman, Ludovik XI Fransiya tarixida o'zining raqibini aldash va bergan va'dasini surbetlar-cha buzish yo'li bilan ish tutuvchi munofiq siyosatchi sifatida tanilgan.

Ludovik XI davri Fransiya tarixiga absolut hokimiyatning kuchaygan, mamlakat hududiy jihatdan birlashtirilgan va fransuz millatining paydo bo'lishi uchun shart-sharoit yetilgan davr bo'ldi. Qirol o'zining notabllar kengashi deb atalgan kengashi bilan birgalikda mamlakatda cheksiz hukmronlikka ega bo'ldi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Fransiyada dastlabki kopetinglar qachon hokimiyatga keldilar?
2. Fransiyadagi «sevr» va «villanlar» atamaları kimlarga nisbatan ishlatilgan va u Angliyadagi shu atarnaning ishlatilishidan qanday farq qiladi?
3. Filipp IV Chiroyli qirollik xarajatini qoplash uchun qanday tadbirlarni amalga oshirdi va bu tadbirlardan biri uni nima uchun Rim papaligi bilan to'qnashtirdi?
4. «Papalikning Avinon qamali» qanday yuz berdi va qancha davom etdi?
5. Karl V ning islohotlari qaysi sohada bo'ldi?
6. Janna d'Arkni nima uchun diniy sudga berdilar?

## **20-MAVZU: XII-XIII ASRLARDA GERMANIYA, ITALIYA VA PAPALIK. SHTAUFENLAR IMPERIYASI**

### **REJA:**

1. XII–XIII asrlarda Germaniya taraqqiyotining iqtisodiy va siyosiy xususiyatlari.
2. Shtaufenlarning idora qila boshlashi.
3. Fredrix I Barbarossa va uning tashqi siyosati.
4. Fredrix Barbarossa va Velflar.
5. Innokteniy III davrida papalik.
6. Shtaufenlar dinastiyasining qulashi.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** Benifisiy – imperator tomonidan cherkovga inʼom etiladigan yer. Arxiyepiskop – monastir boshligʻi. Monastir – xristian cherkovi talabiga javob beradigan kuchli tashkilot.

**XII–XIII asrlarda Germaniya taraqqiyotining iqtisodiy va siyosiy xususiyatlari.** XI asrdan boshlab Yevropada roʻy bergan iqtisodiy, siyosiy oʻzgarishlar Germaniya, Italiya taraqqiyotiga ham taʼsir qildi. XII–XIII asrlarda Germaniyada ham ishlab chiqarish kuchlari koʻzga koʻrinarli darajada rivojlandi. Qishloq xoʻjaligi va cherkovlik rivojlanib, nafaqat aholini ehtiyojini balki, qisman hunarmandchilik va sexlarni ham xomashyo bilan taʼminlaydigan boʻldi.

Xuddi shu davrda Germaniyada shaharlar ham ancha rivoj topdi. Reyn va Dunay daryolari boʻylaridagi eski va yangi shaharlar gʻaybun sanʼat markazlariga aylandi. Fransiya, Niderlandiya, Italiya va Vengriya, Bolqon mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini olib bordilar. Germaniya sexlarida movut, surp, metallsozlik mahsulotlari, moʻymachilik, qurol-yarogʻ ishlab chiqarilardi.

Keln, Vorms, Frankfurt, Ulm, Noyurnberg, Augustburg shaharlari sanʼati rivojlangan savdo markazlari edi. Germaniyaning taraqqiy qilishiga qaramay, mamlakat hali feodal tarqoqlikni oʻz boshidan kechirmoqda edi. Gersogliklar va boshqa dunyoviy va ruhoniylar knyazlar ancha koʻp boʻlib, ular oʻzlarini erkin his qilardi. Imperator bular orasida ancha taʼsirli boʻlib, senyorlikni oʻz qoʻliga olgan edi. Ammo markaziy qirolik-imperatorlik hokimiyati esa shaharlar bilan boʻsh bogʻlangan

edi. Germaniyada xuddi Fransiya, Angliyada bo'lgani singari imperatorlikning shaharlar bilan aloqasi mustahkam emas edi. Shaharliklar feodallarga qarshi kurash olib borganlarida qirol hokimiyati betaraflik siyosatini tutdi. Chunki bu davrda Germaniya ichki shaharlarning rivojlanishiga emas, tashqi shaharlarning savdo-sotiq ishlariga e'tibor bergan edi. Germaniya imperatorlari agressiv tashqi siyosat olib borishgan edi. Italiyadagi urushlar, boy italian shaharlarning ekspluatatsiya qilinishi, dunyoga hokim bo'lish rejalari, Sharqiy Yevropadagi va Yaqin Sharqdagi bosqinchiliklar – mana shularning hammasi qirollar-imperatorlarni Germaniyadagi ichki siyosat vazifalaridan chetga chalg'itib, ularni nemis shaharlari taqdiriga befarq qaraydigan qilib qo'yardi. Shtaufenlar uchinchi german dinastiyasining tarixi (1138–1254-yillar) german imperatorlari yurgizgan tashqi bosqinchilik siyosati Germaniyaning ichki siyosati bobida naqadar halokatli oqibatlariga olib kelganligini, ayniqsa, yaqqol ko'rsatib beradi.

**Shtaufenlarning idora qila boshlashi.** Lotar Saksoniyskiy (1125–1137-y.) kuchsiz imperator edi. Shu bois Shtaufenlar xonadoni bilan Velflar xonadoni o'rtasida hiyla ishlatishga majbur bo'ldi, chunki Shtaufenlar Shvabya gersoglari bo'lish bilan birga, Fransiya ham kuchli ta'sirga ega edilar, Bavariya gersoglari esa Velflar xonadoniga mansub kishilar edilar. Litar Bavariya gersogi Genrix Mag'rur bilan yaqinlashib, unga o'z qizini nikohlab berdi.

Velflarning kuchayib ketishidan qo'rqqan knyazlar Konrad Shtaufenni imperator qilib sayladilar. Konrad III (1138–1152) ikkinchi salib yurishida qatnashgan edi. U Velflarga qarshi kurash olib bordi. Konrad Velflardan Bavariyani tortib olib, ularga faqat Saksoniyani qoldirdi. Konradning taxt vorisi Fredrix I Barbarossa davrida Shtaufenlar dinastiyasi eng zo'r qudratga ega bo'ldi.

**Fredrix I Barbarossa va uning Italiyaga qilgan yurishlari.** Fredrix I Barbarossa (sariq soqol) 38 yil imperatorlik qildi (1152–1190). U shafqatsiz, tajovuzkor, g'oyat shuhratsiz va makkor siyosatchi edi. Fredrix Bavariyani Velflarga qaytarib berib, ularni tinchitgach, salib yurishlari natijasida boyigan Italiyaga o'z diqqat-e'tiborini qaratdi.

Fredrix Rimda toj kiyish paytidayoq (1154–1155) italyan shaharlarining boyib ketganligiga va ayni zamonda Italiyaning siyosiy jihatdan zaiflashib qolgan, feodal territoriyal knyazlar, shahar-respublikalar bir-biroviga dushmanlik munosabatida edilar. Fredrix I Rim papasi bilan yaxshi munosabatlar o'rnatib, Rim Respublikasiga asos solishga harakat qilgan (1143-y.) Arnold Berishianskiyni papa zindoniga tashla-

di, uning jasadida esa gulxanda kuydirildi (1155-y). Rim Respublikasi tugatildi. Ammo oradan ko'p o'tmay imperatorlarning papa bilan munosabatlari yomonlashdi. Papa kuriyasida, Rim imperatori papa qoshida «benifitsiy» tarzida toj kiydi va shu sababdan u papa aytganlariga quloq solmog'i lozim, deb bayon qilingan edi.

1157-yili Bezansondagi reyxstagda papa vakili (legati) ana shu haqda ochiqdan ochiq gapirgan edi. Ikkinchi tomondan, Fredrix I Barbarossaning o'zida Italiyani batamom tobe qilish va uni quloq qoqmay bo'ysunadigan viloyatga aylantirish rejasi vujudga keldi.

1158-yilda Fredrix I Barbarossa Italiyaga bostirib kirdi. Taxminan 100 ming qo'shin bilan 1158-yilning noyabrida Rankal vodiysida (Pechensa shahriga yaqin joyda) katta seym chaqirib, unga Italiyaning barcha eng yirik feodallarini va Italiya shaharlarining vakillarini taklif etdi. Ana shu Rankal qarorlarida imperatorning Italiyadagi hokimiyatini cheklanmagan hokimiyatga aylantirdi. Jinoiy ishlar sudi, tanga-chaqa zarb etish huquqi, yer-mulklarni taqsimlash, shahar podestalarini (imperator noibi) tayinlash va hokozolar tamomila Fredrix I Barbarossa qo'lga o'tdi. Imperator xizmatiga o'tgan yuristlar uning hokimiyatini mutlaq hokimiyat deb topdilar, traktatlarda imperatorni «yerdagi jonli qonundir» deb yozdilar.

O'zini doimiy mustaqil deb his qilgan Lambardiya shaharlari Fredrix I Barbarossaga qarshi bosh ko'tardilar. Milan shahri bu harakatlarda gegemonlik rolini o'ynadi. 1162-yilda Fredrix I Barbarossa bu qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Milan shahri yer bilan yakson qilindi. Shahar aholisiga sakkiz kun mobaynida shaharni tashlab chiqib, qishloqlarga ko'chib borib joylashish taklif qilindi. Shahar markazi qo'sh bilan haydalib, so'ngra uning pushtalariga tuz sepildi. Nemitsarlari Milan yonidagi o'z lagerlarida qatl etilgan lambardiyalarning kesilgan kallalarini koptoq qilib o'ynadilar.

Albatta, bu ishlar lambardiya klarning qaddini bukdi. Ular tez orada Lambardiya ligasi nomi ostida nemislarga qarshi Lambardiya shaharlarining ittifoqini tashkil etdilar. Bu ittifoqqa 15 ta shahar kirdi. 60-yillardan boshlab bu ittifoqda Milan shahri yana asosiy rol o'ynadi. Shtaufenlarning yutuqlaridan qo'rqqan papa Aleksandr III (1159–1181) ham ligaga a'zo bo'lib kirdi.

1167-yilda Fredrix I Barbarossa Italiyaga yana katta qo'shin bilan hujum qilib, Rimni egalladi. Papa Aleksandr III qochib ketishga majbur bo'ldi. O'lat kasali oqibatida (25 ming kishi o'ldi) imperator germaniyaga qaytishga majbur bo'ldi.



1174–1176-yillarda Fredrix I Barbarossa yana Italiyaga yurish boshladi, lekin bu gal uning yurishi foydasiz bo'ldi. 1176-yilning bahorida Lenyano degan joyda (Milandan sal uzoqroqda) u liga qo'shinlari tomonidan batamom mag'lubiyatga uchratildi. Bu harakatda shaharliklar, hunarmandlar, halfalar va boshqalar ishtirok etgan edilar. Lenyano yonidagi mag'lubiyat Fredrix I Barbarossani Lambardiya shaharlariga yon berishga majbur etdi. Shaharlar erkin kommuna huquqini oldi. Ayni vaqtda Fredrix I Barbarossa papa davlatining ishlariga har qanaqangi aralashuvidan voz kechib, papaga ham yon berishga majbur bo'ldi.

**Fredrix I Barbarossa va Velflar.** Fredrix I Barbarossa mag'lubiyatining asosiy sabablaridan biri 1176-yili imperatorning eng yirik vassali Genrix Sher Velflarning Italiyaga yordamchi qo'shin olib borishi haqidagi iltimosni qondirmagani bo'ldi. Bu ishi uchun Genrix Velf feodal sudiga tortilgan edi. Ammo Genrix Velf o'z fikrida qolib, imperatorga bosh eggan knyazlarga qarshi kurash boshladi. Knyazlarning o'zaro urushi ikki yil (1178–1180) davom qilib, Velflarning yengilishi bilan tamom bo'ldi. Knyazlar sudi Genrix Sherni Germaniyadan haydab yuborish va uni barcha tanho yerlardan mahrum qilish haqida hukm chiqardi. Keyinchalik imperator uni kechirdi. Genrix Sher Germaniyaga qaytib keldi va imperator unga Saksoniya yerlarining bir qismini (Braunvey Gersogligi) qaytarib berildi. Shunday qilib, Fredrix I Barbarossaning Velflar ustidan g'alaba qozonishi uning katta yutug'i edi. Bu narsa feodallarning imperatorga qarshiligini yanada kuchaytirdi. Barbarossa bu siyosati bilan shaharlarni birlashtirish va mustahkamlash emas, balki feodal tarqoqlik tarafdorlari bo'lib chiqdi. Bu holatni Saksoniyani taqsimlash va uni bir nechta yirik feodallarga o'tkazishida o'z ifodasini topdi.

**Fredrix I Barbarossaning Sitsiliyaga nisbatan tutgan siyosati.** Fredrix I Barbarossa Italiya masalasida bu gal boshqacha siyosat tutdi. 1186-yili o'z o'gli Genrix VIning Sitsiliya taxtining voris malikasi Konstantinga uylantirdi. Shuning o'zi bilan Shtaufenlar Sitsiliya orollaridan tashqari Italiyaning butun janubiy qismini ham o'z ichiga olgan kuchli qirollikni qo'lga kirdilar. Barbarossa buni diplomatik faoliyatidagi eng yirik yutuq deb bildi. Bu ish Lambardiyaliklarga va papalikalarga ma'qul bo'lmadi, aksincha, ularni g'azablantirdi. Mahaliy aholi Genrix VI va uning odamlariga bosqinchi zolimlar sifatida qaradi.

Fredrix I Barbarossa 1190-yilda o'zi qatnashgan uchinchi salib yurishi vaqtida vafot etdi. Keyinchalik Fredrix I Barbarossa nemis millatchilik adabiyotlarida o'ta darajada ideallashtirdi (1940-yil 18-dekabrda Fredrix I Barbarossa plani tasdiqlandi).

**Innokentiy III davrida papalik.** Papa Innokentiy III davrida (1198–1216) papa hokimiyati zo'r qudratga ega bo'ldi. Uning davrida «Yerdagi hokimiyat – xoqonlariga, samodagi hokimiyat – ruhoniylarga berilgan va tanalar ustidan qirollar, jon ustidan ruhoniylar qo'yilgan», oy quyoshdan yorug'lik olganidek, imperatorlar ham o'z hokimiyatlarini papadan oladilar degan teokratiya hukmronlik qilar edi.

Papa sudi katta tribunalgga aylangan, unga hamma masalalarni ko'rib chiqish va hal etish huquqlari berilgan edi. Shu va boshqa yo'llar bilan papa xazinasini istagan qirol xazinasidan boyroq edi. Ko'pgina qirollar o'zlarini papaning vassali deb tan olgan edilar. Shular orasida Angliya, Aragon, Portugaliya, Bolgariya, Shvetsiya, Daniya, Polsha, Armaniston qirollari bor edi.

Innokentiy III ixtiyorida monaxlarning urushqoq ordenlari bor edi va o'z xonlik ishlariga ixtisoslashgan oraniskanlar va universitetlarga kirib, ularda inkvizitsiya ishlarini olib borgan dominikanlar ordenlarga endigina asos solinayotgan edi. Innokentiy davrida bunday inkvizitsiyalar Fransiyaning janubida keng tarqalgan edi, keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham tarqaldi.

**Fredrix II Shtaufen.** Fredrix II Shtaufen (1212–1250) Shtaufenlar xonadoning ikkinchi eng ko'zga ko'ringan vakili edi. Yarim nemis, yarim italyan bo'lgan Fredrix II Shtaufen turli-tuman madaniy ta'sirlarga berilgan edi. Arab-Vizantiya ta'siri unda, ayniqsa, kuchli edi. U arab va yunon tillarini yaxshi bilar edi, saroyda arab-yahudiy, vizantiyalik olimlar doimo to'planishar edi. Uning Palermodagi saroyi sharqona uslubda qurilgan bo'lib, u sharq musiqasi va raqslari, sharq adabiyoti va poeziyasi, sharq arxitekturasini har tarafflama rag'batlantirib turardi. Fredrix II Sharq arab-turk hokimlari bilan do'stlik munosabatlarini yaxshi yo'lga qo'ydi.

Fredrix II Shtaufening siyosati avvalo Sitsiliya qirolligini markazlashgan byurokratik monarxiyaga aylantirishdan iborat edi. Bu sohada o'ziga qarshi chiqqan feodallar harakatini bostirdi. Uning harbiy qo'shinlari musulmonlardan tuzilgan yollanma otryadlar edi.

1231-yilda Fredrix II Shtaufen Sitsiliya qirolligining konstitutsiyasini e'lon qildi. Bu konstitutsiyaga: Mahaliy feodallarning huquqlari, Janubiy Italiya shaharlarining erkinligi yanada ko'proq cheklandi. Qirollik bir nechta ma'muriy okruglarga bo'linib, uni gubernatorlar boshqarardi.

Yer solig'i va boshqa xil soliqlar ko'paytirildi. Fredrix II Germaniyadan uzoqda bo'lganligi sababli u german feodallarning ko'pchiligi

lik shartlariga ko'nishga majbur bo'lardi. Masalan: Germaniyadagi dunyoviy va ruhoniy knyazlarning ma'muriy sud bobidagi huquqlarini kengaytirish to'grisida Fredrix II Shtaufen rozilik berdi. Fredrix II shaharlarga nisbatan feodal knyazlarni qo'llab-quvvatladi. 1232-yilda xuddi shunday bo'ldi.

Italiyada Fredrix II Shtaufen Lambardiya shaharlariga qarshi dushmanlik harakatlarini boshlab yubordi, ammo Lambardiyaliklar bu safar ham papalik bilan birlashdilar. Fredrix II zamonida imperatorlik bilan papalik o'rtasidagi kurash nihoyatda qattiq bo'ldi.

**Papalik bilan kurashning yangidan boshlanib ketishi.** XIII asrning 20- yillaridan, ayniqsa, papa Grigoriy IX davrida (1227–1241) imperator bilan papa o'rtasidagi munosabatlar ancha keskinlashdi. Papa imperatorlardan salib yurishiga chiqishni talab qilgan edi. Fridrix II 1228–1229-yillarda shunday yurishlarni (oltinchi salib yurishi) tashkil qilgan edi. Lekin Fredrix II Shtaufenning Turk-Misr sultonlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishi papa kuriyasini ranjitib qo'ygan edi. XIII asrning 30-yillarining yarmidan e'tiboran imperatorning papalar va ayni zamonda Lambardiya shaharlari bilan o'n besh yillik shiddatli urushi boshlandi.

1332-yilidayoq papa ishtirokida Lambardiya megasi yana ishga tushdi. 30- yillar o'rtasida Fredrix II Shtaufen Lambardiyaga hujum boshladi, Rimga kirdi, Genrix IX u yerdan qochib ketishga majbur bo'ldi. Bunga javoban Genrix IX Fredrix II Shtaufenni dinsizlikda ayblab, barcha knyazlarga yangi imperator saylashni taklif etdi.

Papa Innokentiy IV (1243–1254) davrida bu kurash keskin tus oldi. Innokentiy IV Rimda istiqomat qilishdan xavfsirab, Genuyaga ko'chib ketdi. Papa Genuyadan turib fransuz va ingliz qirollarini imperatorga qarshi kurashga da'vat etdi. 1245- yilda Lionda cherkov yig'ilishida imperator «kofirlik» va «shakkoklikda» ayblandi. Ammo fransuz va ingliz qirollari bu janjallarga aralashishni istamadilar. Germaniyada Fredrix II Shtaufenning Genrix Sher Konrad IV german feodallarining bir qismini o'ziga og'dirishga erishdi. Ikki to'da, ya'ni papa tarafdorlari bo'lgan gvelflar bilan imperator tarafdorlari bo'lgan gibellinlar o'rtasidagi shiddatli kurash Italiyaning ko'pgina shaharlarini qamrab oldi.

**Shtaufenlar dinastiyasining tugashi.** Germaniyada imperator hokimiyatining tushkunlikka ketishi. Fredrix II Shtaufen vafotidan keyin uning o'gli Konrad IV imperator qilib saylandi. Ammo oradan ko'p o'tmay, 1254-yilda Konrad IV vafot etadi. German knyazlari uning go'dak o'gli Konradni imperator qilib saylashga rozilik bermadilar.

Konradning amakisi Fredrix II Shtaufening ikkinchi o'gli Manfred huzuriga ketib qoldi. Sitsiliya qirolligi Manfred qo'liga o'tgan edi. Biroq papalar Shtaufenlarning Janubiy Italiyaga ham hukmronlik qilishini istamadilar. Papalar Karya Anjuyskiy (fransuz qiroli Ludovik IX ning ukasi) boshliq fransuz feodallarini Italiyaga taklif qildilar.

1266-yili Benevent shahri yonida fransuzlar Manfred qo'shinlarini yengdilar. Bu jangda Manfred o'ldirildi. 1268-yili Konrad tarafdorlari bilan fransuzlarni Janubiy Italiyadan siqib chiqarmoqchi bo'ldi, ammo uddalay olmadi. Asir olingan Konrad Neapol Shahrida boshi tanasidan judo qilindi (1268-y). Shunday qilib, Germaniyada Shtaufenlar dinastiyasi tugatildi.

1254–1273-yillar davomida Germaniyada butunlay imperator bo'lmadi. Feodallarning o'zaro urushlari mamlakat taraqqiyotiga kuchli zarba bo'lib tushdi va uni xarob qildi. Mamlakat uzoq yillar davomida tanazzulga yuz tutdi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. XII–XIII asrlarda Germaniya taraqqiyotining asosiy xususiyati nimada?
2. F.Barbarossa tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi qanday maqsadga qaratilgan?
3. Imperator va papalik o'rtasidagi ziddiyatning sabablari nimada?

## 21-MAVZU: XII–XV ASRLARDA RUS DAVLATI

### REJA:

1. Rusda feodal tarqoqlik.
2. Kiyev Rusidan mustaqil knyazliklar.
3. Mo'g'ul-tatar istilosi hamda nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurash.
4. Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuvi.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** feodal tarqoqlik, Kiyev Rusi, knyazliklar, Buyuk Novgorod, Vladimir-Suzdal knyazligi, mo'g'ul-tatarlar, nemis va shved ritsarlari, dvoryan va cherkov yer egaligi, Moskvaning yuksalishi, Kulikovo jangi, markazlashgan davlat, Rus madaniyati.

**Rusda feodal tarqoqlik.** IX asrning oʻrtalarida vujudga kelgan qadimgi Rus davlati poytaxti Kiyev shahri boʻlgan. Slavyan qabilalari feodal jamiyatga urugʻchilik jamoasining yemirilishi natijasida oʻtdilar. Kiyev Rusining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Vizantiyaning roli nihoyatda katta boʻlgan.

Rus yerlarida XI asr oxiri XII asr boshlarida feodalizm uzil-kesil oʻrnatildi. Mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot uning turli qismlarida yirik yer egalari, knyaz va boyarlarning kuchayishiga olib keldi. Kiyevdan uzoqdagi va endilikda yetarlicha rivojlangan Novgorod, Polosk, Smolensk, Rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaharlar oʻz viloyatlarining mustaqil markazlari boʻlishga intilishar edi.

Vladimir Monomax va uning oʻgʻli Mstislavning qipchoqlarga qarshi harbiy yurishlari ularning xavfini vaqtinchalik boʻlsa-da bartaraf etdi va markaziy harbiy birlikka birmuncha zaruriyat boʻlmay qoldi. Yirik shaharlarning boyarlari bundan foydalanib, Kiyevga qaram boʻlmagan mustaqil knyazliklar barpo qilishga koʻmaklashib, ayrim knyazlarni oʻzlariga hukmdorlikka taklif qila boshladilar. Knyazlarning 1097-yili Lyubechda boʻlgan syezdi «Har kim oʻz yurtiga ega boʻlsin» deb qaror chiqardi. Bu esa feodal tarqoqlik boshlanishini tantanali ravishda eʼlon qilinishi edi. Solnomachi 1132-yili «butun Rus yeri boʻlinib ketdi» deb yozgan edi. Rusda feodal tarqoqlik davri boshlandi.

Kiyev Rusi buyuk knyazlari hokimiyatining zaiflashuviga janubiy viloyatlardagi tushkunlik ham sabab boʻldi. Kiyev va uning atrofidagi

yerlarga turli knyazliklarning tahdidi, shuningdek, ko'chmanchi poloveslar hujumlari to'xtovsiz davom etardi. Natijada XII asrdan boshlab ko'plab dehqonlar va shahar aholisi tinchroq joylarni axtarib, janubi-g'arbiy va ayniqsa, shimoli-sharqiy, Volga-Oka daryolari havzasiga ko'cha boshladi. Yangi yerlarda tez orada shahar va qishloqlar barpo etilib, ulardagi aholi soni ko'payib bordi.

Kiyev Rusidan mustaqil knyazliklar: Chernigov, Polosk, Pereyaslav, Galisk, Volinsk, Smolensk, Ryazan, Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, Kiyev knyazligi va bir qator mayda knyazliklar tashkil topdi. Har bir knyazlik butunlay mustaqil bo'lib, o'zining ichki tartiblarinigina emas, balki tashqi siyosat olib borishi, urush va tinchlik muammolarini hal etish huquqlariga ham ega edi.

Rusdagi feodal tarqoqlikning to'rtta salbiy xususiyatini alohida ko'rsatish lozim: 1) o'zaro feodal urushlarining to'xtovsiz bo'lishi; 2) mamlakat mudofaa qobiliyatining zaiflashuvi; 3) knyazliklarning vorislar o'rtasida taqsimlanib yanada maydalasha borishi; 4) knyazlar va mahalliy boyarlar orasida nizolarning kuchayishi.

Novgorod yeri Kiyev bilan ochiqdan ochiq aloqasini uzgan birinchi mustaqil knyazlik bo'ldi. Kichkina qal'a sifatida paydo bo'lgan Novgorod XI asrga kelib faqat Rusninggina emas, balki Yevropaning hanarmandchiligi va savdosi yuksak rivojlangan shaharlaridan biriga aylandi. Shahar mo'ynalarga boy shimoli-sharqiy rayonlarga hukmronlik qilardi. Novgorod bir necha savdo yo'llarining kesishgan yerlarida joylashgani, uning Boltiq dengizi orqali Yevropa, Volga daryosi va Kaspiy dengizi orqali esa Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo aloqalarini olib borishi imkoniyatini yaratdi. Shu sababdan Novgorodda yaratilgan xalq ogzaki ijodi asarlari qahramonlari kemasoz-dengiz sayyohlari Sadko va Vasiliy Buslayevlar bo'lgan.

XI asrda Novgorodda an'anaga ko'ra knyaz-noib Kiyev Buyuk knyazining katta o'g'li bo'lgan. Lekin bora-bora boyarlarning mavqeyi oshib, ular knyaz hokimiyatini cheklab qo'yganlar va Novgorod boyarlar respublikasiga aylangan. Novgorodliklar vechesi 1136-yili Monomaxning nevarasi – Vsevolod Mstislavichni knyazlikdan chetlatib, qanoqqa olishga qaror qilgan. Shu vaqtdan boshlab shahar butunlay feodal respublikasiga aylanadi. Novgorodning siyosiy hayotida, xalq vechesida zodagon boyarlar ichidan saylanadigan shahar hokimi, shahar kengashi va saylab qo'yiladigan yepiskop bosh rolni o'ynardi.

Moakva, Rus yerlaridagi Kiyev, Galich-Volin, Vladimir-Suzdal knyazliklarida ham XII–XIII asrlar boyarlarning knyazlarga qarshi ku-

rashi ostida o'tdi. Jumladan, Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiy XII asrda Rusning shimoli-sharqida, Volga va Oka daryolari orasiga ko'chib kelib joylashgan hamda mahalliy tub fin-ugor qabilalari bilan yaqinlashayotgan aholiga knyazlik qilardi. Vladimir-Suzdal yerlarida XI–XII asrlar davomida: Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yurev, Dmitrov kabi shaharlarga asos solindi. Knyazlik yerlaridagi Kuchkov qishlog'ida 1147-yilning bahorida Yuriy Dolgorukiy Kiyev ustidan erishilgan g'alabalardan birini nishonlagan. Moskva deb atala boshlagan bu joyda 1156-yili yogochdan birinchi qal'a qurildi.

Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir yerlarida va Moskvada Ivan Grozniyga (1584-y.) qadar hukmronlik qildilar. Vladimir-Suzdal knyazligi kelajakda rus yerlarining birlashishiga asos bo'ldi. Moskva XIV asrda ana shu birlashish jarayonining markaziga aylandi.

**Kiyev Rusidan mustaqil knyazliklar.** O'rta Osiyo va Kavkazorti yerlarini bosib olgan Chingizxon Rus yerlariga 1223-yili bostirib keldi. Qipchoq xonlarining yordam so'rab qilgan murojaatlariga javoban janubiy rus knyazlarining drujinalari Kalka daryosi bo'yida dushmanga ro'para bo'ldi.

Mo'g'ul-tatarlar go'yo chekingan bo'lib, rus drujinachilarini chalg'itib, o'z otliq askarlari uchun qulay maydonga chiqib olib, ularni to'la mag'lubiyatga uchratdilar. Asir olingan knyaz va drujinachilar ustiga taxta bostirgan g'oliblar, uning ustida o'tirib bazm qurdilar. Shundan keyin mo'g'ullar Volga orti dashtlariga yo'l olib, u yerda bir necha yil davomida Sharqiy Yevropa sari yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rdilar.

Mo'g'ul-tatarlarning Rusga qarshi keng ko'lamdagi hujumlari 1237-yilning oxirida boshlandi. Ularning 140 ming qo'shiniga Chingizxonning nevarasi Botu boshchilik qildi. Rus yerlarida davom etayotgan feodal tarqoqlik mo'g'ul-tatarlarga qo'l keldi. Dastlab qamal qilingan Ryazan shahri aholisining mardonavor qarshiligi kuchlar teng emasligidan natija bermadi. Vladimir knyazi o'ziga raqib hisoblangan Ryazanga yordamga kelmadi. Mudofaachilarning qat'iyatidan g'azablangan Botu shaharni butunlay vayron qilishni buyurdi.

Shimoli-sharqiy Rusning ichkarisiga siljiy boshlagan dushman lashkarlari Kolomna ostonalaridagi jangda rus drujinachilarini yengib, Moskvani egalladilar. Botu qo'shini 1238-yilning fevral oyi davomida Volga va Oka daryolari havzasidagi 14ta rus shahrini, jumladan, Vladimiri vayronaga aylantirdi. Vladimir knyazi Yuriy Vsevolodovich qo'shini mart oyida Siti daryosi yaqinidagi jangda tor-mor qilindi, kn-

yazning o'zi halok bo'ldi. Butunlay vayron qilingan Vladimir-Suzdal knyazligi shahar va qishloqlarida ming-minglab aholi halok bo'ldi, ko'plab qo'lyozmalar, moddiy madaniyat durdonalari yondirib yuborildi.

Yangi yurishlar 1239-yilda boshlanib, Botuxonning asosiy qo'shinlari Rus yerlarining janubiy qismiga zarba berdi. 1240-yili Kiyev qamal va shiddatli janglardan keyin taslim bo'ldi. Janubiy Rus knyazliklari yerlari ham xarobazorga aylantirildi.

Bosib olingan yerlarda Chingizxon tuzgan saltanatning bo'linib ketgan qismlaridan biri, yangi davlat – Oltin O'rda qaror topdi. Hozirgi Astraxan shahri yaqinidagi Saroy shahri uning poytaxti edi. XIII asrning o'rtalaridan Rus knyazliklari Oltin O'rda xonligiga qaram yerlar sifatida, ularga katta o'lpon to'lay boshladi. Endi knyazlar mo'g'ul xonlaridan olingan yorliqqa binoan o'z yerlarini boshqarar, xalqqa zulm o'tgazib, ulardan og'ir soliqlar yig'ib olardilar. Knyazlarning o'zaro urushlarida Oltin O'rda xonlari o'z manfaatlarini ko'zlab goh birlariga, goh boshqalariga homiylik qilar, natijada yana oddiy xalqning qoni to'kilar, shahar va qishloqlar yonardi.

Mo'g'ullar istilosi rus yerlaridagi iqtisodiy taraqqiyotga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sekinlashdi.

XIII asrning boshlarida Boltiq dengizi qirg'oqlarida yashaydigan yest, liv qabilalariga qarshi nemis feodallarining urushlarini Rim papalari salib yurishlari deb e'lon qildi. Bu urushlar mahalliy aholini xristian-katolik diniga o'tkazish bayrog'i ostida olib borildi. Urushlar natijasida nemislarning Livoniya ordeni ritsarlari yestlar yerlarini bosib olib, Novgorod-Pskov knyazligi chegaralariga yaqinlashib qoldilar. Boltiqbo'yi nemis ritsarlari bilan hamkorlikda harakat qilgan shved feodallarining katta qo'shini 1240-yilning yozida Neva daryosi bo'ylab Novgorod yerlariga bostirib kirdi.

Novgorod knyazi 18 yoshli Aleksandr Yaroslavich 1240-yil 15-iyulda o'zining unchalik katta bo'lmagan drujinasi bilan shvedlar qarorgohiga qo'qqisdan hujum qildi. Yosh knyaz va uning dovyurak drujinachilari ko'rsatgan jasorat tufayli Aleksandrga Nevskiy degan faxrli nom berildi. Bu nom tarixda asrlar bo'yi saqlanib kelmoqda.

Mo'g'ul-tatar bosqinidan chetda bo'lgan Novgorod-Pskovning boy yerlari nemis ritsarlarini o'ziga tortardi. Ularni hatto shvedlarning muvaffaqiyatsizliklari ham to'xtata olmadi. Pskov yaqinidagi Izborsk qal'asini 1240-yili olgan ritsarlar, Pskov noibi Tverdila va boyarlar xonligidan foydalanib shaharni egallashdi. Nemis feodallari o'sha yili qahdayoq Novgorodning chegara rayonlariga ham bostirib kirish-



di. Novgorodning dushmanga qarshi kurashini yana Knyaz Aleksandr Nevskiy boshqardi. Knyaz Suzdal qo'shini yordamida Pskov va unga qarashli yerlarni ozod qildi.

Aleksandr Nevskiyning nemis ritsarlariga qarshi hal qiluvchi jangi 1242-yil 5-aprelda Chud ko'li ustida bo'lib o'tdi. Uning og'ir qurollangan otliq nemis ritsarlari bilan muz ustida jang qilishi oson bo'lishi haqidagi mo'ljali to'g'ri chiqdi. Jang boshlanishi bilan ritsarlarning pona shaklidagi asosiy kuchlari rus qo'shinining markaziga hujum qilib, uni yorib o'tmoqchi bo'ldi. Buni oldindan sezgan Nevskiy asosiy kuchlarni qanotda to'pladi.

Markazni osonlikcha yorib o'tgan nemislar uchun kutilmagan voqea – yon tomondan kuchli hujum boshlanib, jang taqdirini hal qildi. Bu jangda nemis ritsarlaridan 500 kishi halok bo'ldi. Ko'p o'tmay Livoniya ordenining Novgorodga kelgan elchisi rus yerlariga da'vo qilishdan voz kechganliklarini ma'lum qildi.

**Mo'g'ul-tatar istilosi hamda nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurash.** Oltin O'rda xavfi sharoitida Volga daryolari havzasidagi o'rmonzor viloyatlarga aholining ko'chib kelishi kuchaydi. Bu viloyatlardagi mavjud bo'sh unumli maydonlardan tashqari, ko'plab o'rmonlar ham daraxtlari kesilib, ekinzorlarga aylantirildi. Mazkur rayonlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham rivojlangan. Bo'sh yerlarning yetishmasligi yangi qochoqlarni Volga orti rayonlariga o'tishga undadi. Aholi kelib joylashgan yerlar feodallarning e'tiborini tortib, ular knyazlardan olingan yorliqlarga binoan ushbu yerlarning ham xo'jayiniga aylandilar.

Yangi yerlarda, ayniqsa, cherkov yer egaligi tez rivojlangan. Xuddi shu joylarda XIV–XV asrlar davomida hozirgi kunga qadar mashhur Troitse-Sergiyev, Kirilo-Belozerskiy, Soloveskiy monastirlari tashkil topgan edi.

Rusda ham yirik yer egalari o'zining harbiy xizmatkorlariga yerlarning bir qismini vaqtinchalik foydalanishga bo'lib bera boshladilar. Natijada feodal yer egaligining yangi shakli – yerni shartli ravishda saqlash tartibi va feodallarning yangi toifasi – dvoryanlar paydo bo'ldi. Yer egalari dehqonlarni krepostnoy qaramlikka tushirishga intildilar. Knyazlar farmoniga binoan XII asrning o'rtalaridan, dehqonlarni feodallardan ketish vaqtini yiliga bir muddat – Yuriy kuni (26-noyabr) bilan belgilab qo'yildi.

Mo'g'ul-tatarlar istilosi natijasida rus shaharlari og'ir talafotlar ko'rgan bo'lsa-da, ularning taraqqiyoti butunlay to'xtab qolmadi.

Jumladan, XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab hunarmandchilikning turli sohalarida yuksalish boshlandi. Harbiy ehtiyojlarning o'sishi, ayniqsa, qurilish va metallsozlik sohalarining taraqqiyotini tezlashtirdi. Asr oxiriga kelib o'q otadigan qurollar yasash markazlari paydo bo'ldi. Shu paytdan Moskva shahri hunarmandchilik markaziga aylandi. Novgorod, Pskov, Kolomna, Kostroma, Nijniy Novgorod kabi shaharlar iqtisodiy taraqqiyotida sezilarli siljishlar bo'ldi. Rus shaharlarining sharq va g'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi.

Mamlakatda iqtisodiy yuksalishning boshlanishi, qishloq xo'jaligining taraqqiyoti, shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiqning jonlanishi turli viloyatlar orasidagi aloqalarning kuchayishi rus yerlarining birlashishiga yordam berdi. Mamlakatning birlashishiga tashqi dushmanlarga qarshi, avvalo Oltin O'rda xonlari zulmiga qarshi kurash zaruriyati ko'p jihatdan katta ta'sir qildi. Rus yerlarini birlashtirgan «Rossiya» tushunchasi XII asrning oxirida shu jarayonlarning natijasi sifatida vujudga keldi.

Rusning turli knyazlari XIII asrning oxiridan rus yerlariga hukmronlik imkoniyatini beradigan Oltin O'rda yorlig'ini olish uchun kurash olib bordilar. Dastlab bu yorliqni Tver knyazlari qo'lga kiritdilar. Lekin XIV asrning boshidan yuksala boshlagan Moskva knyazlari ham yorliqqa ega bo'lish uchun kurashga kirishdilar. Bu boradagi o'zaro kurash 1327-yili Tverdagi xalq qo'zg'olonini bostirishda O'rdaga yordam bergan Moskva knyazi Ivan Kalitaning (1325–1340) g'alabasi bilan tugadi. Oltin O'rda Moskva knyaziga boshqa rus yerlaridan soliq yig'ish huquqini berdi. XIV asrning 2-yarmida rus knyazlari orasidagi kurash yana keskin tus olib, Oltin O'rdaning rus yerlariga yangi hujumlari boshlandi. Kalitaning nevarasi Dmitriy Ivanovichning 1359-yili knyaz bo'lishi rus knyazlarining o'zaro urushlarida Moskvaning g'alabasi bilan tugashiga imkon berdi.

Ruslarning mo'g'ul-tatarlarga qarshi urushlaridagi birinchi va muhim g'alabaga ham knyaz Dmitriy erishdi. Dastlab 378-yili Ryazan yerlaridagi Don daryosi bo'yida Moskva qo'shini mo'g'ullar ustidan galaba qildi. Lekin hal qiluvchi jang 1380-yili 8-sentyabrda Dmitriy boshchiligidagi rus qo'shinlari bilan Oltin O'rda xoni Mamay qo'shini o'rtasida Don daryosi sohilidagi Kulikovo maydonida bo'ldi. Jangni Mamayning otliq akskarlar boshlab berdi. Ular ruslarning oldingi saflariga hujum qildilar va uni qattiq jangda yanchib tashladilar. Bir necha soat davom etgan jangda o'rdaliklar knyazning markazdagi katta polkini va qo'shinning chap qanotini siqib qo'yishdi. Jangning hal qiluvchi

paytida Serpuxov knyazi Vladimir Andreyevich va voyevoda Dmitriy Bobroklarning pistirmadagi polki jangga kirdi. Rus otliqlari dushmanning orqa tomonidan zarba berdi. Natijada mo'g'ullar qo'shini vahimaga tushib chekina boshladi. Knyaz Dmitriy Ivanovichga bu jangdagi g'alabadan so'ng Donskoy nomi berildi.

Mo'g'ul-tatarlarning rus yerlaridagi hukmronligi Kulikovo jangidan keyin ham davom etdi. Oradan ko'p o'tmay Oltin O'rda xoni To'xtamish 1382-yili qo'qqisdan Moskvaga hujum qildi. Bir qancha vaqt davom etgan mudofaani shahar aholisining o'zi tashkil qildi. Nijgorodlik rus knyazlari vositachiligida shaharga afv va'da qilib kirgan mo'g'ullar o'z so'zlaridan qaytib, katta qirg'in uyushtirdilar. Dushman ketganidan keyin Moskvadan 24 ming kishining o'ligi topildi. Shahar deyarli yonib kul bo'ldi. Qo'shni yerlardan lashkar to'plab kelgan knyaz Dmitriy Donskoyning yaqinlashuvi mo'g'ullarni Moskva yerlaridan ketishga majbur qildi.

Bu borada bir tarixiy voqeaga alohida to'xtalish lozim. Rus yerlariga katta talafot keltirgan To'xtamishxon 1389–1391 va 1394–1395-yillardagi Temur qo'shinlarining hujumlariga bardosh bera olmadi. To'xtamish qo'shinlarini tor-mor qilgan Temur Oltin O'rdani vayronaga aylantirdi. Rus yerlarining mo'g'ul-tatar istibdodidan xalos bo'lishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan.

Ivan III (1462–1505 y.y.) va Vasiliy III (1505–1533-y.)ning knyazligi davrida rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi tez sur'atlar bilan bordi. Ivan III davrida Yaroslavl va Rostov knyazliklari yerlari qo'shib olindi. Moskva knyazligiga 1471–1478-yillardagi urushlar natijasida Novgorod respublikasi ham qo'shib olindi. Nihoyat Ivan III davrida 1480-yili Moskva Oltin O'rdaga soliq to'lashdan bosh tortdi va shu tariqa mo'g'ul-tatarlarning rus yerlarida ikki yarim asrlik hukmronlikka chek qo'yildi.

Rus yerlarining birlashishi davom etib 1485-yili Tver knyazligi tugatildi. Pskov respublikasi yerlari 1501-yili, Litva bilan urush natijasida Smolensk yerlari 1514-yilda Moskvaga bo'ysundirildi. Nihoyat, 1521-yili Moskvaga doim qaram bo'lib kelgan Ryazanda knyazlik hokimiyati tugatildi. Rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi mamlakatning kelajakdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga zamin tayyorladi.

O'rta asrlarda vujudga kelgan shaharlar boshqa mamlakatlardagi kabi Rusda ham madaniyat o'choqlariga aylandi. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilimli kishilarga bo'lgan talabni oshirdi.

Yirik shaharlarda maktablar ochildi. Jumladan, Kiyevda X asrdayoq o'smirlar uchun, XI asr oxirida esa qizlar maktabi ochildi. Arxeologiyaga oid qazilmalar XI–XIII asrlarda novgorodliklarda qayin pustlog'iga yozilgan yorliqlari yozuvning keng qo'llanilganidan darak beradi. Shikoyatnomalar, taklifnomalar, xo'jalik ishlaridagi farmoyishlar, savdo-sotiq va narx-navolar to'g'risidagi yozuvlar bitilgan qayin پوستloqlari topilishi fikrimiz dalilidir.

Rusdagi me'morchilik san'atining yutuqlari ham moddiy madaniyatning yuksalib borganidan darak beradi. Kiyevdagi Sofiya sobori (1037-y.), Novgorod shahridagi Sofiya ibodatxonasi (1052-y.), Vladimirdagi Dmitrov sobori (1194–1197-y.) kabi go'zal va muhtasham diniy inshootlar jahon madaniyati durdonalari qatoriga kiradi.

XV asrda Moskva sobori qurilishiga chaqirilgan mashhur italyan me'mori Fioravantiga knyaz Ivan III Vladimir shahridagi XV asr oxirida qurilgan Uspenskiy soborini ko'rsatib kelishlarini buyurgan. Aytishlaricha, italyan me'mori rus ustalarining ijodiga yuksak baho berib, ibodatxonaning chiroyini yuksak baholagan.

She'riyat sohasida qadimgi Rusning salmoqli asarlariga alohida to'xtalish lozim. Birinchi she'riy asar «Igor polki jangnomasi» 1185-yili Kiyevda qipchoq xoni Konchakning hujumi munosabati bilan yozilgan. Noma'lum muallif tomonidan bitilgan «Jangnoma» shaklan teran, vatanparvarlik ruhidagi va xavf-xatarlar paytida rus knyazlariga quruta qilingan donolarcha murojaatdir.

Rus tarixida «Igor polki jangnomasi» boqiylik imtihonidan o'tdi. XIV asrda Kulikovo maydonidagi Rus g'alabasini tarannum etgan «Zadonshechina» dostonining muallifi unga ochiqdan ochiq taqlid qilib yozgan.

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Rus yerlarining mo'g'ul-tatarlardan halos bo'lishida Amir Temur o'rolini ochib bering.
2. Rusda feodal tarqoqlik sabablari.
3. Kiyev Rusidagi mustaqil knyazliklar nomini sanab bering.
4. Kiyev Rusida Kiyev bilan aloqasini uzgan birinchi mustaqil knyazlik nomini toping.
5. Moskva shahriga kim va qachon asos solganligini ko'rsating.
6. Yuriy Dolgorukiy va uning avlodlari \_\_\_\_\_ yerlarida \_\_\_\_\_ qadar hukmronlik qildilar.
7. Chingizxon Rus yerlariga qachon bostirib kirganini toping.
8. Botu qo'shini \_\_\_\_\_ yil fevral oyi davomida \_\_\_\_\_ ta rus shahrini vayronaga aylantirdi.
9. Shvedlar Novgorod yerlariga qachon bostirib kirganini toping.
10. «Muz ustidagi jang» qachon va qayerda bo'lib o'tganini ko'rsating.
11. Nemis ritsarlari Rus yerlariga bostirib kirish sabablarini ochib bering.

## 22-MAVZU: XIII ASRDA MO'G'UL DAVLATI VA UNING ISTILOLARI

### REJA:

1. Mo'g'ul qabilalarining hayoti va ijtimoiy tuzumi.
2. Chingizxonning tatar-mo'g'ul qabilalarini birlashtirib yagona davlatga asos solishi.
- 3 Mo'g'ullarning Chingizxon vafotidan keyingi Yevropa va Osiyodagi istilolari.
4. Mo'g'ullar tuzgan davlatlar.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** mo'g'ul, qo'shxona, kure, no'yonlar, bagaturlar, navkar, harachu, urug' ittifoqi, xon, «harbiy demokratiya», xiroj, ko'chmanchi feodalizm, zodagon, rezerv, Timuchin, votchina, mingboshi, vengr qiroli, lennik, imperiya, bek, sikular, xristian, ulus, Darband darasi, ekspluatatsiya, poloves, aillar, kuren.

**Mo'g'ul qabilalarining hayoti va ijtimoiy tuzumi.** XII asrda hozirgi Mongoliya, Manjuriya territoriyasida va Sharqiy Sibirning janubiy qismida mo'g'ullarning ko'p sonli qabilalari istiqomat qilar edilar. Mo'g'ullarning ko'pchilik qismi dashti-biyobonda yashab, chorvachilik, yilqi, qoramol va qo'y-echki boqish bilan shug'ullanar edi. Mo'g'ullarning bir qismi o'rmonlarda yashab, mo'ynali hayvonlar ovlar va baliqchilik qilar edi. Dasht mo'g'ullari ko'proq sonni tashkil qilib, ancha rivojlangan edi. Ular o'rmonlarda yashovchi mo'g'ullar ustidan hukmronlik qilib, ulardan majburiy suratda mo'yna solig'i olardilar.

XII asrdagi mo'g'ullarning ijtimoiy tuzumida urug'chilik tuzumining xususiyatlari hali juda ko'rinib turardi. Ko'chmanchi mo'g'ullar urug'-urug' bo'lib yashardilar. Ularning manzillari kuren (qo'shxona)dan, ya'ni urug' boshlig'i – oqsoqol o'tovi tevaragida guruh-guruh bo'lib joylashgan bir necha o'nlab yoki hatto yuzlab o'tovlar yig'indisidan iborat bo'lardi. Urug'chilik qasosi mo'g'ullar hayotida juda katta ahamiyatga ega edi. Ularning dinida avlod-ajdodlar ruhiga sig'inish katta o'rin tutardi. Har bir urug'ning izzat-hurmat qiladigan o'z xudolari – eng shuhrat qozongan urug' doshlari orasidan chiqqan ajdodlari bo'lardi.

Biroq XII asrning ikkinchi yarmida – XIII asr boshlarida mo'g'ullarning ijtimoiy tuzumida urug'chilik munosabatlari sezilarli darajada yemurda boshlaganligi ko'rinadi. Ko'chmanchilarning urug'chilik kure-

ni o'rniga yakka-yakka holdagi ko'chmanchi xo'jalik – aillar tobora ko'paydi; odatda ail o'zining qo'y-echki suruvi va yilqisiga ega bo'lgan katta patriarxal oiladan iborat bo'lar edi. Urug'chilik yemirila borishi natijasida boylar, ya'ni no'yonlar va bagaturlarning dongdor oilalari ajralib chiqadi. No'yonlarda ma'lum miqdorda qul (harachu)lari bo'lardi. No'yonlar tevaragida drujinachilari – navkarlari bo'lardi. No'yonlar bilan bagaturlar o'rdaga (urug'lar ittifoqi) boshchilik qilardilar. O'rdalar o'z navbatida ancha yirik qabila ittifoqlariga uyushgan edilar. Bu yirik qabila ittifoqlari tepasida xonlar turardi. Xonlar va ularning tevaragida harbiy – qabila zodagonlari bo'ysundirilgan qabilalardan xiroj olardilar. Mo'g'ullarda davlatning varvarlik formasi ana shu tariqa vujudga keldi. Bu davlat boshda «harbiy demokratiya» xususiyatlariga ega bo'lib, bu o'ziga xos mo'g'ul feodalizmi (ko'chmanchi feodalizm) yanada rivojlana borishi bilan harbiy demokratiya asta-sekin buziladi va ahamiyatini yo'qotadi. Ittifoqchi qabilalarning zodagonlari vaqti-vaqti bilan alohida syezdlarga, ya'ni qurultoylarga yig'ilardilar. Qurultoylarda xonlarni saylardilar, dushman qabilalar va xalqlar bilan urush va yarash masalasini hal qilar edilar. Ba'zan gunohkor deb topilgan ayrim no'yonlar va hatto xonlarning o'zlarini sud qilardilar.

**Chingizxonning tatar-mo'g'ul qabilalarini birlashtirib yagona davlatga asos solishi.** XIII asr boshlarida Amur daryosining yuqori qismlari bilan Xitoyning shimoliy chegarasi o'rtasidagi territoriyada yashagan mo'g'ul qabilasining xonlaridan biri bo'lgan Timuchin (1155–1227) mo'g'ullarning turli qabilalarini va ko'p sonli tatarlarni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1206-yilda Onon daryosi vodiysida to'plagan qurultoyda Timuchin ulug' xon deb e'lon qilindi va u Chingizxon deb atala boshladi.

Mo'g'ullar katta harbiy ittifoqining vujudga keltirilishi eng yirik istilolarini keltirib chiqardi. Buning uchun ko'pgina shart-sharoitlar mavjud edi. Timuchin kuchli mo'g'ul harbiy-qabila zodagonlariga boshchilik qilardi, bu harbiy qabila zodagonlari bungacha harbiy o'ljani qo'msagan o'z drujinachilaridan iborat tajribali harbiy kuchga ega edilar. Mo'g'ul qabilalari oddiy jangchilarning katta rezervlariga ega edilar. Mo'g'ullarning ko'chmanchi chorvadorlar hayotini kechirishi ularda a'lo darajadagi otliq askarlarni o'stirishga sababchi bo'ldi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar bu otliq askarlar bilan qo'sh-nichilikda yashab va u bilan ko'pincha urushlar qilish bilan bir vaqtda, harbiy-texnika ko'pgina narsalarni shu qo'shnilaridan, jumladan, xitoyliklardan qabul qilib olgan edilar. Binobarin, mo'g'ullar alohida

devor teshadigan va o't sohadigan qurollar yordamida shaharlar olish san'atini batamom egallagan edilar.

Eng yaqin yillar ichida Chingizxon Janubiy Sibirda yashagan ko'pgina xalqlarni o'ziga bo'ysundirdi. Ular orasida buryatlar, yoqutlar, qirgizlar va boshqa xalqlar bor edi. 1211-yilda Chingizxon Shimoliy Xitoyni istilo qilishni boshlab, uni umrining so'nggi yillaridagina tamom qildi. Ammo Xitoyni uzil-kesil istilo qilishdan avval, Chingizxon O'rta Osiyoda keng istilochilik harakatlarini boshlab yubordi. 1218–1228-yillar davrida keng Xorazm davlatini istilo qildi, unga Xorazmdan tashqari Sharqiy Eron, Buxoro, Afg'oniston davlatlari ham kirar edi. Chingizxon istilo qilgan mamlakatlarni va ulardagi shaharlarni g'oyat shafqatsizlik bilan vayron qilib tashladi. Chingizxon qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lgan Buxoro, Samarqand, Urganch (Xorazm poytaxti) Marv va boshqa shaharlardagi aholi (mohir hunarmandlardan tashqari)ning ko'pchilik qismi qirib tashlandi. Mohir hunarmandlarni esa mo'g'ullar qullarga aylantirdilar. Yengilganlarning barcha mol-u mulki mo'g'ul o'rdalarining o'ljasi bo'lib qoldi. Mo'g'ullar O'rta Osiyodagi irrigatsiya sistemasini yakson qildilar (jumladan, ular Marv yaqinidagi mashhur Murg'ob to'g'onini buzib tashladilar).

Chingizxonning eng yaqin no'yonlar boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlarining bir qismi Kaspiy dengizining janubiy sohili bo'ylab Kavkazortiga kirib, so'ng Kavkaz (Darband darvozasi) orqali Donga, qipchoq cho'liga chiqdi. Bu yerda, Kalka daryosi bo'yida, mo'g'ullar 1223-yilda birinchi marta ruslar bilan to'qnashdilar, ruslar qipchoq (polovets)larning ittifoqchisi sifatida ularga yordam bermoqchi bo'lgan edilar. Rus knyazlari bilan qipchoq knyazlarining bir-birlari bilan kelishmasdan barakat qilishlari oqibatida ittifoqchilar mag'lubiyatga uchradilar.

**Mo'g'ullarning Chingizxon vafotidan keyingi Yevropa va Osiyodagi istilolari.** 1227-yilda Chingizxon Mo'g'ul davlatini o'zining to'rtta o'g'li o'rtasida taqsimladi. Ulug'xon unvonini, asl Mo'g'ilistonni va Shimoliy Xitoyni Chingizxonning uchinchi o'g'li Ugaday oldi. Chig'atoy nomli ikkinchi o'g'li Amudaryoning sharqidagi O'rta Osiyo yerlarini oldi. O'rta Osiyoning g'arbiy qismi, shu jumladan, Sharqiy Eron va Shimoliy Hindiston Chingizxonning to'rtinchi o'g'li Tuluyga topdi. Chingizxonning katta o'g'li Jo'ji mamlakatlar taqsimoti vaqtida qazo qilgan edi. Jo'jining o'g'li Botuxonga Irtish daryosidan tortib Ural tog'larigacha cho'zilib ketgan G'arbiy Sibir va so'ngra shimoldan Kaspiy va Orol dengizlariga tutashgan territoriya, shu jumladan, Janubiy Ural tog'i etaklari berildi.



Chingizxonning vorislari uning istilolarini davom ettirdilar. 1235–1242- yillarda Botuxon Sharqiy Yevropada juda katta istilolar qildi. U Rusni, Volga bilari Don daryolari etaklaridagi Kama bolgarlarini, qipchoqlar va boshqa xalqlarni o'ziga bo'ysundirdi. Mo'g'ullar Vengriya, Chexiya (Moraviya) va Polshaga kirdilar. Ularning qo'shinlari qisman Serbiya va Bolgariya territoriyasi orqali o'tdilar. O'rta Osiyoni istilo qilgan vaqtdagi sirigari, tatar-mo'g'ullar Yevropada ham o'zlarining keyin hamma joyni dahshatli vayronaga va xarobazorga aylantirdilar. Yuz minglab kishilar halok bo'ldi, gullab-yashnab turgan shaharlar vayronaga aylandi. Aholi o'rmonlarga qochib jon saqladi. Aholining qolgan qismiga og'ir xiroj solindi.

Ruslarning qahramonona qarshilik ko'rsatishi mo'g'ullarni holdan toydirdi va G'arbiy Yevropani vayronalikdan qutqarib qoldi. Sharqiy Yevropadagi boshqa xalqlardan chexlar bilan polyaklar tatar-mo'g'ullarga qarshi kurashda juda faollik ko'rsatdilar. 1241-yil aprelda Sileziyaga bostirib kirgan mo'g'ullar Lignis shahariga yaqin joyda birlashgan polyak va nemis ritsar otryadlarini yanchib tashladi. Mo'g'ullar Moraviya territoriyasiga kirdilar. Biroq chex-moraviya ritsarlari Olomous shahri yaqinida (1241-y. iyun) Botuxon qo'shinlarining bir qismini yengdi. Ana shunday tahlika ostida qolgan paytda german imperatori Fridrix II Shtaufen juda passivlik ko'rsatdi. Agar german imperatori mo'g'ullar hujumiga qarshi kurashda Vengriya qiroliga yordam berguday bo'lsa, u (venger qirol) Germaniya imperiyasiga hatto (lennik) vassal bo'lishga roziman deyishiga qaramay, Fridrix II Shtaufen vengerlarga ham, polyaklarga ham hech qanaqa yordam ko'rsatmadi. Imperator Yevropaga qo'rquv solgan mo'g'ul xavf-xatariga qarshi yordam ko'rsatishning biron-bir amaliy tadbirlarini ko'rish o'rniga yevropaliklarning xristian qirollariga va german knyazlariga birgina sirkulator yozish bilangina cheklandi.

30 va 40-yillarda mo'g'ullar butun Kavkazortini – Gruziya, Ruminiya va Ozarbayjonni istilo qildilar. O'rta Osiyoda mo'g'ullarning istilolarini Chingizxonning boshqa nevarasi – Tuluyning o'g'li Xulagu davom ettirdi. Xulagu 50-60-yillarda Eronni, Mesopatamiyani va Suriyani bosib oldi. 1258-yil boshlarida Xulagu Bog'dodni oldi. Bu vaqtga kelib Bog'dodning siyosiy ahamiyati ko'pdan tushib ketgan edi, ammo bu shahar eng katta savdo-sanoat va madaniyat markazi bo'lib qolaverdi. Bog'dodda ko'pdan ko'p muhtasham binolar bor edi. Arab va boshqa Sharq adabiyotining qimmabaho to'plamlari saqlanadigan katta-katta kutubxonalar, shuningdek, badiiy hunarmandchilik asarlarining eng

boy kolleksiyalari Bog'dod shahriga haqiqiy shuhrat bag'ishlagan edi.

Mo'g'ullarning XIII asrdagi istilolari Yevropa va Osiyo tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu istilolar Yevropa tarixida avvalo Rossiyaning ahvoriga ta'sir qildi. Tatar-mo'g'ullar hujumi natijasida Rossiyaning taraqqiyoti to'xtalib qoldi, ammo uning son-sanoqsiz qurbonlari evaziga G'arbiy Yevropa mamlakatlarining osoyishta rivojlanishi ta'minlandi. Biroq mo'g'ullar istilosi natijasida Rus elining iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan tushkunlik yo'qotildi, ruslar mo'g'ullar istibdodini ag'dardilar. Tatar-mo'g'ullarga qarshi kurashda rus milliy hayotining mustahkam markazi – Moskva vujudga keldi. Ammo kurash xalq ommasidan juda ko'p qurbonlar talab qildi. Mo'g'ullar hukmronlik qilgan davrda Rusning qadimgi madaniy markazlaridan – Vizantiyadan va janubiy slavyanlardan aloqasi uzilib qoldi.

Holbuki, Rus ko'p asrlar davomida Vizantiya va janubiy slavyanlar bilan aloqa qilib kelar edi. Shu bilan bir vaqtda, mo'g'ullar hukmronlik qilgan davrda Rus G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan ham normal iqtisodiy va boshqa xil munosabatlarni rivojlantira olmadi, O'rta asrlarning so'nggi davrlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'z ishlab chiqaruvchi kuchlarini birmuncha tez rivojlantirmoqda edi.

Tatar-mo'g'ullar hujumi Vengriya va Polshaning rivojlanishiga ham yomon ta'sir qildi. Bu mamlakatlar mo'g'ullarning hujurnidan Rusga qaraganda beqiyos darajada kam zarar ko'rgan bo'lsalar-da, lekin ular ham zaiflashgan edi. Buning natijasida Vengriya bilan Polsha german feodal-lariga juda qaram bo'lib qoldi, german feodallari Vengriya bilan Polshaning milliy davlat bo'lib yashashiga jiddiy xavf soldilar. Mo'g'ullar istilosi Osiyo mamlakatlari boshiga ham haddan tashqari og'ir musibatlar soldi. Qadimgi iqtisodiy va madaniy markazlar vayron qilindi, irrigatsiya sistemasi buzilib, yaroqsiz holga keltirildi, juda katta mo'g'ullar davlati vujudga kelgan bo'lsa ham, qadimiy savdo yo'llari huvillab qoldi.

Chingizxon vorislari bir dinastiyaga mansub bo'lsa ham, ular bir-birlariga qarshi shiddatli urushlar olib bordi. Chingizxonning o'g'li Uqaday avlodlarini Xulagular batamom qirib bitirdi. Feodal munosabatlur tobora avj olishi munosabati bilan O'rta Osiyoning o'zida tamomila feodal tarqoqlik vujudga keldi.

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Chingizxon vafotidan keyingi mo'g'ullarning ijtimoiy ahvolini aytib bering.
2. Chingizxon hukmronligining Yevropa va Osiyoda tutgan o'rniga baho bering.
3. Chingizxonning nevarasi Xulagu Bog'dodni nechanchi yilda oldi?
4. Mo'g'ullar nechanchi yillarda butun Kavkazortini bosib oldilar?
5. Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi.
6. Chingizxonning bosqinchilik yurishlari.
7. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning asl mohiyati.
8. Chingizxon davrida mo'g'ul imperiyasi.
9. Chingizxon hukmronligi davrida mo'g'ul davlatining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli.
10. Chingizxonning davlatni idora qilish usullarini aytib bering.
11. Chingizxon istilolari nechanchi yillarda olib borilganini ayting.
12. Chingizxon «Ulug' xon» nomini qayerda va qachon oldi?

## **23-MAVZU: YEVROPADA KATOLIK CHERKOVINI ISLOH QILISH HARAKATLARINING BOSHLANISHI. GERMANIYADA REFORMATSIYA VA DEHQONLAR URUSHI**

### **REJA:**

1. XII–XIII asrlarda Chexiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va milliy ziddiyatlarning keskinlashishi.
2. Guschilar olib borgan urushlarning tarixiy ahamiyati.
3. Germaniyada reformatsiya va dehqonlar urushi.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** lexlar, vladiklar, otroklar, panlar, lesi, sedlyaklar, villanlar, barshchina, dedich, renta, «ozod etiluvchi», halupnik, zeman, Yan Gus, panlar, obroch, yepiskop, monastir, Jur yepiskopi, Konstansa yepiskopi, cherkov sobori, guschilar, toboriylar, lipa, chashniklar, podoboylar, «toʻrtta modda», seym, dvoryan, katolik.

**XII–XIII asrlarda Chexiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va milliy ziddiyatlarning keskinlashishi.** X–XI asrlarda uzil-kesil rasmiylikdan Chexiya davlati XII–XIII asrlarga kelib Yevropaning boshqa mamlakatlariga oʻxshash feodal mamlakatga aylandi.

Qirol drujinachilari lexlar va vladiklarning eski zodagon oilalari bilan birlashib, feodal tipidagi katta va ancha mayda yer egalari aylandilar. Ular mamlakatdagi yerlarning katta qismini bosib oldilar. Ularning yer-mulklarida krepostnoylar, birinchi navbatda yer berilgan qullardan tashkil topgan krepostnoylar (otroklar yoki erksiz dehqonlar) ishlardilar. Feodallar dehqon aholisini sud qilish muddaosida qirolidan huquqlar olardilar. Chexiyada oliy tabaqa feodalar, panlar (jupanlar, yaʼni qabila boshliqlari nomidan kelib chiqqan soʻz) quyi tabaqa feodalar – vladiklar deb atalardi. Umuman olganda, panlar-baronlar va vladikalar-ritsarlar imtiyozli toifa – shlyaxtani tashkil qilardilar.

Sobiq erkin jamoachi dehqonlardan chiqqan qaram dehqonlar va qullardan tashkil topgan Chexiyada XIV asr oʻrtasidan boshlangan siyosiy yuksalish mamlakatning iqtisodiy yutuqlarini aks ettiradi. Bu vaqtga kelib Chexiya iqtisodiy jihatdan gʻoyat darajada rivojlangan mamlakat hisoblanardi. Chexlarning kumush konlari, movut toʻqishi, surp sanoa-

ting rivojlanganligi, qishloq xo'jaligidagi yutuqlari mamlakatda dehqonchilikdan tashqari, bog'dorchilik, baliqchilik xo'jaligi, uzumchilik, zig'irchilik, nasha, xmel o'stirish va h.k.lar rivoj topdi. Chexiya qiroli olgan behisob daromadlarni Germaniyaning birorta ham badavlat knyazi ololmasdi. Praga yirik savdo markaziga aylandi. Chexiyaning ko'pdan ko'p boshqa shaharlari u bilan juda yaqindan aloqa qilardilar. Bu shaharlar orasida Brano, Plzen, Xeb, Kutnagora, Lolomous alohida ajralib turardi. XIV asrda Chexiya Germaniya, Polsha, Vengriya, Quyi Dunay bo'yi mamlakatlari, Janubi-g'arbiy Rus bilan keng xalqaro savdosi olib borardi. Mamlakatda tovar-pul xo'jaligi tobora o'sib, u qishloqni ham qamrab olgan edi.

Chexiyada g'oyat darajada keskinlashib ketgan ijtimoiy ziddiyatlar ochiqdan ochiq milliy tusga kira bordi. Chexiya dehqonlari, o'rta va mayda darajadagi shaharliklar, shuningdek, quyi ritsarlar (zemanlar) asosan badavlat nemis sinflarini o'zlarining sinfiy dushmanlari deb bilardilar, chunki Chexiyadagi nemislar bu vaqtga kelib juda katta boylik orttirib, bu mamlakatda katta siyosiy rol o'ynar edilar.

Ruponiya va Praga universitetining professori Yan Gus milliy va diniy-reformatorlik kayfiyatidagi chex jamiyati ilg'or tabaqalarining ifodachisi bo'ldi. Dehqon oilasidan chiqqan Yan Gus 1369-yilda Gusines degan joyda dunyoga keladi. Praga universitetining shogirdi bo'lgan Yan Gus 1398-yilda universitet professori, 1402-yilda esa uning rektori bo'lgan. Yan Gusning g'ayrati tufayli Chexiya qiroli Vaslav 1409-yilda Praga universitetining ustavini o'zgartirib, professor chexlarga universitetni idora qilishda rahbarlik rolini topshirdi. Yan Gusning zamon-doshi, ingliz reformatori Jon Viklefning ta'siri ostida Gusning diniy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari ancha rivoj topdi. Ammo bir qancha masalalarda Gus Viklefdan o'tib ketdi va dadilroq harakat qildi.

Gusning faoliyati Praga arxiyepiskopini, so'ngra esa papa kuriyasini ham unga qarshi oyoqlantirdi. Gusga toat-ibodat qilish man etildi. U professorlik va rektorlik lavozimlaridan ketishga majbur bo'ldi. Segizmunda o'z so'zidan xoinona qaytib, Gusga yordam berishni istamadi. 1413-yilning 6-iyulida Yan Gus Konstans maydonlaridan birida olovda kuydirildi.

**Guschilar olib borgan urushlarning tarixiy ahamiyati.** XV asrning birinchi yarmida kichik bir slavyan mamlakati – Chexiyada bo'lgan hlanib ketgan qudratli sinfiy va xalq ozodlik kurashi feodal Yevropalarga keltirdi. Asoschisi Yan Gus nomi bilan atalgan guschilar harakati avvalo feodal tuzumning eng katta tayanchi – katolik cherkoviga qarshi qaratilgan edi.

XIV asr o'rtalarida chex qiroli Karl I (1346–1378) Muqaddas Rim saltanatining imperatori qilib saylandi. Chexiya saltanatning eng kuchli davlati bo'lib qoldi. Chex qiroli imperator saylash huquqiga ega bo'lgan knyazlar o'rtasida birinchi o'rinni egallagan edi. Karl I urushlardan bo'yintovlasa-da, yer sotib olib, farzandlarini foyda keltiradigan qilib uylantirish va yerga berish bilan chex qirolligining hududini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U yirik feodallarning huquqlarini cheklashga urinmadi, ammo bu ishida jiddiy muvaffaqiyatlar qozona olmadi. Qirol kasb-hunar, konchilik, savdo-sotiq va madaniyatning rivojlanishiga homiylik qildi.

Bu vaqtda Chexiyaning xo'jaligi yuksalib bormoqda edi. Juda ko'p yangi yerlar ochildi. Chexiyani har tomondan o'rab olgan tog'lardan yangidan yangi mis, qalay va ruda konlari topildi. Pul zarb qilinadigan kumush qazib chiqarish bo'yicha Chexiya Yevropada oldingi o'rinlardan biriga chiqib oldi. Shaharlarda hunarmandchilikning turlari bor edi, movut to'qish va shishasozlik shular jumlasidan edi. Yevropaning deyarli markazida joylashgan Chexiyadan muhim savdo yo'llari kesishib o'tardi. Pragada har yili ikki marta katta yarmarka tashkil qilinardi, unga Polsha, Germaniya va Italiyadan savdogarlar kelardi. Karl I davrida saltanatning poytaxti bo'lgan Praga u zamonning katta shaharlaridan bo'lib, unda salkam 40 ming aholi yashardi.

Xo'jalikning yuksalishi xalqqa yengillik keltirmadi. Yirik feodallar parda zeb-ziynat ichida, farog'atda yashar, har xil yo'llar bilan rit-sarlarni qisib, hatto ularning yerlarini ham tortib ola boshladilar. Xonayayron bo'lgan ko'pchilik ritsarlar o'z yurti yoki begona yurtlarda yollanma qo'shinlarda xizmat qilishar, ba'zilar yo'llarda qaroqchilik bilan shug'ullanishardi. Katolik cherkovi Chexiyaning g'oyat katta yer egasi edi. Mamlakatda eng unumdor yerlarning uchdan bir qismi cherkov qo'lida edi. 14 ta shahar, 900 ta qishloq chex cherkovining boshlig'i Praga yepiskopiga qarardi. Ministrlar, ayniqsa, boy edi. Behisob cherkov to'lovlaridan dehqonlar va shaharliklarning tinkasi qurigan edi. Ruhoniyalar Chexiyadan oladigan daromadlarining ancha qismini Rimga yuborardi. Chexiyada katolik cherkoviga qarshi umumiy norozilik tug'ilmog'ida edi. Yepiskop va ministrarning boyligi va yer-mulklari parda va ritsarlarning g'azabini qo'zgar, ular cherkov yerlari hisobiga o'z yer-mulklarini ko'paytirishdan qaytmas edilar.

XV asr boshlarida Praga ko'chalaridan biridagi cherkov juda ko'p odamlarni jalb etardi. Shaharliklar, dehqonlar va ritsarlar bu yerga Praga universiteti professori Yan Gusning otashin nutqlarni eshitgani kelishardi.

Yan Gus (1371–1415) dehqon oilasida tugʻilgan. Isteʼdodli va mehnatsevar yigit universitetda taʼlim olish uchun koʻp mashaqqatlarni boshidan kechirgan. Koʻp oʻtmay Gus professor darajasiga koʻtarilib, chexlar orasida birinchi boʻlib Praga universitetini boshqardi. Yan Gus ruhoniylarning qilmishlarini shafqatsizlik bilan fosh etardi. U Rimda cherkov mansablari pulga sotilayotganligidan gʻazablanib, papani qalloblar piri deb atardi. Gus Chexiyada indulgensiya savdosini qattiq qoralardi: «Bechora kampirning oxirgi chaqasini ham nomunosib ruhoniylar shilib oladi. Shundan keyin bunaqa cherkov xodimini oʻgʻridan ham mugʻombirroq va yovuzroq demay boʻladimi?»

Rim papasi Gusni Germaniya janubidagi Konstansa shahrida majlis qiluvchi oliy ruhoniylar cherkov soboriga chaqirtirdilar. Imperator Gusga himoya yorligʻi bergan boʻlib, bu yorliqda Gus uchun hech qanday xavf-xatar yoʻqligi vaʼda qilingan edi. Gus oʻz qarashlarini himoya qilmoq uchun Konstansaga borishga qaror qildi. Konstansada Gusni zanjirband qilib, zax va sovuq, qorongʻi zindonga tashladilar. U olti oy zindonda yotdi, soʻngra uni sud qildilar. Sobor uni bidʼatchi deb eʼlon qildi va oʻz qarashlaridan voz kechishni talab etdi.

1415-yili Yan Gus oʻtda kuydirildi. U azobli oʻlimni mardonavor kutib oldi.

Gusning qatl qilinishi chex xalqini gʻoyat qattiq gʻazabga keltirdi. Dehqon olomonlari togʻlarga chiqib borib, Gus tarafdorlari boʻlgan xalq vaʼxonlarining nutqlarni eshitardi. Bu nutqlarda chex xalqining dushmanlariga qarshi kurash uchun qurollanishga va har qanday zulmni yoʻqotishga chaqiriq yangrardi. Xalq Gus taʼlimotidan dadil xulosalar chiqardi. Yan Gusning tarafdorlari oʻzlarini guschilar deb ataydigan boʻldi.

1419-yili Pragada qoʻzgʻolon koʻtarildi. Hunarmandlar va kambagʻallar ratusha binosiga bostirib kirib, shaharning manfur hokimlarini derazadan uloqtirib tashladilar. Ular poytaxtdagi hokimiyatni vaqtinchalik qoʻlga olishga muvaffaq boʻldilar.

Chexiyaning janubidagi Tabor togʻi xalq oʻz yigʻinlarini oʻtkazadigan eng yaxshi joy edi. Qoʻzgʻolonchilar ommasi shu yerga kelardi. Ular bu yerda yangi shahar qurib, uni kuchli istehkomlar bilan oʻrab oldilar va shaharni togʻning nomi bilan Tabor deb atadilar. Guschilarning qatʼiyatli qismi taboriylar edilar.

Katolik cherkovi va nemis feodallari Chexiyadagi boyliklardan mahrum boʻlishni istamas edi. Rim papasi guschilarga qarshi salib yurishi eʼlon qildi. Asosan nemis feodallaridan iborat boʻlgan salibchilar

qo'shiniga german imperatori boshchilik qildi. Bu yurishda ko'pgina Yevropa mamlakatlarining ritsarlari va yollanma askarlari qatnashdi.

1420-yili yuz ming asakardan iborat qo'shin Chexiyaga bostirib kirdi. Salibchilar chexlar poytaxtiga bora-borguncha shahar va qishloqlarni yondirdilar, aholini taladilar va o'ldirdilar, qiynoq va azobga soldilar. Salibchilar Pragani qurshab oldilar. Sharqiy darvoza oldidagi tepalikda g'oyat shiddatli jang boshlandi. Bu yerda poytaxt himoyachilariga yordamga kelgan taboriylarning kichik bir qo'shini mustahkamlanib olgan edi.

Feodal armiyalarga qarshi dehqonlar, hunarmandlar va shahar kambag'allaridan iborat xalq qo'shini kurashdi. Salib yurishlari g'alabasidan umidini uzgan papa va imperator mo'tadillar bilan muzokara boshladi. Papa chex feodallari bosib olgan cherkov yerlarini ularning o'zida qoldirishga va'da berdi va Chexiyadagi yangi cherkov tartiblarini tan oldi. Taboriylar bilan urishish uchun mo'tadillar katta qo'shin tuzdi, bu qo'shinning xarajatini papa bilan imperator ko'tardi.

1434-yili Praganing sharqidagi Lipani shaharchasi yonida mo'tadillar taboriylarga hujum qildi. Taboriylarning ayrim otryadlari Lipani mag'lub bo'lguncha harakatlarini davom ettirdilar.

Taboriylar qo'shinining yutuqlari nemis feodallariga dahshat soldi. Guschilar qo'shini ko'chib yuradigan harbiy aravalarning taqir-tuqurigina nemis ritsarlarning tumtaraqay qochishlari uchun kifoya edi. Tabor shahri o'sib, qochoq dehqonlar bilan shahar kambag'allarining ko'plab bu yerga oqib kelishi, demokratik islohotlar o'tkazish kerakligi haqidagi talablar panlarni va boyib ketgan pragalik meshchanlarni qo'rqitib qo'ydi. Bazeldagi cherkov sobori yerlarini qisman seulyarizatsiya qilish (davlat ixtiyoriga olish)ga va diniy urf-odatlariga ba'zi bir o'zgarishlar kiritishga rozilik berib, chashniklarga biroz yon bergandan keyin chashniklar bu takliflarga qattiq yopishib oldilar.

1433-yilda Pragada Praga kompaktarlari nomi ostida alohida kelishuv bitimi tuzildi. Shundan keyin chashniklar nemis feodallariga qarshi kurashni to'xtatib, taboriylarga qarshi kurashish uchun nemis feodallari bilan birlashdilar. 1434-yili Lipani (bu joyning boshqacha nomi – Chexiya kechuvi) yonidagi jangda chashniklar endi nemislar bilan birgalikda taboriylarga qarshi urishdilar. Taboriylar yengildilar. Har ikkala prokop o'ldirildi. Oddiy taboriylarning ko'pi halok bo'ldi. Taboriylar Janubiy Chexiyada bir qancha tayanch punktlariga suyanib turib, shundan keyin ham kurashni davom ettirdilar. Tabor shahri to' 1452-yilgacha qattiq turib berdi, shundan keyin u oxiri chashniklar tomonidan qo'lga olindi va vayron qilib tashlandi.



**Germaniyada reformatsiya va dehqonlar urushi.** Mamlakatning siyosiy tarqoqligi va unda birlikning yo'qligi iqtisodiy jihatdan ham asoslangan edi. Mamlakatdagi hududlar o'rtasida iqtisodiy jihatdan doimiy aloqa bo'lgandagina birlikka erishadi. Bu esa o'z navbatida ichki bozorning rivojlanishiga olib keladi. Ammo bu sharoitlar Germaniyada yo'q edi. Imperiyaning hududlari o'rtasida o'zaro aloqa bo'lmagan, ular o'zlarining mustaqil iqtisodiy hayoti bilan yashar, boshqasining yordamiga muhtoj emas edi.

Germaniyaning shimolida, Boltiq dengizi va bu dengizga quyiladigan daryolar bo'ylab Ganza shaharlari tranzit savdo-sotiq bilan shug'ullangan. XVI asrdan boshlab u ham inqirozga yuz tuta boshlaydi.

Iqtisodiy va madaniy jihatdan eng boy hudud janubi-g'arbiy Germaniya edi. Bu yerdagi shaharlar Augsburg, Nyurnberg, Ulm, Strasburg va boshqa shaharlarda savdo-sotiq rivojlangan. Augsburg savdogarlari va tog' konchilari – fuggerlar katta mablag'ga ega bo'lib, ular Germaniya, Vengriya va uzoq Ispaniyadagi tog'-kon sanoatini o'z qo'llariga olganlar.

Fuggerlar o'z vaqtida Karl V ga katta qarz berib, shuning evaziga Karl Germaniyada imperatorlik taxtiga o'tiradi. Madaniy jihatdan ham janubi-g'arbiy Germaniya Yevropaning rivojlangan hududlaridan hisoblangan. Bu yerda ko'plab universitetlar bo'lib, ko'plab kitoblar nashr etilgan, qadimgi tillar va antik madaniyatni mukammal bilgan nemis olimlarining nomlari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Aynan shu erda, Germaniyaning rivojlangan yerlarida XVI asrga kelib butun Germaniyaning larzaga keltirgan voqealar bo'lib o'tadi. Nemis jamiyatida o'rnatilgan tartiblarga qarshi noroziliklar kuchaymoqda edi.

Shaharlarda ham vaziyat yaxshi emas edi. Hokimiyat patrisiylar qo'liga bo'lib, ular soliqlar og'irligi va harbiy himoyani hunarmandlar, ularning shogirdlari va shahar kambag'allarining bo'yniga tashlab qo'ygan edilar. Fuggerlar butun savdoni o'z qo'liga olishga harakat qilib, bu bilan butun savdogarlar va tadbirkorlarni xonavayron qilar edilar.

Eng og'ir ahvol esa dehqonlarda edi. Dehqonlarni cherkov, dvoryan-senior va hatto shaharlar ham xonavayron qilar edilar. Dehqonlar cherkovga desyatina solig'idan tashqari obrok, barshchina va boshqa soliqlarni ham to'lashga majbur edi. 1476-yil Vyursburg shahri yonida cho'pon va qishloq musiqachisi Gans Begeym hamma tengligi va ruhoniylar va senyorlarning yerlarini tortib olib, ularni kambag'allarga berish haqidagi va'zlarini boshlab yuboradi. Uning va'zlari ko'plab odamlarni yig'a boshladi. Yepiskop uni dahriy sifaida tutishni buyurdi. Uning ustidan sud olib borib, dinsiz sfatida yoqib yuboriladi.

Reformatsiya boshlanishidan oldin mamlakatda quyidagi vaziyat hukmron edi. Agar qirolning mutloq hokimiyati o'rnatilgan boshqa Yevropa davlatlarida papalik hokimiyati ancha chegaralangan bo'lsa, Germaniyada bunday hokimiyat yo'q edi va papa ochko'zligining hech qanday chegarasi yo'q edi. Yepiskop va abbatlar, shuningdek, ko'pgina boshqa ruhoniylar shaharliklar va dehqonlar hisobiga kun ko'rar edilar. Shuning uchun ham jamiyatning hamma tabaqalari cherkovdan norozi edi. Knyaz, dvoryan va shaharliklar boy cherkov yerlariga hasad bilan qarar edilar. Shahar va qishloqlardagi oddiy xalq ham senyorlar singari desyatina solig'ini to'lashga majbur qilgan poplarni ko'rishga ko'zlari yo'q edi.

Katolik cherkoviga norozilik va unga nisbatan salbiy munosabat XVI asrdagi nemis ziyolilari tomonidan bildirila boshlanadi.

Uyg'onish davri va gumanizim Italiya singari Germaniyada ham yutuqlarga erishayotgan edi. Ammo Germaniyada ko'proq siyosat va dinga e'tibor qaratilar edi. Ko'pgina Germaniya universitetlarida professor va studentlardan iborat bo'lgan gumanistlar to'garaklari tashkil etila boshlanadi. Ular o'rta asr sxolastikasi ustidan kulib, katolik cherkovi va uning tashkilotlariga nisbatan tanqidiy fikrlarni bildirganlar.

Shunday to'garaklardan biri «Omi odamlar xati» («Pisma tyomnix lyudey») nomli satirasini chiqarib, unda bema'nigarchilik bilan ahug'ullangan monaxlar, sxolastiklarning yolg'on ta'limoti ustidan kulindi. Bu satira katta muvaffaqiyatga ega bo'lib, shu vaqtdan boshlab dunyoviy bilimlarga qarshi bo'lganlarni «obuskurantlar» (lotincha «omi odamlar») deb atay boshlaydilar.

**Erazm Rotterdamskiy.** Germaniyaning eng yirik gumanistlaridan biri bu Erazm Rotterdamskiy (1467–1536) bo'lgan. U qadimgi tilda gapirishni va ijod qilishni bilgan. U xristian dinining «muqaddas» kitoblarni tanqidiy o'rganish uchun ko'p ishlar olib boradi. Ammo uning bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan muhim asarlaridan biri bu «Ahmoqlikka tasannolar» («Poxvala gluposti») deb nomlanadi. Bu asar bir necha yil ichida 27 marta qayta nashr etilib, ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilingan. Ushbu asarda ko'pgina tartiblar ahmoqlik hukm surgani uchun saqlanib kelinmoqda degan fikr bildiriladi. Ushbu asarda katolik cherkovi va Rim papasi qattiq tanqid ostiga olinadi. Uning fikricha, odamzodning ahmoqliligi tufayligina Rim papasi shu tarzda yashab kelmoqda. Ammo Erazm inqilobchi emas edi. Uning fikricha, islohotni faqat qonuniy hokimiyat amalga oshirishi mumkin bo'lgan. Umrining oxiriga qadar u namunali katolik bo'lib qolgan.

**Ulrix fon Gutten (1488–1523).** Germaniyaning yana bir yirik gumanisti yanada radikalroq edi. Ko'pgina asarlarida ritsar va shoir Ulrix fon Gutten Rimga shafqatsiz urush e'lon qiladi. U reformatsiya tarafiga o'tib, Germaniyaning o'zining asosiy dushmaniga qarshi birlashib, yagona birlashgan davlatga aylanishini orzu qiladi.

**Martin Lyuter (1483–1546).** Lyuter tog' konchisining o'g'li bo'lib, o'ziga to'q oiladan bo'lgan. Otasi unga ta'lim berib, Lyuterning kelajakda huquqshunos bo'lishini xohlagan edi. Ammo Lyuter universitetni tugatib, monastirga boradi. Uni qanday gunohlar uchun odamzodning do'zaxga tushishi o'ylantirar edi. Lyuter monastirda doimiy toat-ibodat olib borib, o'zini qiynagan savollarga javob ola olmaydi. Shundan so'ng u muqaddas kitoblarni o'rgana boshlaydi.

**Tomas Myunser.** Inqilobning rahbari Tomas Myunser edi. U davrda inqilobiy g'oyalar ham diniy shaklda bo'lgan. Feodallarga qarshi urush olib borganlar, adolat o'rnatilishiga ishonib, tenglik davri, ya'ni boy va kabag'allarning bo'lmasligiga ishonganlar. Myunser ham shunday jamiyatni orzu qilar edi. 1521-yilda Myunser Svikkau shahrining ruhoniysi bo'ladi. Myunser endi o'z nutqlarida nafaqat poplarga, balki knyazlar, dvoryanlar va shaharliklarga qarshi chiqa boshladi.

1522-yilda Frans fon Zikkingen va Ulrix fon Gutten boshchiligidan ritsarlar qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Xonavayron bo'lgan ritsarlar o'z ishlarini cherkov boyligini talash evaziga to'g'irlamoqchi bo'ladilar. Ammo bu qo'zg'olon shahar va qishloqlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ulrix fon Zikkingen qamalda yaralanib halok bo'ladi. Ulrix fon Gutten Shveysariyaga qochib ketib, o'sha yerda vafot etadi (1523-y).

**Dehqonlar urushi.** Ritsarlar qo'zg'oloni tugatilmasdan, Germaniyada buyuk dehqonlar urushi deb nom olgan dehqonlar qo'zg'oloni boshlanib ketadi (1524–1525).

Birinchi bo'lib Shvabiyada qo'zg'olon ko'tariladi. 1525-yilning boshida qo'zg'olon ko'targan dehqonlar «XII modda» deb nomlangan hujjatda senyorlarga o'z talablarni qo'yadilar. Bu hujjat butun Germaniya bo'ylab tarqalib ketadi.

**Frankoniya rayoni.** Inqilobiy harakatlar shimolga yoyila boshladi. Frankoniyada dehqonlarga byurgerlar va mayda ritsarlar qo'shiladilar. Ular yuzlab cherkov va monastirlarni vayronaga aylantirib, Geylborn shahrini egallaydilar. Bu yerda Geylborn programmasi tuziladi. Bu programmada butun Germaniyani birlashtirish, yagona o'lchov, og'irlik, pul birliklarini joriy qilish, knyaz va senyorlar hokimiyatini kamaytirish, burjuaziyani rivojlantirish va kuchaytirilish borasida zarur bo'lgan

choralar olib borilishi haqida talablar qo'yiladi. Dehqonlar talabi oxirgi o'ringa tushadi.

**Tyuring-Saksoniya rayoni.** Dehqonlar qo'zg'olonining eng inqilobiy tus olgan hududi bu Tyuringiya-Saksoniya hududi bo'lib, ularga Tomas Myunser rahbarlik qilgan. Inqilob markazi Myulgauzen shahri bo'lgan. Uning boshchiligida bu shahardagi «Umrboqiy kengash» («Vechniy sovet») turgan.

1525-yil aprel-may oyida butun janubi-g'arbiy Germaniyani dehqonlar qo'zg'oloni qamrab oladi. Ammo qo'zg'olonlar o'rtasida aloqa yo'qligi, ularning yaxshi qurollanmaganligi, tajribasizligi tufayli bu qo'zg'olon bostiriladi. 1525-yilda Tomas Myunser asirga olinadi va kallasidan judo qilinadi. Qo'zg'alonda 100 mingdan ortiq dehqonlar halok bo'ladi, minglab qishloqlar yoqib yuboriladi. Lyuter ham knyaz va senyorlar tomoniga o'tib, «dehqonlarni quturgan itlar singari urish, bo'g'ish va so'yish kerak» deydi.

Bu qo'zg'olonda knyazlar va shahar patrisiylari yutib chiqdilar. Dehqonlarning ahvoli yanada yomonlashdi. Shu vaqtdan boshlab Germaniya XVI–XVII aslarda xalqaro aloqalarda hech qanday rol o'ynamay qo'yadi.

**Myunster qo'zg'oloni.** Dehqonlar qo'zg'olonining oxirgi aks sadosi bu anabaptistlar, hunarmandlar va kambag'allarning Myunster shahridagi 1534–1535-yillardagi qo'zg'oloni bo'ldi. Ular shahardagi knyaz va yepiskopni haydab chiqarib, hokimyatni o'z qo'llariga oladilar.

**Knyazlar reformatsiyasi.** Dehqonlar qo'zg'olonining bostirilishi birinchi navbatda knyazlarga foyda keltirdi. Ruhoniylarning yerlari sekulyarizatsiya qilinib, knyazlar qo'lga o'ta boshlaydi. Ruhoniy knyazlar o'z lavozimlaridan voz kechib, dunyoviy kishilarga aylana boshladilar. Masalan, shunday siyosatni Tevton ordeni grossmeystri olib borib, Prussiya gersogi titulini oldi (1525). Ko'pchilikni tashkil qilgan katolik knyazlari 1529-yil Shpeyr reyxstagida qolgan knyazlardan «adabiylik»da voz kechishni talab qiladilar. Kamchilik, 14 ta shahar vakili va 6 ta knyaz bunga qarshi chiqib, bu masalani ovoz berish yo'li bilan hal qilib bo'lmaydi degan fikr bildiradilar.

XVI asrning 30–40-yillarida protestantizm katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Karl V bu vaqtda fransuzlar va turklar bilan urush olib borib, Germaniyada kamdan kam bo'lar edi. U ko'pchilik kurfyurstlarning protestantizmga o'tib ketishidan va gabsburglar sulolasi qirollik tojidan aytilib qolishidan qo'rqib qoladi. Shuning uchun u bir nechta g'alabalarga qaramasdan, 1544-yilda qirol Fransisk I bilan tinchlik sulhini

tuzib, Germaniyaga keladi. U protestant knyazlariga qarshi urush olib borib, ularning bir nechtasini asirga oladi. Shundan so'ng nemis knyazlari vahimaga tushib qoladilar. Agar vaziyat shunday davom etadigan bo'lsa, ular o'z hokimyatini yo'qotishlari mumkin edi. Shuning uchun imperatorga qarshi protestant knyazlari bilan birga katolik knyazlari ham qarshi chiqdilar. Ular yangi fransuz qirolu Genrix II bilan ittifoq tuzib, yordam evaziga bir nechta imperiya shaharlari (Mes, Tul va Verdun) ni va'da beradilar. Karl V qo'shini yakson qilinib, uning o'zi asirlikka tushushiga sal qoladi. Karl Germaniyani tashlab ketib, taxtdan voz kechishga majbur bo'ladi. Germaniya taxtiga uning ukasi Ferdinand I o'tirib, u 1555-yil Augsburg shahrida knyazlar bilan shartnoma tuzadi. Augsburg tinchlik shartnomasiga ko'ra katolik va protestantlik mazhablarining mavqeyi tenglashtiriladi. Knyazlar qaysi mazhabda bo'lsalar, ularning qo'l ostidagilar ham shu mazhabni qabul qilishlari kerak edi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Chexiya davlati nechanchi asrlarda rasmiylashgan?
2. Yan Gus qanday oiladan kelib chiqqan edi?
3. «Halupnik» deb kimlarga aytishadi?

## 24-MAVZU: XI–XV ASRLARDA VENGGRIYA

### REJA:

1. Vengriya davlatining tashkil topishi va feodallashish jarayoni.
2. 1222-yilgi Oltin bulla hamda mo'g'ul-tatarlar bosqini oqibatlari.
3. XIV–XV asrlarda Vengriya ijtimoiy-siyosiy ahvoli.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** mojarlar, arpadlar urugʻi, feodallashish jarayoni, Vengriya mulklari, Oltin bulla, mo'g'ul-tatarlar hujumi, Anjuy sulolasi, «Ulugʻ Vengriya», Yagellolar sulolasi, kuruslar qoʻzgʻoloni.

**Vengriya davlatining tashkil topishi va feodallashish jarayoni.** Vengriya davlati IX asr oxirida Janubi-sharqiy Yevropada tashkil topdi. Vengerlar yoki mojarlar fin-ugor til guruhiga mansub xalq boʻlib, ular Sharqdan, Azov dengizi boʻyi – Don dashtlaridan Dunay daryosi boʻyiga kelganlar (ilgari ular undan ham naribroqda, janubiy Ural togʻ etaklarida yashaganlar). Oʻsha vaqtda vengerlar hali koʻchmanchi chorvadorlar boʻlib, urugʻ-qabilachilik hayotining xususiyatlarini juda ravshan saqlab qolganlar. Vengerlar yetti qabilaga (yoki oʻrdaga) boʻlinganlar, qabilalari esa urugʻlarga taqsimlangan (jami boʻlib 108 urugʻ mavjud boʻlgan). Vengerlarning hayot tarzi koʻproq osiyolik koʻchmanchilarning hayotini eslatib turadi. Goʻsht bilan sut ularning asosiy taomi boʻlgan. Koʻpchilik erkaklar oʻz umrini chavandozlikda oʻtkazgan. Turli qabilalarning boshliqlari orasida Almosh va Arpad, ayiqqa, ajralib turganlar, ular rahbarligida vengerlar oʻrta Dunay territoriyasini, yaʼni qadimiy Pannoniya bilan Tissa daryosi rayonini istilo qilganlar. Vengerlar turli qabilalardan tashkil topgan mahalliy aholini qabul qilganlar yoki oʻzlariga qaram qilib olganlar, bu aholi esa germanlashgan keltlar, romanlashgan daklar, turli slavyan qabilalari va boshqalardan iborat boʻlgan.

Vengerlar X asr mobaynida garchi dehqonchilik qilishga koʻchgan boʻlsa-da, lekin chorvachilik bilan ham keng miqyosda shugʻullanganlar. Ularning harbiy tuzumi ham rivojlanib borgan. Venger otliqlari oʻzlarining hujumlari bilan Gʻarbiy Yevropada barchaga dahshat solganlar. Vengerlar Shimoliy Italiyani, Provansni, Sharqiy Fransiyaning janubiy va Gʻarbiy Germaniyaning payhon qilganlar va talaganlar. Balkaniya dinastiysiga mansub nemis qirollari – Genrix I Kushvoz

va Otton I gina vengerlarni yanchishga muyassar bo'lganlar (bu janglar 933–955-yillarda Merzuburg shahri yonida va Lex daryosi bo'yida bo'lgan). Shundan so'ng vengerlar g'arbda hujumlar qilishni to'xtatib, o'troqlikka o'tganlar va ular orasiga xristianlik kira boshlagan. Vengerlar mahalliy slavyanlardan dehqonchilik texnikasini, uy hayvonlari urchitishni, dehqon kuralari qurishni va donli ekinlar ekishni o'rganib olib, zo'r berib dehqonchilik qiladigan bo'lganlar. Slavyanlarning uy hayotiga, dehqonchilikka, bog'dorchilikka, polizchilikka, hunarmandchilikka, oilaviy hayotga va jamoat tartiblariga oid ko'pgina so'zlari venger tiliga kelib kirgan. XI–XII asrlarda vengerlar feodal munosabatlari rivojlangan, qisman bunga sabab vengerlar bilan asta-sekin qo'shilishib ketgan mahalliy slavyanlar ijtimoiy tuzumining bevosita ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan, G'arbiy Yevropa feodalazimning, xususan, german feodallarining ham qisman ta'sir ko'rsatganligidir.

Vengriyaning Arpadlar urug'idan chiqqan bosh knyazi Stefan I (vengrcha Ishtvan, 997–1038) qariyb 1000-yilda papadan qirollik titulinini oldi. Stefan davrida xristianlik uzil-kesil davlat dini deb e'lon qilindi. Mamlakat ma'muriy okruglarga (komitetlarga, ya'ni graffiklarga) bo'linib, bu okruglar tepasida ishpanlar (slavyanacha «jupan» so'zining o'zgargani) turardilar. Ispan lashkar chaqirar, qirollik foydasiga soliqlar to'lar va sud ishlarini bajarardi. Butun Vengriya bo'ylab ko'pdan-ko'p qasrlar qurildi; odatda eng yirik qasrlar ishpanining rezidensiyasi bo'lib ham xizmat qilardi. Bunday qasrlarning bir qismi tez orada shaharlarga aylandi.

XII–XIII asrlarda Vengriya batamom feodal davlatga aylandi. Shu-nisi xarakterliki, faqat quyi xalq ommasigina emas, balki eski patriarxal-urug'chilik an'alaridan hali qutulib yetmay, ular bilan darhol aloqasini uzmagani venger aristokratiyasining bir qismi ham feodalizm-ga nisbatan uzoq vaqtgacha keskin oppozitsiyada bo'ldi. Feodalizm-ga qarshi bo'lgan norozilik bir qancha qo'zg'olonlar va o'zaro urushlarda yaqqol ifodalandi, XI asr mobaynida Vengriyada yangi, xristian dimga qarshi eski, majusiylilik dinini quvvatlash uchun kurash bayrog'i o'tgan edi. Faqat XI asr oxiriga kelib katolik cherkovi G'arbiy Yevropaga nisbatan chekka o'lka hisoblangan va etnik tarkibi jihatidan unga yot bo'lgan bu qirollikda, nihoyat, o'z mavqeyini mustahkamlab oldi.

Yevropa feodallarining siyosiy ko'magiga muhtoj bo'lgan venger qirollari faqat nemis ruhoniylarigina emas, balki nemis ritsarlarini ham xizmatga tortib, ularning har ikkalasiga katta-katta yerlar in'om qildi. XII–XIII asrlarda Dunay va Tissa daryolarining eng unumdor tekisi

klarida venger zodagonlari, ya'ni venger baronlari va yepiskoplarining ko'pdan ko'p yirik pomestiyelari, shuningdek, mayda ritsarlarning juda ko'p mulklari vujudga keltirildi. Franklarda bir vaqtlar graf mansabi bo'lganidek, vengerlarda ishpan mansabi ham feodallasha bordi. Bu mansab vorisdan vorisga o'tadigan bo'ldi. Bu mansab bilan aloqador yerlar feodal-magnatlarning meros yerlariga aylandi. Vengerlarning ko'p sonli urushlari mahalida boshqa yurtlardan haydab olib kelingan, deyarli qullardan tashkil topgan krepostnoy dehqonlar safi, endilikda, sonavayron bo'lgan erkin venger jamoatchi dehqonlar hisobidan tobora ko'proq to'ldirila bordi. Feodallar o'zlariga qarashli unumdor yerlardan mumkin qadar qulayroq foydalanishga intilishlari munosabatlari bilan Vengriya krepostnoy huquq, ayniqsa, shafqatsizlik bilan ekspluatatsiya qiladigan bir mamlakatga aylandi.

Yevropadagi juda ko'p salib yurishlarida qatnashgan, Sharqqa Vengriya orqali o'tgan salibchilar o'z tomonlaridan Vengriyaning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga yordam qildilar. Vengriyada shaharlar va hunarmandlik rivojlandi. Venger bug'doyi, chorvasi, go'shti va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'plab va foydali narxlarda sotiladigan bo'ldi. Ularning hammasi krepostnoy zulmini kuchaytirishga va krepostnoylar sonini ko'paytirishga olib keldi. Bu davr ichida Vengriya o'z mulklarini ancha kengaytirdi. Vengriyaning o'ziga qarashli asosiy mulklar yonida sharqda – Transilvaniya va Zakarpatiya Rusi, janubda – Xorvatiya va Dalmasiya, so'ngra Bosniya ham qo'shib olindi. Vengriya Adriatika dengiziga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Vengriya qirollari Bolqon yarim oroli ishlariga aralashadigan bo'lib qoldilar. Venetsiya va Vizantiya bilan olib borilgan davomli urushlar Vengriyaning deyarli butun ana shu davrdagi tashqi siyosatini xarakterlab beradi. XIII asrda Vengriya Sharqqa qilingan salib yurishlarida (beshinchi salib yurishida) faol qatnashdi.

Ayni zamonda venger qirollari qo'shni Galich-Volin knyazligini egallashga harakat qildilar (venger yilnomalarida – Lodomeriya deyiladi, bu rus shahari Vladimir Volinskiy degan nomdan kelib chiqqan).

**1222-yilgi Oltin bulla hamda mo'g'ul-tatarlar bosqini oqibatlar.** Venger qirollarining harbiy sohada erishgan yutuqlariga qaramay (shu bilan birga, bir qancha katta-katta muvaffaqiyasizliklar ham bo'lgan edi), feodal tuzum mustahkamlana borishi va yirik yer egaligi ta'ntana qilishi bilan ularning mamlakat ichkarisidagi hokimiyati juda zaiflashib qolgan edi. Qirol Andrey II ning Sharqqa qilgan muvaffaqiyatsiz yurishlari (beshinchi salib yurishi paytida) va Galich-Volin knyazligi bilan bo'lgan kurashda yengilishi ritsarlarning va yirik feodal



baronlarining katta bir qismining qirolga qarshi qo'zg'olon ko'tarishiga olib keldi. Qo'zg'olon ko'targan feodallarga taslim bo'lishiga majbur bo'lgan Andrey II (bu vaqtda mamlakatning bir qancha joylarida dehqonlar ham bosh ko'tarib chiqqan edilar) 1222-yilgi muhim bir siyosiy hujjatga imzo chekdi. Bu siyosiy hujjat – Oltin bulla nomi bilan mashhur bo'lgan hujjat edi.

Angliyada Buyuk erkinliklar xartiyasi chiqarilgandan keyin, oradan ozgina vaqt o'tgach, paydo bo'lgan Oltin bulla umuman feodallarning o'sha avvalgi tendensiyasini aks ettirdi, ya'ni unda feodallarning toifaviy huquq va imtiyozlarini yuridik tomondan mustahkamlash, qirol hokimiyati ustidan doimiy nazoratni ta'minlagan, agar qirol bergan va'dalariga rioya qilmaguday bo'lsa, unga qarshi feodal urushi boshlashgacha bo'lgan huquq ko'rsatilgan edi. 1215-yilgi ingliz baronlariga va 1454-yilgi polyak panlariga o'xshash venger magnatlari ba'zi bir bandlarda ritsarlarga ancha-muncha yon bergan edilar. Ritsarlar mahalliy o'zini-o'zi idora qilish boshqarmasida («komintat jamoasi»)da ancha ta'sirga ega bo'ldilar; ritsarlarning bevosita boshliqlari bo'lmish ishpanlarning huquqlari cheklab qo'yildi, ritsarlar soliqlardan ozod qilindilar, ularning yerlari esa meros yerlar deb tan olinadigan bo'ldi. Har yilgi yig'ilishi lozim bo'lgan Vengriya seymida ritsarlar ham qatnashadigan bo'ldilar, qatnashganda ham cheklanmagan miqdorda vakillar yubora olardilar.

Biroq zodagonlar mayda feodallarga bunchalik yon bersalar-da, lekin ular qirollikning siyosiy ishlarida o'zlarining asosiy rahbarlik ta'sirlarini aslo qo'ldan chiqarib yubormadilar. Bu vaqtga kelib komitetlarda harbiy xizmat o'tovchi Vengriyaning qolgan-qutgan erkin dehqonlari harakati Oltin bullada bir qator o'z ifodasini topgan edi. Bular aholining ushbu kategoriyasining shaxsiy erkinligini saqlab qolishga va ishpanlar zulmidan ularni himoya qilishga va'da bergan edi. Ammo mamlakat asosiy ahvoli ommasining, ya'ni krepostnoy dehqonlarning ahvoli masalasida bullada lom-mim deyilmagan edi. Shu bilan bir vaqtda Oltin bulla xuddi shu vaqtda hali zaif rivojlangan va aholisining ko'prog'i ajnabiylardan – nemislardan, qisman italyanlardan iborat bo'lgan shaharlarga hech qanaqa yon bermagan edi. Uning bu masaladagi tor dvo-ryanlik xarakteri polyaklarning Neshava statutlari mazmuniga bus-bütün to'g'ri keladi. Polshada bo'lgani singari, Vengriya seymi dehqonlar ham, shuningdek, shaharliklar ham qatnashmaydigan feodallarning tor doiradagi toifaviy bir yig'ini bo'lib qolaveradi. 1240–1241-yillarda Vengriya katta ofatni boshidan kechirdi. Kiyevni istilo etgandan keyin

Botu 1240-yil oxirida juda katta lashkar bilan Vengriyaga bostirib kirdi. Sayo daryosi bo'yida (uning Tissaga quyiladigan joyida) Botu vengerning ancha katta qo'shinini tor-mor qildi. Shundan keyin o'sha mahlulda Vengriyaning eng yirik shaharlari hisoblangan Pesht bilan Granmo'g'ullar tomonidan talandi va shaharga o't qo'yib yuborildi. Qirol Bela IV saroy a'yonlari va qolgan-qutgan qo'shini bilan Dalmasiyaga yashirindi. Ammo Botu Vengriyada uzoq vaqt qololmadi. Ruslarning tatarlar hukmronligiga qarshilik ko'rsatishi uning kuchlarni bo'lib tashlamay, balki ularni rus yerlariga qarshi faqat Sharqiy Yevropada bir joyga yig'ishga majbur etdi.

Mo'g'ul-tatarlar hujumi qisqa vaqt davom etgan bo'lishiga qaramay, Vengriyaga katta ziyon-zahmat yetkazdi. Tatarlar ketgandan keyin mamlakatning katta qismi batamom cho'l-u biyobonga aylandi. «Sayyoh otda ikki hafta yo'l yursa ham, biror-bir qimirlagan jonni uchrata olmasdi», deb yozgan edi o'sha zamondagi voqeanavislardan biri. Vengriyada mo'g'ul-tatarlar ijtimoiy oqibatlarini, bir tomondan, venger dehqonlarining yana ko'proq xonavayron bo'lishi va qullik asoratiga tushirilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, nemis kolonizatsiyasining kuchayishi bo'ldi (bu hol bungacha davom qilgan bo'lsa-da, lekin endilikda u yanada ildiz oldi). Ko'proq Bavariyadan, qisman Saksoniyadan ko'chib kelgan nemis muhojirlari Vengriyada bo'sh yotgan katta-katta yerlarni egalladilar. Nemis kolonistlarining ko'plari Transilvaniya tog' etaklariga ko'chib kelib o'rnatilib, u yerda turli xil rudalar (ayniqsa, kumush) qazib chiqarish ishlariga yordam berdilar. Biz Chexiyada va Polshada ko'rganimizdek, Vengriyadagi nemis kolonizatsiyasi ham o'zi bilan birga xuddi o'shanday satarli oqibatlarga olib keldi. Vengriya yosh nemis yoki yarim nemis aholisi istiqomat qilinadigan shaharga ega bo'ldi. Vengriya aholisi etnik jihatdan ancha o'troqlashdi, xususan, Transilvaniyada to'plangan nemis kolonistlari konchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlarini o'z qo'llariga kiritib oldilar. Bu hol Vengriyada uchinchi (shahar) toifasining shakllanish jarayonini yanda ko'proq to'xtatib qo'ydi, venger feodallarining siyosiy zo'ravonligini abadiylashtirdi.

**XIV-XV asrlarda Vengriya ijtimoiy-siyosiy ahvoli.** Vengriyada Anjularning mahalliy dinastiyasi 1301-yilga kelib Italiya – Vijuy dinastiyasiga mansub Karl Robertning taxt vorisi Ludovik Anjuyskiy (vengercha Layosh) davrida (1342-1382) yangi dinastiya, ayniqsa, qudrati bo'lib ketdi. Ludovik bir qancha vaqt Polsha taxtini (1370-yildan) ham egallab turdi. Anjuy dinastiyasi zamonida Vengriya xo'jalik sohasida bir qancha yutuqlarga erishdi. Qimmatbaho metallar – kumush va

oltin qazib chiqarish ko'paydi, avvalgi shaharlar o'sdi va ko'pgina shaharlar bunyodga keltirildi, bu shaharlarning bir qismi keyinchalik ancha katta sanoat va savdo markazlariga aylandi. Dunay daryosining har ikkala qirg'og'ida yirik shahar – Pesht va Buda – o'zining kattaligi va aholisining gavjumligi bilan o'sha mahallardayoq bu yerga kelgan sayyohlarni hayratda qoldirgan edi. Transilvaniya shaharlari (Semigrade) kon sanoatining muhim markazlari edi. Mamlakatni Markaziy, Sharqiy va Janubiy Yevropa bilan bog'laydigan keng tranzit savdosi Vengriya orqali o'tar edi. Qimmatbaho metallar qazib olish, shaharlarning o'sishi va shu munosabat bilan davlat moliya ishlarining mustahkamlanishi Anjuy dinastiyasiga o'z hokimyatlarini kuchaytirish imkoniyatini berdi. Qirollar seymnlarni chairmay qo'ydilar va o'z amaldorlarining hokimyatini kuchraytirdilar. Biroq 1351-yili Ludovik Oltin bullaning dvoryanlarining seymnlarni chaqirish haqidagi moddasini tasdiqlashi lozim bo'ldi. Vengriyadagi yerlarning egalari birgina dvoryanlarning o'zlari bo'lishlari mumkin, degan dekret chiqardi. Dvoryanlarning yerlari davlat qaramog'iga olinmasin, deb e'lon qilindi. Dehqonlarga yer egalarining ruxsatisiz bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tish man etildi. Anjuy dinastiyasi davrida Vengriya qo'shni mamlakatlarga o'z ta'sirini kuchaytirdi. Ludovik zamonida Vengriya bilan dinastik unsiyatda bo'lgan Polshaga ta'sir qilishdan tashqari, Vengriya XIV asrda Serbiyaning bir qismini (Dunay bo'yini yoki Quyi Serbiyani) o'ziga qaram qilib oldi. Shuningdek, Moldaviya va Volaxiyani protektorat huquqlarida egalladi, (keyinchalik, ya'ni XIX asrda bu ikki knyazlikdan hozirgi Ruminiya tashkil topdi). Ludovik Italiya mulklarini ham Vengriyaga qo'shib olishni xayol qilar edi. Italiya mulklarini o'sha Anjuy dinastiyasi vakillari idora qilar edilar. Shu maqsadda u Italiyaga ikki marta yurish qildi, lekin har ikkala yurish ham yaxshi chiqmadi. «Ulug' Vengriya» haqidagi xayol amalga oshmasdan qoldi. Aksincha, Ludovik vafot etgandan keyin uning mulklari tez tarqalib keta boshladi. Vengerlarning o'zlari ozchilik bo'lgan turli qabila xalqlaridan tashkil topgan, shahar savdosi va sanoati ba'zi bir yutuqlarga erishgan bo'lishiga qaramay, umuman, tipik dehqonchilik mamlakati holatida qolib kelgan (sanoat umuman zaif rivojlangan edi), lekin hokimyatni feodallar monopoliya qilib olgan Vengriya uzoq vaqtgacha katta va siyosiy jihatdan kuchli davlat bo'lib qola olmadi. Uning yuksalishi muvaqqat xarakterga ega edi. Xalqaro vaziyat yomonlashishi bilan (Polshaning Vengriyadan ajralib chiqishi, turklarning Bolqon yarim orolidagi muvaffaqiyatlari, butun Adriatika dengizi sohilini egallashga va jumladan,

Delmasiya shaharlarini bosib olishga harakat qilgan Venetsiya Respublikasi bilan munosabatlarning keskinlashishi) Vengriya ahvolini shu qadar xavf-xatarga solib qo'ydiki, u asl Venger yerlarini ajnabiylar hujumidan mudofaa qilishi lozim edi. Vengriyaga turklar dahshati xavf-xatar solib turardilar, pirovardida vengerlar bu xavf-xatarni bartaraf qila olmadilar. Venger feodallari turklar bilan to'qnashish muqarrarligiga ko'zlari yetib, ular 1382-yili Karl IVning kenja o'g'li Sigizmundni Vengriya qiroli deb tan oldilar (Sigizmund Ludovikning qizi Mariyaga uylangan edi). Keyinchalik Germaniya imperatori qilib saylangan, shuningdek, Chexiya toj-taxtiga ko'z olaytirgan Sigizmund o'z qo'lida juda ko'p moddiy resurslarni birlashtirdi. U turklarga zarba bera oladiganday bo'lib ko'rindi. Biroq 1396-yili turklarga qarshi yurish muvafaqqiyatsiz bo'lib chiqdi. Birlashgan nemis, venger, chex va fransuz qo'shinlari Nikopol yonida tor-mor etildi. Sigizmundning o'zi arang qutuldi, u Italiya orqali aylanma yo'llar bilan uyiga qaytdi.

XV asr mobaynida venger zodagonlari dinastiyani bir necha marta almashitirdilar. Toj-taxt goh nemis Gabsburglariga, goh polyak Yagollo-lariga o'tdi. Masalan, 1443-yilda venger taxtiga polyak qiroli Vladislav III taktif etildi, u birlashgan polyak-venger qo'shini bilan 1444-yilda turklarga qarshi yurish qildi. XV asrning ikkinchi yarmida Yanosh Xuniadaning o'g'li mahalliy feodal Matvey (Matyash) Korvin (1458–1490) qiroli qilib saylandi. Yanosh Xuniada esa turklar ustidan qilgan g'alabalari bilan shuhrat qozongan edi. Matvey Korvin biroz vaqt qiroli hokimiyatining obro'-e'tiborini kuchaytirdi. O'rta va mayda ritsarlarga tayangan va shaharlarni qo'llab-quvvatlagan (uning davrida shaharlar neym tarkibiga kiritilgan edi) Matvey zodagonlarining behuda harakatlarni bir qadar cheklab qo'ygan edi. U nemis Gabsburglari bilan muvafaqqiyatli urushlar olib bordi va janubiy chegaralarni turklardan puxta mudofaa qildi. Matvey Korvin davrida vengerlarda gusarlardan iborat yangi qur'langan maxsus otliq qo'shin tashkil etildi, gusarlar qirolning mudofaa ravishda maosh olib turardilar. Guschilar jangda chaqqon harakatlari va mardona hujum qilishlari bilan boshqalardan farq qilardilar. Ammo qiroli hokimiyati vaqtincha mustahkamlangan edi. Yagellolar dinastiyasiga mansub bo'lgan bundan keyingi qirollar, ya'ni Vladislav va Ludovik II zamonlarida zodagonlar hokimiyatni yana o'z qo'llariga kiritib oldilar va ular Vengriya davlati uchun tamomila halokatli siyosat olib bordilar hamda bu siyosat tezda Vengriya mustaqilligini yo'qotishga olib keldi. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida venger dvoryanlari juda ko'p yersizuvga, ko'pdan ko'p qasr va shaharlarga ega edilar. 46

ta qoʻmitada 469 shaxsiy qasr, 16056 pomestyelar bor edi. Baʼzi magnatlarning har biri yuzlab pomestyega xoʻjayinlik qilar edi. Masalan, Papollar xonadonining 25 ta okrug qoʻmitada pomestyesi bor edi. Bu xonadonga 12308 dehqon hovlisi qarardi. Ikkinchi bir feodalning 28 ta qasri, 57 ta shahri va 1000 ta pomestyesi boʻlardir (bularning bir qismi Zakarpatyeda edi). Krepostnoy dehqonlar gʻoyat rahmsizlik bilan eksploatatsiya qilinardilar. Krepostnoy dehqonlar 3-4 kunlik barshchinadan tashqari, ikki desyatinya – biri cherkov foydasiga, ikkinchi yer egasi – feodal foydasiga toʻlashlari lozim edi. Bundan tashqari, dehqonlar davlat soliqlari toʻlardilar. Venger dehqonlarining oʻz xoʻjayinlariga gʻoyat nafrat bilan qarashlari bejiz emas, albatta. Dehqonlarning mamlakat chekkalariga koʻchib ketishi vaziyatni biroz yumshatdi. Ammo turklarning siqib kelishi dehqonlarni bu imkoniyatdan ham mahrum qildi. 1514-yilda Vengriyada dehqonlar urushi boshlanib ketdi, bu urush Vengriyada sotsial ziddiyatlar naqadar keskinlashib ketganligini hamma tomonlama namoyon qildi.

1514-yilning bahorida papa Lev X turklarga qarshi navbatdagi salib yurishini eʼlon qildi. Papa legati salibchilarni toʻplashga kirishdi. Vengriyadagi magnatlar bu yurishga qarshi boʻldilar, ammo boshda pana bullasiga qarshi chiqa olmadilar. Chunki Rim kuriyasining fikricha, yurish umumxarakterga ega boʻlib, salibchilar lashkarlariga dehqonlarni ham jalb qila boshladilar. Bu yurishda qatnashmoq uchun 40 mingga yaqin dehqon toʻplandi (baʼzi bir tarixiy maʼlumotlarda – 60 mingga yaqin edi, deyiladi.) Dehqonlarga sekler Georg (Derd) Doja boshchilik qildi. Salibchi dehqonlar (kuruslar) qurollangan boʻlib, ular oʻz harbiy tashkilotlariga ega edilar. Krepostnoylar turklarga qarshi yurishga joʻnar ekanlar, oʻzlarining shaxsan ozod boʻlishlariga qattiq umid bogʻlagan edilar. Feodallar esa bunga norozi boʻldilar. Feodallar ishchi kuchi yetishmasligini payqaganlaridan keyin, ular tez orada qirol Vladislavning krepostnoylarning yurishda qatnashishini man etish va harbiy otryadlarga kirgan krepostnoylarni pomestyelarga qaytarish haqida farmon chiqarishga erishdilar. Bunga javoban kuruslar magnatlarning pomestyelarini yakson qila boshladilar. Shuningdek, Buda va Peshtdagi shahar boylıklarining kuralari ham vayron qilib tashlandi. Qoʻzgʻolon 1514-yil 14-mayda boshlandi. Tez orada bu qoʻzgʻolon feodallarga qarshi muntazam dehqonlar urushlariga aylandi. Doja turli yoqlarga alohida komandirlar boshchiligida dehqonlarning beshta kollonasini yubordi. Dojaning oʻzi Budapeshtga yaqin Rakosha maydoniga lager qurib joylashdi, keyin Vengriyaning janubidagi Segedin qalʼasiga joʻnab ketdi.

Ammo Segedin qal'asi juda mustahkamlangani sababli, u bu qal'ani ololmadi. Buning o'rniga Doja Chandu (Chan) shahrini bosib olishga muvaffaq bo'ldi. Bu yerda Doja Vengriyani Respublika deb e'lon qildi, dvoryanlar toifasi bekor qilinganligini va yalpi tenglik barpo etilganini e'lon qildi. Biroq Doja boshqa bir qal'ani, ya'ni feodallar armiyasining bosh qo'mondoni Stefan Batori turgan Temeshvarni qamal qilishga kirishgan paytida qo'zg'olonchilar yana muvafaqqiyatsizlikka uchradilar. Qo'zg'olonchilar deyarli ikki oygacha qal'ani qamal qilib tursalar-da, lekin uni qo'lga ololmadilar. Dehqonlar armiyasining bu harbiy-texnikaviy nuqsonidan, tabiiy, feodallar o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildilar. Temeshvarga yordamga yetib kelgan Yanosh Zapoli nomli ikkinchi bir voyevoda 15-iyulda dehqonlarga hujum qilib, ularni tor-mor etdi va tarqatib yubordi. Doja asir qilib olinib, qattiq azoblab o'ldirildi: u qizitilgan taxtda tiriklayin jizganak qilindi. Kapalagi uchib ketgan feodallar xalq rahbaridan ana shu tariqa o'ch oldilar. Shundan keyin qonli terror butun mamalakatni qamrab oldi. Minglab dehqonlar mahbuslik bilan jazolandilar va o'ldirildilar. Zamondoshlar qo'zg'olon mahalida halok bo'lgan dehqonlar soni 60 ming kishiga yetdi, deydilar.

1514-yilning oktyabrida to'plangan dvoryanlarning «yovvoyi» seymni dehqonlar masalasida eng reaksiyon qarorlar qabul qildi: seym cheklanmagan barshchina joriy qildi, dehqonlarni tamomila pomeschchiklar sudi ixtiyoriga topshirdi, dvoryanlar mamlakatda birdan-bir «siyosiy», ya'ni hukmronlik qiluvchi toifa deb e'lon qilindi. Dehqonlar o'lim jazosi bilan qo'rqitilib, ularga qurol-yarog' taqish man etildi.

1514-yilgi voqealardan keyin oshkora e'lon qilingan feodallar diktaturasi Vengriya davlatining halokatini tezlashtirdi. Venger feodallari endilikda turklar bilan yangi urush qilish uchun o'z dehqonlarini qurollantirishdan qo'rqib qoldilar. To'g'ri, ezilgan dehqonlarda o'z mamlakatlarini tashqi dushmandan himoya qilish uchun kuch ham, sohib ham yo'q edi. Ammo turklarning tajovuzkorligi davom etaverdi. XVI asrning 20-yillarida turklar o'z qo'shinlari bilan Vengriyaga asosiy hujumni boshlab, venger ritsarlarini Moxach shahri yonida tor-mor qilib tashladilar. Shundan keyin Vengriya davlati mustaqilligini uzoq vaqtgacha yo'qotdi. Qirolliklarning uchinchi, nisbatan kichik qismi, ya'ni G'arbiy Vengriya turklar tomonidan istilo qilinmasdan qoldi, ammo Vengriya qirolligining bu qolgan bir parcha joyi shu qadar kichik ediki, venger feodallari tez orada Avstriya Gabsburglariga itoat etishga majbur bo'ldilar. Feodallarning o'z xalqini bu qadar ayovsiz jazolashi natijabatida Vengriya o'z mustaqilligini yo'qotdi.

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Vengriya davlati qachon va qayerda tashkil topdi?
2. Vengerlarning arpadlar urug'idan kelib chiqqan bosh knyazi Ishtvan I qachon papadan qirollik titulini oldi?
3. Vengriya qiroli Stefan I davrida qaysi din davlat dini deb e'lon qilindi?
4. Saksoniya dinastiyasiga mansub nemis qirollaridan qaysilari va nechanchi yillarda vengerlarni yanchishga muvassar bo'lganligini aniqlang.
5. Qirol Andrey II feodallarga taslim bo'lishga majbur bo'lgandan keyin nechanchi yili muhim siyosiy hujjatga imzo chekishga majbur bo'ldi?
6. Oltin bullaning e'tiborli bo'lishligi uchun unga qanday muhr bosilgan?
7. Transilvaniya tog' etaklarida, ayniqsa, qaysi rudalar qazib chiqariladi?
8. 1240–1241-yillardagi Vengriyaning ijtimoiy hayotini yoritib bering.

## 25-MAVZU: XII–XVII ASRLARDA TURKIYA

### REJA:

1. XVI–XVII asrlarda Bolqon xalqlarining turklar zulmiga qarshi ozodlik
2. Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi va Turkiyadagi ichki siyosat harakati.
3. Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** Azov, Kichik Osiyo, xiroj, porta, «katta urush», «Qonunnomai Sulaymoniy», yanicharlar, zoimlar, beylar, timariotlar, sipohiyalar, gayduk, kift, uskoklar, «harbiy bosqinchilar», «buyuk davlatlar», serblar, ruminlar.

**Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi va Turkiyadagi ichki siyosat.** Turkiya imperiyasi Oʻrta Osiyoda tashkil topgan Saljuqiylar davlatining gʻarbdagi oʻrnida tashkil topgan. Turkklar Kichik Osiyo hududida 1071-yilda paydo boʻlishgan edi. Keyinchalik u Usmon (1299–1326) va Oʻrxon davrida markazlashgan davlatga asos solindi. Turkiya imperiyasi 1453-yilda Konstantinopol shahrini bosib oldi. Muhammad II 50 va 60-yillarda Bolqon yarim orolida Dunay boʻyidagi Serbiyani, Bosniyani, Gersegovinani va Albaniyani istilo qildi. Bolqon yarim oroli bilan qoʻshni boʻlgan Valaxiya vassal – qaram qilib qoʻyildi. 70-yillarning oʻrtalarida turklar Qrimni va Tanu (Azov) shahrini bosib oldilar. Taxminan shu vaqtlarda turklar Kichik Osiyoda Trapezund shahrini, deyarli butun Anatoliyani toʻ Frot daryosigacha istilo qildi. Ammo Muhammad II ikki marta katta muvaffaqiyatsizlikka ham uchradi: u Belgradni ishgʻol qila olmadi, turklar uni 1456-yilda qamal qilgan boʻlsalar-da, maqsadlariga erisha olmadilar, shuningdek, Rodos orolini ham ololmadilar (1480-yilgi yurish muvaffaqiyatsiz boʻldi).

Muhammad II ning nabirasi Salim I zamonida (1512–1520) turklarning istilolari yana boshlandi. Salim Eronga qarshi qilgan gʻolibona urushida Kavkazorti mamlakatlaridan Ozarbayjonni, Armanistonning va Gruziyaning bir qismini, Dogʻiston va Kurdistonni istilo qildi. Boʻlgra Salim Suriya bilan Misrni (1517-yil) bosib olib, butun islom dunyosining boshligʻi sifatida oʻziga xalifa unvonini oldi. Krit, Kipr va Oʻrta dengizdagi boshqa yerlarini oʻz qoʻlida saqlab qolish uchun Venetsiya Turkiya sultoniga har yili katta xiroj toʻlab turishga majbur edi.



Sulaymon davrida Turkiya Yevropa siyosatida juda katta rol o'ynadi. Fransuz qiroli Fransisk I Gabsburglarga qarshi Sulaymon bilan rasmiy suratda ittifoq tuzdi. 1529-yilda Sulaymonning Avstriyaga qilgan yurishi Gabsburglarning Valuaga qarshi olib borgan «katta urush»ning bir halqasi edi. Sulaymon chet el savdogarlariga imtiyozli savdo yorliqlari bera boshlagan birinchi sulton edi. Sulaymon o'zining qonunlar to'plamini («Qonunnomai Sulaymoniy») qoldirib ketdi. Bu qonunnomaga 1566-yil sanasi qo'yilgan. XVI asrda Turkiyaning ichki tuzilishi qanday bo'lgani haqida shu to'plamga qarab ham fikr yuritish mumkin. Turk sultonlari istilo qilgan ko'pdanm ko'p territorialarning ma'muriy tuzilishi Sulaymon vaqtida bir xil formaga solindi. Butun imperiya 21 viloyatga bo'linib, ular o'z navbatida 250 sanjoqlar (rayon)ga taqsim qilindi.

Yangi tashkil topilgan harbiy-feodal imperiya harbiy ishlarga katta e'tibor berdi. Sulaymon turk qo'shinlarining yanicharlar deb atalgan imtiyozli qismini tartibga solgan maxsus reglament tuzdi. Sulaymon dehqonlarning feodal majburiyatlarini o'zi chiqargan qonunlarda belgilab berishga urindi. Turk dehqonlari davlatga soliq to'lash bilan birga o'z pomeschchiklariga ham yer va suv haqi, imorat, chorva, tegirmon haqi va boshqa shu singari soliqlar to'lashlari lozim edi. Feodal o'z yeridan ko'chib ketgan dehqonni ma'lum muddat ichida qidirishga haqli edi. Mehnatkash aholidan juda ko'p har xil soliqlarni talab qilgan feodallashtirish jarayoni va Turkiyani markazlashtirishning kuchayishi munosabati bilan XVI asrda turk dehqonlarining ahvoli ancha yomonlashdi.

Turk dehqonlarining ahvoli qanchalik og'ir bo'lsa, diniy e'tiqod jihatidan xristianlarga mansub istilo qilingan mahalliy aholining ahvoli undan og'ir edi. Serblar, greklar, bolgarlar, valaxlar (ruminlar) va boshqa riyolar (musulmon bo'lmaganlarning hammasi turk davlat tilida shunday deb atalardi) musulmonlarga qaraganda davlatga ikki baravar ko'proq soliq to'lashga majbur edilar.

Ular mol-mulkingining daxlsizligi butunlay ta'min yetilmagan edi, o'zlari ham doim turk ma'murlari va harbiylarining o'zboshimchaliigidan va tahqirlashidan azob chekar edilar. Diniy rasm-odatlarining ijro qilinishiga ijozat berilar ekan, buning uchun xristian aholisidan yana qo'shimcha ravishda og'ir soliqlar olinardi. Riyolilar ozgina norozilik bildirganlari taqdirida, ular ustiga yuborilgan jazo ekspeditsiyalari tinch aholini talar, o'ldirar edi.

Bolgariya parchalanib ketishidan foydalangan turklar Bolgariya-

ga hujum qilishadi. Usmon turklarining zarbalari ostida 1363-yildan 1393-yilgacha Bolgariyaning eng yirik shaharlari Plovdiv (Filippol), Sofiya, Varna, nihoyat, poytaxt Tirnovo (1393) birin-ketin quladi. 1396-yilda turklar Dunay daryosi bo'yidagi Nikopol shahrini istilo qiladilar va xuddi shu yili siyosiy jihatdan mustaqil bo'lgan feodal Bolgariyasining so'nggi tayanchi bo'lgan Vidin shahri quladi. 200 yildan sal ortiqroq (1187–1396) yashagan ikkinchi Bolgariya podsholigi 1396-yilga kelib tamom bo'ldi. Bolgariyada uzoqqa cho'zilgan Turkiya hukmronligi boshlandi. Bolgariya tutqunligi bir necha asrlargacha, ya'ni XIX asrning 2-yarmigacha davom etdi. 1877–1878-yillari rus-turk urushi natijasida rus qiroli yordamida Bolgariya turklar zulmidan ozod qilindi.

1389-yil 15-iyunda Kosovo maydonida (Janubiy Serbiyada) katta jang bo'ldi. Serbiya qiroli Lazar 80 ming kishilik qo'shin to'pladi, bu qo'shinda serbiyaliklardan tashqari, bosniyaliklar va vengerlar bor edi. Murod boshchiligidagi turklar uch barobardan ortiqroq kuch bilan Serbiya ustiga yurish qildilar. Bir yosh serb jonidan kechib, sulton yotgan chodir ichiga kirib, uni o'ldirdi. Ammo bu vaziyatni o'zgartirardi. Murodning o'g'li shahzoda Boyazid yangi sulton deb e'lon qilindi va ulkan turk armiyasiga qo'mondonlik qilishni o'z zimmasiga oldi. Serblar tor-mor etildilar. Qirol Lazar qatl etildi. Serbiya hududining katta qismi Turkiyaga qo'shib olindi. Shimoliy Dunay bo'yi Serbiya (Podunaviya)ning qolgan kichik qismini serb knyazlari sultonning vassallari huquqida biroz vaqt idora qildilar. 1459-yilda bu hudud ham turklar tomonidan istilo qilindi va turk mulklariga kiritildi.

Bolqon yarim orolidagi xalqlar turklar istilosi natijasida qandaydir sur'iy bir to'siq bilan butun Yevropadan ajratilganidan turklar zulmi aharoitida juda sekin rivojlanib bordilar. Savdo-sotiq ishlari tor doirada olib borildi va u faqat mahalliy xarakterdagina edi. Sanoat juda sekin rivojlandi. Bolqon yarim oroli xalqlari (juda ko'pchiligi slavyan xalqlari) boshiga g'oyat zo'r ofat bo'lib tushgan turklar istilosi shu bo'ldiki, qishloq xo'jaligi texnikasi pastligicha qolaverdi, bir qator viloyatlarda natural xo'jalik hukmron bo'lib keldi, krepostnoylik munosabatlari saqlanib qoldi, madaniyat turg'unlikka uchradi.

**XVI–XVII asrlarda Bolqon xalqlarining turklar zulmiga qarshi ozodlik harakati.** Turklar zamonida bo'ysundirilgan Bolqon xalqlari zulmga indamasdan yashayvermadilar. XV asr – XVI asrning boshlarida Bolqon yarim orolidagi mamlakatlarning, mazlum millatlarning kurashi ularning butun tarixi davomida to'xtamasdan davom etib keldi.

Juda katta armiya, ko'pdan ko'p chinovniklar, turk feodal-okkupantlarining butun bir sinfidan iborat g'oyat katta majbur qilish vositasiga tayanuvchi turklarning zulmini ag'darib tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan tobe aholi partizanlar urushini olib bordiki, bu urush aslida XV–XVII asrlar davrida ham, shundan keyingi davrda ham mustaqil davom etdi.

Partizanlar tog'lik joylar sharoitidan foydalanib va dehqon jamoalari madadiga tayanib yarim orolda turk hukmronligining asoslariga putur yetkazdilar, zabtchi turklar obro'sini tushirdilar, hamda turk ma'muriyati va turk mahalliy feodallarining eng yovuz vakillariga qarshi xalq qasoschilari bo'lib chiqdilar. Partizanlar turli nomlarga ega edilar: bolgarlar va serblarda – gayduklar, Gretsiyada – kleftlar, Dalmasiyada – uskoklar va hokazo deb atalardilar. Partizanlarning qahramonona kurashi Bolqondagi barcha xalqlarning turklar hukmronligi davridagi xalq qo'shiqlarida yaqqol aks ettirildi. Ammo partizanlik har holda Turkiya hukmronligiga qarshi kurashning yetarli metodi emas edi, u tarqoq va parokanda edi. Turkiya ma'murlari partizanlarning chiqishlariga qarshi kurashning o'ziga xos terroristik metodlarini qidirib topdilar. Har holda, partizanlar Bolqon yarim orolidagi turklar hokimiyatini o'z kuchlari bilan tugata olmadilar.

Turklar zulmiga qarshi mazlum xalqlar tomonidan olib borilgan kurashning yana bir formasi – ayrim joylarda, ko'pincha eng yirik shahar punktlarida tez-tez fitnalar va qo'zg'olon ko'tarishga bo'lgan urinishlardan iborat bo'ldi. Odatda bu fitnalar va qo'zg'olonlar chetdan bo'ladigan madadga, ya'ni Yevropadagi biror davlatning madadiga umid bog'lar edi. Avstriya qo'shinlarining madadidan umidvor bo'lgan, 1598-yilda Ikkinchi Bolqon saltanatining poytaxti Tirnovo mitropoliti Dionisiy qo'zg'oloni qo'shni Transilvaniya va Valaxiya feodallari tomonidan madad olishni mo'ljallab ko'tarilgan edi. Ammo 1594-yilgi Banata qo'zg'oloni ham, 1598-yilgi Tirnovo qo'zg'oloni ham yetarli tayyorlanmagan bo'lib, muvafaqqiyatsiz tugadi.

XVII asrning boshlarida ayrim turk qo'shinlariga talafot yetkazgan serblar va chernogoriyaliklar (1603-yildan Kris shahri rayonidagi serblar qo'zg'oloni, 1604-yilgi chernogoriyaliklar harakati) ba'zi muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Turklarga qarshi kurash jarayonida slavyan mamlakatlarning va tanparvarlari bir dindagi va qarindosh bo'lgan xalq – ruslar madadiga tobora ko'proq umid bog'lay boshladilar. XVI va XVII asrlarda rus davlati qudratining o'sishi bu umidni, ayniqsa, rag'batlantirardi. Bol-

garlarda va Bolqondagi boshqa xalqlarda ruslar madad ko'rsatadilar va ularni turk zulmidan ozod qiladilar, degan qat'iy ishonch oshib bordi. Bolqondagi mazlum xalqlar orasida «dyadya Ivan» (ya'ni Ivan bobo) haqida afsona vujudga keldi. Bu obrazda ular o'zlarini turklarning og'ir zulmidan ozod qiladigan ulug' rus xalqi va kuchli Rus davlatini mujasamlashtirgan edilar.

**Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.** Milliy zulm, mazlum millatlarni doimo bostirib turish rejimi juda katta Turkiya imperiyasining aslida zaif ekanini va beqarorligini ko'rsatardi. Turkiya imperiyasining siyosiy tuzumi, idora qilish sistemasining o'zi ham uning ziddiyatlar va ichidan zaifligini XVI asrdayoq namoyon etgan edi. Fuqarolarning butun hayot-mamotini o'z qo'lida tutib turgan sulton mustabid hokimiyati Sulaymon Ining taxt vorislari vaqtida saroydagi har xil feodal partiya va guruhlarning fitnachilik quroliga aylandi. Yangi sulton taxtga o'tirar ekan, toj-taxtga da'vo qiluvchi raqiblari qolmas uchun o'zining barcha aka-ukalarini qirib tashlardi. Saroy hayotida fitna ustiga fitna avjiga chiqib ketar va odatda bu fitnalarda yanicharlar ham ishtirok etardi.

Uinmay davom etgan urushlar juda katta xarajatlarni talab etardi. Juda ko'p haramxonalari, mahramlari, behisob xizmatkorlari, juda katta toqchi otryadlari va boshqalari bo'lgan sulton saroyiga ham ozmuncha mablag' sarflanmasdi. Soliqlar hamisha oshib borar, ammo aholining tahlab chiqaruvchi kuchlari esa juda sekin taraqqiy etar edi. Shu narsa xarakterlidirki, Turkiyadagi savdo va sanoat ishlari bilan turklarning o'zlari emas, balki sultondan imtiyozli yorliqlar olgan g'arbiy ajnabiy-lar (asosan, fransuz savdogarlari, XVI asr oxirlaridan boshlab ingliz savdogarlari ham) mashg'ul bo'lar yoki turklar istilosigacha sanoati taraqqiy etgan va xalqaro savdo-sotiq ishlarida qatnashgan, savdo ishlariga mohir bo'lgan yaqin Osiyo xalqlari – greklar, armanlar va suriyaliklar mashg'ul bo'lardi.

Ko'proq urushlar bilan, aholini siqib, undan soliq to'latish bilan band bo'lgan turk hukumati savdo va sanoatning rivojlanishiga hamda qishloq xo'jaligining yuksalishiga mutlaqo yordam bermas edi. Turklarning hukmron sinfi urushlarni yuz bergan mushkul ahvoldan qutulishning birdan bir yo'li deb bilardi. Bu sinf fikricha, yangi urushlar yangi kiroj va yangi soliqlar olinadigan yangi territorialarni ko'paytirib berishi lozim edi, ammo Turkiyaning iqtisodiy qoloqligi, uning siyosiy va siyosiy tuzumidagi ziddiyatlar zamon o'tishi bilan urushlarni uning o'zi uchun xavfli va natijasiz bir narsa qilib qo'ydi. Turklar XV

Juda katta armiya, ko'pdan ko'p chinovniklar, turk feodal-okkupantlarining butun bir sinfidan iborat g'oyat katta majbur qilish vositasiga tayanuvchi turklarning zulmini ag'darib tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan tobe aholi partizanlar urushini olib bordiki, bu urush aslida XV–XVII asrlar davrida ham, shundan keyingi davrda ham mustaqil davom etdi.

Partizanlar tog'lik joylar sharoitidan foydalanib va dehqon jamoalari madadiga tayanib yarim orolda turk hukmronligining asoslariga putur yetkazdilar, zabtchi turklar obro'sini tushirdilar, hamda turk ma'muriyati va turk mahalliy feodallarining eng yovuz vakillariga qarshi xalq qasoschilari bo'lib chiqdilar. Partizanlar turli nomlarga ega edilar: bolgarlar va serblarda – gayduklar, Gretsiyada – kleftlar, Dalmasiyada – uskoklar va hokazo deb atalardilar. Partizanlarning qahramonona kurashi Bolqondagi barcha xalqlarning turklar hukmronligi davridagi xalq qo'shiqlarida yaqqol aks ettirildi. Ammo partizanlik har holda Turkiya hukmronligiga qarshi kurashning yetarli metodi emas edi, u tarqoq va parokanda edi. Turkiya ma'murlari partizanlarning chiqishlariga qarshi kurashning o'ziga xos terroristik metodlarini qidirib topdilar. Har holda, partizanlar Bolqon yarim orolidagi turklar hokimiyatini o'z kuchlari bilan tugata olmadilar.

Turklar zulmiga qarshi mazlum xalqlar tomonidan olib borilgan kurashning yana bir formasi – ayrim joylarda, ko'pincha eng yirik shahar punktlarida tez-tez fitnalar va qo'zg'olon ko'tarishga bo'lgan urinishlardan iborat bo'ldi. Odatda bu fitnalar va qo'zg'olonlar chetdan bo'ladigan madadga, ya'ni Yevropadagi biror davlatning madadiga umid bog'lar edi. Avstriya qo'shinlarining madadidan umidvor bo'lgan, 1598-yilda Ikkinchi Bolqon saltanatining poytaxti Tirnovo mitropoliti Dionisiy qo'zg'oloni qo'shni Transilvaniya va Valaxiya feodallari tomonidan madad olishni mo'ljallab ko'tarilgan edi. Ammo 1594-yilgi Banata qo'zg'oloni ham, 1598-yilgi Tirnovo qo'zg'oloni ham yetarli tayyorlanmagan bo'lib, muvafaqqiyatsiz tugadi.

XVII asrning boshlarida ayrim turk qo'shinlariga talafot yetkazgan serblar va chernogoriyaliklar (1603-yildan Kris shahri rayonidagi serblar qo'zg'oloni, 1604-yilgi chernogoriyaliklar harakati) ba'zi muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Turklarga qarshi kurash jarayonida slavyan mamlakatlarning va tanparvarlari bir dindagi va qarindosh bo'lgan xalq – ruslar madadiga tobora ko'proq umid bog'lay boshladilar. XVI va XVII asrlarda rus davlati qudratining o'sishi bu umidni, ayniqsa, rag'batlantirardi. Bol-

garlarda va Bolqondagi boshqa xalqlarda ruslar madad ko'rsatadilar va ularni turk zulmidan ozod qiladilar, degan qat'iy ishonch oshib bordi. Bolqondagi mazlum xalqlar orasida «dyadya Ivan» (ya'ni Ivan bobo) haqida afsona vujudga keldi. Bu obrazda ular o'zlarini turklarning og'ir zulmidan ozod qiladigan ulug' rus xalqi va kuchli Rus davlatini mujasamlashtirgan edilar.

**Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.** Milliy zulm, mazlum millatlarni doimo bostirib turish rejimi juda katta Turkiya imperiyasining aslida zaif ekanini va beqarorligini ko'rsatardi. Turkiya imperiyasining siyosiy tuzumi, idora qilish sistemasining o'zi ham uning ziddiyatlar va ichidan zaifligini XVI asrdayoq namoyon etgan edi. Fuqarolarning butun hayot-mamotini o'z qo'lida tutib turgan sulton mustabid hokimiyati Sulaymon Ining taxt vorislari vaqtida saroydagi har xil feodal partiya va guruhlarning fitnachilik quroliga aylandi. Yangi sulton taxtga o'tirar ekan, toj-taxtga da'vo qiluvchi raqiblari qolmasin uchun o'zining barcha aka-ukalarini qirib tashlardi. Saroy hayotida fitna ustiga fitna avjiga chiqib ketar va odatda bu fitnalarda yanicharlar ham ishtirok etardi.

Tinmay davom etgan urushlar juda katta xarajatlarni talab etardi. Juda ko'p haramxonalari, mahramlari, behisob xizmatkorlari, juda katta toqchi otryadlari va boshqalari bo'lgan sulton saroyiga ham ozmuncha mablag' sarflanmasdi. Soliqlar hamisha oshib borar, ammo aholining ishlab chiqaruvchi kuchlari esa juda sekin taraqqiy etar edi. Shu narsa xarakterlidirki, Turkiyadagi savdo va sanoat ishlari bilan turklarning o'ralari emas, balki sultondan imtiyozli yorliqlar olgan g'arbiy ajnabiy- lar (asosan, fransuz savdogarlari, XVI asr oxirlaridan boshlab ingliz savdogarlari ham) mashg'ul bo'lar yoki turklar istilosigacha sanoati taraqqiy etgan va xalqaro savdo-sotiq ishlarida qatnashgan, savdo ishlariga mahir bo'lgan yaqin Osiyo xalqlari – greklar, armanlar va suriyaliklar mashg'ul bo'lardi.

Ko'proq urushlar bilan, aholini siqib, undan soliq to'latish bilan band bo'lgan turk hukumati savdo va sanoatning rivojlanishiga hamda qishloq xo'jaligining yuksalishiga mutlaqo yordam bermas edi. Turklarning hukmron sinfi urushlarni yuz bergan mushkul ahvoldan qutulishning birdan bir yo'li deb bilardi. Bu sinf fikricha, yangi urushlar yangi xiraq va yangi soliqlar olinadigan yangi territoriyalarni ko'paytirish kerak edi, ammo Turkiyaning iqtisodiy qoloqligi, uning soliq va siyosiy tuzumidagi ziddiyatlar zamon o'tishi bilan urushlarni uning o'zi uchun xavfli va natijasiz bir narsa qilib qo'ydi. Turklar XV

asrda va XVI asrning birinchi yarmida bir qancha g'alabalarga erishgandan keyin, XVI asrning oxiridan boshlab, ayniqsa, XVII asrda o'zlari katta-katta mag'lubiyatlarga uchray boshladilar va bu mag'lubiyatlar XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Turkiya imperiyasi terri toriyasining anchagina torayib qolishiga sabab bo'ldi.

Yevropaliklar bilan bo'lgan urushlarda turklar birinchi marta 1571-yilda Lepanto yonida katta mag'lubiyatga uchradilar. Bu yerga turklarning juda katta flotini Ispaniya, Venetsiya va Rim papasining birlashgan floti tor-mor qilgan edi (birlashgan flotning boshlig'i Filipp II ning ukasi shahzoda Don-Xuan Avstriyskiy edi). To'g'ri, bundan keyin Turkiya venetsiyaliklardan Kipr orolini tortib olgan edi. Ammo shunday bo'lsa ham, bu mag'lubiyat malakatning ichki ahvoliga qattiq ta'sir qildi. XVI asrning 70, 80 va 90-yillarida Turkiya keskin ijtimoiy-siyosiy inqirozni boshidan kechirdi. Mamlakatda davlat soliqlarining ortishi va feodal to'lovlarining ko'paytirilishi munosabati bilan dehqonlarning bir necha qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. 1591-yil ayniqsa, «olag'ovur yil bo'ldi, bu yili ko'pchilik viloyatlar sulton Murod III ga (1574–1595) qarshi bosh ko'tardilar. Muhammad III podsholik qilgan davrda (1595–1603) doim xalq qo'zg'olonlari, sipohiyar va yanicharlarning g'alayonlari bo'lib turdi. Pirovard natijada saroyda bo'lib o'tgan to'ntarish oqibatida sultonning o'zi ham o'ldirildi.

Turkiya Eronga qarshi kurashda bir qator talafotlar ko'rdi. Eron shohi Abbos I Ozarboyjonni, Armanistonni, Sharqiy Gruzianini, Kurdistonni, shuningdek, Mosul va Bog'dod shaharlari bilan Mesopatamiyani bosib oldi. 1619-yilda Istanbul sulhiga binoan, turk sultoni Kavkazorti va Mesopatamiyadagi deyarli hamma yerlarining bir qismi 1639-yilda qaytarib olindi. Ammo bunga Turkiyaning o'zi kuchayganligi emas, balki ko'proq Eronning zaiflashganligi sabab bo'ldi.

Rossiya bilan Turkiya o'rtasida birinchi to'qnashuv XVI asrning ikkinchi yarmidayoq bo'lgan edi. Sulton hukumati Tanu (Azov)ni bosib olganidan keyin Astraxanni ham bosib olmoqchi edi. Sulton hukumati bu yerdan Kaspiy dengizi bo'ylab Eronga qarshi qo'shin tortib borishni mo'ljallagan edi. Ammo hujum qilib kelgan turklarning qamaliga Astraxan bardosh berdi (1568). Turklar katta talafotlar berib chekinishga majbur bo'ldi.

Turklar bilan ruslar o'rtasida ikkinchi jiddiy to'qnashuv XVII asrning 30-yillari oxiri va 40 yillari boshida bo'lgan edi. Bu vaqtda Zaporozhye kazaklari Azovni (1637-yil) olib, uni bir necha yilgacha o'z qo'llarida tutib turdilar. XVII asrning ikkinchi yarmida Turkiyaning

Avstriyaga, Venetsiyaga va Rossiyaga qarshi olib borgan urushlarida mag'lubiyatga uchrashi Usmon imperiyasining ichidan zaifligi va harbiy jihatdan qo'liqligini butun Yevropaga namoyon qildi. Yevropa davlatlari o'rtasidagi raqobat, ularning sulton bilan separat bitim tuzishga intilishlari tufayligina Turkiya o'zining haqiqiy siyosiy qudratiga mutlaqo mos kelmaydigan keng territoriyada uzoq vaqtlargacha yashab turish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yevropaning «buyuk davlatlari» (birinchi navbatda Angliya bilan Fransiya) Turkiya imperiyasining chirib ketgan rejimini tugatish va turklar zulmi ostida ezilib yotgan slavyan xalqlarini ozod qilish o'rniga, Turkiyani asoratga solishni, o'zlarining yarim mustamlakalariga va siyosatlarining quroliga aylantirishni nazarda tutib, iqtisodiy jihatdan qo'liq, siyosiy jihatdan zaif Turkiya imperiyasini saqlab qolishni afzal ko'rdilar.

#### Nazorat topshiriqlari:

1. Turklarning yevropaliklar bilan ilk to'qnashuvi qayerda sodir bo'ldi?
2. Muhammad III podsholik qilgan yillarni aniqlang.
  - A) 1595–15603-yillar.
  - B) 1592–1600-yillar.
  - C) 1591–1600-yillar.
  - D) 1585–1590-yillar.
3. Rossiya bilan Turkiya o'rtasidagi to'qnashuv qachon bo'lib o'tdi?
  - A) XV asrning boshida.
  - B) XVI asrning ikkinchi yarmida.
  - C) XIV asrning oxirida.
  - D) XVII asrda.
4. XV – XVI asrda turklar Albaniyani necha marta istilo qildi?
5. Sulaymon I «Qonunnomai Sulaymoniy» qonunlar to'plamini qachon yozib tugatdi?
6. «Ramya» so'zining ma'nosini ayting.
7. XVI asr o'rtalarida Osiyo, Afrika va Yevropaning Usmoniylar sultanati tarkibiga kirgan hududlarni xaritadan toping.



## 26-MAVZU: O'RTA ASRLARDA POLSHA

### REJA:

1. Tarixiy adabiyotlarda Polsha davlatining paydo bo'lishi masalalarinig o'rganilishi.
2. Boleslav Jasur tomonidan Polsha yerlaning birlashtirilishi va qirollik deb e'lon qilinishi.
3. Polsha feodal tarqoqlik davri.
4. Pishemisliv II va Vladislav Lapotekning Polsha yerlarini birlashtirish siyosati.
5. Polsha Kazimir Buyuk davrida.
6. Ko'p millatli Polsha davlatining paydo bo'lishi.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** «Nayazdu» nazariyasi, vikinglar bosqinchiligi, Pyasitlar sulolasi, feodal tarqoqlik, nemis kolonizatsiyasi, «Krevo uniyasi», Gryunvald jangi, Torun sulhi, Rech Pospolitaya, seym, Lublin uniyasi, shlyaxta, neshav statutlari Koshina imtiyozlari, Tenrix artikullari, Rodom konstitutsiyasi, «Liberum veto», «Shlyaxtaning oltin sari», Rakosh, dissidentlar masalasi.

**Tarixiy adabiyotlarda Polsha davlatining paydo bo'lishi masalalarining o'rganilishi.** Polsha feodal davlatining shakllanishi to'g'risida tarixiy adabiyotlarda turli qarashlar mavjuddir. Bu qarashlarning hozirga qadar keng tarqalgan turlaridan biri bu Polsha davlatining Skandinaviya tomonidan bosqinchilik bilan kirib kelgan vikinglarning yurishi natijasida Polsha feodal davlati paydo bo'ldi degan qarashlar.

Bu qarashning tarafdorlari polyak tarixchilaridan Lennik Narushevich, Moteyavskiy, Shaynox, Pekosenskiy va boshqalardir. Polyak tarixshunosligida bu nazariy «Nayazudu» yoki «bosqinchilik» nazariyasi deb ataladi. Bu nazariya tarafdorlari polyaklarning o'zlari o'z feodal davlatlariga asos solgan emaslar deb hisoblaydilar. Qadimgi Polsha shahar davlatinig paydo bo'lishidagi ikkinchi nazariya bu evolutsion nazariya bo'lib, unig tarafdorlari polyak tarixchilaridan Shuyiskiy, Bogjanskiy, Smolka va boshqalardir. Ularning fikricha, qadimgi Polsha davlati chet el bosqinchiligi natijasida emas, balki shu xalqning evolutsiyasi natijasida paydo bo'lgandir. Rus tarixshunosligida qadimgi Polsha davlatining paydo bo'lishi masalalarini tarixchilardan Pechita, Kereelukya va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarining obyкти qilib olganlar.

Rus tarixshunoslaridagi deyarli ko'pchilik adabiyotlarida qadimgi Polsha davlatining paydo bo'lishi masalasida evolutsion yo'l tan olinadi.

Tarixchilar o'rtasida Polshadagi birinchi hukmron dinastiya Pepe-linlar dinastiyasi bo'lgan degan fikr mavjuddir. Ammo tarixiy jihatdan hukmronlik yillari aniq bo'lgan. Polshaning birinchi hukmdori Meshko I, Mechislov unung hukmronlik qilgan yillari 960–992. Meshko I Pyastlar dinastiyasidan bo'lgani uchun ham bu dunastiyaning hukmronlik qilgan davri Pyastlar Polshasi (Piastowska Polska) deb atalgan edi. Meshko hukmronligi ostidagi yerlar Kuyaviya, Mozaviya, Legnisa, Seroz yerlari, Siliziya va Boltiq dengizi bo'yi yerlaridan iborat edi. Pyastlar davridagi Polshaning birinchi poytaxti Gnezno shahri bo'lgan. Meshko I davrida Polsha bilan Chexiya o'rtasida yaqinlashish bo'ldi. Bu yaqinlashish keyinchalik 966-yilda Meshko I ning Chexiyada qirol Boleslav I ning qizi bo'lgan Dubrovkaga uylanishi bilan yanada yaqinlashadi.

966-yilda Meshko I va uning yaqinlari xristian dinini qabul qiladilar. Xristian dini Chexiyadan qabul qilinganligi uchun polyaklar ham xristian dinining katolik mazhabini qabul qiladilar. Keyinchalik katolik mazhabini qabul qilgan Polshaning madaniyati Sharqiy slavyanlarga nisbatan uzoqlashib, g'arbdagi katoliklar bilan yaqinlashib boraveradi. IX–X asrlarda Polshaning ichki taraqqiyotiga kelganimizda esa bu yerda feodallashtirish jarayonining davom etayotganligi, ammo G'arbiy Yevropadagi Italiya, Fransiya mamlakatlariga nisbatan ancha sekinlik bilan bormiyotganini ko'ramiz. Garchi xristian dinini qabul qilgan bo'lsa-da, da'vlatbki polyak hukmronlarini xristian diniga to'liq amal qiladigan kishilar deb bo'lmas edi. Buni Meshko I ning monastirdagi Odis ismli qizni o'ziga xotin qilib olganligidan ko'rish mumkin. Meshko I vafotidan keyin hokimiyatga o'g'li Boleslav Jasur o'tirdi. 992–1025-yillar Boleslav Jasur davrida Polsha yerlarini yagona davlat atrofida birlashtirish jarayoni tugallanadi. 999-yilda Boleslav I Krakov va uning atrofidagi yerlarni o'z hukmronligi ostida birlashtirdiki, u feodal mustahkam davlat tashkil etishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Boleslav I Jasurning Polsha tarixidagi xizmatlari faqatgina Polsha hududlarini kengaytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'sha vaqtda boshlangan nemis agressiyasiga qarshi muvafaqqiyat bilan olib borgan kurashi hamdir. Boleslav I Jasurning nemislar uchun ko'ngilsiz bo'lganligini o'sha davrda yaratilgan barcha nemis yilnomachilarining asarlarida ko'rish mumkin. Titinar Mazburskiy Boleslav I Jasurni qo'pol, be-ko'ngil va ayyor davlat arbobi sifatida ko'rsatishga harakat qildi.

Umuman, mustaqil feodal davlatining paydo bo'lganidan boshlab unga nisbatan nemis bosqinchilari siyosati hamisha uyushtirib turilgan. Boleslav I Jasurning Polsha tarixidagi eng buyuk xizmatlaridan yana biri bu uning doimiy armiyaga asos solishi bo'ldi. Uning davrida 20 ming kishidan iborat durjina deb atalgan otliq armiya tashkil etiladi. Boleslav I Jasurning xizmatlaridan yana biri markaziy va ma'muriy boshqarish tizimining joriy etilishi bo'ldi. Uning davrida davlatni boshqarish bilan mashg'ul bo'lgan mansabdorlik vazifalari joriy etiladi. Hayotining oxirgi yillarida Boleslav I Jasur qirol degan unvonga sazovor bo'ldiki, undan keyin bu davlat Polsha davlati, Polsha qirolligi nomi bilan tilga olinib boshladi. Polyak hukmdorlarining qirollik unvoniga ega bo'lishi bu davlatning xalqaro obro'si kuchayganligidan dalolat beradi.

**Polsha feodal tarqoqlik davrida.** Boleslav vafotidan keyin uning vorislari Polsha davlatining qudratini saqlab qola olmadilar. Mamlakatda feodal tarqoqlik davri boshlanadiki, bu davr Polsha tarixida rasmiy ravishda 1138-yilda Boleslav III Og'ziqiyshiqning Polshani o'z vorislari o'rtasida bo'lib berish aktiga qo'l qo'yib bergandan 1295-yilga qadar, ya'ni Peshemaslov II tomonidan Polsha yerlarining birlashtirishgacha davom etadi. Polshadagi feodal tarqoqlik davrida quyidagi muhim tarixiy o'zgarishlar va voqealar sodir bo'ldi.

Nemis kolonizatsiyasi boshlanadi. Nemis kolonizatsiyasi XII asrda boshlangan bo'lib, uning asosiy tashabbuskorlari polyak feodallarining o'zi edi. Ular mehnat intizomi yuqori bo'lgan va qishloq xo'jaligi texnikasi rivojlangan nemislarni katta foyda olish maqsadida Polshaning g'arbiy hududlariga, xususan, Selezyaga taklif qildilar. Kelgan nemis feodallari va dehqonlarniga «Nemiskoye pravo» ya'ni nemislar huquqi degan imtiyoz beriladi. Nemislar huquqiga ko'ra ularning ahvoli polyak dehqonlariga nisbatan yengil va ularning to'laydigan majburiyati ancha kam bo'ladi. Keyinchalik nemislarning ommaviy ravishda Polshaning g'arbiy qismiga ko'chib kelishi amalda Polshaning g'arbiy yerlarini tinchlik yo'li bilan nemislar kolonizatsiyasiga olib keldi. Bundan tashqari, Shimoliy Polsha knyazlari tomonidan Polshaning shimoliy hududlarida va Boltiq bo'yi yerlarida xristian dinini tarqatish uchun chaqirilgan diniy ritsarlik ordeni faoliyati polyak va nemis munosabatlarining borishida va polyak feodal davlatining xavfsizligini ta'minlashda ko'ngilsiz oqibatlarga olib keldi.

II feodal tarqoqlik davridagi Polsha tarixidagi eng muhim va yirik voqealardan biri bu G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ta'qib qilingan yahudiylarning ommaviy ravishda Polsha hududiga ko'chib kelishi

bo'ldi. Polshaga ko'chib kelgan yahudiylar keyinchalik Polshaning iqtisodiy hayotida sezilarli rol o'ynaydilar. Ular yahudiylar uchun an'anaviy bo'lgan mashg'ulotlar bilan, ya'ni savdo bilan, nodir metallardan taqinchoqlar yasash bilan, sudxo'rlik bilan, kishilarni davolash bilan, turli o'simliklardan dorilar tayyorlash bilan shug'ulanadilar, eslatib o'tish lozimki, boshqa Yevropa mamlakatlarida bo'lgani singari Polshada ham yahudiylar qirol yoki knyazlar tomonidan hech qanday himoyaga ega bo'lmaydi. Polsha hududida yahudiylarning huquqi bilan tanishtirish haqidagi farmon XIV asrning ikkinchi yarmiga kelibgina paydo bo'ladi.

III feodal tarqoqlik davridagi Polshada cherkovning kuchayish holati kuzatiladi. XII asrning 80-yillaridan boshlab to XIII asrning 70-yillariga qadar cherkov hokimiyatining mustahkamlashga qaratilgan qonunlari paydo bo'lishi va tadbirlar o'tkazilishi natijasida cherkov ruhoniylari va xodimlari uchun o'zining sudiga ega bo'ldi. Bu davr ichida cherkov mulki dunyoviy hokimiyat tomonidan soliqlardan ozod etiladi. IV feodal tarqoqlik davridagi Polsha uchun eng tashvishli voqea yoki holat bu mo'g'ul-tatarlarning Yevropaga, shu jumladan, Polsha hududiga yurishi bo'ldi. Polyaklarning birlashgan harbiy kuchlari bilan mo'g'ul-tatarlarning harbiy kuchlari o'rtasidagi eng yirik harbiy ta'qushuv 1241-yilda Degnissa yonida bo'lib, bu yerda polyaklarning 40 ming kishilik qo'shini mag'lubiyatga uchradi va mo'g'ullar 20 ming kishini usirga oldilar. Bir necha o'n yillar davomida Polshaning ko'p yerlari mo'g'ul-tatarlarning vassaliga aylanadi. Tashqi dushmanlar hujumining kuchayishi Polsha yerlari ko'p qismining bir tomondan Germaniya ta'siriga, ikkinchi tomondan Chexiya va Rossiya ta'siriga g'ub qolishi mamlakatni mustaqil davlat sifatida yashashini xavf ostiga qo'ydi. Shunday holatning yuzaga kelishi Polsha yerlarini yagona markaz ostida birlashtirish zaruriyatini tug'dirdi. Polsha yerlarini birlashtirishning tashabbuskori bo'lib Pshemislav II chiqadi. Pshemislav II 1295-yilda Polsha hukmdorlariga qaytadan qirollik unvonini qaytardi. Polsha yana qaytadan qirollik deb atala boshladi. Polsha yerlarini siyosiy islohotda birlashtirish sohasida, ayniqsa, Vladeslov Lakotek (1306–1333) xizmatlari kattadir. U o'zining mamlakatini birlashtiruvchilik siyosati bilan butun polyak xalqining muhabbatiga sazovor bo'ldi. Vladeslov Lakotek Polsha davlatining Yevropadagi chegarasi Boltiq dengizidan Qora dengizga qadar cho'zilgan hududini o'z ichiga oladigan yirik feodal davlatiga aylantiradi. Yilnomachilarning yozishicha, Vladeslov Lakotekning hurmati shunchalik baland bo'lganki, uning o'limi

Polshaning har bir oilasida shaxsiy fojia sifatida qabul qilingan. Vladislav Lakotek vafotidan keyin 1333-yildan 1370-yilga qadar Polsha davlatini Kazemir Buyuk boshqardi.

Kazemir Buyuk hukmronlik qilgan yillarda feodal munosabatlar taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuz berib, dehqonlarni asoratga solish yanada tezlashdi. Dehqonning shaxs erkinligi cheklandi va bir yil davomida feodalning xo'jaligidan faqat 1 yoki 3 kishigina shaxsiy erkinlikka chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi, xolos. Kazemir Buyuk davridagi eng yirik o'zgarishlardan biri shunda bo'ldiki, bu davrda harbiy reforma o'tkazildi, reformaga muvofiq harbiy xizmatni faqatgina otliq ritsarlar, ya'ni shlyaxta o'taydigan bo'ldi.

Polsha qurollanish sohasida ham bir hecha yutuqlarga erishdi. Krakov shahrida to'plar va zambaraklar quyildi. XIV asr oxirlarida polyaklar armiyasida artilleriya paydo bo'ldi. Shuningdek, Kazemir Buyuk davrida Polshaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan pul birligi joriy qilindi. Kazemir Buyukning o'tkazgan reformalari ichida mamlakatning barcha hududlari uchun yagona qonunlarning joriy etilishi yirik voqelik bo'ldi. Kazemir Buyuk maxsus qonun chiqarib, unda mamlakatdagi barcha aholining, qaysi xalqqa tegishli bo'lishidan qat'i nazar, bir xilda qonun himoyasiga olinganligini e'lon qilinadi. Kazemir mamlakatning ichki va tashqi siyosatini davlat nuqtayi nazaridan emas, balki jamiyat bir tabaqasining manfaati nuqtayi nazaridan qarashiga olib keldi. Liberum beto huquqining joriy etilishi Polsha davlatini boshqarishda anarxiyaga olib keldi. So'zsiz, shlyaxtaga ega bo'lgan huquqqa ega bo'lmaslik jamiyatning o'sishiga turtki bo'lar, kelgusida ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirar va Polsha mamlakati fuqarolarining ko'tarilishiga olib kelardi.

1496-yilda qabul qilingan qonun (statut) tirikchilik uchun pul topish maqsadida bir dehqon oilasidan faqat bir kishining chetga ketib ishlashi mumkin deb, dehqonlarning chetga chiqib ketishlarini cheklab qo'ygan edi. 1520-yilda qabul qilingan qonun ilgari barshchina bilan sira aloqasi bo'lmagan dehqonlarni ham haftada bir kun barshchina ishlab berishga majbur etar edi. 1543-yilda qabul qilingan qonunda pomeshchik yerlarida yashagan dehqonlar uchun (Papaning xohish-irodasi bilan) cheksiz barshchina o'tmatildi.

Sigizmund II Avgust vaqtida (1548–1572) Polsha o'z yerlarini ancha kengaytirdi. 1561-yilda Ivan Grozniyga qarshi olib borilgan Livoniya urushi davomida Liflandiya Polshaga qo'shib olindi. Shundan bir necha yil keyin o'sha Livoniya urushi tufayli Polsha Litva bilan yangi

ittifoq tuzdi. 1569-yilda Polyak va Litva feodallarining Lublinda bo'lib o'tgan qo'shma seymida umumiy polyak-litva seymiga ega bo'lgan va umumiy tashqi siyosat olib boradigan birlashgan Litva – Polsha davlati tuzilganligi e'lon qilindi. Bu litva – rus yerlarining qo'shib olinishiga va kolonizatsiya qilishiga keng imkon berdi.

Rech Pospalitiyaning yuritgan tashqi siyosati masalasini o'rganish uning Rossiyaga nisbatan va umuman Sharqiy slavyanlarga nisbatan harbiy yurishlar uyushtirish yo'li bilan munosabatlarni aniqlash yo'liga o'tganligini ko'rsatadi.

1572-yilda Yagellolar sulolasi tugadi. Bu sulolaning so'nggi namoyandasi bo'lgan Sigizmund II Avgustdan farzand qolmadi. Saylovlarida (yeleksiyada) panlar Polshaning toj-taxtini fransuz shahzodasi va keyinchalik Genrix III nomi bilan Fransiyaning qiroli bo'lgan Genrix Valuaga taklif qildilar. Genrix atigi bir necha oygina Polshaning qiroli bo'lib turdi. U akasi Karl IX o'lganligi to'g'risidagi xabarni eshitishi bilan oq Polshadan jo'nab ketdi. Ammo uning nomi Polsha qirollarining huquqini yana ham cheklab qo'yish bilan mashhurdir. 1573-yilda Genrix «artikullar» (moddalar)ni imzolashi kerak edi, bu «artikullar» qiroлга taxt vorisi belgilashni man qilgan, seymlar chiqargan qarorlarni tasdiqlash yoki rad qilish, sulh tuzish va lashkar to'plash (pospolit qu-lash) huquqlaridan qirolni mahrum qilar edi.

XVI asrda Polsha katta davlat edi. Buyuk Polsha, Moraviya, Kichik Polsha, Litva, Galisiya, Janubi-g'arbiy Rus, G'arbiy va Sharqiy Prus-siya (bu o'lka qaram, vassal mamlakat sifatida), Livoniyaning bir qismi (Dlandiya) Polsha davlati tarkibiga kirgan edi. XVI asr boshlarida Polshaning besh millionga yaqin aholisi bor edi (o'sha davrdagi Angliya yoki Niderlandiyadagiga qaraganda ancha ortiq edi).

Stefan Batoriyning vorislari bo'lgan va shved qiroli Vaza xonadonidan chiqqan qiroл Sigizmund III (1587–1632) hamda uning o'g'li Vladislav IV (1632–1648) zamonida qirol hokimiyatining obro'si bir-muncha ko'tarildi. Shu bilan birga yangi sulolaning qo'shni xalqlarga nisbatan tutgan agressiv, bosqinchilik siyosati oqibatida Polsha davlatining mustahkamlanishiga emas, balki aksincha, uning ochiqdan ochiq zaiflashishiga olib keldi. Polsha XVII asrning birinchi yarmida o'zining tashqi siyosatida bir necha marta jiddiy muvafaqqiyatsizlikka uchradi. Sigizmund III shved yerlarini o'z hukmronligi ostida birlashtirish uchun juda ko'p kuch sarf etdi. Ammo u buning uddasidan chiqarilmadi. Shvetsiyada Vaza sulolasining boshqa bir protestant nasl-nasbi (Butog'i) mustahkamlanib olgan edi. Sigizmund III va Vladislav

IV ning Moskva davlatiga nisbatan olib borgan agressiv siyosati ham muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi.

1609-yilda polyak qo'shinlari hatto Moskvani ham bosib olishga muvaffaq bo'lmadi. Minin va Pojariski boshliq xalq lashkarlarining to'planishi rus davlatini muqarrar halokatdan qutqarib qoldi.

XVII asrning 50-yillari boshida Ukraina yerlarining polyaklar qo'liga taslim bo'lishi B. Xmelniskiy boshchiligidagi ukrainlarning polyaklarga qarshi kurashi emas, balki Ukrainanaing Rossiya bilan qayta qo'shilishi natijasida Rossiyaning yordami asrab qoldi. Afsuski, mamlakatning ichki taraqqiyotini rivojlantirishga kam e'tibor berilib, tashqi siyosatdagi faollik yo'li bilan davlatni kuchaytirish siyosatini tutgan polyak hukmdorining siyosiy yo'li xato bo'lib chiqdi. To'xtovsiz harbiy yurishlarni tashkil etish mamlakatning iqtisodini yemirdi, odam resursini kamaytirdi va natijada XVIII asr boshiga kelib Rech Pospolitaya G'arbiy Yevropaning iqtisodiy taraqqiyotida orqaga qolgan eng zaif malakatlardan biriga aylanib qoldi. Bu esa Rech Pospolitayaning tarixda o'zining turli davlatlardan zarba yegani uchun unga vassallik holatida bo'lgan davlatlar tomonidan agressiya obyektiga aylanib qolishiga olib keladi.

**Rech Pospolitayaning inqirozi.** Rech Pospolitayaning inqirozi XVIII asr boshlaridagi iqtisodiy, siyosiy va harbiy holati jamiyatni sog'lomlashtirish yo'lida radikal reformatsiyalar o'tkazishni talab qilar edi. Bu reforma talabgorlari bo'lib birinchi navbatda chet el hayoti bilan tez-tez tanishib turgan polyak magnatlari vakillari bo'ladilar. Ular o'zlarining safarlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari hayoti bilan tanishar ekanlar, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot jihatidan Polshaning orqada qolganini anglab yetadilar. Tug'ilib kelayotgan yangi burjua vakillari suhbatlarida ular mansub bo'lgan toifadagi adabiyotchilar va industriya vakillarining asarlarida XVIII asrning boshlaridayoq Polshani reforma qilishning turli loyihalari to'g'risida avval ehtiyotkorona, so'ngra esa ochiq yangi fikrlar tashlana boshladi. Polshani reforma qilish masalasi hamisha «Liberum veto» huquqi va bu huquqqa ega bo'lgan shlyaxtaning qarshiligiga duch kelib, uncha rivojlanmay qolgan edi. Polsha davlatining zayıflashgan ana shunday vaqtda, uni kuchaytirishga qaratilgan reformalar davrida uning qo'shinlari tomonidan Polshani bo'lib olishning turli xil masalalari muhokama etila boshladi. Polshani bo'lib olishning asosiy da'vogarlarini Avstriya-Vengriya, Prussiya va Rossiya edilar. Aytish lozimki, Rossiya dastlab Avstriya-Vengriya va Prussiya tomonidan oldinga surilgan Polshani bosib olish g'oyasini

ga qarshi chiqadi. Rossiya o'zining chegarasida kuchli va xavf solib turadigan Avstriya-Vengriya va Prussiyani qo'shib turadigan Polshaga o'xshagan zaif mamlakat bilan qo'shnichilik qilishni avfzal ko'rar edi. Ammo Rus – Turk urushidan zayıflashib chiqqan Rossiyaning ishtirok-siz ham Avstriya-Vengriya va Prussiya tomonidan Polshaning bo'lib olinish xavfining mavjudligi kelgusida Yevropadagi Rossiyaning qulay strategik maydondan mahrum qilar edi. Ikkinchidan esa, Rossiya bir vaqtlar Polsha tarkibiga o'tib kelgan o'zining g'arbiy hududlaridan voz kecha olmas edi. Ya'ni bu yerda Rech Pospolitayani taqsimlab olishda qatnashish jarayonida Rossiyaning ham bosqinchilik, ham Buyuk davlatchilik, strategik manfaatlari uyg'unlashib ketdi. Yuqoridagi davlatlar o'z bosqinchilik rejalarini amalga oshirish va unga qonuniy tus berish maqsadida Polshaning ichki ishlariga aralasha boshladilar.

Dissidentlar masalasi Rossiya tomonidan Polsha va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni ataylab yomonlashtirish va Polshaning ichki ishlariga aralashib uni Rossiya, Avstriya-Vengriya, Prussiya bilan konfederatsiyaga borishga majbur qilish edi. Yangi dissidentlar masalasi katolik bo'lmaganlarning katoliklar bilan huquqini tenglashtirish masalasi edi. Bu masalaning ko'rsatilishiga sabab shundan iborat ediki, XVIII asrning 60-yillariga kelganda Rech Pospolitayada Polshaning qiroli faqat katolik bo'lishi mumkin degan qoida bor edi.

Katolik bo'lmaganlar saylash va saylanish borasida teng huquqqa ega emas edilar. Katolik bo'lmaganlar bilan katoliklar o'rtasida nikoh mumkin emas edi. Bu masalaning ijobiy hal qilinishi «Libirum veto» tamoyili amalda bo'lgan vaqtda deyarli mumkin emas edi. Katolik bo'lmaganlarning katoliklar bilan huquqini tenglashtirilishi, bir tomondan, qiroli hokimiyatini iyaxta bilan to'qnashtiradigan bo'lsa, ikkinchi tomondan, katolik bo'lmaganlarning katoliklar bilan nikohdan o'tishiga qarshi bo'lgan katolik cherkovining qarshiligiga duch kelishi muqarrar edi. Bu masalaning hal qilinmasligi esa Rossiya hukumatining Polsha ichki ishlariga aralashishi sohasida keng yo'l ochib bergan bo'lur edi. Demak, Rossiya tomonidan bajarilishi qiyin talablarning Rech Pospolitaya oldiga qo'yilishi u bilan ataylab to'qnashish yo'lini axtarlash deb baholash mumkin. Bu masala, ya'ni dissidensiya masalasi ijobiy hal qilingan taqdirda Rossiya Polsha kordinal huquqlar deb ataladigan Polsha davlati chegaralarining daxlsizligini ta'minlaydigan kafolat sifatida qiladi. 1764-yilda taxtga o'tirgan va Polsha tarixida «Refarmator» sifatida nomini olgan Stanislav Avgust Ponyatovskiy Polshani Rossiya tomonidan qatnashuvdan saqlab qolish uchun Rossiya beradigan «kardinal



huquqlari»ni qabul qilishga tayyor ekanligini bildirdi. Xristian bo'lmaganlarning xristianlar bilan tenglashishi Polshaning deyarli barcha tabaqalari o'rtasida katta norozichilikning ko'tarilishiga sababchi bo'ldi. Bunda norozi kuchlar shlyaxta vakillari boshchiligida 1768-yilda Bar shahrida «Bar konfrensiyasi» tashkil etdilar. Aytish mumkinki, «Bar konfrensiyasi»ning Rossiyaga qarshi keyin Stanislov Avgust Ponyatovskiyning taslimchilik yo'liga kirishi va olib borgan faoliyati 1772-yilda Rech Pospolitayaning bo'linishiga olib keldi. Rech Pospolitaya 1-avgust kuni Vengriya va Rossiya o'rtasida bo'lindi.

Rech Pospolitayani bo'lish to'g'risidagi akt Peterburgda imzolandi. Rech Pospolitayaning bo'linishi to'g'risidagi aktning Peterburgda imzolanishi Rossiya diplomatiyasining eng katta xatosi edi. Sababi, polyaklarda Rossiya Polsha davlatini yo'qotishning tashabbuskori va faol ishtirokchisi degan tushuncha qoldi. Ikkinchidan, ular Rossiya agar Rech Pospolitayani bo'lib yuborish to'g'risidagi hujjatga imzo chekmaganida, Avstriya-Vengriya va Rossiya Rech Pospolitayani bo'la olmasdilar degan fikrini aytdilar. Rech Pospolitayaning birinchi bo'linishi natijasida, ya'ni tarixiy polyaklarning yerlari asosan Avstriya-Vengriya va Rossiya qo'li ostiga o'tadi. Rossiya esa tarixiy hujjatdan Rossiya da'vo qilib kelgan yerlar o'tadi.

Rech Pospolitaya hududlarining tarixiy jihatdan kimga tegishli yoki tegishli emasligidan qat'i nazar, Avstriya-Vengriya, Prussiya va Rossiya tomonidan zo'rlik yo'i bilan bo'linishi bu bosqinchilik siyosatning natijasi bo'lib, kelgusida Polsha davlatining navbatdagi bo'linishlariga keng yo'l ochib beradi. Rech Pospolitaya birinchi bo'linishdan keyin Polsha davlati mamalakatning qolgan hududlarini mustaqil saqlash va uni mustahkamlash, iloji bo'lsa Polshaning oldingi qudratini tiklash maqsadida reformalar o'tkazishga kirishdi. Bu reformalar birinchilar qatoridan davlatni boshqarish siyosatidagi reforma hisoblanadi. Bunga muvofiq davlat ishlari bilan shug'ullanadigan «doimiy kengash» tashkil etildi. Bu kengash ministrlar sovetini eslatar edi. Ikkinchisi pul reformasi bo'lib, unung o'tkazilishi mamalakatning moliyaviy hayotini yaxshilashga qaratildi, uchinchisi, ma'orif sohasidagi reformadir: uni amalga oshirishda Edukatsiya komissiyasi deb atalgan komissiyaning tuzilishi bo'lidi, bu termin «tarbiyalamoq va o'qitmoq» degan ma'noni anglatadi. Edukatsiya kommissiyasining asosiy faoliyati maktablardagi ta'lim tizimida diniy fanlar o'rniga matematika, kimyo, fizika kabi fanlar kiritishga qaratiladi. Rech Pospolitaya tarixidagi reformatsiyalar o'tkazish borasida eng mahsuldor davr 1788 va 1791-yillarda faoliy-

at ko'rsatgan «4 yillik seym» hisoblanadi. 4 yillik seym faoliyatida, ayniqsa, Gukko Kolyontay, Stashin, fransiyalik Ezerskiy faoliyatiga alohida etibor berishimiz zarur. Ular o'zlarining seym yig'ilishlarida, chiqishlarida e'lon qilgan publisistik maqolalarida Polshani halokatga olib kelgan sabablarga to'xtab o'tadilar. Uning orqada qolib ketish sabablarini izlaydilar va uning qanday tadbirlarini o'tkazish orqali yaxshilash choralarini axtaradilar.

G'arbiy Yevropa boshqa mamlakatlar bilan Rech Pospolitayaning tarixiy rivojlanish jarayonini solishtirar ekan, F. Ezerskiy boshqa mamlakatlar taraqqiyoti XVIII asrda bo'lsa, Polsha XVI asrda deb ko'rsatadi. Ular o'zlarining chiqishlarida va asarlarida Polshaning kasalligini hamma biladi, lekin hech kim uni davolashga urunmayotgan organizm deb ko'rsatadilar. Ular Polsha davlatining oldingi qudratini saqlash eng tog'ri yo'l deb hisoblaydilar. Seym deputatlari bu qirol hokimyatining merosiy ko'rinishini tiklashdan, shlyaxta ega bo'lgan «Liberum veto» huquqini bekor qilish va dehqonlarni krepostnoylikdan ozod qilishdan iborat.

**4 yillik seymning faoliyati** 1791-yil 3-mayda konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan yakunlanadi. Ushbu konstitutsiyaga muvofiq Rech Pospolitayaning ichki va tashqi hayotiga doir bo'lgan quyidagi muhim o'zgarishlar amalga oshirildi:

a) Monarx hokimiyati avloddan avlodga o'tadigan bo'ldi, ya'ni meroniy tus oldi;

b) «Liberum veto» huquqi bekor qilindi.

v) Rossiya maslahati bilan joriy etilgan «Doimiy kengash» deb atalgan kengash tarqatib yuborildi.

Atauski, Konstitutsiyada dehqonlar to'g'risida «g'amxo'rlik qilish kerak» degan umumiy so'zlar o'rin olgan bo'lsa-da, ammo ularning krepostnoylikdan ozod qilish to'g'risida hech narsa deyilmadi. 4 yillik seym tomonidan shunday konstitutsiyaning qabul qilinishi Rossiya tomonidan juda katta norozilik bilan kutib olindi. Torgovitsey degan joyda «Torgovitsey konfederatsiyasi»ni 1792-yilda Rossiya tarafdorlari tuzdilar. Bu konfederatsiyani Rossiya tomonidan mablag' bilan ta'minlab turilgan Braniskiy, Potoskiy va boshqalar boshqardilar. Konfederatsiya faoliyati boshlanishi bilan bir vaqtda Rus armiyasi Polsha hududiga yurish boshladi. Rossiyaning bu harakatlari Prussiya tomonidan quvvatlanadi. Natijada 1793-yilda Gradno shahrida Rech Pospolitaya ikki marotaba bo'lindi. Polshaning ikki marotaba bo'linishiga Avstriya-Vengriya qatnashmasdan, Prussiya va Rossiya qatnashdilar.

Polshani ikki marotaba taqsimlash to'g'risidagi akt tarixda «Inda-

maslar seymi» akti deb ham yuritiladi. Sababi, Gradnoda bo'lgan va Rech Pospolitayaning ikki marotaba taqsimlash haqidagi masalada birorta seym deputati kim rozi yoki norozi degan savolga javob bermadilar. Polsha ikki marotaba taqsimlangandan keyin Rossiya hukumati Polsha erkinligini bo'g'ish va uni Rossiya irodasiga bo'ysundirish maqsadida bir qancha radikal o'zgarishlar o'tkazildi. Ulardan biri 1793-yil oktyabr oyida Grednoda imzolangan «Polsha – Rossiya munosabatlari traktati»dir. Bu hujjatlarga ko'ra, belgilanib qo'yildiki, bundan keyin agar Polsha boshqa davlatlar bilan shartnomalar tuzadigan bo'lsa, Rossiyaning roziligini olishi kerak, bundan tashqari, agarda Polshaga birorta davlat hujum qiladigan bo'lsa, Rossiya va Polsha harbiylari birgalikda hujumni qaytarishi kerak, lekin qo'mondonlik qaysi tomon ko'proq kishini beradigan bo'lsa, o'sha tomondan qo'yiladi. Bundan tashqari, bu traktatga ko'ra, polyaklar armiyasi 100 ming kishidan to 15 ming kishigacha qisqartiladi. So'zsiz, bunday hisobda harbiy to'qnashuvlarda kim ko'proq qo'shin berishi va qo'mondonlik kimning qo'lida bo'lishi ayondir. Rech Pospolitaya ikki marotaba bo'lingandan keyin rus hukumati tomonidan o'tkazilgan ayrim tadbirlar polyaklarning milliy g'ururini toptadi va ularning milliy ozodlik harakatiga turtki bo'ldi. Bu, so'zsiz, 1791-yil 3-may konstitutsiyasining bekor qilinishi edi. Bu, so'zsiz, Polsha bilan Litva o'rtasidagi «Lublin uniyasi»ning bekor qilinishi ham edi. Rossiyaning mana shunday shovinistik va buyuk davlatchilik ruhidagi siyosati 1794-yil mart oyida polyak xalqining milliy ozodlik kurashiga o'tlanib chiqishga va qurolli qo'zg'olon boshlanishiga olib keldi.

1794-yil mart oyida qo'zg'olon tarixiy adabiyotlarda «Tadeush Kastyushko qo'zg'oloni» ham deb yuritiladi. Qo'zg'olon rahbari bo'lgan T.Kastyushko polyaklardan chiqqan eng talantli generallaridan bo'lib, u Yevropa mamlakatlarining qator harbiy maktablarida ta'lim olgan va Amerikadagi fuqarolar urushida qatnashib jangovar shuhratga sazovor bo'lgan kishi edi. Hozirgi kunda uni ikki xalqning ham polyak, ham amerika xalqining milliy qahramoni deb tilga oladilar. T. Kostyushko boshchiligidagi qo'zg'olonida asosiy rolni polyak shlyaxtasi o'ynadi. Shu o'rinda aytish joizki, Rech Pospolitaya qulagandan boshlab to 1863-yildagi Polsha qo'zg'olonida ham polyak xalqining milliy ozodlik harakatidagi asosiy rolni shlyaxta o'ynagan. Bu davrdagi milliy ozodlik harakatlarida Polshadagi boshqa ijtimoiy tabaqalarning vakillari ishtirok etsada, lekin ularning ulushi unchalik ham sezilarli bo'lgan emas. Ko'pchilik hollarda milliy ozodlik harakatlari

kuchaygan davrda, ya'ni qurolli chiqishlar kuchaygan davrda polyak dehqonlarining va yirik yer egalarining asosiy vazifasi qo'zg'olonlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'lgan. T.Kostyushkoning dunyoqarashi va jamiyatining turli tabaqalariga qo'zg'olon jarayonida ajratgan roli shlyaxtaning bu sohadagi qarashlaridan birmuncha farq qilar edi. Ya'ni Kostyushko dehqonlarni qo'zg'olonlarga jalb qilish maqsadida ularga beriladigan shaxsiy erkinlikni kengaytirish fikrini bildirdi. Qo'zg'olon davomida Kostyushko tomonidan qabul qilingan «Polonse universal-lari» deb atagan hujjatda dehqonlarga shaxsiy erkinlik berish, ya'ni ularni krepostnoy qaramlikdan ozod etish to'g'risida so'z yuritilgan edi. Afsuski, shlyaxta tomonidan bu rejalarining amalga oshirilishiga yo'l berilmasligi, T. Kostyushko tomonidan esa shlyaxta fikri bilan hisoblas-timaslik imkoni yo'qligi natijasida dehqonlarning siyosiy va huquqiy ah-vovalida yangilik bo'lmadi. Natijada ko'p sonli dehqonlar 1794-yildagi milliy ozodlik harakatida faol qatnashmadilar. T.Kostyushko boshchili-gidagi qo'zg'olonni bostirishga yuborilgan qo'shinlar ichida, ayniqsa, Suvorov boshchiligidagi qo'shinlar o'ta qonxo'rlik va shafqatsizligini ko'rsatib o'tish zarurdir. Qo'zg'olonchilarga «dars» berib qo'yish ma-qsadida Suvorov Varshava yonidagi Praga shahrini deyarli vayron qildi. Qo'zg'olon bostirilgandan keyin uning rahbarlari va faol qatnashchilari-ni, ya'ni harbiylarni, shu jumladan Tadeush Kostyushkoni ham Rossiya-ga olib ketishib, Petropavlovsk qal'asidagi turmaga tashladilar. T.Kosty-ushko boshchiligidagi polyaklarning milliy-ozodlik harakati qonga botirilgandan keyin Avstriya-Vengriya, Prussiya va Rossiya ishtirokida Polsha davlati uchinchi marotaba taqsimlandi. Bu 1795-yilda yuz berdi. Shunday qilib, Polsha o'zining milliy mustaqilligini yo'qotdi va haqiqiy 180 yil mobaynida o'zining milliy taraqqiyotini, madaniyatini va davla-tini rivojlantirish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Polsha uchun bu tarixiy hadakatning eng og'ir tomoni shundan iborat ediki, Rech Pospolitayani bo'lib olgan davlatlar bir vaqtlar unga yo vassallik holatida bo'lgan, yoki u tomonidan bo'ysundirilgan davlatlar edi.

**1795–1815-yillarda Polsha yerlari.** Milliy mustaqilligini yo'qot-gan Rech Pospolitaya yerlari 1795-yillardan 1815-yillarga qadar Yev-ropani tarixidagi yirik va keskin tarixiy voqealarining girdobida bo'ldi. Eng avvalo shuni aytib o'tish zarurki, milliy mustaqilligini yo'qotgan Polsha yerlarini uni bo'lib olishda ishtirok etgan davlatlar o'z siyos-atlarini izchillik bilan amalga oshira boshladilar va birinchi navbatda polyak xalqlarining milliy g'ururini toptagan holda buyuk davlatchilik va millatchilik siyosatini yuritdilar.

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Ilk feodal Polsha davlati qachon tashkil topgan?
2. Polsha Feodal davlatining birinchi hukmdorlari qaysi dinastiya vakillari edi?
3. Vladislav Lakodsning Polsha tarixidagi xizmati nimadan iborat?
4. Krevo uniyasi qachon imzolangan?
5. Yuplik uniyasi qachon imzolandi? Rech Pospolitaya qanday ma'noni anglatadi?
6. Koshisa, Neshol imtiyozlari kimlarning manfaatiga xizmat qilgan edi?
7. «Rodom konstututsiyasi» qachon qabul qilingan va unda shlyaxtaga qanday imtiyozlar berilgan?

## 27-MAVZU: UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI

### REJA:

1. G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlar tarixida Renessansning yuzaga kelish muammolari.
2. Uyg'onish davrining boshlanishiga asosan turtki bo'lgan shart-sharoitlar. Ilk italyan Uyg'onishi.
3. Uyg'onish davrida inson shaxsining o'rni va ilk uyg'onish davri san'ati.
4. Sharqda Uyg'onish davrining o'ziga xosligi, Yevropada gumanizmining yoyilishi.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** Uyg'onish (Renessans), insonparvarlik, neoplatonizm, san'at, madaniyat, dunyoqarash, arxitektura, badiiy fikrlar.

**G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlar tarixida Renessansning yuzaga kelish muammolari.** XIV – XV asrlarda Italiyada shaharlarning yuksalishi, sanoatning taraqqiy etishi va dastlabki manufakturalarning paydo bo'lishi Italiyaning Yevropa va Sharq mamlakatlari bilan umumiy aloqalarining natijasi edi. Italiya shaharlarida bank, kredit xalqaro kredit operatsiyalarining bo'lishi boshqa davlatlarga nisbatan Italiyada ilk kapitalistik munosabatlarining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Italiyada oldinroq ilk burjuaziya madaniyati yuzaga keldi. Bu madaniyatning nomi Uyg'onish (Renessans) davri madaniyati deb nomlanadi. Ilk burjuaziya Italiyasi uchun o'z sanoati, savdo-sotig'i uchun, shaharlarda o'z faoliyatlarini yuksaltirishlari uchun aniq fanlar, jumladan, matematikaning zarurligi ko'rinib qoldi. Italiya burjuaziyasi o'z turmush darajasini yaxshilash, chiroyli va hashamatli uylarda did bilan yashash uchun san'atni ham o'zlariga qabul qilishlari zaruriyati tugildi. Shuning uchun Italiya burjuaziyasi ichidan dastlabki adabiyotchilar, filosoflar, tarixchilar, shoirlar, musiqachilar, arxitektorlar, rassomlar va boshqalar yetishib chiqa boshladi.

Bularning hammasi Italiyada yangi g'oyalarning vujudga kelishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Tarkib topayotgan g'oyatda boy italyan burjuaziya sinfi bilan bir qatorda Italiya shaharlarida aqliy mehnat vakillarining hamda adabiyot va san'at bilan shug'ullangan kishilarni

ing ko'pdan ko'p guruhi: ko'pdan ko'p adabiyotchilar, shoirlar, publisistlar, vrachlar, o'qituvchilar, injenerlar, erkin kasb ustalari, rassomlar, haykaltaroshlar, arxitektorlar va boshqalar o'sib bormoqda edi. Yangidan tug'ilib kelayotgan ijtimoiy tabaqaning – intelegensiyaning bu barcha vakillari Uyg'onish madaniyati yoki gumanizm deb nom olgan yangi madaniyatning bevosita arboblari ga aylandilar.

Italiya xalq ommasi yangi progressiv, ilg'or madaniyatning ravnaqiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Xalq ommasining kundalik qattiq mehnati, hali o'z ahamiyatini yo'qotmagan yuksak darajadagi hunarmandchilik, xalq ommasining hokim (plutokratiya) boylarga qarshi juda qattiq, ba'zan jon-jahdi bilan olib borgan kurashi, umumiy hayotiy optimizm va birdamlik uyg'onish madaniyatining eng yaxshi vakillarini ruhlantirib yubordi, gumanistlar ijodiga shunday chuqur xalq-demoqratik xususiyatlarni kiritdiki, bu xususiyatlar pirovardida ularning asarlarini juda ham jozibador qilib yubordi.

Uyg'onish termini (fransuzcha «Renessans») yangi madaniyatning antik madaniyat bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Sharq bilan, xususan, Vizantiya bilan tanishish salib yurishlari davrida Levant bilan muntazam aloqadorligini ko'rsatadi.

**Uyg'onish davrining boshlanishiga asosiy turtki bo'lgan shart-sharoitlar. Ilk italyan Uyg'onishi.** Sharq bilan, xususan, Vizantiya bilan tanishish, salib yurishlari davrida va undan keyingi davrda Levant bilan muntazam aloqa qilish natijasida italyanlar qadimgi yunon qo'lyozmalari, antik tasviriy san'ati va arxitekturasi turli xil yodgorliklari bilan tanishadilar. Bu barcha qadimiy yodgorliklarni qisman Italiyaga olib kela boshladilar, bu yerda ular kolleksiya qilindi va o'rganildi. Ammo Italiyaning o'zida ham ancha-muncha antik Rim yodgorliklari bo'lib, Italiya shahar intelligensiyasining vakillari ularni ham sinchkovlik bilan o'rgana boshladilar. Italiya jamiyatida qadimiy klassik tillarga, qadimiy falsafa, tarix va adabiyotga chuqur qiziqish paydo bo'ldi. Florensiya shahri bu harakatda, ayniqsa, katta rol o'ynadi. Florensiya shahridan yangi madaniyatning bir qancha atoqli arboblari yetishib chiqdi.

Qachonlardir iqtisodiy jihatdan eng gavjum va o'zining siyosiy tuzumi jihatidan eng demokratik bo'lgan qadimiy shaharlarda vujudga kelgan antik ideologiyadan foydalanib, tug'ilib kelayotgan yangi burjuaziya qadimiy madaniyatni oddiy passivlik bilan o'zlashtirmay, balki uni o'zicha qaytadan ishlab chiqdi. Yangi italyan madaniyatining ikkinchi nomi, ya'ni g u m a n i z m ham xuddi shundan dalolat beradi.

O'rta asr ideologiyasi diqqat markaziga ilohiylikni, oxiratni qo'ygan bo'lsa, gumanizm madaniyati insonning o'zini o'z dunyoqarashining diqqat markaziga qo'ydi. Gumanistik dunyoqarashda asketizmga esa endi o'rin qolmadi. Inson tanasi, uning zavq-shavqi va ehtiyoji gumanistlar tomonidan bostirish yoki azoblash kerak bo'lgan qandaydir gunoh bir narsa deb emas, balki hayotdagi eng asosiy muddaodir, deb tan olindi. Tabiat bilan insonni e'tirof etish fanning mohiyatidir, deb e'lon qilindi. O'rta asr sxolastlari va mistiklarining dunyoqarashida hukm surgan pessimistik ohanglarga zid o'laroq, Uyg'onish davri kishilarning dunyoqarashi va kayfiyatida optimistik ohanglar ustunlik qilardi, bu kishilar uchun insonga, insoniyatning yorug' kelajagi, inson aql-zakovati va ma'rifatining kelgusida tantana qilishiga ishonish xarakterli bir hol edi. Bu yangi buyuk aqliy harakatda atoqli shoirlar va yozuvchilar, olimlar va har xil san'at arboblari guruhi qatnashdi. O'rta asr bilan yangi zamon chegarasida turgan eng yirik siymo («O'rta asrning so'nggi shoiri va shu bilan birga yangi zamonning birinchi shoiri») florensiyalik Dante Aligyeri (1265–1321) edi. Dante zamonidagi boshqa hech qanday asar uning «Ilohiy komediya»sidagidek O'rta asrlarning butun ideologiyasini aks ettirmagan edi.

XIV–XV asrlardagi boshqa tarixchi-gumanistlardan Flaviya Biondo (1388–1463) eng ko'p nom qozongan bo'lib, u «Rim imperiyasining qulashidan boshlanadigan tarix» (410–1410) nomli umumlashtiruvchi xarakterda katta asar yozdi.

**Uyg'onish davrida inson shaxsining o'rni va ilk uyg'onish davri san'ati.** Davrning iqtisodiy-siyosiy hayoti inson shaxsiyatini oldingi o'ringa qo'yadi. Endilikda insonga cherkov feodal tabaqachilik munosabatlari ta'lik qila boshlaydi. Dunyoviy fikrlovchi yangi dunyoqarash namoyandalari turli kasbdagi va turli ijtimoiy mavqega ega bo'lgan kishilar – shoirlar, filologlar, rassomlar o'zlarining tadqiqot obyektlari deb insonni hisoblaydilar. O'z-o'zidan savol kelib chiqadi. Gumanistlar kimlar?

Gumanistlar yangi dunyoga ko'z tashlashda o'tmish antik dunyodan andoza olgan holda yangi ma'rifiy g'oyaning kelishida asosiy rol o'ynaydilar. IX–XII asrlarda yuzaga kelgan Sharq ilmiy falsafasi va Sharq madaniyati mutafakkirlari Roziy, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rashid asarlari Yevropadagi yangi davr mutafakkirlarining yuzaga kelishida asos bo'ldi.

Uyg'onish davri madaniyatining tarqalishi XIII–XIV asrlardayim Italiyadan boshlandi. Bunga sabab Italiyada qadimdan antik davr madaniyati va san'ati kuchli rivojlanganligi, Sharq ilmiy-ma'rifiy



ta'sirini g'arbiy o'lkalariga borishidir. G'arbiy va Markaziy Yevropada Uyg'onish davri quyidagi bosqichlar bilan ifodalanadi:

1. XIII–XIV asrlardagi ilk davr – tasviriy san'at va arxitekturaning rivojlanishi.
2. XV asrdagi yuksak uyg'onish – adabiyotning rivoji.
3. XVI asr – so'nggi uyg'onish davri sinfiy kurashlarning keskinlashuvi bilan xarakterlanadi.

XV asrning ikkinchi yarmiga kelganda Yevropaning barcha mamlakatlarida gumanizm keng tarqaldi. Qadimgi avtorlar, ya'ni Siseron, Seneka, Tatsit va boshqalarning uslubida «qaytadan tiklangan» internatsional lotin tilidan foydalangan gumanist yozuvchilar, rassomlar va olimlar Yevropada o'ziga xos birodarlik tashkil etdilar, bu birodarlik turli mamlakatlarning olimlari o'rtasida qizg'in yozishmalar olib borilishiga sabab bo'ldi. Feodal-krepostnoylik munosabatlarining keskinlashishi gumanizmning antifeodal yo'lga tushib qolishiga sabab bo'lgan. Italiyaning o'zida, XV asrda, Florensiyadan tashqari yana Rimda, Neopolda, Milanda va Venetsiyada Uyg'onishning boshqa markazlari bor edi. Uyg'onish san'ati, shuningdek, gumanistik falsafa, adabiyot, siyosiy fikr bundan keyingi, XVI asrda, so'nggi Italiya yoki Yuksak Renessans davri deb atalgan davri zo'r rivoj topdi.

XVI asrda gumanizm uzil-kesil umumyevropa madaniy harakatiga aylanib, O'rta asr sxolastikasiga juda qattiq zarba yetkazdi.

**Sharqda Uyg'onish davrining o'ziga xosligi, Yevropada gumanizmning yoyilishi.** Ilm-fan va madaniyatni rivojlanishi O'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropaga xos bo'libgina qolmasdan, jahon xalqlari tarixiga, jumladan, Sharq xalqlari tarixiga ham bog'liqdir.

Akademik N.I.Kondrat VIII–XII asrlarida Uyg'onish Xitoyda boshlangan deyishi bilan A. Hayitmetov, M.M.Xayrullayev va boshqalar O'rta Osiyoda IX–XII asrlarda Uyg'onish davri boshlandi deb ko'rsatadi.

Sharq uyg'onish davri bilan G'arb uyg'onishi o'rtasidagi farq va o'xshashlik va farq asosan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'zgarishi mazmunida yechiladi. Yevropada feodalizm munosabatlaridan kapitalizm yoki yangi ishlab chiqarish bosqichiga qadam qo'yish bilan bog'lansa, Sharqda esa xalifalik savdo maydonlarining kengayishi va shaharlar tarmog'ining o'sishiga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'lanadi.

**Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari.** Sharqda IX–XII asrlarda fan rivojlanishi uchun imkoniyat yuzaga keldi. Fan va ma'rifiy ta'limotchilar qatorida Qur'on mazmunini xalqqa yetkazib beruvchi ma'rifatchilar, hadisiy ta'limotchilar yuzaga keldi. Diniy dunyoqarash va

dunyoviy dunyoqarashlar negizida o'ziga xos renessans yuz berdiki, natijada xalqaro tarixda Arab falsafasi degan ibora yuzaga keldi. Yirik allomalar qatorida Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, adabiyotda Rudakiy, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, hadis ilmi vakillaridan Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy va boshqalar. Rassomlikda Behzod kabilar Sharq va O'rta Osiyoda ilmiy va insonparvarlik g'oyalari himoyachisi bo'ldi.

Kitob bosishning ixtiro qilinishi yangi, burjua madaniyatining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. XV asr boshlaridayoq G'arbiy Yevropada diniy ommaviy adabiyotni (ibodat va duolar to'plamida boshqalarni) tarqatish uchun alohida ksilografik usuldan foydalandi. Taxtaga rasm va yozuvlarni o'yib yozib, keyin ularni qog'ozga bosardilar (XIV asrdan e'tiboran Yevropada yozuv qog'ozi qo'llaniladigan bo'ldi). Ish keskinlik bilan bordi, taxtadan o'yib yozilgan do'ng harflar, kitob teksti qog'ozga bosib bo'lingandan keyin keraksiz bo'lib qoldi. Maynsda tug'ilib, keyin Strasburgga ko'chib kelgan Ioann Gutenberg (1400–1468)ning kitob bosish ishini ixtiro qilishda ko'rsatgan xizmati shundaki, u, harakatlanadigan harflar ixtiro qilib, ular boalida yog'ochdan yasaldi, keyin esa bu harflar metall harflar bilan almashtirildi. Bundan tashqari, Gutenberg qog'ozning ikkala tomoniga matn bosish imkoniyatini beradigan alohida press-dastgoh ixtiro etdi. Bu ixtiro, taxminan, 1445-yilda qilingan bo'lib, dastlabki paytda u qat'iq sir tutildi. Ammo, oradan 15 yil o'tgach, bu ixtiro oshkora bo'lib, u Germaniyadan boshqa mamlakatlarga yoyildi.

1490-yilda o'z bosmaxonasini qurgan venetsiyalik nashriyotchi germanist Ald Manusiy (1448–1515) falsafa, matematika va astronomiyaga doir 120 asari nashr etdi, bu asarlar asosan lotin tilida, qisman fransuz tilida bosib chiqarildi.

Kitob bosishning ixtiro qilinishi juda katta ahamiyat kasb etdi. Kitob bosish kitob tayyorlashni ko'p marta tezlashtirdi va ayni zamonda ularning narxini arzonlashtirdi. Shuning o'zi bilan, yangi zamondagi burjua maorifini ravnaq toptirish uchun na qadimgi dunyoda, na O'rta asr davrida sira ko'rilmagan juda qulay texnika shart-sharoitlari vujudga keltirdi.

**Nazorat topshiriqlari:**

1. Uygʻonish davri madaniyatining rivojlanishi qaysi oʻtmish davri-  
ni takrorladi?
2. Sharqda Uygʻonish davri asosan qaysi asrlarni oʻz ichiga oladi?
3. Italiyada shaharlarning yuksalishi qaysi davrga toʻgʻri keladi?
4. «Plutokratiya» soʻzining maʼnosini nima?
5. XV asrda Yevropadagi ijtimoiy siyosiy vaziyat qanday edi?
6. Yevropada Uygʻonish davrining yuzaga kelishida Sharq madani-  
yatining roli.
7. Gumanizm atamasini izohlab bering.
8. Yevropada gumanizmning yoyilish davrini aniqlang.
9. Uygʻonish davri madaniyati avvalo qayerdan va qachon boshlandi?
10. Uygʻonish davrining xarakterini koʻrsating.

## 28-MAVZU: SHVETSIYA XVI-XVII ASRLARDA

### REJA:

1. Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bo'lishi. Shvedlar reformatsiyasi.
2. XVI–XVII asrlarda Shvetsiyaning iqtisodiy taraqqiyoti.
3. XVI–XVII asrlarda Shvetsiyaning tashqi siyosati.
4. Shvetsiyada sotsial ziddiyatlarning keskinlashuvi.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** Kalmar, uniya, Stokgolm fojiasi, Sture, milliy shved sulolasi, shved dvoryanlari, ruhoniylar, graf, baron, nerke qo'zg'oloni, reduksiya.

**Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bo'lishi.** Shvetsiyada Kalmar uniyasidan norozilik XVI asr boshlarida vujudga keldi. Bu hukmronlikka qarshi norozilik keng milliy harakat tusini oldi. Bu hukmronlikka qarshi dushmanlik ruhi Shvetsiyada tobora kuchaymoqchi edi. Shimoliy va Boltiq dengizlarida daniyaliklarning savdo-sotiq ishlari kengaya borgani sari Daniya hukumati Boltiqbo'yida yanada ko'proq mustahkamlanib olishga harakat qilar va Shvetsiya hududini Daniyaning shimoli-sharqidagi ta'sirini kuchaytirish uchun zarur baza deb bilar edi.

Daniya qiroli Kritian II (1513–1523-y.) bu masalada, ayniqsa, katta rejalar tuzdi, u zaiflashib qolgan Ganzaning o'rnini Daniya bosadi va Boltiq dengizida savdo-sotiq ishlarini tamomila o'z qo'liga kiritib oladi, deb xayol qilgan edi. Daniya qo'shinlari 1520-yilda Stokgolmni bosib oldilar, Sture xonadoni regentligi tugatildi, shved dvoryanlari, ruhoniylari va shaharliklarining ko'pgina namoyandalari o'ldirildi, Daniya hokimiyatiga oppozitsion kayfiyatda bo'lganlardan jami 100 dan ko'proq kishi qirib tashlandi. Daniya feodallarining shved milliy oppozitsiyasiga nisbatan qilgan bu qirg'ini Shvetsiya tarixida «Stokgolm fojiasi» (1520-yil, noyabr) deb ataladi. Ammo daniyaliklarning bu terrori milliy harakatning yanada kuchayishiga sabab bo'ldi, xolos. Mamlakatning turli joylarida dehqonlar, shaharliklar, o'rta va mayda dvoryanlar Daniya hukmdorlariga qarshi bosh ko'tardilar. Shvetsiyaning tog'li rayoni bo'lgan Delekarliyada milliy harakat ayniqsa keng va qat'iy tus oldi, bu yerda dehqonlar otryadlar tuzdilar va bu otryadlar daniyaliklarning qo'shinlarini muvafaqqiyatli ravishda surib chiqardilar.

O'rta dvoryanlardan chiqqan Gustav Vaza butun milliy harakatga boshchilik qilib, mamlakatdagi barcha kuchlarni: dvoryanlar, shaharliklar va dehqonlarni bir qancha vaqtgacha umumiy bir milliy front qilib birlashtirib turishga muvaffaq bo'ldi. Milliy harakat g'alaba bilan tugadi. Shvedlar Skandinaviyasining eng janubiy qismidagina daniyaliklar bir necha viloyatni o'z qo'llarida saqlab qoldilar. 1523-yilda Gustav Vaza Stokgolm shahriga tantanali suratda kirib borib, Kalmar uniya-sini bekor qildi va Shvetsiyani mustaqil deb e'lon qildi. Uning o'zi Shvetsiyaning qiroli qilib saylandi (u 1523–1560-yillarda hukmronlik qildi). Gustav Vaza asos solgan milliy shved sulolasi bundan keyingi asrlarda Shvetsiyanigina emas, balki XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrda qo'shni Polshani ham idora qildi. Avvalboshda yangi shved hukumatining ahvoli juda og'ir edi. Mamlakat daniyaliklar zulmi va uzoqqa cho'zilgan ozodlik urushi tufayli xonavayron bo'ldi. Sanoat va savdo-sotiq ishlari kasod bo'ldi. Xazinada pul qolmadi. Mahkamaning 1527-yilda qirolga yozgan dokladida bunday deyilgan edi; "Sizning qasr va qal'alaringiz vayron bo'lib yotibdi. Qirolning daromadlari tamoman sarf bo'lib ketgan».

Reformatsiya va sekulyarizatsiya qilish yo'li bilan bu mushkul ahvoldan qutulish chorasi topildi. Shvetsiyadagi katolik cherkovi bo'yliklarning hatto dvoryanlar orasida ham allaqachon burdi ketgan edi, chunki eng ko'zga ko'ringan yepiskoplar shved milliy doiralari bilan emas, ko'proq Daniya qiroli bilan aloqada edilar. Germaniyada o'tkazilgan reformatsiya bu yerda ham allaqachonlar havas qo'zgatib qo'ygan edi. Shuning uchun 1527-yildayoq Shvetsiyaning Vestorosdagi seymida Shvetsiyada ham reformatsiya qilingan injilchilar cherkovi o'rnatish, cherkov yerlarini sekulyarizatsiya qilish masalasi asosan hal qilingan edi. Shvetsiyada uzul-kesil islohot 1536–1539-yillarda o'tkazildi. Angliyadagi kabi Shvetsiyada ham sekulyarizatsiya qilish natijasida qirol va ayniqsa dvoryanlar boyib ketishdi, chunki sekulyarizatsiya qilingan mulklarning ko'p qismi dvoryanlar qo'liga o'tdi.

O'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun Gustav Vaza yana bir qancha boshqa tadbirlarni ham ko'rdi. U 1542-yilda maxsus farmon chiqarib, qirollikdagi ishlanmay bo'sh yotgan barcha jumoa yerlarini o'z mulki deb e'lon qildi. 1551-yilda chiqarilgan farmonda barcha yer osti boyliklari, ya'ni Shvetsiyada juda ko'p bo'lgan har xil konlar qirol mulki deb e'lon qilingan edi. Dvoryanlar hukumatining yer masalasidagi siyosati dehqonlarning ahvolini yomonlashtirib qo'ydi. Ilgari cherkovga qarashli bo'lgan yerlarni o'z qo'llariga kiritib olgan

yangi yer eralari barshchina va obrokni ko'paytirdilar hamda erkin va yarim qaram bo'lgan dehqonlarni mumkin qadar krepostnoy qilishga harakat qildilar. Bu hol, shuningdek, dehqonlar ixtiyoridagi yerlarning tortib olinishi ham dehqonlarda qattiq norozilik tug'ilishiga sabab bo'ldi. Bir vaqtlar daniyaliklarga qarshi kurashda qaror topgan milliy front tarqalib ketib, uning o'rniga mahalliy (shved) feodallariga qirol hukumatiga qarshi dehqonlar kurashi boshlanib ketdi.

30 va 40-yillarda Shvetsiyada dehqonlarning bir necha marta katta qo'zg'olonlari bo'ldi. Bu qo'zg'olonlardan eng mashhurlari: Dalekariyada bo'lgan 1526–1533-yillardagi qo'zg'olon, Ost-Gollanddagi 1538-yilgi qo'zg'olon va dehqonlarning 1536–1543-yillarda bo'lib o'tgan janubiy shved harakatidir. Janubiy shved harakati vaqtida o'rmonlarda juda ko'p «o'rmon ahli»dan otryadlar uyushtirilib, bu otryadlarga qo'shilgan kishilarning soni mingga yetgan edi. Pirovard natijada bu qo'zg'olonlarning hammasi bostirildi. Qirolning moliyaviy ishlari yaxshilangandan keyin hukumat katta yollanma armiya saqlash imkoniyatiga ega bo'ldi va bu armiyadan dehqonlar harakatini bostirish uchun foydalandi. Asosan dehqonlardan tashkil topgan qirol armiyasiga tekis-asta dehqonlarning eng faol elementlari qo'shila bordi va shunday qilib dehqonlar oppozitsiyasiga raxna solindi.

**XVI–XVII asrlarda Shvetsiyaning iqtisodiy taraqqiyoti.** XVI asrda Shvetsiya ekonomikasi bir qancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Qashloq xo'jaligining (asosan janubiy va janubi-sharqiy tumanlarida) tayyor mahsuldorligi ortishi bilan birga, mamlakat sanoati – temir, mis, kumush, qalayi qazib chiqarish, qurolsozlik, yogoch tilish va qog'oz sanoati, mo'yua ishlash, kemasozlik ham taraqqiy qilmoqda edi. Gustav Vaza Germaniyadan juda ko'p konchilar va metalsozlar chaqirib keltirdi. Yog'och tilish korxonalari va shaxtalarda XVI asrning ikkinchi yarmidayoq tog'dagi daryolar, soylar va shalolalarning quvvatidan keng foydalanardilar. XVII asrda Shvetsiyada har xil qurol-yarog'lar ishlab chiqarilardi. Ishlanmagan temir va undan tayyorlangan har xil buyumlar shvedlarning chetga chiqaradigan mollari ichida asosiy o'rin inardi. Shuningi xarakterliki, XVI–XVII asrlarda Shvetsiyada manufaktura tipidagi sanoat korxonalarini ko'pincha dvoryanlarning o'zlarini tashkil qilar edilar. Bu esa qisman o'sha davrda Angliyadagi mayda dvoryanlarning korxonaga egalari bo'lishini eslatardi. Shvetsiya, Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Germaniya, Daniya, Polsha va Rossiya bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi. Ko'pgina shaharlar – Stokgolm, Gotalma, Uppsala, Abo, Xelsinki va boshqalar muhim savdo markazlari

bo'lib qolgan edi. Okean naryog'idagi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun Shvetsiyada 1627-yilda «Janubiy kompaniya» tashkil qilingan edi. 1668-yilda Shvetsiyada davlat banki tashkil qilindi, bu Yevropada eng ilk ochilgan banklardan biri edi. Lekin Shvetsiya sanoati juda ham bir yoqlama taraqqiy etgan edi. Asosan qazib chiqaruvchi sanoat taraqqiy topgan bo'lib, metalsozlik sanoati qisman rivojlangan edi.

Shvetsiyaning XVII asrdagi eksporti asosan xomashyodan va yarim xomashyodan iborat edi, ya'ni chet ellarga temir, mis, har xil turdagi yog'och, yog', baliq, mo'yna va shu kabi narsalar chiqarilar edi. Gazmol (movut, polotno va h.k.), yuqori nav metall buyumlar va shu kabilarni Shvetsiyaning o'zi chet ellardan sotib olar edi. Shvetsiya XVI asrda juda ko'p g'allani, XVII asrda undan ham ko'prog'ini chet ellardan - Rossiyadan va Boltiqbo'yi mamlakatlaridan sotib olardi. Mahalliy sanoat xomashyo (jun, kanop va shu kabilar)ning yetishmaganligi Shvetsiya sanoatining rivojlanishiga xalaqit berardi. Shvetsiyaning to'qimachilik sanoati XVII asrda ham endi vujudga kelayotgan holatda edi.

**XVI–XVII asrlarda Shvetsiyaning tashqi siyosati.** Daniya hukmronligidan qutulib olganidan keyin Shvetsiyaning o'zi qo'shnilariga nisbatan keng miqyosda agressiv siyosat yurgiza boshladi. Boltiq masalasi Shvetsiyaning tashqi siyosatida asosiy o'rin tutadi. XVI asrda ham, XVII asrda ham qirollik qilgan shved qirollarining tashqi siyosati Boltiq dengizi orqali qo'shni mamlakatlarni butunlay o'z qo'llariga kiritishga intilishdan iborat edi. Shu maqsadga erishish uchun Shvetsiya bu davr ichida o'z qo'shnilari bilan juda ko'p yurishlar qildi. Shvetsiya Livoniya urushida ishtrok etib, natijada Estoniyani va Liflyandiyaning bir qismini bosib oldi. XVII asrda Rossiyaning zaiflashib qolganidan foydalanib, Shvetsiya 1617-yilgi Stolbovo sulhiga muvofiq Ingermanlandiya va Kareliyani bosib oldi, shunday qilib, Moskva davlatini Boltiq dengizi qirgoqlaridan tamomila ajratib qo'ydi. G'arbiy Yevropa bozorlariga yuboriladigan rus mollarini Narvaga, Abo, Viborg va Revelga olib borish lozim bo'lib qoldi. Chet el savdogarlari rus savdogarlari bilan bevosita savdo-sotiq qila olmay qoldilar. Rus savdogarlari o'zlarining tashqi savdo ishlarini Arxangelskka ko'chirishga majbur bo'ldilar, chunki bu yerga shvedlar kirib bora olmas edilar.

1629-yilda Altmark sulhiga muvofiq Shvetsiya Riga shahrini, Kurlyandiyaning, Sharqiy Prussiya bilan Litvaning bir qismini olib, Liflyandiya yerdagi yerlarini kengaytirdi. Qirol Gustav II Adolfning (1611–1632) keng ko'lamdagi istilochilik rejalarini haqida yuqorida aytib o'tilgan edi,

u Boltiq dengizining janubiy (nemis) qirgoqlarini bosib olishni niyat qilib, O'ttiz yillik urushda qatnashgan edi. Darhaqiqat, Boltiq dengizi «shvedlar dengizi»ga aylanganidek bo'lib ko'ringan edi. 1648-yilgi Vestfaliya sulhiga muvofiq, Shvetsiya Germaniyaning shimolidagi g'oyat muhim viloyatlarni, ya'ni Germaniyaning eng katta daryolaridan uchasi – Elba, Vezer va Oder daryolarning dengizga quyiladigan joylarini egallagan edi. Bundan tashqari, Shvetsiya Daniyaning Gotland orolini (1645-yilda) bosib olgan va Zund orqali shved kemalarining bemaolol (boj to'lamay) o'tib yurish huquqiga ega bo'lgan edi. XVII asr o'rtalarida Shvetsiya daniyaliklarni Janubiy Skandinaviyadan butunlay surib chiqargan edi (1658-yilda Blikeng, Skoniya va Gollad viloyatlarining qo'lga kiritilishi ko'zda tutiladi).

XVII asrning ikkinchi yarmida Shvetsiya uch million aholisi bo'lgan mamlakatga aylandi. Ammo bunda shvedlarning o'zi esa bir milliondan ortiq emas edi. Qolgan ikki millioni boshqa xalqlar: finlar, karellar, ruslar, estonlar, latishlar, polyaklar, litvaliklar, nemislar va daniyaliklar edi. Bunday holda Shvetsiyaning davlat tuzumi mustahkam bo'lib qola olmas edi.

Bo'ysundirilgan va ezilayotgan millatlar ertami-kech Shvetsiyadan ajralib chiqib, etnik chiqishlari jihatidan yaqin bo'lgan, tili bir xil bo'lgan, shuningdek, iqtisodiy va madaniy manfaatlari yaqin bo'lgan qo'shni mamalkatlarga qo'shilib ketishga intilmay iloji yo'q edi. Bundan tashqari, Shvetsiyaning yuz ellik yildan ortiqroq davr mobaynida Vaza sulolasidan bo'lgan shved qirollari amalga oshirib kelgan agressivlik, urushqoqlik va ulug' davlatchilik siyosatiga javoban qo'shni mamlakatlarning shvedlar agressiyaga qarshi kurashini o'zgartiradi.

Shvedlar Boltiq dengiziga tanho o'zlari hokim bo'lishga intilib, Rossiya, Polsha, Germaniya, Daniya va Boltiqning hayotiy manfaatlariga qo'pol ravishda putur yetkazardilar. Shvedlarning bosqinchiligiga xalqni berish maqsadida harakat boshlagan, Yevropa davlatlarining ittifoqi XVII asr o'rtalaridayoq tuzilgan edi, unda Polsha, Daniya, Avstriya, Brandenburg va Moskva davlati ayni bir vaqtda Shved qiroli Karl X ga qarshi otlangan edilar. XVII asr oxirlarida shvedlarga qarshi (Rossiya, Polsha va Daniyadan iborat) ittifoq qat'iy rasmiylashdi. 1700–1721-yillarda davom etgan Shimoliy urush Shvetsiyaning tamomila mag'lubiyati bilan tugadi va natijada u Yevropaning ikkinchi darajali davlatlari qatoriga tushib qoldi.

**Shvetsiyada sotsial ziddiyatlarning keskinlashuvi.** Shvetsiyaning XVI–XVII asrlardagi taraqqiyotida yuz bergan ziddiyatlar yolg'iz tash-



qi ziddiyatlardangina iborat bo'lib qolmadi. Mamlakat ichida sotsial va siyosiy ziddiyatlar yetilib qolmoqda va tobora keskinlashmoqda edi. Shvetsiya sanoat va savdoni rivojlantirish sohasida bir qancha muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, ammo shunga qaramay, bu davrda u sanoat mamlakatiga aylana olmadi. Shved shaharlari taraqqiy etgan bo'lishiga qaramay, G'arbiy Yevropaning eng taraqqiy etgan boshqa mamlakatlarining shaharlari kabi mamlakatda katta ta'sirga ega bo'la olmadilar. Shvetsiyaning sotsial tuzumi uchun oqsuyak dvoryanlarning g'oyat katta e'tiborga ega bo'lganliklari xarakterlidir.

Ular ishlanadigan yerlarning ko'p qismini, ko'pgina o'rmonlar, konlar, ko'llar va boshqa hududlarni egallab olgan edilar. Harbiy, ma'muriy va diplomatiya sohasidagi rahbarlik o'rinlarda ham oqsuyaklar turardi. Senat – XVII asrda Shvetsariyaning muntazam ishlab turadigan oliy hukumat organiga aylantirilgan ilgarigi davlat kengashi – riksrad ham o'sha aristokratlar qo'lida edi.

Aristokratlarning ta'siri Gustav Adolf davaridayoq o'sgan va uning qizi (avval yosh bo'lib, so'ngra ulg'ayganidan keyin ham hech qanday mustaqillik ko'rsatmagan) qirolicha Kristiana vaqtida unvonli dvoryanlar juda ham ko'payib ketgan edi. Quyida keltirilgan raqamlar buni yaqqol ko'rsatadi: 1654-yilda esa graflar 22 taga, 1632 yilda Shvetsiyada 4 ta graf, 321 dvoryan bo'lgan. XVII asr o'rtalarida dvoryanlar qirolikka qarashli yerlarning hammasini deyarli talon-taroj qilishgan va o'zaro bo'lishib olgan edilar. XVII asrning o'rtalariga kelib, Shvetsiyada qirolikka qarashli hamma qulay haydalgan o'tloq yerlarning kamida 70 foizi dvoryanlar qo'lida edi. Dvoryanlar o'z yerlarida yashayotgan dehqonlardan davlat soliqlarini o'z foydalariga to'plash, mahalliy qishloq cherkovlariga pasportlar tayinlash, bir necha nojo'ya ishlar uchun dehqonlarni o'zlari sud qilish huquqini oldilar. Pomeschchiklar XVI va XVII asrlarda ham iqtisodiy va yuridik jihatdan o'zlariga qaram bo'lib qolgan dehqonlarni har qanday yo'llar bilan krepostnoylarga aylantirishga harakat qilar edilar.

Shu tarzda Shvetsiyada XVI–XVII asrlarda ro'y bergan feodal jarayonlar o'z xarakteri jihatidan «ikkinchi marta asoratga solish» deb ataladigan hamda Elbaning sharqidagi mamlakatlarda ro'y bergan jarayonlarga yaqinlashib qolgan edi. Oqibat natijada mahalliy sharoitlar tufayli, avvalo mamlakatda yetarli darajada qulay va keng haydaladigan yerlar yo'qligi tufayli, shuningdek, tarixiy iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi boshqa sabablar tufayli Shvetsiyada XVI asrda ham krepostnoylik sistemasi qaror topmadi. Shunga qaramay, asoratga solish sohasidagi

tendensiyalar ancha real bo'lib, buning natijasida Shvetsiya dehqonlarining ahvoli ancha yomonlashgan edi.

Bularning hammasi o'tkir sotsial ziddiyatlarni keltirib chiqardi. XVII asrning o'rtalarida Shvetsiyaning turli rayonlarida dehqonlarning jiddiy harakatlari ro'y berdi. 1653-yilda o'rta Shvetsiyadagi (Nerke viloyati) qo'zg'olon, ayniqsa, kuchli bo'ldi. Bu qo'zg'olonda dehqonlar mamlakatdagi barcha dvoryanlarni yakson qilish shiorini tashladilar. Taxminan shu paytlarda qaram viloyatlarda – Finlandiya, Kareliyada, Boltiqbo'yi viloyatlarida, shuningdek, ilgari Daniyaga tegishli bo'lgan va yaqinda qayta qo'shib olingan janubiy Shvetsiya viloyatlarida dehqonlarning g'alayonlari bo'lib o'tdi. Mayda dvoryanlar va burjuaziya o'z navbatida aristokratiyaning zo'ravonligidan g'azablanar hamda riksdagi (Shvetsiya seymining quyi palatasi) aristokratiya tomonidan talon-taroj qilingan qirollik yerlarining xazinaga qaytarilishini talab qildilar.

Shvetsiyada XVII asrning ikkinchi yarmidagi qirollar – Karl X va Karl XI davrida qisman reduksiya o'tkazildi. Biroq aristokratiya doiralari shundan keyin ham o'z siyosiy ta'sirlarini yo'qotmadilar. Shvetsiya XVIII asrning boshlarida ham umuman tipik feodal sosloviyali aristokratik monarxiyaligicha qolaverdi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. XVI asrlarda boshlangan milliy harakat kimdan norozi edi?
2. Milliy harakatga kim boshchilik qildi?

## 29-MAVZU: XVI–XVII ASRLARDA ITALIYA

### REJA:

1. Italiyada iqtisodiy tushkunlikning boshlanishi.
2. Savonarolaning chiqishi. Rimning talanishi.
3. Keyingi uygʻonish. XVI asr italyan madaniyati.
4. Neapolda Mazanello qoʻzgʻoloni.

**Tayanch soʻzlar va iboralar:** iqtisodiy tushkunlik, savdo va sanoat, siyosiy tarqoqlik, Savonarola chiqishi, «talon-taroj kuni», buyuk gumanistik madaniyat markazi, keyingi italyan Uygʻonish davri namoyandalari, italyan fani, Mazanello qoʻzgʻoloni, Sitsiliyadagi harakat.

**Italiyada iqtisodiy tushkunlikning boshlanishi.** XVI asrda Italiyada iqtisodiy tushkunlik boshlandi. XV asr oxirlaridayoq italyan sanoatining tushkunlikka uchraganligi sezila boshladi. Hatto Italiyada Florensiya movuti oʻrmini ingliz movuti qisman egallay boshladi. Yevropaning oʻz sanoati rivojlanib borganligidan italyan movuti u yerda kamroq sotiladigan boʻlib qoldi. Angliyadan tashqari, Fransiya bilan Germaniyada ham sanoat yuksalib bordi. Niderlandiya butun XVI asr davomida savdo va kema qatnovi sohasidagina emas, sanoat sohasida ham tez taraqqiy qildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Italiyaning Sharq bilan olib borayotgan savdosiga qattiq zarba berdi. Toʻgʻri, Italiyaning savdo oboroti birdaniga kamayib ketmadi. Venetsiya XVI asrdagina emas, hatto XVIII asrda ham juda boy savdogarlar respublikasi boʻlib qolaverdi. Biroq uning jahon savdosidagi salmogʻi ancha pasaydi. U endi faqat yaqin Sharq mamlakatlari bilangina savdo- sotiq ishlari olib boradigan boʻlib qoldi. Rivojlanib borayotgan okean mustamlaka savdosidan Venetsiya butunlay chetda qoldi.

Savdo va sanoat sohasidan siqib chiqarilayotgan italyan burjuaziyasi bank- sudxoʻrlik operatsiyalariga tobora koʻproq murojaat qila boshladi. Kapital qoʻyishning ikkinchi formasi – yer sotib olish boʻldi. Burjuaziya yer sotib olib, dvoryanlarga aylandi. Sanoat tushkunligi manufaktura ishchilariga ham taʻsir qildi. Koʻp ishchilar shaharlardan yana qishloqqa qoʻchib ketib, unda koʻpincha ijaraga olingan bir parcha yerda dehqonchilik qildilar, bogʻdorchilik, uzumchilik bilan shugʻullanadilar. Italiya burjuaziyasi katta yer egalari aylangan boʻlsa ham,

ishlab chiqarishni revolutsionerlashtirish maqsadini ko'zlamadi. Dvoryanlar singari burjuaziya ham yerlarning teng sheriklik sharti bilan mayda dehqonlarga ijaraga berdi. Mamlakatda sanoat va savdo tushkunligi sharoitida feodal reaksiyasi tusiga kirib borayotgan feodal munosabatlari uzoq vaqtlargacha mustahkamlanib qoldi.

Italiya XVI asrda siyosiy jihatdan ilgariydek tarqoq mamlakat bo'lib qolaverdi. Davlatlardan kattaroqlari: Shimolda – Venetsiya, Germaniya, Milan hamda Savoyya va Piemont gersogliklari, o'rta Italiyada – (1531-yilda Toskaniya gersogligiga aylantirilgan) Florensiya va papa davlati, janubida – Sitsiliyani ham o'z ichiga olgan Neapol qirolligi, undan tashqari, o'nlab mayda «mustaqil» yerlar bo'lgan.

Respublika tuzumi deyarli hamma yerda monarxiya tuzumi bilan almastirildi. Milanda kondoter Sfors oilasi gersog unvonini oldi. Florensiyada Medichilar avlodi Toskaniya gersoglari unvoniga ega bo'ldi. Papa viloyatida papalar mutlaq monarxga aylanib, ular o'z chegaralarini kengaytirish uchun mumkin bo'lgan hamma vositalarni ishga soldi. Aleksandr VI Borjia (1492 – 1503), Yuliy II (1503 – 1513) va Lev X Medichi (1513 – 1521) degan papalar o'zlarining dabdabali hayotlari, harbiy va diplomatiya sohasida yurgizgan murakkab siyosatlarini, italyan diqqatlarini bilan shaxsiy va nasabiy aloqalariga qaraganda yepiskoplikdan ko'ra ko'proq dunyoviy hokim edilar.

Mayda bo'laklarga ajralib ketgan tarqoq Italiya muttasil fitnalari, yashirin diplomatik makrlar, o'zaro mayda adovat, janjal va urushlar maydandan iborat edi. Bularning hammasi boshqa yirik chet mamlakatlarning Italiya ishlariga aralashuviga sabab bo'lardi. Fransuzlardan tashqari XVI asrda gabsburglar dinastiyasining vakili bo'lgan imperator Karl V hukmronligi ostida qolgan ispan va german feodallari ham Italiyaga bostirib kirdilar. Fransuz, ispan va german qo'shinlari Italiyani taladilar va sonavayron qildilar. XVI asming birinchi yarmida hali ham qabrati bo'lgan Turkiya imperiyasiga qarshi kurashda Venetsiya katta kuch saflashiga to'g'ri keldi.

Huquqiy salqaro vaziyat va chet davlatlarning to'g'ridan to'g'ri intervensiyasi Italiyani yanada kuchliroq iqtisodiy va siyosiy tushkunlikka olib keldi.

**Savnonarolarning chiqishi. Rimning talanishi.** Italiyada fransuz bostirib keladigan munosabati bilan Florensiyada davlat to'ntarishi yuz berdi. Fransuzlar bostirib keladi, degan ovozlar tarqalishi bilan, xalq umumiy Medichilarning zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Florensiyada birinchi vaqtgacha (1494-y) respublika qaytadan tiklanib

turdi. Dominakanlik monax Savonarola (1452–1498) respublika ishlariga g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi. Florensiyadagi o'rta va xonavayron bo'lgan mayda hunarmandlar kayfiyatini aks ettirgan Savonarola o'z va'zlarida boylarning dabdabali va turmush bekorchiligidan kelib chiqayotgan be'manigarchiliklarini qattiq qoraladi va bir qancha mo'tadil sotsial islohotlar – daromad solig'ining progressiv formasini joriy qilish, kambag'allarning qarzlarini bekor qilish, sudxo'rlarni haydab yuborish, shaharlarda qarz beruvchi kassalar tashkil etish va hokazolarni talab qildi. Savonarola Rim papasini ham qattiq qoralab, papa saroyiga, undagi dabdaba va boylikka la'nat o'qidi. Savonarola fransuzlarni «gunohga botgan Italiyaga» qarshi «xudo yog'dirgan qahr-g'azab» oqibati deb hisoblaydi.

Fransuz bosqinchilari o'zlarining talonchiligi va jabr-zulmlari bilan tezda italyan jamiyatining hamma sinflarini o'zlariga qarshi qo'zg'adilar. Florensiyadan tashqari yana Neopolni ham bosib olgan fransuz qiroli Karl VIII ning dastlabki muvafaqqiyatlari italyan davlatlarining unga qarshi birlashuviga olib keldi. Fransuzlar shoshilinch ravishda Italiyadan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Fransuzlarning chiqib ketishi bilan Savonarolaning mavqeyi ham pasaydi. U 1498-yilda papaning amri bilan qamoqqa olindi va sud qilinib, gulxanda kuydirildi. Ko'chib ketgan Medichilar 1512-yilda ispanlar yordami bilan qaytadan hokimiyat tepasiga chiqib oldilar.

XVI asr boshida Italiya urushqoq qiroli Fransisk I Valua boshchiligidagi fransuz feodallari bilan nomi tilga olingan imperator Karl V Gabsburg rahbarligida ispan-german feodallari o'rtasida shiddatli urush maydoniga aylandi. 1525-yilda Paviya shahri yonida bu ikki dushman o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Bu jangda Fransisk I batamom yengilib, Karl V uni asir oldi. Papa Kliment VII Gabsburglarning juda kuchayib ketishidan qo'rqib, imperatorga qarshi Fransiya bilan Angliya ishtirokida Italiya davlatlarining koalitsiyasini uyushtirishga harakat qildi. Karl V buni bilib qolib, 1527-yilda o'z qo'shinlarini Rimga yubordi. Papa asir olindi, Rim esa yanada shafqatsiz tarzda talandi. O'n minglarcha Rim aholisi, shu jumladan, juda ko'p xotin-qizlar va bolalar o'ldirildi. Landsknexlar papa saroyi – Vatikanga kirib, uni ham taladilar va ko'p joylarni vayron qildilar. 1527-yil 6-maydagi «talon-taroj kuni» italyanlar xotirasida uzoq vaqtlargacha dahshat va benihoya katta milliy bas-sizlik kuni bo'lib qoldi.

**Keyingi Uyg'onish. XVI asr italyan madaniyati.** Mamlakatda iqtisodiy tushkunlik boshlanganiga va siyosiy vaziyatning og'ir bo'lib

shiga qaramasdan, Italiya XVI asrning birinchi yarmida hali buyuk gumanistik madaniyat markazi bo'lib qolaverdi. O'tmishda to'plangan moddiy boyliklar hamda XVI–XV asrlarda yetishib chiqqan olimlar, yozuvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar, arxitektorlar va Uyg'onish madaniyatining boshqa namoyandalari xuddi mana shu vaqtda eng yetuk samaralarini berdi. Florensiyaning eng mashhur siyosiy arbobi Nikkolo Makiavelli (1469–1527) ulkan mutafakkir, tarixchi, huquqsun'os va faylasuf bo'lgan. Makiavelli «Florensiya tarixi»ning muallifi hamda qadimgi Rim tarixchisi Tit Liviy va antik davrdagi boshqa mualliflar yozgan asarlarning sharhlovchisidir. Ammo u, ayniqsa, o'zining «Hukmdor» degan (taxminan 1512-yilda yozgan) kitobi bilan shuhrat qozongan. Makiavelli bu kitobida Italiyaning o'sha davrdagi ilg'or sinflarining milliy birlik yo'lidagi intilishlarini yaqqol ifodalab bergan. Makiavelli o'z zamonasidagi italyan shahar respublikalari siyosiy tuzumining inqirozini aks ettirsa ham, respublikachilik qarashlardan voz kechadi. U butun umidini monarxiyaga bog'laydi va monarxiya Italiyaning tarqoqligiga barham berib, uni Ispaniya va Fransiyaga o'xshash markazlashgan yagona davlatga aylantirishi kerak, deb umid qiladi. Makiavelli «Hukmdor» asarida katta tarixiy tajribani umumlashtirdi. U XV–XVI asrlardagi G'arbiy Yevropa qirollari va hukmdorlarining (ayniqsa, Fransiyadagi Ludovik XI va Italiyadagi Sezar Borjianing) amaliy ishlarini o'rganib, Yevropa olimlari orasida birinchi o'laroq o'z kitobida absolutizmni shunday bir davlat deb qaraydiki, unda huquqning negizi zo'rlikdir, unda monarxlar hech qanday prinsiplarga yoki asloq qoidalariga amal qilmaydilar, balki faqat o'z manfaatlari nuqtayi nazaridagina ish qiladilar. Keyinchalik Makiyvellining «Hukmdor» asari Yevropadagi va hatto Sharqdagi ko'pgina monarxlar uchun uzoq vaqtgacha dasturamal bo'lib qoldi, monarxlar o'z absolut va mustabid siyosatida Makiavellining maslahatlarini amalda qo'llab keldilar.

Keyingi italyan uyg'onish davrida tibbiyot va matematika fanlari sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Mashhur Leonardo da Vinchi (1452–1519) eng ajoyib olim – injener, fizik, anatom, matematik, rassom va geolog bo'lish bilan birga g'oyat ulug rassom ham bo'lgan.

Leonardo da Vinchi yaratgan «Pinhoni tanovul», «Madonna Litta», «Jahonbosqin» singari kartinalar Uyg'onish davridagi italyan san'atining namoi' sifatida dunyoga mashhurdir. Leonardo da Vinchidan boshqa yana Mikelanjelo Buonarrotti (1475–1564), Rafayel Santi (1483–1520) va Verokkio Titavian (1477–1576) kabi genial rassomlar va haykaltaroshlar Uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari bo'lishgan.

Mikelanjelo buyuk haykaltarosh va rassom bo'lib, Tavrot va antik sujetlarda juda ko'p asarlar yaratgan, u o'zining asarlarida zavq, kuch va gayrat barq urib turgan azamat figuralarni tasvir etadi. Rafael onalik go'zalligini g'oyat yorqin tasvirlagan «Sikstin madonnasi» (Drezden gallereyasida saqlanadi), ayniqsa, mashhurdir. Bu asar o'zining alohida nafisligi va nozikligi bilan ajralib turadi.

Titsian portretlari ham italyan tasviriy san'ati shuhratini jahonga mashhur qilgan buyuk ijodkordir. Fransisk I va Karl V ning ham ko'pgina portretlarini Titsian chizgan, bu asarlar g'oyat chuqur realistik uslubda ishlangan.

Rimdagi avliyo Pyotr sobori keyingi Uyg'onish davridagi Italiya arxitektura san'atining g'oyat buyuk yodgorligidir. Bu sobor butun asr davomida qurilgan (1506-yilda boshlab, 1590-yilda qurilib bo'lgan). Uning balandligi 132 metr bo'lib, 15 ming kv. metr maydonni egallaydi (Ayo Sofiya esa 6800 kv. metr maydonni egallaydi) Sobor Uyg'onish davrining arxitektura uslubida boshlanib, shundan ancha keyingi barokko uslubi elementlari bilan chatishib ketgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida ham Italiyaning iqtisodiy tushkunligi davom etdi. Italiya yangi jahon savdo markazlaridan tobora chetlasha bordi. Gabsburglarning Valua bilan bitim tuzishi natijasida Italiya 1559-yilgi Kato-Kambreziya sulhiga muvofiq uzil-kesil Ispaniya hukmronligi ostiga o'tdi (Neapol, Milan va boshqalar). Xorijiyatlarning og'ir milliy zulmi hukmronlik qilgan uzoq davr boshlanadi. Mamlakatning ichki savdo va sanoati yana pasaydi. Ayrim shaharlarning aholisi bir necha baravar kamayib ketdi. Feodal dvoryanlar va klerikal elementlarining ahamiyati kuchaydi. O'z pomeshchiklariga to'laydigan soliqlar dastidan ezilgan dehqonlar yana buning ustiga juda ko'p va og'ir davlat soliqlari ham to'lashga majbur bo'ldilar, bu soliqlardan keladigan daromad Italiyadagi mayda va juda mayda davlatlarning xarajatlariga, qisman chet yel feodallari foydasiga sarf qilindi. Mamlakatda banditizm avj olib, kundalik hodisaga aylanib qolgan edi. Bu sharoitda italyan madaniyati pastlab ketadi. Mashhur italyan shoiri Torkvato Tasso (1544–1595) salib yurishlari sujetini o'z ijodining mavzusi qilib oladi.

XVI asrning oxirlari va XVII asrning boshlarida yashagan dominikanlik monax Tomazo Kampanella (1568–1639) Italiyaning atqali mutafakkirlaridan biri edi. Kampanella 1600-yilda ispan Gabsburglarning zulmiga qarshi Kalabriyada ko'tarilgan qo'zg'olonida qatnashdi. U qo'zg'olon vaqtida qamoqqa olinib, salkam 25 yil umrini har xil turda

larda o'tkazdi. U turmada ekanida utopik xarakterdagi «Quyosh shahri» degan asarini yozdi. Kampanenalla bu asarida fan negizida va mehnatni rejali tashkil etish asosida qurilgan ideal kommunistik jamiyat tuzumini tasvirlaydi, u tasvirlagan jamiyatda xususiy mulk, tekinxo'rlik bo'lmaydi, ortiqcha mehnat bilan band bo'lmagan kishi o'z jismoniy va ma'naviy kuchlarini garmonik tarzda kamol toptiradi. Kampanenllaning «Quyosh shahri» asari Morning «Utopiya»si bilan birgalikda Yevropada sotsialistik fikrning ilk rivojlanishini aks ettirgan eng ajoyib asar bo'lgan edi.

**Neapolda Mazanello qo'zg'oloni.** Ispaniyaga qaram bo'lgan Neapol qirolligi Italiyaning boshqa mamlakatlari ichida eng og'ir ahvolda qolgan mamlakat bo'lib, iqtisodiy jihatdan nihoyatda zaif edi. Shaharlari va sanoati tanazzulga uchrab, qishloq tobora qashshoqlashib bordi. Ispan hukumati esa soliqlarni muttasil oshira bordi. 1558-yilda 1 million 770 ming dukat barobarida soliqlar solingan bo'lsa, 1620-yilda keng qatlam mollarga (kambag'allarning asosiy ovqati bo'lgan meva va sabzavotga) yangi soliq joriy qilinishiga javoban, Neapolda qo'zg'olon bo'larildi. Bu qo'zg'olonda hunarmandlar, mayda savdogarlar va ishchilar qatnashdi. 1647-yil 7-iyuldagi qo'zg'olon natijasida Neapol xalq harakati qo'liga o'tdi. Mazanello laqabi bilan mashhur bo'lgan Tomazo Anello boshchiligida demokratik hukumat tuzildi. Shahar rasmiy jihatdan Ispan qiroliga sodiq bo'lib qoldi. Faqat uning amaldorlariga qarshi harakat qilindi, xolos. Neapolni o'zining qarorgohi qilib o'tirgan qirolning qo'zg'olonchilarga birmuncha yon berishga majbur bo'ldi. Jumladan, soliqning, ayniqsa, g'azabini qo'zg'ovchi soliqlar bekor qilindi. Mazanello shahar lashkar boshlig'i, general-kapitan sifatida tanilgan. Ammo, oradan ko'p o'tmay, ispan hokimlari tomonidan yollangan kuchlar soliq yo'l boshchisi Mazanelloni o'ldirdilar.

Uzunq Mazanelloning o'limidan keyin ham harakat to'xtamadi. Bu harakat Neapol Respublikasi deb e'lon qilinadi. Bu harakatlarga rahbarlik qiluvchi manufaktura bosh bo'ldi. Neapol dvoryanlari harakat tomonida edi. Harakat rahbarlari bu vaqtda Ispaniya bilan urush holatida bo'lgan Fransiyaga tayanib ish ko'rmoqchi bo'ldilar. Ular harakatga rahbarlik qiluvchi Genrix Gizni qirollikka taklif qildilar va u Neapolga keldi. Lekin Fransiyaning kardinali Mazarini hukumati Neapoldagi harakatni yetarli darajada harbiy kuch ajrata olmadi. 1648-yilning boshida Ispan ma'murlari qo'shin bilan Neapolga qaytib keldilar va harakat demokratik qatnashchilarini shafqatsiz jazoladilar. Anzani o'ldirildi. Gersog Gizni esa turmaga tashlandi, ammo oradan



ko'p vaqt o'tmay, fransuz hukumatining talabiga muvofiq u turmadan ozod qilindi. Yangi tuz solig'i joriy qilinishi munosabati bilan 1647-yilda Sitsiliyada ham hukumatga qarshi xuddi shunday harakat boshlandi. Bu harakatning har ikkalasi ham Italiya xalq ommasining chet yel zulmiga qarshi nafratini ifoda qilganligi jihatidan juda muhimdir. Bu harakatning har ikkalasi keyinchalik XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida butun Italiyani qamrab olgan keng milliy harakatning uzoq o'tmishidagi kurtagi hisoblanadi.

### Nazorat topshiriqlari:

1. XVI asrda Neapoldagi vaziyatni ta'riflab bering.
  2. Mazanello laqabli kishi kim bo'lganligini ko'rsating.
  3. Mazanello qo'zg'oloni sabablarini ayting.
  4. Qo'zg'olon oqibatlariga baho bering.
  5. Italiyan sanoatida tushkunlik qachon boshlanganini toping.
  6. Italiyaning savdo ishlariga (nima?) \_\_\_\_\_ qattiq zarba berdi?
  7. Iqtisodiy tushkunlikning ta'sirini qiyoslang:
    - 1) burjuaziya \_\_\_\_\_
    - 2) ishchilar \_\_\_\_\_
    - 3) dvoryanlar \_\_\_\_\_
  8. Sanoat va savdo tushkunligi sharoitida Italiyada qaysi munosabatlar hukmron bo'lganini ko'rsating.
  9. Italiyaning XVI asrdagi «mustaqil» yerlarini ko'rsating:
    - 1) shimolda: \_\_\_\_\_
    - 2) O'rta Italiyada: \_\_\_\_\_
    - 3) janubda: \_\_\_\_\_
  10. Monarxiya tuzumida kimlar qayerda hukmronlik qilganini to'g'ri joylashtiring.
  11. Italiyada fransuz urushlari boshlangani bilan Florensiyada nima sodir bo'lganini ko'rsating.
  12. Savonarola kim bo'lganini toping.
- Italiya XVI asr boshida \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ boshchiligidagi \_\_\_\_\_ o'rtasida urush maydoniga aylandi.
13. Karl V nima sababdan Rimga o'z qo'shinlarini yuborganini ayting.

14. «Talon-taroj kuni» deb qaysi kunga atalishini ko'rsating
15. Italyan Uyg'onish madaniyatining namoyandalari qaysi sohada ijod qilganlar va ularning eng mashhur asarlarini ko'rsating:
16. Nikolo Makiavelli, sohasi: \_\_\_\_\_ asarlari: \_\_\_\_\_
17. Leonardo da Vinchi, sohasi: \_\_\_\_\_ asarlari \_\_\_\_\_
18. Mikelandjelo Buonarotti
19. Vechelo Titsian... Torkvato Tasso... Galileo Galiley... Jordano Bruno
20. Tomazo Kampanella.
21. Kopernik ta'limotini targ'ib qilgan olim kim ekanligi ko'rsating.

## 30-MAVZU: BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR

### REJA:

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning sabablari va boshlanishi.
2. IX–XVII asrlarda Sharq mamlakatlariga geografik sayohatlar.
3. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida geografik kashfiyotlarning ahamiyati va oqibatlari.

**Tayanch soʻzlar, iboralar va tushunchalar:** geografiya, Buyuk geografik kashfiyotlar, Erotosfen, Oʻrta Yer dengizi, Magellan, Kolumb, Vispuchchi, mustamlaka.

**Buyuk geografik kashfiyotlarning sabablari va boshlanishi.** Insoniyat tarixida urugʻchilik tuzumining soʻnggi bosqichiga qadam qoʻyilishi ibtidoiy insonlar hayotida muhim oʻzgarish davrini boshlab berdi. Tabiatdagi tayyor mahsulotlardan foydalanish endilikda insoniyat iqtisodiy ehtiyojini qoniqtirmay qoʻydi.

Ibtidoiy hayotning neolit – «yangi tosh» davriga kelib, ishlab chiqarish xoʻjaliklari yuzaga keldi. Dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishi bilan sopol buyumlar yasash va ulardan foydalanish boshlandi. Ishlab chiqarish xoʻjaligining yuzaga kelishi tufayli qadimgi Misr, Old Osiyo, Kichik Osiyo, Markaziy Osiyo va Sharqda dehqonchilik bilan kun koʻruvchi oʻtroqlashgan qabilaviy uyushmalar tashkil topdi.

Shimoliy oʻlkalarda, Afrikaning sahrolarida va Avstraliya dashtlarida koʻchmanchi badaviy qabilalarning koʻchishi davom etdi. Dehqonchilik maqsadida insonlar oʻzlari uchun qulay tabiiy sharoit izlab yangi yerlarni oʻzlashtirish uchun vohalar va daryo qirgʻoqlariga borib oʻrnasha boshladilar.

Lekin bu yer yuzasini oʻrganish uchun emas, yaqin atroflardagi qulay oʻlkalarni oʻzlashtirish uchun urinish edi, xolos. Uzoq oʻlkalarga borish va oʻzlashtirish miloddan avvalgi II ming yilliklar oxirlarida finikiyaliklar tomonidan boshlandi. Finikiyaliklar Afrikaning Shimoliy qirgʻogʻiga Oʻrta dengiz orqali borib oʻrnashganlar. Miloddan oldingi VI–V asrlarda sharqiy yunonlar Qora dengiz sohillarida oʻzlarini shaharlarini barpo etishgan. Oʻrta dengiz sohillarida boshlangan dengizda yurish Rim imperiyasi davrida yanada rivoj topa boshladi.

Sayohatchilar va ular bilan bog'langan savdogarlar orasida asta-sekin yer yuzasini tasvirlaydigan olimlar aralashadigan bo'lishdi. Miloddan avvalgi III asrda yashagan yunon geografi Erotosfen yer yuzining tasvirini chizishga urinib ko'rdi. Misrdagi Iskandariya shahrida Muston ilmiy muassasasi tashkil etilgan bo'lib, u yerda ptolomeylar hukmronligi davrida barcha turdagi fan olimlari to'plangan edi.

U Yer shari aylanasini uzunligini ko'p darajada aniqlik bilan o'lchab chiqib, fizikaviy va matematik geografiya asosini yaratdi. «Geografiya» yunoncha – «geo» – yer, «grafa» – yozaman yoki yer tasviri ma'nosidagi utamani fanga kiritdi. Yangi o'lkalarni izlash va o'zlashtirish qadimgi yunonlar tomonidan ham davom etdi. Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda O'rta dengizning ayrim orollari va Italiyaning janubiy qismida mustamlakalar ochildilar.

**IX–XVII asrlarda Sharq mamlakatlariga geografik sayohatlar.** Dunyo xaritasining qiyofasi va har bir o'lkaning qaysi iqlimda joylashganligini ko'rsatgan olimlardan yana biri Mahmud Koshg'ariy edi. Mahmud Koshg'ariy tuzgan xaritani V.V. Bartold ancha aniq va to'liq ma'lumotli deb ko'rsatgan. Biz Sharq xalqlari tarixida XIII asrda Marko Polo tomonidan qoldirilgan ma'lumotlar bayonini ko'p uchratamiz. Aali venetsiyalik bo'lgan sayyoh Marko Polo 1271–1295 yillar davomida sharqiy o'lkalarga sayohat qilib, hatto Xitoyda yirik lavozimda ishlagan. Uning sayohati Qoraqurum, Mo'g'uliston, Hindi-xitoy, Xitoy va Koreya qirg'oqlari bo'ylab Indoneziya orqali Hindiston, Eron, Ikki dunyo orolig'i, O'rta Dengizgacha bo'lgan o'lkalarni sayr qilish va o'zi bo'lgan joylarni ta'riflash bilan yakunlandi.

XV asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Rus o'lkasidan Sharqiy Kavkaz orqali Eron va Hindistonga yo'l olgan Afanasiy Nikitin sayohati Janubiy Hindistonda bo'lib, dengiz yo'li orqali yana dengiz sohillarini sayohat qilgan. Sayyoh 1466 – 1472-yillar davomida ko'pgina taassurotlar epusi hisoblangan. Ma'lumki, XV asrning oxirgi yillarida portugalalar va polundlar Afrikaning g'arbiy qirg'oqlarini asta-sekin o'zlashtirish boshladilar.

Afrika orqali Hindistonga borish uchun o'tlangan sayyoh Bartolemeo Diaz 1487–1488-yillarda Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab Hind okeanigacha bo'lgan yo'lni aniqlab bergan.

Vasco da Gama (1469–1524) boshchiligida to'rtta kemadan iborat kichik bir flotiliya 1497-yil yozida Lissabondan chiqib, 1498-yil bahorida Hindistonning g'arbiy qirg'oqlariga borib yetdi va Kalkutta shahriga tushdi. 1499-yilning avgustida sayyohlar kemalarga oltin va

hind ziravorlarini ortib qaytib keldilar. Ikki yil davom etgan mashaqqatli dengiz sayohati vaqtida komandaning 168 a'zosidan faqat 55 kishi tirik qoldi.

Vasko da Gama kashfiyoti Portugaliyada g'oyat katta ta'sir qoldirdi. Bu kashfiyot munosabati bilan Portugaliya qiroli Monoyelga (1495–1521) «Baxtiyor» laqabi berildi va «Hindiston hokimi» degan unvon oldi.

Portugallar Hindistonga Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab siljib borayotgan bir paytda, qo'shni Ispaniyada xuddi o'sha Hindistonga borish yo'lining boshqa bir varianti chiqib qoldi. Genuyalik Xristofor Kolumb (1451–1506) 1492-yilda Ispaniyaning Ferdinand va Izabella hukumatiga Hindistonga g'arb tomondan boradigan sayohat loyihasini taklif qildi. Kolumb Yerning sharsimonligi haqidagi ta'limotiga asoslanib ish ko'rdi. 1492-yil 12-oktyabrda Kolumb Karib dengizida Markaziy Amerikaga yaqin joydagi Bagama orollaridan birini topdi. Tezda u katta qo'shni orollar – Gaiti va Kuba orollarini kashf etdi. Shundan keyingi sayohatlaridan birida Kolumb Janubiy Amerika (Orinoko daryosining quyiladigan joyi yaqinidagi) qirg'oqlarni topdi.

**Jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida geografik kashfiyotlarning ahamiyati va oqibatlari.** Buyuk geografik kashfiyotlar davrining jahon xalqlari tarixida XV–XVI asrlar va undan keyingi davrlarda ham davom etganini ko'ramiz. Yangi o'lkalarning topilishi, jug'rofiy sayohatlar tarixiga e'tibor bersak, insoniyat qadimdan yangi yerlarni o'zlashtirish uchun harakat qilganligi ma'lum bo'ladi. Yangi o'lkalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda Yer yuzasini turli iqlimlarida yashagan yerli aholini yashashi, turmushi, ularning rivojlanish bosqichlari turlicha darajada ekanligini ko'ramiz. Insoniyat asosan davlatchilik sivilizatsiyasiga qadam qo'yar ekan, yaqin atrofdagi davlatlar bilan qiziqqa boshlaganlar. Ko'pchilik holatda har bir o'lkada ishlab chiqarish xo'jaligining turlicha bo'lishi iqtisodiy ehtiyoj ta'minotidagi tengsizlikka olib kelgan.

Ayniqsa, davlatlar o'rtasidagi bog'lanishlar, savdo aloqalarining rivojlanishi ularning o'zaro bog'lanishiga asos bo'lgan. Shu sababdan insoniyat dunyoning sirlarini o'rganishga, Yer sharidagi o'zgarishlar, tabiat va iqlim o'zgarishlarini, tun va kun, Quyosh harakatini kuzatishga qiziqqa boshlaganlar.

**Quruqlikda va suvda yurish.** Bir joydan ikkinchi joyga borish muammolari orqasidan tabiat sirlarini ochishga urinish paydo bo'ldi. Yer kurrasini o'rganish, ya'ni xaritalar tuzish, bu maqsadda insonlarning o'zga yurtlarga borishga bo'lgan harakatlarini yuzaga kelishidan buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha bo'lgan ilmiy izlanishlar bosqichlari

ko'rib chiqib, shunday xulosaga kelamiz.

Birinchidan, quldorlik davri tarixida yuz bergan kashfiyotlar davri. Bunga misol qilib, dastlabki somiy qabilalarining Sharqqa yurishi, misrliklarning Old Osiyo, finikiyaliklarning O'rta dengizga uyushtirgan sayohatlari. Yangi mustamlaka yerlarining yuzaga kelishi, qadimgi davrda yirik mustamlaka o'lkalari uchun qilingan harakatlar yunonlar va rimliklarda ko'proq uchraydi.

Ikkinchidan, dunyo yoki Yer yuzasining qiyofasini tasvirlash antik davri sayyohatchilari, savdogarlar va davlatlar uchun zaruriyat tug'ilgan. Antik dunyo kashfiyotchilari qatorida Ptolomeyda, Erotosfenning «Geografiya» asarida yer tuzilishini tasavvur etishning dastlabki xaritasi yuzaga keldi.

Geografiya fanining rivojlanishi keyingi davri O'rta asrlari – X–XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda ilmiy markazlar Sharqqa ko'chish munosabati bilan Bog'dod, Aleksandriya, Quddus, Damashq va O'rta Osiyoda, Urganch va Marvda olimlar to'planadigan markazlar vujudga keldi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Amerika kim tomonidan kashf etildi?
2. Xristofor Kolumb kashf etgan yerlar xaritada qanday nom bilan ko'rsatilgan?
  1. Tinch okeanidagi geografik kashfiyotlar haqida gapirib bering.
  4. Hindistonga boradigan dengiz yo'llarining ochilishiga hissa qo'shgan sayyohlarni ayting.
  5. Marko Poloning dunyo bo'ylab sayohati. Afanasiy Nikitin sayohati. Vusko da Gama sayohati.
  6. Xristofor Kolumbning dunyo bo'ylab sayohati.

## **31-MAVZU: 1618–1648-YILLARDAGI O‘TTIZ YILLIK URUSH**

### **REJA:**

1. XVI asr oxirida Germaniyaning iqtisodiy tushkunligi natijasida siyosiy tarqoqlikning vujudga kelishi va gabsburglarning Yevropadagi rejalari.

2. 1526-yildan keyingi Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo qilinishi va Daniya bilan Shvetsiyaning urushga kirishi. Rus davlatining pozitsiyasi.

3. Vestfaliya sulhi va Germaniyaning vayron bo‘lishi.

**Tayanch so‘zlar, iboralar va tushunchalar:** O‘ttiz yillik urush, sekulyarizatsiya, krepostnoy, absolutizm, partikularizm, yeres, gersog, «Chex birodarlari», ritsar, meshchan, seym, Mayestat, arxiyepiskop, defenestrasiya, Turn, pfals, kurfyursti, Transilvaniya, Osnabruk, Myunster, yepiskop, Lujis yerlari, protestant, eksport, pfalsgraf, luteran, kalvinist.

**XVI asr oxirida Germaniyaning iqtisodiy tushkunligi natijasida siyosiy tarqoqlikning vujudga kelishi va gabsburglarning Yevropadagi rejalari.** Buyuk geografik kashfiyotlar va bu kashfiyotlar bilan bog‘liq tarzda savdo yo‘llarining o‘zgarib ketishi Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyotiga yomon ta‘sir qildi. XVI asrning ikkinchi yarmida buning oqibati shu bo‘ldiki, nemis savdo-sotig‘i tushkunlikka yuz tutdi. Ammo ularning roli shu qadar past ediki, ularni Amsterdamga ham, Londonga ham sira taqqoslab bo‘lmas edi. Butun Germaniya tobora agrar mamlakatga aylanib borar, unda yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari sanoati ko‘proq taraqqiy qilgan mamlakatlarga chiqarilar edi. Gollandiya, Shvetsiya, Angliya ko‘proq Germaniyaning shimoli-sharqiy viloyatlaridan mahsulotlar sotib olar edi. Germaniyaning siyosiy tarqoqligi saqlanibgina qolmay, balki asr davomida yana ham avj oldi. Knyazlar cherkov mulklarini musodara (sekulyarizatsiya) qilish hisobiga o‘z yerlarini ko‘paytirdilar. Ular ichki va tashqi (eksport) savdodan o‘z daromadlarini oshirish yo‘lida foydalanib, o‘zlarining mahalliy knyazlik absolutizmini o‘rnatdilar. Luteran cherkovining mahalliy hokimlarga batamom bo‘ysundirilishi munosabati bilan mahalliy

knyazlarning siyosiy hokimiyati kuchaydi. Diniy nizolar knyazlarning imperatorga qarshi olib borgan kurashlarini ham niqoblab turaveradi. Imperator avvalgidek mamlakatdagi katoliklar partiyasiga rahbarlik qilgan va papalik bilan mustahkam ittifoqda edi. Eng yirik knyazlarning ko'pchiligi protestant, bir qismi luteran edi. Imperator knyazlari o'ziga bo'ysundirishga harakat qilgan va bunda «yeres»ning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, cheklab qo'yish istagini vaj qilib ko'rsatardilar. Knyazlar kuchayib, natijada knyazlik absolutizmi joriy qilinganiga qaramay, imperator hokimiyatining kuchi hali ozmuncha emas edi. Ammo gabsburglar faqat Germaniyadagina hukmronlik qilib qolmadilar. Ularning urug'lari Ispaniyani ham idora qildilar. Ispaniyadagi gabsburglar avstriya – german gabsburgalarini qo'llab-quvvatlar edi. Karl V ning dunyoga hokim bo'lish ishtiyoqi Filipp II ga ham meros bo'lib o'tgan edi. Filipp III zamonida Ispaniya zaiflashib qoldi. Shu sababdan u vaqtda boshqa mamlakatlarga va ichki dushmanlarga qarshi kurashda ispan gabsburglari bilan Avstriya gabsburglarining kuchlarini birlashtirish g'oyat dolzarb masala bo'lib qolgan edi. Germaniyani birlashtirish, markazlashgan davlatga aylantirish mo'ljallanmoqda edi. Ammo bu vazifaning uddasidan chiqib bo'lmadi. Mamlakat iqtisodiy tushkunlikni boshidan kechirayotgan, shaharlar iqtisodiy jihatdan zaiflashib qolganligi tufayli ularning ijtimoiy va siyosiy roli pasayib ketgan, krepostnoylikning o'sishi tufayli feodalarning ta'siri kuchaygan bir sharoitda mamlakatni birlashtirish ishi, ayniqsa, qiyin va murakkab vazifa edi. Bundan tashqari, gabsburglar faqat Germaniyani o'zlariga bo'ysundirish masalasi bilangina mashg'ul emas edilar. Ular XVI asr oxirida ham, XVII asr boshida ham o'zlariga qo'shni mamlakatlarga nisbatan agressiv siyosatni davom ettirdilar. Ular XVII asrda sanoat va savdo-sotig'i taraqqiy qilgan bir qancha yevropa mamlakatlarini, shu jumladan, Gollandiya, Angliya, Fransiya, Daniya, Shvetsiyani o'zlariga qarshi qilib qo'yidilar. Nemis protestant knyazlarining o'zlari ham imperatorga qarshi kurashda Germaniyadan tashqari ittifoqchilar qidira boshladilar. Ichki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar g'oyat murakkab bo'lgan tashqi xalqaro munosabatlar bilan chirmashib ketganligi tufayli Germaniya vayron qiluvchi o'ttiz yillik urush maydoni bo'lib qoldi. Bu urush uning mavjud siyosiy tarqoqligini yanada oshirib yubordi.

Germaniya katoliklar reaksiyasi davrida, Karlning dastlabki taxt vorislari – Ferdinand I (1555–1564) va Maksimilian II (1564–1576) davridayoq katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ammo Karl V dan keyin uchinchi bo'lib hukmronlik qilgan imperator Rudolf II (1576–1612)



vaqtida reaksiya, ayniqsa, kuchayib ketdi. Katoliklar Bavariyasida ham ular uya qurgan edilar. Katoliklar protestantlarini Reyn viloyatlaridan muvafaqqiyat bilan siqib chiqara boshladilar. Katoliklar reaksiyasi G'arbi-shimoliy Germaniyaga kirib bordi. To'g'ri, gabsburglar yirik va mayda feodal yerlarining german konfederatsiyasigagina boshchilik qilar edi. Ularning avvalgidek hozir ham umumimperiya boshqarma organlari va sudlari, umumimperiya moliyasi (soliqlar) yo'q edi. Germaniyani aslida idora qiluvchi ular emas edilar. Lekin Gabsburglarning kuchi o'zlariga meros qolgan juda keng yerlarga egalik qilishda edi. Bu yerlarda qisman nemislar, ko'proq esa slavyanlar, vengerlar, italyanlar va boshqa xalqlar yashardi.

Ittifoq va liga tuzilishi bilan bu ikki lagerning bir-biriga dushmanlik munosabati shu qadar keskinlashdiki, ular o'rtasida 1610-yildayoq urush boshlanishi mumkin bo'lib qoldi. Biroq Genrix IV Fransuzskiy o'limi tufayli urush bu o'rtada boshlanmay qoldi, chunki ittifoq a'zolari undan yordam olish umidida edilar. Urush Rudolf II ning taxt vorisi imperator Matvey (1612–1619) davrida boshlandi. Chexiyada yuz bergan voqealar urushning boshlanib ketishida katta rol o'ynadi.

**1526-yildan keyingi Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo qilinishi va Daniya bilan Shvetsiyaning urushga krishi. Rus davlatining pozitsiyasi.** Chexiya 1526-yilda yana imperiya tarkibiga kirdi va u gabsburglar xonadonining meros yeri deb hisoblana boshlandi. Chexiya gabsburglar tarkibiga kirayotganida chexlarga ularning avtonomiyasini, chex seymini, davlat tili sifatida chex tilini va milliy cherkov sifatida chexlarning isloh qilingan cherkovini saqlab qolish va'da qilingan edi. Amalda esa gabsburglar behayolik qilib, o'z va'dalarini bajarmadilar. Vena hukumati chexlarning davlat idorasi ishlariga bevosita aralashadigan bo'ldi. Chexiyaga nemis amaldorlari yuborilardi. Nemis dvoryanlari chexlarning yerlarini sotib olardilar. Chexiyaga iyezuitlarning suqulib kirishi natijasida bu yerda katolitsizmning tiklanish masalasi ko'ndalang bo'lib qolgan edi. «Chex birodarlari» jamoalarini, ayniqsa, qisar va uning faoliyatini har qanday yo'llar bilan cheklardilar. Guschilikning eng jiddiy ta'siri XVI asr Chexiyasida ana shu jamoalarda saqlanib qolgan edi.

1547-yilda seymning oppozitsion tarzda chihishidan keyin uning huquqlari yana ham kamaytirilgan edi. Jumladan, shaharlik (meshchan) larning vakillari seymga deyarli kiritilmay qo'yilgan edi. Chexiyada yuz bergan jiddiy ahvol 1609-yilda qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Pragada gabsburglarga qarshi namoyishlar bo'lib o'tdi. Seym chex

sosloviyelari nomidan, agar Rudolf II chexlarning siyosiy va diniy huquqlarini e'tirof etmasa, uni o'zlarining qiroli deb tanimasliklarini aytgan edi. XVII asrning yigirmanchi yillari oxiriga kelganda Chexiya iqtisodiy jihatdan juda og'ir ahvolda qolgan edi. Savdo-sotiq va sanoat orqaga qarab ketmoqda edi. Bu tushkunlik qisman shu vaqtlarda markaziy va sharqiy Yevropa boshidan kechirayotgan og'ir ahvolni aks ettirsa, qisman Chexiyada gabsburglarning idora qilish siyosatining chex millatiga qarshi qaratilganligi oqibati edi. Shunday qilib, gabsburglarning siyosiy va diniy zulmi Chexiyadagi inqirozning umumiy manzarisini yanada yomonlashtirar edi. Qo'zg'olon 1618-yilning 23-mayida «defenstratsiya» deb atalgan narsadan boshlanib ketdi.

1621-yil 21-iyunda Pragada qo'zg'olon rahbarlaridan 27 kishi, shu jumladan, uchta shaharlik xaloyiq oldida jazolab o'ldirildi. 1627-yilda Praga seymida Mayestat tugatilishi rasman e'lon qilindi. Chexiyada katoliklar cherkovi tamomila tiklandi. Nemis tili birdan-bir davlat tili-ga aylandi. Hamma yerda chex amaldorlari o'rniga nemis amaldorlari o'tirib oldi. Ko'plab chex yerlari musodara qilindi. Avstriya gabsburglarining Chexiyaning tor-mor qilishi va ispanlarning Pfalsni bosib olishi O'ttiz yillik urushning «chexiya-pfals davri» deb atalgan birinchi davrining oqibatlari edi. Katoliklarning g'alabasi musodara qilingan cherkov yerlaridan tashkil topgan protestant knyazlar mulkini xavf ostiga qo'ydi. Imperatorning galabasi 1624-yildan beri boshida kardinal Rihelye turgan Fransiyani ham tashvishga solib qo'ydi. Shunday qilib, imperator bilan knyazlar o'rtasidagi, katoliklar bilan protestantlar o'rtasidagi, gabsburglar bilan Chexiya o'rtasidagi munosabatlarga doir ichki masala chet ellarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Duniyaliklarga qarshi o'z qo'shinini tashkil etish uchun Ferdinand II ning yetarli mablag'i yo'q edi. Katoliklar ligasining qo'shini ozgina bo'lib, uni ham to'ldirish kerak edi. Shundan keiyn imperator qo'shin tashkil etish to'g'risida boy dvoryan Alberx Vallenshteyn (1583–1634) ga murojaat qildi. Vallenshteyn asli chex bo'lsa ham, batamom nemislashtirib ketgan va chex dvoryanlarining yerlari musodara qilingan vaqtda ko'p yer, o'rmon, kon va shu kabilarni sotib olgan edi. Biroq katoliklar lagerining g'alabasi bu lager rahbarlari o'rtasidagi nizo-janjallar tufayli bo'shashib ketdi. Liganing yo'l boshchisi Maksimilian Bavarskiy va boshqalar Vallenshteynni yomon ko'rar edilar. Ularning talabiga muvofiq 1630- yilda Vallenshteynni iste'foga chiqartishga va uning qo'shinini tarqatish to'g'risida buyruq berishga majbur bo'ldi.

Gabsburglarning yangi g'alabasi Fransiyani imperatorga qarshi ku-

rashda yangi ittifoqchi qidirishga majbur etdi. Shvedlar qiroli Gustav Adolf (1611–1632) Fransiyaga ana shunday ittifoqchi bo'ldi. Rishelye shved qiroliga katta subsidiya berdi. Ammo urushga aralashish uchun Gustav Adolfning o'zida ham ancha vaj bor edi. Imperatorning Daniya ustidan qozongan g'alabasi va Vallenshteyn bilan Vena saroyining Shimoliy va Boltiq dengizlarida kuchli german floti barpo qilish to'g'risidagi rejasi Gustav Avgustni jiddiy tashvishga solib qo'ydi. Bundan tashqari, shved feodallari allaqachonlardan beri yangi yerlar bosib olishni niyat qilib yurardilar. Fransiya o'z tomonida ko'pgina ittifoqchilarga ega bo'lgani holda Germaniya bilan Ispaniyaga qarshi urush boshladi. Urushni davom ettirayotgan Shvetsiyadan tashqari, Gollandiya, Savoyya, Venetsiya, Vengriya Fransiya tomonida edi. Polsha Fransiyaga xayrixoh bo'lib, betaraflik saqlashini bildirdi. Urush harakatlari faqat Germaniya territoriyasidagina emas, balki Ispaniyada, ispaniya Niderlandiyasida, Italiyada va Reynning har ikki qirg'og'ida olib borildi. Shunday bo'lsa ham birinchi davrda ittifoqchilar muvaffaqiyat qozona olamadilar. Ittifoqning o'zi tarkibi jihatidan uncha mustahkam emas edi.

Ittifoqchilar bir-birlari bilan yaxshi kelishib olib harakat qilmadilar. Faqat 40-yillar boshida, Rishelye ham o'lgandan keyin, Fransiya bilan Shvetsiyaning qo'li aniq baland bo'lib qoldi. Fransuz qo'shinlari 1643-yilda g'arbda Rokrua (Sharqiy Fransiya) yaqinidagi jangda ispan piyodalarini g'oyat katta mag'lubiyatga uchratdilar. Shundan keyin fransuz qo'shinlari butun Elzani bosib olishdi. 1645-yilda shvedlar Sharqda, Chexiyaning Yankovisi shahri yonida imperiya qo'shinlarini tor-mor keltirdilar. Daniyaning endi bu safar gabsburglar yonini olib urushga kirishi ham imperatorga yordam bera olmadi.

**1643–1645-yillardagi Daniya-Shvetsiya urushi.** Fransuzlar va shvedlarning birlashgan armiyasi 1646-yilda Bavariyaga bostirib kirdi. Urushning yutqazilayotganligi Vena saroyi uchun ayon bo'lib bormoqda edi. Ferdinand II dan keyin 1637-yilda taxtga o'tirgan imperator Ferdinand III hukumati sulh muzokaralarini boshlashga majbur bo'ldi.

**Vestfaliya sulhi va Germaniyaning vayron bo'lishi.** Aslida 1645-yilning iyunidayoq boshlangan sulh muzokaralari Vestfaliyaning ikki shahrida olib borilmoqda edi. Osnabrukda imperator elchilari shved hukumati elchilari hamda german protestant knyazlari bilan, Myunesterda imperator elchilari fransuz hukumati bilan muzokaralar olib bormoqda edilar. Muzokaralar 1648-yilning kuzidagina tamom bo'ldi. Vestfaliya sulhi natijasida g'oliblar ancha hududini o'zlariga qo'zib oldilar. Shvetsiya G'arbiy Pomeraniyani va Sharqiy Pomeraniyani to

qismini, shu jumladan, Shtettin shahri va Rugen orolini, Vismar shahrini va uning portini, Breayen arxiyepiskopligini (ammo Breayen shahridan tashqari) va Verden yepiskopligini o'ziga qo'shib oldi. Shu bilan birga Shvetsiyaga 5 million teler tovon to'landi. Fransiya Elzasni (Strasburg shahridan tashqari) egalladi va uning yuqori Lotaringiya (Mes, Tul va Verden shaharlari)ga bo'lgan huquqi uzil-kesil tasdiqlandi. Germaniyaning o'z ichida Sharqiy Pomeraniyani, Magdeburg arxiyepiskopligini va boshqa bir qancha viloyatlarni o'ziga qo'shib olgan Brandenburg, Luzasiya (Lujis yeri)ni o'ziga qo'shib olgan Saksoniya, shimoli-g'arbda bu'zi bir qo'shni viloyatlarning yerlari ham qo'lga o'tgan Braunschveyg va yuqori Pfalsni egallagan Bavariya o'zlarining yerlarini kengaytirdilar, Bunga Bavariya gersogi hatto kurfyuristik unvonini olishga muvassar bo'ldi, bu – sakkizinchi kurfyuristik edi. Vestfaliya kongressi imperiya knyazlarning boshqa mamlakatlar bilan mustaqil diplomatik aloqalar o'rnatish huquqlarini tan oldi. Shu tariqa Yevropa diplomatiyasi Germaniyaning siyosiy jihatdan bo'linib ketishini ma'qullaydi. Vestfaliy kongressining bu yerda eslatib o'tish lozim bo'lgan muhim diplomatik axtlardan yana biri shuki, Yevropada allaqachonlardan beri mavjud bo'lgan, lekin shu vaqtgacha rasmiy ravishda tanilmagan ikki davlatning mustaqilligi e'tirof etildi. Bu davlatlar Shvetsariya ittifoqi bilan Gollandiya edi. Fransiya bilan Ispaniya o'rtasidagi urush Vestfaliya kongressidan keyin ham davom etdi va u faqat 1659-yilda Pireneya tizidan keyingina tamom bo'ldi.

Lusen yonidagi jangdan keyin Vallenshteyn Chexiyaga chekindi, u bundan oldin shu yerdan saksoniyaliklarni surib chiqargan edi. Vallenshteyn endi Saksoniya kurfyurstini sulh tuzishga majbur etib, keyin shvedlarga qarshi hujum boshlamoqchi edi. Katoliklar ligasi Vallenshteynning ko'zga ko'rinarli muvaffaqiyatlariga erisha olmaganligidan foydalanib, imperatorni yana unga qarshi qilib qo'ydi. 1634-yil boshida Vallenshteyn qo'mondonlik vazifasidan olindi, so'ngra davlatga xiyonat qilishda aylandi va nihoyat, 1634-yilning 25- fevralida Liganing ko'mandasi bilan ish ko'rgan bir guruh ofitserlar tomonidan Yeger qal'asida o'ldirildi. («Yeger falokati»). Imperiya armiyasi shvedlar orasida ittizom bo'shashib ketayotganligidan foydalanib, ularga 1634-yil 11- sentyabrda Nordligen yonida katta zarba berdi. Buning natijasida shvedlar Janubiy Germaniyadan surib chiqarildi. 1635-yil bahorida imperator Saksoniya kurfyursti bilan sulh tuzishga muvaffaq bo'ldi. Yana shvedlarning omadi kelganday bo'lib ko'rindi. Ammo Rishelye endi Germaniyaga qarshi ochiqdan ochiq urushga kirishishga qaror qildi.

Fransiyaning urushga kirishi (1635) gabsburglar koalitsiyasining ahvolini qiyinlashtirib yubordi va bu koalitsiyani tamomila mag'lubiyatga uchratdi.

O'ttiz yillik urushda Fransiya bilan Shvetsiya g'olib chiqdi. Ular bu urushdan keyin XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida Yevropa diplomatiyasida yetakchi rol o'ynadi. Germaniya esa, aksincha, urush natijasida g'oyatda zaiflashib qolgan edi. U ancha territoriyasidan mahrum bo'lish bilan birga, uzoq davom etgan urushda nihoyat darajada vayron bo'lgan, chunki urush asosan Germaniya territoriyasida olib borilgan edi. Mamalakat g'oyatda katta moddiy zarar ko'rdi. Urush keltirgan vayronalik tufayli Germaniya bir necha on yillargacha o'zini o'nqlab ololmadi. Ba'zi viloyatlarda, chunonchi, Saksoniya, Brandenburg, Pfals, Vyurtembergda aholining yarmi va hatto bundan ham ko'progi qirilib ketgan edi. Chexiyada 1618-yildagi 2,5 million aholidan 1650-yilga kelib atigi 700 ming kishi qolgan edi. Juda ko'p ekin yerlari huvillab qoldi va o'rmonlar bilan qoplandi. Yuzlab qishloqlar yo'q bo'lib ketdi. Shvedlar Saksoniya va Chexiyadagi juda ko'p konlarni ishdan chiqardilar, bu konlar ko'p yillargacha ishga solinmay keldi. German shaharlaridagi savdo va sanoat urush vaqtida yana ham qattiqroq oqsay boshladi.

Boshpanasiz qolgan va tirikchilik vositalaridan mahrum bo'lgan dehqonlar yordam so'rab feodallarga murojaat qilishga majbur bo'ldilar. Bunday sharoitda krepostnoy huquq urushdan avvalgidan ko'ra ham tezroq avj olib ketdi. Sharqiy Germaniya asoratga tushgan dehqonlar mamalkatiga aylandi, ular iqtisodiy va siyosiy jihatdan tamomila o'z pomeshchik-yunkerlariga qaram bo'lib qoldilar. Endilikda pomeshchik-dvoryanlar qishloqning tanho xo'jayini bo'lib qoldi. Dehqonlarning eng so'nggi kuchlari ham sindirildi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Vestfaliya sulhi qachondan boshlandi?
2. O'ttiz yillik urushda qaysi davlatlar g'olib chiqishdi?
3. Vestfaliyaning sulh muzokaralari nechanchi yilda yakunlandi?
4. O'ttiz yillik urushning oxir-oqibatlari nimalar bilan yakunlandi?
5. Buyuk geografik kashfiyotlarni esga tushiring.
6. Germaniyadagi iqtisodiy tushkunlikning asosiy omillari nimalardan iborat edi?
7. Siyosiy tarqoqlik nima uchun kelib chiqdi?
8. Gabsburglarning Yevropada tutgan o'rnini?

9. Germaniyaning tushkunlikka tushish sababi nima bo'ldi?

10. 1526-yildan keyingi Chexiyaning ijtimoiy hayotini aytib bering.

11. Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo qilinish sabablarini aniqlang.

12. 1618-yilda Chexiyadagi qo'zg'olonning asl maqsad va sabablarini ko'rsatib bering.

13. Daniya va Shvetsiyaning urushga kirish shart-sharoitlarini ochib bering.

14. Chexiyadagi birinchi seym qachon bo'lib o'tdi?

## 32-MAVZU: O'RTA ASRLARDA AMERIKA

### REJA:

1. Xo'jalik taraqqiyoti.
2. Mayyalar davlati.
3. Inklar davlati.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** xo'jalik taraqqiyoti, Mayyalar davlati, Inklar davlati.

**Xo'jalik taraqqiyoti.** Olimlarning fikricha, Amerika qit'asiga dastlabki odamlar Shimoliy Osiyodan hozirgi Bering bo'gozi orqali buyuk muzlik davrida, bundan 40 ming yil avval o'ta boshlagan va bu jarayon uzoq vaqt davom etgan. Natijada bu yerlarga yevropaliklar kelguniga qadar ham ko'psonli qabila va elatlar shakllangan.

Bu qabilalarning asosiy qismi ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Ammo Markaziy va Janubiy Amerikaning tog' va tog'oldi hududlarida dehqonchilik xo'jaligi vujudga kelib, keng taraqqiy etgan. Bu hududlarda kechua, mayya, astek, olmek va tolteklar yashaganlar. Ular tosh boltalar bilan o'rmondagi daraxtlarni kesib, sox-shabbalarini yondirib kulidan o'g'it sifatida foydalanishgan. Bu yerlarda yevropaliklarga ma'lum bo'lmagan makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki ekinlari o'stirilgan.

Amerikaning katta qismida xonakilashtirilgan hayvonlar bo'lmagan. Ot, sigir, qo'y va echkilar qit'aga keyichalik Yevropadan olib kelingan. Ular uy hayvonlaridan shimolda itni, janubda tuyasimon hayvon – lamani boqishgan. Parrandalardan kurka va o'rdak saqlangan.

Temir, omoch, g'ildirak, o't ochar qurollarni amerikalik hindular bilishmagan. Ularning mehnat va ov qurollari tosh, jez va yog'ochdan yasalgan. Aholining katta qismi urug'chilik jamoasida yashagan. Faqat dehqonchilik bilan shug'ullangan mayya, astek va kechualar o'zlarining davlatini barpo qilganlar.

**Mayyalar** Markaziy Amerikaning Yukatan yarim orolida (hozirgi Meksika) chakalarzorlar bilan qoplangan tog' oldi hududlarida qadimdan mayya xalqlari yashab kelgan.

Mayyalarda yer jamoa mulki hisoblangan. Qishloq jamoasi ekin maydonlari har bir oilaga taqsimlangan. Jamoa a'zolari yetishtirgan hosilning bir qismi zodagonlar va kohinlarga berilgan. Dehqonlar xohiq

to'lashdan tashqari, zodagonlarning yerlarini ishlab berishda, ibodatxonalar va yo'llar qurilishida qatnashganlar. Eng og'ir ishlarni qullar bajaragan. Qullar tabaqasi esa asir olingan jangchilar, jinoyatchilar, qardorlar va yetimlardan tashkil topgan. Mayyalarda davlat vujudga kelganida, jamiyatda urug'chilik tuzumiga xos xususiyatlar saqlanib qolgan.

Dehqonlar makkajo'xori, qovoq, kakao, paxta, qalampir, tamaki, dukkakli ekinlar yetishtirganlar. Aholi mevali daraxtlarni parvarishlash, asalari boqish bilan ham shug'ullangan.

Milodiy I ming yillikda mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keldi. Ularning har birini «buyuk kishi» – hukmdor boshqarib, uning hokimiyati merosiy bo'lgan. Hukmdorlar va zodagonlar shahar markazida bunyod etilgan saroy-qasrlarda yashaganlar. Shahar cheti va atroflarida esa dehqonlar va hunarmandlarning tomi qamish bilan yopilgan, polsiz kulbalar joylashgan.

Mayyalarning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti milodiy asr boshlarida yozuvni yaratish imkonini beradi. Kohinlar qilqalam bilan iyerogliflarni bitib, u rasmlar bilan bezatilgan. Ibodatxonalar devorlarida va baland tosh ustunlarda duolar, afsonalar, rivoyatlar, jangnomalar, tarixiy yilnomalar o'yib yozilgan.

Mayyalar hayotida kohinlar muhim o'rin tutgan. Ular jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlarini belgilab beradilar. Mayyalar eng aniq taqvimlardan birini yaratgan. Uning ixtirosi qishloq xo'jalik ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, matematika sohasidagi muvafaqiyatlarga asoslangan edi. Matematikaga «nol»ni anglatuvchi belgi ham mayyalar tomonidan hindlardan ham avval kiritilgan. Mamlatat poytaxti – Chichen-Itsada rasadxona ham qurilgan. Unda kohinlar sayyoralarining Quyosh tevaragida aylanish vaqtini hisoblab chiqqanlar, Quyosh va Oyning tutilishini oldindan aytib bera olganlar.

Mayyalar maxsus tepaliklar yasab, baland poydevorlar ustida o'zlarining sinuipoyali ehromlarini, saroy va ibodatxonalarini barpo etganlar. Ular bo'rtma tasvirlar, ma'budlar haykallari, devoriy suratlar bilan bezatilgan. Saroy va ibodatxonalarining derazalari bo'lmasdan, ular ustunlar orqali yoritilgan. Shahar ko'chalari tekis va ravon, bir-birlari bilan to'g'ri burchukda kesishgan holda bunyod etilgan. Yo'llar ustiga yoritilgan toshlar qoplangan. Mayyalar shaharlarini ham tosh yo'llar bilan qoplagan.

**Asteklar davlati.** Markaziy Amerikaning hozirgi Meksika hududida, dengiz sathidan 2000 metr balandlikdagi yassi tog'liklarda mo'tadil



shimoldan kelgan asteklar katta ko'l o'rtasidagi orollarda XII asrda Tenochtitlar shahriga asos soladilar, su'niy to'g'onlar bunyod etilgan, ibodatxonalar va saroylar qad ko'targan.

Asteklarda yer taqchil bo'lganidan, ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda «suzuvchi dalalar» ham yaratganlar. Bu o'ziga xos ekinzorlardan yiliga bir necha marta hosil olingan.

Asteklar qo'shni qabilalarni bo'ysundirib, ulardan soliq olishdan tashqari, ularni har yili ma'lum miqdordagi qullarni ham yuborib turishga majbur etishgan.

Asteklar urug', jamoa bo'lib yashaganlar. Jamoa boshliqlari saylab qo'yilgan. Ekin maydonlari jamoaniki bo'lib, u jamoa a'zolariga taqsimlab berilgan. Hukmron qabila vakillaridan tlatoani – lashkarboshi saylanib, u oily hukmdor bo'lishidan tashqari, bosh kohin vazifasini ham bajargan.

Yuqori lavozimlarni egallagan zodagonlar xizmatlari uchun maosh olganlar. Urushlar paytida asteklar 150 ming kishilik qudratli qo'shin tuzish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Urushlarning tez-tez bo'lib turishi asteklar jamiyatida mulkiy tabaqalanishni tezlashtiradi. Urushlarda asir olinganlarning ma'lum qismi qullarga aylatirilgan. Davrlar o'tib asteklarda ham urug' zodagonlari mavqeyi kuchayib boradi. Bularning barchasi urug'chilik tuzumining inqirozi va davlatning kuchayib borishidan darak beradi.

Asteklar xo'jaligining asosi sug'orma dehqonchilik bo'lgan. Eng muhim ekin makkajo'xori bo'lib, undan mo'l hosil olingan. Xo'jalikda dukkakli ekinlar, qovoq, pomidor, kakao, tamaki, paxta ham yetishtirilgan. Aholi uy hayvonlaridan it, parrandalardan kurka, tovuq va o'rdak boqish bilan ham shug'ullangan.

Asteklarda hunardmanchilikning kulolchilik, to'qimachilik, mis va oltindan zargarlik buyumlari yasash sohalari yaxshi rivojlangan. Ayni paytda ular ma'danlarni bilishmaganligi sababli bolta va pichoqlarni toshdan yasalishi davom etgan. Zargarlar qimmatbaho toshlarga ishlov berib, qadalma naqshlar (mozaika) yasab, saroy va ibodatxona devorlarini bezashgan. Astek hunardmanlari, ayniqsa, naqshin idishlar, ajoyib gazlamalar, qush patlaridan tovus kabi tovlanadigan kashtalar tikishga mohir bo'lganlar.

Quruvchilar to'g'onlar, kanallar, xom g'ishtdan yoki toshdan ustunlar ustida uylar bunyod etganlar. Bozorda mol ayirboshlash orqali savdo yaxshi rivojlangan. Asteklar qo'shni mayyalar ixtirosi asosida o'zlarinig quyosh taqvimini yaratganlar. Piktografik yozuv shakllangan. As-

teklar dini ko'p xudolikka asoslangan edi. Xudolar orasida eng e'tiborlisi urush xudosi bo'lib, uning sharafiga hatto odamlar ham qurbonlik qilingan. Ibodatxona kohinlari xalq orasida alohida hurmat- e'tiborga ega bo'lgan.

Poytaxt Tenochtitlada zodagonlarning farzandlari va oddiy xalq bolalari uchun alohida-alohida maktablar bo'lgan. Xalq bolalari uchun maktablarda dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy ishlar o'rgatilgan. Zodagonlarning farzandlari esa tarix, husnixat, o'qish, hisoblash, astronomiya, she'riyat, notiqlik san'atlari asoslarini o'rganishgan. Tenochtitlanada har yili madhiya, qissalar yozadigan shoir-qo'shiqchilar ko'rik-musobaqalari o'tkazib, g'oliblar mukofotlangan.

**Inklar davlati.** Janubiy Amerikaning And tog'lari yon bag'rida minglab kilometr ga cho'zilgan vohalarda inklar davlati vujudga kelgan. Kechua tillariga mansub inklar XII–XIII asrlarda Urubamba daryosi havzasida Kusko shahriga asos soladilar. Qo'shni qabilalar Kuskoga xavf solgan bir paytda – 1438-yili kechualar birlashib bosqinchilarga zarba beradi. Ushbu g'alabadan so'ng Tauan Tinsuyyu (kechua tilida «dunyoning to'rt tomoni») davlati shakllana boshlaydi.

Inklar aymara, chimu va boshqa qabilalar yerlarini bosib olib, And tog'laridan Tinch okeaniga qadar ulkan masofada o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. Bu davlatni oliy hukmdor – Sapa Inka (Oliy Inka) boshqargan. U «Quyoshning o'g'li», uning yerdagi ramzi sanalgan. Aholi, shuningdek, turli tabiat kuchlari, yer va suv ilohlariga ham e'tiqod qilganlar. Bosib olingan hududlar aholisiga inklar o'z tartiblarini, madaniyatlarini o'tkazganlar. Natijada dastlab qabila nomi bo'lgan «ink» atamasi imtiyozlarga ega hukmron toifa – zodagonlarning umumiy nomiga aylandi.

Inklardan bo'lmagan aholi jamoa bo'lib yashab hukmron toifa uchun ishlagan. Jamoa dehqonlar oilalaridan tashkil topib, ularning har biriga ma'lum yer, ekin maydoni biriktirib qo'yilgan. Jamoalar yetishtirgan hosilning 2/3 qismini davlat va ibodatxonalarga topshirganlar. Mamlakatda rasman qulchilik bo'lmasa-da, jamoa a'zolari shafqatsiz ishlatilgan va deyarli huquqsiz bo'lgan.

Tog'li hududlar dehqonchilik uchun noqulay edi. Natijada jamoa erkaklari tik qoyalar yonbag'rini o'yib, toshlarning ustiga unumli tuproq yoyishgan. Bunday ekinzorlar tuprog'ini yomg'ir yuvib ketmasligi uchun atrofi tosh devorlar bilan o'rab chiqilgan. Inklarda asosiy ekinlar kartoshka va makkajo'xori bo'lgan. Dehqonlar, shuningdek, qovoq, paxta, ananas, banan yetishtirganlar.

Yetishtirilgan hosil uchga: bir qismi ibodatxona kohinlari, ikkinchi qismi Oliy Inkaga berilgan, uchinchi qismi esa jamoada qoldirilgan. Davlat omborlaridan to'plangan oziq mahsulotlaridan qo'shin va amaldorlarga berilgan. Urushlar, hosilsizlik yillari yoki turli tabiiy ofatlar paytida barcha jabrlanganlarga davlat zaxirasidan makka doni va quritilgan kartoshka tarqatilgan.

Poytaxt Kuskoni viloyatlar bilan bog'laydigan, umumiy uzunligi 15 ming kilometr bo'lgan tosh yo'llar barpo etilgan, viloyatlar orasida pochta xizmati o'rnatilgan. Maxsus choparlar yugurgan holda bir-birlariga xabarni yetkazib, uni uzoq masofalarga eltishgan.

Zodagonlarning bolalari maxsus maktablarda o'qigan. Yozuv bo'lmaganligi sababli bolalar inklarning dini, boshqaruv tartibi, qonunlari va udumlariga oid ma'lumotlarni yodlaganlar. Inklarning o'ziga xos «tugunli xati» (kipu) bo'lib, uning sirlari faqat ruhoniylarga ma'lum edi.

Inklarning matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, botanika va boshqa ilm-fan sohalarida chuqur bilimlari bo'lgan. Ularning aniq taqvimini 12 oyga bo'lingan. Tabiblar insonning bosh suyagida jarrolilik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar.

#### **Nazorat savollari:**

1. Amerika tub aholisining mashg'ulotlari haqida gapirib bering.
2. Mayyalar tarixi va madaniyati haqida nimalar bilasiz?
3. Asteklar kim? Ular haqida so'zlab bering.
4. Inklar davlati qachon va qayerda vujudga kelgan?

### 33-MAVZU: O'RTA ASRLARDA AFRIKA

#### REJA:

1. Afrika aholisi va xo'jaligi.
2. Aksum davlati.
3. Afrika madaiyati.

**Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:** Afrika aholisi va xo'jaligi, Aksum davlati, Afrika madaiyati.

**Afrika aholisi va xo'jaligi.** Aholining aksar qismi I ming yillik o'rtiga qadar tashqi dunyodan ajralgan holda yashagan. Qit'aning tropik o'rmonlarida, sahrolarda ovchi va temirchi qabilalar joylashgan. Afrikaning Misrdan boshqa hududlarida yashagan ba'zi dehqonlar ildizmevali ekinlarni yetishtirganlar. Savanna hududlarida yerga unumdor tuprog'i bo'lgan joylarga moslashgan temir tishli chopqilar ishlov berilgan. Sahroi kabirning atroflarida ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va o'troq qabilalar ham aksar chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Hudooning janubida **barbar va tuagerlar**, G'arbiy Afrikada **fulbe**, Sharqda **masai, galla, sidamo, tigrelar** chorvachilik bilan shug'ullangan.

**Afrikaning dastlabki davlatlari. Gana.** Afrikaning Sharqida Misr, Arabiston va Hindistonlar bilan savdo aloqalari ta'sirida qadim zamonlardan Nubiya va Aksum (hozirgi Efiopiya) davlatlari tashkil topgan edi. Arab savdogarlari VII asrdan G'arbiy Sudan yerlariga, O'rta dengiz aholilaridan Afrikaga yuksak qadrlanuvchi tuz va boshqa mollarni keltirganlar. Savdo yo'llari kesishgan joylarda yirik qasaba – qo'rg'onlar Anka, Gana Tombuktu, Gao, Mali vujudga kelgan. Qo'rg'onlarda muhojir musulmon savdogarlaridan tashqari mahalliy zodagonlar ham yashaganlar. Ular keyinchalik vujudga kelgan davlatlardagi boshqaruvni qo'lga oladilar. O'rta asrlarda Niger va Senegal daryolari havzasida dastlabki davlatlar: Gana, Mali, Songailar tashkil topadi. Ularning dastlabki G'arbiy Sudandagi Gana bo'lgan. U VIII asrda vujudga kelib, IX asrda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi.

Davlatning daromad manbalaridan biri savdodan keladigan boj to'lovlari edi. Bojning asosiy qismini chetdan keladigan savdogarlar: arablar, barbarlar, yahudiylar to'laganlar. Lekin mamlakatning katta boyligini oltin berilgan. Gana podshosi va zodagonlari oltin va tuz savdosi bilan katta foyda olgan.

Podshoning kuchli qo'shini bo'lib, undagi 200 ming askarning deyarli 40 mingini kamonchilar, ma'lum qismini esa otlq jangchilar tashkil etgan. O'tmishda arab savdogarlari va Gana podshosining katta xazinasida haqida ko'plab afsonalar yaratilgan. Bu esa qo'shni jangari qabilalar diqqatini tortar edi. Marokash sultoni Abu Bakr 1076-yili katta qo'shin bilan Ganani istilo qilib, uni talagan. Bu voqealardan so'ng Gana podshosi Marokashga qaram bo'lib, boj-yasoq to'lashdan tashqari, o'z zodagonlari bilan islom dinini qabul qilishga ham majbur bo'ladi. 1087-yilgi xalq qo'zg'oloni marokashliklar hukmronligiga chek qo'ygach, Gana parchalanib ketadi. Ko'p o'tmay uning o'rnida Mali davlati yuksaladi.

**Mali davlati.** Mali davlat sifatida VIII–IX asrlardayoq vujudga keladi. Gana davlatining qudrati uning keyingi rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. XI asrdan Mali aholisi islomni qabul qiladi. Bu esa mamlakatga musulmon savdogarlarining ko'chib kelishini tezlashtiradi. Xo'jalikda hunarandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida XIII asrda Mali o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Uning hukmdori Sundiata Keyt (1230–1255) ko'p sonli qo'shin tuzadi. Bu qo'shin yordamida Sundiata karvon yo'llari o'tadigan hududlarni, oltin konlarini, qolaversa, qadimgi Gana yerlarini bosib oladi. Mali hukmdori istilo etilgan viloyatlar noibligiga o'z qarindoshlari va yaqinlarini tayinlaydi. Noiblar esa o'z navbatida lashkarboshi, amaldorlariga yer-mulklar in'om etishgan. Mahalliy aholidan soliqlar undirish ham noiblar zimmasiga tushgan. Ko'p o'tmay Mali butun arab dunyosida mashhur bo'lib ketadi. Uning hukmdori Muso I 1324-yilda Makkaga haj safari uyushtiradi. Muso I o'zi bilan safarga ko'p oltin olib, yo'lda ularni saxiylik bilan tarqatib boradi. Hukmdorga 8 ming jangchi va 500 ta qul hamroh bo'lib, bu katta karvon 10-12 tona oltinni o'zi bilan olib ketgani ehtimol qilinadi. Bu voqeadan so'ng uzoq yillar davomida arab dunyosida oltinning narxi past bo'lgan.

Mali poytaxti Niara va boshqa shaharlarda hashamatli saroylar, masjidlar quriladi, hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Biroq ijtimoiy hayotda qabila zodagonlari mavqeyi saqlanib qoladi. Mali hukmdorlari o'z yaqinlarining toj-u taxtga tajovuzidan cho'chib, ko'pincha saroy amaldorlarini, lashkarboshilari va hatto jangchilarni ham qo'shni qabilalar vakillaridan olishgan. Hukmdorning shaxsiy gvardiyasi esa qullardan tuzilgan.

Mali aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashab, jamoalardan jamoalar, o'z navbatida yirik patriarxal oilalardan tashkil topgan. Jamoyatda qullarga munosabat o'ziga xos bo'lib, xorijdan keltirilgan qullar xo'jaliklarda oida a'zolaridek yashaganlar. Bu qullarning farzandlari esa erkin kishilarga aylangan.

Feodal tarqoqlik, sulolaviy nizolar XIV asr oxiridan Malining zaiflashishiga sabab bo'ladi. Mali XV asrda butunlay inqirozga uchrab, parchalanib ketadi.

**Songai davlati.** Songai qabilalari Gana va Malaning shimoli-sharqida yirik savdo markazlaridan biri Gao atroflarida yashagan. Dastlab I ming yillik boshlarida songailar tuzgan davlat birlashmasi Mali ta'sirida bo'ladi. Malining zaiflashuvi esa islomni qabul qilgan songailar hukmdori Almiga XIV asr oxirida ularni yengib, poytaxti Gao bo'lgan mustaqil davlatini tuzish imkonini beradi. Songai XIV–XV asr chegaralarida kuchaygan. U Niger daryosi havzasida o'z hukmronligini to'liq o'rnatadi.

Mamlakat viloyatlarga bo'linib, ularni hukmdorning yaqin kishilari boshqargan. Songaining asosiy daromad manbai tranzit savdosi va oltin konlari edi. Aholidan undirilgan soliqlar ham muntazam oshib borgan va kazinani to'ldirish omillaridan biri bo'lgan. Amaldorlarga taqdim etilgan katta yer-mulklarda qullar ishlagan. Davrlar o'tishi bilan qullar qaram dehqonlarga aylanib boradi. Ularning avlodlari esa kichik yer-mulkining erkin egalariga aylanib, davlatga faqat soliq to'laganlar, soliq. Songaida maxsus yollanma qo'shin ham tuzilgan edi.

**Aksun davlati.** Hozirgi Efiopiyaning shimolida qadimdan Aksun davlati vujudga kelib, uning yuksalishi IV–V asrlarga to'g'ri keladi. Aksun hukmdorlari karvon yo'llari joylasgan Arabistonning janubiy sohillarini, Sharqiy hududning bir qismini egallaydilar. Bu davlat Rim imperiyasi, keyinchalik Vizantiya bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Shu sababdan Aksun hukmdori va uning a'yonlari xristian dinini qabul qiladilar.

VII asrda Aksun qo'shinini Arab xalifaligi lashkari mag'lubiyatga uchratib, Arabiston yarim orolining janubidagi yerlaridan mahrum qilgan. Aksundagi vaziyat murakkablashib, X asrdan hokimiyat yangi mulk qo'lga o'tadi.

Efioplarning xristian davlati XII asrda qayta tiklanib, XIII asrdan boshlab kelgan Solomonlar sulolasi 1974-yilga qadar Efiopiyada imperiya bo'lib qoladi. Rivoyatlarga ko'ra, Aksunning birinchi hukmdori Manelik – podaho Sulaymonning Arabiston malikasidan tug'ilgan o'g'li bo'lgan. Bu Aksunning Arabiston bilan aloqalari qadimdan yaxshi bo'lganini, sulolaning nomi tarixiy asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

Arablarining Sharqiy Afrikadagi dastlabki savdo qo'rg'onlari VIII–IX asrlarda shakllangan. Arab savdogarlari bu hududlardan negr qullarni – zanjilarni turli mamlakatlarga olib borib sotganlar. Arablar ta'siridagi Sharqiy Afrika sohillarida XII – XIV asrlarda savdo-sotiq tizimi yuksaladi. Asrlar davomida bu hududlarda arab-afrikaliklar

jamoasi va suaxili tilida so'zlashadigan aralash aholi vujudga keladi. Arab savdogarlari Mogadisho, Malindi, Mombasa, Kilva, Zanzibar va boshqa shaharlarga asos soladilar, bu shaharlarga arab, eron, hind savdogarlari va hunarmandlari kelib joylashadi.

Savdogarlar o'z kemalarida Hind okeani bo'ylab suzib, Hindiston, Eron va Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo-sotiq olib borganlar. Bu shaharlarda yirik kemalar qurilgan va ko'plab tajribali dengizchilar yashagan.

**Afrika madaiyati.** Afrika xalqlarida avloddan avlodga o'tib kelgan ajoyib afsona va ertaklar ko'p edi. Ular biz uchun qimmatli tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Afrika xalqlari ichida o'z yozuviga ega bo'lganlari ham bor edi. Jumladan, Aksumda IV asrdayoq mahlliy yozuv islohoti o'tkaziladi. Bu alifbo Efiopiyada hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Aksumda qurilish sohasida, ayniqsa, katta yutuqlarga erishilgan. Bu davrda qurilgan saroylar, xristian ibodatxonalari va yerosti dahmalari bugunga qadar saqlanib qolgan.

G'arbiy Sudan xalqlari madaniyatining yuksak taraqqiyotida arablarning ta'siri kattadir. Islom dini qabul qilinganidan keyin bu yerlarda arab mamlakatlaridan kelgan usta va me'morlar masjidlar, saroylar, qasrlar, jamoat binolari, kasalxonalar, hammom, istirohat bog'lari quradilar. Musulmon maktab va madrasalari ochildi. Jumladan, Tombuktu madrasasida ilohiyotdan tashqari tarix, fiqh, matematika, astronomiya kabi fanlar o'qitilardi.

Afrikaliklar san'atning turli sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Yog'och va jezdan yasalgan haykallar va niqoblar nafisligi bilan odamlarni hozirgi kungacha hayratlantirib kelmoqda. Benindagi shoh saroyida jezdan ishlangan podsho va a'yonlar bo'rtna rasmlari topilgan.

Afrika xalqlarining o'rta asrlardagi taraqqiyoti Osiyo va Yevropa davlatlaridagiga nisbatan birmuncha orqada bo'lishiga qaramadan, aholi xo'jalikda muvaffaqiyatlarga erishib, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yaratdi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Afrikada O'rta asrlarda yashagan xalqlar va qabilalarni sanab o'ting.
2. Afrika aholisining xo'jaligi qanday rivojlangan?
3. Gana, Mali va Songai tarixidan nimalarni eslab qoldingiz?
4. Sizningcha, Aksum va boshqa Afrika davlatlari taraqqiyoti nima sda farq bormi?

## O'RTA ASRLAR TARIXI FANIGA OID IZOHLI LUG'AT

**Matematiklar xuntasi** – o'ziga xos bo'lgan kichik Lissabon akademiyasi. Bu jamiyat asosan matematiklar jamlanishgan yer bo'lib, ular Kolumbning Hindistonga sayohat loyihasini rad etishgan.

«O'n ikki modda» dasturi – 1525-yilning mart oyida qo'zg'olonchi dehqonlar tomonidan qabul qilingan 12 moddadan iborat dastur.

«Qal'a odamlari» (Zamkovie lyudi) – ilgari erkin bo'lib, feyodalchalik yerga biriktirilgan, harbiy majburiyatdan tashqari qirol to'ldasiga obrok va barshchina o'tovchi qatlam. Dehqonlarning asosiy qismi shu qatlamga mansub bo'lgan.

«Quddus assizlari» – salibchilarning Quddus qirolligi sudebnigi.

«Udvorniki» – (slavyanacha «dvor» – saroy) Qirollik saroyi xizmatini bajaruvchi dehqonlar qatlami.

**Abbat** – monastirlar nozirlari shu nom bilan atalgan. Yevropada ko'pincha ma'noda barcha ruhoniylarga ham ishlatilgan tushuncha.

**Abbatlar** – monastir ruhoniylari.

**Absolutizm** – mustabid, yakka shaxs qo'lida to'plangan hokimiyat, mutlaq atamasi bilan tenglashtiriladi.

**Abvub** – Muhammad Tug'luq tomonidan joriy etilgan qo'shimcha soliq – to'lov.

**Adlentado** – (*isp.*) oldinda yurmoq, o'zib ketmoq. Konkistadorlar qo'shini yo'l boshchisi.

**Agora** – Vizantiya shaharlaridagi davlatning qator shahar muassasalarini joylashgan markaziy maydon.

**Alkabala** – arablar hukmronligi davrida joriy etilgan soliq. Keyinchalik Alba persogi tomonidan Ispaniya tasarrufidagi Niderlandiyada joriy qilindi va mashhur bo'lib ketdi.

**Allod** – yerga egalik qilish, avloddan avlodga meros qoluvchi yer.

**Almunda** – Germaniyada jamoa yerlari.

**Amoravidlar** – Shimoliy Afrikada islomni qabul qilgan va yirik feodal birlikni vujudga keltirgan saharalik barbarlar Ispaniyada shu nom bilan tanilgan.

**Ayo** – Indlarda qo'slmichilik jamoasi.

**Amaram** – Janubiy Hindistonda harbiy xizmat evaziga umrbod beriladigan yerlar.

**Amaramayuk** – amaram yerlari sohiblari.



**Amaterasu** – quyosh xudosi, imperator xonadonining oliy xudosi va rahnamosi.

**Amerika** – 1501-yilda florensiyalik astronom va dengizchi portugallar bilan ikkinchi ekspeditsiyasida Braziliya qirg'oqlarini tadqiq qilib, Kolumb tomonidan ochilgan yerlar «Hindiston» emas, aslida yangi qit'a ekanligi haqida to'xtamga keladi. Uning bu fikrlaridan kelib chiqib, yangi ochilgan yerlarga uning nomi – Amerigo yeri degan tushuncha qo'llanila boshlaydi. Yangi materikning Amerika deb atalgan birinchi globusi 1515-yilda Germaniyada paydo bo'ldi. Va shu taxlit Amerika nomi rasman qabul qilingan geografik nomga aylandi.

**Anabaptistlar** – qayta cho'qinganlar. Rasmiyatchilikka qarshi chiqqanlar. Ular balog'at yoshida cho'qinish tarafdorlaridir.

**Anafema** – cherkov tavqi la'nati.

**Angariya** – dehqonlar o'taydigan barshchina. Italiya janubida amalda bo'lgan.

**Annallar** – yilnomalar. Voqelar xronologik ketma-ketlikda yoziladigan asarlar.

**Annat** – har bir xristian cherkovi kafedrasining yillik daromaddan Rim papasiga yuboradigan to'lovi.

**Antlar** – IV–VI asrlarda Dnestr va Dnepr daryolari oralig'ida yashagan Sharqiy slavyan qabilalari katta uyushmasining nomi.

**Aporlar** – «Dehqonchilik qonuni»ga ko'ra kambag'allar toifasi.

**Aratlar** – mo'g'ullar jamiyatining qaram qatlamini tashkil etuvchi oddiy xalq vakillari, cho'ponlar.

**Artistlar** – O'rta asr universitetlarining boshlang'ich fakultetlarida «yetti erkin san'at» o'qitilgan. Shuning uchun ham bu faularni o'qiyotgan talabalar artistlar deb atalgan. Lotincha artes – san'at.

**Artlar** – sex korporatsiyalari.

**Arxiyepiskop** – xristian cherkovning oliy martabali mansabdori. Ko'proq davlatdagi bosh ruhoniy shu mansab vakili hisoblangan.

**Arxont** – antik mualliflar asarlarida germanlardagi qabila boshlig'i titullaridan biri, yo'l boshchi.

**Assiz yoki kuriya** – salibchilarning Sharqdagi davlatlaridagi bosh allar kengashi.

**Avanturistlar** – Angliyada uzoq dengiz yo'llari ortidagi mansabdorlar bilan savdo qiluvchi tadbirkorlar.

**Ayurveda** – an'anaviy hind tibbiyot maktabi.

**Bakalavrlar** – Angliyada ritsarlarning eng mayda tabaqasi.

**Bakufu** – qatorqah, ayonunung harbiy hukumati. Teyva va Min

moto o'rtasidagi urushda Kamakura Shahrida vujudga kelgan. Harbiy-politsiya funksiyasi bilan cheklangan hamda butun mamlakat hududini qamrab olmagan.

**Balyaj** – Fransiya shimolidagi yirik ma'muriy-hududiy birlik.

**Banjar** – Hindistonda savdo kastalaridan biri.

**Bank** – Italiyada vujudga kelgan pul ayirboshlash bilan shug'ullanuvchi muassasa. Kursi ma'nosidan kelib chiqqan.

**Banya** – induss savdogarlari.

**Baqqol** – induss savdogarlari.

**Baronet** – faxriy unvonli dvoryan. Barondan keyingi o'rinni egallovchi shaxs.

**Barshchina** – qaram dehqonlarning ishlab berish majburiyati. Yil davomida

2-7 haftani tashkil qilgan.

**Bayan** – boy va shaxsan ozod mo'g'ullar.

**Baxriylar** – Misrdagi mamluk sultonlarining bir sulolasi (guruhi). 1250–1390- yillarda hukmronlik qilgan.

**Be** – qaram kishilarning jamoasi yoki korporatsiyasi.

**Begar** – xalqning turli xil davlat ishlariga safarbar etilish majburiyati.

**Begetriya** – dehqonlar jamoasi bo'lib, unda senyor shartnoma evaziga ularni o'z homiyligiga oladi. Buning uchun dehqonlar ma'lum majburiyatlarni ado etishlari zarur bo'lgan. «Dengizdan dengizgacha» va «yurug' begetriyasi» farq qilgan.

**Benfisiy** – senyorning o'z vassaliga muayyan va ko'pgina xizmatlarni o'tash evaziga in'om qilingan yer-mulk.

**Berkibeynerlar** – chipta kovush kiyib yuruvchilar. Norvegiyada quyi kambag'allar toifasi shu nom bilan atalgan.

**Bej** – mamluk qo'shinlari lashkarboshilari, qo'mondonlari. Erkinlikka chiqarilgan qullar. Odatda ular xizmati evaziga yer in'omi olib, mulkka aylangan.

**Bej bo** – chegara garnizonlari va armiyani boshqaruvchi harbiy vaqiflik.

**Bejot** – qul erkaklar.

**Bejyarlilar** – turklar hukmronligi o'rnatilgunga qadar Bolgariyadagi hukmron tabaqa.

**Bejlar** – o'z xo'jaligiga ega bo'lgan va zodagon xo'jaligiga tegishli bo'lmagan barcha ozod kishilar shu nom bilan atalgan.

**Bejland** – yorliq bo'yicha berilgan yerlar.

**Boshmoq** – dastlab 1493-yilda Germaniya Elzas hududida o‘z faoliyatini boshlagan, u yerda bostirilgandan keyin XVI asr boshlariga kelib Shvabiyada qayta tiklangan maxfiy tashkilot.

**Boyarlar** – Moldaviya va Valaxiyada yirik feodallar.

**Boyarlar Dumasi** – X asrda vujudga kelgan Rus knyazi huzuridagi oliy kengash. Maslahat va qonunchilik vazifasini bajargan.

**Boxra** – Hindistonda savdo kastalaridan biri.

**Braxman** – kohin, oliy kasta vakili. Ba’zan ziyoli odamga nisbatan ham qo‘llaniladi.

**Bulla** – farmon, Papa farmoni.

**Burg** – qal’a.

**Burgundlar** – german qabilasining nomi. 534-yilda franklar tomonidan bo‘ysundirilgan.

**Burjiylar** – Misrdagi mamluk sultonlarining ikkinchi sulolasi (guruhi). 1390–1517 yillarda hukmronlik qilgan.

**Burjua** – O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada shahar aholisi, o‘rta tabaqa vakili. XV asr oxiridan shaharning yuqori tabaqasi ma’nosida qo‘llana boshlagan.

**Busi** – harbiylar, samuraylar.

**Busido** – samuraylarning ma’naviy-axloqiy kodeksi.

**Buyuk knyaz** – qadimgi Rusda va feodal tarqoqlik davrida oliy knyazlik faxriy unvoni. X asrdan xalqaro shartnomalarda Kiyev Rusi knyazlari shu titul bilan keltirilgan.

**Buyuk magistrlar** – salibchilar diniy ritsarlik ordenlari boshliqlari, bevosita Rim papasiga bo‘ysungan.

**Chelyad** – xizmatkor, asirga olingan qul.

**Chonsikva** – amaldorlarga xizmati uchun beriladigan yer bo‘laklari.

**Chu** – viloyat.

**Chxonin** – qaram kishilar.

**Dala dxiqari** – Vijayanagarda bosh qo‘mondon.

**Damm** – mis tanga.

**Danexof** – Daniyada magnatlardan tarkib topgan davlatning umumiy kengashi. 1282-yilda qirol Erik Klipping xartiyasiga binoan chuqir qilgan.

**Daymyo** – qadimda ko‘pgina yer bo‘laklariga egalik qilgan yer egalari shunday atalgan. Tokugava syogunligi davrida daymyolar deb bevosita bakufuga bo‘ysungan feodallar atalgan. Ular yerlaridan yiliga 10 ming koku atrofida guruch hosilini yig‘ib olish imkonini beruvchi yerlarga egalik qilishgan.

**Dehqon** – jamoa, qishloq boshliqlari.

**Dekan** – o'nlik boshqaruvchisi, amaldor shaxs. Hududiy okrug hisoblangan dekaniyada o'ziga biriktirilgan vazifalarni amalga oshirgan.

**Devsherim** – turklar tomonidan mahalliy aholining o'spirinlarini musulmon diniga o'tkazib, ulardan o'z maqsadi yo'lida harbiylar tayyorlash tizimi.

**Devyatina** – Vengriyada dehqonlar mahsulot bilan to'laydigan to'qqizdan bir ma'nosini beruvchi soliq.

**Digestlar** – 50 kitobdan iborat Rim qonunchiligi sharhlangan to'plam. «Yustinian kodeksi» tarkibiga kirgan.

**Dinatlar** – IX asrda Vizantiyada yirik feodal yer egalari.

**Dini ilohiy** – Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan diniy islohotga ko'ra Hindistonda shakllangan yangi din shunday ataldi. Ammo u keng targ'ib etilmadi. Akbar vafotidan yarim asrlar o'tib bu diniy e'tiqod umuman muomaladan chiqib ketdi. Unda Hindistonda shu davrgacha mavjud bo'lgan diniy e'tiqodlarning umumlashmasi aks etgan edi.

**Diniy qashshoqlik (gadoylik) ordenlari** – bevosita papalarning Rimdagi tashkil etilgan kambag'allikni targ'ib etuvchi va papa hokimiyati uchun kurashuvchi kambag'allik ordenlari. Garchi qashshoqlikni targ'ib qilsa ham, aslida orden a'zolari kattagina mol-mulk egalari hisoblangan.

**Dinor** – og'irligi 4,25 g ni tashkil qiluvchi oltin tanga.

**Dirham** – og'irligi 3 g ni tashkil qiluvchi kumush tanga.

**Dofin** – Fransiyada taxt valiahdi. Dofin viloyatida turib valiahdlik qilganligi uchun ham shu nom bilan atalgan.

**Doj** – O'rta asrlarda Venetsiya va Genuyada doimiyga saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i.

**Domen** – feodallarning dehqonlar barshchina mehnati bilan ishlangan yer mulki. Qirol, graflar, gersoglarning yerlari ham shunday atalgan.

**Dor as-sulh** – islom bo'lmagan davlat hududi, Xalifalikning soliq to'lovchi hududlari.

**Dor ul-islom** – islom davlati hududi.

**Dor ul-harb** – islom bo'lmagan davlat hududi.

**Drojinn** – qadimgi Rusda knyaz mulozimlari, uning yaqin kishilari va izmochilari.

**Dudu** – okrug qo'shinlari qo'mondoni.

**Dukat** – Venetsiya oltin puli.

**Duka** – antik mualliflar asarlarida germanlardagi qabila boshlig'i. Hollaridan biri, yo'l boshchi.

**Dza** – XV–XVII asrlarda markaziy viloyatlardagi ulgurji savdogarlar, «gildiya». Ba'zi adabiyotlarda «sex» tushunchasiga yaqin tarzda talqin qilinadi.

**Dzito** – syogun votchinalarida va davlat yerlarida syogun tomonidan tayinlanadigan boshqaruvchilar. Ma'muriy, sud va politsiya vazifasini bajargan.

**Dharma** – qoida, huquq, odat, diniy burch, qonun, majburiyat. Buddha tomonidan ko'rsatilgan ta'limot va yo'l.

**Ekzarxat** – Vizantiyada ma'muriy-hududiy birlik. Imperiya g'arbi-da, varvarlardan tortib olingan joylarda tashkil qilingan.

**Eldorado** – afsonaviy «oltinlar mamlakati».

**Eldormen** – oldormen, qirol oilasi a'zosi yoki qirolga qarashli viloyat boshqaruvchisi.

**Emporiyalar** – Vizantiyada shaharga yaqin turuvchi savdo markazlari.

**Enkomenda** – XVI asrning 20-yillari oxirlarida dastlab Kortes tomonidan joriy etilgan hindularni ekspluatatsiya qilish shakli. Unga ko'ra enkomenda egasi o'ziga berilgan yerlardagi hindu – jamoalarini ekspluatatsiya huquqiga ega bo'lgan.

**Eparx** – Konstantinopol oliy amaldori. Savdo va hunarmandchilikni nazorat qilgan shahar ma'muriyati boshlig'i.

**Erlar** – angl-sakslarda mashhur kishilar qatlamiga nisbatan qo'llanilgan. Zodagonlar qatlami.

**Ermandadalar** – birodarlik. Konsexolar o'z manfaati yo'lida qirollik hokimiyatiga qarshi kurashish uchun shunday ittifoqqa birlashgan.

**Espanola** – Kolumb Gaiti orollariga yetib borgach qo'ygan rasmiy nom. «Ispan orollari» ma'nosini anglatadi.

**Ezgu Umid Burni** – Bartolomeo Diash tomonidan 1486-yilda ochilgan Afrikaning eng janubiy qismi.

**Fablio** – Fransiyada yumoristik janrdagi asarlar.

**Familiarlar** – Vengriyada mayda feodallar qatlami.

**Femlar** – Vizantiyada harbiy okruglar.

**Fey syan** – «uchar pullar», veksellar yoki kredit cheklari, uning yordamida ma'lum bir joydagi idoralarga pul topshirib, boshqa bir shahardagi shunday idoradan qayta olish mumkin bo'lgan. VIII–IX asrlarda paybo bo'lgan.

**Fondako** – nemis savdogarlarining Italiya shaharlaridagi doimiy idoralari.

**Frank-arsher** – Yuz yillik urush davrida har 50 shaharlik yoki qishloq aholisi urushga safarbar etadigan harbiy, erkin mergan.

**Frelslar** – biror-bir majburiyat va soliqlardan «ozod etilgan». Shved feodallariga nisbatan qo'llanilgan.

**Frigolderlar** – ozod dehqonlar qatlamiga teng bo'lib, davlat tomonidan belgilanadigan majburiyatlarni bajarishgan.

**Fu** – yirik shaharlar atrofidagi viloyatlar, provinsiyalar tarkibiga kirgan.

**Fuaj** – tutun puli, solig'i.

**Fueros** – Ispaniya shaharlarida o'z-o'zini boshqarish huquqi aks etgan hujjatlar.

**G'ov tutish** – asosiy foyda jun va undan to'qilgan movut kelayotganligi tufayli Angliyada yaylov miqdorining kengayishi kuzatildi. Bu jarayonda dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan yerlar ham yaylovga aylantirilib, to'siq (g'ov) bilan ihota qilindi. Natijada ingliz dehqonlarining ommaviy yerdan mahrum bo'lishi kuzatildi. Bir so'z bilan aytganda, dehqonlarni yerdan mahrum qilish.

**G'ulom** – qul. Yoshlikda ota-onalardan ajratib, musulmon mafkurasida harbiy maqsadlar yo'lida tayyorlanadigan qullar.

**G'ulomlar** – mamluklar, qullar. Qul sifatida olingan mamluklardan maxsus qo'shin tayyorlangan. Ular orasida turli elat vakillarini uchratish mumkin bo'lgan.

**Ga** – aristokratiya.

**Gabel** – Fransiyada tuz solig'i.

**Ganza** – omma savdogarlar ittifoqi. Lubek boshchilik qilgan.

**Gayda** – inglizcha – hide, ilk o'rta asrlarda Angliyada bir oilaga tegishli jamoa yer bo'lagi. Gayda hajmi hududlarga qarab turlicha bo'lgan. Uning o'rtacha kattaligi 120 akr (1 akr = 0,4 gektar) haydaladigan yerga teng bo'lgan.

**Gayduklar** – turk istilochilariga qarshi chiqqan slavyan xalqlarining qurolli qatnashchilari.

**Ge** – kodekslar va statutlarni qo'shimcha sifatida chiqarilgan ularni to'ldiruvchi buyruqlar to'plami.

**Geburlar** – o'z yeri yo'q, lord yerida ijarada mehnat qiluvchi, ayni vaqtda xo'jayin yerida haftasiga 3-4 kun og'ir barshchina, shuningdek, mahsulot rentasi to'lovchi dehqonlar qatlami.

**General (bosh) shtatlar** – Filipp IV tomonidan chaqirilgan toifalar vakillaridan iborat kengash. Ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklar yig'ilgan (har bir shahardan ikki nafar deputat).

**Genitlar** – xususiy yer egasi bo‘lib, qisman lordga soliq to‘lab turgan erkin dehqonlar.

**Geogrlar** – «Dehqonchilik qonuni»ga ko‘ra jamoaning erkin a‘zolari.

**Gersog** – qadimgi germanlarda qabila zodagonlari saylaydigan oliy boshliq. Qabila yetakchisi.

**Geylronn dasturi** – Germaniyada dehqonlar qo‘zg‘olonidagi Frankoniyada yaratilgan dastur, programma. 1515-yilning 9-12-mayida tuzilgan. Jami 14 moddadan iborat.

**Gezit** – jon solig‘i.

**Gibellinlar** – nemischa Vayblingen deb ataluvchi gogenshtaufelar qasrining lotinlashgan talaffuzidan kelib chiqqan nom. Italiyada german imperatorlari tarafdorlari.

**Gildiya** – O‘rta asrlarda savdogarlar uyushmasi.

**Gildiya** – Ingliz shaharlarida o‘z imtiyozlari uchun kurashuvchi shaharliklar shirkati.

**Gokenin** – bevosita syogun vassallari. Bu institut XII asrda Minamoto davrida shakllantirilgan. Tokugava Ieyasu davrida, XVII asrda qayta tashkil etilgan.

**Gospitalerlar ordeni** – ionaitlar. Quddusdagi avliyo Ioann gospitali nomidan olingan. Italiya ritsarlarining monaxlik ordeni.

**Grad** – shahar, dastlabki vaqtlarda har bir qabilaning o‘z gradi bo‘lgan.

**Graf** – kichikroq ma‘muriy birlik boshqaruvchisi, qirol tomonidan tayinlangan.

**Grafinya** – graf ayol, graf qizi.

**Grama** – qishloq.

**Gramika** – qishloq oqsoqoli.

**Grand** – Ispaniyada yuqori dunyoviy va ruhoniy zodagonlar unvoni. XII asrda Kastiliyada paydo bo‘lgan.

**Grandalar** – feodallar tabaqasi.

**Guan tyan** – davlat yerlari.

**Gufa** – dehqonlarning chek yeri.

**Gugenotlar** – Fransiyadagi protestantizm tarafdorlari. Aslida Jenevadagi protestantizm tarafdorlari nomini bildiruvchi g‘arbiy shveysarcha so‘zning nemischa talqindagi talaffuz natijasida shu nom bilan tarixda qoldi.

**Guloting** – Janubi-g‘arbiy Norvegiyadagi xalq yig‘ini.

**Gumanizm** – insonparvarlik. Asarlarda inson shaxsini birinchi planga chiqaruvchi g‘oyalar.

- Gun** – hunarmandlar.
- Gun bu** – jamoat ishlari vazirligi.
- Gunki** – urushlar haqidagi qissalar, qaydlar.
- Guru** – o'qituvchi, singxizm sektasi boshlig'i, rahnamosi. Birinchi guru sekta asoschisi Nanak hisoblangan.
- Gusar** – Vengriyada otliq askar, suvoriy qo'shin.
- Gvelflar** – Gogenshtafenlarga dushman bo'lgan sakson gersoglari, velflar nomidan olingan. Italiyada guruh, partiya. Muqaddas Rim imperiyasi imperatorlariga qarshi kurashgan va papalar bilan ittifoqda bo'lgan.
- Idalgo** – «taniqli odam o'g'li». Ispaniyada mayda pomestye dvoryan ritsarlari. Unchalik boy bo'lmagan.
- Idu** – xat, noma.
- Igemon** – antik mualliflar asarlarida germanlardagi qabila boshlig'i titullaridan biri, yo'l boshchi.
- Ikki** – O'rta asrlarda urug' yoki hududiy belgilar asosida tashkil qilingan samuraylar ittifoqi.
- Immunitet** – «daxlsiz». Feodalning muayyan hududda ayrim vazifalarni bajarish huquqi.
- Imom** – fotimiy xalifalar o'zlarini diniy hukmdor, ya'ni imom ham deb shisoblashgan.
- Imom** – diniy rahnamo, masjid yetakchisi, musulmon jamoasi boshlig'i.
- Independentlar** – radikal puritanlar. Yagona milliy cherkovga qarshi chiqqanlar. Ular har bir diniy jamoaning mustaqil va erkin bo'lishini talab qilishgan. Keyinchalik siyosiy oqimga aylandi.
- Inderdikt** – ma'lum bir hududda cherkov an'alarini o'tkazishning taqiqlanishi. Hatto davlatlarga nisbatan ham qo'llanilgan.
- Induizm** – veda g'oyalariga asoslanadigan Hindistondagi diniy e'tiqodlardan biri.
- Indulgensiya** – O'rta asrlar Yevropasida qilingan gunohlarni afv etish yorlig'i, qog'ozi. Gunohning katta-kichikligi uning to'lanadigan puli bilan «kechirilgan».
- Infanteriya** – piyoda qo'shin.
- Inkvizitsiya** – tergov. Xristian dini ta'limotiga qarshi kishilarni sud qilish va jazolash tribunali. Ispaniyada 1481-yilda katolik qirollar – Izabella va Ferdinand tomonidan tashkil etilgan. O'z davrining eng mashhur inkvizitori Torkvemada uzoq davrlar bu tribunalga boshchilik qildi.
- In'om** (sovg'a) – umrbod yoki merosiy yerlar bo'lib, sovg'a sifatida olingan va ko'pincha biror davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan.



**Kommendatsiya** – o‘z-o‘zini ixtiyoriy ravishda (ba‘zan majburiy) ta‘sirli kishi qaramog‘iga o‘tkazish.

**Kommuna** – Yevropada O‘rta asrlarda shaharlarning o‘z-o‘zini boshqarish huquqi uchun kurashi. Chunki aksariyat shaharlar birorta feodal (senyor)ning yerida tashkil topgan edi.

**Kommuna** – O‘rta asrlarda kurashlar natijasida yirik feodal senyorlardan mustaqillikni qo‘lga kiritgan shaharlar.

**Komturiy** – Tevton ordenida davlat okruglari, ya‘ni komturiylar boshlig‘i shu nom bilan atalgan.

**Kondoterlar** – XIV–XV asrlarda Italiyada yollanma otryadlarning boshliqlari.

**Konkista** – bosib olish. Tarixshunoslikda rasman 1510-yildan to XVII asr o‘rtalarigacha davom etgan Amerikani bosib olish va mustamlakaga aylantirish siyosati.

**Konklav** – «qulflangan». O‘rta asrlarda dunyoviy hukmdorlarni diniy hokimiyatga aralashishini cheklash maqsadida joriy etilgan yangi papani saylash tartibi. Papa vafotidan 18 kun o‘tib kardinallar birorta xonaga kiritilgan va ular to yangi papani saylamaguncha u yerdan chiqarilmagan.

**Konsexo** – kengash. Shahar va qishloq jamoalari bilan birga jamoalardagi ularning hokimiyat organlari ham shu nom bilan atalgan.

**Konstebl** – «buyuk otboqar», O‘rta asrlar Angliyada oliy saroy mansabi.

**Kontado** – shahardan bir mil uzoqlikda joylashgan va o‘zida biron-bir mashhur shahar bo‘lmagan katta qishloq.

**Kopigolderlar** – oddiy yer egalari. O‘zlariga yer berilganligi to‘g‘risidagi hujjatning nusxasini (monorial kanselariya qarori nusxasi) qo‘lida saqlagan va renta to‘lagan.

**Kortes** – Ispaniyadagi umumtabaqaviy kengash.

**Koryo** – X asrdan boshlab davlat yerlari.

**Korxonona** – davlat ustaxonalari.

**Korxonona** – qullar mehnati asosida faoliyat ko‘rsatgan davlat ustaxonalari.

**Kredens** – O‘rta asrlarda Italiyada shahar kommunalri kengashi. Lombardiyada savdogarlar va hunarmandlar birlashmasi.

**Kremi** – qadimgi Rus shaharlaridagi ichki qal‘a, ark.

**Krokanlar** – kalamushlar. Fransiyada diniy urushlar davrida turli hududlarda qo‘zg‘olon ko‘targan dehqonlar shu nom bilan atalgan.

**Kuatekil** – hindularga nisbatan ispanlar tomonidan joriy etilgan ishlab berish majburiyatlaridan biri.

**Kuriya** – Vizantiyada shahar kengashi.

**Kurtenlar** – Moldaviya va Valaxiyada mayda feodallar.

**Kurtuaz** – G'arbiy Yevropa ritsarlariga oid degani. Masalan, ritsarlik romanlari – kurtuaz romanlari kabi.

**Kust** – davlatning to'rt qismlaridan biri.

**Kvadjon** – tabaqaviy yer bo'laklari.

**Kvadrium** – trivium o'zlashtirib bo'lingach, navbat «to'rtlik guruh»ga kelgan. Uning tarkibiga astronomiya, arifmetika, geometriya va musiqa kirgan.

**Kxatriya** – savdo-sudxo'rlik kastasi.

**Lagman** – germanlarda mahalliy odatlarni saqlovchisi va bilimdoni.

**Lankasterlar** – 1399-yil plantagenetlar o'rniga kelgan yangi sulola nomi.

**Legatlar** – Rim papasining maxsus topshiriq bilan biror-bir joyga yuborilgan vakillari.

**Lenlordlar** – Angliyada krepostnoylik tugatilgandan so'ng paydo bo'lgan dvoryanlar va yirik yer egalari.

**Libellum** – Janubiy Italiyada feodal va erkin dehqonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma. Taraflarning huquqlari va majburiyatlari aks etgan.

**Libertinlar** – Vengriyada qaram dehqonlar kategoriyasining asosiy qismi.

**Lin** – ma'muriy statutlar.

**Lizgolderlar** – lord yerida ijara asosida mehnat qiluvchi mayda dehqonlar qatlami.

**Lord** – xo'jayin, xonadon sohibi. Angliyada qirol huzuridagi kengashda qatnashish huquqidan foydalanuvchi yirik feodal – senyorga berilgan unvon.

**Lvinoye Serdsa** – «Seryurak». Angliya qiroli Richardga berilgan laqab. Yolg'iz shugina uchinchi salib yurishida nisbatan muvaffaqiyatga erisha olgan.

**Lyuy** – jinoyat kodekslari.

**Maks** yoki **mukus** – ba'zan hukumat tomonidan Misrda undiriladigan noqonuniy soliqlardan biri bo'lib, ayrim vaqtlari u undirilmay qo'ygan. Maksning miqdori mahsulotning umumiy tannarxining 10 % dan 25 % gacha o'zgarib turgan.

**Manor** – O'rta asrlarda Angliyada feodal votchinalarining nomi. Otadan qolgan meros, mulk.

**Markgraf** – franklarda chegara viloyatlari boshqaruvchisi.

**Marshal** – dastlab Fransiyada otboqar, xizmatkor. XIII asrdan qirol qo'shinining qism boshlig'i, XVI asrdan oliy harbiy unvon.

- Marzpanlik** – chegara viloyatlaridagi kustning bir qismi.
- Mavrlar** – Shimoliy Afrikadagi barbarlar. Antik davrda ularni mavrlar deb atashgan.
- Maxapradxana** – Vijayanagarda bosh vazir.
- Maharaja** – buyuk hukmdor – Hindistondagi oliy hukmdor ittullaridan biri. Maharajadxirajadan keyingi pog‘onada turgan.
- Maharajadxiraja** – imperator tituli, «shohlar shohi» degan ma’no-ni anglatadi.
- Medzadriya** – unga ko‘ra, Toskanada XIV – XV asrlarda ijarachi dehqon yer egasiga hosilning yarmini berishi shart bo‘lgan.
- Menmortabllar** – Fransiyada qaram dehqonlar toifalaridan biri.
- Mer** – shahar hokimi. Burgomistr ham deb ataladi.
- Merophalar** – XII – XIV asrlarda bashtinaga taqsimlab berilgan qaram dehqon.
- Migratsiya** – ko‘chish. Aholining bir hududdan boshqa hududga ko‘chib joylashishi.
- Min tyan** – Yuan va Min imperiyalarida xususiy yerlar.
- Mindjon** – dehqonlar yerlari.
- Mikado** – yapon imperator titulining qadimda nomlanishi.
- Mistotlar** – «Dehqonchilik qonuni»ga ko‘ra qishloq xo‘jalik ishchilari (asosan cho‘ponlar).
- Mita** – hindularga nisbatan ispanlar tomonidan joriy etilgan ishlab berish majburiyatlaridan biri.
- Mitropolit** – pravoslavlarda patriarxdan keyin turuvchi diniy lavozim. Odatda biror-bir davlatning bosh ruhoniysi hisoblangan.
- Mobedan, mobed** – oliy bosh ruhoniy.
- Moddalar maktubi** – Germaniyada dehqonlar qo‘zg‘olonidagi ilk dastur, programma. 1524-yilning oxirlari va 1515-yilning boshlarida tuzilgan.
- Monarxomax** – grekcha, monraxlar bilan kurashuvchilar demakdir.
- Monax** – rohib, tarkidunyo qilib, monastirda yashovchi diniy kishi.
- Moriskalar** – rekonkista harakati natijasida majburiy yo‘l bilan cho‘qintirilgan mavrlar.
- Mosarablar** – arab tilini o‘rganib olgan mahalliy aholi, ayrim adabiyotlarda islom dinini ham qabul qilganlar shu nom bilan keltiriladi.
- Mulk** – arab xalifaligi hududida xususiy yerlar.
- Mulk (milk)** – merosiy va davlat majburiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan xususiy yerlar.
- Multazim** – Misrda ma‘lum bir hududning solig‘ini to‘plash va

undan saroyga ma'lum bir qismini yuborish huquqi berilgan kishilar. Bunday kishilar orasida mamluklarni, musulmon ruhoniylarini, bada-viy qabilalari shayxlarini va hatto shaharliklarni uchratish mumkin.

**Murabitlar** – ribat boshliqlari.

**Muhojirlar** – Muhammad payg'ambar bilan birga hijrat qilganlar.

**Myosyu** – katta patriarxal oila.

**Navidad** – ibtido, tug'ilish. Kolumb Tomonidan Yangi dunyoda qu-rilgan ilk qal'a shunday atalgan.

**Nikteparx** – Vizantiyada yeparx yordamchilari. Kichik yeparx.

**Noib** – Misrda mamluk sultonidan keyingi o'rinda turuvchi man-sab. Tashqi munosabatlarni ham olib borgan.

**Nomisma** – Vizantiya oltin tangasi.

**Notabllar kengashi** – asosan oliy dvoryanlar va qirolning ishonchli vakillari ishtirok etgan yig'in.

**Novella** – yangi qonunlar. «Fuqaro huquqlari to'plami» tarkibidan biri. Asosan Yustinian davrida sodir bo'lgan huquqshunoslik masalalari aks etgan.

**Nublar** – qullar.

**Nukerlar** – «do'stlar», xon drujinasi va uning qo'shini.

**Nun** – dehqonlar.

**Odal** – Shvetsiya va Daniyada patriarxal oilaning yer mulki. Norve-giyada merosiy oilaviy yer.

**Olovli palata** – Fransiyada Genrix II davrida tuzilgan protestantiz-mga qarshi kurashuvchi palata.

**Oltin bulla** – Andrey II tomonidan feodal-magnatlar qo'zg'oloni-dan hayiqib, ularning huquqlarining kafolati sifatida 1222-yilda chiqar-ilgan farmon.

**Omma** – arabcha «umumiy». Tirazning ikkinchi turi. Uning mah-aulotlari ichki va tashqi bozorlarga olib chiqilgan.

**Orda** – xon qarorgohi.

**Ordonans** – qirol farmoni. Masalan, «Ishchi qonunlari to'g'risida ordonans».

**Otrok** – Qadimgi Rusda drujinaning kichik a'zosi.

**Oyat** – Qur'on jumalari.

**Pagoda** – (*xit.* baota – xazinalar minorasi) – buddaviylik e'tiqodi bilan bog'liq diniy memorial inshoot.

**Palayyakar** – «qo'riqlovchilar». Palayyama egalari. Hatto bir necha qashloqni qamrab olgan. O'z qo'lida qo'shinga ega bo'lib, soliq tus-humlarining ma'lum miqdorini o'z knyaziga yuborishi kerak bo'lgan.

**Palayyama** – Oʻrta asrlarning soʻnggi bosqichida Janubiy Hindistonda shakllangan yer egaligi shakli. Unga koʻra bu yerlar knyazlar tomonidan harbiy lashkarboshilarga umrbod muddatga berilgan, keyinchalik merosiy koʻrinishga oʻtib, knyaz hokimiyatiga xavf soladigan darajada kuchayishga sabachi boʻldi.

**Papa** – ota. Dastlab xristian, keyinchalik katolik dinining bosh ruhoniysi. Apostol Pyotrning noibi. Bir umrga kardinallar tomonidan saylangan.

**Pararaton** – «Rojalar kitobi». Yava xronikasi.

**Pargan** – Shershoh tomonidan oʻrnatilgan kichik maʼmuriy birlik.

**Pariklar** – feodallarga qaram dehqonlar toifasi.

**Parlament** – 1265-yilda Angliyada Simon de Monfor tomonidan chaqirilgan yigʻilish. Lordlar va umumiy palataga boʻlingan.

**Patriarx** – pravoslav cherkovi boshligʻi shunday atalgan. Eng katta patriarx Konstantinopolda turgan.

**Patrisiat** – Oʻrta asrlarda shaharning boy aholi qatlamiga nisbatan qoʻllangan.

**Patronlar** – Vizantiyada yirik yer egalari.

**Pauperlar** – daydilar, qashshoqlar. Gʻov tutish natijasida yerdan mahrum boʻlib, xonavyron boʻlgan dehqonlar.

**Payza** – oltin, kumush va boshqa buyumlardan tayyorlangan hokimiyat yorliqlari. Uni olgan kishilarga maʼlum bir imtiyozlar berilgan.

**Per** – feodal dvoryanlar oliy tabaqasi unvoni.

**Peshak** – tabaqa.

**Pirey** – qurbonlik qiluvchi.

**Plebeylar** – Oʻrta asrlarda shahar kambagʻallari, shogirdlar, kasodga uchragan hunarmandlar.

**Polis** – V–VI asrlarda Vizantiyada shahar jamoalari shu nom bilan atalgan.

**Popolonlar** – Italiyada oddiy xalq, patritsiylar tabaqasiga kirmaydigan shaharning barcha aholisi.

**Posad** – savdo va hunarmandchilik ahli yashaydigan hudud.

**Pradxan** – Vijayanagarda vazirlar.

**Prasinlar** – Vizantiyada ippodromda ot poygalarida qatnashuvchi va alohida siyosiy tashkilot koʻrinishini kasb etgan «yashillar» partiyasi yoki guruhi.

**Presviterianlar** – moʻtadil puritanlar. Umummilliy cherkov sinodiga boʻysunuvchi kalvinchilik cherkovini Angliyada oʻrnatish tarafdorlari. Keyinchalik ular ham siyosiy oqimga aylandi.

**Primas** – cherkov boshlig'i. Ispaniyada bu vazifani Toledo arxiy-episkopligi bajargan.

**Prinseps** – antik mualliflar asarlarida germanlardagi qabila boshlig'i titullaridan biri, yo'lboshchi.

**Priorat** – Florensiya Respublikasidagi yetti kishidan iborat hukumat. XIV–XV asrlarda mavjud bo'lgan.

**Protestantizm** – Islohotchilik (Reformatsiya) davrida Germaniyada shakllangan oqim. Uning tarafdorlari qarshi ovoz berganligi va qarshi pozitsiyada turganligi (protest) uchun ham shunday atalgan. Keyinchalik isloh qilingan xristian dinining bir oqimi sifatida shakllandi.

**Puritanlar** – toza, sof. Dastlab Angliyada anglikan cherkovidagi katolik an'analarni tozalash maqsadida tashkil topgan oqim. Keyinchalik siyosiy oqimga aylandi.

**Qon ushr** – Germaniyada cherkov foydasiga chorva bilan to'lanadigan soliq.

**Qonli qonunlar** – Tyudorlar sulolasi hukmdorlarining pauperlarga – daydi va tilanchilarga qarshi chiqargan qonunlari. Beshafqatligi bilan shunday nomga sazovor bo'lgan.

**Qutvol** – Dehli sultonligi davrida shahar boshqaruvchisi, hokimi.

**Raja** – Indoneziyada kichikroq feodal davlatlarning hukmdorlari titullaridan biri.

**Ram** – oddiy xalq.

**Ratusha** – shahar kengashi binosi. Ko'pincha Yevropa shaharlarida markaziy maydon bo'lmish bozor yonidan joy egallagan.

**Raximburglar** – amaldor shaxslar, «sara kishilar».

**Rekonkista** – qayta bosib olmoq. Musulmonlar tasarrufiga o'tgan yerlarni qaytarib olish harakati.

**Reks** – antik mualliflar asarlarida germanlardagi qabila boshlig'i titullaridan biri, yo'lboshchi.

**Remenslar** – Kataloniyaning qaram dehqonlar qatlami. «Bema'ni odatlarni bajarishga majbur bo'lishgan.

**Renegtos** – Ispaniyada arablar bosqinidan keyin islom dinini qabul qilgan mahalliy aholiga nisbatan qo'llanilgan tushunchalardan biri.

**Respublika** – lot. xalq hokimiyati, xalq tomonidan ma'lum mud-datga saylab qo'yiladigan hamda bir yoki bir necha kishi tomonidan boshqariladigan davlat tuzumi.

**Ribat** – dastlab chegara hududidagi mustahkam qo'rg'onlar, keyinchalik musulmon xonaqohlari.

**Rikos ombres** – boy, qudratli kishilar. Ispaniyada oliy tabaqa vakillari.

**Riksdag** – Shvetsiyada XV asr ikkinchi yarmiga kelib to‘liq shakllanib ulgurgan tabaqaviy hukumat.

**Riksråd** – Daniyada qirollik huzuridagi feodallar va magnatlar yig‘ini.

**Riksrod** – Svetsiyada 1284-yildan qirol huzurida chaqirila boshlagan dunyoviy feodallar va yepiskoplardan iborat kengash.

**Rim papasi** – ota. Dastlab butun xristian cherkovi, V asrdan boshlab katolik cherkovining boshlig‘i.

**Ritsar – nem.** otliq. Feodallar tabaqasidan tarkib topgan og‘ir qurollangan jangchi.

**Roshaniylar** – afg‘on qabilalaridan bo‘lgan yusufzoylar qabilasi birlashgan musulmon diniy sektasi. Boyazid Ansoriy tomonidan asos solingan.

**Rus** – taxminan IX asrda paydo bo‘lgan etnonim. Bu atama asl slavyanlar o‘lkasi bo‘lgan O‘rta Dnepr bo‘yini anglatgan.

**Ryadovichlar** – feodal bilan biron-bir shartnoma – «ryad» tuzish orqali qaramlikka tushib qolgan aholi qatlami.

**Sadaqa** – xayriya solig‘i. Chorva boshidan 1/50 hajmida yoki hosilning 1/10 miqdorida undirilgan.

**Sakslar** – Transilvaniyada yashagan nemislarni vengerlar shu nom bilan atagan.

**Samraj** – oliy hukmdorlik titullaridan biri

**San-Salvador** – («Muqaddas xaloskor»). Mahalliy aholi orolni Guanaxani deb atasa-da, Kolumb orolga ramziy ma‘nodan kelib chiqib xristiancha nom bergan.

**Sara Rominyanska** – Ruminiya qirolligi. Valaxiyaning nomlanishi. 1324-yilda Bosarab I tomonidan tashkil etilgan.

**Sarim** – yangi konfutsiylar, imperator ta‘siri uchun XVI asrda kurashganlar.

**Sekulirizatsiya** – cherkov mol-mulkinging dunyoviy monarx tomonidan musodara qilinishi.

**Selibat** – cherkov mol-mulki talon-tarojdan asrash uchun joriy etilgan tartib.

**Seneshal** – Fransiya janubidagi yirik ma‘muriy-hududiy birlik.

**Senyor** – yirik feodal, janob, taqsir ma‘nosida qo‘llaniladi.

**Senzitariy** – Fransiyada feodallarga pul solig‘i – senz to‘lovchi dehqonlar.

**Servlar** – Vengriyada yerga birlashtirib qo‘yilgan qullar avlodi.

**Sex** – *nem.* O‘z a‘zolarini feodallarning hamlasidan saqlab qolish, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishda yagona ustunlikni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun tuzilgan bir kasbdagi hunarmandlar uyushmasi.

**Shan** – savdogarlar.

**Shaxmat taxtasi palatasi** – Genrix I davrida Oliy moliya palatasi shunday atalgan.

**Shaxr** – viloyat.

**Shahrdorlar** – viloyatning mustaqil boshqaruvchilari, hokimlar.

**Shahriston** – shahar, viloyat yoki mamlakat markazi.

**Shi** – olimlar.

**Shvank** – Germaniyada yumor janrdagi asarlar.

**Sikken** – regent, kansler, birinchi vazir, hukmdor.

**Sikxizm** – o'quvchi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida hinduizm-da vujudga kelgan diniy sekta.

**Sikxizm** – XV asrda Hindistonda shakllangan diniy e'tiqodlardan biri. Panchayat – 5 va undan ortiq kishidan tarkib topgan kasta yoki jamoa boshida turadigan an'anaviy jamoat organi, kengash.

**Simoniya** – cherkov lavozimlarini pul evaziga sotish.

**Sinagoglar** – yahudiylar ibodatxonalarini.

**Sinon** – dehqonlar to X asrgacha mahsulot, undan keiyn pul bilan to'lagan soliq.

**Sinto** – so'zma so'z – «xudolar yo'li», sintoizm asosi.

**Skaldlar** – Daniyada maddoh qo'shiqchi va shoirlar.

**Skomarlar** – VI asrda Vizantiyada qo'zg'olon ko'targan qullar va kolonlarni quldorlar shunday atashgan.

**Skvayr** – qurolbardor. Ritsarlardan quyiroqda turgan feodallar tabaqasi.

**Smerd** – Rusda feodalga qaram dehqon.

**Sobor** – muhim diniy masalalar muhokama etiladigan yig'ilish.

**Sobor** – xristian dinidagi oliy ruhoniylar yig'ilishlari. Ayniqsa, dunyoviy soborlar xristian dini tarixida muhim iz qoldirgan.

**Solarego** – Kastiliyada yarim ozod dehqonlar kategoriyasi.

**Solid** – franklarda muomalada bo'lgan Rim oltin tangasi. Denariylarga bo'lingan.

**Sokmenlar** – lordning rahnamoligini va sud hokimiyatini tan olgan, lekin boshqa xo'jayinga erkin o'tish va o'z yerlaridan mustaqil foydalanuvchi erkin dehqonlar qatlami. IX – XI asrlarga kelib qirol tomonidan yirik feodallarga berilgan yerlar soka deb, bu yerdagi dehqonlar esa sokmenlar deb atala boshlandi.

**Statutlar** – farmonlar.

**Stilling** – Germaniyada qo'zg'olonchi dehqonlar shunday atalgan.

**Strateglar** – Vizantiyada harbiy boshliqlar, voevodalar, voevoda boshliqlari.



**Sulton** – Indoneziyada kichikroq feodal davlatchalarning hukmdorlari titullaridan biri.

**Suyurg'ol** – Hindistonda mulk, vaqf yoki in'om ham deb atalgan xususiy yer egaligi. Islom dini peshvolariga, ba'zan dunyoviy kishilarga ham tortiq etilgan. Akbarshoh davridagi diniy siyosat sabab islom dinidan boshqa diniy e'tiqoddagi martabali kishilarga ham tortiq qilingan.

**Syogun** – harbiy yo'lboshchi, 1192-yildan boshlab harbiy boshqaruvchining asosiy unvoni, tituli. So'zma-so'z «varvarlarni bo'ysundirgan buyuk qo'mondon» degan ma'noni anglatadi. Syogunlar boshqaruvda va nazoratda o'z apparatlarini shakllantirganlar. Syogunlar davriga kelib imperatorlar real hokimiyatdan mahrum etilgan.

**Szaysyan** – kotib.

**Szyun** – imperiya viloyatlari.

**Sxolastika** – maktab. Diniy-mafkuraviy falsafaning umumiy nomi. Xristian aqidalariga asoslangan.

**Takaviy** – Avrangzeb davridagi yer islohotiga ko'ra qo'riq yerlarni o'zlashtirish uchun jalb qilingan dehqonlarga beriladigan pul avansi.

**Tamplierlar ordeni** – tampli – ibodatxona, xramovniklar. 1119-yilda tashkil etilgan.

**Tasudji** – marzianlik tarkibiga kiruvchi kichik ma'muriy birlik.

**Tayko** – Xideyosining qurollarni topshirish to'g'risidagi buyrug'i («qilichlar uchun ov»).

**Tenno** – imperator, hukmdor xonadoni vakili.

**Teologiya** – diniy ruhdagi falsafa, ilohiyot.

**Tevton ordeni** – nemis ordeni ham deb ataladi. 1190-yilda Falastinda tashkil etilgan. Keyinchalik, prusslar yeriga bosqinchikdan so'ng orden «pruss ordeni» nomini olgan.

**Ting** – Norvegiyada qabilalar ittifoqi yig'ini.

**Tiraniya** – qadimgi Gretsiyada va O'rta asrlar Italiyadagi shahar-davlatlarda XIII asrdan XVI asr o'rtalarigacha hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga olgan bir shaxs tomonidan davlatni tanho idora etish usuli.

**Tiraz** – Misrda davlat ustaxonalari.

**Tributariylar** – Vizantiyada yerga biriktirib qo'yilgan ishchilar.

**Tributo** – hindular konkista siyosati natijasida rasman ispan qirol fuqarolariga aylantirildi. Ular to'laydigan maxsus soliq shu nom bilan atalgan.

**Trivium** – O'rta asr ta'lim muassasalaridagi o'rganilishi majburiy bo'lgan birinchi «uchlik fanlar guruhi». Unga grammatika, ritorika va dialektika kirgan.

**Trubadur** – ritsar-shoirlar.

**Tuman** – mo'g'ullarda yuz minglik qo'shin to'plab beradigan hudud yoki yuz.

**Qurultoy** – xon urug'i vakillari va ko'chmanchi mo'g'ul zodagonlari yig'ilishi. Unda muhim, davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan.

**Tus xoqon** – «oltin urug'«, xon yaqinlari.

**Ulamolar** – sunniylikdagi oliy din peshvolari.

**Ulus** – qayerda ko'chmanchilik va yaylovga egalik qilib yurgan bo'lsa, shu yerdagi xalq, davlat sarhadlari ma'nosini bergan.

**Umbali** – amaranayak vassallarining yer-mulklari.

**Universitet** – jamoa, birlashma, umumiy. Yevropada oliy maktablarga nisbatan qo'llanilgan. Chunki dastlab ularda umumiy fanlar o'qitilgan.

**Urug'** – erkak avloddan qarindoshlik belgilanuvchi qarindoshlar jamoasi.

**Ushr** – Misrda musulmon savdogarlaridan undiriladigan o'ndan bir miqdordagi soliq.

**Vagantlar** – Qashshoq, daydi talabalar. Ular ko'chalarda yurib, turli xil qo'shiqlar ijro etishgan. Keyinchalik tilanchi talabalarga nisbatan qo'llanila boshlangan.

**Van** – oliy mansab unvoni bo'lib, viloyat darajasidagi hududlarni boshqarish, o'z tangasini zarb etish, tashqi aloqalarni olib borish kabi huquqlarni bergan.

**Vaqf (vakuf)** – islom diniy muassasalari ixtiyoridagi yer-mulklar, davlatga soliq to'lamaydigan, ammo rasman davlatga qarashli yerlar hisoblangan.

**Varvar** – grek va rimliklarda har qanday erkin musofir, grek-rim madaniyatiga aloqador bo'lmagan xalqlarga nisbatan ishlatiladigan atama.

**Varyaglar** – qadimgi Rusda Skandinaviyadan kelib savdo-sotiq, shuningdek, bosqinchilik maqsadida qurollangan otryadlarga uyushgan kishilar. Norman qabilalarining nomi.

**Vayang purno** – Indoneziyadagi soyalar teatri.

**Vazir** – ma'muriy boshqarma boshlig'i. Sosoniylar boshqarivi umumiasidan o'tgan.

**Vazurglar (vizurgi)** – imtiyozli tabaqa bo'lib, ulardan oliy harbiy va ma'muriy boshqaruv amaldorlari shakllangan.

**Veche** – «eshittirish», muhim masalalarni muhokama etish uchun to'pladuvadigan xalq yig'ini.

**Veche** – slavyanlarda xalq yig'ini.

**Vedlar** – slavyanlarning umumiy nomi. Germanlarning eng qadimgi tarixida bu nom slavyanlarga nisbatan ishlatilgan.

**Venetlar** – Vizantiyada ippodromda ot poygalarida qatnashuvchi va alohida siyosiy tashkilot ko‘rinishini kasb etgan «moviylar» partiyasi yoki guruhi.

**Vergeld** – xun puli. Qadimgi Rusdagi «vira». Germanlarda ijtimoiy mavqedan kelib chiqib belgilanadigan xun puli.

**Villan** – O‘rta asrlarda Fransiyada ozod dehqon.

**Villanlar** – qaram dehqonlar.

**Virgata** – qaram dehqonlarning yer ulushi tenglashib qoldi. Shundan boshlab gayda dehqon oilasining tipik yer bo‘lagi bo‘lmay qoldi. Keyinchalik gayda faqat dehqonchilik bilan bog‘liq yer egaligining o‘lchovini anglatadigan holatga kelib qoldi, ya‘ni 120 akr).

**Vispuxrlar** – merosiy huquqlarga ega bo‘lgan Erondagi yetti qadimiy urug‘lardan biri.

**Vitenagemot** – donolar kengashi. Angliyada birlashgan qirollik zodagonlar kengashi. Qirol hokimiyatini nisbatan cheklagan.

**Vlastellar** – Serbiyada o‘rta asrlardagi yirik yer egalari.

**Volost** – qadimgi Rusda knyazlar tasarrufidagi unchalik katta bo‘lmagan ma‘muriy hudud.

**Votchina** – Feodal yer mulkchiligi majmuasini anglatgan votchina tarkibiga shu yerlardagi barcha jonli va jonsiz inventarlar kirgan. Bu atamaning ma‘nodoshlari sifatida Angliyada – manor, Fransiyada – senyoriya.

**Voevoda** – qadimgi Rusda va umuman barcha slavyan tillarida qo‘shin, shahar yoki viloyat boshlig‘i.

**Voevodat** – Karpat-Dunay mintaqasida shakllangan dastlabki davlatchilik siyosiy birlashmalari. «Knezat» ham deb atalgan.

**Yadag‘u xuvun** – qashshoq va shaxsan ozod mo‘g‘ullar.

**Yanban** – mansabdorlar.

**Yanin (yan‘in)** – «saxovatli xalq», oliy tabaqa vakillari.

**Yarllar** – Shvetsiyada dastlabki vaqtlarda saylab qo‘yiladigan hukmdorlar va qo‘shin boshliqlari

**Yasuko** – qullar.

**Yorliq** – xon farmoni.

**Yurt** – otadan kichik o‘g‘ilga qoluvchi merosiy egalik.

**Zadruga** – janubiy slavyanlarda katta patriarxal oila.

**Zakot** – mahsulot umumiy qiymatining 2,5 % ini tashkil qiluvchi musulmonlardan olinadigan soliq. Tobe o‘lkalar aholisidan mahsulotning 5 %, xorijiy savdogarlardan 10 % miqdorida undirilgan.

**Zakup** – Rus davlatida feodalga qaram dehqonlar kategoriyalaridan biri. Dehqon feodaldan olgan qarzi evaziga ishlab bergan. Ular «kupa»-ni qaytarsagina qaramlikdan ozod bo‘lgan.

**Zamindorlar** – Hindistonda boburiylar davrida xususiy yerga ega bo'lgan feodallar. Akbarshoh davrida uning hokimiyatini tan olib, o'lpon to'lashni ixtiyor etgan mulk egalari – knyazlar, rojalar ham shunday atalgan.

**Zanjilar** – arablar Afrikadagi Zanzibar orolini Az-Zinja deb atashgan va barcha qora tanli aholini zanjilar (zanzibarlik) deb atashgan.

**Zimmiylar** – g'ayri dinlar, musulmon davlatiga bo'ysinuvchilar (so'zma- so'z: «Alloh himoyasidagilar»).

**Yepiskop** – provaslavlarda uchinchi tabaqadagi ruhoniylar unvoni. Katoliklarda arxiyepiskopdan keyingi diniy martaba.

**Yeretik** – dahriy. Xristian dini ta'limotiga zid bo'lgan qarashlar tarafdorlari.

**Xalfalar** – O'rta asrlarda o'z ustaxonasiga ega bo'lmagan va ustaga xizmat qiluvchi sex hunarmandi.

**Xalif** – o'z qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyatni birlashtirgan oliy hukmdor tituli.

**Xalisa** – Hindistonda davlatning yerga bo'lgan egalik shakli, davlat yerlari.

**Xangyo** – konfutsiylik maktablari.

**Xanyak** – mahalliy birlashmalar, birodarlik.

**Harag** – doimiy yer solig'i, Eronda pul ko'rinishida undirilgan.

**Haristikiy** – Vizantiyada ehson, xayr-saxovat. Harbiy xizmatlar uchun beriladigan yer.

**Xassa** – arabcha «xususiy», tirazning birinchi turi bo'lib, faqatgina xalifalik saroyi uchun gazlamalar ishlab chiqarilgan.

**Xaxo** – oddiy xalq.

**Xiroj** – hosilning 1/3 dan 2/3 ulushini tashkil qiluvchi mahsulot bilan to'lanadigan soliq.

**Hisob Palatasi** – Fransiyada moliya vazirligi.

**Xoch (Krest)** – salibchilarning rasmiy belgisi. Xristian dini ramzidan olingan.

**Xoja** – Hindistonda savdo kastalaridan biri.

**Xolop** – Rusda qul, xizmatkor. Jamoa ichida qulga aylantirilganlar.

**Xorijiylar** – Alining sobiq tarafdorlari. Ali va Moviya o'rtasida imzolangan 657-yilgi sulh kelishuvidan keyin Alini tark etishgan.

**Xu bu** – moliya vazirligi yoki «saroylar vazirligi».

**Xubi** – o'tovlari soni 1500 dan 10 000 tagacha bo'lgan udel. Chingizxon urug'i a'zolariga taqdim qilingan mulklar.

**Xums** – beshdan bir. Xorijiy savdo mahsulotlaridan olinadigan pul solig'i, ba'zan mahsulot ko'rinishida ham undirilgan.

**Xvaran** – yoshlar tashkiloti bo'lib, davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlagan.

## O'RTA ASRLAR TARIXIDAN MUHIM TARIXIY SANALAR

**Yillar miloddan avvalgi 58–51-yillar** – Yuliy Sezarning Galiya, Britaniya va Germaniyada olib borgan urushlari. «Galiya urushi haqida xotiralar».

**Yangi eraning 9-yili** – Var legionlarining Tevtoburg o'rmonidagi mag'lubiyati.

**43** – Britaniya Rim hukmronligining o'rmarilishi.

**Taxm. 98** – Tatsit «Germaniya»si.

**1-180** – Markoman urushi.

**226-644** – Eronda Sosoniylar hukmronligi.

**313** – xristian dinini tan olish haqida. Konstantin edikti.

**Taxm. 320** – Hindistonda Guptalar sulolasi hukmronligining boshlanishi (taxminan 500-yillarda tugadi).

**375** – Qora dengiz sohillariga gunnlarning bostirib kirishi. Ularning Ostgot qabilalari ittifoqini tor-mor qilishlari.

**378** – Adrianopol yaqinidagi jang, imperator Valentning halok bo'lishi.

**395** – Rim imperiyasining Sharqiy va G'arbiy imperiyalarga bo'linishi.

**410** – Alarixning Rimni olishi.

**419** – Vestgotlarning Tuluziya qirolligiga asos solishi.

**439** – Shimoliy Afrikada Vandal qirolligiga asos solinishi.

**449** – Britaniyaning angl-sakalar tomonidan zabt etilishi.

**451** – Katalaun maydonidagi jang.

**455** – Rimning vandallar tomonidan olinishi va talanishi.

**457** – Janubi-sharqiy Galiyada Burgund qirolligiga asos solinishi.

**476** – G'arbiy Rim imperiyasining yemirilishi. Italiyada Odoakr davlatining vujudga kelishi.

**481-511** – Xlodvig – franklar qirolli.

**486** – Franklarning Shimoliy Galiyani Luari daryosigacha zabt etilishi.

**493-526** – Italiyada Teodorix Ostgodskiy.

**567** – Franklarning Janubiy Galiyani bosib olishi. Vestgotlarning Pireneyning naryog'iga haydab yuborilishi.

**527-565** – Vizantiyada Yustinian I.

**531-579** – Eronda Xisrav I Anushervon.

**532** – Konstantinopolda «Nika» qo'zg'oloni.

**535-554** – Italiyada Gota urushi. Vizantiyaning Ost-Got qirolligini istilo qilishi.

- 568 – Langobardlarning Shimoliy Italiyani ustilo qilishi.
- 590-604 – Papa Grigoriy I. Rim shahrida va Rim okrugida Rim papalari siyosiy hokimiyatining boshlanishi.
- 610-641 – Vizantiyada imperator Irakliy.
- 613-629 – Hlotlar II, franklar karoli.
- 618-907 – Xitoyda Tan sulolasi.
- 622 – Muhammadning Makkadan Madinaga ko'chishi (hijrat).
- 623-658 – G'arbiy slavyanlarning «Samo davlati».
- 630 – Arablar musulmon davlatining tashkil topishi.
- 632 – Muhammadning vafoti (570-yilda tug'ilgan).
- 679-681 – Bolqon yarim orolida Bolgariya davlatining tuzilishi.
- 687 – Pipin Geristalskiyning hokimyatni qo'lga olishi (Franklar davlati).
- 711-714 – Ispaniyaning arablar tomonidan bosib olinishi.
- 715-741 – Karl Martel (Franklar davlati).
- 717-802 – Vizantiyada Isavriya sulolasi.
- 717-741 – Vizantiyada Lev III Isavr.
- 732 – Karl Martelning Puatye yaqinida arablar ustidan g'alabasi.
- 741-768 – Pipin Pakana Franklar qiroli.
- 750-1055 – Abbosiylarning Bog'dod xalifaligi.
- 556 – Mustaqil Qurdoba amirligining boshlanishi.
- 768-814 – Karl Buyuk – Franklar qiroli.
- 772-814 – Karl Buyukning Saksoniyada olib brogan urushlari.
- 800 – Karl Buyukning imperator tojini kiyishi.
- 815-837 – Ozarbayjonda Bobak qo'zg'oloni.
- 820-823 – Vizantiyada Foma Slavyanin qo'zg'oloni.
- 829 – Ekbert davrida Angliyaning birlashuvi.
- 830-906 – Buyuk Moravnya davlati.
- 841-842 – Saksoniyada Stelling qo'zg'oloni.
- 843 – Verden shartnomasi. Karl Buyuk imperiyasining bo'linib ketishi.
- 852-888 – Boris – Bolgariya knyazi.
- 867-1056 – Vizantiyada makedoniyalar sulolasi.
- 869-883 – Bog'dod xalifaligida zanjilar qo'zg'oloni.
- 871-900 – Angliyada Alfred Buyuk.
- 875-884 – Xitoyda xuan chao qo'zg'oloni.
- 889-898 – Venger-madiyarlarning Dunay bo'yi territoriyasini bosib olishi.
- 893-927 – Simeon I – Bolgariya podshosi.

- 911** – Fransiyaning shimolida Normandlar gersogligiga asos solindi.  
**912-959** – Vizantiyada Konstantin VII Bagryanarodniy.  
**919-1024** – Germaniyada Saksoniya sulolasi.  
**919-936** – Genrix I Qushboz.  
**929** – Kordova xalifaligining e'lon qilinishi.  
**936-973** – Otton I – Germaniya qiroli (962-yildan imperator).  
**960-966** – Polsha davlatiga asos solinishi.  
**989-1279** – Xitoyda Sun sulolasi.  
**962** – Otton I ning imperator tojini kiyishi. Germaniya muqaddas Rim imperiyasiga asos solinishi.  
**1-971** – Svyatoslavning Vizantiyaga yurishlari.  
**1-976** – Vizantiyada Ioann Simishiy.  
**1-1025** – Vizantiyada Vasiliy II Bolgarkesir.  
**983** – Nemis feodallariga qarshi polsha slavyanlarining qo'zg'oloni.  
**987-1328** – Fransiyada Kapetinglar sulolasi.  
**992-1025** – Bolislav I Botir – Polsha qiroli.  
**997-1038** – Stefan (Ishtvan) I Arpad – Vengriya qiroli.  
**1017-1035** – Kanud Datskiy davlati.  
**1018** – Birinchi bolgar podsholigining yemirilishi.  
**1024-1125** – Germaniyada Frankon (Salich) sulolasi.  
**1039-1056** – Genrix III Qora Germaniya imperatori.  
**1042-1066** – Eduard Ispovednik – Angliya qirolli.  
**1054** – xristian cherkovining Sharqiy (pravoslav) va g'arbiy (kato-lik) cherkoviga bo'linishi.  
**1055** – Bog'odning turk-saljuqlar tomonidan olinishi.  
**1056-1106** – Germaniyada imperator Genrix IV  
**1057-1181** – Vizantiyada Kominlar sulolasi.  
**1066** – Angliyaning Vilgelm Normandskiy tomonidan bosib olinishi.  
**1066-1087** – Vilgelm I istilochi – Angliya qiroli.  
**1068-1073** – Xitoyda Van An-shi islohotlari.  
**1071** – Mansikert yonida saljuqlar bilan jang. Vizantiya qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi.  
**1073-1075** – Saksoniyada Genrix IV ga qarshi qo'zg'olon.  
**1073-1085** – Papa Grigoriy VII (Gilderbrand).  
**1075** – Papa Grigoriy VII ning dunyoviy investiturani bekor qilish haqidagi dekreti.  
**1077** – Genrix IV ning papa Grigoriy VII bilan Kanossada uchrashuvi.  
**1081-1118** – Vizantiyada imperator Aleksey Komnin.  
**1086** – Angliyada «Qiyomat kitobi».

- 1090-1119 – Genrix Gotshalgovich – vendlar (obvodridlar) qiroli.
- 1095 – Klermon sobori (Janubiy Fransiya). Salib yurishlarining tayyorlanishi.
- 1096-1099 – Birinchi salib yurishi.
- 1099 – Salibchilarning Quddusni olishlari.
- 1100-1135 – Genrix I – Angliya qiroli.
- 1106-1125 – Genrix V – Germaniya imperatori.
- 1122 – Investiturani dunyoviy va ruhoniy qismlarga bo'lish haqida Worm konkordati.
- 1130 – ikkala Sitsiliyada Norman qirolligining tuzilishi.
- 1135-1154 – Angliyada feodallararo urushlar. Stefan bilan Matildaning taxt uchun kurashi.
- 1138-1254 – Germaniyada Shtaufenlar sulolasi.
- 1147-1149 – Ikkinchi salib yurishi.
- 1152-1190 – Fredrix I Barbarossa – Germaniya imperatori.
- 1154-1399 – Angliyada Plantagenlarning Anjuy sulolasi.
- 1154-1189 – Genrix II Plantagenlar – Angliya qiroli.
- 1158 – Ronkal seymi (Italiya). Italiyada Fredrix Barbarossa.
- 1162 – Fredrix Barbarossaning Milanni tor-mor qilishi.
- 1165 – Klarrendon qarorlari (Angliya).
- 1165-1195 – Stefan Nemaniya, Serbiyaning buyuk jupani.
- 1167 – Fredrix Barbarossaga qarshi Lonbard Ligasining tashkil topishi.
- 1176 – Lenyano yonidagi jang. Barbarossaning mag'lubiyati.
- 1180-1223 – Filipp II Avgust – Fransiya qiroli.
- 1183 – Konstansa sulhi (Fredrix Barbarossa va Lombardiya shaharlari).
- 1185-1187 – Vizantiya zulmiga qarshi bolgarlar qo'zg'oloni.
- 1187 – Saladin tomonidan Quddusning olinishi.
- 1187-1896 – Ikkinchi Bolgariya podsholigi.
- 1189-1192 – Uchinchi salib yurishi.
- 1189-1199 – Richard I Sheryurak – Angliya qiroli.
- 1195-1224 – Stefan Pervovenchniy – Serbiya qiroli.
- 1198-1216 – Papa Innokentiy III.
- 1199-1216 – Ioann Yersiz Angliyada.
- 1200 – Parij universitetiga asos solinishi.
- 1202 – Qilichbardorlar ordeniga asos solinishi.
- 1202-1204 – To'rtinchi salib yurishi.
- 1204-1261 – Latin imperiyasi.
- 1205-1235 – Andrey II – Vengriya qiroli.



- 1206 – Temuchinning buyuk xon (Chingizxon) deb e'lon qilinishi.
- 1209-1216 – Fransiya janubidagi Albegoy urushlari.
- 1212 – Las Navas de Tolosa yaqindagi jang (Ispaniya).
- 1212-1250 – Fredrix II Shtaufen – german imperatori.
- 1214 – Buvin yaqindagi jang (Fransiya).
- 1215 – Angliyada Erkinlik buyuk xaritasi.
- 1216-1272 – Genrix III – ingliz qiroli.
- 1217-1221 – Beshinchi salib yurishi.
- 1218-1241 – Asen II – Bolgariya podshosi.
- 1218-1241 – O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishi.
- 1222 – Vengriyada Andrey II ning Oltin bullasi.
- 1226-1270 – Ludovik IX – Fransiya qiroli.
- 1227 – Chingizxonning vafoti. Mo'g'ullar imperiyasining bo'linib ketishi.
- 1228-1229 – Oltinchi salib yurishi.
- 1230 – Tevton ordenining pruslar yerini bosib ola boshladi.
- 1237 – Tevtonlar ordenining Qilichbardorlar ordeni bilan birlashuvi.
- 1237-1238 – Botuning Shimoli-sharqiy Rusga bostirib kirishi.
- 1240-1242 – Botuning Janubiy Rusga, Polsha, Vengriya va Moraviyaga yurishlari.
- 1240 – Neva daryosi yonida Aleksandr Nevskiyning shvedlar ustidan qozongan g'alabasi.
- 1242 – Aleksandr Nevskiyning Chud ko'lida nemis ritsarlari ustidan g'alabasi (Muz ustidagi jang).
- 1248-1254 – Yettinchi salib yurishi.
- 1252-1284 – Alfons X Kastiliyada.
- 1253-1278 – Pshemisl II – Chexiya qiroli.
- 1254-1273 – Germaniyada podshosizlik (Interregnum).
- 1258-1267 – Angliyada baronlar urushi.
- 1258 – mo'g'ullarning Bog'dodni olib, vayron qilishlari.
- 1259 – Fransiya bilan Angliyaning Parij sulhi.
- 1261 – Vizantiya imperiyasining qayta tiklanishi.
- 1265 – Angliya parlamentining boshlanishi (Simon de Monfor parlamenti).
- 1269-1270 – Sakkizinchi salib yurishi.
- 1272-1307 – Eduard I – Angliya qiroli.
- 1273-1291 – Rudolf I – Gabsburg German imperatori.
- 1277-1280 – Bolgariyada dehqonlar urushi (Ivayla qo'zg'oloni).
- 1279-1368 – Xitoyda Yuan sulolasi.

- 1282 – Palermoda «Sitsiliya kechki ibodati (shomi)».
- 1282 – Angliyani Uilson bosib olishi.
- 1285-1314 – Filipp IV Chiroyli – Fransiya qiroli.
- 1291 – Akraning qulashi, Sharqda qilichbardorlarning so‘nggi yerlaridan mahrum bo‘lishi.
- 1291 – Shvetsariya dehqonlari va shaharlarining Gabsburglarga qarshi qo‘zg‘oloni.
- 1294-1303 – Papa Bonifatsiy VIII.
- 1295 – Eduard I ning «Namunali parlamenti».
- 1298 – Kurdsol yaqinidagi Genuyaning Venetsiya ustidan g‘alabasi.
- 1302 – Fransiyada Bosh shtatlarning ish boshlashi.
- 1302 – Kurtre yaqinidagi jang (Flandriya).
- 1303-1307 – Italiyada Dolchino qo‘zg‘oloni.
- 1306-1337 «Avinion asirligi» (papalarning janubiy Fransiyadagi Avinion shahrida bo‘lishi).
- 1310-1437 – Chexiyada Luksemburglar sulolasi.
- 1319-1363 – Magnus Erikson – Shvetsiya qiroli.
- 1321 – Aligyeri Dante vafoti (1265-yilda tug‘ilgan).
- 1327-1377 – Eduard III – Angliya qiroli.
- 1328-1389 – Fransiyada Valua sulolasi.
- 1328-1350 – Filipp VI Valua.
- 1331-1355 – Stefan Dushan – Serbiya qiroli.
- 1333-1370 – Kazimir III – Polsha qiroli.
- 1337-1453 – Angliya bilan Fransiya o‘rtasida Yuz yillik urush.
- 1340-1375 – Valdemar IV Atterdag Daniyada.
- 1342 – Fessalonikada zilotlar qo‘zg‘oloni.
- 1342-1382 – Ludovik (Layosh) I – Vengriya qiroli.
- 1346-1378 – Karl IV – German imperatori (ayni vaqtda Karl I – Chexiya qiroli).
- 1346 – Kresi yaqinidagi jang (Yuz yillik urush).
- 1347 – Inglizlarning Kaleni bosib olishi.
- 1347 – Kola di Rientsining Rim respublikasi.
- 1348 – Praga unversitetiga asos solinishi.
- 1348-1350 – Yevropada «qora vabo».
- 1349 – Stepan Dushanning «Qonunnomasi».
- 1356 – Imperator Karl IV ning Oltin bullasi.
- 1356 – Puate yaqinidagi jang (Yuz yillik urush).
- 1356-1358 – Eten Marsel boshchiligidagi Parij harakati.
- 1358 – Jakeriya – Shimoliy Fransiya dehqonlarining qo‘zg‘oloni.

- 1359-1389** – Murod I – Turkiya sultoni.  
**1361** – Adrianopolning turklar tomonidan olinishi.  
**1364-1380** – Karl V – Fransiya qiroli.  
**1367-1370** – Ganzaning Daniya bilan urushi. Shralzund sulhi.  
**1368-1644** – Xitoyda Min sulolasi.  
**1370-1405** – Temur davlati.  
**1377-1399** – Richard II – Angliya qiroli.  
**1378** – Florensiyada Chompi qo'zg'oloni.  
**1378-1417** – Katolik cherkovida «Buyuk ajralish».  
**1380** – Venetsiyaning Koj yaqinida Genuya ustidan g'alabasi.  
**1381** – Angliyada Uot Tayler qo'zg'oloni.  
**1384** – Jon Viklef vafoti (1324-yilda tug'ilgan).  
**1386** – Polshaning Litva bilan uniyasi (ittifoq) tuzishi. Krevaniyasi.  
**1386-1572** – Polshada Yagellolar sulolasi.  
**1386-1434** – Vladislav II Yagello – polyak qiroli.  
**1389** – Kosovo maydonidagi jang, serblarning mag'lubiyati.  
**1389-1402** – Boyazid I Turkiya sulolasi.  
**1396** – Nikopol yaqinidagi jang.  
**1397** – Daniya, Norvegiya va Shvetsiyaning Kalmar uniyasi.  
**1398-1399** – Temurning Hindistonga yurishi.  
**1399-1461** – Angliyada Lankasterlar sulolasi.  
**1399-1413** – Genrix IV Lankaster.  
**1402** – Temurning Angor yaqinida Boyazid I ni tor-mor qilishi.  
**1409-1410** – Pizada Cherkov sobori.  
**1410** – Gryunvald (Tannerberg) yaqinidagi jang. Polyaklar, litvaliklar va ruslarning birlashgan kuchlari tomonidan Prussiya ordenining tor-mor qilinishi.  
**1411-1437** – Imperator Sigizmund I Germaniyada.  
**1413** – Parijda Simon Kabosh qo'zg'oloni.  
**1413-1422** – Genrix V Lankaster Angliyada.  
**1414-1418** – Konstansa sobori.  
**1415** – Yan Gusning o'tda kuydirilishi.  
**1415** – Azinkur yaqinidagi jang (Yuz yillik urush).  
**1417-1431** – Papa Martin V.  
**1419-1434** – Guschilarning urushlari.  
**1422-1461** – Genrix V Lankaster.  
**1428-1429** – Orleanning inglizlar tomonidan qamal qilinishi (Yuz yillik urush).  
**1429** – Janna d'Ark ishtirokida Orleanning ozod qilinishi.

- 1431-1447 – Bazel sobori.
- 1434-1436 – Shvetsiyada Engelbred Engelbretsob qo'zg'oloni.
- 1434-1464 – Florensiyada Kozimo Medichining hukmronlik qilishi.
- 1439 – Florensiya uniyasi. Taxm. 1440 Ioagann Gutenberg tomonidan kitob bosishning ixtiro qilinishi.
- 1439-1493 – Fredrix III – Germaniya imperatori.
- 1444 – Varna yonidagi jang.
- 1447-1492 – Kazmir IV – Polsha qiroli.
- 1450 – Angliyada Jek Ked qo'zg'oloni.
- 1451-1481 – Mehmed (Muhammad) II – Turk sultoni.
- 1453 – Konstantinopolning turklar tomonidan olinishi.
- 1454 – Angliyada Qizil gul va Oq gul urushi.
- 1458-1490 – Matvey Korvin (Xuniada) – Vengriya qiroli.
- 1461-1483 – Ludovik XI Fransiyada.
- 1461-1483 – Eduard IV York Angliyada.
- 1462-1472 – Kataloniyada dehqonlar qo'zg'oloni.
- 1466 – Torun sulhi. Prussiya ordeni Polshaga vassal bo'lib qoldi.
- 1466-1472 – Afanasiy Nikitinning Hindistonga sayohati.
- 1469-1492 – Lorenzo Medichi Florensiyada.
- 1477 – Nansi yonidagi jang. Karl Jasur Burgundskiyning mag'lubiyati va halokati.
- 1479 – Ferdinand va Izabella hokimiyati ostida Aragon bilan Kastiliyaning birlashuvi.
- 1480 – Ispaniyada inkvizitsiyaning ta'sis etilishi.
- 1483-1485 – Richard III Angliyada.
- 1483-1498 – Karl VIII – Fransiya qiroli.
- 1484-1486 – Kataloniyada dehqonlar qo'zg'oloni; «Yomon urf-odatlar»ning bekor qilinishi.
- 1485 – Angliyada Bosvort yaqinida jang. Tudorlar hukmronligining boshlanishi.
- 1485-1509 – Genrix VII Tudor.
- 1492 – Ispaniyaning Granadani bosib olishi.
- 1492 – Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilishi.
- 1493 – Elzasda «Bashmak» ittifoqi harakati.
- 1493-1519 – Maksimilian I – Germaniya imperatori.
- 1494-1559 – Italiyada olib borilgan urushlar.
- 1494-1498 – Savonarolla Florensiyada hokimiyat tepasida.
- 1494 – Yevropadan tashqari territoriyalarni taqsimlab olish haqida Ispaniya bilan Portugaliya o'rtasida Tordesilyasida tuzilgan shartnoma.

1497 – Kabotning Shimoliy Amerikadagi Labrador yarim orolini kashf qilishi.

1498 – Vasko da Gamaning Hindistonga boradigan dengiz yo'lini kashf etishi.

1502 – Eronda Safaviylar hukmronligining boshlanishi.

1506-1548 – Sigizmund I Keksa – Polsha qiroli.

1509-1547 – Genrix VIII Tudor Angliyada.

1509 – Erazm Roterdamskiyning «Axloqsizlik madhiyasi» kitobi.

1511 – Malakkaning portugallar tomonidan bosib olinishi.

1512-1520 – Salim I – Turkiya sultoni.

1513-1523 – Kristian II – Daniya qiroli.

1513-1521 – Papa Lev X Medichi.

1514 – Vengriyada kurutslar qo'zg'oloni.

1515-1547 – Fransisk I – Fransiya qiroli.

1515-1517 – «Avom kishilarning maktublari».

1516 – Tomas Morning «Utopiya» kitobi.

1516-1556 – Karl I – Ispaniya qiroli (1519-yildan 1555-yilgacha – Karl V Germaniya imperatori).

1517 – Luterning 95 tezis bilan chiqishi. Germaniyada reformatsiyaning boshlanishi.

1519-1521 – Meksikaning Kortes tomonidan bosib olinishi.

1519-1523 – Magellanning birinchi dunyo bo'ylab sayohati.

1520-1566 – Sulton Sulaymon II Turkiyada.

1520-1521 – Kastiliyada shahar kommunalari qo'zg'oloni.

1521 – Germaniyada Vorm reyxstagi.

1522-1523 – Germaniyada ritsarlar qo'zg'oloni.

1523 – Shvetsiyaning Daniyadan ajralib chiqishi.

1523-1560 – Gustav I Vaz – Shvetsiya qiroli.

1524-1525 – Germaniyada buyuk dehqonlar urushi.

1525 – Paviya yaqinidagi jang. Fransisk I ning mag'lubiyati.

1526 – Mohach yonidagi jang. Feodal Vengriya mustaqilligining tugatilishi.

Chexiyaning Gabsburglar yerlari tarkibiga qo'shilishi.

1526 – Hindistonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi.

1527 – Rimning Karl V qo'shinlari tomonidan talanishi.

1529 – Germaniya Shpeyer reyxstagi.

1530 – Augsburgdagi imon keltirish.

1531 – Kapel yonidagi jang. Ulrix Svingli vafoti (1484-yilda tug'ilgan).

1531 – Shmalkalden ittifoqining tuzilishi.

- 1532 – Angliyada reformatsiyaning boshlanishi.
- 1531-1536 – Pizarroning Peruni istilo qilishi.
- 1534-1535 – Myunsterda anabaptistlar kommunasi.
- 1534 – Angliyada qirolning cherkovdan ustun turishi haqidagi akt.
- 1535 – Fransiya – Turkiya shartnomasi («kapitulatsiya»ning boshlanishi).
- 1536 va 1539 – Angliyada monastirlarning sekulyarizatsiya qilinishi.
- 1536 – Erazm Rotterdamskiy vafoti (1466-yilda tugʻilgan).
- 1536 – Jan Kalvinning «Xristian dinida vaʼzlar» kitobi.
- 1539-1540 – Gentdagi (Niderlandiya) qoʻzgʻoloni.
- 1540 – Iyezuitlar ordenining taʼsis etilishi.
- 1543 – Kopernikning «Osmoniy jismlarning aylanishi toʻgʻrisida» kitobining nashr etilishi.
- 1545-1563 – Trident sobori (orada uzilishlar bilan).
- 1546 – Luterning vafoti (1483-yilda tugʻilgan).
- 1546-1548 – Germaniyada Shmalkalden urushi.
- 1547-1553 – Eduard VI – Angliya qiroli.
- 1547-1559 – Genrix II – Fransiya qiroli.
- 1548-1572 – Sigizmund II Avgust – Polsha qiroli.
- 1549 – Angliyada Robert Ket qoʻzgʻoloni.
- 1553-1558 – Angliyada Mariya Tudor (Mariya qonxoʻr).
- 1554 – Angliyada Moskva kompaniyasining tuzilishi.
- 1555 – Augusburglar diniy sulhi. Karl V ning imperator tojidan voz kechishi.
- 1555-1564 – Ferdinand I – Germaniya imperatori.
- 1556-1598 – Filipp II – Ispaniya qiroli.
- 1556-1605 – Akbar – Hindiston shohi.
- 1558-1582 – Livoniya urushi.
- 1558-1603 – Yelizaveta I – Angliya qirolichasi.
- 1559 – Ispaniya, Fransiya va Angliya oʻrtasidagi Kato-kambrezi sulhi.
- 1560-1574 – Karl IX – Fransiya qiroli.
- 1562-1598 – Fransiyada Guginotlar urushi.
- 1564 – Kalvinning vafoti (1509-yilda tugʻilgan).
- 1564-1576 – Maksimilian II – Germaniya imperatori.
- 1566 – Niderlandiya revolutsiyasining boshlanishi.
- 1567-1573 – Niderlandiyada Gersog Albaning hukmronlik qilishi.
- 1568-1582 – Yaponiyada Oda Nabunagining hukmronlik qilishi.
- 1569 – Polshaning Litva bilan Lublin uniyasi.

- 1571 – Lepanto yonida jang. Turkiya flotining ispan-venetsian bir-lashgan eskadrasi tomonidan tor-mor keltirilishi.
- 1572-1579 – Niderlandiya revolutsiyasi. Mustaqil Niderlandiya davlatining tuzilishi.
- 1572 – Parijda Varfolomey kechasi.
- 1574-1589 – Genrix III – Fransiya qiroli.
- 1576 – Fransiya Katolik ligasining vujudga kelishi.
- 1576-1586 – Stepan Batoriy – Polsha qiroli.
- 1576-1612 – Rudolf II – Germaniya imperatori.
- 1579 – Niderlandiya janubiy viloyatlarining Arras uniyasi.
- 1579 – Niderlandiya shimoliy viloyatlarining Utrext uniyasi.
- 1580 – Portugaliyaning Ispaniyaga qo‘shib olinishi.
- 1581 – Niderlandiyada Filipp II ning taxtdan tushirilishi.
- 1582-1598 – Yaponiyada Xideyosining hukmronlik qilishi.
- 1584 – Vilgelm Oranskiyning o‘ldirilishi.
- 1585 – Parij ligasining tuzilishi.
- 1587-1629 – Sigizmund III Vaza – Polsha qiroli.
- 1587 – Angliyada Mariya Stuartning qatl etilishi.
- 1588 – Ispaniya «Yengilmas armadasi»ning Angliyaga yurishi.
- 1588-1648 – Kristian IV – Daniya qiroli.
- 1588 – Parijda Barikadalar kunlari (12-13-may).
- 1589 – Genrix III ning o‘ldirilishi. Valua sulolasining tugashi.
- 1589-1610 – Genrix IV Burbon – Fransiya qiroli.
- 1591-1598 – Yaponiyaning Koreyaga bostirib kirishi.
- 1593-1595 – Fransiya «kronkanlar» qo‘zg‘oloni.
- 1596 – Polshada Brest cherkov uniyasi.
- 1598 – Fransiya Genrix IV ning Nant edikti.
- 1600 – Ingliz Ost-Indiya kompaniyasining tashkil topishi.
- 1602 – Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasiga asos solinishi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### ASOSIY MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., 1998-y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T., 2008-y.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘li-da xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T., 2015-y.
4. Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. акад. С.Д. Скалкина. Т-1. М., 1961.
5. Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. акад. С.Д. Скалкина. Т-2. М., 1963.
6. Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. Н.П. Грацианского и С.Д. Скалкина. Т-3. М. 1950.
7. Василев Л.А. История Востока. Т.1. М., 1998.
8. Виппер Р.Ю. История средних веков. М., 1947.
9. Всемирная история. Т.8. Минск, 1998.
10. Всемирная история. Возрождение и Реформация. Минск., 1998.
11. Всемирная история. Период английского завоевания. М., 2000.
12. Всемирная история. Раннее средневековье. Москва – Минск., 2001.
13. Всемирная история. Т -3. М., 1957.
14. Всемирная история. Т. IX. М., 1998.
15. Гутнова Э.В. Историография истории средних веков. М., 1974.
16. История средних веков. Под редакцией С.П. Карпова. Т.1.-М., 1998.
17. История средних веков. Под редакцией С.П. Карпова. Т.2.-М., 2000.
18. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1968.
19. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970.
20. Книга для чтения по истории средних веков. Под. ред. С.Д. Скалкина. М. Учпедгиз, 1951.
21. Лублинская А.Д. Источниковедение истории средних веков. Л., Госиздат, 1955.
22. Орлов А.С., Георгиев В.А., Георгиева Н.Г., Сивохина Т.А. История России. М., Проспект, 2001.



## QO'SHIMCHA MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Абрамова С.Й. История работорговли на Верхне-Гвинейском побережье. М., 1966.
2. Авдеева К.Д. Внутренняя колонизация и развитие феодализма в Англии в XII–XIII вв. М., 1973.
3. Алексеев М.П., Жирмунский В.М., Мокульский С.Е., Смирнов А.А. История зарубежной литературы. М., 1978.
4. Алтамира И., Кревеа Р. История Испании. Перевод с испанского. Т.И. М., 1951.
5. Анна Комнина. Алексиада. Вст. ст. пер. коммент. Я.Н. Лубарского. М., 1956.
6. Антонова К. А., Бонгард-Левин Г. М., Котовский Г. Г. История Индии. М., 1979.
7. Аравия. Материалы по истории открытия. М., 1981.
8. Арский И.В. Очерки по истории средневековой Каталонии до соединения с Арагоном. Л., 1941.
9. Артаманов М.М. Происхождение славян. М., 1950.
10. Ачади И. История венгерского крепостного крестьянства. М. 1956.
11. Барг М.А. Исследования по истории английского феодализма в XI–XII вв. М., 1962.
12. Бартольд В.В. Историко-географический обзор Ирана. СПб., 1903.
13. Беляев Э.А. Арабы, ислам и Арабский халифат в раннее средневековье. М., 1965.
14. Боккаччо. Декамерон. Разные издания.
15. Буданова В.П. Готи в эпоху Великого переселения народов. М., 1990.
1. Бирня П.П. Сельские поселения Молдавии XV–XVII вв. Под ред. П.П. Советова, Кишинёв, 1969.
2. Ваккури Юха. Цивилизации долины Нигера: легенды и золото. М., 1988.
3. Взаимосвязь социальных отношений и идеологий в средневековой Европе. М., «Высшая школа», 1983.
4. Византийский Земледельческий Закон (под ред. И.П. Медведева). Л., «Наука», 1984.
5. Виноградов П.Г. Средневековое поместье в Англии. СПб., 1911.
6. Городская жизнь в средневековой Европе. М., «Высшая школа», 1987.

7. Грицианский Н.П. К вопросу об аграрных отношениях древних германцев времени Цезаря. М., 1960.
8. Греков Б.Д. Киевская Русь. М., 1971.
9. Грекул Ф.А. Аграрные отношения в Молдавии в XVI-первой половине XVII в. Кишинёв, 1961.
10. Григорий Турский. История франков. Разные издания.
11. Данте Алигьери. Божественная комедия. Перевод М. Лозинского. М.-Л., 1950.
12. Дживелегов А.К. Средневековые города в западной Европе. С.-Петербург, 1902.
13. Древние германцы. Сб. документов. Под ред. А.Д. Удалсова. М., 1937.
14. Древние славяне и их соседи. М., 1970.
15. Диков И.М. Очерки истории древнего Ирана. М., 1961.
16. Жюлен Ссарл-Андре. История северной Африки. Тунис, Алжир, Марокко. Пер. с франц. Ф.М. Солодовник. Том I. М., 1961.
17. Иванов М.С. Очерк истории Ирана. М., 1962.
18. Из истории африканского средневековья. М., 1986.
19. Ислам в истории народов Востока. М., 1981.
20. История Африки в древних и средневековых источниках. Хрестоматия. М., 1990.
21. История Болгарии, Т. I. Под редакцией П.Н. Третьякова, С.А. Никитина, Л.Б. Валеева. М., 1954 (1957).
22. История Венгрии. Т. I. М., 1971.
23. История Византии. Под ред. акад. С.Д. Сказкина. Т.1-3. М., 1967.
24. История Индии в средние века. М., 1968.
25. История Молдавии. Т. I. Кишинев, 1951.
26. История Польши, Т. I. М., 1954.
27. История Румынии. М., 1950.
28. История Франции. Том I. М., 1972.
29. История Чехословакии, Т. I, М., 1988 (1956).
29. История южных и западных славян. Т. II. М., 2001.
29. Итальянские гуманисты XV века о церкви и религии. Под ред. и пред. М.А. Гуковского. М.-Л., 1963.
30. Каждан А.П. Деревня и город в Византии. IX-X вв. Очерки по истории Византийского феодализма. М., 1960.
31. Каждан А.П., Литаврин Г.Г. Очерки истории Византии и южных славян. М., 1958.
32. Корелюк В.Д. Западные славяне и Киевская Русь в X-XI вв. — М., 1964.
33. Корсунский А.Р. История Испании. Т. I. М., 1951.

## QO'SHIMCHA MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Абрамова С.Й. История работорговли на Верхне-Гвинейском побережье. М., 1966.
2. Авдеева К.Д. Внутренняя колонизация и развитие феодализма в Англии в XII–XIII вв. М., 1973.
3. Алексеев М.П., Жирмунский В.М., Мокульский С.Е., Смирнов А.А. История зарубежной литературы. М., 1978.
4. Алтамира И., Кревеа Р. История Испании. Перевод с испанского. Т.И. М., 1951.
5. Анна Комнина. Алексиада. Вст. ст. пер. коммент. Я.Н. Лубарского. М., 1956.
6. Антонова К. А., Бонгард-Левин Г. М., Котовский Г. Г. История Индии. М., 1979.
7. Аравия. Материалы по истории открытия. М., 1981.
8. Арский И.В. Очерки по истории средневековой Каталонии до соединения с Арагоном. Л., 1941.
9. Артаманов М.М. Происхождение славян. М., 1950.
10. Ачади И. История венгерского крепостного крестьянства. М. 1956.
11. Барг М.А. Исследования по истории английского феодализма в XI–XII вв. М., 1962.
12. Бартольд В.В. Историко-географический обзор Ирана. СПб., 1903.
13. Беляев Э.А. Арабы, ислам и Арабский халифат в раннее средневековье. М., 1965.
14. Боккаччо. Декамерон. Разные издания.
15. Буданова В.П. Готи в эпоху Великого переселения народов. М., 1990.
1. Бирня П.П. Сельские поселения Молдавии XV–XVII вв. Под ред. П.П. Советова, Кишинёв, 1969.
2. Ваккури Юха. Цивилизации долины Нигера: легенды и золото. М., 1988.
3. Взаимосвязь социальных отношений и идеологий в средневековой Европе. М., «Высшая школа», 1983.
4. Византийский Земледельческий Закон (под ред. И.П. Медведева.). Л., «Наука», 1984.
5. Виноградов П.Г. Средневековое поместье в Англии. СПб., 1911.
6. Городская жизнь в средневековой Европе. М., «Высшая школа», 1987.

7. Грацианский Н.П. К вопросу об аграрных отношениях древних германцев времени Цезаря. М., 1960.
8. Греков Б.Д. Киевская Русь. М., 1971.
9. Грекул Ф.А. Аграрные отношения в Молдавии в XVI-первой половине XVII в. Кишинёв, 1961.
10. Григорий Турский. История франков. Разные издания.
11. Данте Алигьери. Божественная комедия. Перевод М.Лозинского. М.-Л., 1950.
12. Дживелегов А.К. Средневековые города в западной Европе. С.-Петербург, 1902.
13. Древние германцы. Сб. документов. Под ред. А.Д.Удалсова. М., 1937.
14. Древние славяне и их соседи. М., 1970.
15. Дяков И.М. Очерки истории древнего Ирана. М., 1961.
16. Жюлен Ссарл-Андре. История северной Африки. Тунис, Алжир, Марокко. Пер. с франц. Ф.М. Солодовник. Том I. М., 1961.
17. Иванов М.С. Очерк истории Ирана М., 1962.
18. Из истории африканского средневековья. М., 1986.
19. Ислам в истории народов Востока. М., 1981.
20. История Африки в древних и средневековых источниках. Хрестоматия. М., 1990.
21. История Болгарии, Т.I, Под редакцией П.Н. Третьякова, С.А. Никитина, Л.Б. Валеева. М., 1954 (1957).
22. История Венгрии. Т. I. М., 1971.
23. История Византии. Под ред. акад. С.Д. Сказкина. Т.1-3. М., 1967.
24. История Индии в средние века. М., 1968.
25. История Молдавии. Т.I. Кишинев, 1951.
26. История Польши, Т.I. М., 1954.
27. История Румынии. М., 1950.
28. История Франции. Том I. М., 1972.
29. История Чехословакии, Т I, М., 1988 (1956).
29. История южных и западных славян. Т.II. М., 2001.
29. Итальянские гуманисты XV века о церкви и религии. Под ред. и пред. М.А. Гуковского. М.-Л., 1963.
30. Каждан А.П. Деревня и город в Византии. IX–X вв. Очерки по истории Византийского феодализма. М., 1960.
31. Каждан А.П., Литаврин Г.Г. Очерки истории Византии и южных славян. М., 1958.
32. Корелюк В.Д. Западные славяне и Киевская Русь в X–XI вв. – М., 1964.
33. Корсунский А.Р. История Испании. Т.I. М., 1951.

34. Корсунский А.Р. Образование раннего феодального государства в Западной Европе. М., 1963.
35. Краткая история Венгрии. С древнейших времен до наших дней. М., «Наука», 1991.
36. Крачковский И.Й. Арабская культура в Испании. М.-Л., 1937.
37. Крымский А.Е. История арабов и арабская литература. М., 1911.
38. Куббель Л.Е. Сонгайская держава. М., 1974.
39. Кудрявцев А.Е. Испания в средние века. Л., 1937.
40. Культура Испании. Сборник статей. М., 1940.
41. Курбатов Г.Л. История Византии. Изд. ЛГУ., 1975.
42. Лаврентий из Бржезовой. Гуситская хроника. М., 1962.
43. Леви-Провансаль. Арабская культура в Испании. М., 1967.
44. Левитский Й.Н. Города и городское ремесло в Англии в X–XII вв. М.-Л., 1960.
45. Левченко М.В. Очерки по истории русско-византийских отношений. М., 1956.
46. Литаврин Г.Г. Византийское общество и государство в X–XI вв. Проблемы истории одного столетия. 976–1081. М., 1977.
47. Лозинский С.Г. История папства. М., 1986.
48. Луканин В.Г. Иран в эпоху первых сасанидов. Л., 1961.
49. Медведев И.П. Очерки византийской дипломатики. Л., «Наука», 1988.
50. Молдавия в эпоху феодализма. Т. III. Славяно-молдавские грамоты. Сост. Д.М. Драгнев и др. Кишинёв, 1978.
51. Мортон А.Л. История Англии. Перевод с англ. М., 1950.
52. Мункуев Н.И. Китайский источник о первых монгольских ханах. М., 1965.
53. Мюллер А. История ислама. СПб., 1895.
54. Нидерле Л. Славянские древности. Перевод Т. Ковалевой и Хазанова. М., 1939.
55. Орлова А.С. История государства Конго (XVI–XVII вв.). М., 1968.
56. Очерки истории Англии. Под ред. Г.Р. Левина. М., 1959.
57. Памятники византийской литературы IV–IX вв. М., 1965.
58. Памятники византийской литературы IX–XIV вв. М., 1969.
59. Паниккар К. М. Очерки истории Индии. М., 1961.
60. Петрушевский Д.М. Очерки из истории английского государства и общества в средние века. Изд. 3-е. - М., - Л., 1930.
61. Пигулевская Н.В. и другие. История Ирана с древнейших времен до конца XVIII в. Л., 1958.
62. Пиренн Анри. Нидерландская революция. М., 1937.
63. Пискорский В.К. История Испании и Португалии. С-Петербург, 1909.

64. Полевой Л.Л. Раннефеодалная Молдавия. Отв. ред. П.В. Советов. Кишинев, 1985.

65. Прокопий Кесарский. Тайная история. – Вестник древней истории, №3, 1940.

66. Салическая правда. Перевод с латинского Н.П.Грацанского. М., 1950.

67. Сборник документов по социально-экономической истории Византии. М., 1951.

68. Серовайская И.И. Нормандское завоевание и развитие феодальной собственности в средневековой Англии. Караганда, 1998.

69. Синха Н. К. и Банерджи А. Ч. История Индии. М., 1954.

70. Средневековое городское право XII–XIII вв. (под ред. С.М. Стама). Саратов, 1989.

71. Французская деревня XIII–XIV вв. и Жакерия. Документы. (под ред. С.А.Косминского и А.Д. Удальцова). М-Л., 1935.

72. Хазанов А.М. Экспансия Португалии в Африке и борьба африканских народов за независимость (XVI–XVIII вв.). М. «Наука», 1976.

73. Черепнин Л.В. Образование русского централизованного государства в XIV–XV веках. Очерки социально-экономической и политической истории Руси. – М., 1960.

74. Чистозвонов А.Н. Становление государственного строя Республики Соединенных провинций. Средние века. М., 1987, Вып.50.

75. Шушарин В.П. Крестьянское восстание в Трансильвании. (1437-1438 гг.) М., 1963.

**Internet materiallari:**

<http://www.go'lichki.com>

<http://www.history.kemsu.ru>

<http://www.chingiz.net>

<http://www.cityref.ru>

<http://www.world.history.ru>

<http://www.vostlit.info> (O'rta asrlar tarixi manbalarining elektron variantlari).

<http://www.thietmar.narod.ru> (O'rta asrlarning harbiy-siyosiy tarixi).

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1-mavzu: O'рта asrlar tarixi kursining predmeti, manbalari va uni o'rganishning ahamiyati .....	4
2-mavzu: O'рта asrlar tarixi tarixshunosligi .....	9
3-mavzu: IV-V asrlarda Rim imperiyasi.	
Quldorlik tuzumining inqirozi .....	34
4-mavzu: Rim imperiyasi hududida vujudga kelgan varvar qirolliklari. Rim imperiyasining varvarlar tovonidan istilo qilinishi .....	40
5-mavzu: Frank davlatida feodal munosabatlarning rivojlanishi. Frank qirolligining tashkil topishi .....	49
6-mavzu: Sarqiy Rim – Vizantiya imperiyasi .....	58
7-mavzu: VII-IX asrlarda slavyan davlatlarining vujudga kelishi	70
8-mavzu: O'рта asrlarda Hindiston .....	80
9-mavzu: O'рта asrlarda Xitoy .....	91
10-mavzu: Yevropada feodal munosabatlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti .....	104
11-mavzu: VI-XI asrlarda arablar .....	118
12-mavzu: Yaponiyada feodal munosabatlarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti .....	125
13-mavzu: O'рта asrlarda Koreya .....	135
14-mavzu: IX-XI asr o'rtalarigacha Angliya .....	148
15-mavzu: X-XI asrlarda Germaniya va Italiya .....	154
16-mavzu: O'рта asrlarda Ispaniya. Pireney Yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi. Rekonkiska harakati .....	162
17-mavzu: Yevropada Xristian cherkovining qudrati. Salib yurishlari	185
18-mavzu: XI-XV asrlarda Angliya .....	190
19-mavzu: XI-XV asrlarda Fransiya .....	201
20-mavzu: XII-XIII asrlarda Germaniya, Italiya va Papalik. Shtaufenlar imperiyasi .....	215
21-mavzu: XII-XV asrlarda Rus davlati .....	222
22-mavzu: XIII asrda Mo'g'ul davlati va uning istilolari .....	231
23-mavzu: Yevropada Katolik cherkovini isloh qilish harakatlarning boshlanishi. Germaniyada reformatsiya va dehqonlar urushi .....	237
24-mavzu: XI-XV asrlarda Vengriya .....	247
25-mavzu: XII-XVII asrlarda Turkiya .....	257
26-mavzu: O'рта asrlarda Polsha .....	264

27-mavzu: Uyg'onish (Renessans) davri .....	277
28-mavzu: Shvetsiya XVI-XVII asrlarda .....	283
29-mavzu: XVI-XVII Aasrlarda Italiya .....	290
30-mavzu: buyuk geografik kashfiyotlar .....	298
31-mavzu: 1618-1648 yillardagi O'ttiz yillik urush .....	302
32-mavzu: O'rta asrlarda Amerika .....	310
33-mavzu: O'rta asrlarda Afrika .....	315
O'rta asrlar tarixi faniga oid izohli lug'at .....	319
Foydalanilgan adabiyotlar .....	353

B. MIKROMLOV, E. AGCHAYEV, O. MAHROV

## O'RTA ASRLAR TARIXI

O'quv qo'llanma

Matn muharriri: O'qituvchi  
 Badiiy muharriri: Adabiyotshunos  
 Mas'ul muharriri: Kompyuter muharriri  
 Tashkilotchi: O'qituvchi

«MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI»  
 Noshiriyot uyi: 101 2010

Mahall: Toshkent sh. O'zbekiston ko'chasi, 10-uy  
 Tel: (+9980) 900-75-77 (+9980) 195-04-62  
 e-mail: mashhur-press@mail.ru

Ilmga 2016-yil 20-avgustda tuzatib berildi  
 Boshqa 2016-yil "Times New Roman" formatida  
 22. Adabi 300 nusxa

«MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI»  
 Toshkent 100003 Navoiy ko'chasi 10-uy